O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“PUL VA BANKLAR”

fanidan

2017/2018 o‘quv yili

uchun mo‘ljallangan

MA’RUZALAR MATNI

Ma’ruzachilar: Yadgarova M.

Ahmedova D.

Amaliy mashg’ulot oqituvchisi: Eshmurodov S.

Toshkent-2017

1-Mavzu. “Pul va banklar” faniga kirish

REJA:
1.1. Pul va banklar fanining maqsadi, predmeti va vazifalari.
1.2. Iqtisodiyotda pul, kredit va banklarning o’zviy bog’liqligi.
1.3. Moliya bozorlari faoliyati mazmuni.

1.1. Pul va banklar fanining maqsadi, predmeti va vazifalari.

Bozor munosabatlarining yuqori sur’atlarda rivojlanib borishi har bir sub’ektning pul, banklar, kredit va moliyaviy bozorlarning dastagi bo’lgan moliyaviy instrumentlar hamda ularda yuzaga keladigan o’zgarishlarga munosabati va qiziqishlarini kuchaytirib boradi. Chunki, bozor mexanizmi iqtisodiyot talablaridan kelib chiqib tez o’zgarib, yangilanib turadi va shular asosida u mamlakat iqtisodiyotining har tomonlama rivojlanib borishi yo’nalishlarini belgilab beruvchi doimiy harakatda bo’lgan dastak hisoblanadi. Bizni doimo pulning to’lov yoki sotib olish qobiliyati yildan yilga oshadimi yoki pasayadimi? Ehtiyojimizdan ortiq pulimizni bankga omonotga qo’ysak u bizga har oyda yoki yilda necha foiz daromad beradi, mabodo ularni qimmatli qog’ozlarga qo’ysak – qaysi turdagi va qaysi emitentning qimmatli qog’ozlari bizga yuqori daromad berishi mumkin?

Bank kreditlarining foizi qancha, inflyatsiya yoki pulning qadrsizlanish darajasi qanaqa, milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan kursi qanaqa va uning tez orada o’zgarishi bo’yicha qanday prognozlar mavjud kabi savollar qiziqtiradi hamda biz o’z – o’zidan bozor munosabatlarining faol ishtirokchilariga aylanamiz. Bu masalalar bozor munosabatlarining sub’ekti bo’lgan yuridik shaxslar faoliyatida har kuni echimini talab qiladigan vazifalardan hisoblanadi.Jahon iqtisodiy fanida o’z asarlari bilan mashg’ur bo’lgan iqtisodchi – olim Frederik S. Mishkin “Pul, bank ishi va moliyaviy bozorlarning iqtisodiy nazariyasi” kitobida shunday misol keltiradi[1].

Faraz qiling siz hozirgi yangiliklarda Federal zaxira tizimi (AQSh markaziy banki) qisqa muddatli kreditlar bo’yicha foizlarni 0,5 punktga oshirganidan xabardor bo’ldingiz. Bunday xolat siz olgan avtokredit bo’yicha to’layotgan summangizga qanday ta’sir ko’rsatadi? Ko’chmas mulkning narxi ortadimi? Keyingi yilda yangi ish topish imkoniyati ortadimi yoki kamayadimi? degan savollarni qo’yadi va aynan “Pul va banklar” fani shu kabi savollarga javob topishga imkon berishini ta’kidlaydi, chunki bu fan moliyaviy bozorning roli va funktsiyalarini o’rganishga, moliyaviy muassasalar (banklar, sug’urta tashkilotlari o’zaro fondlar va boshqa muassasalar), hamda pullarning iqtisodiyotdagi rolini o’rganishga imkon beradi. Moliyaviy bozorlar va institutlar nafaqat aholining kundalik hayotiga ta’sir ko’rsatadi balki bizning iqtisodiyotimizga trillionlab dollar

[1]Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited pp. 2013. pp. 44-56

qiymatga ega fondlarni jalb qiladi. Bu holat o’z navbatida korxonalarning daromadi, mamlakatda tovarlar va xizmatlarning ishlab chiqarilishiga, hattoki AQShdan tashqari boshqa davlatlarning farovonligiga ham ta’sir ko’rsatadi.

D.Yum A.Smitning pul xususidagi qarashlariga e’tiroz bildirib, “Pul bu – savdo – sotiqning g’ildiragi emas, balki u yog’, shu savdo – sotiq g’ildiragini erkin va yumshoq yurishiga imkoniyat yaratadigan vositadir” degan fikrni bildiradi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar ham pulning iqtisodiy mohiyatiga alohida e’tibor qaratishgan. Jumladan, iqtisod fanlari doktori, professor B.I.Sokolov pulning mohiyatiga “pul mehnat taqsimoti chuqurlashib borayotgan ushbu jamiyatda tovarlarni ayirboshlash va to’lovlarni amalga oshirish ishlarini engillashtiradi” deya ta’kidlaydi

Pulning vujudga kelishi kishilik jamiyati tsivilizatsiyasining buyuk kashfiyotlaridan hisoblanadi. ”Pul” deb nomlangan maxsus tovarning paydo bo’lishi natijasida odamlar o’rtasida ayirboshlash bilan bog’liq ziddiyatlar va «ehtiyojlarning bir – biriga mos kelmasligi» kabi muammolar barham topdi.

Pulning vujudga kelishi, uning evolyutsion rivojlanishi, nazariyasi, mohiyati va funktsiyalari haqida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, nazariyachilar, mutaxassislar juda ko’p ilmiy asarlar, maqolalar va tadqiqot ishlari yaratgan. Hozirgi kunda ham ushbu jarayon davom etmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishi va uning hozirgi kundagi ko’rinishi haqida yagona yondashuv mavjud emas.

Pulning vujudga kelish sababini bilish uchun qadimda odamlar o’rtasida ro’y bergan ayirboshlash munosabatlarini amalga oshirish jarayoniga e’tibor qaratish lozim. Chunki, aynan mana shu tabiiy ayirboshlash jarayoni hozirgi kunda siz bilan biz kundalik hayotda va hisob – kitoblarda foydalanib kelayotgan pulning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Xususan, pulning vujudga kelishiga quyidagi omillar asos bo’lib xizmat qiladi:

* qadimgi davrda odamlar o’z ehtiyojidan ortib qolgan iste’mol mahsulotlari turib qolmasligi va saqlashning imkoniyati bo’lmaganligi bois ularni o’zlariga yaqin yoki tanish odamlarga bergan, bu o’z – o’zidan odamlar o’rtasida stixiyali ravishda bir tomonlama ayirboshlash munosabatlari vujudga kelishiga sabab bo’lgan;

* keyinchalik odamlarning ongi, dunyoqarashi va hayot kechirish tarzi rivojlanganligi natijasida, ikki tomonloma ayirboshlash munosabatlari vujudga kela boshladi. Bu davrda, kishilarda o’ziga zarur bo’lmagan buyumning o’rniga nimadir olish evaziga, ikkinchi kishiga berishi lozimligini anglay boshladilar.

Monetar siyosat va pullarni nima sababdan o’rganamiz?

Pul yoki pul massasi- tovar va xizmatlarga cheklovlarsiz ayirbosh qilinadigan, qarz majburiyatlarini qoplashda qo’llaniladigan umumiy qabul qilingan to’lov vositasi. Pul massasining hajmi ko’pchilik iqtisodiy ko’rsatkichlar bilan bog’liq hamda har birimizning va umumiy iqtisodiyotning farovonligida aks etadi. Fanning ikkita yakunlovchi qismi iqtisodiyotda pullarning rolini o’rganishga bag’ishlangan.

Pul va iqtisodiy sikllar

1981-1982 yillarda AQShda jami tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi keskin kamaydi, ishsizlik hamji esa (mavjud bo’lgan ishchi kuchiga ishsizlar

sonining nisbati foizda) 10 % gacha o'sdi. 1982 yilda iqtisodiyotda tez o'sish boshlandi va 1989 yilga kelib ishsizlik hajmi 5%gacha kamaydi. 1990 yilda sakkiz yillik iqtisodiy o'sish davri tugadi va ishsizlik soni yana 7% gacha o'sdi. 1991 yilda AQSh tarixida eng uzun bo'lgan jonlanish davri bo'lib, ishsizlik ko'rsatkichi 4% gacha pasaydi. 2001 yilning martida iqtisodiyotda faollikning pasayish davri boshlandi va ishsizlikning hajmi 6%gacha ko'tarildi. Ishsizlik darajasi 4,4% gacha pasayish orqali iqtisodiyot 2001 yil noyabr oyidan boshlab tiklanishni boshladi. 2007 yil dekabr oyidan boshlab iqtisodiyot retsessiya holatiga tushdi va 2009 yil iyun oyida iqtisodiyot sekinlik bilan tiklanishdan oldin ishsizlik darajasi 10%dan oshib ketdi.

Nima sababdan AQSh iqtisodiyoti shunday keskin o'zgarishlarni boshdan kechirdi? Faktlar shundan dalolat beradiki, iqtisodiyotda tovar va xizmatlar hajmining kamayishi yoki ortishi orqali pullar iqtisodiy tsikllarini shakllantirishda asosiy rolni o'ynaydi. Iqtisodiy tsikllar har birimizning farovonligimizga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ishlab chiqarish oshsa, ish topish oson bo'ladi, aksincha, ishlab chiqarish pasaysa, ish topish qiyinlashishi mumkin. 3-rasmdagi grafik 1950 yildan 2011 yillar oralig'ida pul massasining o'sishi dinamikasi ko'rsatilgan. Shtrixlangan ma'lumotlar tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmini tushishiga to'g'ri kelib, retsessiya holatini ko'rsatadi. Ko'rishimiz mumkinki, pul massasining o'sishi iqtisodiy tsikllarni xarakatga keltiruvchi kuch ekanligi retsessiya sodir bo'lishidan oldin pul massasi kamayganligida ko'ringandir. Lekin xar bir pul massasining pasayish davri iqtisodiy tushish davri bilan mos kelmagan. Ushbu fanda pul va monetar siyosat qanday qilib iqtisodiyotga ta'sir qilishi mumkinligini tadqiq qilamiz, shuningdek, pul miqdori va monetar siyosatdagi o'zgarishlar yalpi iqtisodiy faoliyat va inflyatsiyaga bog'liqligini ko'rsatuvchi monetar nazariyani o'rganamiz.

Pul va inflyatsiya. Pul va inflyatsiyaning mohiyatini tushunish uchun Frederik S. Mishkin "Pul, bank ishi va moliyaviy bozorlarning iqtisodiy nazariyasi" kitobida shunday misol keltiradi, ya'ni, o'ttiz yil oldin siz kechagina o'n dollar to'lagan, kino chiptangiz bir yoki ikki dollardan ortiq turmas edi. O'n dollar esa kinoga chipta olish bilan birga, yana nafaqat popkorn xarid qilishga balki, tushlik qilishga ham etar edi.

Iqtisodiyotda tovar va xizmatlarning o'rtacha narxi, sodda qilib aytganda, narxlarning umumiy darajasi deyiladi. 1950 yildan 2011 yilga qadar AQSh iqtisodiyotidagi narxlar darajasi qariyib olti barobar o'sgan. Inflyatsiya narxlar umumiy darajasining tinimsiz o'sishi bo'lib, har bir xaridorga, ishlab chiqaruvchiga va xukumatga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy strategiyani ishlab chiquvchilar va iqtisodchilar inflyatsiyani jilovlashga xarakat qiladilar, shuning uchun ushbu maqsadga erishish yo'lida narxlar darajasini tebranishini aniqlovchi omillarini bilish zarur.

Inflyatsiyani nima bilan tushuntirish mumkin? Ushbu savolga mumkin bo'lgan javoblardan birini 4-rasmdagi grafikda (BU YO'Q) aks ettirilgan pul massasi va narxlar darajasining sinxron o'sishida ko'rishimiz mumkin. Inflyatsiya deb nomlanuvchi iqtisodiyotda narxlar darajasining doimiy o'sishida o'zini namoyon qiluvchi asosiy omil - pul massasining doimiy o'sishini ko'rsatadi.

Inflyatsiya bilan pul massasining yaqindan aloqasining keyingi isboti 5-rasmda ifodalangan garfik hisoblanadi. Bir nechta mamlakatlarda, o'rtacha inflyatsiya darajasi (odatda har bir yilda foizli o'zgarishda o'lchanadigan narxlar darajasining o'zgarish surati) ni aks ettirib, har bir nuqtani koordinatlari aniq bir mamlakatni aks ettirib, 2000-2010 yillar oralig'ida pul massasining o'rtacha o'sishi va ushbu davrda inflyatsiyaning o'rtacha sura'tini ifodalaydi. Ko'rganingizdek, keltirilgan ma'lumotlar inflyatsiya bilan pul massasining o'sishi o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlikning mavjudligini ifodalaydi. Inflyatsiya darajasi eng katta bo'lgan mamlakatlarda o'z navbatida pul massasining o'sish darajasi ham yuqoridir. Misol uchun, Turkiya, Ukraina va Zambiya kabi davlatlar ushbu davrda inflyatsiya darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ushbu davlatlarda pul massasining o'sishi ham yuqoriligi kuzatilgan. Aksincha, Shvetsiya va AQShda ushbu davrda inflyatsiyaning sura'ti juda past bo'lgan (pul massasining o'sishi singari). Ushbu faktlar Nobel mukofoti sovrindari Milton Fridmenning taniqli xulosasiga asos bo'lgan: " Inflyatsiya- bu hamisha va har erda monetar hodisadir". Aynan shu mavzularda pul massasi miqdori va monetar siyosatning inflyatsiya sura'tlariga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Pul va foiz stavkalari

Boshqa omillar bilan bir qatorda, pullar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning doimiy diqqat e'tiborida bo'lgan foiz stavkalarining tebranishiga ham ta'sir ko'rsatadi. 6-rasmdagi grafikda AQShning uzoq muddatli g'aznachilik obligatsiyalari bo'yicha foiz stavkasi bilan pul massasidagi o'sish tenglashtirilganligi ko'rsatilgan. 1960 va 1970 yillarda uzoq muddatli obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasi pul massasi bilan birgalikda o'sib bordi. Lekin 1980 yildan boshlab foiz stavkasining o'sishi bilan pul massasining o'sishi o'rtasida o'zaro aloqadorlik yo'qola bordi. Biz foizlarga oid mavzularda foiz stavkalarning xarakterini tadqiq qilganimizda pul va foiz stavkalar o'rtasidagi bog'liqlikni ham tahlil qilamiz.

Monetar siyosatni amalga oshirish

Pullar mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlovchi ko'pgina iqtisodiy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatganligi sababli, monetar siyosat ya'ni, pullar va foiz stavkalarini boshqarish – butun dunyoda iqtisodiy strategiyani ishlab chiquvchilar va siyosatchilarning diqqat e'tiboridagi ob'ektlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda monetar siyosatni amalga oshirishga Markaziy bank javobgar (AQShda bu Federal Zaxira Tizimi (FZT)) hisoblanadi. Shu bois, mazkur fanda AQSh va boshqa davlatlarda amalga oshirilayotgan monetar siyosatning o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiyotda pullarning miqdorini boshqarishda Markaziy banklarning rolini tahlil qilishga ham ba'zi mavzular bag'ishlangan.

Monetar va fiskal siyosatning bog'liqligi. Fiskal siyosat soliqqa tortish va davlat xarajatlariga doir masalalarni hal etishni o'z ichiga oladi. Byudjet defitsiti-bir yil ichida davlat xarajatlarining uning daromadlaridan ortishini. Byudjetning ijobiy saldosi (profitsit)-byudjet daromadlarining xarajatlardan ortishini bildiradi. Byudjet defitsitini moliyalashtirish maqsadida xukumat qarz olishiga to'g'ri keladi; ijobiy saldo esa davlat qarzlarini kamaytirishga imkon beradi. 7-rasmdagi grafikdan ko'rinib turibdiki, 1983 yilda AQShda YaIMga nisbatan byudjet defitsiti

o’zining maksimal miqdoriga (6%) etdi. Bundan keyin byudjet defitsiti dastlab YaIMga nisbatan 3%gacha kamaydi, so’ngra 1989 yilda 5%gacha ortdi, bundan keyingi yillarda esa kamayib bordi va 1999-2001 yillarga kelib ijobiy saldoga o’zgardi. 11 sentyabr 2001 yildagi terroristik hujum, 2003 yil martda Iroqdagi urush hamda 2007-2009 yillardagi moliyaviy inqiroz AQSh davlat byudjetida defitsit yuzaga keltirdi va defitsit YaIMga nisbatan 10%dan oshib ketdi. Byudjetning defitsiti yoki profitsitiga tegishli bo’lgan masalalar xukumatning qonunchilik va ijroiya organlari o’rtasidagi doimiy munozaralar mavzusi bo’lib kelmoqda.

Televidenie yoki gazetalarda byudjetning ijobiy saldosi – yaxshi, salbiy saldosi – zaralar ekanligi to’g’risida eshitgan bo’lishingiz mumkin. Ushbu fikrlar qanchalik haqiqatga yaqinligini biz 2001 yilda Argentinada yuzaga kelgan byudjet taqchilligi moliyaviy inqirozning sababi sifatida to’hrisida ham ko’rib chiqilgan. Shuningdek, biz byudjet taqchilligining pul massasi o’sishiga, inflyatsiya sur’atlari va foiz stavkalariga ta’sirini ham taxliliy jihatdan o’rganamiz.

Xalqaro moliyani nima sababdan o’rganamiz?

So’nggi yillarda moliyaviy bozorlarning globallashuvi yanada tezlashib ketdi. Dunyo bo’ylab moliyaviy bozorlar juda yuqori suratlarda integrattsiyalashdi. Amerika kompaniyalari tez-tez xorijiy moliyaviy bozorlardan qarz olishadi va xorijiy kompaniyalar AQSh moliya bozorlariga qarz berishadi. Banklar va boshqa moliyaviy institutlar, jumladan, JP Morgan Chase, Citigroup, UBS, Doychebank jahon bo’ylab ko’plab mamlakatlarda operatsiyalarni amalga oshirish orqali xalqaro darajaga chiqdi. Ushbu fan xorijiy valyuta bozorlari va xalqaro moliyaviy tizimni ham o’zida aks ettiradi.

Banklarning mohiyatiga iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. “Bank” etimologiyasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, “bank” so’zi qadimgi frantsuzcha “banque” va italiyancha “bansa” so’zlaridan paydo bo’lib, “almashtirish stoli” ma’nosini anglatishining guvohi bo’lamiz.

Bank – bu moliyaviy muassasa bo’lib, jamiyatdagi vaqtinchalik bo’sh pul mablag’larini tegishli shartlar bilan jalb etib, ushbu mablag’larga ehtiyoji mavjud bo’lgan yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarishlik, muddatlilik, to’lovlilik va ta’minlanganlik asosida beradigan tijorat tashkilotdir.

Boshqa bir adabiyotda, bank – tadbirkorlik faoliyatining o’ziga xos turi bo’lib, uning faoliyati ssuda kapitalining harakati, ya’ni ularni jalb qilish va joylashtirilishi bilan bevosita bog’liqdir, degan fikr ilgari suriladi.

Bankir ssuda kapitalistidan farqli o’laroq, turli ko’rinishdagi xizmatlarni taklif etadi va pul aylanmasini tashkil qiladi. Ssuda kapitalisti ishlab chiqarishni o’z kapitali hisobidan moliyalashtirsa, bankir ushbu jarayonni chetdan jalb qilingan begona shaxslarning mablag’lari hisobidan amalga oshiradi.

Tijorat banklari mohyatini teranroq anglash uchun ayrim metodologik masalalarga e’tibor qaratish lozim. Ularning ayrimlari quyida keltiriladi:

– banklarning mohiyatini yoritishda ularning mikrodarajadagi faoliyatiga e’tibor qaratish lozim;

– banklarning mohiyatini yoritishda ular qanday shaklda va maqsadda tashkil etilganligiga emas, balki ularga yagona bank sifatida faoliyat yuritishiga e’tibor qilish lozim;

– banklarning mohiyatini ajralmas qismi sifatida ularning tashkil topish asoslari, ya’ni tashkiliy – huquqiy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi;

– banklarning mohiyati – bu o’ziga xos xususiyatga ega bo’lgan ob’ektning tarkibini anglatadi;

– banklarning mohiyatiga qator ta’riflar shakllantirilgan bo’lib, muammoni o’rganayotgan paytda uning qanday jihatiga e’tibor qaratilayotganligi muhim hisoblanadi.

1.2. Iqtisodiyotda pul, kredit va banklarning o’zviy bog’liqligi.

Jamiyatda mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish jarayonining mavjudligi iqtisodiy hayotda pulning roli doimo oshib boraveradi. Birgina mehnat taqsimotiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, kompaniya yoki firma biror narsani ishlab chiqarish yoki xizmat turini ko’rsatish uchun zarur xom – ashyo va materiallarni olish maqsadida bir necha xo’jalik yurituvchi sub’ektlar bilan iqtisodiy aloqalarni o’rnatadi, ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko’rsatish jarayonida ishtirok etayotgan xodimlarning mehnati uchun haq to’laydi va boshqa qator ishlarni amalga oshiradi. Bularning barchasi tomonlar o’rtasidagi o’zaro iqtisodiy hamkorlik va manfaatdorlik asosida amalga oshiriladi. Mana shu iqtisodiy hamkorlik va manfaatdorlikni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi sifatida pulning roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillarida biri har qanday faoliyatning asosida iqtisodiy manfaatdorlik yotadi. Ishlab chiqaruvchi korxona, tashkilot yoki firma yaratayotgan tovar yoki xizmatlarni shaxsiy iste’moli uchun emas, balki bozorda sotish orqali tegishli iqtisodiy foyda ko’rish ilinjida ishlab chiqaradi. Bu ishlab chiqaruvchi va iste’molchilar o’rtasida tovar – pul munosabatlarini vujudga keltiradi, ushbu munosabatda pul ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o’ratasida ayirboshlash vositasi sifatida muhim rol o’ynaydi.

Bu erda ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o’rtasida ayirboshlanadigan tovar yoki mahsulotning bahosi muhim rol o’ynaydi. Ularning bahosi bozordagi talab va taklif asosida pulda ifodalanadi. Pulning rolini amal qilishida baho muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi, tovar va xizmatlar bahosiga qator omillar ta’sir qiladi. Xususan, tovar va xizmatlarning sifati, unga bo’lgan talab darajasi, sotib oluvchining to’lov qobiliyati va boshqa qator omillar shular jumlasidandir.

Haqiqatda ham yuqorida qayd etilgan jarayonlarni tashkil etishda pulning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, pulning tovar xo’jaligi sharoitida amal qilishining samaradorligini oshishiga qator omillar ta’sir qiladi. Xususan ular quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligi. Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va raqobatbardoshligi aholining iste’mol tovarlar va xizmatlarga bo’lgan talabini mahalliy ishlab chiqarish hisobidan qondirish imkoniyatini beradi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida juda muhim hisoblanadi. Birinchidan, import hajmini qisqartirish asosida xorijiy valyutalarni chetga chiqib

ketishining oldini oladi. Ikkinchidan, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan barqarorligini oshiradi.

2. Markaziy bankning mustaqilligini ta'minlanganligi. Ma'lumki, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan, ushbu maqsadni samarali amalga oshirish uchun Markaziy bank hukumat va davlat boshqaruv organlari bosimidan holi bo'lishi lozim. Aks holda milliy valyutaning barqarorligi zaiflashadi va uning xalq xo'jaligidagi roli pasayadi.

3. Aholi va mijozlarning bank tizimiga ishonchining mustahkamligi. Mamlakat aholisi va mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchining yuqoriligi pulning roliga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi. Chunki aholi va mijozlarning banklarga nisbatan ishonchining yuqoriligi ularning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini banklarga muddatli omonat sifatida qo'yishga undaydi. Bu esa pulning jamg'arma vositasi va to'lov vositasi rolini oshiradi, shu bilan birga, birinchidan, pul egalariga qo'shimcha daromad keltiradi, ikkinchidan, banklarning real sektorni kreditlash imkoniyatlarini oshiradi. Bularning barchasi tovar xo'jaligi sharoitida pulning rolini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Inflyatsiya darajasining tegishli me'yorlarda saqlab turilishi. Milliy valyutaning inflyatsiya darajasi xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yorlardan ortib ketishi uning iqtisodiyotdagi roliga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan sharoitda aholining real daromadlari pasayadi, kredit muassasalarida uzoq muddatli omonatlar hajmi qisqaradi, korxona va tashkilotlar ishlab chiqarish hisobidan emas, balki o'zaro olib sotish yo'li bilan daromad izlash payiga tushib qoladi. Natijada aholining iste'mol tovarlarga bo'lgan talabi mahalliy ishlab chiqarish hisobidan emas, balki import hisobidan qondiriladi. Bularning barchasi milliy valyutaning iqtisodiyotdagi rolini pasayishiga olib keladi.

Jamiyatda tovar – pul munosabatlaridan keyingi vujudga kelgan muhim ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlardan biri kredit munosabatlari hisoblanadi. Kredit, pul kabi iqtisodiy kategoriya bo'lib, pul mablag'larining samarali ishlashiga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslarning ortiqcha vaqt va mablag' sarf qilmasdan qo'shimcha pul mablag'lariga bo'lgan talabini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit munosabatlari iqtisodiy fanlarning barcha bo'g'inlarida bevosita yoki bilvosita alohida ijtimoiy – iqtisodiy jarayon sifatida o'rganiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "kredit" so'zi lotincha "creditum" – ssuda, qarz so'zidan paydo bo'lganligi qayd etiladi. Ayrim iqtisodchi olimlar "credo", ya'ni "ishonaman" degan ma'noni anglatishini qayd etadi2. Albatta, kredit munosabatlarida ishtirok etayotgan sub'ektlarning bir – biriga bo'lgan ishonchi asosiy omil hisoblanadi. Bu erda kreditor, kreditni berishda asosiy masala kredit oluvchiga nisbatan "ishonchi" muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi uchun birgina ishonchning o'zi etarli bo'lmaydi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishida ishonch bilan birgalikda shunday bir kategoriya mavjudki, bu kreditor va

---

Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С.410.

kredit oluvchi o’rtasida o’zaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishga undaydi. Buni kreditor va qarz oluvchi nuqtai nazardan ko’radigan bo’lsak, kreditorni ushbu munosabatlarni rivojlantirishiga asosiy omil bu iqtisodiy manfaatdorlik, ya’ni kredit foizi hisoblanadi. Qarz oluvchi uchun esa ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta’minlash orqali tegishli iqtisodiy manfaatdorlikka erishishdir.

Bundan ko’rinib turibdiki, kredit va kredit munosabatlarini vujudga kelishi va rivojlanishida har ikkala tomonning ham iqtisodiy manfaatdorligi kuchli moliyaviy mexanizm hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatdorligini ta’minlanishi. Xususan, kreditor kredit hisobidan foiz to’lovlari sifatida foyda olsa, qarz oluvchi ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlash orqali tegishli foydani shakllantirish imkoniyatiga ega bo’ladi;
- iqtisodiyotda vaqtinchalik bo’sh pul mablag’lar ssuda kapitali sifatida jamg’arilib, tegishli maqsadlarga yo’naltiriladi;
- iqtisodiyotda ishlab chiqarish tsiklining davriyligi. Bunda ayrim tarmoqlarda vaqtinchalik bo’sh pul mablag’lari vujudga kelsa, boshqalarida qo’shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj tug’iladi, ushbu jarayon kredit orqali tartibga solinadi;
- ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida qo’shimcha moliyaviy resurslarga bo’lgan ehtiyojning asosiy qismi kreditlar orqali qondiriladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda kredit muhim moliyaviy element sifatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlashining asosida tovar ishlab chiqarish, yanayam aniqroq qilib aytadigan bo’lsak – kapital muomalasi va aylanishi yotadi. Jamiyatda kapital muomalasi va aylanishi doimo ham bir maromda amal qilmaydi, bular yuqorida ta’kidlanganidek qator omillar bilan izohlanadi.

Kreditning mohiyatiga qator iqtisodchi olimlar tegishli ta’riflarni shakllantirgan. Xususan, Shchegortsova V.A. tahriri ostida tayyorlangan darslikda, “Kredit – qaytarish va to’lov sharti bilan qarzdorga vaqtinchalik foydalanish maqsadida pul mablag’i yoki moddiy buyum ko’rinishida berish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir” tarzidagi ta’rifi shakllantirilgan.

Professor O.I.Lavrushin tahriri ostida nashr etilgan darslikda kreditning mohiyatiga aniq ta’rif berilmagan. Biroq, ularning fikricha, kredit ijtimoiy munosabatlarning bir ko’rinishi bo’lib, iqtisodiy kategoriyadir. Shu bilan birga, kredit turlicha ijtimoiy munosabatlarda emas, balki iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi qiymatning harakati jarayonida namoyon bo’ladi. Darslikda, kreditning mohiyatini aniq aks ettirish uchun uning tarkibi, harakat qilish jarayoni va vujudga kelish asosiga e’tibor qaratish lozimligi ta’kidlanadi3.

[3] Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лавшурина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –С. 237 – 238.

Boshqa rossiyalik iqtisodchi olimlar “Pulli (tovarli) kredit to’lov asosida amalga oshiriladigan bir toifadagi ekvivalentning turli vaqtdagi o’zaro harakatining yig’indisir.”, degan ta’rifni berishgan 4.

Kreditning iqtisodiy mohiyatiga berilgan ta’riflardan ko’rinib turibdiki, bu borada iqtisodchi olimlarning fikrlari bir – biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bois, “Kredit – tegishli tamoyillar asosida (qaytarishlik, to’lovlilik, ta’minlanganlik, muddatlilik va maqsadlilik) qiymat va moddiy buyum ko’rinishida, jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etiladigan iqtisodiy kategoriyalarning bir shaklidir” tarzidagi ta’rifni shakllantirishga jazm etdik.

Kreditning mohiyatini yanada aniqroq va to’liqroq ochib berishda uning sub’ektiv va ob’ektiv mohiyatiga e’tibor qaratish lozim. Kredit munosabatlarining vujudga kelishida, shuningdek, uning mohiyatini ochib berishda kreditning sub’ektiv mohiyati ham alohida o’rin tutadi. Kreditning sub’ektiv mohiyati bir – biriga bog’liq bo’lgan “kreditor” va “kredit oluvchi”ning munosabatlarida namoyon bo’ladi.

- “Kreditor” va “kredit oluvchi” o’rtasida vujudga keladigan munosabatlarning asosida tovar – pul aylanmasi yotadi. Jamiyatda vaqtinchalik bo’sh mablag’larning mavjudligi va tovar aylanmasining mavjudligi kredit va qarz oluvchining manfaatlarini bir – biriga to’qnashishiga xizmat qiladi. Agar, ushbu manfaatlar bir – biriga mos kelsa ular o’rtasida kredit munosabatlari vujudga keladi.

- Kreditor – kredit munosabatlarini tashkil etishda kredit beruvchi sifatida maydonga chiqadi. Kreditor pul mablag’larini vaqtinchalik foydalanishga beruvchi sub’ektlar hisoblanadi. Bunday sub’ektlar banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlar, lombardlar, davlat va boshqa moliyaviy tashkilotlar bo’lishi mumkin. Kreditor ssuda sifatida beradigan pul mablag’lari ularning o’z mablag’lari va jalb qilingan mablag’lari hisobidan shakllantiriladi. Kreditor sub’ektlar ichida, banklar va kredit uyushmalari nafaqat o’z mablag’lari hisobidan, balki chetdan jalb qilingan mablag’lar hisobidan kreditlar beradi. Mablag’larni jalb qilishning turli yo’llari mavjud bo’lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida aktsiyalar va obligatsiyalarni muomalaga chiqarish asosiy va samarali yo’llaridan biri hisoblanadi.

- Kreditor jamiyatdagi vaqtinchalik bo’sh pul mablag’larni tegishli shartlar asosida jalb qilib, ushbu mablag’larni kreditning qayta taqsimlash funktsiyasi orqali real sektorning zarur bo’lgan bo’g’inlariga joylashtiradi. Bu jarayon iqtisodiyotdagi vaqtinchalik bo’sh pul mablag’larini samarali ishlashini, ya’ni kapital aylanmasini to’xtovsizligini ta’minlash bilan birga, kreditor jamlangan mablag’larni zarur maqsadlarga joylashtirish asosida ushbu mablag’larni o’z maqsadi va kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlari yo’lida xizmat qilishiga erishadi.

- Kredit oluvchi – kredit munosabatlarida kredit oluvchi sifatida ishtirok etadi. Kredit oluvchi sub’ektlar sifatida xo’jalik yurituvchi sub’ektlar, aholi, davlat, banklar va boshqa shaxslar maydonga chiqadi. Iqtisodiy adabiyotlarda kredit

[4] Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С.428.

oluvchini qarzdor sifatida talqin etish holatlari uchraydi, shuningdek, kredit va qarzning bir – biridan iqtisodiy jihatdan farqlanishi xususida ham tortishuvlar ko'zga tashlanadi. Albatta, "kredit" va "qarz" o'rtasida o'zaro bog'liklik bo'lishi mumkin, lekin iqtisodiy mohiyatan bu ikki tushuncha o'rtasida bir – biridan jiddiy farq qiladigan jihatlari mavjud. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida tegishli ijtimoiy – iqtisodiy qonunlar va tamoyillar asosida amal qiladi. Kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi har ikkala tomonning iqtisodiy manfaatlari mavjud bo'lib, ushbu manfaatlar o'zaro mujassamlashganda kredit munosabatlari ro'y beradi.

Banklar va boshqa moliyaviy muassasalar

O'zbekiston Respublikasining 25 aprel 1996 yilda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga asosan Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir: yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;to'lovlarni amalga oshirish.

Xorijiy mamlakatlarda Banklar - o'zida qo'yilmalar (depozitlar)ni jamlaydigan va ssudalar (kreditlar) taqdim etadigan moliyaviy muassasalardir. Bu erda banklar tushunchasiga tijorat banklari, ssuda va jamg'arma assotsiatsiyalari, o'zaro jamg'arma banklari, kredit uyushmalari kiritilgan. Banklar-moliyaviy vositachilar bo'lib, oddiy aholi ular bilan doimo ish olib boradilar. Yashash joyi yoki avtomobil sotib olish uchun kreditni sizga maxalliy bank taqdim etadi. Ko'pchilik amerikaliklar o'z jamg'armalarining aksariyatini joriy va jamg'arma hisob raqamlarida, yoki boshqa ko'rinishdagi bank jamg'armalarida saqlaydilar. Banklar – yirik moliyaviy vositachilar bo'lganligi sababli ularning faoliyati chuqur o'rganilishi kerak. Ammo, AQShda banklardan tashqari yana bir qator moliyaviy muassasalar mavjud. So'nggi yillarda sug'urta va moliyaviy kompaniyalar, pensiya va o'zaro fondlar, investitsion banklarning roli ortib bormoqda. Bu moliyaviy muassasalarning faoliyati ham chuqur o'rganishni talab etadi.

Siz fanni o'rganish davomida daromad olish maqsadida banklar aktivlar va passivlarni qanday qilib boshqarishlarini bilib olasiz. Ba'zi faoliyat turlarini, ko'rsatkichlarni iqtisodiy tahlil qilib, nima sababdan moliyaviy tartibga solish aynan shu ko'rinishni olganligi hamda tartibga solish tizimida qanday xatoliklar sodir bo'lishi mumkinligini ko'ramiz. Shuningdek, bank sanoatini ko'rib chiqamiz, bank sanoatini raqobatbardosh muhit qanchalik darajada o'zgartirganligini tekshiramiz va nima sababdan ba'zi moliyaviy institutlar boshqalarning hisobidan rivojlanayotganligini o'rganamiz.

Banklarning iqtisodiyotda bajaradigan yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu ularning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, aholi va davlat tashkilotlari o'rtasida amalga oshiriladigan hisob – kitoblarni tashkil etishi va ularning ustidan tegishli nazorat ishlarini amalga oshirish hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlari o'rtasida har kuni bir necha yuz minglab pul o'tkazmalari amalga oshiriladi. Bularning barchasi banklar tomonidan amalga oshiriladi va tartibga solib turiladi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolini yuqori yoki pastligiga qator omillar ta'sir qiladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

a) Aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchining mustahkamligi.

Xalqaro bank amaliyoti va mustaqillikdan keyin bosib o'tilgan qisqa davrda yig'ilgan tajribalarning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotining asosiy o'zagi asosan o'zaro ishonch va halollikka tayanadi. Agar mazkur holatni aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchi yo'qolishi bilan bog'lab ko'radigan bo'lsak, banklarga nisbatan ishonch yo'qolishi oqibatida ularning jamiyatdagi rolini pasayishiga olib keladi.

Aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchining zaifligiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

–banklarning mijozlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasa;

–aholi va mijozlarning kreditga, ayniqsa naqd pulga bo'lgan talabi to'liq va o'z vaqtida qondirilmasa;

–mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha mablag'lar qoldig'i va aylanmalari haqida bank siri ta'minlanmasa;

–mijozlarning pul o'tkazmalarini istalgan paytda va zarur miqdorda tegishli manzilga o'tkazilmasa;

–bankda omonatlarni saqlashning iqtisodiy manfaatdorligi pasayib ketishi va boshqalar.

b). Mamlakatda qonun ustuvorligini ta'mmnlash va bozor mexanizmlari samaradorligini oshirish lozim.

Tijorat banklarining xo'jalik sub'ektlariga kreditlarni berishda, mijozlarning naqd pullarga bo'lgan talabini qondirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bularning barchasi banklarning iqtisodiyotdagi rolini yanada oshirish lozimligidan dalolat beradi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolini oshishi yoki pasayishiga nafaqat ularning sayi harakatlari, balki milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi va raqobatbardoshligi bevosita ta'sir qiladi. Chunki, banklar milliy iqtisodiyotdan ajralgan holda, alohida sub'ekt sifatida samarali faoliyat yuritishi mumkin emas.

Banklarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini, ya'ni ularning rolini real sektorni kreditlash munosabatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Mamlakat real sektori ishtirokchilari bank kreditiga nisbatan doimiy ravishda ehtiyoji mavjud bo'lib, ushbu ehtiyoj ayniqsa, iqtisodiy inqiroz sharoitida ortib ketadi. Inqiroz sharoitida iste'mol tovarlarga nisbatan talabning hamda tovar va xizmatlar bahosining pasayishi, davlat buyurtmalari hajmining qisqarishi, debitorlarning to'lovga layoqatsizligi korxonalarda qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan kuchli talabni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Albatta, ushbu talab to'lig'icha banklarning kreditlari hisobidan qondirilishi, birinchidan, maqsadga muvofiq emas. Ikkinchidan, banklarda iqtisodiy inqiroz sharoitida ushbu ehtiyojni qondirish uchun etarli moliyaviy resurslarning taqchilligi paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, eng muhimi banklar tomonidan berilgan kreditlarning to'liq qaytmaslik xavfi, ya'ni kredit riski vujudga keladi. Shu bois, iqtisodiy inqiroz sharoitida banklarning kreditiga talab yuqori bo'lsada, banklar kredit quyilmalari hajmini oshirishga moyillik sezishmaydi. Bu banklarning iqtisodiyotdagi rolini pasayishiga emas, balki banklar ham tijorat muassasa sifatida asosiy e'tiborini iqtisodiy manfaatdorlik olishga qaratishini, eng muhimi banklar risk asosida kredit

sifatida beradigan mablag'lari o'z mablag'lari emas, balki chetdan jalb qilingan boshqa shaxslarning mablag'lari hisobiga faoliyat yuritayotganligini unutmaslik lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, banklarning iqtisodiyotdagi roli nafaqat banklarning o'ziga, balki milliy iqtisodiyotning rivoji va raqobatbardoshligiga bevosita bog'liq. O'z navbatida, iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi mamlakatda barqaror va samarali bank tizimining tashkil etilganligi bilan bevosita bog'liqdir. Bir so'z bilan aytganda, banklar va milliy iqtisodiyot bir – biridan ayri holda rivojlanishining imkoniyati mavjud emas. Ular biri – birini to'ldirgan holda, bir – biriga o'zaro hamoxang tarzda rivojlanib va takomillashib boradigan iqtisodiy – moliyaviy sub'ektlar hisoblanadi.

1.3. Moliya bozorlari faoliyati mazmuni.

M oliyaviy bozorlar, moliya institutlari va pulga doir munosabatlarda chigalliklarning yuzaga kelishi mamlakat iqtisodiyoti uchun katta xavf hisoblanib, uning iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishiga, siyosiy va saylovlar jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Pul, banklar va moliyaviy bozorlarni o'rganish ko'plab mavjud muammolarni tushunishga yordam beradi. Avvolo bu fanda bozor munosabatlarining muhim instrumenti sifatida pulning mohiyati, uning paydo bo'lishi, pulning zarurligi, pul bajaradigan funktsiyalar, bozor munosabatlarini samarali qaror toptirishda pulning roli va ahamiyati kabi masalalarga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ushbu fanda mavjud muammolarni ochib berish va ularni o'rganish qanchalik darajada ahamiyatli ekanligi ham ko'rsatib beriladi.

Nima sababdan biz moliya bozorlarini o'rganamiz?

Mazkur fanda shuningdek, ba'zi bozor sub'ektlari oborotida yuzaga kelgan, ular ehtiyojidan ortiqcha bo'lgan bo'sh moliyaviy resurslarni, ularga extiyoj sezayotgan boshqa bozor sub'ektlariga o'tkazishni amalga oshirayotgan moliyaviy bozorlarga e'tibor qaratiladi va biz moliyaviy bozorlar, ularning funktsiyalari, roli to'g'risida ham ma'lum bilimlarga ega bo'lamiz. Frederik S. Mishkin ham ta'kidlaganidek, qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar va obligatsiyalar) bozori pul oqimlaridan oqilona daromad olish maqsadida ularni tezkorlik bilan foydalanuvchilarga etkazib berishni ta'minlab turadilar. Xaqiqatdan ham, moliya bozorlarining muvaffaqiyatli ishlashi iqtisodiy o'sishning asosiy me'zonlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Moliya bozorlarining samarasiz faoliyat ko'rsatishi jahonning ko'plab mamlakatlarida ularning kambag'allikka yuz tutishiga sabab bo'lmoqda. Moliya bozoridagi hodisalar aholining turmush tarzi, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Obligatsiyalar bozori va foiz stavkalari.

Frederik S. Mishkinning "Pul, bank ishi va moliyaviy bozorlarning iqtisodiy nazariyasi" kitobida u tomondan xalqaro amaliyotda qimmatli qog'ozlar, aktsiya, obligatsiya, foiz, fond bozori kabi tushunchalarning talqini kelitirilib o'tilgan. Masalan, mazkur asarda qimmatli qog'oz (moliyaviy instrument) bu kelajakdagi daromadlarga yoki aktivlarga (har qanday moliyaviy talab yoki egalik qilinadigan mol mulk) talab hisoblanadi. Obligatsiya egasi tomonidan ma'lum bir pul mablag'ini kiritganligi va unda ko'rsatilgan muddatda nominal qiymatini hamda

qo'shimcha foiz to'lab berish majburiyatini guvohlovchi qimmatli qog'ozdir deyiladi. Obligatsiyalar korxonalar va xukumatga o'z faoliyatini moliyalashtirish maqsadida pul mablag'larini jalb etishga imkon yaratganligi sababli iqtisodiyot uchun o'ta muxim axamiyatga ega. Aynan mana shu bozorda foiz stavkalari belgilanadi. Foiz stavka- ssuda taqdim etilganligi uchun xaq, pul mablag'larining "ijara" haqi (odatda 100 dollar yillik ijara narxi sifatida aks ettiriladi). Iqtisodiyotda turli xildagi foiz stavkalari mavjud: avtomobil sotib olish uchun ssuda foizi, turar joyni sotib olish uchun ipoteka kreditlari bo'yicha foiz stavka, turli xildagi obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkalar va boshqalar.

Foiz stavkalari barcha soha va darajalarda muhim hisoblanadi. Foiz stavkalari nafaqat jismoniy shaxslar uchun, balki korxona tashkilotlar va umuman iqtisodiyot uchun ham muximdir. Yakka tartibda foiz stavkalarining oshishi siz olmoqchi bo'lgan uy yoki avtomobil kreditlarining foiz stavkasining oshishiga, oqibatda esa ushbu kredit turlaridan vaqtincha foydalanmaslikka olib kelishi mumkin. Aksincha, foiz stavkalarining oshirilishi jamg'arishni rag'batlantiradi va ba'zi daromadingizni jamg'arma sifatida shakllantirishingiz ko'proq foizli daromad olishingizga sabab bo'ladi.Umumiy darajada foiz stavkalar nafaqat ist'emolchilarning xarajat qilish yoki jamg'arish xoxishiga, balki investitsion qarorlarga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotning umumiy holatini belgilaydi. Yuqori foiz stavkalar, misol uchun, ko'plab yangi ish o'rinlari yaratishi mumkin bo'lgan yangi korxonalar qurilishining to'xtab qolishiga olib keladi.

Foiz stavkalar har bir inson hayotida, moliya muassasalari faoliyatida, firmalar va umuman iqtisodiyotda muxum o'rin egallagani sababli foiz stavkalarini tabranishi so'nggi 30 yilligi muhim ahamiyatga ega. Masalan, 1981 yilda 3 yilga xazina veksellari foiz stavkalari o'zining maksimal nuqtasi (16 % dan yuqori) ga etdi. 1992-1993 yillarda u 3% gacha tushgan, 1990 yillarning o'rtalarida 5% ga oshdi, 2004 yilda 1% dan pastga tushgan bo'lsa, 2007 yilgacha 5%dan ko'tarilgan va faqatgina 2008 yildan 2011 yilgacha 0% gacha tushdi. Turli foiz stavkalarning bir-biriga bog'liq ravishda va birgalikda o'zgarish tendentsiyasi mavjudligi sababli, tez-tez foiz stavkalar iqtisodchilar tomonidan yagona abstrakt foiz stavka sifatida ko'riladi. 1-rasmda ko'rsatilganidek, turli xil obligatsiyalarning foiz stavkalari xar xil turlari bo'yicha farqlanadi. Masalan, 3 oylik xazina veksellari bo'yicha foiz stavkalari, barchasidan past (o'rtacha) bo'lgani, shu orqali ularning tebranish amplitudasini ham eng yuqori darajasini ko'rsatadi. Va reytingli korporativ obligatsiyalarining o'rtacha foiz stavkalari boshqa foiz stavkalarga nisbatan o'sgan bo'lib, boshqa foiz stavkalar va korporativ obligatsiyalar foiz stavkasi spredi 1970 yilda yuqoriroq bo'lgan bo'lsa, 1990 yillarda qisqargan, 2000 yillarda qisqa ko'rinishda o'sgan, keyinchalik yana qisqargan va 2007 yilning yozida keskin o'sgan va 2009 yilning oxirida yana pasayish boshlangan.

O'zbekiston Respublikasining 3 iyun 2015 yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" gi qonuniga asosan bizni ng amaliyotimizda ***qimmatli qog'ozlar*** *— hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad*

to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi. ***Obligatsiya*** *esa— emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi.* ***Veksel bu*** *— veksel beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz; Qimmatli qog'ozlar qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etishning asosiy dastaklari hisoblanadi. O'zbekistonda* ***Qimmatli qog'ozlar bozori*** *— yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlari tizimi sifatida shakllanadi. Qimmatli qog'ozlarning emitentlari, qimmatli qog'ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek birjalar va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi* ***qimmatli qog'ozlar bozorining ishtirokchilari*** *hisoblanadilar. Mamlakatimiz iqtisodiy amaliyotida ham foiz stavkalar talab va taklif asosida shakllanadi va u kredit yoki qimmatli qog'ozlarning turi, muddati, qimmatli qog'oz emitentining moliyaviy ahvoli, bozordagi mavqei va boshqa omillarga bog'liq holda o'zgarib turadi.*

Mazkur kursda iqtisodiyotdagi aktsiya, obligatsiyalar bozorining o'rni, foiz stavkasining mazmuni, qanday qilib foiz stavkalarning shakllanishi, ular xarakatining sodir bo'lishi va nima sababdan turli xil qarz majburiyatlari bo'yicha foiz stavkalar o'zgarishi o'rganiladi.

Fond bozori

Oddiy aktsiya (*yoki* ***aktsiya)-****korxonaning aktivlari va daromadlariga da'vogarlik munosabatini bildiruvchi qimmatli qog'oz - korxona mulkining bir qismini o'zida mujassamlashtiradi. Aktsiyalarni chiqarish va sotish – korxonalar faoliyatini moliyalashtirish uchun mablag'larni jalb etish usulidir.*

Fond bozori- *korxona aktivlari va daromadlari (aktsiyalar paketi)ga da'vogarlikni sotishga mo'ljallangan bozor bo'lib, AQShda keng tarqalgan va rivojlangan.(Ko'pincha "bozor" deb yuritiladi) AQShda aktsiyalar kotirovkalarining (narxlarining) keskin tebranishi kechki yangiliklarda albatta sharxlanib boriladi. Bu davlatda ko'pchilik aktsiyalar narxining tebranishida spekulyatsiya (chayqovchilik) qiladilar. Bu kabi operatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirilganligidan ba'zilar cheksiz quvonchga, ayrim hollarda bunday operatsiyalar boshqalar uchun mumkin bo'lgan yo'qatishlardan qayg'uga ham aylanishi mumkin. Frederik S. Mishkin Fond bozoriga nisbatan ulkan e'tiborni oddiygina tushuntirishda ifodalaydi, ya'ni, uning fikricha, bu shunday joyki bu erda odamlar juda tez boy (yoki qashshoq) bo'lishlari mumkin.*

2000 yildagi qator yuqori texnologik katta korporatsiyalar faoliyatining sinishi fond bozori uchun qattiq silkinish bo'ldi va 2002 yilga kelib aktsiyalarning narxi 30 % ga kamaydi. 2007 yilda esa narxlar barcha davrlardagidanda yuqori bo'lgan va 14000 darajadan yuqoriga o'sdi, faqatgina 2009 yilda 8000 dan pastga tushdi, ammo 2011 yilgacha 12000 dan oshib tiklandi. Aktsiyalar narxining keskin

tebranishi odamlarning boylik darajasiga ta'sir ko'rsatadi va oqibatda ularning iste'molga moyilligiga ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, fond bozorining ko'rsatkichlari investitsion qarorlarni qabul qilishga xam ta'sir ko'rsatadi, sababi chiqarilgan aktsiyalar paketini sotishdan kelib tushishi mumkin bo'lgan tushum summasi so'ngilarining narxi bilan aniqlanadi. Korxona aktsiyalari narxining yuqoriligi katta hajmdagi pul mablag'larini ishlab-chiqarish kuchlari va asbob – uskunalarni sotib olishga sarflashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ***aktsiya*** *— o'z egasining aktsiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aktsiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz hisoblanadi. Mamlakatimizda fond birjasi ham faoliyat yuritib* ***fond birjasi*** *— ommaviy va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan joyda va belgilangan vaqtda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratib beruvchi yuridik shaxs bo'lib unda fond birjasi ishtirokchilari o'z faoliyatini olib boradi va savdolarda faol ishtirok etishadi.*

Shuningdek, ushbu kursda fond bozorining moliyaviy tizimdagi roli tahlil qilinadi, aktsiyalar narxining tebranishini belgilovchi omillar ko'rib chiqiladi.

Nima sababdan banklar va moliya institutlari o'rganiladi?

"Pul va banklar" fanining muhim yo'nalishi moliya tashkilotlari va bank ishini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Aynan banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlar moliya bozorlarining faoliyatini ta'minlab, bo'sh pul mablag'lari mavjud bo'lganlardan, ulardan samarali foydalanadiganlarga o'tkazib beradilar. Natijada, moliyaviy tashkilotlar mamlakat iqtisodiyotining uzluksiz rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadilar.

Moliyaviy tizimning tarkibi

Xorijiy davlatlarda moliyaviy tizim murakkab tarkibga ega. U turli xildagi nodavlat moliyaviy muassasalarni birlashtirib, o'z ichiga banklar, sug'urta kompaniyalari, o'zaro fondlar, moliyaviy kompaniyalar, investitsion banklarni oladi. Ushbu muassasalarning faoliyati davlat tomonidan qattiq tartibga solib boriladi. Agar biror shaxs, masalan, Jeneral Motors ga qarz bermoqchi bo'lsa, u kompaniya prezidentiga borib o'z pul mablag'larini tavsiya qilmaydi. Bundan ko'ra u kompaniyaga to'g'ridan - to'g'ri emas, balki moliyaviy vositachilarga - bir iqtisodiy subektlarning bo'sh mablag'larini o'zida jamlab, boshqalarga kreditga beruvchi muassasalarga qarz beradi.

Nima sababdan moliyaviy bozorlarning muvaffaqiyatli faoliyatini moliyaviy dallollarsiz tasavvur etib bo'lmaydi? Nima sababdan ular ba'zi shaxslarni kreditlaydilar, boshqalariga esa rad javobini beradilar? Nima sababdan kreditni olish murakkab yuridik xujjatlarni rasmiylashtirishni talab etadi? Nima sababdan moliyaviy muassasalar faoliyati davlat tomonidan qattiq tartibga solib boriladi?

Ushbu fanda bayon qilinadigan qator mavzular yuqoridagi savollarga AQSh va boshqa davlatlar moliyaviy tashkilotlari tarkibini tizimli tahlil qilish asosida javob topishga yordam beradi.

Moliyaviy inqirozlar

Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zan moliyaviy tizim ishlamaydi va u moliyaviy inqirozlarni keltirib chiqaradi. Moliyaviy bozorlarda muhim pasayishlar aktivlar narxining keskin tushib ketishi va moliyaviy hamda nomoliyaviy firmalarning bankrotlikka uchrashi bilan xarakterlanadi. Moliyaviy inqirozlar yuz yillar davomida kapitalistik iqtisodiyotning xususiyati hisoblangan va odatda biznes tsikllarini juda kuchli pasayishini keltirib chiqaradi. 2007 yilning avgustida boshlab va Buyuk Depressiya davridan buyon AQSh iqtisodiyoti eng tahlikali moliyaviy inqirozdan jabr ko'rdi. Substandart uy-joyga ajratilgan ipoteka kreditlarining defoltga uchrashi moliya institutlarida katta yo'qotishlarni keltirib chiqarib, nafaqat ko'plab banklarning bankrotligini balki AQShdagi eng yirik ikkita investitsion banklar hisoblangan ***Bear Stearns va Lehman Brothers****ning faoliyatini to'liq bankrot bo'lishiga olib keldi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng ham inqirozning natijasi eng xavfli retsessiyani keltirib chiqardi, natijada hozirgi kunda u "Buyuk Retsessiya" sifatida ko'rsatiladi.*

Nima sababdan ushbu inqirozlar sodir bo'lganligi va iqtisodiyotga juda katta zarar keltirganligi ham ushbu fanda muhokama qilinadi.

Moliyaviy innovatsiyalar

*Moliyaviy innovatsiya, yangi moliyaviy maxsulotlar va xizmatlarning rivojlanishi bo'lib, moliviy tizimning samaradorligini oshirib ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun muhim kuch bo'la oladi. Afsuski, ushbu sohaga oid mavzularda ko'rib chiqamizki, moliyaviy innovatsiyalarning ham noma'lum bo'lgan tomonlari mavjud. Bular masalan, biz ko'rib chiqqanlarimizdek ba'zilari kuchli moliyaviy inqirozlarga olib kelishi mumkin. Biz nima sababdan va qanday qilib moliyaviy innovatsiyalar sodir bo'lganligini, xususan, informatsion texnologiyalarda sodir bo'lgan muhim o'zgarishlar yangi moliyaviy xizmatlarni yaratishga imkoniyat berganligini va Elektron-moliya (e-****finance)*** *sifatida ma'lum bo'lgan moliyaviy xizmatlarni elektron ko'rinishda etkazish qobiliyatini alohida e'tibor bilan ko'rib chiqamiz. Biz shuningdek, moliyaviy innovatsiyalarni ham o'rganamiz. Chunki, u moliyaviy institutlarning bir qismi hisoblangan ijodiy o'ylash qanday qilib katta foyda keltirganligi va ba'zida moliyaviy parokandalikni keltirib chiqarganligiga guvoh bo'lamiz. Tarixda moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsiyalarning joriy etilishini tahlil qilsak, kelajakda ularning hatti harakatlarini oldindan aytib berish mumkin. Bu bilimlar moliyaviy tizimning o'zgarishida vaqt o'tishi bilan muntazamlikni o'rganishga imkon beradi, bu esa banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlar to'g'risidagi bilimlarni doimiy ravishda yangilanib turishiga imkon beradi.*

Xalqaro moliyaviy tizim.

Mamlakatlar o'rtasida kapital oqimining keskin oshishi xalqaro moliyaviy tizimning milliy iqtisodiyotga ta'sirini yanada kuchaytirdi. Ushbu fanda quyidagi muammolarni hal qilamiz:

- *Mamlakatning milliy valyuta kursini boshqa davlat valyuta kursiga fiksirlash qarori monetar siyosatni amalga oshirishga qanday ta'sri ko'rsatadi?*

- *Kapitalni nazorat qilish, ya'ni kapital harakatini mamlakat chegarasidan tashqariga erkin harakatini chegaralash milliy moliyaviy tizim va iqtisodiyotning holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

- *Xalqaro moliyaviy tizimda moliyaviy institutlar, jumladan, Xalqaro valyuta fondi qanday rolni bajarishi lozim.* [5] Yuqorida keltirib o'tilgan yo'nalishlar va mavzular yuksak taraqqiy qilgan davlatlar, jumladan, AQSh iqtisodiyoti va mamlakatimiz iqtisodiyoti, iqtisodiyot va uni taraqqiy qildirishning asosi bo'lgan huquqiy – me'yoriy asoslar va amaliy materialllar asosida sizning e'tiboringizga o'rganish uchun havolda etiladi.

"Pul va banklar" fanini chuqur o'rganish maqsadida talablarga shuningdek, mustaqil ta'lim topshiriqlari ham beriladi.

2-Mavzu. Pulning paydo bo'lishi, zarurligi va funksiyalari

REJA:

2.1.Pul, uning kelib chiqishi va zarurligi.
2.2. Qiymat shakllarining evolyusiyasi.
2.3. Oltin pul sifatida.
2.4.Pulning mohiyati. Pulning o'ziga xos xususiyatlari.
2.5.Pul shakllari va turlarining evolyusiyasi.
2.6.Pulning funksiyalari.
2.7. Pulning funksiyalari bo'yicha Yevropa va Amerika maktablari tarafdorlari qarashlari

2.1.Pul, uning kelib chiqishi va zarurligi.

Pulning vujudga kelishi kishilik jamiyati sivilizatsiyasining buyuk kashfiyotlaridan hisoblanadi. "Pul" deb nomlangan maxsus tovarning paydo bo'lishi natijasida odamlar o'rtasida ayirboshlash bilan bog'liq ziddiyatlar va «ehtiyojlarning bir – biriga mos kelmasligi» kabi muammolar barham topdi. Pulning vujudga kelishi, uning evolyusion rivojlanishi, nazariyasi, mohiyati va funksiyalari haqida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, nazariyachilar, mutaxassislar juda ko'p ilmiy asarlar, maqolalar va tadqiqot ishlari yaratgan. Hozirgi kunda ham ushbu jarayon davom etmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishi va uning hozirgi kundagi ko'rinishi haqida yagona yondashuv mavjud emas.

Pulning vujudga kelish sababini bilish uchun qadimda odamlar o'rtasida ro'y bergan ayirboshlash munosabatlarini amalga oshirish jarayoniga e'tibor qaratish lozim. Chunki, aynan mana shu tabiiy ayirboshlash jarayoni hozirgi kunda siz bilan biz kundalik hayotda va hisob – kitoblarda foydalanib kelayotgan pulning vujudga

[5] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited pp. 2013. pp. 44-56

kelishiga zamin yaratgan. Xususan, pulning vujudga kelishiga quyidagi omillar asos bo‘lib xizmat qiladi:

qadimgi davrda odamlar o‘z ehtiyojidan ortib qolgan iste’mol mahsulotlari turib qolmasligi va saqlashning imkoniyati bo‘lmaganligi bois ularni o‘zlariga yaqin yoki tanish odamlarga bergan, bu o‘z – o‘zidan odamlar o‘rtasida stixiyali ravishda bir tomonlama ayirboshlash munosabatlari vujudga kelishiga sabab bo‘lgan;

Keyinchalik odamlarning ongi, dunyoqarashi va hayot kechirish tarzi rivojlanganligi natijasida, ikki tomonloma ayirboshlash munosabatlari vujudga kela boshladi. Bu davrda, kishilarda o‘ziga zarur bo‘lmagan buyumning o‘rniga nimadir olish evaziga, ikkinchi kishiga berishi lozimligini anglay boshladilar.

Bularning barchasi dastlab stixiyali ravishda sodir etilib, bu odamlarning kundalik uchun zarur bo‘lgan buyumlar, oziq – ovqatlar, kiyim – kechaklar va boshqa ehtiyojlarini qondirish natijasida ro‘y bergan. Bu davr ishlab chiqarish usulining natural xo‘jalik tuzumi davriga borib taqaladi. Ma’lumki, natural xo‘jalik tuzumidan ilgarigi davrda har bir kishi kunlik ehtiyoj uchun zarur bo‘lgan mahsulotni mustaqil ravishda ishlab topgan (yaratgan)ligi bois, ular o‘rtasida ayirboshlash munosabatlariga ehtiyoj mavjud bo‘lmagan.

Yuqorida qayd etilgan ikki omil, kishilar o‘rtasida ayirboshlash munosabatlarining shakllanishiga zamin yaratdi, natijada odamlar ixtiyoridagi ortiqcha mahsulotni o‘zi uchun zarur bo‘lgan boshqa mahsulotga ayirboshlashga ehtiyoj seza boshladi.

Ayirboshlash– bu kishilarning istak – xohishlari va ehtiyojlari mahsuli sifatida amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, buning natijasida, tomonlar ehtiyojini qondirish maqsadida ixtiyoridagi narsadan voz kechib, zarur bo‘lgan narsaning o‘rniga berishdir. Ayirboshlash kishining ehtiyoji bo‘lgan buyumga ega bo‘lish imkoniyatini beradigan jarayondir.

Demak, ayirboshlash “A” va “B” tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv natijasida sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lib, “A” o‘ziga tegishli tovar yoki xizmatini “B” tomonning tovar yoki xizmati uchun berishdir. Madomiki, ushbu almashuv jarayoni ikki tomonga ham iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lib, “A” tomon voz kechgan tovar yoki mahsulot o‘rniga o‘zi uchun zarur bo‘lgan, undan ham foydaliroq tovar yoki xizmatni oladi.

PUL NIMA?

Agar siz Amerikada mustakillik uchun kechgan urushdan ilgari yashaganingizda, sizning pullaringiz asosan ispan kumush tangalardan iborat bular edi. (kumush tangalar «pieces of eight» deb nomlanar edi). Fukarolik

urushigacha bulgan davrda AQSHda pulning asosiy shakllari sifatida oltin va kumush tangalar xamda xususiy banklar tomonidan muomalaga chikarilgan banknotalar, veksellar mavjud edi . Xozirgi kunda AQSHda pul sifatida xukumat tomonidan muomalaga chikarilgan nafakat tangalar va dollar banknotalari, balki banklardagi mavjud xisobrakamlarga yozilgan cheklarni pul sifatida ishlatishingiz mumkin. Turli davrlarda pul kurinishida xar xil tovarlar ishlatilishig karamasdan, pul doimo insonlar va iqtisodiyot uchun muxim xisoblangan.

Pulning iqtisodiyotga tasirini tushunish uchun, pulning aynan nima ekanligini bilishimiz zarurdir. Ushbu bobda pulning funksiyalari, iqtisodiyotni samaradorligini oshirishda ularning urni, pulning tarixiy shakllari va ularni ulchashning yangi yondashuvlari kurib chikiladi.

Pulning moxiyati

Biz kunlik nutkimizda ishlatadigan "Pul" suzining mazmuni iqtisodchilar uchun aloxida moxiyatga ega xisoblanadi. YUzaga kelishi mumkin bulgan chalkashlikdan kochish maksadida, odatiy foydalanishdan farkli ravishda iqtisodchilar tomonidan "Pul" suzini kay tarika ishlatilishini aniklashtirib olishimiz lozim.

Iqtisodchilar pul (yoki pul massasi) ni cheksiz ravishda tovar va xizmatlarni ayirboshlashda, shuningdek karz majburiyatlarini sundirishda qullaniladigan umumkabul kilingan tulov vositasi sifatida belgilashadi. Dollar banknotalari va veksellardan tashkil topgan nakd pullar tulaligicha ushbu karashga mos keladi va pullarning bir turi xisoblanadi. Kuplab odamlar pul xakida gapirishganda, nakd pullarni nazarda tutishadi. (kogoz pullar va tangalar).Agarda, masalan, kimdir sizning oldingizga kelib, shunday desa " Pulingiz yoki xayotingiz" , "Pul" deganda aynan nimani nazarda tutdingiz? " deyishdan tiyilgan xolda siz tezda barcha pullaringizni unga tutasiz.

Iqtisodchilar pulning moxiyatini fakatgina nakd pullar bilan cheklanishini juda xam tor deb xisoblashadi. CHeklar xarid uchun tulov vositasi sifatida ishlatilganligi bois, chek depozitlari xam pul urnida kuriladi. Ammo pulning moxiyatini yanada kengrok aniklash zarur: xattoki amaliyotda jamgarma depozitlar nakd pullar va chek depozitlarga tezda aylanganligi bois pulning urnida ishlatilishi mumkin. SHunday kilib, iqtisodchilar pul yoki pul massasining umumiy va anik tushunchasiga ega emaslar.

"Pul" suzi tez-tez "boylik" suzi bilan sinonim sifatida ishlatilishi, tushunchaning moxiyatini yanada murakkablashtiradi. Odamlar tomonidan "Joe juda xam boy – uning juda kup puli bor"suzining aytilishi, nafakat uning nakd puli va bankdagi depozitida kup mablag borligini, balki aksiyalari, obligatsiyalari, turtta mashinasi, uchta uyi va yaxtasi borligini bildiradi. Uz navbatida, nakd pullar "pul" suzining tor ma'nosini anglatsada, ushbu suzning "boylik" ma'nosida ishlatilishi juda xam keng ma'nosini bildiradi. Iqtisodchilar pullarni (nakd kurinishida,talab kilib olinguncha depozitlar va boshkalar) sotib olish uchun ishlatiladigan va boylik – jamgarilgan mulkning kiymati sifatida farklashadi.

Boylik uz ichiga nafakat pullarni, balki boshka aktivlar kurinishidagi obligatsiyalar, oddiy aksiyalar, san'at asarlari, er, mebel, avtomobil va uyni uz ichiga oladi.

“Sheyla – juda xam zur qalliq, unda juda xam ajoyib ish bor va kup pul ishlab topadi” kabi misolda iqtisodchilar tomonidan “daromad”sifatida olingan kursatkich, odamlar tomonidan “pul” sifatida tavsiflanadi. Ammo daromad bir vakt birligida mablaglar okimini bildiradi. Aksincha, pul bu –ayni vakt xolatiga ma’lum bir summani ifodalovchi zaxira xisoblanadi. Agar sizga kimdir uning daromadi 1000 doll. ni tashkil qilganini ma’lum kilsa, kaysi davr oralig‘ida (yilda, oyda, kunda) ishlab topilganligi tug‘risida ma’lumotga ega bo‘lmasdan, siz ushbu daromad kam yoki kup ekanligini ayta olmaysiz. Kimdir sizga uzining chuntagida 1000 AQSH dollari borligini ma’lum kilsa, siz ushbu summaning kam yoki ko‘pligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lasiz.

Eslab utish joizki, ushbu kitob cheklovlarsiz tovarlar va xizmatlarni ayirboshlashda qullaniladigan pulning umumkabul kilingan tulov vositasi,shuningdek, daromad hamda boylikdan tashqari qarz majburiyatlarini so‘ndirish vositasi sifatida o‘rganishga bag‘ishlangandir[6].

Shuningdek, natural xo‘jalikning rivojlanib borishi, jamiyatda mehnat taqsimotini shakllanishiga olib kelgan. Vaqt o‘tishi bilan odamlar o‘rtasida mahsulot ayirboshlash jarayoni rivojlanib, ishlab chiqarishning ixtisoslashuv jarayoni ro‘y bera boshlagan. Xususan, pulning vujudga kelishida chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi, keyinchalik hunarmandchilikning shakllanishi juda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu davrda, odamlar o‘rtasida mahsulotlarni faol ayirboshlash jarayoni boshlandi. O‘sha davrdagi ayirboshlash munosabatlarini faollashishiga asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- ishlab chiqarishning natural xo‘jalik shaklidan tovar ishlab chiqarish davriga o‘tishi;
- ishlab chiqaruvchi sub’ektlarning bir – biriga o‘zaro bog‘liqligining vujudga kelishi;
- ayirboshlash jarayonida tovarlar ekvivalentligining ta’minlanganligi.

2.2.Qiymat shakllarining evolutsiyasi

Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishini yoritishda asosiy e’tibor, uning qiymat shaklining rivojlanish evolyusiyasiga qaratiladi. Chunki, pulning vujudga kelishida uning qiymat shakllari juda muhim o‘rin tutadi. Pulning qiymat shakllari, asosan, beshta ko‘rinishdan iboratligi e’tirof etilib, ular quyidagilardan iborat.

1.Qiymatning oddiy shakli. Qiymatning ushbu shakli natural xo‘jalik tuzumiga xos bo‘lib, mahsulotlarning ortiqchaligi vaqti – vaqti bilan vujudga kelgan sharoitda amal qilgan. Qiymatning oddiy shaklida ishlab chiqarish hajmining pastligi, yaratuvchi va oluvchining manfaatlari doimo ham bir – biriga mos kelmagan ayirboshlash jarayonida ma’lum tovarlargina ishtirok etgan.

[6] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited pp. 2013. pp. 94-104

Ushbu davrda odamlar o‘rtasida vujudga kelgan ayirboshlash munosabatlarining vujudga kelishiga ortiqcha mahsulotni buzilmasligi va turib qolmasligining oldini olishga bo‘lgan ehtiyoj turtki bo‘lgan.

Masalan, bir qop don = bitta qo‘yga almashilgan va h.k.

2.Qiymatning kengaytirilgan shakli. Qiymatning kengaytirilgan shakli jamiyatda mehnat taqsimotining vujudga kelish davri bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu davrda, kishilar o‘rtasida ayirboshlash munosabatlari rivojlandi. Endi kishilar mahsulotning asosiy qismini ayirboshlash uchun ishlab chiqara boshladi. Natijada, ishlab chiqarish salmog‘i ortib bordi, mahsulotlar tez – tez tovar sifatida ayirboshlash jarayonida ishtirok eta boshladi. Bitta tovar bir necha tovarga ayirboshlanadigan bo‘ldi. Ayirboshlash jarayonining vujudga kelishida, tomonlarning mafaatlari o‘zaro mos kelishi asosiy omil sifatida maydonga chiqdi.

Qiymatning kengaytirilgan shakli amal qilgan davrda ayrim tovar turlari, mehnat qurollari va mollar pulning vazifasini bajargan. Masalan, bir qop don = bitta qo‘y, bitta boltaga ayirboshlana boshladi. Albatta, mamlakatning geografik xususiyati va ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, ular o‘rtasida pul vazifasini bajaradigan tovarlar va mahsulotlarni ajralib chiqishiga sabab bo‘ldi. Masalan, AQShda tamaki, Sharqiy Xindistonda qand, fil suyagi, Qadimgi Gretsiyada buqa, Shotlandiyada mix, Misrda mis, shuningdek don, tuz va jun kabi mahsulotlar umumekvivalent vazifasini bajara boshladi.

3.Qiymatning umumiy shakli. Bu sharoitda umumekvivalent sifatida e’tirof etilgan tovarlar eramizdan oldingi V – IV asrlarga qadar pul vazifasini bajardi. Qiymatning umumiy shakli davrida, ishlab chiqarish kengaydi va uning asosiy maqsadi barcha uchun zarur bo‘lgan tovarni o‘zlashtirishga qaratildi.

Umumiy ekvivalent sifatida qo‘y, don, jun, qimmatbaho buyum va boshqalar e’tirof etildi, lekin ular o‘zining xossasidan kelib chiqqan holda uzoq vaqt umumekvivalent vazifasini bajarmadi. Chunki, ishlab chiqarishning rivojlanishi, kishilar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlarni tezlashtirdi, bu sharoitda umumekvivalent vazifasini bajaradigan tovarlarni olib yurish, saqlash va boshqa jarayonlar turli noqulaylik va qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Buning qiyinchiligi shunda ediki, masalan, dehqon ustiga kiyadigan kiyim olish uchun to‘quvchiga donni taklif etsa, to‘quvchiga don emas, balki qo‘y zarurligini aytadi. Bunday paytda dehqon donni qo‘yga almashtirish va shundan so‘ng to‘quvchiga qo‘yni berib o‘ziga zarur bo‘lgan kiyimni olishi mumkin, ya’ni ayirboshlash jarayonlarida ishtirok etayotgan tomonlarning manfaatlari doimo ham bir – biriga mos kelmasligi oqibatida, turli qiyinchlik va ziddiyatli holatlar vujudga keldi. Buning natijasida, qiymatning pul shakli vujudga keldi.

4.Qiymatning pul shakli. Ayirboshlash munosabatlarining rivojlanishi, jahon bozorining vujudga kelishi, kumush va oltinning barcha tovarlar ichidan umumekvivalent vosita sifatida ajralib chiqishiga olib keldi. Ushbu metallarning tabiiy xossasi (yagona jismligi, qiymatining o‘zgarmasligi, sifatining buzilmasligi) uzoq davr jamiyatda pul vazifasini bajarishiga xizmat qildi.

2.3. Oltin pul sifatida.

Qimmatbaho metallar umumekvivalent sifatida muomalaga kiritilishining dastlabki davrida pul har xil quyma shakldan (sim, plastinka, yumaloq va boshqa shakllar) iborat edi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi va mehnat taqsimotining taboro takomillashib borishi metall pullardan ma'lum shakl va miqdorga ega bo‘lgan tangalarni zarb qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, dastlabki metall tangalar eramizdan avvalgi VII asrda Xitoy va Lidiya (Malaya Aziya) davlatlarida zarb etilgan.

Metall pullarning nominal qiymati haqiqatdagi qiymatiga teng bo‘lib, noyob qimmatbaho metalldan tayyorlanadi va pulning barcha funksiyalarini bajaradi.

E'tiborli jihati shundaki, muomalada haqiqiy pullar ayirboshlash vositasi vazifasini bajargan davrda iqtisodiyotda pul muomalasi avtomatik ravishda tartibga solinadi. Natijada, iqtisodiyotda pulning qadrsizlanishi, baholarning o‘sishi va inflyasiya holati kuzatilmaydi. Chunki qimmatbaho metallarning muomalada ortiqchalik holatining vujudga kelishi, ularni jamg‘arma va boylik sifatida saqlashga yo‘naltirilishi orqali bartaraf etiladi. Agar, muomalaga qo‘shimcha ayirboshlash qiymati zarur bo‘lsa, ular qiymat o‘lchovi, muomala va to‘lov vositasi sifatida qaytadan muomalaga chiqariladi.

Oltinning muomalada amal qilishi XX asrning 30 – 70 yillarida bekor qilindi, ya'ni oltin demonitizatsiyasi yuz berdi. Oltin ayirboshlash vositasi sifatida muomaladan chiqarilishining dastlabki davrida avval muomala va to‘lov vositasi funksiyasini, 1975 yildan so‘ng esa jahon puli funksiyasini to‘xtatdi. Ushbu vazifalarni ichki va jahon bozoriga oltinning o‘rniga kirib kelgan qog‘oz va kredit pullar egalladi.

5. Qiymatning qog‘oz – pul shakli. Dastlabki qog‘oz pullarni muomalaga chiqarilishi taxminan X asrning oxiri XI asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. SHu davrdan boshlab, muomaladagi oltin va kumush pullar o‘rnini qog‘oz pullar egallay boshladi. Muomalada oltin va kumush amal qilgan sharoitda ular bilan parallel ravishda to‘lov vositasi sifatida qog‘oz pullarni kirib kelishining sabablari sifatida quyidagilarni ta'kidlash lozim:

- qimmatbaho metallarni olib yurish, saqlash va xavfsizligini ta'minlash yuzasidan muammoli holatlarning vujudga kelishi;
- oltin va kumush muomalada qo‘ldan qo‘lga o‘tishi natijasida edirilib, o‘zining dastlabki hajmi va xossasini yo‘qotishi;
- qimmatbaho metallar zebu ziynat va boylik timsolida muomaladan chiqib ketishi;
- iqtisodiy taraqqayotning yuqori darajada rivojlanishi natijasida tovar va xizmatlar massasining qimmatbaho metallar (oltin, kumush) massasiga nisbatan shiddat bilan ortib borishi.

Dastlab muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullarning asosi oltin bilan ta'minlangan bo‘lib, ushbu pullar bilan birgalikda oltin tangalar ham muomalada ishtirok etgan.

Qog‘oz pullar mustaqil qiymatga ega bo‘lmasdan, ular davlatning qonuniy hujjatlari asosida mamlakatda to‘lov va muomala vositasi rolini bajaradi. SHuning uchun qog‘oz pullarning qiymati o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, u

mamlakat ichki bozorida chet el valyutasiga bo‘lgan talab va taklif, milliy iqtisodiyotning barqarorligi hamda ijtimoiy – iqtisodiy holatlar ta’sirida o‘zgarib turadi. Bu uning sotib olish qobiliyatining mustahkamligi, inflyasiya darajasi va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi.

2.4.Pulning mohiyati. Pulning o‘ziga xos xususiyatlari.

Pulning iqtisodiy mohiyati xususida iqtisodiy adabiyotlarda turli ta’riflar va talqinlar mavjud bo‘lib, uning mohiyatiga nisbatan yagona yondoshuv mavjud emas. Chunki, jamiyatda xo‘jalik yuritish tuzumining va ijtimoiy – iqtisodiy sharoitning o‘zgarishi pulning mohiyatini turlicha talqin etilishini talab etmoqda. Jumladan, iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislari pulni – iqtisodiy kategoriya sifatida, qiymat o‘lchovi vositasi, umumekvivalent tovar, maxsus tovar, ayirboshlash vositasi ekanligini e’tirof etadi.

Pul jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarda, jami ijtimoiy mahsulotni yaratish, taqsimlash va qayta taqsimlashda, bozordagi talab va taklif asosida tovarlar bahosini aniqlashda bevosita qatnashishi uning mohiyatini namoyon qiladi.

Pulning iqtisodiy mohiyati va uning zaruriyatiga xorij iqtisodchilari alohida e’tibor qaratgan bo‘lmasalarada[7]*, iqtisodiy nazariyachilarning asarlarida unga nisbatan berilgan fikrlarini uchratish mumkin. Masalan, A.Smit pulni iqtisodiy kategoriya darajasiga ko‘tarib, unga “pul – bu muomalaning buyuk g‘ildiragi“, “savdo sotiqning yuksak quroli” sifatida ta’rif beradi*[8].

D.Yum A.Smitning pul xususidagi qarashlariga e’tiroz bildirib, “Pul bu – savdo – sotiqning g‘ildiragi emas, balki u yog‘, shu savdo – sotiq g‘ildiragini erkin va yumshoq yurishiga imkoniyat yaratadigan vositadir” degan fikrni bildiradi[9].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar ham pulning iqtisodiy mohiyatiga alohida e’tibor qaratishgan. Jumladan, iqtisod fanlari doktori, professor B.I.Sokolov pulning mohiyatiga “pul mehnat taqsimoti chuqurlashib borayotgan ushbu jamiyatda tovarlarni ayirboshlash va to‘lovlarni amalga oshirish ishlarini engillashtiradi” deya ta’kidlaydi[10].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olima Sh.Z.Abdullaeva pul, kredit va banklar masalasiga bag‘ishlangan iqtisodiy adabiyotlarda pulning mohiyatini ochishda uchta jihatiga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. “Birinchidan, pulning iste’mol qiymatida boshqa tovarlarning qiymati o‘z aksini topadi. Ikkinchidan, pulda ifodalanadigan aniq mehnat asosini abstrakt mehnat tashkil etadi. Uchinchidan, pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga asoslangan holda, pul ham tovar, lekin boshqa tovarlardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo‘lgan maxsus tovar degan xulosaga kelish mumkin”[11].

---

[7]Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: “Иқтисод – молия”, 2007, 8 – б.
[8]Смит А. Исследовние природе и причинах богатства народов. Том 1. –С.418, 421.
[9]Юм Д. Опыты. –М.: Издание К.Т.Солдатенкова, 1986. –С.20.
[10]Соколов Б.И. Деньги, кредит и банки. Учебник. –М.: ТК Вебли, Изд – во. Проспект, 2008. –С.8.
[11]Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: “Иқтисод – молия”, 2007, 7 – б.

Iqtisod fanlari doktori, professor O.Yu.Rashidov va boshqalar ishtirokida nashrdan chiqarilgan darslikda "Pul – bu umumiy ekvivalent sifatida ko'llaniladigan universal tovarning alohida turi bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymati u orqali ifodalanadi. Pul – bu boshqa ne'matlarning qimmatini o'lchash vositasi (umumiy ekvivalent) yoki ayirboshlashda hisob – kitoblarni amalga oshirish vositasi (ayirboshlash vositasi) funksiyalarini bajaruvchi ne'matdir. Pul – bu mutloq likvidlilikka ega bo'lgan ne'matdir. Pul – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, odamlar o'rtasidagi munosabatlar unda namoyon bo'ladi va uning yordamida quriladi. Pulning maqsadi bozorga oid o'zaro harakatlarning transaksion xarajatlarini tejashdan iborat"[12].

Pulning iqtisodiy mohiyati xususida fikrlarni eramizdan oldingi davrda yashagan Aristotel (er.oldingi 384 – 322 yy.), keyinchalik sarkarda Aleksandr Makedonskiy kabi buyuk shaxslar tomonidan qoldirgan manbalarda ham ko'rish mumkin[13].

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinib turibdiki, pulning mohiyatiga xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, mutaxassislar va nazariyachilar o'zlarining yondashuvlarini bildirgan. Biz ularning ushbu fikr va yondashuvlarini tadqiq qilish maqsadidan yiroqmiz.

Pul–iqtisodiy kategoriya bo'lib, barcha tovarlar uchun umumekvivalent vazifasini bajaradigan maxsus tovardir. Pul faqat ayirboshlash jarayonida zarur bo'ladigan, hukumat tomonidan o'rnatilgan to'lov vositasidir. Pul – qat'iy o'rnatilgan kafolatlangan bahoni aniqlaydigan vosita emas. U oddiy tovar, faqat boshqa tovarlardan unga ehtiyojning yuqoriligi va qolgan barcha tovarlar uchun ayirboshlash vositasi sifatida foydalanganligi bilan ajralib turadi. Boshqa tovarlar singari pul ham kishilar tomonidan jamg'ariladi. Kishilar tovarlarni sotish va xizmatlarni ko'rsatish orqali uni «sotib» oladi yoki jamg'aradi. Tovarlarni sotib olish va turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish natijasida uni «sotadi».

Pulning mohiyati uning turlarida va funksiyalarida yanada aniqroq namoyon bo'ladi, keyingi paragraf va boblarda ushbu masalalarga atroflicha o'rin beriladi.

2.5.Pul shakllari va turlarining evolyusiyasi.

Pul hozirgi kundagi ko'rinishi, holati va darajasiga etgunga qadar juda uzoq tarixiy davrni boshidan kechirdi. Er yuzida puldan ayirboshlash vositasi sifatida foydalanib kelinayotganiga etti ming yildan ortiq vaqt bo'ldi[14]*. Bu davr ichida dastlabki pullar tovar, buyum, oddiy metall va qimmatbaho metallar ko'rinishidan hozirgi kunda keng foydalanib kelinayotgan qog'oz va elektron pullar ko'rinishigacha etib keldi.*

Jamiyatda ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar takomillashib va rivojlanib borgani sari pulning shakli, pul ishlari va pul ishtirokidagi hisob – kitoblar ham doimiy ravishda takomillashib va rivojlanib kelmoqda.

---

[12]Рашидов О.Ю. ва бош. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2008. 11 – б. (432б).
[13]Аристотель. Сочинения: 4 т. –М.: 1983. Т. С.325.
[14]Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лаврушина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –С. 25.

Pulning rivojlanishiga turtki bo‘lgan asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi. 1.Tovar ishlab chiqarishning kengayishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi. 2. Barcha shakllardagi mulk qiymatlarining o‘sishi. 3. Tovarlar oldi – sotdisi bo‘yicha aylanmalar hajmining ortishi.

Tanga pullarning rivojlanish tarixi. Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki tanga pullar Xitoy mamlakatida va qadimgi Lidiya xonligi davrida miloddan avvalgi VII asrda paydo bo‘lganligini ta’kidlaydi. Manbalarga ko‘ra, birinchi oltin pullar bizning eramizgacha bo‘lgan VII asrda Lidiya shohi Gigesning buyrug‘i bilan zarb etilgan. Oltinga o‘zining tasvirini tushirib zarb qilgan birinchi shox Aleksandr Makedonskiy hisoblanadi, o‘sha davrda oltinning qiymati uning probasi va og‘irligi bilan o‘lchanar edi.

AQShda monetalar 1793 yilda zarb etilgan, shu davrga qadar va undan keyin uzoq muddat davomida mamlakatda xorijiy mamlakatlarning tangalari to‘lov vositasi sifatida amal qilgan. Mamlakatda ayrim xorijiy tangalar 1857 yilgacha to‘lov vositasi sifatida muomalada ishtirok etdi.

Muomalada oltin tangalar to‘lov vositasini bajarganda ular haqiqiy pul sifatida o‘zining sohibiga iqtisodiy zarar keltirmaydi va avtomatik ravishda boshqarilib turish xususiyatiga ega bo‘lgan. Ya’ni, ularni hozirgi paytdagi kabi qog‘oz pullarni emissiyasi orqali tartibga solib turishga ehtiyoj bo‘lmagan. Agar oltin tangalarning hajmi ehtiyojdan ortib ketadigan bo‘lsa, ular boylik sifatida avtomatik tarzda jamg‘armaga o‘tadi, aksincha bo‘lganda esa to‘lov vositasi sifatida muomalaga chiqadi. Shu bois ham oltin tangalar to‘lov vositasini bajargan paytda pul tizimini tartibga solish apparati va pul – kredit siyosatini amalga oshirishga ehtiyoj bo‘lmagan.

O‘zbekiston hududida dastlabki metall tangalar miloddan ilgarigi VI asrda Ahmoniy shoh Doro I tomonidan zarb etilgan. Ushbu metall tangalarning og‘irligi 8,4 grammni tashkil etgan bo‘lib, “darik” deb nomlangan tilla tangalar ekanligi taxmin qilinadi. O‘sha vaqtlarda, ya’ni miloddan ilgarigi VI – IV asrlarda hozirgi O‘zbekistonning asosiy qismi, ya’ni Xorazm, Sug‘diyona va Sak qabilalari yashagan hududlar Ahmoniylar davlati tarkibida bo‘lganini hisobga olsak, ushbu “darik”lar O‘zbekiston zaminida amal qilgan bizga ma’lum birinchi tangalar bo‘lgan desak xato qilmaymiz.

Miloddan avvalgi 330 – 327 yillarda makedoniyalik Iskandar Ahmoniylar saltanatini tor – mor qilib, hozirgi O‘zbekiston zaminida joylashgan Baqtriya va Sug‘diyonaga bostirib kiradi. Makedoniyalik Iskandar surati tushirilgan tangalardan vazni 4,1 g. bo‘lgan kumush draxma, vazni 8,2 g. bo‘lgan kumush didraxma (ikki draxma) hamda vazni 16,4 g. bo‘lgan kumush tetradraxma (to‘rt draxma)lar zarb qilinib, ular muomalada bo‘lgani ma’lum. Shuningdek, vazni 8,4 g. bo‘lgan oltin tanga (starer) va vazni 40 grammdan ortiq bo‘lgan kumush dekadraxma ham zarb qilingan.

Yunon – Baqtriya davlati tomonidan zarb etilgan tangalardan 100 donaga yaqini Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida topilgan. Ushbu davlat pul tizimi asosini o‘sha paytda draxma, didraxma, tetradraxma va dekadraxmalar tashkil etganligi tarixiy manbalardan ma’lum.

O‘rta Osiyo eramizning V asrida tarixan qisqa muddat davomida sosoniylar tasarrufida bo‘lgan. Bu davrda hozirgi O‘zbekiston xududida turli davrlarda zarb etilgan tangalar muomalada bo‘lgan. Jumladan, sosoniylar tangalari asosan oltin, kumush va bronzadan zarb qilingan bo‘lib, ularda sosoniy shohlariing suratlari bilan birga, turli hayvonlar va qushlar aksi ham tushirilgan.

Hozirgi O‘zbekistonning asosiy qismi V asrning ikkinchi yarmida Sirdaryoning sharqiy sohilidan kirib kelgan deb taxmin qilinayotgan va tarixda eftaliylar nomi bilan qolgan qabilalar tomonidan bosib olinadi.

Eftaliylar davrida O‘rta Osiyo asta sekin rivojlana boshlagan. Xalqaro savdo ham rivojlangan. Tashqi savdo asosan Xitoy, Xindiston, Eron va Vizantiya (Rum) bilan amalga oshirilgan.

Eftaliylar dastlabki paytlarda sasoniy hukmdorlari Bahrom va Perozning kumush tangalaridan keng foydalanishgan. Buning asosiy sababi sifatida sosoniylar tomonidan eftaliylarga o‘lpon sifatida to‘langan juda ko‘p miqdordagi kumush tangalar xazinada to‘planganligiga bog‘liq deb taxmin qilinadi.

Eftaliylar hukmronligi davrida juda ko‘p miqdorda, ba’zi ma’lumotlarga qaraganda 200 dan ko‘proq marta metall tangalar zarb qilingan. Har bir viloyat, har bir yarim qaram xudud o‘zi tanga zarb qilish huquqiga ega bo‘lgan.

Umuman, V – VI asrlarda hozirgi O‘zbekiston hududiga shimol va sharq tomonlardan turli ko‘chmanchi xalqlar tinimsiz bosqinchilik qilib kirib kela boshlaydi. VIII asrning o‘rtalarida O‘rta Osiyo arablar tomonidan bosib olinib, o‘lkada islom dini joriy etiladi va qadimiy yurt Movarounnahr deb atala boshlaydi. Shu davrdan boshlab muomalada bo‘lgan metall tangalar ko‘rinishida o‘zgarishlar yuz bera boshlaydi. Asta – sekin tangalardan shoh va hokimlarning suratlari o‘rnini islom oyatlari egallaydi. Natijada «kufi» nomi bilan tarixda ma’lum bo‘lgan tangalar davri boshlanadi.

Islom imperiyasida markazlashtirilgan boshqaruv tizimi tashkil etilgandan keyin xalifa Abdumalik 696 yilda imperiyaning butun hududida yagona pul tizimini joriy etdi. Shu davrdan boshlab, yirik savdo bitimlarini amalga oshirish uchun vazni 4,3 gramm bo‘lgan oltin dinor zarb etilgan. Maosh va soliqlar to‘lovi uchun vazni 2,8 gramm bo‘lgan kumush drahmalar chiqariladi. Kundalik savdo – sotiq esa mis tangalar – fuluslar yordamida (yunoncha «follis» hamyon ma’nosini anglatadi) amalga oshirila boshladi. Bu pul birliklari Movarounnahrda ham o‘sha davrda muomalada bo‘lgan.

IX asrga kelib, Movarounnahrda somoniylar davlati vujudga keladi. Somoniylar xalifa hukmronligini rasman tan olishgan bo‘lsada, ular amalda mustaqil edilar. Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro shahri bo‘lgan. Somoniylar davlati o‘z tasarrufiga hozirgi O‘zbekistonning asosiy qismi, Turkmaniston va Tojikiston hamda Eronning Xuroson viloyatini qamrab olgan, markazlashgan davlat edi. Bu davlat taxminan 120 yildan ko‘proq muddat davomida mavjud bo‘ldi.

XII asrning o‘rtalarida, xorazmshoh Otsiz davriga kelib, Xorazm davlati kuchayib ketadi. XII asr 80 – 90 yillariga kelib Xorazm o‘ziga Movarrounnahr, Eron, Forsiy Iroqni bo‘ysundiradi. Xorazm davlati xorazmshoh Tekash (1172 –

1200 yillar) va uning o‘g‘li Muhammad (1200 – 1220 yillar) hukmronligi davrlarida ayniqsa gullab – yashnagan.

Xorazmshohlar davlatida ham an’anaviy musulmon pul birliklari – oltin dinorlar, kumush dirhamlar va mis fuluslari muomalada bo‘lgan. Bu tangalarda ham an’ana tarzida xalifa nomi qayd qilinib, undan so‘ng xorazmshoh nomi bitilgan.

Mo‘g‘ullar istilosi davrida (1220 yil yozidan) Xorazmda va uning tobeligidagi xududlarda vazni 1,8 – 1,9 gramm bo‘lgan kumush dirhamlar muomalada bo‘lgan. Mayda savdo – sotiq uchun mis pullar chiqarilgan.

Mo‘g‘ullar zulmiga qarshi xalq bosh ko‘taradi. Bu harakat tarixda “Sarbadorlar” qo‘zg‘oloni deb nom olgan.Bu qo‘zg‘olon natijasida Samarqanddan mo‘g‘ullar haydab chiqariladi. 1370 yilda Samarqand taxtiga Amir Temur o‘tiradi va“Buyuk Temur” saltanatini barpo etadi. Ushbu imperiya tarkibiga hozirgi O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston. Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Armaniston, Eronning barcha hududi, Iroq, Hindiston, Ozarboyjon, Gruziya, Qozog‘istonning bir qismi kirgan. Katta miqdorda vazni 2 grammni tashkil etgan oltin dinorlar, shuningdek, vazni 1,8 gramm bo‘lgan kumush tangalar – miralar ham zarb etila boshlagan.

Amir Temurning 40 dan ortiq tanga zarbxonalari bo‘lganligi va bu erlarda zarb etilgan oltin va kumush tangalar Evropada ham mashhur bo‘lganligi haqida ko‘p ma’lumotlar mavjud. Birgina G‘arbiy Eron va Ozarboyjonda Amir Temurning nomi bitilgan 120 turdan ortiq oltin va kumush tangalar muomalaga kiritilgan[15].

Rossiyada XIX asrda va XX asrning boshlarida naqd pul shaklida oltin tangalar keng qo‘llanilgan, xususan 1895 – 1897 yillardagi pul islohotlaridan keyin ham birinchi jahon urushiga qadar muomalada o‘n va besh so‘mlik oltin tangalar mavjud bo‘lgan. O‘zbekiston territoriyasida ham oktyabr inqilobiga qadar Chor Rossiyasining tangalari bilan bir qatorda Buxoro va Xiva xonligining oltin tangalaridan foydalanilgan.

Jahon sivilizatsiyasining taboro rivojlanib borishi va iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi muomalada qog‘oz pullarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Natijada, qimmatbaho metallar o‘rnini qog‘oz pullar egalladi.

Qog‘oz pullarning muomalaga kiritilishi. Manbalarga ko‘ra, dastlabki qog‘oz pullar X asrning oxiri XI asrning boshlarida Xitoyda chiqarilgan. Xitoyda qog‘oz pullar muomalaga chiqishida mamlakatda qog‘ozning kashf etilganligi va bosma mashinalarining yaratilganligi muhim ahamiyat kasb etgan. Dastlab muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullar “erkin tanga”, keyinchalik “qimmatbaho qog‘oz tangalar” deb yuritildi, ular mamlakatda erkin aylanadigan to‘lov vositalari bo‘lsada oltin yoki tovarlar bilan ta’minlanmagan edi.

Qog‘oz pullar kvadrat shaklda bo‘lib, bir tomonida imperatorning nomi va dinastitsiyasi haqidagi ma’lumotlar, ikkinchi tomonida esa “G‘aznachilik boshqaruvi iltimosiga ko‘ra qaror qilindi, hukumronlik qiluvchi imperator

[15] Ўзбекистон ҳудудида танга ва қоғоз пулларнинг чиқарилиши ва амал қилиши билан боғлиқ материаллар Ф.Муллажоновнинг Ўзбекистон Республикаси банк тизими китоби (–Т.: «Ўзбекистон» 2001й. 6 – 27 бетлар)дан фойдаланилган ҳолда тайёрланди.

tomonidan tasdiqlangan va ushbu yozuv bo‘lgan bu qog‘oz tanga qiymatga ega va haqiqiy kumush tanga qatorida to‘lovga qabul qilinishi shart. Ushbu tartibni buzgan har qanday shaxsning boshi kesiladi” degan mazmundagi so‘zlar bitilgan edi.

Xitoyda muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullarning hajmi ortib ketganligi va ularni tartibga solish mexanizmlari mavjud bo‘lmaganligi bois juda tez vaqt ichida qadrsizlanib ketadi. Natijada 1500 yillarga kelib qog‘oz pullarni muomalaga chiqarish bekor qilinadi.

Evropada dastlabki qog‘oz pullar Stokgolim banki tomonidan 1661 yilda emissiya qilingan. Evropada qog‘oz pullar emissiyasining namoyandalaridan biri shotlandiyalik Djon Lo (1671 – 1729) hisoblanadi. Uning ta’limotiga ko‘ra, muomalaga chiqarilgan qog‘oz pullar ishlab chiqaruvchilar faolligini oshiradi va davlatning xazinasini to‘ldirishda juda qulay vosita hisoblandi. U o‘zining ta’limotini 1716 – 1720 yillarda Fransiyada o‘zi tashkil etgan bank orqali amalga oshirishga erishdi. Biroq, muomalada qog‘oz pullar haddan ortiq ko‘payib ketishi natijasida pullarning qadri tushib ketdi va uning ta’limoti inqirozga yuz tutdi.

O‘zbekistonda qog‘oz pullar1918 yildan boshlab dastlab Buxoro amirligida muomalaga chiqarilgan. Muomalaga chiqarilgan nominali 20, 60, 100, 200, 300, 500, 1000, 2000, 3000, 5000, va 10000 qog‘oz pullar tanga deb atalgan.

1920 yilda Buxoro Sho‘ro qo‘shinlari tomonidan bosib olinib, Buxoro amirligi o‘rniga Buxoro Sovet Xalq Respublikasi (BSXR) tashkil etiladi. Yangi BSXR da 1920 yilda Buxoro amirligi tomonidan chiqarilgan metall va qog‘oz tangalar muomalada bo‘lib keladi, hamda ularni bir oz o‘zgartirilgan holda chiqarish, ya’ni sovet simvolikasi qo‘yilgan holda tanga nomi bilan qog‘oz pullar muomalaga chiqarish davom etgan. 1921 yilda BSXR muomalaga yangi, nominali rublda ko‘rsatilgan qog‘oz pullarni chiqara boshlaydi. Bu pullar 3000, 10000 va 20000 rubl nominalda muomalaga chiqarilgan.

1922 yilda BSXR tomonidan denominatsiya amalga oshirilib, pullarning nominali yuzlab marta kamaytirilgan va 1, 5, 10, 25, 100 rubllik yangi pullar muomalaga chiqarilgan. Ammo ko‘p o‘tmasdan, kuchli inflyasiya natijasida past nominaldagi pul birliklari bozor ehtiyojlarini qondira olmay qoladi va 1000, 2500 va 5000 rubllik pullar bosib chiqarila boshlagan[16].

Xulosa qilib aytganda, pulning vujudga kelishi jamiyat ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarini rivojlanishi va takomillashib borishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bularning ichida kishilar o‘rtasida mehnat taqsimotining paydo bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, biz yashab istiqomat qilayotgan zaminda pullarning vujudga kelishi uning tarixi va sivilizatsiyasi juda boy va qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

2.6.Pulning funksiyalari.

Pulning funksiyalari.

[16] Ўзбекистон ҳудудида танга ва қоғоз пулларнинг чиқарилиши ва амал қилиши билан боғлиқ материаллар Ф.Муллажоновнинг Ўзбекистон Республикаси банк тизими китоби (–Т.: «Ўзбекистон» 2001й. 6 – 27 бетлар)дан фойдаланилган ҳолда тайёрланди.

Pul chig‘anoq yoki brilliant, oltin yoki qog‘oz pul ko‘rinishida bo‘lishidan qa’tiy nazar, iqtisodiyotda pul uchta funksiyani bajaradi. Pul ayirboshlash vositasi, qiymat ulchovi va jamg‘arish funksiyalarini bajaradi. Aynan ayirboshlash funksiyasi pulning boshqa aktivlar – aksiyalar, obligatsiyalar va uylardan farqini belgilab beradi.

Ayirboshlash funksiyasi.

Bizning iqtisodiyotimizdagi mavjud deyarli barcha bozor iqtisodiyoti tamoyillarida yuzaga keladigan operatsiyalarda pul naqd pullar yoki cheklar ko‘rinishida tovarlar va xizmatlar to‘lovi uchun foydalanilib ayirboshlash funksiyasini namoyon qiladi. Pulning ayirboshlash vositasi sifatida foydalanilishi ayirboshlash operatsiyalarida vaqt xarajatlarini kamaytirib iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Nima uchun aynan shunday ekanligini tushunish uchun tovarlar va xizmatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqa tovar va xizmatlarga ayirboshlanadigan barter iqtisodiyotni ko‘rib chiqamiz.

Misol tariqasida, iqtisod fanlari professori Elen faqat bitta ajoyib ishni, ya’ni iqtisodiyot bo‘yicha ma’ruza o‘qiy oladi. Agar Elen ovqatlanishni hoxlasa, barter iqtisodiyotda nafaqat unga mos keladigan maxsulotlar ishlab chiqaradigan balki uning iqtisodiyot bo‘yicha ma’ruzalariga qiziqadigan ferma topishiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rinib turibdiki, Elen faqatgina uning leksiyalariga muhtoj bo‘lgan odamlarga ma’ruza o‘qiy olishi ko‘p vaqt va kuch talab qiladi. Bunday holat ochlikdan o‘lishiga olib kelishi mumkinligi bois u ma’ruza o‘qishni to‘xtatib, fermerlik bilan shug‘ullanishiga to‘g‘ri keladi.

Tovar va xizmatlarni ayirboshlashga sarflangan vaqt – operatsion xarajatlar hisoblanadi. Barter iqtisodiyotda operatsion xarajatlar juda yuqori hisoblanib, odamlar “xohish va istaklarni ikki hissa moslashtirish” ni qondirishlariga to‘g‘ri kelib, ular zaruriy tovar va xizmatlarga ega va bir vaqtning o‘zida ushbu tovarlar va xizmatlarni ayirboshlashni xohlaydigan kishilarni topishi zarurdir.

Elenning iqtisodiyotida pullar paydo bo‘lsa, nimalar sodir bo‘lishini ko‘rib chiqamiz. Bunday holatda uning ma’ruzalari uchun pul to‘laydigan har bir odamning hisobini yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Keyinchalik u har qanday fermer (supermarket) ga borishi yoki ma’ruza o‘qishi natijasida ishlab topilgan pullarga zaruriy ist’emol maxsulotlarini sotib olishi mumkin bo‘ladi. “Xohish va istaklarni ikki hissa moslashtirish” muammosi tugatilsa, Elen kuplab vaqtni tejashi orqali, o‘zining eng sevimli ishi hisoblangan dars berish bilan shug‘ullanadi.

Ko‘rib chiqilgan misoldan ko‘rishimiz mummkinki, pullar iqtisodiyotning samaradorligini oshirib, tovarlar va xizmatlarni ayirboshlashga ketadigan vaqtni tejash imkonini beradi. Odamlarning yuqori malaka to‘plash orqali ma’lum ishlarga ixtisoslashuvi iqtisodiyotning samaradorligini oshishiga olib keladi. O‘z navbatida, pul – iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, o‘zining xususiyatiga ko‘ra moylovchi material sifatida operatsion xarajatlarni kamaytirish, ishchi kuchini ixtisoslashuvi va taqsimlanishini chuqurlashtirish xisobiga iqtisodiyotning ancha moslashuvchanligini oshiradi.

Pulga bo‘lgan talab shu darajada yuqoriki, eng primitiv ko‘rinishidagi jamiyatdan tashqari xar qanday jamiyat pulni o‘ylab topadi. Xar qanday tovar pul sifatida samarali ishlashi uchun bir nechta talablarga javob berishi zarurdir:

birinchidan, osonlik bilan uning qiymatini aniqlash uchun standartlashgan bo‘lishi; ikkinchidan, umumqabul qilingan bo‘lishi; uchinchidan, qismlarga bo‘linishi; to‘rtinchidan, bir joydan ikkinchi joyga osonlik bilan ko‘chirilishi; beshinchidan, tezda parchalanib ketmasligi lozim. Insoniyat tarixida ushbu talablarga javob beruvchi pullar sifatida ko‘plab noodatiy shakllar, ya’ni amerikalik xindular tomonidan foydalanilgan marjonlardan tortib birinchi amerikalik kolonistlar tomonidan foydalanilgan tabaka va viskilar hamda ikkinchi jahon urushida harbiy asirlar uchun lagerlarda sigaretlargacha ishlatilgan. [17]

Pulning turli shakllaridan foydalanish – ishlab chiqarish vositalarining va tilning rivojlanishi kabi insoniyat topqirligining yana bir belgisidir.

Qiymat o‘lchovi.

Pulning ikkinchi funksiyasi – iqtisodiyotda pul o‘lchov vositasi sifatida xizmat qilganda xisob birligini ta’minlashi lozim. Og‘irlikni funtda yoki masofani milda ulchaganimiz kabi biz tovarlar va xizmatlarning qiymatini pul birliklarida ifodalaymiz. Ushbu funksiyaning muhimligini anglashimiz uchun pul qiymat o‘lchovi funksiyasini bajarmaydigan barter iqtisodiyotni yana bir ko‘rib chiqamiz. Agarda iqtisodiyotda faqatgina uchta tovarlar, aytaylik, shaftolilar, iqtisodiyot bo‘yicha leksiyalar va filmlar mavjud deb qarasak, unda tovarlar almashinuvini ta’minlash uchun faqatgina uchta narxlarni bilishimiz zarurdir: iqtisodiyotdagi ma’ruza nuqtai-nazardan shaftolining narxi (shaftoliga pul to‘lashingiz uchun iqtisodiyotdan nechta ma’ruza o‘qishingiz lozim), film nuqtai-nazaridan shaftolining narxi, film nuqtai-nazaridan iqtisodiy ma’ruzaning narxi. Agarda iqtisodiyotda 10 ta tovarlar bo‘lganida edi - 45 ta tovarning narxini, 100 ta tovar mavjud bo‘lsa – 4950 ta tovarning narxini, 1000 ta tovar mavjud bo‘lsa – 499 500 ta tovarlarning narxini bir tovarni boshqasiga ayirboshlashimiz uchun bilishimiz zarurdir.[18] *Tasavvur qilib ko‘ringki, barter iqtisodiyot sharoitida polkada minglab turli xil tovarlar joylashgan supermarketda bir funt tovuq go‘shtining narxi to‘rt funt yog‘ narxiga, bir funt baliqning narxi sakkiz funt pomidorning narxiga teng bo‘lgan sharoitda tovuq yoki baliqdan qay birining narxi arzon ekanligini aniqlashga to‘g‘ri kelar edi. Barcha tovarlarning narxlarini solishtirishingiz uchun xar bir narsaning ustidagi yorliqda 999 ta narxlar ro‘yxati mavjud bo‘lish lozim edi. Natijada ularni o‘qishga sarflangan vaqt juda katta tranzaksion xarajatlarni keltirib chiqarar edi.*

Ushbu muammoni xal etish uchun iqtisodiyotga pulni tatbiq etish va barcha tovarlarning (shaftolilar, iqtisodiyot bo‘yicha ma’ruza, filmlar) narxlarini pul birliklarida, masalan, dollarlarda aks ettirish kerak. Iqtisodiyotda faqatgina uchta tovarlar mavjud bo‘lgan holatda tranzaksiyalarni o‘tkazish uchun uchta narxga nisbatan ehtiyojimiz mavjudligi bois barter tizimiga nisbatan unchalik katta foyda bo‘lmaydi. Ko‘rishimiz mumkinki, puldan qiymat o‘lchovi vositasi sifatida foydalanish ko‘rib o‘tilgan xolatda narxlar sonini kamaytirib, operatsion

---

[17] An extremely entertaining article on the development of money in a prisoner-of-war camp during World WII is R. A. Radford, “The Economic Organization of a RO.W Camp,” *Economica* 12 (November 1945): 189-201

[18] N та товарлар мавжуд бўлган шароитда нархнинг миқдорини хисоблаш, N бирликдан жуфтлик миқдорини аниқлаш формуласи билан айнан бир хилдир.

$\frac{N(N-1)}{2}$ Масалан, 10 та товарлар мавжуд бўлган ҳолатда. $\frac{10(10-1)}{2} = \frac{90}{2} = 45$

xarajatlarni pasaytiradi. Iqtisodiyot yanada murakkablashib borishi barobarida pulning ushbu funksiyasidan olinadigan foyda yanada oshib boradi.

Jamg‘arish vositasi.

Pul shuningdek jamg‘arish vositasi sifatida xizmat qiladi; daromad olingan vaqtdan boshlab xarajat qilingungacha bo‘lgan davrda xarid qobiliyatini saqlab turish vositasi xisoblanadi. Pulning ushbu funksiyasi foydali hisoblanib, ko‘pchiligimiz saqlashni afzal ko‘rib, pullarni olishimiz bilan darhol xarajat qilishni hoxlamaymiz. Pul – yagona jamg‘arish vositasi emas; har qanday aktivlar – pullar, aksiyalar, obligatsiyalar, er, uy, san’at asarlari yoki zargarlik mollari – jamg‘arish vositasi hisoblanadi. Ushbu aktivlardan ko‘pchiligi pulga nisbatan o‘zining egalariga katta foyda (foiz) keltirib, narxi kutariladi va qulayliklar yaratadi (masalan, boshimiz ustidagi tom). Agarda ushbu aktivlar jamg‘arish vositasi sifatida pul bilan taqqoslaganda ancha foydali bo‘lsa, unda insonlar nega pullarni jamg‘arishadi? Ushbu savolga javob muhim iqtisodiy tushuncha hisoblangan ***likvidlilik*** *bilan bog‘liq hisoblanib, aktiv oson va tezkorlik bilan ayirboshlash vositasiga aylanadi. Likvidlilik juda ham muhim hisoblanadi. Pul ayirboshlash vositasi hisoblanganligi bois eng likvidli aktiv hisoblanadi; bir narsa sotib olish uchun pul boshqa narsaga aylantirish shart emas. Boshqa aktivlar pulga aylantirilganda tranzaksion xarajatlarni talab qiladi. Masalan, siz uyingizni sotsangiz, brokerlik komissiyasini to‘lashingiz shart (odatda sotish narxining 4-6% ini tashkil qiladi). Agar siz kechiktirib bo‘lmaydigan hisobraqamlarni tezda to‘lash uchun naqd pullarga muhtoj bo‘lsangiz, pulni tezda sotish uchun uyingizni ancha past narxda sotishingizga to‘g‘ri keladi. Pul eng likvidli aktiv bo‘lmasin va yuqori darajadagi jamg‘arish vositasi hisoblanmasada odamlar bajonidil pulni saqlaydi. Jamg‘arish vositasi sifatida pulning ishonchliligi narxlar darajasiga bog‘liq hisoblanadi. Masalan, barcha narxlarning ikki barobar oshishi, pulning qiymatini ikki barobarga kamayganligini anglatadi. Teskari holatda narxlarning ikki barobarga kamayishi pulning qiymatini ikki barobarga oshganligini ko‘rsatadi. Inflyasiya sharoitida narxlar darajasining tezlik bilan o‘sishi kuzatilsa, pul tezda o‘zining qiymatini yo‘qotadi. Natijada odamlar istar-istamas o‘zlarining boyliklarini pul shaklida saqlashadi. Bu holat oylik inflyasiya surati 50% dan oshishi natijasida yuzaga keladigan giperinflyasiyaga hos bo‘lgan bo‘lgan yuqori inflyasiya sharoitiga ko‘proq mos tushadi. Birinchi jahon urushidan so‘ng Germaniyada xuddi shunday inflyasiya sodir bo‘lib, inflyasiya surati ba’zan oyiga 1000% dan oshib ketdi. 1923 yilda giperinflyasiya tugagungacha narxlar darajasi ikki yil oldingiga nisbatan 30 milliard marotaba o‘sishi kuzatildi. Aytishlaricha, giperinflyasiya tugash davrida buxanka non sotib olish uchun bir zambil naqd pul talab qilingan ekan. Pul o‘zining qiymatini shunchalik darajada tez yo‘qotgan ediki, ish kuni davomida ishchilarga bir necha marotaba ish haqi to‘langan va pullar o‘zining qiymatini yo‘qotib qo‘yishidan oldin ertaroq pullarni sarflashlari maqsadida tanaffuslar e’lon qilingan. Hech kim pulni jamg‘arishni xohlamagan, chunki ularning almashuv vositasi sifatida o‘rni yo‘qolgan va barter tizimi yanada*

rivojlanishiga olib kelgan. Operatsion xarajatlar yuqori darajada o‘sib, kutganimizdek, yalpi ishlab chiqarish hajmi keskin tushib ketgan.[19]

Iqtisodiyotni boshqarishning bozor munosabatlari joriy etilgan mamlakatlar iqtisodiy adabiyotlarida, pul uchta, ya’ni qiymat o‘lchovi, muomala vositasi va jamg‘arma vositasi funksiyalarni bajarishi bayon etiladi.

P.Samuelson Aristotelning ta’limotlariga tayangan holda pul faqat ikkita, ya’ni ayirboshlash vositasi, baho mashtabi birligi yoki o‘lchov hisobi funksiyalarini bajarishini ta’kidlaydi[20].

Angliya – amerika iqtisodchi olimlari pulning uchta funksiyasi (muomala vositasi, qiymat o‘lchovi va jag‘arma vositasi) mavjudligini e’tirof etishadi[21]. Jumladan, Edvin Dj. Dolan, Kolin D. Kempbell, Rozmari Dj. Kempbelllar pul muomala vositasi, qiymat o‘lchovi va jamg‘arma vositasi funksiyalarini bajarishini ta’kidlaydi[22].

Nemis iqtisodchi olimi K.Knis (1821 – 1898) pulning to‘rtta ya’ni, qiymat o‘lchovi, muomala vositasi, to‘lov vositasi va jamg‘arma vositasi funksiyalarini e’tirof etadi.

S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzilar ham pulning to‘rtta funksiyalarini bajarishlarini e’tirof etib, ularni quyidagi ketma – ketlikda amal qilishini ta’kidlaydi: birinchisi – muomala vositasi va to‘lov vositasi, ikkinchisi – o‘lchov hisobi, uchinchisi – qiymatni saqlash vositasi, to‘rtinchisi – kechiktirilgan to‘lovlarni o‘lchovi[23].

K.Marks pulning funksiyalari konsepsiyasida uni uchta funksiyasi mavjudligini ta’kidlaydi. U pulning funksiyalarini quyidagi ketma – ketlikda ifodalaydi. Birinchisi – qiymat o‘lchovi, ikkinchisi – muomala vositasi, uchinchisi – moliyaviy pul. K.Marksning pulning uchinchi funksiyasi ayrim iqtisodchilar tomonidan jamg‘arma vositasi, to‘lov vositasi va jahon puli kabi vazifalarini bajarishi mumkinligini ilgari suriladi[24].

Rossiyalik iqtisodchi olim, professor O.I.Lavrushin[25], professor V.A.Shegorsova[26], professor V.V.Ivanov va professor B.I.Sokolovlar[27] tahrirlari ostida chop etilgan Pul, kredit, banklar darsliklarning barchasida pul beshta funksiyani bajarishi e’tirof etiladi.

---

[19] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited pp. 2013. pp. 94-104

[20]Самуэльсон П. Экономика вводной курс. –М.: 1964. –С. 69.

[21]Масалан: Харрис Л.Денежная теория. –М.: 1990. –С.75; Долан Э., Линдсей Д. Макроэкономика. – СПб.: 1994, – С. 7 – 8.

[22]Эдвин Дж. Долан, Колин Д. Кэмпбелл, Розмари Дж. Кэмпбел. Деньнги, банковское дело и денежно – кредитная политика. Пер. с. англ. к.э.н. А.А.Лукашевич, А.П.Маноцкова, к.ф.н. Е.Б.Ярцева, к.ф – м.н. М.Б.Ярцев. –М. – СПб., 1991. –С. 26.

[23]Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. –М.: 1993. –С. 474 – 475.

[24]Пезенти А. Очерки политической экономики капитализма: в 2 т.: пер. С итал. Т.1. – С. 472 – 473.

[25]Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лаврушина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –С. 57.

[26]Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под.ред. проф. Щегорцова В.А. –М.:ЮНИТИ – ДАНА, 2005. –С. 14.

[27]Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С. 26.

O‘zbekistonlik iqtisodchi, professor Sh.Z.Abdullaeva pul to‘rtta funksiyani bajarishini, ular qiymat o‘lchovi, muomala vositasi, to‘lov vositasi va jamg‘arma vositasi funksiyalari ekanligini ta’kidlaydi[28].

Professor O.Yu.Rashidov tahriri ostida chop etilgan Pul, kredit va banklar darsligida pul beshta, ya’ni qiymat o‘lchovi, muomala vositasi, to‘lov vositasi, jamg‘arma vositasi va jahon puli vazifalarini bajarishini ta’kidlanadi[29].

Ko‘rinib turibdiki, pulning funksiyalari haqida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikrlari turlicha bo‘lib, birinchi guruh olimlar pulni beshta funksiyasi mavjudligini ta’kidlashsa, ikkinchi guruh iqtisodchi olimlar uning to‘rtta funksiyani bajarishini e’tirof etadi. Uchinchi guruh iqtisodchi olimlar, asosan anglo – amerikaliklar uni uchta funksiyani bajarishini bayon etadi. Hatto ayrim iqtisodiy adabiyotlarda pulni oltita funksiyani bajarishi qayd etilib, oltinchi funksiya sifatida baho masshtabi ekanligini isobtlashga urinishadi[30].

Iqtisodchi olimlar pulning funksiyalari haqida turlicha talqin etishiga quyidagilar sabab bo‘ladi. Bir guruh iqtisodchi olimlar, pulning funksiyasini zamonaviy sharoitda uning xossalaridan kelib chiqib bayon etadi, boshqa guruh olimlar esa turli mamlakat olimlarining pulni funksiyalari xususidagi fikrlariga tayangan holda unga talqin beradi. Yana boshqa guruh iqtisodchi olimlar esa pulning funksiyalarini ta’riflashda uning tarixan vujudga kelishi bilan bog‘liq voqelik va nazariyalarga tayanadi.

Pulning funksiyalari xususida fikr yuritganda uning asl (haqiqiy pul) qiymatiga ega bo‘lgan va asl qiymatiga ega bo‘lmaganligi (o‘rinbosar pullar) ga e’tibor qaratish lozim. Chunki muomalada asl qiymatga ega bo‘lgan pullar to‘lov vositasini bajarganda ularda pulning barcha funksiyalari namoyon bo‘ladi va aksincha. Asl qiymatga ega bo‘lgan pullar sifatida qimmatbaho metallar oltin va kumushni, kredit pullarni va 100 foiz oltin bilan ta’minlangan pullarni qayd etish mumkin. Asl qiymatga ega bo‘lmagan pullarga qog‘oz pullar, oltin asosiga ega bo‘lmagan kredit pullar kiradi.

Haqiqatda ham qimmatbaho metallar to‘lov vositasini bajargan paytda ular pulning barcha funksiyalarini bajargan. Qimmatbaho metallar o‘rnini qog‘oz pullar egallagandan so‘ng, qog‘oz pullarning inflyasiyaga uchrashi natijasida ular pulning barcha funksiyalarini bajarmay qo‘ydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, yuqorida ko‘rib chiqilganidek, vaqt o‘tishi bilan pulning funksiyalari haqida turli qarashlar vujudga kela boshladi.

Pulning funksiyalari xususidagi fikrlarga tayanib, pul to‘rtta, ya’ni ***qiymat o‘lchovi, muomala vositasi, to‘lov vositasi va jamg‘arma vositasi funksiyalari***ni bajaradi degan fikrga keldik.

Pulning ***qiymat o‘lchovi***funksiyasi asosan tovarlar qiymatini baho shaklida aks ettirish orqali namoyon bo‘ladi. Pulning qiymat o‘lchovi barcha tovarlar uchun umumekvivalent vositasi sifatida ularning qiymatini o‘lchaydi. Barcha tovarlarning

---

[28]Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: “Иқтисод – молия”, 2007, 13 – б.

[29]Рашидов О.Ю. ва бош. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2008. 22 – б.

[30]Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С. 25.

qiymati pul o‘lchovi vositasi, ya’ni baho masshtabi, dastlabki bosqichda hukumat tomonidan o‘rnatiladi. Masalan, metr o‘lchovi bilan uzunlikni, kilogramm o‘lchovi bilan og‘irlikni o‘lchagan kabi, pulning qiymat o‘lchovi funksiyasi bilan barcha tovarlarning qiymati o‘lchanadi.

O‘zbekistonda qiymat o‘lchovi bevosita milliy valyuta «so‘m», AQShda dollar, Evropa ittifoqiga a’zo mamlakatlarda evro, Buyuk Britaniyada funt sterling, Yaponiyada iena qiymat o‘lchovi vositasi hisoblanadi.

Pulning inflyasiya darajasi yuqori bo‘lgan paytda uning qiymat o‘lchovi funksiyasining amal qilishi bir qadar chegaralanadi. Masalan, 1939 yildan 1949 yilgacha Yaponiya ienasining inflyasiya darajasi yuqori bo‘lganligi uchun ko‘pchilik yapon savdogarlari tovarlarning bahosini belgilashda, ayrim hollarda savdo sotiqni ham AQSh dollarida amalga oshirganlar. Chunki AQSh dollarining qiymat o‘lchovi ienaga nisbatan bir necha barobar mustahkam va barqaror bo‘lgan. Shuning uchun, Yaponiyada 1939 – 1949 yillarda barcha tovarlar bahosi ikkita narxda, dollar va ienada yuritilar edi. Ayni paytda, ienada belgilangan tovarlar bahosi oshib borish tendensiyasiga ega edi, dollarda esa baholar dastlabki holatidan o‘zgarmasdan qolgan.

Hukumat mamlakatda pul islohotini amalga oshirish orqali pulning qiymat o‘lchovini o‘zgartirishi mumkin.Pul islohoti – muomaladagi pul massasini kamaytirish orqali, uning joriy qiymat o‘lchovidan boshqasiga o‘tishdir. 1944 – 1952 yillarda Evropa mamlakatlarida 24 martadan ortiq pul islohotlari amalga oshirilgan.

Sobiq ittifoq davrida rubl kuchli inflyasiyaga uchramagan va iqtisodiyot nisbatan barqaror darajaga ega bo‘lgan bo‘lsada, 1961 yilda mamlakatda pul islohati amalga oshirilgan. Hukumat muomalada mavjud bo‘lgan rubllarni yangi chiqarilgan rubllarga 1/10 nisbatda pul islohatini amalga oshirgan. O‘sha davrda o‘tkazilgan pul islohotining asosiy maqsadi mamlakatdagi xufyona iqtisodiyotning ulushini kamaytirish va baho masshtabini pasaytirishga qaratilgan bo‘lib, xufyona iqtisodiyot ishtirokchilari eski rubllarni to‘lig‘icha yangi banknotalarga almashtira olmaganligi natijasida iqtisodiy jihatdan zarar ko‘rgan va baho masshtabi 10 martaga kamaygan.

Pulning ***muomala vositasi*** bozor ishtirokchilari o‘rtasida tovarlarni oldi – sotdisi va xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda pul vositachi rolini bajaradi.

Pulning muomala vositasi funksiyasini bajarishining bir sharti mavjudki, u ham bo‘lsa, tovarlarni sotib olish va xizmatlarni ko‘rsatish uchun to‘lov bir vaqtda amalga oshiriladi. Pulning ushbu funksiyasini bajarishda bevosita naqd pullar ishtirok etishi talab etiladi.

Ayirboshlash jarayonida tovarlar bir marta qatnashib muomala maydonini tark etsa, pul muomala vositasi funksiyasi yordamida ushbu jarayonga qayta – qayta kelaveradi. Iqtisodiyotda pulning banklar orqali aylanish tezligi qancha yuqori bo‘lsa, tovarlarni sotib olish uchun muomalaga zarur bo‘lgan pul massasiga talab shuncha pasayadi.

Pulning muomala vositasi funksiyasi o‘zaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etayotgan tomonlarning faoliyati ustidan nazorat vositasi sifatida maydonga

chiqadi. Markazdan rejalashtirish davrida pulning muomala vositasi bir muncha chegaralangan edi. Natijada, odamlarning qo‘lida naqd pullar bo‘lishiga qaramasdan o‘zlari istagan tovarlarni sotib ololmasdi yoki sotib olishga imkoniyat bo‘lmagan.

Bozor munosabatalarining takomillashuvi va rivojlangan mamlakatlarda fan – texnika taraqqiyotining taboro jadallashib borishi pulning muomala vositasi funksiyasining ahamiyatini bir qadar pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki, mamlakat pul oboroti tarkibida naqd pul bilan amalga oshirilayotgan hisob – kitoblarning ulushi kamayib bormoqda. Naqd pullar asosan aholi tomonidan foydalanishi, keyingi yillarda plastik kartochkalarning ko‘plab turlari joriy etilishi, hisob – kitoblarda naqd pulsiz to‘lovlar hajmining ortib borishi kabi holatlar pulning muomala vositasi funksiyasining ahamiyatini pasayishiga olib kelmoqda. Masalan, 1994 – 1997 yillarda Angliya va Fransiyada 10%, Kanada va Germaniyada 7%, AQShda 2% ishchi xodimlargina ish haqlarini naqd pulda olishgan.

Tovarlar sotilganda va xizmatlar ko‘rsatilganda, ular uchun to‘lov kechiktirib amalga oshirilgan barcha holatlarda pul ***to‘lov vositasi***funksiyasinibajaradi. Demak, sotilgan tovar va ko‘rsatilgan xizmatlar to‘lov jarayonida uzilish bo‘lmasa, pul muomala vositasini bajaradi, agar ushbu jarayon ma’lum davrga uzilishi, ya’ni to‘lov kechikkan holatlarning barchasida, pul avtomatik tarzda, o‘zining to‘lov vositasi funksiyasini bajaradi.

Pulning to‘lov vositasi funksiyasi asosan quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi;

– jami ijtimoiy mahsulotni yaratish, taqsimlash va qayta taqsimlashda;

– davlat byudjeti xarajatlarini shakllantirish va qayta taqsimlashda;

– xo‘jalik sub’ektlari o‘rtasida amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob – kitoblarni amalga oshirishda;

– kredit muassasalari ssuda va investitsiya operatsiyalarini bajarganda hamda pul o‘tkazmalarini amalga oshirganda;

– korxona va tashkilotlar o‘z xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan mablag‘larni to‘lashda;

– va boshqa holatlarda.

Pulning to‘lov vositasi funksiyasi yuridik shaxslar o‘rtasida amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob – kitoblarda juda keng foydalaniladi. Bunda naqd pullarning ishtirokiga zaruriyat bo‘lmaydi, barcha operatsiyalar bank hisobraqamlarida biridan ikkinchisiga o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlarda, pulning to‘lov vositasi funksiyasi, uning alohida funksiyasi sifatida e’tirof etilmaydi. Pulning ushbu funksiyasi uning muomala vositasi funksiyasi bilan hamoxong tarzda o‘rganiladi.Pulning ikkita funksiyasi bir – biriga qo‘shib o‘rganilganda «…pul tovarlar va xizmatlarning to‘lovi va qarzlarning to‘lov vositasi»[31] tarzida ta’kidlanadi.

---

[31]Долан Э., Кэмпбелл., Кэмпбелл Р. Деньги банковское дело и денежно – кредитная политика. – М.: Профико, 1991. –С. Шунингдек, Харриса Л. Денежная теория. –М.: Прогресс, 1990. –С.82.

Nazarimizda, rivojlangan mamlakatlar iqtisodchilari tomonidan pulning to‘lov vositasi va muomala vositasi funksiyalarini bir – biriga qo‘shib yuborilishi natijasida, uning to‘lov vositasi funksiyasini e’tirof etilmasliklari maqsadga muvofiq emas.

Pul o‘zining muomala va to‘lov vositasi funksiyalarini bajarmagan vaqtda ***jamg‘arma funksiyasini*** bajaradi. Demak, pullar pul oboroti jarayonida tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning muomala vositasi sifatida namoyon bo‘lmaganda, shuningdek, oldindan ko‘rsatilgan xizmatlar va sotib olingan tovarlar uchun to‘lov vositasi vazifasini bajarmagan paytlarda jamg‘arma funksiyasini bajaradi. Agar, jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy munosabatlar va aholining ijtimoiy – iqtisodiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, pul asosan jamg‘arma vositasi funksiyasini bajarayotganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Pulning jamg‘arma vositasi funksiyasi aholining vaqtincha foydalanmasdan kishilar o‘zi bilan olib yurganda yoki uyda saqlaganda, bankning omonat hisobvaraqlarida saqlanishi, shuningdek, barcha turdagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning naqd pul ko‘rinishida kassada saqlanadigan vaqtincha bo‘sh mablag‘lari va bank hisobvaraqlarida naqd pulsiz ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Pulning jamg‘arma funksiyasi kredit muassasalarida iqtisodiy jihatdan muhim vazifani bajaradi. Kredit muassasalari jamiyat miqyosidagi vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larni (naqd va naqdsiz pul ko‘rinishida) ma’lum shartlar asosida o‘zida jamlab, ushbu mablag‘larga ehtiyoji bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga to‘lovlilik, maqsadlilik va qaytarishlik asosida berishi orqali, mamlakatda jami ijtimoiy mahsulotni ko‘paytirishda pulning jamg‘arma funksiyasidan foydalanadi.

Iqtisodiyotda yuqori inflyasiya darajasi pulning aholi qo‘lidagi va kredit muassasalarida jamg‘arma vositasi funksiyasini bir qadar chegaralaydi. Aholi o‘zining vaqtincha pul mablag‘larini banklarda va uyda saqlashdan ko‘radigan iqtisodiy samaradorligi past bo‘lishi, iqtisodiyotda tovarlarning bahosini kundan kunga o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lgan sharoitda, ushbu, pullarni qimmatbaho metallarni, ko‘chmas mulk va xorijiy valyutalarni sotib olishga sarflaydi. Buning natijasida, mamlakat Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan pul – kredit siyosatining samarasi ko‘zlangan maqsadga erishish imkoniyatini bermaydi.

Pulning jamg‘arma funksiyasining ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarni ta’minlash lozim:

– omonatchilarning kredit muassasalarda saqlanayotgan pul mablag‘laridan iqtisodiy manfaat ko‘rish, istagan paytda to‘liq va zudlik bilan qaytarib olish imkoniyatini ta’minlanganligi;

– qo‘yilgan mablag‘larning kafolatlanganligi (sir saqlanishi, iqtisodiy barqarorligi, to‘liq qaytarilishi);

– risk darajasining pastligi.

Pulning funksiyalari bir – biriga bevosita bog‘liq bo‘lib, ular doimo bir – birini to‘ldirgan holda iqtisodiyotda harakatda bo‘ladi.

Pulning turlariga umumiy tavsif

Kishilik jamiyatida ayirboshlash munosabatlarining chuqurlashuvi, mehnat taqsimotining rivojlanishi pulning oddiy tovar shaklidan, hozirgi kunda hisob –

kitoblarda qo‘llanilayotgan elektron pullar ko‘rinishi darajasigacha etib kelishiga sabab bo‘ldi. Albatta bu juda uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Kishilar stixiyali tarzda hayot kechirgan va natural xo‘jalik tuzumi sharoitida turli buyumlar, hayvonlar, mahsulotlar pulning vazifasini bajargan bo‘lsa, miloddan oldingi VII – VI asrlarda metallar pul sifatida amal qilgan, XI va XII asrlarda qog‘oz pullar, XX asrdan esa elektron pullar iqtisodiyotga to‘lov vositasi sifatida kirib keldi.

Demak, pul bugungi kundagi ko‘rinishiga etib kelguncha juda uzoq davr va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni bosib o‘tgan. Pulning turlarini o‘rganishda uni asl qiymatga ega bo‘lgan (haqiqiy) pul va asl qiymatga ega bo‘lmagan (o‘rinbosar) pul sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq. Odatda haqiqiy pullar to‘lov vositasini bajarganda ular o‘z qiymati bo‘yicha ayirboshlash jarayonida ishtirok etgan, iqtisodiyotda pul massasini tartibga solish bo‘yicha muammolar mavjud bo‘lmagan.

Asl qiymatga ega bo‘lmagan pullarning haqiqiy qiymati nominal qiymatiga nisbatan bir necha marta past bo‘lib, ular muomalaga chiqarilgandan keyin doimiy ravishda tartibga solinib turish lozim. Aks holda iqtisodiyotda pul massasi tovar massasiga nisbatan ortib ketadi va qog‘oz pullar o‘zining to‘lov vositasi sifatidagi qobiliyatini yo‘qotadi.

Haqiqiy pullar quyidagi xossalarga ega bo‘lgan:

– nominal qiymatning real qiymat bilan mutanosibligi;

– qiymatning qardsizlanmasligi, ya’ni haqiqiy pullar har qanday sharoitda ham o‘zining dastlabki qiymatini yo‘qotmagan;

– ularni boshqa tovarlar kabi iste’mol qilish mumkinligi.

Biroq, natural pullarning hammasi ham yuqoridagi xossalarni uzoq muddatga saqlab turish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Masalan, bug‘doy, tamaki, choy, baliq, jun kabilar vaqt o‘tishi bilan o‘zining dastlabki xususiyatlarini yo‘qotgan.

Natural pullar

Jamiyatning dastlabki davrlarida to‘lov vositasi sifatida foydalanilgan pullar buyum yoki natural ko‘rinishida bo‘lgan. Natural pullar – bu real ko‘rinishga ega bo‘lgan tovarlardir, ushbu pullarning qiymati tovarning o‘zida aks ettirilgan bo‘lib, ularning sotib olish qobiliyati tovarlar qiymati bilan ifodalangan. Ma’lum bir tovarning pul o‘rnida foydalanishda uning iste’mol qiymati muhim ahamiyat kasb etgan.

Natural shakldagi pullarni uchta guruhga ajratgan holda tasniflash mumkin.

1. Hayvonlar shaklida. Ushbu pul tarkibiga tirik hayvonlar va ulardan tayyorlangan buyumlar kiradi. Masalan, qo‘y, buqa, jun, suyak va boshqalar.

2. Buyum shaklida. Bu shakldagi pullar tarkibiga foydali qazilmalar va metallar hamda ulardan yasalgan mehnat qurollarini keltirish mumkin. Masalan, qimmatbaho toshlar va metallar, tuz va boshqalar.

3. O‘simlik shaklida. Bularning tarkibiga turli o‘simliklar va ularning mevalari kiradi. Masalan, bug‘doy, mevalar, tamaki va boshqalar.

Natural pullarning paydo bo‘lishi va ulardan foydalanish tarixi juda chuqur va qiziqarlidir. Odamlar dastlab yovvoyi holda yashagan davrda barcha kishilar topgani o‘rtada bo‘lgan, birgalikda iste’mol qilgan, keyinchalik bir urug‘ga mansub kishilar qabila – qabila bo‘lib yashay boshlagan. Qabila ichida odamlar bir

– biriga yordam berishi, oziq – ovqatlarni baham koʻrishi kerak boʻlgan. Bu begʻaraz tartibda amalga oshirilib, buning oʻrniga ular bir – biridan hech narsa umid qilmagan, hamma narsa oʻrtada boʻlgan.

Keyinchalik ibtidoiy urugʻchlikning rivojlanishi natijasida turli qabila qatlamlari vujudga kelgan. Vaqti – vaqti bilan ular oʻrtasida dahshatli qonli toʻqnashuvlar boʻlib turgan. Ushbu toʻqnashuvlar natijasida bir qabila ikkinchisi ustidan gʻalaba qozongandan keyin, ularning barcha narsalarini talon taroj qilgan. SHu bois, ayrim qabilalar tinchlikni saqlash maqsadida kuchli qabilalarga narsalar, asosan iste'mol qilinadigan narsalarni bergan. Aynan shu jarayon ham kishilar oʻrtasida bir tomonlama ayirboshalash munosabatlarini vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Tosh asri davrida kishilar erlarni oʻzlashtirib ekin eka boshlagan, keyinchalik dehqonchilikdan chorvachilik ajralib chiqqan. Dastlab yaratilgan narsalar barchasi bir yoʻla iste'mol qilingan boʻlsa, endi ma'lum miqdorda zaxiralar qilina boshlagan. Zaxira qilindimi, u erda ortiqchalik vujudga kelgan. Ortiqcha narsalar esa unga egalik qiluvchi tomonidan erkin ravishda tasarruf qilingan. Buning natijasida ayirboshlash jarayoni jonlana boshlagan. SHuningdek, keyinchalik hunarmandchilik vujudga kelgan, bularning barchasi kishilar oʻrtasidagi bir tomonlama ayirboshlashdan ikki tomonlama ayirboshlash zaruriyatini keltirib chiqargan.

Odamlar oʻrtasida dastlab ayirboshlash vositasi sifatida juda keng tarqalgani mehnat qurollari hisoblanadi, 1 – rasmga qarang. Mehnat qurollariga dehqonda, chorvadorda yoki hunarmandda juda katta ehtiyoj mavjud boʻlib, ular oʻz mahsulotlarini iloji boricha mehnat qurollariga ayirboshlashga intilar edi. Mehnat qurollari eng qadimiy tovar – pullar hisoblanadi.

Masalan, tosh asrida Evropada eng koʻp tarqarlgan ayirboshlash vositasi kremnivie boltalar hisoblangan. Manbalarga koʻra ular juda yirik boʻlib, ayrimlarini ogʻirligi 40 kgni tashkil etgan. Evropada kremnivie boltalar juda keng tarqalgan boʻlib, unga ega boʻlgan kishilar juda boy va mavqie yuqori hisoblangan[32].

Бронза пул-лопатка. Милоддан олдинги III аср. Хитой.

Тошдан ясалган пул-пичоқ. Мексика-XVI аср.

Пул бугу шоҳи. Милоддан олдинги XII-X аср. Италия.

1-расм.

[32]Деньги мира. Ред.группа: О.Елисеева, Т.Евсеева и др. –М.: Мир энциклопедий Аванта+, Астрель, 2009. – 184 с.: ил. –(Самые красивые и знаменитые). –С. 14.

Agar Evropada bolta juda keng tarqalgan to‘lov vositasi hisoblansa, Russiyada iste’mol mollari ayirboshlash vositasi sifatida juda keng tarqalgan. Masalan, iste’mol tovarlar ichida buqalar asosiy to‘lov vositasi sifatida tan olingan. Barcha narsaning qiymati, hatto erlar ham buqalar bilan o‘lchangan.

Manbalarga ko‘ra, Xitoyning Xuanxe provinsiyasida odamlar chorvachilik bilan shug‘ullangani bois, bundan 4 ming yil oldin Xitoyda natural pullar sifatida buqalar, mayda to‘lov vositasi sifatida qo‘ylar xizmat qilgan. Dehqonchilikning rivojlanishi natijasida bug‘doy o‘lchov biriligi vositasida foydalanilgan. Bug‘doyni uzoq saqlash imkoniyati bo‘lmaganligi, u ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng buzilishi mumkinligi uchun kauralarning chig‘onoqlari, tosh bolta va shu kabi boshqa narsalardan pul vositasida foydalanilgan, 2 – rasmga qarang.



Тош пул-болта. Миloддан олдинги VIII-III аср. *Бронза танга “Юань-тун бао” ёзуви билан. Хитой, Миloддан олдинги III аср.* *Расм солинган пул-чиганоқ. Европа. 900-1100 йй.*

2-расм.

Qadimda natural pullar turli ko‘rinishda bo‘lib, (2 – rasmga qarang) ulardan to‘lov vositasi sifatida foydalanishga qator omillar ta’sir qilgan. Xususan:

– odamlarning kunlik ehtiyoji uchun juda zarur bo‘lgan buyumlar;

– mamlakatning tabiiy iqlimi va geografik joylashuvi;

– kamyob buyumlar va ularni etishtirishning murakkablik darajasi;

– uzoqroq muddat davomida saqlash imkoniyatining mavjudligi.

Metall pullar

Kishilar o‘rtasida ayirboshlash jarayonlarining tezlashuvi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ayirboshlash hajmining ortishiga olib keldi. Iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi natijasida kishilar metalni kashf etdilar, undan turli xil mehnat qurollarini yasab kundalik hayotida foydalandilar. Shu bilan birga, ushbu mehnat qurollari to‘lov vositasi vazifasini ham bajardi. Keyinchalik esa metalldan tanga pullarni zarb qilish yo‘lga qo‘yildi. Bularning barchasi ayirboshlash munosabatlari jarayonida foydalanib kelinayotgan natural pul shakllarini metall pul shakliga o‘tishiga zamin tayyorladi.

Metaldan yasalgan mehnat qurollarining to‘lov vositasi sifatida foydalanganligining xususiyati shunda ediki, kishilar metaldan tayyorlangan bolta va shunga o‘xshash narsalardan to‘lov vositasi sifatida foydalangan bo‘lsada, ular boshqa maqsadda, ya’ni kundalik hayotda foydalanish uchun yaratilgan edi. Masalan, kishilar metaldan yasalgan boltadan ayirboshlash vositasi sifatida keng foydalangan, lekin u to‘lov vositasini bajaradigan tanga ko‘rinishiga ega bo‘lmagan. Odamlar stixiyali ravishda metalldan yasalgan boltani to‘lov vositasi o‘rnida foydalanishgan.

Pulning natural koʻrinishidan metall tanga shakliga oʻtishi, yuqorida ta’kidlanganlardan tashqari quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etgan.

1.Kishilar metallarga turli shaklda ishlov berishni kashf etilishi. Ta’kidlaganimizdek, bolta va shunga oʻxshash temir qurollardan pul vositasi sifatida foydalanilgan, lekin ularni puldan foydalnishning metall davri deb yurita olmaymiz. Chunki, ushbu mehnat qurollarining funksiyalari boshqa boʻlgan. Kishilar metalni kashf qilganlaridan keyin oradan juda koʻp davrlar oʻtishi bilan unga ishlov berish yoʻllarini oʻrgandilar. Bu oʻz – oʻzidan metall tangalarni zarb etishga turtki boʻldi.

2.Davlatchilikning paydo boʻlishi. Metall kashf etilib, odamlarga unga ishlov berish yoʻllari ma’lum boʻlgandan soʻng, ma’lum hudud va qabilalar alohida kishilarning hukmronligi, xonligi va qirolligi ostida boshqarila boshlandi. Bu oʻz oʻzidan oʻsha davrning hukmroni, xoni yoki qirolining maqieni oshirish, oʻzining chegaralarini mustahkamlash va qonunlarini yuritish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bularning barchasi turli tasvirlar va yozuvlar tushirilgan tangalarni zarb etishga asos boʻldi.

3.Kishilar oʻrtasida tovar ayirboshlash hajmining ortib borishi natijasida ushbu jarayonning murakkablashuvi. Masalan, dehqon bir qop bugʻdoyni bitta boltaga ayirboshlashi uchun temirchi kosibning hoxishi dehqonning hoxishiga mos kelishi lozim. Ya’ni mazkur holatda, temirchining bir qop bugʻdoyga ehtiyoji boʻlishi kerak. Biroq, temirchiga bir qop bugʻdoy emas, balki bitta qoʻy kerak boʻlsa, u holda dehqon bugʻdoyni qoʻyga almashtirishi, soʻngra qoʻyni temirchiga olib kelib bitta boltaga almashishi zarur boʻlar edi. Koʻrinib turibdiki, kishilar oʻrtasida mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va ayirboshlash hajmining ortishi natural pullarni toʻlov vositasi sifatidagi vazifasini amalga oshirish imkoniyatlarini chegaralab qoʻydi.

4. Natural shakldagi pullarni saqlash va olib yurishning qiyinligi. Alabatta, oʻsha paytlarda pulning vazifasini bajargan bolta yoki boshqa mehnat qurollarini saqlash qiyin boʻlmagan boʻlsada, lekin ularni olib yurish va xavfsizligini ta’minlash odamlarga turli noqulayliklarni keltirib chiqargan. Pulning vazifasini bajargan bugʻdoy, jun, qoʻy yoki boshqa shunga oʻxshash narsalar esa vaqt oʻtishi bilan buzilgan, oʻzining dastlabki xususiyatini yoʻqotgan. Shu bilan birga, ularni olib yurish, ayniqsa saqlash ham odamlarga qoʻshimcha tashvish keltira boshlagan.

Bularning barchasi natural pullar oʻrniga metall pullarni muomalaga toʻlov vositasi sifatida kirib kelishiga zamin yaratdi.

Dastlab metall tangalar qora rangli temirlardan slitka koʻrinishida tayyorlangan boʻlsa, keyinchalik toʻrtburchak, uchburchak, yumaloq koʻrinishdagi tanga shaklini olgan.

Александр Македонский сурати туширилган кумуш тетрадрахма, аверс, реверс. Миср, Милоддан олдинги 310-305 йй.

Оптин 10 рубль, аверс, реверс. Россия, Елезавета Петровна.

3-расм.

Vaqt o‘tishi bilan temir tangalar o‘rnini bronza, kumush va oltin egalladi, 3–rasmga qarang. Temir metallardan yasalgan tanga to‘lov vositasini bajarganda ularning baho masshtabini tanganing og‘irligi bilan anqilangan. Keyinchalik bronza, mis va oltin tangalar to‘lov vositasini bajarganda esa baho masshtabi qimmatbaho metallarning nafaqat og‘irligi, balki ularning xossalari orqali ham aniqlanadigan bo‘ldi.

Muomalada metall tangalar, ayniqsa oltin tangalar pulning vazifasini bajarganda iqtisodiyotda pul muomalasini tartibga solishga ehtiyoj bo‘lmaydi. Chunki, qimmatbaho metallar haqiqiy qiymatga ega bo‘lgan asl pul hisoblanib, uning hajmi tovar massasasiga nisbatan avtomatik tarzda tartibga solinib boriladi. Ya’ni, agar iqtisodiyotda tovar massasi oltin massasi (qiymati)ga nisbatan kam bo‘lsa muomaladagi ortiqcha oltin tangalar boylik sifatida xazinaga joylashtiriladi. Agar, aksincha, muomalada oltin tangalar massasi tovar massasiga nisbatan kam bo‘lsa boylik sifatida xazinaga joylashtirilgan mablag‘lar muomalaga chiqarish orqali o‘zaro muvozanat ta’minlanadi.

Qog‘oz pullar

Qog‘oz pullarning muomalaga kiritilishi jamiyatda ijtimoiy – iqtisodiy voqelik bo‘lib, ushbu jarayon o‘zi bilan birgalikda qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolarning asosiysi inflyasiya hisoblanadi. Qog‘oz pullarning muomalaga chiqarilishi natijasida inflyasiya muammosining paydo bo‘lishini asosiy sabablaridan biri, ushbu pullar haqiqiy qiymatga ega bo‘lmagan, ya’ni haqiqiy pullarning o‘rinbosarlari hisoblanadi. Qog‘oz pullarda aks ettirilgan nominal qiymati ularning haqiqatdagi qiymatidan juda yuqoridir. Chunki qog‘oz pullarning haqiqiy qiymati juda past.

Yuqorida oltin tangalarning o‘rniga qog‘oz pullarning kirib kelishi bilan bog‘liq tavsilotlar atroflicha bayon etilgan. Ularni qaytarilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, oltin tangalarni saqlovchilar va oltinni saqlashga beruvchilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar natijasida qog‘oz pullarni muomlaga chiqarish bilan bog‘liq jarayonni qisqacha bayon etmoqchimiz. Ushbu jarayon Evropaning ayrim mamlakatlari va AQSh amaliyotida qog‘oz pullarning kirib kelish tajribasida ro‘y bergan.

Chunki, ushbu mamlakatarda qog‘oz pullar Xitoy, Turkiston, Rossiya malakatlaridan keyin muomalaga kiritilgan bo‘lsada, oltin tangalarni muomaladan chiqib ketishi natijasida ularning o‘rniga qog‘oz pullarni kirib kelishi stixiyali

tarzda roʻy bergan. Manabalarga koʻra, dastlabki qogʻoz pullar Xitoy, Turkiston va Rossiyada davlati tomonidan muomalaga chiqarilgan.

Jamiyatda tovar – pul munosabatlarining jadal rivojlanib borishi natijasida, kishilar oʻrtasida ayirboshlash hajmi misli koʻrilmagan darajada oʻsib bordi. Bu jarayon oltinlarni saqlash va ularning xavfsizligini ta'minlash borasida qator muammolarni keltirib chiqara boshladi. Bularni bartaraf etish maqsadida oltinlarni saqlab berish evaziga daromad oluvchilar paydo boʻldi[33]. Oltin saqlovchilar asta – sekinlik bilan odamlarning ishonchiga kirib borishi natijasida kishilar vaqtinchalik boʻsh oltin tangalarini ma'lum haq toʻlash evaziga ularga topshira boshladi. Oltin saqlovchi oltinlarni saqlar, ularning xavfsizligiga javobgar edi, shuningdek, kimga, qachon va qancha oltin kerak boʻlsa tegishli yozuvlarni (oltinni olganligini tasdiqlovchi tilxatlar) yuritgan holda bera boshladi.

"A" shaxs "B" shaxsga sotib olgan tovari uchun toʻlagan oltin tangani "B" shaxs ham oʻz navbatida ehtiyojidan ortiqcha qismini oltin saqlovchiga eltib topshirar edi. Bu oltin saqlovchi va oltinni saqlashga beruvchilar oʻrtasida oʻzaro ishonchning paydo boʻlishiga olib keldi. Keyinchalik oltin saqlovchi odamlar orasida tanilib, ishonchga kira boshlaganlaridan soʻng odamlar ehtiyojlari uchun zarur boʻlgan oltinni olmasdan, tovar va mahsulot uchun sotuvchiga tilxatlarning oʻzini toʻlov vositasi sifatida bera boshladi. Oʻz navbatida sotuvchi ushbu tilxatlarni toʻlov vositasi sifatida qabul qildi, zarur hollarda ushbu tilxat asosida oltin saqlovchidan kerakli miqdordagi oltinlarni oldi, yoki uchinchi shaxsga toʻlov vositasi sifatida oʻtkazib yubordi. Shu tariqa muomalada qogʻoz pullar paydo boʻldi.

Bu jarayon shu darajada rivojlanib ketdiki, barcha taniqli va etarli darajada ishonchga ega boʻlgan oltin saqlovchilarning tilxatlari muomalada toʻlov vositasini bajara boshladi. Dastlab muomalaga chiqarilgan qogʻoz pullar toʻligʻicha oltin bilan ta'minlangan edi. Keyinchalik esa oltin saqlovchining kasodga uchrashi, yoki odamlarning ishonchini suiste'mol qilishi natijasida muomalada ta'minlanmagan qogʻoz pullar paydo boʻla boshladi. Natijada ushbu pullar oltin saqlovchilarga taqdim etilganda ular buning evaziga oltin tangalar berishdan bosh tortdi. Bularning barchasi mamlakatda pul muomalasini izdan chiqishi oqibatida xoʻjalik yuritish va hisob – kitoblarni amalga oshirishda tanazulliklarni keltirib chiqardi. Aynan shu jarayonda davlat qogʻoz pullarni tartibga solish va yagona emissiya qilishni oʻz qoʻliga oldi. Buning uchun alohida davlat banki, ya'ni Markaziy bankni tashkil etdi, unga muomalaga qogʻoz pullarni chiqarish, pul muomalasini tartibga solish vazifalari yuklatildi. Tijorat banklari esa muomalga naqd pullarni emissiya qilish huquqidan mahrum etilib, mijozlarga bank xizmatlarini koʻrsatadigan tijorat muassasalariga aylantirildi.

Angliyada qogʻoz pullar 1817–1843 yillarda tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan, 1813 yilda Angliya Banki oʻz banknotasini muomalaga chiqardi. 1844 yildan boshlab esa tijorat banklariga pulni emissiya qilish bekor qilindi va R.Pilning qonuniga asosan Angliya Bankining emissiya huquqi joriy etildi.

[33]Бир неча асрдан кейин ушбу "олтин сақловчилар" банкларга айландилар.

Qog‘oz pullar ta’minlanmagan, asl qiymatga ega pullar bo‘lmaganligi sababli ayrim davlatlarda muomalaga chiqarilgan pullar dastlabki davrlarda to‘lov vositasi sifatida hisob – kitoblarda keng qo‘llanilishida muammolar uchrab turgan. Buning oldini olish maqsadida og‘ir choralar qo‘llanilgan. Masalan, Xitoyda qog‘oz pulning o‘ziga uni to‘lov vositasi sifatida qabul qilmagan shaxsning boshi kesilishi qayd etilgan, Fransiyada 25 yil qamoq jazosi, ba’zi hollarda o‘lim jazosi ham qo‘llanilgan. Angliyada chiqarilgan qog‘oz pullarni to‘lov vositasi sifatida qabul qilmagan kishilarni davlatga qarshi xiyonat darajasigacha olib chiqilgan.

Davlat tomonidan emissiya qilingan qog‘oz pullar bevosita va bilvosita ta’minlangan edi. Bevosita ta’minlangani oltin tangalar bilan, davlatning soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarni shu qog‘oz pullarda qabul qilishi bilvosita ta’minlanganligi sifatida belgilab qo‘yildi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “emissiya qilish” va “muomalaga pul chiqarish” tarzidagi ma’nosi bir – biriga yaqin bo‘lgan iqtisodiy terminlarni uchratamiz. Biroq bu ikki iqtisodiy termin ma’nosi va iqtisodiyotga ta’siri jihatidan bir – biridan tubdan farq qiladi.

Naqd pullarni muomalga emissiya qilinishi iqtisodiyotda pul massasining hajmini oshiradi. Bu ishni mamlakat Markaziy banki amalga oshiradi. Muomalaga naqd pullarni chiqarish esa mavjud pul massasi hajmini o‘zgartirmagan holda tijorat banklari tomonidan amalga oshiradi.

Mamlakatda iqtisodiy inqirozlar, tabiiy ofatlar va urushlar ro‘y berganda davlatning xarajatlari juda ortib ketardi. Ushbu xarajatlar davlatning topshirig‘i bilan muomalaga chiqariladigan qo‘shimcha pul emissiyasi orqali hal etilar edi, bu o‘z navbatida qog‘oz pullarning qadrsizlanishiga va pul muomalasining izdan chiqishiga olib kelardi.

Shuning uchun ham qog‘oz pullar asl qiymatga ega bo‘lmagan, o‘rinbosar pullar hisoblanib, ularni doimiy ravishda tartibga solib borish va tegishli nazoratni amalga oshirishni talab etadi.

Elektron pullar

Banklarning rivojlanishi, o‘zaro to‘lovlar va hisob – kitoblar hajmining ortishi, shuningdek, texnika va texnologiyaning takomillashuvi natijasida XX asrning ikkinchi yarmidan elektron pullar vujudga keldi. Elektron pullarning to‘lov instrumenti bo‘lib – plastik kartalar hisoblanadi.

Plastik karta – bu pullarni naqdsiz ko‘rinishda ko‘chirish yoki naqd pul ko‘rinishda olish imkoniyatini beradigan, banklar va boshqa kredit muassasalari tomonidan chiqarilgan nomli to‘lov hujjat hisoblanadi.

Plastik kartalar bank tizimi va undan foydalanuvchilar uchun qulaylik jihatlari juda ko‘p. Xususan:

– kishi 1, 2, 3 mln so‘mni hamyonida olib yurolmaydi, lekin plastik kartada bunday muammo mavjud emas;

– hamyoningizdagi pulni yo‘qotsangiz yoki unutib biror joyda qoldirsangiz ularni begona shaxs foydalanishi mumkin, lekin plastik kartalardan begona shaxslarni foydalanish imkoniyati juda chegaralangan. Chunki ularning maxsus paroli mavjud, shu bilan birga, plastik kartani yo‘qotgan shaxs zudlik bilan bankka xabar bersa uning hisobraqamlari bo‘yicha to‘lovlarni to‘xtatib qo‘yish mumkin;

– banklar naqd pullarni tashish, saqlash, ularning hisobini yuritish va mijozlarga berish kabi qo‘shimcha mehnat va sarf xarajatdan forig‘ bo‘ladi;

– banklar depozit siyosatidan kelib chiqib foydalanuvchi plastik kartadagi vaqtinchalik foydalanmay turgan qoldiq summalariga qo‘shimcha foiz to‘lashi mumkin.

O‘zbekistonda plastik kartochkalarni joriy qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrdagi “Plastik kartochkalar asosida hisob – kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” 445 – sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 3 avgustdagi “Plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob – kitob tizimini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 433 – sonli va 2010 yil 19 apreldagi “Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob – kitob tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 1325 – sonli Qarorlari shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda barcha tijorat banklari o‘z plastik kartochkalariga ega bo‘lib, ularning soni yildan – yilga ortib bormoqda.

O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan joriy etilgan plastik kartalar bilan hisob – kitoblar samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

– savdo nuqtalarida plastik kartalar bilan hisob – kitoblarni amalga oshirish uchun terminallarni ko‘paytirish;

– ish haqi va unga tenglashtirilgan mablag‘larni plastik kartalarga o‘tkazish jarayonini yanada takomillashirish;

– barcha bank bo‘limlari boshqa banklarning plastik kartochkalari bo‘yicha ham naqd pullarni echishlishini ta’minlash kabi ishlarni yo‘lga qo‘yish lozim.

YUqorida qayd etilgan holatlar bo‘yicha Markaziy bank va tijorat banklari, tegishli muassasalar, shuningdek, savdo nuqtalari tomonidan amlaga oshirilayotgan ishlar plastik kartalarni yanada kengroq va samarali ishlashiga imkoniyat yaratadi.

Tovar xo‘jaligi sharoitida pulning roli

Jamiyatda mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish jarayonining mavjudligi iqtisodiy hayotda pulning roli doimo oshib boraveradi. Birgina mehnat taqsimotiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, kompaniya yoki firma biror narsani ishlab chiqarish yoki xizmat turini ko‘rsatish uchun zarur xom – ashyo va materiallarni olish maqsadida bir necha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bilan iqtisodiy aloqalarni o‘rnatadi, ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida ishtirok etayotgan xodimlarning mehnati uchun haq to‘laydi va boshqa qator ishlarni amalga oshiradi. Bularning barchasi tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy hamkorlik va manfaatdorlik asosida amalga oshiriladi. Mana shu iqtisodiy hamkorlik va manfaatdorlikni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi sifatida pulning roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillarida biri har qanday faoliyatning asosida iqtisodiy manfaatdorlik yotadi. Ishlab chiqaruvchi korxona, tashkilot yoki firma yaratayotgan tovar yoki xizmatlarni shaxsiy iste’moli uchun emas, balki bozorda sotish orqali tegishli iqtisodiy foyda ko‘rish ilinjida ishlab chiqaradi. Bu

ishlab chiqaruvchi va iste’molchilar o‘rtasida tovar – pul munosabatlarini vujudga keltiradi, ushbu munosabatda pul ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘ratasida ayirboshlash vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Bu erda ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasida ayirboshlanadigan tovar yoki mahsulotning bahosi muhim rol o‘ynaydi. Ularning bahosi bozordagi talab va taklif asosida pulda ifodalanadi. Pulning rolini amal qilishida baho muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi, tovar va xizmatlar bahosiga qator omillar ta’sir qiladi. Xususan, tovar va xizmatlarning sifati, unga bo‘lgan talab darajasi, sotib oluvchining to‘lov qobiliyati va boshqa qator omillar shular jumlasidandir.

Haqiqatda ham yuqorida qayd etilgan jarayonlarni tashkil etishda pulning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. SHu bilan birga, pulning tovar xo‘jaligi sharoitida amal qilishining samaradorligini oshishiga qator omillar ta’sir qiladi. Xususan ular quyidagilardan iborat.

1. Iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligi. Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va raqobatbardoshligi aholining iste’mol tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabini mahalliy ishlab chiqarish hisobidan qondirish imkoniyatini beradi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida juda muhim hisoblanadi. Birinchidan, import hajmini qisqartirish asosida xorijiy valyutalarni chetga chiqib ketishining oldini oladi. Ikkinchidan, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan barqarorligini oshiradi.

2. Markaziy bankning mustaqilligini ta’minlanganligi. Ma’lumki, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan, ushbu maqsadni samarali amalga oshirish uchun Markaziy bank hukumat va davlat boshqaruv organlari bosimidan holi bo‘lishi lozim. Aks holda milliy valyutaning barqarorligi zaiflashadi va uning xalq xo‘jaligidagi roli pasayadi.

3. Aholi va mijozlarning bank tizimiga ishonchining mustahkamligi. Mamlakat aholisi va mijozlarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchining yuqoriligi pulning roliga bevosita va bilvosita ta’sir qiladi. Chunki aholi va mijozlarning banklarga nisbatan ishonchining yuqoriligi ularning vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini banklarga muddatli omonat sifatida qo‘yishga undaydi. Bu esa pulning jamg‘arma vositasi va to‘lov vositasi rolini oshiradi, shu bilan birga, birinchidan, pul egalariga qo‘shimcha daromad keltiradi, ikkinchidan, banklarning real sektorni kreditlash imkoniyatlarini oshiradi. Bularning barchasi tovar xo‘jaligi sharoitida pulning rolini oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Inflyasiya darajasining tegishli me’yorlarda saqlab turilishi. Milliy valyutaning inflyasiya darajasi xalqaro amaliyotda qabul qilingan me’yorlardan ortib ketishi uning iqtisodiyotdagi roliga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Inflyasiya darajasi yuqori bo‘lgan sharoitda aholining real daromadlari pasayadi, kredit muassasalarida uzoq muddatli omonatlar hajmi qisqaradi, korxona va tashkilotlar ishlab chiqarish hisobidan emas, balki o‘zaro olib sotish yo‘li bilan daromad izlash payiga tushib qoladi. Natijada aholining iste’mol tovarlarga bo‘lgan talabi mahalliy ishlab chiqarish hisobidan emas, balki import hisobidan qondiriladi. Bularning barchasi milliy valyutaning iqtisodiyotdagi rolini pasayishiga olib keladi.

To‘lov tizimining evolyusiyasi.

Pulning funksiyalari va ularning turli xil shakllarini yaxshiroq tushunish uchun, to‘lov tizimining evolyusiyasi va iqtisodiyotda ayirboshlash operatsiyalarini o‘tkazish usullarini ko‘rib chiqamiz. To‘lov tizimi yuz yillar davomida pul shakllari bilan bir qatorda rivojlanib bormoqda. Zamonning ma’lum bir davrida oltin kabi qimmatbaho metallar asosiy to‘lov vositasi sifatida foydalanilgan va pulning asosiy shakli hisoblangan. Keyinchalik cheklar va qog‘oz pullar ko‘rinishidagi qog‘ozli aktivlarto‘lov tizimida foydalanish boshlangan va pulning asosiy shakli hisoblangan. To‘lov tizimining rivojlanishini kuzata turib, kelajakda pulning qanday shakllari muhim o‘rinni egallashini aniqlab olish muhimdir.

Tovar pullar.

To‘lov tizimining rivojlanish istiqbollarini baholash uchun, uning shakllanish tarixini o‘rganish lozim. Pul funksiyasini bajaradigan har qanday ob’ekt universal jihatdan qabul qilingan bo‘lishi shart va barcha tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov sifatida qabul qilishga rozi bo‘lishi lozim. Har bir kishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan ob’ekt iqtisodiyotda pul rolini bajarish uchun ehtimoliy nomzod hisoblanadi. Qimmatbaho metall yoki boshqa qimmatli tovardan ishlangan pullar ***tovar pullar*** *deyiladi. Qadimgi davrdan toki so‘nggi o‘rta asrlargacha eng primitivlaridan tashqari barcha jamiyatlarda ayirboshlash vositasini tovar pullar bajarishgan. To‘laligicha qimmatbaho metallar asoslanadigan to‘lov tizimining muammosi shundan iborat ediki, bunday pullar juda og‘ir va bir joydan ikkinchi joyga tashish juda ham qiyin edi.Barcha narsalarni faqat metall pullarga sotib olishga to‘g‘ri kelganda, sizning cho‘ntagingizda qanday teshiklar bo‘lishini tasavvur qilib ko‘ring. SHunisi aniqki, biror narsani xarid qilishga to‘g‘ri kelib qolsa, uyingizdan pullarni etkazib berish uchun yuk mashinasi yollashingiz talab qilinadi.*

Qog‘oz pullar.

To‘lov tizimi rivojlanishining keyingi bosqichi qog‘oz pullar hisoblanadi. (ayirboshlash vositasi sifatida foydalaniladigan qog‘oz varaqlari). Dastlab qog‘oz pullarni tangalarga yoki ma’lum bir miqdordagi qimmatbaho metallarga ayirboshlashni kafolatlash tizimi mavjud edi. Ammo ko‘plab mamlakatlarda bu qog‘oz pullar qonuniy ravishda qarzlarni to‘lash bilan bog‘liq ayirboshlash operatsiyalarida foydalaniladigan, ammo tangalarga yoki qimmatbaho metallarga ayirboshlanmaydigan ***fidutsiar qog‘oz pullarga*** *aylandi. Qog‘oz pullarning eng katta ustunligi shundan iboratki, ular tangalar yoki qimmatbaho metallarga nisbatan engilroq edi. Ammo ayirboshlash vositasi sifatida ular faqatgina qog‘oz pullarni muomalaga chiqaruvchi hokimiyatga faqatgina ma’lum bir ishonch bo‘lgan holatdagina ayirboshlash vositasi sifatida qabul qilingan. Qog‘oz pullarning bosma holati sifati etarli ravishda yuqori darajada bo‘lishi hamda qalbakilashtirishning imkoni mavjud bo‘lmasligi lozim. Qanchalik darajada qog‘oz pullar kelishuv shakli bo‘lsa, mamlakatlar yangi pullarni muomalaga chiqarishlari yoki o‘z xohishiga ko‘ra eski pullarga o‘zgartirishlar kiritishlari mumkin. Darhaqiqat, 2002 yilda ko‘plab Evropa mamlakatlari o‘zlarining milliy valyutalarini bekor qilib, evroga o‘tishlari yaqqol misol bo‘ladi. Qog‘oz pullar va tangalarning eng katta kamchiligi ularning osonlik bilan o‘g‘irlanishi va*

hajmining yirikligi hisobiga katta miqdorda tashish juda katta xarajatlarni talab qilishi hisoblanadi. Bu muammoni hal etish maqsadida to‘lov tizimi rivojlanishida navbatdagi qadam tashlandi. Bank ishining zamonaviy darajasi cheklarni keng tatbiq etilishini ko‘zda tutadi.

Cheklar.

Chek –bir hisobraqamdan boshqasiga pulni o‘tkazish bo‘yicha bankga topshiriqdir. Cheklar katta miqdordagi naqd pullardan foydalanmasdan ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Cheklarning tatbiq etilishi to‘lov tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Ko‘pgina to‘lovlar qarama-qarshi yo‘nalishlarda amalga oshirila turib, bir-birini o‘zaro so‘ndiradi. Cheklar yordamida to‘lovlarning o‘zaro so‘ndirilishi naqd pullarsiz sodir bo‘ladi. O‘z navbatida, cheklardan foydalanish to‘lov tizimi bilan bog‘liq transport xarajatlari qisqartiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Cheklarning boshqa ustunligi shundan iboratki, ularga hisobrakamdagi qoldiqdan oshib ketmaydigan summada har qanday summani yozish mumkin. Bu yirik operatsiyalarni amalga oshirishni engillashtiradi. Cheklar xarid uchun hisob-kitob qilishda qulayligi bois o‘g‘irlatish imkonini bermaydi. Ammo cheklarga asoslangan to‘lov tizimida ikkita kamchilik mavjud. Birinchidan, chekni bir joydan ikkinchi joyga etkazib berish vaqt talab qiladi. Bu holat juda ham pulga ehtiyoji bor to‘lovni oluvchi boshqa shaharda joylashganda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari siz chekni egasi sifatida bilasizki, chekda yozilgan summani depozitga kirim qilganingizdan so‘ng bank bir necha kundan so‘ng sizga depozitdan foydalanishga ruxsat beradi. Agar sizga zudlik bilan naqd pul zarur bo‘ladigan bo‘lsa, cheklar bilan to‘lovni amalga oshirish xafsalani pir qiladi. Ikkinchidan, cheklarni chop etadigan qog‘oz qimmatga tushadi; baholashlaricha AQShda cheklarga ishlov berish xar yili 10 mlrd. AQSh dollari sarflanadi.

Elektron to‘lovlar.

Arzon kompyuterlarning yaratilishi va Internet ni keng tarqalishi elektron to‘lovlarni tatbiq etishga shart-sharoit yaratdi. Qadimda cheklarni pochta orqali yuborish orqali to‘lashingiz shart edi. Ammo hozirgi kunda siz banklarning Web saytiga kirib, bir nechta klavishlarni bosish orqali to‘lovni elektron ko‘rinishda yuborishingiz mumkin. Siz nafaqat pochta xarajatlarini kamaytirasiz, balki kam harakat talab qilganligi bois hisobni to‘lash deyarli sevimli mashg‘ulot hisoblanadi. Banklar tomonidan ta’minlangan elektron to‘lov tizimi hisobni to‘lash uchun tarmoqqa ulanish zaruriyatidan qutqarib, takrorlanadigan to‘lovlar avtomat ravishda sizning hisobraqamingizdan echib olinadi. Baholanishicha to‘lovni chekda amalga oshirilishiga nisbatan elektron ko‘rinishda o‘tkazilishi 1 dollardan ortiq tranzaksion xarajatni keltirib chiqaradi. SHuning uchun AQSHda elektron to‘lovlar yanada kengroq qo‘llanilmoqda.

Elektron to‘lovlar texnologiyasi faqatgina elektron shaklda mavjud bo‘lgan pul – ***elektron ko‘rinishdagi pullar*** *(yoki* ***e-money****) nafaqat cheklarni balki naqd pullarning o‘rnini bosdi. Elektron pullarning birinchi ko‘rinishi debet plastik kartochkasi edi. Debet plastik kartochkasi kredit kartochkasiga o‘xshash bo‘lib, ist’emolchilarning bank hisobraqamlaridan mablag‘ni sotuvchining hisobraqamiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tkazish orqali tovar va xizmatlarni sotib olish*

imkonini beradi. Debet kartochkalar kredit kartochkalar qo‘llanilayotgan ob’ektlarda foydalanilib, naqd pullarga qaraganda ko‘proq ishlatilmoqda. Masalan, ko‘plab supermarketlarda siz debet kartochkangizni maxsus hisoblovchi kassa apparati orqali o‘tkazib, tugmani bossangiz, xaridingizni qiymati bank hisobingizdan echib olinadi. Ko‘plab banklar va Visa hamdaMaster Card kabikompaniyalar debet kartochkalarni chiqarishadi. Bankomat uchun kartochka ham debet kartochka sifatida ishlaydi. Elektron pullarning ancha takomillashgan shakli – xotirali kartochka hisoblanadi. Bunday kartochkalarning soddaroq varianti telefon ko‘rinishida bo‘lib, oldindan pul to‘lash orqali sotib olinadi va ist’emolchi tomonidan ma’lum bir xaridlarni amalga oshirish imkoniyati bo‘ladi. Xotirali ancha murakkab kartochka smart karta xisoblanadi. Kartochka mikroprotsessori bank xisobvarag‘idan elektron pullarni echib olish orqali smart kartani elektron pullar bilan to‘ldiradi. Smart kartalar bilan telefon apparatlari va personal kompyuterlar bilan maxsus jihozlangan bankomatlar ishlaydi. Elektron pullarning uchinchi shakli tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun foydalaniladigan elektron naqd pullar hisoblanadi. Xaridor Internetda foydalanish orqali bank xisobraqamini yuritishi natijasida o‘zining personal kompyuterida naqd pullarni qabul qiladi. Xaridni amalga oshirishni to‘xtatish uchun elektron magazinga murojaat qiladi va tanlab olingan tovar bilan bir qatorda “sotib olmoq” knopkasini bosadi. Natijada elektron naqd pullar avtomat ravishda o‘zining kompyuteridan sotuvchining kompyuteriga uzatiladi. Sotuvchi pullarni sotib oluvchining bank xisobraqamidan tovarlarni yuklab jo‘natishgacha bo‘lgan davr oralig‘ida qabul qiladi. Elektron pullarning qulayligini xisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, barcha to‘lovlar elektron ko‘rinishda amalga oshiriladigan naqd pulsiz jamiyatga tezkorlik bilan o‘tish imkoniyatiga egamiz. Ammo bu hodisa sodir bo‘lmadi.

Biz naqd pulsiz jamiyatga o‘tmoqdamizmi?

So‘nggi o‘n yillikda doimiy ravishda naqd pullarsiz jamiyatga o‘tish masalasi muhokam etib kelinmoqda. Ammo tarixiy rivojlanishning ushbu bosqichi xali xam amalga oshgani yo‘q. Misol uchun, 1975 yilda Business Week elektron to‘lovlarning tatbiq etilishi “tez suratlarda aynan pul konsepsiyasini o‘zgarishi” ga olib kelishini bashorat qilgan edi. Ammo bir necha yillar o‘tgandan so‘ng nashr o‘zining xulosalarini rad qildi. So‘nggi yillarda ist’emolchilarning elektron pullardan foydalanishga o‘rgatish maqsadida smart kartalarni tatbiq etish bilan bog‘liq bilan bir nechta tajribaviy loiyhalarni amalga oshirilishi muvaffaqiyatsiz yakunlandi. 1995 yilda Buyuk Britaniyada muomalaga chiqarilgan eng birinchi reklama qilingan xotirali kartochkalardan biri Mondex faqatgina mamlakatning bir nechta universitet shaxarchalarida foydalanildi. Germaniya va Belgiyada millionlab odamlar mikroprotsessor o‘rnatilgan kartochkalarga ega bo‘lib, aynan ushbu kartochkalarni elektron pullar sifatida foydalanish mumkin. Lekin bunday turdagi kartochkalardan foydalanuvchilar juda kamchilikni tashkil qiladi. Nima sababdan biz qog‘oz pullarsiz jamiyatga juda sekinlik bilan o‘tmoqdamiz? Garchand elektron pullar qog‘oz pullar to‘lov tizimiga nisbatan ancha qulay va samarali bo‘lsada, bir qator kamchiliklarga ega hisoblanadi. Birinchidan, kompyuter, kard redir va telekommunikatsiyalar tarmog‘ini o‘rnatish juda katta

mablag‘ talab etganligi bois elektron pullar asosiy to‘lov shakli sifatida o‘rin egallashi qiyin kechmoqda. Ikkinchidan, elektron pullarga o‘tish ishonchlilik va xavfsizlik masalasida bir qator savollarni o‘rtaga tashlaydi. Biz tez-tez qandaydir xaker ma’lumotlar bazasini ochganligi va mavjud ma’lumotlarga o‘zgartirish kiritganligi to‘g‘risida eshitib qolamiz. Ko‘p uchrab turadigan xolatlaridan biri jinoyatchilar elektron to‘lov tizimidagi bank xisobraqamlarini ochishib, birovning xisobvarag‘idagi pullarni o‘g‘irlash orqali o‘zining xisobraqamiga o‘tkazib yuboradi. Bunday turdagi firibgarliklarni oldini olish maqsadida qilingan xarakatlar informatsion texnologiyalar xavfsizligi sohasida yangi tadqiqotlarni rivojlantirishga turtki bo‘lmoqda. Bu masalada xavotirning kuchayishiga yana bir sabab shu bilan izohlanadiki, elektron mablag‘lardan to‘lov sifatida foydalanish sotib oluvchilarning ehtiyojlarini to‘g‘risida “elektron iz” larni qoldirilishiga sabab bo‘ladi. Xukumat, ish beruvchilar va savdogarlar ushbu ma’lumotlardan foydalanishi orqali fuqarolarning shaxsiy hayotiga daxl qilishlari mumkin bo‘ladi.

Yuqorida qilingan muxokamalardan xulosa qilishimiz mumkinki, kelajakda elektron pullardan foydalanish keng ko‘lamda amalga oshirilishiga qaramasdan, Mark Tvinning “naqd pullardan foydalanishning to‘xtashi to‘g‘risidagi mish-mishlar ancha oshirib yuborilgandir”.

Elektron pullarning uchinchi shakli elektron naqd pullar hisoblanib, Internet orqali tovar va xizmatlar sotib olishni ko‘zda tutadi. Internetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan sotib oluvchi bankda o‘z xisobvarag‘ini yuritadi va o‘zining shaxsiy kompyuteridan elektron naqd pullarni oladi. To‘lovni amalga oshirishni tugatish uchun elektron magazinga murojaat qiladi va tanlangan tovar bilan bir qatorda “sotib olmoq” tugmasini bosadi. Natijada elektron naqd pullar avtomatik ravishda uning kompyuteridan sotuvchining kompyuteriga o‘tadi. Tovarlar yuklangungacha sotuvchi sotib oluvchining hisobraqamidan pullarni olishi mumkin. Elektron pullarning qulayligini hisobga olib, uylamizki, biz tezlik bilan barcha to‘lovlar elektron ko‘rinishda amalga oshiriladigan qog‘oz pullarsiz jamiyatga o‘tishimiz zarurdir. Afsuski, xozirgi davrgacha bu tizimga o‘tish amalga oshmadi. (yuqorida keltirilgan “Biz naqd pulsiz jamiyatga o‘tmoqdamizmi?” parchasiga qarang.)

Pullarni o‘lchash.

Pulning umum qabul qilingan to‘lov vositasi sifatida mohiyatining tavsif etilishi, tovar va xizmatlarga chegarasiz ayirboshlanishi va qarz majburiyatlarini so‘ndirishda foydalanilishi ko‘rsatadiki, pullar odamlarning fe’l-atvoriga bog‘liq hisoblanadi. Agarda ularni tovar va xizmatlarni to‘lash yoki qarzdorlikni so‘ndirishda ishlatiladigan bo‘lsa, aktivlarni pulga aylanish jarayoni yuzaga keladi. Ko‘rganimizdik, yuz yillar davomida ko‘plab turli aktivlar, ya’ni oltin va qog‘oz pullardan tortib chek depozitlarigacha pul rolini bajardi. Shuning uchun pulning axloqiy tavsif etilishi qanday aktivlarni pul sifatida qabul qilinishini aniq belgilamaydi.

Federal rezerv tizimining pul aggregatlari.

Federal rezerv tizimi – AQShda monetar siyosatni amalga oshiruvchi bosh muassasa hisoblanib, pullarni o‘lchash borasidagi muammolar borasida ko‘plab tadqiqotlarni o‘tkazadi. So‘nggi yillarda moliyaviy innovatsiyalarni tatbiq etilishi

pullarga tegishli yangi turdagi aktivlarni yaratilishiga olib kelib uning ahamiyatini yanada oshirdi. 1980 yildan keyin Federal rezerv tizimi bir necha marotaba pullarni o‘lchashga oid yondashuvni o‘zgartirdi va ***pul aggregatlari-*** *M1, M2, MZ deb nomlanuvchi pul massasining uchta ko‘rsatkichlarida to‘xtadi. (Financial News box ga tegishli 1-jadvalga qarang.)*

Pul aggregatlarining eng qisqasi M1 hisoblanib, naqd pullar, joriy hisoblar va yo‘l cheklarini o‘z ichiga oladi. M1 ning tarkibiy elementlari 1-jadvalda keltirilgandir. M1ning naqd pullar komponenti o‘z ichiga faqatgina muomaladagi qog‘oz pullar va tangalarni olib, bankomatlar va bank depozit yacheykalarida joylashgan naqd pullarni o‘z ichiga olmaydi. Eng qizig‘i shundaki, AQSHda har bir inson uchun 3000$ dan ortiq naqd pullar muomalada mavjuddir. (FYI jadvalini qarang). Sa yohatchilarning cheklari M1ning elementi hisoblanib, banklar tomonidan muomalaga chiqarilmagan sayohatchilarning cheklarini o‘z ichiga oladi. Talab qilib olinguncha depozitlar elementi foiz to‘lanmaydigan biznes depozit hisobraqamalari va banklar tomonidan muomalaga chiqarilgan sayohatchilarning cheklarini o‘z ichiga oladi. Boshqa talab qilib olinguncha depozitlar punkti o‘z ichiga barcha boshqa turdagi talab qilib olinguncha depozitlar, ya’ni uy xo‘jaliklari tomonidan ushlab turiladigan foiz hisoblaydigan talab qilib olinguncha depozitlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu aktivlar sof pullar hisoblanib, bevosita ayirboshlash vositasida foydalanilishi mumkin. 1970 yillarning o‘rtalariga qadar tijorat banklari tomonidan faqatgina foizlar to‘lanishi ruxsat etilmagan joriy hisobvaraqlarni taklif qilishgan. Moliyaviy innovatsiyalar moliyaviy tizimni tartibga solishning normalariga o‘zgartirishlar kiritilishiga shart-sharoitlar yaratgan bo‘lsada, hozirgi kunda banklarning boshqa turlari – ssuda-jamg‘arma assotsiatsiyalari, o‘zaro jamg‘arma banklari va kredit soyuzlari ham joriy hisobvaraqlarni taklif etishmoqda. Bundan tashqari, bank muassasasi foizlar to‘lanadigan boshqa chek depozitlari, ya’ni NAU hisobraqamlari (NOW — negotiated order of withdrawal), xisobraqamlardan avtomatik transfer xizmatlarini (ATS — automatic transfer from savings) taklif etishmoqda.

TABLE 1

Measures of the Monetary Aggregates

	Value as of May 16, 2011 ($ billions)
M1 = Currency	958.8
+ Traveler's checks	4.6
+ Demand deposits	573.1
+ Other checkable deposits	399.0
Total M1	1,935.5
M2 = M1	
+ Small-denomination time deposits	848.3
+ Savings deposits and money market deposit accounts	5,530.4
+ Money market mutual fund shares (retail)	688.4
Total M2	9,002.6

Source: www.federalreserve.gov/releases/h6/hist.

1-rasm. Pul aggregatlarini o'lchash

M2 pul aggregati M1 aggregatini hamda M1 aggregati tarkibiga kirishi uchun etarli darajada likvidli bo'lmagan boshqa aktivlarni o'z ichiga oladi: chek yozib berish xususiyatidagi aktivlar (pul bozori depozit hisobraqamlari va pul bozori investitsion fondlaridagi ulushlar) va juda kam xarajat hisobiga naqd pulga aylanadigan boshqa aktivlar (jamg'arma depozitlar va kichik denominatsiyali muddatli depozitlar). Kichik denominatsiyali muddatli depozitlar denominatsiyasi 100000$ dan kam bo'lgan depozit sertifikati hisoblanib, shtraflarsiz faqatgina fiksirlangan qoplash muddatida so'ndiriladi. Jamg'arma depozitlar notranzaksion depozitlar hisoblanib, istalgan vaqtda qo'shimcha mablag'lar kiritilishi yoki olinishi mumkin. Pul bozori depozit hisobraqamlari pul bozori investitsion fondlariga o'xshash bo'lib, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqariladi. Investitsion fondlari ulushi chakana xisobvaraqlar hisoblanib, uy xo'jaliklari cheklar yozishi mumkin.

Barcha AQSh dollari qaerda?

AQShda har bir odam uchun 3000$ dan ortiq naqd pullarni to'g'ri kelishi etarli darajada katta hisoblanadi. AQSh dollari banknotasi yirik gabaritli bo'lib, osonlik bilan o'g'irlanishi mumkin. Bundan tashqari AQSh dollariga foiz to'lanmaganligi bois katta miqdorda AQSh dollarining ko'pchiligimizda saqlanishi hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. O'zining cho'ntagida 3000$ olib yurgan biror kishini bilasizmi? Bizda haqli ravishda savol tug'iladi: barcha AQSh dollari qaerda va uni kimlar ushlab turibdi? Katta miqdorda AQSh dollarini o'zlarida saqlovchi guruh jinoyatchilar hisoblanadi. Agarda jinoiy faoliyatga aralashib qolgan bo'lsangiz, siz o'z tranzaksiyalaringizni cheklar orqali o'tkazmaysiz. Chunki cheklar orqali tranzaksiyalarni o'tkazilishi barchaga ma'lum bo'ladi va sizga qarshi kuchli dalil bo'lib qolishi mumkin. Bu holat nima uchun

Toni Sopranoning orqa devorida katta miqdorda naqd pullar borligini tushuntirib beradi. Naqd pulda tijoriy operatsiyalarni amalga oshirilishi natijasida operatsiyalarning ko‘zga tashlanmaslik xususiyati, ba’zi tijorat turlarini katta miqdorda naqd pulni saqlab turishni talab qiladi. Natijada ushbu tijoratchilar soliq to‘lashlari kerak bo‘lgan daromadini yashirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Chet elliklar keyingi guruh hisoblanib, doimiy ravishda AQSh dollarini o‘zlarida ushlab turishadi. Ko‘plab mamlakatlarda aholi o‘zining milliy valyutasiga ishonmaydi. Buning sababi ushbu bilan izohlanadiki, chet elliklarning milliy valyutasida foydalanishganda yuqori inflyasiya surati uchun xarajat qilishi natijasida milliy valyutaning qadri emiriladi. Ushbu guruhdagi odamlar AQSh dollarini ushlab turishdan maqsadi inflyasion riskni sug‘urtalash hisoblanadi. Rublga bo‘lgan ishonchni etishmasligi bois ruslarning katta miqdorda AQSh dollarini jamg‘arishlariga olib kelmoqda. Muomalaga chiqarilgan AQSh dollarining yarmidan ko‘pi xorijiy davlatlarda saqlanmoqda.

Iqtisodchilar va siyosatchilar pul aggregatlaridan qaysi biri pullarni o‘lchashda samarali ekanligi borasida aniq bir to‘xtamga kelishmagan bo‘lib, mantiqiy jihatdan olib qaralganda ham pul aggregatlari harakati o‘zaro yaqin va parallel hisoblanadi. Agarda pul aggregatlarini bir xil deb baholaydigan bo‘lsak, bitta pul aggregatidan foydalangan holda kelajakdagi iqtisodiy faoliyatni bashoratlash va siyosatni amalga oshirish boshqa pul aggregatidan foydalanish bilan bir hil bo‘lishi oqibatida pulning tegishli mohiyati belgilangan iqtisodiy qarorga mos tushish yoki tushmaslik ahamiyatini yo‘qotar edi. Ammo, agar pul aggregatlari birgalikda xarakatlanmasa, bir pul aggregati tomonidan pul taklifida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar izohi boshqa pul aggregati tomonidan o‘zgacha tavsiflanishi mumkin. Qarama-qarshi izohlar va tavsiflar mavjud vaziyatni chigallashtirilishi oqibatida iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonini yanada murakkablashtiradi.

2-rasm 1960-2011 yillarda M1 va M2 ning o‘sish suratlarini tasvirlaydi. Ikkita pul aggregatining o‘sish surati birgalikda xarakat qilish xususiyatini namoyon qilib, o‘sish va tushish vaqti 1990 yillargacha bir xil ko‘rinishga ega hisoblanadi. O‘rtacha 1970 yillarga nisbatan 1960 yillarda M1 va M2 pul aggregatlari o‘sish surati yuqori darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, bu aggregatlarning harakatida sezilarli farqlar ko‘zga tashlanadi. 1992 yildan 1994 yilgacha M1 ning yuqori darajada o‘sish suratiga qarama-qarshi ravishda M2 ancha pastroq o‘sish suratiga ega bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, 2004 yildan 2007 yilgacha sezishimiz mumkinki, M2ning o‘sish surati biroz ko‘tarilgan bo‘lsada, M1 keskin suratda pasaygan va salbiy ko‘rinishga ega bo‘lgan. 2009 yilda M1 deyarli 0%dan 15%gacha yuqori o‘sish suratiga ega bo‘lgan bo‘lsa, M2 biroz o‘sish suratini namoyon qildi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, pulning turli o‘lchov instrumentlari monetar siyosatning so‘nggi yillardagi holati to‘g‘risida xar xil xulosalarni keltirib chiqaradi.



FIGURE 1 Growth Rates of the M1 and M2 Aggregates, 1960–2011

Timing of the rise and fall of growth rates is roughly similar for both M1 and M2. There are, however, periods such as 1992–1994 and 2004–2007, when they move in opposite directions, providing conflicting recommendations about the course of monetary policy.

Sources: **Federal Reserve Economic Database (FRED); Federal Reserve Bank of Saint Louis;** http://research.stlouisfed.org/fred2/categories/25

2-rasm.1960-2011 yillarda M1 va M2 aggregatlarini o'sish suratlari.

2-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, pulning yagona, aniq va to'g'ri o'lchovini tanlab olinishi muhim hisoblanib, tartibga soluvchi organlar hamda iqtisodchilar tomonidan to'g'ri pul o'lchovi sifatida qaysi pul aggregatini olinishi katta ahamiyat kasb etadi. [34]

3-MAVZU: PUL NAZARIYALARI

REJA:

3.1. Pul nazariyasining mohiyati
3.2. Pulning metallik nazariyasi
3.3. Pulning nominallik nazariyasi
3.4. Keynsning likvidlikning afzal ko'rilishi nazariyasi
3.5.Keynschilik nazariyasining keyingi rivojlanishi
3.6. Fridmanning pulning zamonaviy miqdoriy nazariyasi
3.7.Fridmanning pulning zamonaviy miqdoriy nazariyasi

3.1. Pul nazariyasining mohiyati

Pul nazariyasining olamshumul ilmiy ahamiyati shundaki, u barcha iqtisodiy fanlarning bazisi hisoblanadi. Haqiqatda ham birorta iqtisodiy

[34]Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited pp. 2013. pp. 94-104

adabiyot mavjud emaski, agar pul yoki u bilan bog‘liq munosabatlarni o‘zida aks ettirmagan bo‘lsa.

Pulning nazariy tabiati bir nechta bo‘lib, qator konsepsiyalarda uning mavjudligini tabiiy asoslari va amal qilishining sabablari keltiriladi. Shartli ravishda buni “tovarli” va “tovarsiz” konsepsiyalarga ajratish mumkin[35].

Tovarli konsepsiyada pulning qimmatliligini aniqlashda asosiy e’tibor real foydali hisoblangan ichki qiymatiga qaratiladi. Bu borada juda keng tarqalgan pulning metallilik nazariyasi e’tiborga olinadi.

Pulning tovarsiz konsepsiyasida uning tovarni sotib olish huquqini beruvchi qiymati, simvoli, ieroglifi, umumiy ko‘rinishi kabi belgilariga e’tibor qaratiladi.

Albatta, pul nazariyasining ko‘p qirraliligi va uning iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi juda ko‘p iqtisodchi olimlar, mutaxassislar, ekspertlar tomonidan e’tirof etilgan. E’tiborli jihati shundaki, iqtisodchi olimlar, ekspertlar va mutaxassislarning pul nazariyasi va uning iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi haqidagi qarashlari, ta’limotlari va g‘oyalari juda ko‘p hollarda bir – biridan farq qiladi. Buning asosiy sabablaridan biri, bizning nazarimizda, iqtisodiy nazariyachi olimlar, mutaxassislar va ekspertlarning pul nazariyasi haqidagi asarlarining turli vaqtda, turlicha ishlab chiqarish sharoitida va turli hududlarda yaratilganligidir.

Jamiyatda mehnat taqsimotining mavjudligi, kishilarni bir – biriga bog‘lab turadilar, ular o‘rtasida mahsulotlar va resurslar almashuvini ta’minlaydigan mexanizmni amal qilishini talab etadi. Ushbu mexanizm bozor bo‘lib, bozor kishilar faoliyatini tartibga soladi va ularning manfaatlarini bir – biriga mos kelishini ta’minlaydi. Kishilar faoliyatini harakatga keltiruvchi, ular o‘rtasidagi ayirboshlashni ta’minlovchi va ularning manfaatlarini tartibga soluvchi vosita sifatida pul maydonga chiqadi.

Ma’lumki, jamiyatda ayirboshlash munosabatlarining dastlabki davrlarida kishilar barterdan juda keng ravishda foydalangan, keyinchalik ular barter, ya’ni tovarni – tovarga almashtirish jarayoni ma’lum qiyinchilik va qo‘shimcha vaqtni talab etishi natijasida, bozor ishtirokchilari pulni kashf etdilar.

Pul – barcha tovarlarning umumiy ekvivalenti sifatida maydonga chiqadigan “maxsus tovar” bo‘lib, uning yordamida barcha tovarlar qiymati o‘lchanadi. Pulning jamiyatda amal qilishi va uning evolyusiyasi bilan bog‘liq masalalar iqtisodiy adabiyotlarda pul nazariyasi sifatida talqin etiladi. Ushbu iqtisodiy adabiyotlarda pul nazariyasining iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi quyidagi uchta guruhga ajratib o‘rganiladi.

3.2. Pulning metallik nazariyasi

Pulning metallik nazariyasi XVI – XVII asrlarda dastlab kapitalning boylik sifatida jamg‘arish, kapitalistik tuzumning shakllanishi va rivojlanishi sharoitida vujudga keldi. Moneta tarkibini buzish (monetaning og‘irlik miqdorini kamaytirish) ga qarshi kurashda progressiv (ijobiy) rol o‘ynadi. Bu nazariyalar o‘sha davr ruhi va vujudga kelayotgan burjuaziya ehtiyojlarini aks

[35] Деньги. Кредит. Банки: учеб, – 2 изд., перераб. и доп. / под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, Изд – во Проспект, 2008. –С. 224.

ettirib, merkantilistlar baquvvat metall pullar tarafdori bo‘lib chiqdilar.Bu nazariya o‘sha davr kapitalizmining eng rivojlangan Angliya davlatida maydonga keldi.

Ularning fikricha, barqaror metall valyuta jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Jamiyat a’zolarining jamg‘arishga bo‘lgan intilishi iqtisodchilarning boylikning manbaini o‘rganishlariga sabab bo‘ldi. Ular bu manbani savdodan izladilar. Ularning e’tirof etishlaricha, aktiv savdo balansi mamlakatga oltin va kumushning kelishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, ilk metallik nazariyasi tarafdorlari jamiyat boyligini qimmatbaho metallar bilan almashtirib, ular pulning hamma funksiyalarini bajaradi deb hisoblar edilar.

Ma’lumki, pul birligining sotib olish qobiliyati metall asosida aniqlanadi, metall tangalar o‘zida pulning haqiqiy qiymatini aks ettirib, ulardan tanga (moneta)lar zarb etilgan. Shu bois ham metall pul nazariyasini qo‘llab – quvvatlovchi iqtisodiy nazariyachilar vakillari qog‘oz pul nazariyasini inkor etadilar. Metall pul nazariyasi vakillari ushbu ta’limotni yoqlab chiqqanlarida asosan nodir metallarni, ya’ni kumush va oltin tangalarni nazarda tutadilar. Ularning ta’limotida kumush va oltin tangalar real qiymatni aks ettiruvchi haqiqiy pul bo‘lib, ular o‘z qiymatlarini yo‘qotmaydilar. Shu bilan birga, kumush va oltin pullar ayirboshlash munosabatlarida real qiymatlari asosida ishtirok etib, iqtisodiyotda inflyasiya muammosini keltirib chiqarmaydi, deya ta’kidlaydilar.

Ushbu olimlarning ilmiy karashlaricha mamlakatning boyligi pulning ko‘payishi bilan belgilanishi kerak xamda metall pullar faqat oltin va kumushdan yaratilishi lozim. Bundan kelib chiqadiki, metallistlar nazariyasiga ko‘ra: pulning moxiyati ijtimoiy zaruriy mehnatning rivojlanishi bilan belgilanmasdan oltin va kumushning tabiiy xususiyatlari bilan belgilanadi, ya’ni qanchalik ushbu metallar sifatli bo‘lsa pulning qadri shuncha yuqori bo‘ladi.

Pulning metallik nazariyasi kapital harakatining dastlabki davrida taraqqiy etdi. Moneta tarkibini buzish (monetaning og‘irlik miqdorini kamaytirish)ga qarshi kurashda progressiv rol o‘ynadi. Bu nazariyalar o‘sha davr ruhi va tuzilayotgan burjuaziya ehtiyojlarini aks ettirib, merkantilistlar baquvvat metall pullar tarafdori bo‘lib chiqdilar. Bu nazariya o‘sha davr kapitalizmining eng rivojlangan davlati Angliyada maydonga keldi. Metallik nazariyasining asoschilaridan biri U. Stefford (1554-1612 y.) edi. U o‘z qarashlarini o‘zining Londonda 1581 yilda chop etilgan «Vatandoshlarimizning ba’zi odatiy arizalarining qisqartmasi» asarida bayon etdi. Bu oqim tarafdorlari Angliyada T. Men (1571-1641y.), D. Nors (1641-1691y.), Fransiyada bu ta’limotni A. Monkreten (15751621y.), Italiyada F. Tamani (1728-1787y.) va boshqalar rivojlantirdi.

Ularning fikricha, barqaror metall valyuta jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Jamiyat a’zolarining jamg‘arishga bo‘lgan intilishi iqtisodchilarning boylik manbaini o‘rganishlariga sabab bo‘ladi. Ular bu manbani savdodan izladilar. Ularning e’tirof etishlaricha, aktiv savdo balansi mamlakatga oltin va kumushning kelishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, ilk metallik nazariya tarafdorlari jamiyat boyligini qimmatbaho metallar bilan almashtirib, ular pulning hamma funksiyalarini

bajaradi, deb hisoblar edilar. Ilk metall nazariya tarafdorlarining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat edi:

– ilk metallchilar haqiqiy pullarni qiymat belgilari bilan almashtirish zarurligi maqsadga muvofiq kelishini tushunib yetmadilar;

– ilk metallchilar pulning jamiyat taraqqiyotida tovar muomalasi asosida yuzaga kelgan tarixiy kategoriya ekanligini tushunmadilar;

– ular jamiyat boyligi deb qimmatbaho metallarni jamg‘arishni tushundilar va «bunday boylik manbai savdodir» degan noo‘rin fikrga keldilar.

Ular jamiyat boyligi mehnat natijasida vujudga keladigan moddiy va ruhiy qadriyatlar yig‘indisi ekanligini tushuna olmadilar. Ilk metallik nazariya targ‘ibotchilari savdo burjuaziyasi manfaatlarini himoya qilib chiqqan edilar.

XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmiga kelib sanoat burjuaziyasi manfaatlarini qondira olmagan metallik nazariya o‘z mavqeini yo‘qotdi. Ammo XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib nemis iqtisodchisi, tarixiy maktab vakili K. Knis (1821-1898 y.) bu nazariyani himoya qilib chiqdi. Bu g‘oyaning qayta tiklanishiga 1871-1873 yillarda Germaniyaga kiritilgan oltin tanga standarti sabab bo‘ldi. K. Knis targ‘iboti metallchilar nazariyalarini yangi sharoitga moslashtirdi. Knis pul sifatida faqatgina metallni emas, balki Markaziy bank banknotalarini ham e’tirof etdi. Bu paytga kelib xo‘jalikda kredit asosiy mavqega ega bo‘la boshladi va bu oltin monetalar bilan birga muomalada bo‘lib, ularga almashtiriladigan banknota emissiyasining asosini tashkil etdi. K. Knis banknotalarni tan olgan holda, hech nima bilan ta’minlanmagan qog‘oz pullarga qarshi chiqdi. Uning fikricha, pul muomalasi metall bilan ta’minlangan banknotalar va metall monetalarga asoslanishi shart. Qog‘oz pullar xuddi «qog‘oz bulka» kabi ma’nosiz narsadir. K. Knis ta’kidlashicha, oltin o‘z tabiatiga ko‘ra puldir.

I Jahon urushidan so‘ng metallizm tarafdorlari oltin moneta standartini qayta tiklash mumkin emasligini tan olib, o‘z nazariyalarini himoya qilish maqsadida oltin quyma standart va oltin deviz standartga asoslangan banknota ishlab chiqarishni yoqlab chiqdilar.

1. Oltin tanga standarti

Oltin standarti birinchi marta XVIII asrda Angliyada va XIX asrning oxirlarida boshqa mamlakatlarda joriy etildi. Bu standart oltin monometalizmi deb ham ataldi. Oltin tanga standarti oltin standartining ilk ko‘rinishidir. Bu standart I Jahon urushi boshlanishiga qadar hukm surdi.

Oltin tanga standartiga xos bo‘lgan belgilar quyidagilardan iborat bo‘lgan: tovarlarning baholari faqatgina oltinda o‘lchanishi; oltin tanganing muomalada bo‘lishi; davlat xazinasi tomonidan cheklanmagan miqdorda moneta zarb qilinishi; kredit pullarni ularning nominali bo‘yicha oltinga erkin almashtirilishi; oltinni olib kirish yoki olib chiqishning taqiqlanmaganligi; ichki bozorda oltin moneta va banknotalar bilan birga haqiqiy qiymatga (ya’ni, to‘la haqiqiy qiymatga) ega bo‘lmagan chaqalar va ma’lum kursga ega bo‘lgan davlat qog‘oz pullarining muomalada bo‘lishi.

Bu tizim mustahkam pul tizimi bo‘lib, inflyatsiyani inkor etar edi. Muomala uchun zarur bo‘lmagan oltin miqdori yana xazina ko‘rinishiga qaytar edi. Ammo kapitalizmning krizisi davrida bu muvozanat izdan chiqdi. II Jahon urushi davrida

AQShdan boshqa urushayotgan davlatlar banknotalarni oltinga almashtirishni va oltinni chetga olib chiqishni bekor qilishdi. Oltin muomaladan surib chiqarilib xazinaga aylantirildi. AQShda esa oltin monetalar 1934 yilga qadar muomalada bo‘ldi.

2. Oltin quyma standarti

I Jahon urushidan keyin, 20-yillarda ba’zi mamlakatlarda oltin quyma standarti joriy qilindi. Bu standartning oltin tanga standartdan asosiy farqi shunda ediki, muomaladagi banknotalar 12-12,5 kg. atrofidagi oltin quymalarga almashtirilardi. 12,5 kg. lik quymaga banknotani almashtirish uchun Angliyada 1700 ft. st., Frantsiyada 215 ming fr. talab qilinar edi. Bu bilan oltin muomaladan xalqaro aylanmaga chiqarildi. Ichki aylanmada esa bunday imkoniyatga faqatgina yirik firmalar va puldorlar ega bo‘lib qoldilar, xolos.

3. Oltin deviz standarti

Oltin quyma standartga kirmagan mamlakatlarda banknotalarni bevosita oltinga almashtirish tiklanmadi. Bu mamlakatlar o‘z kredit pullarini oltin quyma standartga kiruvchi mamlakatlarning devizlariga (ya’ni valyutalariga) almashtirishni mo‘ljallangan edilar. Bu bir mamlakat valyutasining ikkinchi davlat valyutasiga bog‘liqligini keltirib chiqarar edi. Pul tizimining bu ko‘rinishi oltin deviz standarti nomini oldi.

1929-33 yillardagi jahon inqirozidan keyin barcha mamlakatlarda oltin deviz standartining ba’zi elementlarini oltin dollar standart o‘zida olib qoldi. Bu standartning o‘ziga xos xususiyati Shunda ediki, birinchidan, bu standartdan foydalanish huquqi faqatgina chet el emission banklari uchungina saqlab qolingan edi, ikkinchidan, bu standartda faqatgina AQSh dollarigina oltin bilan aloqasini saqlab qolgan edi xolos. 1971 yil dekabr oyidan boshlab dollarning oltin pariteti bekor qilinishi bilan oltin standartining barcha ko‘rinishlari o‘z kuchini yo‘qotdi.

Oltin standarti barbod bo‘lishi va iqtisodiyotni davlat ishtirokida boshqarilishiga o‘tilishi bilan metall pul nazariyasi boshqa nazariya bilan almashtiriladi. Metalizimning asosiy kamchiligi shundaki, ular iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarilishi bilan oltinga almashtirilmaydigan kredit pullar orasida ichki bog‘liqlikni e’tiborga olmadilar.

Jamiyatda ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning taboro rivojlanib borishi, shu bilan birga kishilarning ehtiyoji ortib borishi natijasida ayirboshlash munosabatlari hajmining o‘sishi, ishlab chiqarish hajmining keskin sur’atlar bilan ko‘payishi muomalada foydalanib kelingan metall tangalar bilan parallel ravishda qog‘oz pullar ham to‘lov vositasi sifatida amal qila boshladi, evolyusion tarzda ma’lum ijtimoiy – iqtisodiy o‘zgarishlar oqibatida metall (kumush va oltin) pullar o‘z o‘rnini qog‘oz pullarga bo‘shatib berdi. Bu pulning nominalist nazariyasining vujudga kelishiga zamin yaratdi.

3.3. Pulning nominallik nazariyasi

Nominalizm quldorlik tizimi davridagi faylasuflar ta’limotida yuzaga kelgan bo‘lib, bu ilk nominalizmdir. Birinchi nominalistlar tanga tarkibini buzish (tanganing og‘irlik miqdorini kamaytirish)ni ko‘rko‘rona madh etuvchilar bo‘lganlar.

Yemirilib ketgan tangalarni teng qiymatli tangalar bilan muomalada bir xilda yurganligiga asoslanib, ular pulning metall miqdori emas, balki nominali muhimdir deb da'vo qilib chiqdilar.

Nominal pul nazariyasi tarafdorlari ushbu nazariyaning asosida qog'oz pullar e'tirof etilishini e'tiborga oladigan bo'lsak, shuningdek nominal pul nazariyasining amal qilishining asosiy omili sifatida pul nominallarini davlat tomonidan belgilanishi va uning ta'minlanishi ham davlat tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadigan bo'lsak, nominal pul nazariyasini "qog'oz pullar nazariyasi" tarzida ifodalash ham mumkin bo'ladi.

Nominal pul nazariyasini "qog'oz pul nazariyasi" tarzida yuritilishi uning aniqliligini, metall pul nazariyadan ushbu nazariyani, nominal pul nazariyasini qanday farqlari mavjudligini ortiqcha qiyinchiliklarsiz aniqlash imkonini beradi.

Nominal pul nazariyasi xususidagi dastlabki qarashlarni quldorchilik, keyinchalik feodal tuzumi sharoitidagi qadimgi faylasuflar ta'limotlarida kuzatish mumkin. Pulning nominal nazariyasi XVII – XVIII asrlarda, muomalaga haqiqiy bo'lmagan metall pullar kiritilgan davrda shakllangan. Dastlabki nominal pul nazariyasining asosini qog'oz pullar emas, balki haqiqiy bo'lmagan tanga monetalar tashkil etgan.

Pulning nominal nazariyasini ilgari surgan dastlabki iqtisodiy nazariya vakillari Dj.Berkli (1685 – 1780) va Dj.Styuart (1712 – 1780) hisoblanadi. Ularning nazariyalari asosida quyidagi ikkita holat yotardi: pul davlat tomonidan yaratiladi va pulning qiymati uning nominali bilan aniqlanadi. Pul birligining sotib olish qobiliyati uning nominali asosida, ya'ni qog'oz pulda ko'rsatilgan nominal qiymati bilan aniqlanadi.

Nominal pul nazariyasi tarafdorlarining asosiy zaifligi shundaki, ularning ta'limotiga ko'ra pulning qiymatini davlat belgilaydi. Bu bilan ular pulning mehnat mahsuli nazariyasi va tovar tabiatiga ega ekanligini inkor qiladi. Biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning sotib olish qiymati talab va taklif asosida belgilanadi, shuningdek, milliy xo'jalik doirasida to'lov vositasini bajaradigan pullarning kursi xalqaro miqyosda amal qiladigan xorijiy valyutalarga bo'lgan talab asosida o'zgarib turadi.

Nominalist pul nazariyasi vakillarining rivojlangan davri asosan XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga to'g'ri kelib, uning ko'zga ko'ringan tarafdorlaridan biri, nemis olimi G.Knapp (1842 – 1926) hisoblanadi. G.Knappning pul nazariyasini, uning ta'limoticha ma'lum qiymatga ega bo'lmagan monetalarda emas, balki xazina biletlari asosida asoslashga harakat qiladi.

Nominal pul nazariyachilarining asosiy kamchiligi shundaki, ularning ta'limotida pulning qiymati davlat tomonidan belgilanadi degan g'oya ilgari suriladi. Kredit pullar (veksellar, banknotalar, cheklar) esa ularning ta'limotida inobatga olinmaydi va e'tibordan chetda qoldiriladi. Chunki kredit pullarning qiymati davlat tomonidan emas, balki ularning emitentlari tomonidan belgilangan nominal qiymatga ega bo'lib, ushbu qiymat o'zgarishga moyildir, ya'ni ularni muomalaga chiqargan emitentlar kredit pullarining dastlabki qiymatda saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

Bizning nazarimizda, nominal pul nazariyasi vakillari qog‘oz pullarning qiymatini nafaqat oltin qiymatidan, balki tovarlar qiymatidan ham ajratib oldilar va ularning nominal qiymatining barqarorligi, sotib olish qobiliyati davlatning tegishli hujjatlari asosida aniqlanadi degan mantiqsiz g‘oyani ilgari suradilar.

Nominal pul nazariyasi vakillarining ta’limoti Germaniya tomonidan birinchi jahon urushini moliyalashtirish uchun muomalaga chiqarilgan katta miqdordagi emissiya jarayonida namoyon bo‘ldi. Biroq, ushbu ta’limotning haqiqatga yaqin emasligi Germaniyada 1920 yillarda yuz bergan giprinflyasiya sharoitida isbotlandi. Muomalaga asossiz ravishda emissiya qilingan juda katta miqdordagi qog‘oz pullar juda tez muddatda 700 – 800 foiz darajasida inflyasiyaga uchrashi natijasida mamlakatda pul – kredit, moliya tizimi izdan chiqdi. Buning natijasida ishlab chiqarishga bo‘lgan qiziqish pasayib, kishilar moddiy ne’mat yaratish hisobiga emas, balki mavjud moddiy ne’matlarni sotish hisobiga qo‘shimcha daromad olish payiga tushib qoldilar. Chunki ishlab chiqarish va qo‘shimcha moddiy ne’matlarni yaratish ma’lum darajadagi vaqtni talab etar, bu vaqtda esa ishlab topilgan daromad inflyasiya natijasida o‘zining qiymatini yo‘qotar edi.

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, nominal pul nazariyasi iqtisodiyotning markazdan boshqarish tuzumi sharoiti va talablariga mos keladi. Chunki ushbu tuzumda pulning nominal qiymati davlat tomonidan o‘rnatilib, uning amal qilishi ham to‘liq nazorat ostiga olinadi. Shunda ushbu nazariya tarafdorlari tomonidan ilgari surilgan ta’limot o‘zini oqlaydi. Ta’kidlash joizki, markazdan boshqarish tuzumi yoki markazdan rejalashtirish tuzumi sharoitida qog‘oz pullarning nominali davlat tomonidan o‘rnatilishi bilan birga, yaratilgan tovar moddiy qimmatliklarning bahosi ham yuqoridan belgilanadi. Shu bilan birga, muomalaga emissiya qilinadigan pulning miqdori, ularning harakati va amal qilish kabi barcha jarayonlar ham davlat tomonidan rejalashtirilib, ushbu rejaning bajarilishi to‘lig‘icha tegishli organlar tomonidan nazorat qilib boriladi. Biroq, bozor iqtisodiyoti sharoitida nominal pul nazariyasini amaliyotga joriy etish va uning amal qilishining imkoniyati mavjud emas. Chunki davlat banklari tomonidan muomalaga emissiya qilingan pul belgilari tegishli talab va taklif asosida tovar moddiy qimmatliklarning bahosini belgilaydi. Uning sotib olish qobiliyatini mustahkam yoki zaif bo‘lishi davlatning nazdidan anchagina yiroqda bo‘lib, davlat unga ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Bunday holat pulning miqdoriy pul nazariyasini vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

3.4. Keynsning likvidlikning afzal ko‘rilishi nazariyasi

Pulning miqdoriylik nazariyasi klassik maktab iqtisodchilari tomonidan XIX-XX asr boshlarida ishlab chiqilgan edi va umumiy daromadnini nomimal qiymatini aniqlashga bag‘ishlangan edi. Bu nazariya berilgan umumiy daromad miqdorida qancha pul mavjudligini izohlashi bois, u pulga talab nazariyasi ham hisoblanadi. Ushbu nazariyaning eng muhim hususiyati shundaki, u foiz stavka pulga bo‘lgan talabga ta’sir etmaydi deb ta’kidlaydi[1].

Miqdoriy pul nazariyasida pulning sotib olish qobiliyati va baho darajasi muomaladagi pul miqdori bilan belgilanadi. Miqdoriy pul nazariyasining asoschisi fransuz iqtisodchisi J.Boden (1530 – 1596) hisoblanadi. Keyinchalik ushbu nazariyani ingliz iqtisodchilari D.Yum (1711 – 1776) va Dj.Mil (1773 – 1836), shuningdek fransuz Sh.Monteske (1689 – 1755) rivojlantirdi.

D.Yum Angliyaga XVI – XVII asrlarda Amerikadan katta hajmda nodir metallarning kiritilishi natijasida baholarni ortib ketishini kuzatib: "pulning qiymatini uning miqdori belgilaydi" degan ta'limotini ilgari suradi.

Miqdoriy pul nazariyasining dastlabki vakillari pulni faqat to‘lov vositasi sifatidagi vazifasiga e'tibor qaratadi, ularning fikricha pul va tovar ayirboshlash jarayonida uchrashishi natijasida pulning qiymati aniqlanadi degan noto‘g‘ri g‘oyani ilgari suradilar. Shuningdek, ularning ta'limotidagi ikkinchi kamchilik muomalaga chiqarilgan barcha pullar muomala jarayonida ishtirok etadi deya ishonishlaridir. Haqiqatda esa ob'ektiv iqtisodiy qonunlar muomalaga zarur bo‘lgan pulning miqdorini aniqlaydi. Bu bilan ular pulning jamg‘arma, to‘lov vositasi kabi funksiyalarini e'tibordan chetda qoldirishadi.

Kredit va qog‘oz pul muomalasiga asoslangan miqdoriy pul nazariyasining zamonaviy sharoitdagi talqini yirik iqtisodchi olimlar L.Marshall, I.Fisher, G.Kassel, B.Xansen, M.Fridmanlarning asarlarida bayon etilgan.

Ularning miqdoriy pul nazariyasi ikkita yo‘nalishdagi ta'limotga asoslangan bo‘lib:

– birinchisi, I.Fisher va M.Fridman boshchiligidagi monetaristlarning "tranzaksion variant" ta'limoti;

– ikkinchisi, A.Pigu boshchiligida angliya Kembrij maktabi vakillari, ikkinchi jahon urushidan keyin esa D.Patinkinning "kassa qoldig‘i" konsepsiyasi ta'limoti hisoblanadi.

Pul aylanish tezligi va almashuv tenglamasi

*Klassik pulning miqdoriylik nazariyasi aniq ta'rifi amerikalik iqtisodchi Irving Fisherning 1911 yilda nashr etilgan **"pulning harid qilish qobiliyati"** nomli kitobida ko‘rsatilgan. Fisher iqtisodiyotdagi **PxY** umumiy pul miqdori **M** (pul taklifi)bilan oxirgi tayyor mahsulot xizmatni xarid qilishga ketadigan chiqimlarni o‘rgangan, bunda P-narx darajasi, Y-daromad. (umumiy harajatlar PxY nominal umumiy daromad yoki YaMM sifatida qaralishi mumkin). O‘zgaruvchi M va PxY bog‘lovchi **pulning aylanish tezligi** deb nomlanadi(sodda qilib aytganda **aylanish tezligi**)va u umumiy xarajtlarni PxY ni pul miqdoriga M ga bo‘lish orqali topiladi.*

$$V = \frac{PxY}{M}$$

Masalan, agar yillik nominal YaMM (PxY) 10 trlnni va pul miqdori (M) 2 trln dollarni tashkil etsa

$$V = \frac{\$10\ trillion}{\$2\ trillion} = 5$$

Bunda pulning aylanish tezligi 5 teng degani iqtisodiyotda har bir dollar yilda 5 marta biror tayyor mahsulotni sotib olishga yoki xizmatga ishlatiladi.

*Tenglamani ikki tarafini **M** ga ko‘paytirish orqali nominal daromad, pul miqdori va aylanish tezligi bog‘lagan holda almashinish hajmini topamiz.*

MxV=PxY

Almashinish darajasi ko‘rsatadiki, pul miqdorini muomiladagi aylanishga ko‘paytmasi nominal daromadga (iqtisodiyotda nominl xarajatlar tayyor mahsulotlarni va xizmatlarni xarid qilishga) teng.

*Tenglamaning o‘zi bir ayniyatdir, aniqlanishi bo‘yicha to‘g‘ri bog‘lanishni ko‘rsatadi. Bu hech narsani bildirmaydi. Masalan, nominal daromad **PxY** o‘sishi pul massasini **M** o‘sishi bilan bog‘liq, chunki **M**ning qanchalik o‘sishi **V**ning shunchalik tushishi bilan kompensatsiya qilingan bo‘lishi mumkin, va **MxV** (demak **PxY**) o‘zgarmaydi. Ayirboshlash tenglamasidan nominal daromadni aniqlashga o‘tish uchun aylanish tezligiga ta’sir etadigan faktorlarni ko‘rib chiqish kerak.*

Aylanish tezligining aniqlovchilari[36] *Irving Fisher shuni isbotladiki, pulni aylanish tezligi iqtisodiy sub’ektlarning transaksiya qilishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Agar bitim qilinayotganda hisob kitob schyotlari ishlatilayotgan bo‘lsa va kredit kartochkalar, demak iqtisodiyotda ishlab chiqilgan tovar va xizmatlarga to‘lash uchun kamroq pul kerak bo‘ladi (Mi PxYga nisbatan)va aylanish tezligi (PxY)/M kattalashadi. Teskarisiga agar aholi sotib olganiga naqd to‘lasa yoki chek bilan o‘sha nominal daromad darajasida ko‘proq pul kerak bo‘ladi va aylanish tezligi pasayadi. Bunda Fisher taxmin qilgan ediki qisqa muddatda aylanish tezligini doimiy deb hisoblash mumkin chunki institutsional va texnologik faktorlar sekin o‘zgaradi.*

*Haqiqatda **Fisher** ayirboshlash tenglamasini iqtisodiyotda nominal tranzaksiya qiymati **PT**ga nisbatan ishlab chiqqan edi:*

***MV_T=PT**,*

P- tranzaksiyaning o‘rtacha bahosi; T- yiliga transaksiyalar miqdori V_T=PT/M-transaksiyada pulning aylanish tezligi

*Transaksiyaning nominal qiymatini aniqlash qiyin bo‘lgani uchun, miqdoriylik nazariyada yalpi ishlab chiqarish- **Y**dan foydalanilgan. **T=vY** deb faraz qilib qaerda **v** = doimiy proporsiyalik koeffitsenti, Fisher tenglamasidan quyidaiga ega bo‘lamiz:*

MV_T=vPY** yoki **V=t^/v

***Pulga bo‘lgan talab** Fisherning miqdoriylik nazariyasini yana bir talqini, uni pulga bo‘lgan talab tarafdan, ya’ni odamlar o‘zlarida saqlamoqchi bo‘lgan pullari nuqtai nazaridan qarashdir.*

Aholi qo‘lidagi pullar miqdorini o‘rgangan holda berilgan umumiy daromad darajasiga ko‘ra, pulning miqdoriy nazariyasini pulga bo‘lgan talab sifatida qarash mumkin. Bunga biz tenglamani ikki tomonini V ga bo‘lib ko‘ramiz

$M = \frac{1}{V} xPY$,

Qayerdaki nominal YaMM PxY PY kabi yozilgan. Pul bozori muvozanatda bo‘lganda, aholi qo‘lidagi pul M pulga bo‘lgan talabga teng bo‘ladi. K=1/Y deb bu erda k = const chunki V = const tenglamani quyidagicha yozamiz :

---

[36] The economics of money, banking and financial markets / Frederick S. Mishkin, 10th Global edition, 2013. Page 550

$M^d = kxPY$

Tenglama shuni qayd qiladiki, bitimlar hajmi berilgan YaMM bo‘yicha qilinadiganlar PY pulga talab M^d ko‘rsatkichini aniqlaydi. Bundan Fisherning pul miqdorining asosiy xulosasi kelib chiqadi: pulga talab asosan daromadga bog‘liq va foizli stavka pulga bo‘lgan talabga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Almashuv tenglamasidan pulning Miqdoriylik nazariyasi sari *Fisherning qisqa muddat ichida aylanishning doimiyligi to‘g‘risidagi taxmini, ya’ni $V=\tilde{V}$, ayirboshlash tenglamasidan pulning miqdoriy nazariyasiga kelishga imkon beradi, qaysinga ko‘ra nominal daromad asosan pulning massasining tebranishi bilan aniqlanadi.*

$PxY = Mx\tilde{V}$ *(4)*

*Tenglamada M ikki marta ko‘payadi MxV,shunga ko‘ra PxY ham ikkilanadi. Taxmin qilamiz V*5, YaMM ning nominal daromadi 10 trln tashkil etadi, pul massasi 2 trln dollarni,agar pul massasi ikki marta oshsa 2 trlnni tashkil etib , miqdoriy nazariyaga ko‘ra nominal daromad ham 2 marta oshadi(5x 4 trln dollar =20 trln dollar)*

Miqdoriylik nazariyasi va narxlar darajasi *Klassik maktab vakillari (I. Fisherni ham hisobga olib) ish haqini va narxlarni absolyut egiluvchan deb hisoblashgan, umumiy tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi iqtisodiyotning odatiy rivojlanishda to‘liq bandlikka to‘g‘ri keladi, Shuning uchun ayirboshlash tenglamasida V ni qisqa muddat ichida o‘zgarmas deb hisoblash mumkin. Pulning miqdoriy nazariyasiga ko‘ra M 2 marta oshganda qisqa mudat ichida P ham2 marta oshishi kerak chunki V va Y doimiy bizning misolda N-5,Y=5trln dollar, P=1. M ning 2 trlnga oshishida, V va Yo‘zgarmas narx darajasi 2 marta oshadi(P=2)*[37]

Pul nazariyasi haqida amalga oshirilgan o‘rganishlar, tahlillar natijasida miqdoriy pul nazariyasining rivojiga sezilarli ravishda hissa qo‘shgan kishilardan biri amerikalik iqtisodchi I.Fisher (1867 – 1977) ekanligining guvohi bo‘ldik. U pulning mehnat mahsuli natijasidagi qiymat ekanligini inkor etib, uning sotib olish qobiliyatidan kelib chiqqan holda fikr yuritadi. I.Fisher pulning sotib olish kuchi oltita omilga bog‘liq ekanligini ta’kidladi va ularni quyidagilardan iborat bo‘lishini asoslab berdi.

M – muomaladagi pul miqdori;

V – pulning aylanish tezligi;

P – o‘rtacha tortilgan baho;

Q – tovarlar hajmi;

M1 – bank depozitlari summasi;

V1 – depozit – cheklarning aylanish tezligi.

Tovarlar uchun to‘lanadigan, muomaladagi pul miqdori jami tovarlar bahosini ko‘paytirilganiga tengligini e’tiborga olib, Fisher quyidagi “ayirboshlash tengligi”ni ilgari surdi.

MV=PQ

[37] The economics of money, banking and financial markets / Frederick S. Mishkin, 10th Global edition, 2013. Page 552

Fisher chap va o‘ng tomoni bir – biriga to‘g‘ri proporsional bo‘lgan funksional tenglikka asoslangan holda, tovarlarning bahosi P muomaladagi pul miqdoriga to‘g‘ridan – to‘g‘ri proporsional va tovarlar miqdori Q teskari proporsionaldir degan fikrga keldi.

Fisherning funksional bog‘liqligidagi tengligida kamchilik shundan iborat ediki, u tovarlar miqdori va muomaladagi pul miqdorini ma’lum bir davrdagi holatini shartli V va Q ning o‘zgaruvchan darajasida e’tiborga olib, unga bog‘liq bo‘lgan o‘zgaruvchan darajalar ikkita, ya’ni tovarlar hajmi va bahosini e’tibordan chetda qoldiradi. Haqiqatda esa tovarlar hajmi iqtisodiyotning davriyligidan kelib chiqib o‘zgarib turadi va pul birligining aylanish tezligiga ta’sir ko‘rsatadi hamda pul muomalasi va bahosining shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, tovarlarning bahosi qator omillar asosida o‘zgarib turadi. Masalan, ishlab chiqaruvchilarning monopol mavqega egaligi, davlatning ichki va tashqi siyosati va boshqalar tovarlar bahosiga bevosita va bilvostia ta’sir ko‘rsatadi.

Miqdoriy pul nazariyasining “tranzaksion varianti” ta’limoti asoschilari, monetaristlar M.Fridman, K.Brunner, A.Meltserlar hisoblanadi. A.Marshall, L.Valrasning iqtisodiyotda muvozanatlik modeliga asoslangan holda, ular tovarlar bahosi va muomaladagi pul miqdori o‘rtasidagi tenglik “nisbiy” baholarning o‘zgarishi natijasida avtomatik tarzda muvozanatlashadi. Monetaristlar ushbu tenglikning o‘zgarib turishini iqtisodiyotdagi pul massasi bilan bog‘laydilar, shuningdek M.Fridman tovarlar miqdori va muomaladagi pul miqdori o‘rtasidagi tenglikni ta’minlashda nafaqat naqd pullar (banknotlar va tangalar)ni, balki tijorat banklarning tranzaksion hisobvaraqlaridagi (talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlar, depozit sertifikatlar va muddatli depozitlar) qoldiq mablag‘larni ham inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Monetaristlar zamonaviy miqdoriy pul nazariyasiga qator yangicha holatlarni kiritishdi. Xususan:

– birinchidan, ular pul massasi va bahoning o‘zaro bir – biriga to‘g‘ri proporsionalligidan voz kechdilar, faqat bozorga taklif etilayotgan tovarlar hajmining baholarga ta’siri haqidagi ta’limotni yoqladilar;

– ikkinchidan, ular pul birligi aylanish tezligini e’tirof etadilar, biroq bunga jiddiy e’tibor qaratishmaydi;

– uchinchidan, ular I.Fisherning tovarlar hajmining o‘zgarmas sharoitida muomaladagi pul miqdori jami tovarlar bahosini ko‘paytirilganiga tengligini inkor etadilar;

– to‘rtinchidan, takror ishlab chiqarish sharoitida turli darajadagi tebranishlarni aniqlashda pul massasi dinamikasi birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligiga ishonadilar, pul – kredit siyosatiga esa iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmi sifatida qaraydi.

Kembrij maktabi vakillarining qarashlari I. Fisher ta’limotidan farqli o‘laroq, odamlarning qo‘llarida pul ushlab turishlariga asos bo‘luvchi pulning ikki xususiyatini ajratib ko‘rsatishadi.

Birinchidan, pulning almashuv vositasi ekanligi. Sub’ektlar bitimlarni amalga oshirayotgan vaqtlarida pul almashuv vositasi sifatida amal qiladi. Kembrij

maktabining vakillari Fisherning pulga bo‘lgan talab bitimlar hajmiga bog‘liq va pulning bitimlarni amalga oshirishi uchun talabi nominal YaIMga proporsional ekanligi to‘g‘risidagi fikriga qo‘shiladilar.

Ikkinchidan, pul boylikni saqlash vositasi: Modomiki, pul boylikni saqlash vositasi ekan, pulga bo‘lgan talab ushbu boyliklar miqdoriga ham bog‘liq degan fikrni ilgari suradi. Boyliklarning oshishi bilan sub’ektlarda ularni har xil aktivlarga joylashtirish zaruriyati tug‘iladi.

Natijada, Kembrij maktabining olimlari pulga bo‘lgan talab nominal YaIMga proporsional degan xulosaga kelishdi va pulga bo‘lgan talab funksiyasini quyidagi tenglama tarzida ifoda etishdi.

$M^d=K*RY$

Ularning modeliga ko‘ra iste’molchilar qo‘llarida qancha pul bo‘lishi kerakligini o‘zlari hal qiladi. Bu esa K – (proporsionallik koeffitsienti)ning qisqa muddatlar ichida tebranishlarda bo‘lishini ko‘zda tutadi. Vaholanki, pullardan boyliklarni saqlash usuli sifatida foydalanish to‘g‘risidagi qaror qabul qilish, boshqa aktivlardan kutiladigan daromadlarga bog‘liq bo‘ladi.

Shunday qilib, boshqa aktivlardagi xususiyatlarning o‘zgarishi K ning ham o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Yuqorida ko‘rsatilgan farq I. Fisherning Kembrij maktabi vakillari fikrlaridan farqni anglatadi.

Jon Meynard Keyns Kembrij maktabining eng so‘nggi vakillaridan bo‘lib, ularning fikrlarini rivojlantirdi. Keynschilik nazariyasi asosan XX asrning 30 – yillarida yaxlit g‘oyaviy oqim sifatida to‘liq shakllandi. Uning asoschisi XX asrning eng mashhur iqtisodchilaridan biri Buyuk Britaniyalik olim J. M. Keyns edi.

M.Fridman tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya formulasi I.Fishernikidan ko‘rinishi nuqtai nazardan farq qilib, mohiyatan pul massasi va baho o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab berishga qaratilgan:

$M=KRU$

bu erda

M – pul miqdori;

K–pul zaxirasining daromadga nisbati;

R–baho indeksi;

U–o‘zgarmas baholardagi milliy daromad.

Monetaristlarning miqdoriy pul nazariyasini aks ettiruvchi zamonaviy tengligidan Shunday xulosa qilish mumkinki, pul massasining o‘zgarishi tenglikning o‘ng tomonida uchta holatning biriga ta’sir qiladi, ya’ni baholarning oshishiga (R), real milliy daromadning ortishiga (U), pul zaxirasini daromadga nisbatan koeffitsientini o‘zgarishiga olib keladi.

Miqdoriy pul nazariyasi Angliyaning Kembrij maktabi vakillari tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, uning vakillari sifatida A.Marshal, D.Robertson va D.Patinkinlarni keltirish mumkin.

I.Fisherning miqdoriy pul nazariyasi haqida shakllantirgan “tranzaksion varianti”da pul asosan muomala vositasi va to‘lov vositasi funksiyalarini bajarishini e’tirof etgan bo‘lsa, A.Pigu miqdoriy pul nazariyasida pulni jamg‘arma

vositasi funksiyasi vazifasini ham bajarishini ta’kidlab, unga alohida ahamiyat qaratadi.

Angliya Kembrij maktabi vakillari miqdoriy pul nazariyasi borasidagi ta’limotlarida I.Fisherning pul nazariyasi xususidagi ta’limotidan farqli yana bir konsepsiyani ilgari suradilar. Agar, I.Fisher iqtisodiyotga zarur bo‘lgan pul miqdorini uning taklifini tahlil qilish asosida aniqlagan bo‘lsa, Kembrij maktabi vakillari iqtisodiyotga zarur bo‘lgan pul miqdorini tovarlar va xizmatlar hajmidan kelib chiqib unga bo‘lgan ehtiyoj asosida aniqlash zarurligi haqidagi ta’limotni ilgari suradi.

Shuningdek, agar I.Fisher pulning hajmini muomalada bo‘lgan miqdoriga qarab va ular doimiy ravishda muomalada ishtirok etishini e’tirof etgan bo‘lsa, Kembrij maktabi vakillari muomalaga chiqarilgan pullarning barchasi doimiy ravishda muomalada ishtirok etmasligi, ular “kassa qoldig‘i” sifatida aholining qo‘lida, bank va korxona hisobvaraqlarida ma’lum muddatga saqlanib qolishi mumkinligi xususidagi ta’limotni asoslab berishadi.

I.Fisher jami ijtimoiy kapitalni va bahoning darajasini umumiy yaxlitlikda tahlil qilish asosida tegishli xulosalarni shakllantirgan bo‘lsa, A.Pigu asosiy e’tiborni kapitalning individual harakati va ularning sohiblariga qaratadi.

A.Pigu miqdoriy pul nazariyasining “kassa qoldig‘i” haqidagi ta’limotni ilgari surganda uning tarkibiga muomaladagi naqd pulsiz va joriy hisobvaraqlardagi qoldiq summalarni, ya’ni pul miqdorini aniqlashda aholining qo‘lidagi naqd pul qoldiqlari va korxona–tashkilotlarning banklardagi hisobvaraqlarini qoldiqlarini ham inobatga oladi.

E’tirof etish lozimki, A.Piguning pul nazariyasi haqidagi yondoshuvlari I.Fishernikidan farq qilsada, mohiyatan miqdoriy pul nazariyasi doirasidan chiqib ketolmagan edi, pul va baho o‘rtasidagi to‘g‘ridan – to‘g‘ri aloqa saqlanib qolgan edi. Buni A.Pigu tomonidan yaratilgan M =RPQ yoki P=M/Q tengligida ham kuzatish mumkin, chunki bu I.Fisherning “ayirboshlashni tenglashtirish” konsepsiyasiga yaqin bo‘lib, unda:

M – pul massasi;

P – baho darajasi;

Q – tovar massasi (yoki tovar aylanmasining moddiy hajmi);

V – jismoniy va yuridik shaxslarning pul ko‘rinishida saqlashi mumkin bo‘lgan daromadlar.

I.Fisher va A.Piguning tengliklari o‘rtasidagi farq, Fisherda pul birligining aylanish tezligi V foydalaniladi, ikkinchi koeffitsient K, Vga teskari ko‘rsatkich bo‘lib, agar Piguning tengligidagi K almashtirilsa Fisherning formulasi kelib chiqadi.

XX asrning 50 yillarini o‘rtalaridan boshlab, miqdoriy pul nazariyasining Kembrij ta’limotiga asoslangan neoklassik yo‘nalishi vujudga keldi. Ushbu yo‘nalishning asosiy nomoyandasi D.Patinkin hisoblanib, u o‘zining asarlarida pul massasi va baho o‘rtasida to‘g‘ridan – to‘g‘ri proporsionalllik mavjudligidan kelib chiqdi. D.Patinkin “kassa zaxirasi”ni yuqori likvidli manba sifatida qaraydi, uning hisobidan qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish va keyinchalik ushbu mablag‘larni real kapitalga yo‘naltirish zarurligini ta’kidlaydi.

D.Patinkin miqdoriy pul nazariyasida daromadni uchta yo‘nalishga, ya’ni iste’mol, investitsiya va “kassa zaxirasi” sifatida joylashtirish zarurligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, pul nazariyasi va uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi holatini o‘rganish va tahlil qilish asosida bu xususda iqtisodchi olimlar, mutaxassislar va tadqiqotchilarning fikrlari turlicha bo‘lsada, barchasining asosida uning ayirboshlash vositasi ekanligi va pulning mavjudligi asosida mehnat taqsimoti yotishi e’tirof etiladi.

3.5.Keynschilik nazariyasining keyingi rivojlanishi

O ‘zining 1936 yilda chop etilgan, - "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" mashxur kitobida Djon Meynard Keyns klassik yondashishdan bosh tortdi, aylanish tezligining doimiy ekanligi to‘g‘risidagi va pulga bo‘lgan talab nazariyasini ishlab chiqdi , protsentli stavkalarning rolini alohida e’tiborga olib, bu pulga bo‘lgan talab nazariyasi likvidlikni ustun ko‘rilishi deb nomlanadigan nazariya“nega aholi pulni ushlab turadi?“ degan savolga javob beradi. U taxmin qildiki pulga talab 3 ta sabab orqali izohlanadi : transaksionli, spekulyativ va ehtiyotkorlik motivi[38].

Transaksion motiv

Klassik yondashishga ko‘ra aholi pulni almashinish vositasi sifati o‘zida ushlab turadi (har kungi transaksion amallarni bajarish uchun).

Klassik yondashish amaliga ko‘ra Keyns ta’kidlab o‘tdiki pulga bo‘lgan talabning bu tarkibi avvalambor transaksiya darajasi bilan belgilanadi. Klassiklarning fikriga qo‘shilgan holatda transaksiya darajasi daromadga proporsional, Keyns taxmin qilar ediki pulga bo‘lgan talabni tashkil qiladigan transaksiya daromadga proporsional.

Ehtiyotkorlik motivi

Klassiklarnnig nazariyasidan tashqariga chiqqan holda Keyns aniqladiki odamlar har kungi ehtiyojlarini bajarishdan tashqari kutilmagan vaziyatlar uchun ham pulni saqlashadi. Faraz qilamiz siz avaldan stereosistema sotib olmoqchisiz va u sotiladigan do‘konni topdingiz ham deylik u protsentga sotilar ekan.. Agar sizda kutilmagan vaziyatlar uchun pul bo‘lsa siz uni hoziroq sotib olasiz, agar bunday pul bo‘lmasa siz sotuv imtiyozlaridan foydalana ololmaysiz. Kutilmagan vaziyatlar uchun bo‘lgan pullar bundan ham yoqimsizroq tovarlarni va xizmatlar uchun ham kerak bo‘lib qolishi mumkin misol uchun avtomobil remonti uchun yoki davolanish uchun.

Keyns taxmin qilardiki, pul miqdori kutilmagan vaziyatlar uchun, avvalombor kutilayotgan transaksiya amallarining darajasiga bog‘liq, kutilayotgan transaksiya darajasi esa daromadlarga proporsional.

Spekulyativ motiv

Agar Keynsning nazariyasi ya’ni aholi pulni kutilmagan vaziyatlar va har kungi xarajatlar uchun saqlash bilan chegaralanib qolganida bunda pulga bo‘lgan talab faqatgina daromadlar hajmi bilan aniqlanar edi va Keynsning yondashuvi klassiklarning yondashuvidan farq qilmas edi. Ammo u shuningdek pulni boylik

---

[38] The economics of money, banking and financial markets / Frederick S. Mishkin, European edition, 2013. Page 449.

to‘plash sifatida ham qaragan va bu saqlash metodni spekulyativ metod deb qaragan. Boyliknig daromad bilan uzviy bog‘ligidan kelib chiqib Keyns qayd etadiki, pulga bo‘lgan talabning spekulyativ tarkibi daromadga bog‘liq. Keyns aktivlarni bo‘ldi, boylikni saqlash vositasi kabi ishlatiladiganlarni ikki kategoriyaga pullar va obligatsiyalarga bo‘ldi. Keyin savol berdi “ nega odamlar boylikni pul sifaatida saqlashni afzal ko‘rishadi obligatsiyaga nisbatan ? “

Aktivga bo‘lgan talab nazariyasiga ko‘ra siz pullarni saqlaysiz agar ularning daromad olib kelish ko‘rsatkichi obligatsiyalarga nisbatan yuqoriroq bo‘lsa. Keyns o‘ylardiki pulning daromad olib kelish darajasi nolga teng, chunki o‘sha paytda ko‘plab depozit cheklarga protsentlar to‘lanmas edi. Obligatsiyalardan kutilayotgan daromad ikki qismdan iborat :protsentli to‘lov va kutilayotgan kapitalning o‘sishi.

4 bobdan malumki obligatsiya narxi foiz stavkaning o‘sishi bilan tushadi. Agar foiz stavkaning o‘sishi kutilayotgan bo‘lsa demak, obligatsiyalar narxi tushadi, qaysikim kapitalning negativ o‘sishiga olib keladi. Sezilarli darajada foiz stavkalarda o‘sish kuzatilsa kapitalning yo‘qotilishi foizli to‘lovdan ilgarilab o‘tib ketadi va kutilayotgan obligatsiyalar daromadi negativ(manfiy) bo‘ladi. Bu holatda siz boyligingizni pul sifatida saqlashni istaysiz, chunki ularning kutilayotgan daromadi balandroq (pulning nol daromadi obligatsiyalarning manfiy daromadidan yuqoriroq).

Keyns taxmin qildiki kutilayotgan foiz stavka qandaydir normal ma’noga intiladi(hozirgi kunda bu taxmin unchalik to‘g‘ri emas). Qachonki foizli stavka o‘zining normal manosidan kichikroq bo‘lganda, odamlar uning o‘sishini va kapitalning yo‘qotilishini kutishadi va shuning uchun tez orada o‘z boyliklarini pul ko‘rinishida saqlashni afzal ko‘rishadi, obligatsiya ko‘rinishidan ko‘ra pulga talab yuqoriroq bo‘ladi.

Pulga bo‘lgan talab qanday nomoyon bo‘ladi agar foiz stavka o‘zining normal ko‘rinishidan kattaroq bo‘lsa? odamlar foiz stavkaning paasayishini kutishadi, obligatsiya narxlarining ko‘tarilishini va kapitalning musbat ko‘tarilishini kutishadi. foizning etarli darajada katta bo‘lishida obligatsiyalardan kutilayotgan daromad musbat bo‘ladi, kutilgan daromad pulidan yuqori bo‘ladi. Bu holatda imtiyoz obligatsiyalarga beriladi va pulga talab kamyadi. Bu mulohazalardan quyidagi xulosaga kelinadi: foizli stavkaning o‘sishida pulga talab pasayadi demak pulga bo‘lgan talab hajmi teskari bog‘liklikda foizli bog‘liqlikga ega.

Uchta motivning birlashishi[39]

Pulga talabning 3 ta motivini birlashtirib Keyns aniq nominal va haqiqiy kattaliklarni ajrata oldi. Pulga bo‘lgan narx unga nima sotib olish mumkinligi bilan aniqlanadi. Masalan agar iqtisodiyotdagi o‘rtacha narx ikki barobar oshsa o‘sha nominal pul miqdoriga ikki barobar kamroq tovar va xizmatlarni sotib olish mumkin. Keyns ta’kidlar ediki ma’lum miqdordagi pul qoldig‘lariga egalik qilishga harakat qilishadi(haqiqiy ifodadagi pul miqdori) bu pulning haqiqiy

[39] The economics of money, banking and financial markets / Frederick S. Mishkin, European edition, 2013. Page 450

miqdori yuqorida ko‘rgan uchta motiv bilan aniqlanadi va haqiqiy daromad Y ga bog‘liq va protsentli stavka I ga bog‘liq. Keyns pulga talab tenglamasini keltirib chiqardi, likvidlikni afzal ko‘rish funksiyasi nomi bilan mashxur, Shunga ko‘ra real pul qoldiqlariga bo‘lgan talab M^d/P bu funksiya i va Y^6

$\frac{M}{N}$ *- + = / 0 yu*

‘-’ va ‘+’ belgilar manfiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi real pul qoldig‘iga bo‘lgan talabni protsent stavka i dan va musbat bog‘lanishni real daromad Y dan likvidlikni afzal ko‘rish funksiyasi pulga talab bo‘yicha faktorlarni isbotlaydi. Shunday qilib Keyns xulosa qildi : pulga bo‘lgan talab faqat daromadga bog‘liq emas balki protsent stavkaga ham bog‘liq. Mana Shunda Keynsning nazariyasi Fisher nazariyasidan farq qiladi qaysiki protsentli stavkani hisobga olishmagan. Likvidlikka moyillik tenglamasini quyidagicha yozish mumkin : $\frac{P}{M''}$ *˜/aF*

Tenglikni ikki tarafini G ga ko‘paytirib va M^ni M ga almashtirib(ular teng pul bozorida muvozanatli bo‘lgan holda):

V^{lm} u^{py} *-lp*^{y}*o‘ 22.5*

Tenglamaga ko‘ra, Keynsning nazariyasiga ko‘ra aylanish tezligi doimiy emas, foiz stavkaning o‘zgarishi bilan tebranadi. Pulga talab foizli stavkaga teskari bog‘liqlikda, bundan kelib chiqadiki qachonki I ko‘paysa f(I,Y) tushadi, va aylanish tezligi kattalashadi. Boshqacha qilib aytganda foiz stavkalarning o‘sishi, kamroq haqiqiy pul qoldiqlarini o‘zida ushlashga undaydi, berilgan daromadlar bo‘yicha va aylanish tezligi o‘sadi. Shunday qilib, likvidlikni afzal ko‘rish nazariyasidan quyidagi xulosaga kelinadi foiz stavkalardagi sezilarli o‘zgarishlar bo‘lsa aylanish tezligi sezilarli tebranadi. Shuni aytish lozimki 22.5 tenglama aylanish tezligining o‘sish tezligini pasayishini ko‘rsatadi iqtisodiy inqiroz paytida. Buni nima bilan izohlash mumkin ? foiz stavkalarning sikilli xarakteri haqida bir eslaylikchi. iqtisodiy yuksalish paytida foiz stavkalar ko‘tariladi, retsessiya davrida esa pasayadi. Lividlikni ustun ko‘rish nazariyasiga ko‘ra foiz stavkalarning o‘sishi pul aylanish tezligi ortishiga olib keladi. Foiz stavkalarning o‘zgarishi tebranish bilan bir qatorda , muvozanatli aylanish tezligining tebranishiga sharoit yaratadi.

Spekulyativ pulga talab modeli aylanish tezligi tebranishining boshqa sababini ham ochib beradi. Normal darajadagi foiz stavkasining o‘zgarishida pulga bo‘lgan talab bilan nima sodir bo‘ladi ? masalan nima bo‘ladi agar odamlar kelajakda foiz stavkasining ko‘tarilishini kutishsa hozirgi kunga nisbatan ? foiz stavkalarning o‘sishining kutilishi bilan birga obligatsiyalarga bo‘lgan narxlarning tushishini kutishadi va kapital yo‘qotilishidan qo‘rqishadi. Obligatsiyalardan kutilayotgan daromad pasaymoqda, alternative usulda pulni saqlashga bo‘lgan ehtiyojga talab ko‘payadi. Natijada ularga bo‘lgan talab oshadi. Bu shuni anglatadiki f(I,Y) kattalashadi va aylanish tezligi kamayadi. Pulning aylnish tezligi o‘zgaradi kutilayotgan foiz stavkalarning o‘zgarishida; bu kutilishlarning nomuvozanatliligi nomuvozanat pul aylanish tezligiga olib keladi. Bunga yana bir sabab nega Keyns aylanish tezligini doimiy emas deb hisoblashida.

Demak keynchilik nazariyasining likvidlikni ustun ko‘rilishi, pul saqlashning 3 ta motivni ko‘rib chiqadi:

Transaksionli, ehtiyotkorlik motivi va spekulyativ. Ikkita motiv bo‘yicha pulga bo‘lgan talabni hisobga olib, Keyns teskari bog‘liqlikni isbotladi, spekulyativ motiv bo‘yicha foiz stavkasining darajasiga qarab.

Keynchilik pulga talab nazariyasidan shunday xulosaga kelinadiki aylanish tezligi doimiy emas, u foiz stavkalarga to‘g‘ri bog‘langan, qaysiki kuchli tebranishga moyil. Keyns nazariyasiga ko‘ra aylanishning doimiy emasligi yana bir narsa bilan isbotlangan, foiz stavkalarning normal darajasiga nisbatan o‘zgarishlarning kutilishi pulga talabni o‘zgartiradi va shuningdek ularning aylanish tezligini ham. Shunday qilib Keynnsning nazariyasi klassiklarning miqdoriy nazariyasini shubha ostiga qoldiradi ya’ni nominal daromad pul miqdorining o‘zgarishi bilan aniqlanadi.[40]

3.6. Fridmanning pulning zamonaviy miqdoriy nazariyasi

I kkinchi jahon urushidan so‘ng Keynsning nazariyasi rivojlanish davomiyligiga ega bo‘ldi, uning tarafdorlari bir qator aniqroq modellarni ishlab chiqishdi, yuqorida ko‘rib o‘tgan 3 ta pulni saqlash motivi bo‘yicha. Foiz stavkaning hal qiluvchi rolidan kelib chiqib monetar nazariyada, izlanuvchilar asosiy etiborini pulga bo‘lgan talabning aynan mana shu ko‘rsatkichini aniqroq o‘rganishga qaratishdi.

Pulga bo‘lgan transaksion talab*[41]*.

Uilyam Baumol va Djeyms Tobin o‘zlarining modellarini rivojlantirib, ular gipoteziyali odamni ko‘rib chiqishardi, qaysiki berilgan muddat ichida bir marta pul oladi va uni shu davr mobaynida asta - sekinlik bilan sarflaydi. Bu modellarda pullarning daromadi nolga teng, va odamlar pulni faqat transaksiya ishlarini bajarish uchun saqlashadi.

Yanada izchillik bilan ko‘rib chiqish uchun faraz qilaylik qandaydir bir Grant Smit oy boshida 1000 dolar oladi va oy davomida keyingi bitimlar uchun asta sekinlik bilan sarflaydi. Agar Grant barcha daromadini pul shaklida saqlayotgan bo‘lsa unda uning pul qoldig‘i grafigi arra sifat ko‘rinishga ega, 22.2a rasmda tasvirlangan kabi. Oy boshida u 1000 dollarga ega oy oxirida hech nimaga ega emas chunki barcha pullarni transaksiya davomida sarflab yuborgan. Oy davomida u o‘rtachada 500 dollarga ega bo‘lgan.

Keying oy boshlanishida esa Grant yana 1000 dollar oldi qaysilarni u naqd pul sifatida ushlab turdi va bu jarayon har oy takrorlanadi. Yil davomidagi o‘rtacha pul qoldig‘i 500 dollar. Chunki uning nominal yillik daromadi 12000 dollarni tashkil etadi va pul qoldig‘i -500 dollar unda pul aylanish tezligi (v=PY/M) 12000 dolllar/500dollar=24

Farza qilaylik bank ishini va pul nazariyasini o‘rgangan holatda Grant tushundiki daromadning hammasini emas balki ma’lum qismini saqlasa afzallaroq

---

[40] The economics of money, banking and financial markets / Frederick S. Mishkin, European edition, 2013. Page 452

[41] The economics of money, banking and financial markets / Frederick S. Mishkin, European edition, 2013. Page 452

bo‘ladi. Yanvar oyida u daromadining yarim qismini naqd pul sifatida saqlashga qaror qildi va ikkinchisini daromad keltiradigan qimmatli qog‘ozlar masalan obligatsiyalarga sarflashni qaror qildi.

Endilikda har oy boshida Grant 500 dollarga ega naqd ko‘rinishda va qolgan 500 dollarga g‘aznachilik obligatsiyalarini sotib oladi. 22.26 chizmada ko‘rsatilganidek oy boshida uning qo‘lida 500$ naqd pul bor va oy o‘rtasiga kelib bu jamlagan summa nolga aylanadi. Obligatsiyalarni bitim tuzayotganda bevosita ishlatib bo‘lmaydi, Shuning uchun Grant ularni sotishi kerak va olgan naqd pulni oy oxirigacha bo‘lgan bitim tuzishda ishlatishi kerak. Shuning uchun Grantning qo‘lidagi naqd pul oyning o‘rtasida 500$gacha o‘sadi, va oy oxirida yana nolni tashkil etardi. Kelgusi oyda Grant o‘xshash yo‘lda ish olib boradi. Oxir oqibatda o‘rtacha naqd pul qo‘lidagi 500 va nol dollarlar orasida bo‘ladi, 250 dollar ikki barobar kamroq birinchi holatga qaraganda. Shu bilan birga pul aylanish tezligi ikki barobar o‘sadi 12000/250=48

Yangi strayegiyani qo‘llab Grant nima yutdi? Yangi strayegiyani qo‘llab, u obligatsiyalar bo‘yicha 500$ da yarim oy uchun foiz oldi. U oylik foiz stavkasi bo‘yicha oy uchun 1 %li qo‘shimcha 2.5 dollar oldi.(1/2x500$.x0.01)

Yomon emas to‘g‘rimi? Agar u oy boshida 333.33$ dollar naqd pul qoldirganda, u obligatsiyaga 666.7 $ qo‘yishi mumkin edi. 10 kundan so‘ng u obligatsiyalarni 333.33 $ ga sotar edi va 333.33 $ obligatsiya ko‘rinishida yana 10 kunga qolar edi. 20 kundan so‘ng oy boshidan u joriy bitmda olgan naqd pul evaziga qolan obligatsiyalarni sotar edi. Bu holatda Grant oyiga qo‘shimcha 3.33$ olardi.(1/3x666.7$.x0.01+1/3x333.33$.x0.01). Bu obligatsiyaga yarim daromadni qo‘shishdan ko‘ra yaxshiroq. O‘rtacha naqd pul qoldig‘i 333.33$/2=166.67$ni tashkil etardi. Malumki qanchalik naqd pul qoldig‘i kamroq bo‘lsa obligatsiyalar bo‘yicha to‘lov shunchalik kattaroq bo‘ladi.

Obligatsiyalarni sotib olib Grant 2 turdagi transaksion jarayonni olib boryapti. Birinchidan brokerlarga komission mukofotlarni to‘layapti obligatsiyalarni sotish va sotib olishadi. Grant qanchalik kam miqdorda naqd pul qoldirsa va tez obligatsiya sotsa shunchalik ko‘proq u komission pul to‘laydi. Ikkinchidan, pul olish uchun unga ko‘proq vaqt sarflashga to‘g‘ri keladi va vaqt - bu pul, banklarga sayohat uyushtirish uchun transaksion ushlanishlar ortadi .

Grant tanlov oldida quyidagilar turibdi. Kamroq naqd pul qoldirib u ko‘p foizlarga ega bo‘lishi mumkin obligatsiyalar bo‘yicha ammo bunda uni ko‘proq muddatli tranaskion ushlanishlar kutadi. Yuqori foizli stavkada obligatsiyadan keladigan daromadlar transaksion ushlanishlardan oshadi va Grant kamroq naqd pul ushlab ko‘proq obligatsiyalar ushlaydi. Aksincha agar foiz stavkasi past bo‘lsa, transaksion ushlanishlar foizli to‘lovlardan yuqoriroq bo‘lishi mumkin, va Grantga ko‘proq naqd pullarni ushlash obligatsiyalarni kamroq ushlashdan afzal bo‘ladi.

Baumol-Tobin modelidan quyidagi xulosaga kelish mumkin: foiz stavkaning ortishi bilan transaksion motiv bo‘yicha qoldiq kamayadi va ayalanish tezligi oritib boradi. Boshqa so‘zlarda izohlaganda pulga talabning transaksion tarkibi foiz stabkaga teskari bog‘liqlikda.

Baumol-Tobin modelining asosiy g‘oyasi pullarni saqlash foiz darajasiga ko‘ra alternativ ushlanishlarga olib keladi qaysiki boshqa aktivlardan olish mumkin. Shu bilan birga naqd pullarni saqlash transaksion ushlanishlarni oldini oladi. Foiz stavkasining kattalashishi bilan alternativ pullarni saqlashining ushlanishi ortadi, va odamlar naqd pullar qoldig‘ini bitimlarni olib borish uchun kamaytiradi. Oddiy modellardan fooydalangan holda Baumol va Tobin muhim qonuniyatni aniqlaydi: pulga bo‘lgan transaksion talab spekulyativ kabi foiz stavkaga bog‘liq. Analitik yondashish Baumol-Tobinning iqtisodiy modellashtirishning afzalligini ko‘rsatyapti.[42]

O‘rgan talaba !

Foiz stavkasining ortishi bilan pulga talab tushishi haqidagi fikr bor chunki alternativ ushlanishlar ortadi va ularni saqlash bo‘yicha va ularni kutilayotgan daromad tushunchasi bilan yuqoridagi ko‘rib chiqqan tushuncha bilan ko‘rib chiqishimiz mumkin. Foiz stavka ortgan paytda alternativ aktivning kutilayotgan daromadi ortadi va kutilayotgan pulning daromadi kutilayotgan obligatiyalardan keladigan daromadga nisbatan pasayadi. Shu tufayli pulga talab pasayadi. Bu ikki tushuntirish bir xil chunki alternativ aktivlarni saqlash ushlanishlarining o‘zgarishi uning kutilayotgan daromadga nisbatan o‘zgarishini tushuntiradi. Bu bo‘limda alternativ ushlanishlar tushunchasining ishlatilishi sababi shuki, Baumol va Tobin pulga bo‘lgan transaksion talabni o‘rganishda ishlatishgan edi. Bu ikki terminologik yondashning teng qadr qimmmatli ekanligiga ishonch hosil qilish maqsadida kutilayotgan daromad terminologiyasidan foydalanib, quyida pulga ehtiyotkorlik bo‘yicha talab tushunchasini izohlab bering.

Ehtiyotkorlik bo‘yicha pulga bo‘lgan talab.

Ehtiyotkorlik motivi bo‘yicha ishlab chiqilgan pulga talab modeli analitik yondashuv asosida ishlab chiqilgan, Baumol-Tobin modeli kabi, shuning uchun biz uni bu erda izchillik bilan o‘rganmaymiz. ehtiyotkorlik motivi bo‘yicha pulni saqlash motivini alternative ushlanishlar bilan taqosslash kerak qaysiki (alternativ ushlanishlar) qo‘lga kiritmagan foizlar evaziga. Yana o‘sha tanlov muammosi paydo bo‘ladi, ya’ni transaksionli motivdagi kabi. Foiz stavkalarining ortishida, alternative ushlanishlardagi ehtiyotkorlik motivi asosida saqlanayotgan pullar ortadi va ularga bu motiv bo‘yicha talab kamayadi. Yana o‘sha natijaga ega bo‘lyapmiz. Baumol Tobin modeliga o‘xshab. Ehtiyotkorlik motivi asosida pulga talab foiz stavkalariga teskari bog‘lanishda.

Pulga bo‘lgan spekulyativ talab.

Pulga talabning Keynschilikning spekulyativ modeliga binoan aholi o‘z boyligini faqat pul ko‘rinishida (agar kutilayotgan daromad obligatsiyalardan, puldan kutilayotgan daromaddan kamroq bo‘lsa) yoki obligatsiya ko‘rinishida (daromadning teskari munosabatda) bo‘lsa, faqatgina bu ikki ko‘rsatkichni tengligida (juda kam hollarda) aholi aktivlarni ikki ko‘rinishda saqlaydi. Bundan kelib chiqadiki, Keynsning modeli tahmin qiladiki, deyarli hech kim obligatsiyani ham pulni ham qadr qiymatini saqlab qolish uchun bir vaqtda ishlatmaydi. Keyns

[42] The economics of money, banking and financial markets / Frederick S. Mishkin, European edition, 2013. Page 453

nazariyasida kamdam kam uchraydigan aktivlarning diversifikatsiyasi va ko‘plab tadqiqotlarga asoslanishi, bu pulga bo‘lgan spekulyativ talab nazariyasining qattiq tanqidga uchrashiga sabab bo‘ldi.

Keynchilik yondashuvidagi kamchiliklarni yengish uchun Tobin spekulyativ pulga talab modelini ishlab chiqdi, tahminlarga asoslangan, qaysiki moliyaviy aktiv portfelinining strukturasini aniqlashda aholi faqat kutilayotgan daromadni emas, balki shu bilan birga bu aktivning boshqa aktiv bilan taqqoslagandagi riskini hisobga oladi. Tobin tahmin qildiki ko‘pchilik tavakkalchilik qilmaydi va kamroq daromad olib kelish ko‘rinishida aktivlarni ushlashadi. Muhimi pul daromadi aniq (Tobin tahmin qilardii u nolga teng). Shuning uchun agar obligatsiyalardan kutilayotgan daromad puldan kutilayotgan daromaddan yuqoriroq bo‘lsa ham odamlar boyligini pul ko‘rinishida saqlashadi chunki obligatsiyalar yuqoriroq riskka ega bo‘lgan aktivdir.

Tobin modelidan kelib chiqadiki, risk darajasining moliyaviy aktivlar portfelida pullar va obligatsiyalar saqlashni diversifikatsiya qilish orqali pasaytirishi mumkin. Tobin modeli Keyns modeliga nisbatan asosliroq chunki iqtisodiy agentlarning say harakatini aniqroq ifodalaydi.

Ammo Tobin Keynsning pulga spekulyativ talabining kamchiliklarini to‘liq hal qila olmadi. Hatto pulga spekulyativ talab borligi shubha uyg‘otadi. Nima agar nolevoy riskli aktivlar mavjud bo‘lsa (pulga o‘xshash) ammo yuqori daromadli? Shu holatda pulga spekulyativ talab bo‘lishi o‘rinnli bo‘ladimi? Yo‘q, chunki aholi pulni emas bu aktivni saqlashni istaydi. Natijada moliyaviy aktiv potrfeli daromadi ortadi va risk ortmaydi. Ammo bunday veksellar mavjudmi amerika iqtisodiyotida? Ha, AQSH g‘azna veksellari va boshqa aktivlar defolt riski va pul daromadi bilan aloqasi yo‘q. Unday bo‘lsa nega jamg‘armani naqd pul ko‘rinishda saqlash lozim(transaksion motiv va ehtiyotkorlik motivini hisobga olmagan holda)?

Tobin modeli buni tushuntirmasa ham nega aholi jamg‘armasini naqd pul ko‘rinishida saqlaydi, bu qanday qilib iqtisodiy agentlar aktivlarni tanlashida yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tobin modeli aktivlarni baholash nazariyasida va aktivlarning moliaviy portfelini tuzishda(u yoki bu aktivlarni sotib olishda qaror qabul qilishda)yangi bosqich bo‘ldi.

Ko‘rganimizdek Keynsning tarafdorlari pulga talabning uchta turini yaxshiroq tushuntirib berishga harakat qilishdi (transaksionlik bo‘yicha , ehtiyotkorlik va spekulyativ bo‘yicha). Keys tomonidan asoslangan pulga spekulyativ talabini qisman takomillashtirishga erishildi chunki bunday talab mavjudmi yoki yo‘qmi degan savol paydo bo‘ladi. Ammo transaksion va ehtiyotkorlik talabi bu ikki tarkibni foiz stavkasiga nisbatan teskari bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Bu Keyns aytganalarini isbotlaydi ya’ni pulga talab foiz stavkaga bog‘liq bundan kelib chiqadiki pulning aylanaish tezligi doimiy emas va nominal daromad faqatgina pul massasi bilan emas balki boshqa faktorlar bilan ham bog‘liq.[43]

[43] The economics of money, banking and financial markets / Frederick S. Mishkin, European edition, 2013. Page 455

3.7.Fridmanning pulning zamonaviy miqdoriy nazariyasi

1956 yilda Milton Fridman "Pulning miqdoriy nazariyasi: yangi versiyasi" mashhur kitobini chop etgan, shunga qaramasdan, I.Fisherning bu ishida miqdoriy nazariyasi ishiga suyangan bo'lsa ham, uning pulga talab nazariyasi I. Fisherga nisbatan M.Keynsga ko'proq o'xshaydi.

Uning o'tmishdoshlari kabi Fridman pulni saqlash motivlarini o'rgandi. Ularni izchil o'rgangandan ko'ra Keynsga o'xshab, u shunchaki tahmin qildiki har qanday aktiv uchun pulga talab o'sha faktorlar bilan aniqlanadi. Keyin Fridman talab nazariyasini aktivlar va pulga qo'lladi.

Aktivlarga talab nazariyasiga binoan, pulga talab puldan kutilayotgan daromadga nisbatan boylik hajmiga va kutilayotgan boshqa aktivlarning daromad olib kelishiga bog'liq. Keyns kabi, Fridman tan oldiki malum miqdorda pul qoldiqlarini haqiqiy ko'rinishda ushlab turishga harakat qilishadi. Shuning uchun Fridman pulga talabni quyidagicha ifodaladi : $\frac{M}{}$*∧=/(Yp,₊ p˜r˜m<ʳe˜r˜m<ᵖ,˜r˜m)*

Bu erda M^d/P *haqiqiy pul qoldiqlariga bo'lgan talab, Y – boylik darajasi, Fridman bo'yicha doimiy daromad deb nomlanadi(joriy diskontlangan turar narxi kelgusi barcha daromadlarning yoki soddalashtirilganda kutilayotgan o'rtacha uzoq muddatli daromad) ,*Z_m *pullardan kutilayotdan daromad,* Z_b *obligatsiyalardan kutilyotgan daromad, Z oddiy aksiyalardan kutilayotgan daromad, inflyasiyaning kutilayotgan o'sishi. Tenglama ostidagi belgilar ko'rsatadiki, pulga bo'lgan talab bilan va unga mos o'zgaruvchilar bilan orasidagi qanday bog'lanish borligini ko'rsatadi:to'g'ri (+) teskari (-). Fridman nazariyasidagi pulga talab omillarini va ularning ahamiyatini ko'rib chiqamiz.*

Malum bo'lishicha aktivlarga talab boylikka to'g'ri bog'lanish, shuning uchun ham pulga talab doimiy daromadga to'g'ri bog'lanishdir(boylik darajasi Fridman bo'yicha). Qaysiki (+) belgi bilan belgilangan Y_p *o'zgaruvchi ostida. Doimiy daromad (kutilayotgan o'rtacha uzoq muddatli daromad) odatdagiga qaraganda qisqa muddat ichida ancha kam tebranadi, chunki uning ko'plab o'zgarishlari vaqtli harakterga ega. Masalan, iqtisodiy o'sish paytida daromadlar tez ortadi, ammo bu hodisa vaqtinchalik va o'rtacha uzoq muddatli daromad unchalik o'zgarmaydi. Bundan kelib chiqadiki, yuqori faollik paytida doimiy daromad joriy vaqtga nisbatan unchalik sezilarli darajada ortmaydi. Retsessiya davrida joriy daromadlarning kamayishi kuchli bo'ladi, ammo bu vaqtinchalik harakterga ega, Shuning uchun o'rtacha kutilayotgan uzoq muddatli daromad joriydagiga qaraganda unchalik kamaymaydi. Doimiy daromadning pulga bo'lgan talab omillaridan biri deb qarab shunday xulosaga kelamizki pulga talab qisqa mudatli iqtisodiyotdagi tebranishlarda unchalik o'zgarmaydi.*

Aholi o'z jamg'armasini faqat pul ko'rinishida saqlamasligi mumkin. Fridman alternative pullarga bo'lgan jamg'armani 3 ko'rinishga bo'ldi: obligatsiyalar, aksiyalar va boylik. Aholi agar ularning daromad keltirishi kutilayotgan pul daromad keltirishidan yuqori bo'lsa bu turdagi pulni afzal ko'radi. Pulga talabdagi ohirgi uchta o'zgaruvchilar bu alternativ pullardan kutilayotgan daromadning og'ishi kutilayotgan puldan keladigan daromadga

nisbatan. Har bir o‘zgaruvchi ostidagi (-)belgisi shundan dalolat beradiki , ularning ihtiyoriy bittasining ortishida pulga talabni kamayishiga olib keladi .

Puldan kutilayotgan daromadga Z_m, barcha uchta holda, ikkita omil tasir etadi.

1. Depozit bo‘yicha bank hizmati doirasi, pul massasi ichiga kiradi, masalan, pul to‘lovlarini chek orqali yoki avtomatik tarzda to‘lanishi. Bunday turdagi hizmat hajmining ortishi bilan pullardan kutilayotgan daromad ortadi.

2. NOW tipidagi schotlar va boshqa depozitlar bo‘yicha foizli to‘lovlar summasi pul massasiga kiradi. Foiz to‘lovlarining summasini ortganida pullardan kutilayotgan daromad ortadi.

Agar pulga talab funksiyasidagi $Z_b - Z_m$ va $Z - Z_m$ ifoda obligatsiyalar va aksiyyalardan kutilayotgan daromadni harakterlaydigan bo‘lsa, bunday holda puldan kutilayotgan daromadga nisbatan if - Z_m ifoda boylik va puldan kutilayogan daromad orasidagi farqni ifodalaydi. Boylikdan kutilayotgan daromad- narx oshganligi tufayli kapitaldagi kutilayotgan ko‘tarilishning normasi va u kutilayotgan inflyasiya o‘sish suratiga teng. Masalan, 10 % inflyasiya o‘sish surati kutilayotgan bo‘lsa, boylikdan kutilayotgan daromad ham 10 % ni tashkil etadi. $\prod^5$-r_m o‘sganda boylikdan kutilayotgan daromad pulga nisbatan o‘sadi, va pulga talab tushadi.[44]

4-MAVZU: PUL AYLANMASI VA UNING TARKIBI

REJA:

4.1. “Pul aylanmasi” tushunchasining mazmuni va pul aylanmasining tarkibiy tuzilishi.

4.2. Naqd pul aylanmasi va uni tashkil qilish printsiplari.

4.3. Naqdsiz pul aylanmasi va uni tashkil qilish printsiplari.

4.4. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.

4.5. To’lov tizimi va uning rivojlanish bosqihclari.

4.6. Plastik kartochkalar orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar

[44] The economics of money, banking and financial markets / Frederick S. Mishkin, European edition, 2013. Page 456

4.1 . Pul aylanmasi tushunchasining mazmuni va pul aylanmasining tarkibiy tuzilishi.

PI ul aylanmasi-bu pulning naqd va naqdsiz shakildagi uzluksiz harakatlari yig`indisidir. Pulning doiraviy aylanishi – bu pulning bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tishidir. Pulning doiraviy aylanishining takrorlanishi pulning aylanishi deyiladi. Demak, pul aylanmasini pulning aylanishi sifatida talqin qilish mumkin. I. Shakerning ta'rif berishicha pul aylanmasi bu pullarning naqd va naqd bo'lmagan shakllardagi doiraviy aylanish jarayoni bo'lib, bunda pullar muomala vositasi va to'lov vositasi funktsiyasini bajaradi. Pulning bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tishini Shaker doiraviy aylanish deb atadi. Pullarning bir subektdan ikkinchi subektga otishi, pulning doiraviy aylanishi takrorlanishi pulning aylanishi deyiladi.

Naqd pul va naqd pulsiz shaklida hisob – kitoblarni amalga oshirish pul aylanmasini tashkil etadi. Naqd pul aylanmasi – bu qog‘oz pullar va tanga pullar vositasida amalga oshirilib, naqd pullar harakati jarayonida namoyon bo‘ladi. Naqd pul aylanmasi asosan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar o‘rtasida vujudga keladigan ayirboshlash munosabatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Naqd pulsiz aylanmalar – bu kredit muassasalarida ochilgan hisobraqamlar yordamida pullarni hisobdan hisobga ko‘chirish orqali amalga oshiriladi.

Pul doimiy ravishda “harakatda” bo‘ladi, bu harakat davomida juda ko‘plab tovar va xizmatlarni sotish va sotib olish jarayonida bevosita ishtirok etib, sotuvchi va sotib oluvchilarga xizmat qiladi. Xususan, pul o‘z harakati jarayonida bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda tovarlar va xizmatlar bahosini belgilaydi, bu pulning qiymat o‘lchovi, muomala vositasi va to‘lov vositasi funksiyalari orqali amalga oshiriladi.

Pul vaqtinchalik hisob – kitoblar va aylanmalarda ishtirok etmagan vaqtda jamg‘arma vositasi funksiyasini bajarish orqali, o‘zining sohibiga qo‘shimcha daromad keltirdi va real iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi.

Pul aylanmasi tarkibida naqd yoki naqdsiz hisob – kitoblar bilan amalga oshirilayotgan to‘lovlar hajmining yuqori yoki pastligiga pulning barqarorligi, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va boshqa qator omillar ta'sir qiladi.

Pulning aylanmasi mohiyatini yanayam chuqurroq aniqlash uchun uning ob'ekti va sub'ektlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Pul aylanmasi sub'ektlari sifatida davlat va davlat muassasalari, Markaziy bank, kredit va moliya muassasalari, mamlakat rezidenti va norezedentlari, korxona va tashkilotlarni keltirish mumkin. Uning ob'ekti esa tovar va tovarsiz operatsiyalar jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, ya'ni aylanmalar hisoblanadi.

Pul aylanishi tushunchasi – bu ma'lum davr davomida iqtisodiyotda pulning qanchalik darajada tez ko'chishib yurishi jarayonini anglatadi. Bu ko'rsatkich nominal YaIM ni pul taklifiga (M_2) bo'lish orqali topiladi. Shuningdek bu mamlakatdagi umumiy pul massasini aylanish darajasini bildiradi ya'ni masalan, 1 dollarni necha marta tovar yoki xizmatlar sotib olish uchun ishlatilinish darajasidir.

Pul aylanishi tushunchasini yanada aniqroq tushunishimiz uchun 2 ta A va B shaharchalarni olamiz. A shaharcha maydoni kichikroq biroq aholi soni B shaharchanikidan ko'proq. Shunga ko'ra, A sharchada bank strukturasi yaxshi rivojlangan, tadbirkorlik faoliyati ham yuqori darajada tashkil qilingan. A shaharchada bank muassasalari soni ko'p bo'lib, pulni istalgan shaklda ishlatish bu sharcha aholisi uchun muammo emas. Natijada, bu shaharcha iqtisodiyotida pul aylanishi ko'rsatkichi yuqori bo'lib, bu uning iqtisodiyot ko'rsatkichlari yaxshi bo'lishiga ham olib kelgan.

Boshqa tomondan esa, B shaharcha maydon jihatdan A shaharchadan katta bo'lsa ham, aholi soni bo'yicha undan kichkina. Bank faoliyati yaxshi rivojlanmagan hamda bank tashkilotlari soni yetarli emas. Tadbirkorlik faoliyati ham o'z-o'zidan rivojlanishi past darajada bo'lib, bank orqali bo'ladigan hisob-kitob operatsiyalari yaxshi rivojlanmagan. Natijada aholi qo'lidagi pul mablag'larini banklarga ishonib topshirish tushunchasiga ega emas va bu B shaharchaning iqtisodiyoti barqarorligiga ta'sirini ko'rsatgan.

Bu ikki holatdan shuni aytish mumkinki, agar biror hududda pul aylanish darajasi qanchalik darajada past bo'lsa, pul aholi qo'lida shuncha kam aylanadi hamda pul massasining iqtisodiyotga ta'siri ham sezilarsiz bo'lishi kuzatiladi. Pul aylanish darajasiga ta'sir etuvchi omillar sirasiga quyidagilar kirishi mumkin:

- *Hududdagi moliyaviy tashkilotlar soni*
- *Aholining umumiy soni*
- *Amalga oshiriladigan pul o'tkazmalari miqdori*

Xorijiy Iqtisodchi olimlardan biri Ludwig von Misesning ta'kidlashicha pul aylanishi tushunchasining asosiy mohiyati shundan iboratki, bu jarayonni nafaqat butun bir iqtisodiyot darajasida balki, alohida individuallar faoliyati misolida o'rganish kerak. Shu jihatdan pul aylanishi jarayonini o'rganishda narxlar va xarid qilish qobilyati bo'yicha tatbiq etish har doim ham to'g'ri bo'lmasligi mumkin.

Yana bir iqtisodchi olim Helmut Creutz pul aylanishi tushunchasini xarid qilish jarayonidan tashqari qarz va qayta tolovlar miqdoriga ham bog'lab o'rganadi. Bu olim pul aylanishini 3 xil ko'rinishda turli jarayon bo'yicha tasvirlaydi.

1. *Pul aylanishi to'lovlar va qarz bo'yicha olib qaralganda*



Yuqorida keltirilgan jarayonni boshi ham oxiri ham mavjud emas. Ya'ni bu jarayonda qaralayotgan mablag' qanaqa maqsadda ishlatilmasin, u to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Bunda A, B…E lar iqtisodiyotdagi barcha sub'ektlar bo'lib, agar bu jarayonda masalan, A sub'ekt B ga xaridi uchun pul to'lagan bo'lsin. B sub'ekt esa bu pulni C ga qarz sifatida beradi va C o'sha pulga D dan tovar sotib oladi. E su'bekt esa A ning ko'rsatgan xizmati uchun to'lovni D dan qarz sifatida oladi. Bu jarayonda muomalada aylanayotgan pul tovar va xizmatlarga to'lov uchun 3 marta, qarz munosabati uchun esa 2 marta ishlatildi. Agarda B sub'ekt mablag'ini qarz munosabatiga yo'naltirmasa, bunda jarayon buzilishi mumkin.

2. To'lovlar va qarzdorlik to'lovlari bo'yicha pul aylanishi jarayoni:



Bu jarayonda A sub'ekt C dan tovar sotib oladi, C esa o'zining kreditorlik qarzini B ga to'laydi va natijada B sub'ekt E dan mahsulot sotib oladi. O'z navbatida E sub'ekt ham D ga o'z qarzini qaytaradi va D bu mablag'ga A da tovar yoki xizmatlar sotib olishi mumkin.

3. Pul aylanishi bank orqali yoki uni vositachiligida yuzaga kelganda:



Bunday jarayonda endi A sub'ekt B dan bank cheki orqali mahsulot sotib oladi va qolga jarayon ham yuqoridagi kabi davom etgan holda chek bo'yicha hamda bank vositachiligida to'lovlar amalga oshiriladi.

Buyuk iqtisodchi Karl Marks esa bu jarayonni asosan tovar va pulga bog'lab tushuntiradi. Unga ko'ra pul aylanishining ilk oddiy ko'rinishi talab va taklif asosida amalga oshiriladigan savdo-sotiq jarayonida vujudga keladi. Bunda sotish

ham sotib olish ham va pul ham bir-biriga uzviy aloqador bo'lib, sotuvchi tovar yoki xizmatga, xaridor esa pulga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, pul aylanishini asosiy vositasi asosan xarid vositasi sifatida namoyon bo'ladi va bu pul aylanishi jarayonida turli vazifalarni bajaradi.

Xarid qilish jarayonida pul sotuvchi qo'liga, tovar esa xaridor qo'liga o'tadi. Bu holatda esa tovar va pul qarama qarshi yo'nalishda harakat qiladi.[45]

Pul aylanmasi sub'ektlar o'rtasida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlarning naqd va naqd pulsiz ko'rinishidir. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiy adabiyotdarida pul aylanmasi deyarli o'rganilmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri, balki mazkur mamlakatlar bank muassasalarida hisob – kitoblarni amalga oshirishda pul aylanmasi naqd va naqd pulsiz ko'rinishi shakllari o'rtasida farq mavjud emasligi bo'lishi mumkin. Haqiqatda ham rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar banklarida naqd va naqdsiz pul hisob – kitoblarni amalga oshirish o'rtasida farq mavjud emas.

Pul aylanishi modeli uning (yaratilishi) muomalaga chiqarilishi va qaytishi bilan bog'liq izchil to'rt bosqichdan iborat:

- *banklar firmalarga kredit beradi;*
- *firmalar o'z xodimlariga ish haqi to'laydi;*
- *xodimlar firmalarning yaratgan mahsuloti, tavari, xizmatini xarid qiladi;*
- *firmalar banklarga olgan kreditlarini qaytarib to'laydilar.*

Grazianining fikriga ko'ra: "Pulning aylanish nazariyasi pulning butun aylanish davomiyligini muhokama qiladi, ya'ni bank qarzlarini berilishi bilan boshlanib, qarzlarni to'lanib so'ndirilishi bilan tugaydi.

Haqiqatda, aylanish modeli "pulning butun aylanish davri" ni yoritib bera olmaydi. Bank-firma munosabatlaridan tashqari , model real iqtisodiy va moliyaviy operatsiyalardan farq qilmaydi, banklar va moliyaviy vositachilar orasidagi farqlar tizimli emas; eski sanoat tushunchasiga asoslanib qayta mahsulot ishlab chiqaradi va xarid qiladi.[46]

Pul aylanmasidan tashqari to'lov aylanmasi degan tushuncha mavjud. To'lov aylanmasi pul aylanmasiga qaraganda keng tushuncha. To'lov aylanmasi-bu pul shaklidagi mablag'larning va pul bozori instrumentlarning vositasida amalga oshirilgan to'lovlarning yig'indisidir. To'lov aylanmasi – bu pullar va pul bozori instrumentlari harakatlari yig`indisidir.

Pul bozori instrumentlariga quydagilar kiradi :

- Veksellar;
- Depozit sertefikatlari;
- Jamg`arma sertefikatlari;
- Obligatsiyalar;
- Bank akseptlari.

---

[45] Helmut Creutz " The Money Syndrome" Towards a Market Economy Free from Crises (Chapter 3- Money movements, Money circulation) -1999. 86-87p

[46] By Joseph Huber Circuitism – its monetary theory and model of the money circuit. Source: https://sovereignmoney.eu/circuitism, as of March 2015.-12p.

Veksel – veksel beruvchining yoki vekselda ko‘rsatilgan boshqa tulovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan so‘mmani to‘lashga doir shartsiz majburiyatni tasdiqlovchi qimmatli qog‘ozdir. Tijorat veksellari – tijorat veksellari tovarlar kreditga sotilganda yoziladi. Vekselni mol etkazib beruvchi to’ldiradi. Sotib oluvchi esa vekselga mas’ul shaxsning imzosi va muhr qo’yadi. Ana shundan keyin veksel sotib oluvchining mol etkazib beruvchi oldidagi qarz majburiyatini tasdiqlovchi hujjatga aylanadi. Tijorat vekseli pulning to’lov vositasi funktsiyasini bajaradi.Vekselni indassament orqali boshqa shaxslarga uzatish mumkin**.** Indassament-vekselni boshqa shaxsga uzatish huquqini beruvchi maxsus yozuv.Vekselni boshqa shaxsga uzatgan shaxs indossant deyiladi.Vekselni qabul qilib olgan shaxs indossat deyiladi.

Obligatsiyalar – o’z egasiga qat’iy belgilangan foiz ko’rinishida daromad keltiruvchi qimmatli qog’oz.

Davlatning xazina majburiyatlari.

Depozit sertifikatlari –bu tijorat banklari tomonidan korxonalar ixtiyoridagi vaqtinchalik bo’sh pul mablag’larni jalb qilish maqsadida chiqariladigan qimmatli qog’oz.

Jamg’arma sertifikatlari –bu jismoniy shaxslar ixtiyoridagi vaqtinchalik bo’sh pul mablag’larni banklarga jalb qilish maqsadida chiqariladigan qimmatli qog’oz.

Cheklar– unda ko’rsatilgan summani to’lash to’g’risidagi topshiriqdir. Amaliyotda pullik cheklar va hisob kitob cheklari qo’llaniladi. Fredirik Mishkenning fikriga ko’ra cheklarning jiddiy kamchiligi ularni chiqarish bilan bog’liq xarajatlarning katta ekanligidir. AQSh da har yili chekni muomalaga chiqarish uchun 40 mlrd.$ xarajat qilinadi.

- Bank aktseptlari – aktsept so’zi lotincha so’z bo’lib qabul qilmoq degan manoni anglatadi. Bank aktsepti deganda bank tomonidan tijorat vekseli va chek bo’yicha to’lovning kafolatlanishi tushuniladi.

To’lov aylanmasining mutlaq asosiy 75-80% ini pul aylanmasi tashkil qiladi.Chunki pul eng yuqori likvidli aktiv hisoblanadi.

Shu bilan birga, MDH mamlakatlari iqtisodiy adabiyotlarining deyarli barchasida “pul aylanmasi” va “to‘lov aylanmasi” alohida – alohida o‘rganiladi. Ularni bir – biridan farqlashda asosiy etibor hisob – kitoblarni amalga oshirishda naqd pulni ishtirok etishi yoki etmasligiga qaratiladi. Pul aylanmasida bevosita naqd pullar to‘lovlarni amalga oshirishda ishtirok etadi. Keyingi yillarda hisob – kitoblarni amalga oshirishda plastik kartochkalar, hisob – kitob cheklarni joriy etilishi pul aylanmasi tarkibida naqd pulli hisob – kitoblar ulushining sezilarli darajada pasayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, AQSH, G‘arbiy Evropa mamlakatlari va Yaponiyada naqd pul aylanmalarining ulushi 1 – 1,5 foizni tashkil etadi.

Pul aylanmasini tashkil qilish asoslari:

- Qonunchilik asoslari;
- Institutsional asoslar;
- Milliy to’lov tiziminig mavjudligi;
- Xo’jalik yurituvchi subyektlarning banklarda ochilgan joriy hisob varaqlarining mavjudligi;

- Mamlakatning xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro munosabatlarining mavjudligi.

Qonunchilik asoslari:

1) O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi;

2) Qonunlar va kodekslar;

3) Qonunosti hujjatlari:

a) O’zbekiston Respublikasi Przidentining farmonlari va qarorlari;

b)Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

c) Vazirliklarning buyruqlari, Davlat Qo’mitasi raislari buyruqlari, Markaziy bankning yo’riqnomalari (ular faqat Adliya Vazirligidan ro’yxatdan o’tgandan keyin kuchga kiradi).

Pul aylanmasi ikki yirik qismdan iborat:

1. Naqdsiz pul aylanmasi

2. Naqd pul aylanmasi

Naqdsiz pul aylanmasi – bu pul mablag’larining to’lovchining bankidagi hisob raqamidan oluvchining hisob raqamiga ko’chirish shaklidagi harakatlarining yig’indisidir.

Sobiq Ittifoq o’rnida tashkil topgan davlatlar o’zaro talab va majburiyatlarini voz kechish deb nomlanuvchi naqdsiz pul aylanmasi mavjud.

Pul aylanmasi tarkibi quyidagicha bo’ladi:



4.1.1-rasm. Pul aylanmasi tarkibi

Chizmadan ko‘rinib turganidek, pul aylanmasini to‘rtta yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish, pul mablag‘lari shakliga ko‘ra, naqd pulli aylanmasi va naqdsiz pul aylanmasidan tashkil topgan.

Ikkinchi yo‘nalish, pul aylanmasida ishtirok etayotgan sub’ektlar joylashuviga ko‘ra, bir shahar ichidagi va shaharlararo pul aylanmasidan iborat.

Uchinchi yo‘nalish, pul funksiyalarining namoyon bo‘lishiga qarab muomala vositasi va to‘lov vositalarini o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchi yo‘nalish, tovar – pul munosabatlarining aks etishiga ko‘ra, tovarli pul oboroti va tovarsiz pul oborotlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Pul aylanamasi tarkibida naqd pulli yoki naqd pulsiz hisob – kitoblar hajmining past yoki yuqori ekanligi qator omillar bilan izohlanadi. Xususan, ular quyidagilardan iborat:

– mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish holati, aholining ma’naviy, iqtisodiy va huquqiy ongi;

– milliy iqtisodiyotni boshqarish tartibi va rivojlanganlik darajasi;

– mamlakat bank tizimining rivojlanganlik darajasi va unga aholi ishonchining musthkamligi;

– real sektorning rivojlanganligi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligi;

– Markaziy bankning pul – kredit siyosatini amalga oshirish bo‘yicha mustaqilligining ta’minlanganlik darajasi.

Naqd pul va naqd pulsiz hisob – kitoblari o‘rtasida juda yaqin bog‘liqlik mavjud bo‘lib, naqd pullar naqdsiz pul ko‘rinishiga, naqdsiz pullar naqd pul ko‘rinishiga o‘tish orqali ular doimiy ravishda bir – birini to‘ldirib turadi. Masalan, korxona va tashkilotlarning bankdagi naqdsiz pullari ishchi xodimlarga naqd pul va unga tenglashtirilgan mablag‘lar ko‘rinishida beriladi. Aholining qo‘lidagi naqd pullar esa banklarga omonat sifatida qo‘yilganda banklar uchun kredit resursi sifatida naqdsiz pul ko‘rinishida maydonga chiqadi. Shu tariqa naqd pul va naqd pulsiz aylanmalar bir – biriga chambarchas aloqadorlikda amal qiladi.

4.2. Naqd pul aylanmasi va uni tashkil qilish printsiplari.

Naqd pul aylanmasi bu pullarning naqd ko’rinishidagi harakatlarining yig’indisidir. Naqd pul aylanmasi – bu naqd pullarning doiraviy aylanishining doimiy ravishda takrorlanishidir.

Naqd pul aylanmasi bu pul mablag’larining naqd ko’rinishidagi aylanmasidir. Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqdsiz pul aylanmalarini yuksak darajada rivojlanganligi, naqd pullarga bo’lgan talabni keskin pasayishiga olib keldi. AQSh va Yaponiyada plastik kartochkalarga asoslangan to’lovlar rivojlangan. Evropada plastik kartochkalar va pullik cheklarga asoslangan to’lovlar rivojlangan.

Muomiladagi naqd pullar. FZT naqd pullarni chiqaradi. (Bu kulrang yashil qog’oz bo’laklari yuqori qismida "Federal Reserve Note" yozuvi bo’ladi *). Muomiladagi naqd pullar –bu aholi qo’lidagi naqd pullar hajmi. (Depozit tashkilotlarining seyfidagi naqd pullar markaziy bank passivi, lekin rezerv pul hisoblanadi.)*[47]

---

[47] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markrts. 442 ЧАСТЬ IV. Центральные банки и проведение монетарной политики.

Naqd pulli hisob – kitoblar bevosita naqd pullar bilan amalga oshiriladi. Iqtisodiyotda pul aylanmasi tarkibida naqd pulli hisob – kitoblarning ulushi sezilarsiz darajada bo‘lib, taxminan 5 – 12 foiz atrofida tebranib turadi. Mamlakat pul oboroti tarkibida naqd pulli hisob – kitoblar ulushining pastligi yoki ortib borishi iqtisodiyotda ishlab chiqarish darajasi, moliya – kredit tizimi va milliy valyutaning barqarorligi hamda boshqa qator omillar bilan izohlanadi.

Naqd pullar aylanishining amal qilishiga doir quyidagicha asosiy tamoyillar ajratib ko’rsatiladi:

1) moliya muassasalari-emitentlarning mavjudligi;

2) bozor qatnashchilarining mablag’larni sarflash yuzasidan iqtisodiy erkinligi;

3) ta’sis etilgan milliy pul birligining amal qilishi;

4) nazorat qiluvchi organlar oldida tushumlar va xarajatlar hajmlari uchun hisobotchilikni amalga oshirish mumkinligi;

5) pul mablag’lariga egalik qilishning legitimligi.

Naqd pul aylanmasini tashkil qilish quyidagi printsiplar asosida amalga oshiriladi:

1. Naqd pul aylanmasini tashkil qilish va tartibga solishni me’yoriy huquqiy asoslarining mavjudligi. Masalan, Markaziy bankning kassa operatsiyalarini amalga oshirish to’g’risidagi yo’riqnomasi muhim meyoriy hujjat bo’lib hisoblanadi.

2. Barcha korxonalar va tashkilotlar o’zlarining naqd puldagi mablag’larini tijorat banklarida saqlashlari shart.

3. Korxonalar va tashkilotlarga kassada kichik miqdorda naqd pul saqlab turishga ruxsat etiladi. Buning uchun ularning kassasiga tijorat banklari tomonidan limit belgilanadi. Bu limit ko’zda tutilmagan xarajatlar uchun ajratiladi.

4. Naqd pullardan maqsadli foydalanish printsiplari

Banklardan korxonalar naqd pullarni pul cheklari orqali oladi. Pul chekida nima maqsadda naqd pul olinayotganligi ko’rsatiladi.

To’lovlar ma’lum ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Xalqaro amaliyotda pullik to’lovlarni amalga oshirishning 2 xil ketma-ketligi mavjud:

1. Kalendar ketmaketlik.
2. Maqsadli ketmaketlik.

Kalendar ketma – ketlikda qaysi qarzdorlik oldin paydo bo’lgan bo’lsa, o’sha to’lanadi. Bu ketma-ketlik taraqqiy etgan mamlakatlarda qo’llaniladi.

Maqsadli ketma-ketlikda to’lovlar oldindan belgilangan maqsadlarga qarab to’lanadi. Bu ketma-ketlik rivojlanayotgan davlatlarda, shu jumladan O’zbekiston Respublikasida qo’llaniladi.

Har qanday pullik to’lovlar pul aylanmasida ishtirok etuvchi subektlarining joriy hisob raqamlaridagi pul mablag’lari hisobiga to’lanadi. Joriy hisob raqamlar AQSh bank amaliyotida transaksion depozit hisob raqanlari, Germaniyada jiro hisob raqamlari, Rossiyada “depoziti do vostrebovanie” deyiladi.

Fransiyada joriy hisob raqami deyiladi, O’zbekistonda talab qilib olinadigan depozit hisob raqamlari deyiladi.

Naqd pul aylanmasi muomalaga 2 kanal orqali chiqadi:

1) Markaziy Bankning zaxira vakillik tizimi orqali (Tijorat banklarining buyurtmalari asosida). Tijorat banklarida naqd pulga bo’lgan qo’shimcha talab yuzaga kelganda ular bu talabni qondirish uchun markaziy bankga naqd pul olish uchun buyurtma beradilar. Markaziy Bank buyurtma qilingan naqd pulni emissiya qiladi va uni inkassatsiya xizmati orqali tijorat banklariga etkazadi. Emissiya qilingan summaga Markaziy Bank balansining passiv qismidagi “Majburiyatlar moddasi” ko’payadi. Tijorat bankining Markaziy Bankning balansida ochilgan “Vostro” vakillik hisob raqamining qoldig’i ana shu summaga kamayadi.

2) Davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtrishda. Markaziy Banklarning tuman va shahar filiallari bo’lmaydi, shu sababli ular davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirish maqsadida tijorat banklarining xizmatlaridan foydalanishga majbur bo’ladilar. Moliya vazirligi byudjet tashkilotlari xarajatlarini naqd pulsiz shaklda moliyalashtrib beradi. Moliyalashtrilgan summaning naqd pul ta’minoti Markaziy bank tomonidan amalga oshirilinadi. Markaziy Bank inkassatsiya xizmati orqali naqd pulni tijorat banklariga etkazib beradi. Etkazib berilgan naqd pulning naqd pulsiz ekvivalienti tijorat bankining hisob raqamidan echib oladi.

Naqd pul aylanmasining tarkibi quyidagi qismlardan tashkil topadi:

Naqd pul aylanmasi – bu pullarning naqd shakldagi harakatlari yig`indisidir. Naqd pul aylanmasi tarkibi va qism umumiy nom bilan iyrarxik qism deyiladi.

1. Markaziy bank va tijorat banklar o’rtasidagi naqd pul aylanmsi.

Davlat budjetining kassa ijrosi bilan bog`liq naqd pul aylanmasi Markaziy bankning tuman va shahar filiallari bo’lmaganligi sababli u davlat budjetining kassa ijrosini amalga oshirishda tijorat banklarinig xizmatlaridan foydalanishga majbur. Moliya vazirligi davlat budjeti xarajatlari naqd pullik ta’minotining tijorat bankining NOSTRO hisob raqamiga naqd pulni tashlab beradi. Markaziy bank tijorat bankiga budjet xarajatlariga naqd pullik ta’minotiga inkassatsa xizmati orqali yetkazib beradi. Yetkazib berilgan naqd pulning naqd pullik ekvivalenti tijorat banklarining NOSTRO vakillik hisob raqamidan olib qo’yiladi.

2. Tijorat banklari o’rtasidagi banklar va ularning mijozlari o’rtasidagi naqd pullik aylanmasi. Barcha naqd pul ko’rinishidagi pullarini tijorat banklariga topshirishlari shart.Tijorat banklari o’z mijozlariga naqd pul puldagi xarajatlarini moliyalashtrish uchun naqd pullar beradi (Ish haqi, mukofot, mehnat ta’tili pullari va boshqalar):

a) Naqd pulning tijorat banklari uchun daromad keltirmaydigan aktiv hisoblanadi. Shu sababli bank kassasidagi ortiqcha pullarni unga muxtojlik sezayotgan banklarga foiz hisobiga sotadi;

b) Banklar mijozlarga kassa xizmati ko’rsatadi ya’ni, ularning naqd pullarini qabul qiladi va ularga naqd pul beradi;

3. Korxonalar, tashkilotlar va aholi o’rtasidagi naqd pul aylanmasi.

Bunda korxona tomonidan aholiga ish haqi, stependiya, pensiya, nafaqa, dividentlar, sug`urta qoplash summalari kabi to'lovlarni amalga oshiriah bilan bog`liq bo'lgan naqd pul aylamasi ko'zga tutiladi.

4. Aholi o'rtasidagi naqd pul aylanmasi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi pul aylanmasining tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, taraqqiy etgan mamlakatlarda iqtisodiyotning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lganligi sababli, tovar pul munosabatlarida to'lovsizlik muammosi mavjud emas.

$$\mathbf{MK} = \frac{M2}{\mathbf{YaIM}}$$

MK = monetazitsiya koefitsienti

M2 = pul agregati

Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining rivojlanganligi naqd pullarga bo'lgan talabning kamayishiga olib keldi. Bu esa pul aylanmasi tarkibida naqdsiz yuqori va barqaror darajada saqlash imkonini beradi.

$$\mathbf{PM} = \frac{\mathbf{TBS\text{-}KST\text{-}MKTS}}{\mathbf{PAT}}$$

PM = pul massasi

MKTS = muddati kelgan to'lovlar summasi

TBS = tovarlar bahosi summasi

KST = kreditga sotilgan tavorlar summasi

PAT = Pul aylanmasi tarkibi

Hozirgi davrda AQSh, Germaniya, Fransiya, Kanada va Braziliyada muomaladagi naqd pul tendensiyasi kuzatilmoqda. Lekin bu davlatlarda naqd pullarning muomladagi pul massasining salmog'i yuqori emas.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkichning salmog'i ancha yuqoridir. Masalan Rassiyada bu ko'rsatkich 29% ni tashkil etadi.

Naqd pul aylanmasining salbiy jihatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Naqd pullarni emissiya qilish tashish va saqlash katta xarajatni talab etadi. Markaziy banklar emissiya xarajatini kamaytrish uchun kupyuralarning nominalini yiriklashtirishga majbur bo'ladilar.
- Naqd pullarni olib yurish xavflidir.
- Naqd pullar bilan hisob kitob qilish soliq to'lashdan qochish imkonini beradi.
- Naqd pul aylanamsi terrorizmni moliyalashtrish bilan bog'liq
- Naqd pullar va inflyatsiya o'rtasida bevosita aloqadorlik mavjud.

Naqd pullarning darajasiga baho berish uchun xalqaro amaliyotda iqtisodiyotda naqd pullarning etarliligi degan ko'rsatkich qo'llaniladi.

M0/YaIM*100%

Taraqqiy etgan mamlakatlarda bu ko’rsatkichning darajasi past. Buning bir qancha sabablari bor. Ulardan asosiylari ikkita:

1. Naqd pulsiz hisob kitoblar tizimi yuqori darajada rivojlangan. Naqd pul muomalasi bilan asosan aholi shug’ullanadi. Plastik kartochkalarga asoslangan to’lov amaliyotining rivojlanganligi naqd pullarga bo’lgan talabni qisqartirish imkonini bergan.
2. Xufyona iqtisodiyotni kichik salmoqqa ega ekanligi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqd pul aylanmasini qisqartirishda eng samarali usul sifatida p;astik kartochkalar va pullik cheklarni rivojlantirish usuli qo’llanilgan.

4.3.Naqdsiz pul aylanmasi va uni tashkil qilish printsiplari.

To‘lov aylanmasining asosiy qismi naqd pulsiz to‘lov aylanmasidan tashkil topadi. Bu to‘lov aylanmasi naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida amalga oshiriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, korxona va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmatlar ko‘rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo‘yicha bir-biriga bo‘lgan talab va majburiyatlarni pul mablag‘larini naqd pul ishlatmasdan bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqga o‘tkazish orqali bajarilishi tushuniladi.

Naqd pulsiz pul aylanishi – banklarda pul mablag’larini to’lovchilar va oluvchilarning hisobvaraqlari bo’yicha yozuvlar yordamida yoki o’zaro talablarni hisobga olish yo’li bilan amalga oshiriladigan pul aylanishidir.

Iqtisodiyot rivojlanib borgan sari to‘lov oborotida naqd pulsiz to‘lov oborotining ulushi ortib boradi.

Chunki iqtisodiy taraqqiyotni belgilovchi omillar naqdsiz to‘lov oborotining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



4.3.2-rasm. To‘lov oborotida pulning harakati[48].

Milliy iqtisodiyot pul aylanishining 80-90 foizini naqd pul ishlatmasdan, naqd pulsiz hisob-kitob shakllari asosida olib boriladi. Naqd pulsiz pul aylanishi yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida sodir bo‘ladigan munosabatlarini o‘zida aks ettirishiga ko‘ra ikki kismga bo‘linadi:

1. Tovar operatsiyalari bo‘yicha pul aylanishi.

[48] Наврўзова К.,Ортиқов О. Банкларда ҳисоб ва тўлов тизими. Т.2005й

2. Moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha pul aylanishi.

Birinchi guruhga tovarlarni sotish, xizmatlar ko‘rsatish va kapital qurilish jarayonidagi hisob-kitoblarni aks ettiruvchi pul aylanishi kiradi.

Ikkinchi, moliyaviy majburiyatlar, guruhiga esa byudjetga to‘lovlar, ya’ni foydadan to‘lanadigan soliq, qo‘shilgan qiymat solig‘i va boshqa majburiy to‘lovlar hamda byudjetdan tashqari fondlar, bank ssudalarini qaytarilishi, kredit uchun foizlarning to‘lanishi, sug‘urta kompaniyalari bilan hisob-kitoblar kiradi.

Naqdsiz pul aylanmasi quyidagi printsiplar asosida tashkil etiladi:

1. Naqdsiz pul aylanmasining me’yoriy huquqiy asoslarining mavjudligi. O’zbekistonda naqdsiz pul aylanmasining qonunchilik asoslari bo’lib quyidagilar hisoblanadi:

-O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi

-O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki to’g’risidagi qonuni

-O’zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to’g’risidagi qonuni

2. Naqd pulsiz hisob kitoblarni asosan banklarda ochilgan hisob raqamlar orqali o’tkazilishi.

Mijozlar hisob raqam ochishda banklarni erkin tanlash huquqiga ega. Barcha naqdsiz to’lovlar to’lovchining joriy hisob raqamidagi pul mablag’lari hisobidan amalga oshiriladi.

Amaliyotda bir tijorat bankining mijozi ikkinchi bir tijorat bankining mijozi foydasiga naqd pulsiz to’lovni amalga oshiradi. Bir bankdan 2-bankka o’tayotgan to’lovlar banklarning Nostro vakillik raqamlari orqali o’tadi. Banklarning 2 turdagi nostro vakillik hisob raqamlari mavjud:

1. Vertikal vakillik hisob raqami

2. Gorizontal vakillik hisob raqami

Odatda har bir tijorat banki milliy valyutada bitta vertikal bitta gorizontal vakillik hisob raqamiga ega bo’ladi.

Vertikal vakillik hisob raqami Markaziy bankning balansida ochiladi.

Gorizontal vakillik hisob raqami mamlakatning boshqa tijorat bankida ochiladi.

O’zbekiston Respublikasida tijorat banklari milliy valyutada faqat bitta nostro vakillik hisob raqamga ega. Bu hiso raqam O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining balansida ochilgan. Aniqrog’i Markaziy bankning Toshkent shahar bosh boshqarmasidaochilgan.

3. To’lovchining va to’lovchining bankini likvidli bo’lishi. To’lovchining va to’lovchining bankini likvidli bo’lishi deganda ularni o’z majburiyatlarini pul mablag’lari bilan o’z vaqtida va to’liq to’lay olish qobiliyatiga aytiladi. Xalqaro ta’mirlash va taraqqiyot banki ekspertlari korxonalarning likvidligini baholash uchun quyidagi ko’rsatkichlarni taklif qilishgan:

Joriy likvidlik koeffitsienti – (Jlk)

JA-joriy aktivlar

JP-joriy passivlar

Jlk=JA/JP

Jahon banki ekspertlari tomonidan bu koeffitsientining eng past normativ darajasini 1.25 qilib belgilangan.

4. Mijozlar hisob raqam ochishda banklarni erkin tanlash huquqiga ega. Barcha naqdsiz to'lovlar to'lovchining joriy hisob raqamidagi pul mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

5. To'lovni amalga oshirish uchun to'lovchining roziligi bo'lishi kerak. Ammo qonunchilikda ayrim hollarda to'lovchidan so'ramay uning pulidan olib qo'yishga ruxsat etilgan. Misol uchun soliq inspeksiyasi tomonidan qo'yilgan Inkasso topshiriqnomalar, sudlarning qarori bilan qo'yilgan ijro varaqalari to'lovni to'lovchining roziligisiz amalga oshiriladi.

6. To'lovlarning muddatliligi.

7. Naqdsiz hisob kitoblarni to'g'ri amalga oshirilganligi ustidan o'tkaziladigan nazoratning mavjudligi.

8. Naqd pulsiz hisob kitoblarda ishtirok etuvchi tomonlarning mulkiy javobgarligining mavjudligi.

9. To'lovchi va mablag'larni oluvchi o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar va pul-hisob-kitob hujjatlarining aniq shakli mustaqil ravishda shartnoma (bitim)ga muvofiq belgilanadi.

Bank hisobvarag'i shartnomasida boshqa muddatlar belgilab qo'yilgan bo'lmasa, bank pul mablag'larini, tegishli to'lov hujjati bankka kelib tushgan kunda, agar u bankning operatsiya kuni mobaynida tushgan bo'lsa, mijozning hisobvarag'iga kiritib qo'yishi yoki uning hisobvarag'idan o'tkazib berishi shart.

To'lov hujjati operatsiya kuni tugaganidan keyin tushgan taqdirda, bank to'lovni keyingi ish kunidan kechiktirmay amalga oshirishi shart.

Hisob-kitoblar bo'yicha to'lovchi va mablag'larni oluvchi o'rtasidagi o'zaro da'volar qonunda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida banklararo hisob-kitoblar tijorat banklarining Markaziy bank Hisob-kitoblar markazida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali elektron to'lovlar tizimi bo'yicha milliy valyutada amalga oshiriladi. Banklarda hisob-kitoblar bo'yicha elektron hujjat aylanmasi "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizom ga muvofiq, tashkil qilinadi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar bankdagi hisob raqamlar orqali bank ichida, bosh bankda ochilgan filiallarning tranzit hisob-raqamlari hamda banklararo o'rnatilgan vakillik munosabatlari asosida amal qiladi.

Banklararo to'lov tizimi orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi talablarga rioya etiladi:

a) O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larni tezkorlik bilan o'tkazishni ta'minlash;

b) uzatilayotgan elektron to'lov hujjatlarini ruxsatsiz kirishdan himoya qilish;

v) elektron to'lovlarni tartibga soluvchi qonunlar va qoidalarga rioya qilish.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblar «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to'g'risida» 2002 yil 12 yanvar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida olib boriladi. Ushbu Nizom "Fuqarolik kodeksi", «Markaziy bank to'g'risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi,

«O‘zbekiston Respublikasi korxonalari to‘g‘risida»gi Qonunlari va Markaziy bankning O‘zbekiston hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tartibga soluvchi boshqa me’yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

“O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi nizom O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, "Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida"gi, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida"gi Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni o‘tkazish tartibini belgilaydi. Ushbu tartib naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlariga tadbiq qilinadi.

Pul aylanmasi tarkibida naqd pulsiz hisob – kitoblar hajmini oshirishga qator omillar ta’sir qiladi. Xususan:

1.Yuridik va jismoniy shaxslarning banklarga bo‘lgan ishonchining yuqoriligi. Agar yuridik va jismoniy shaxslar banklarga nisbatan ishonchi yuqori darajada bo‘lmasa, banklarga naqd pullarni topshirishga bo‘lgan moyilligi pasayadi, hisob – kitoblarni naqd pullarda amalga oshirishga intiladi.

2.Iqtisodiyotda monetizatsiya koeffitsienti darajasining tegishli me’yori ta’minlangan bo‘lishi lozim. Iqtisodiyotning etarli darajada pul bilan ta’minlanganlik darajasi monetizatsiya koeffitsienti asosida aniqlanadi. Monetizatsiya koeffitsienti mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan aniqlanib, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va ekspertlarning fikrlariga ko‘ra uning miqdori, o‘tish iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlarda 45-60 foizdan iborat bo‘lishi lozim. Agar mamlakatda monetizatsiya koeffitsienti ushbu miqdordan past bo‘lsa iqtisodiyotda pul taqchilligi, tijorat banklarida likvid mablag‘lar va resurslarning etishmasligi, kreditlar va omonatlar bo‘yicha foiz stavkalarining yuqoriligi kuzatiladi. Bularning barchasi naqd pulsiz hisob – kitoblar hajmiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi;

3.Tijorat banklarining resurslarga bo‘lgan ehtiyojining etarli ravishda qondirilmasligi. Ma’lumki, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan pullar o‘zining boshlang‘ich nuqtasiga qaytib kelmasligi banklarning resurs bazasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning oqibatida tijorat banklarining real sektorni kreditlash uchun yo‘naltirayotgan resurslarning taqchilligi, omonatlarga to‘lanadigan to‘lovlar miqdorining oshib ketishi, bu esa o‘z navbatida naqd pulsiz hisob – kitoblar hajmini pasayishiga olib keladi.

4.4. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.

Iqtisodiyotda bo‘ladigan pul aylanishining 80-90 foizini naqdsiz pul aylanishi tashkil etadi. Naqdsiz pul aylanishi naqd pulsiz hisob-kitob shakllari asosida olib boriladi. Naqd pulsiz hisob kitoblarning keng ishlatilishiga ko‘p tarmog‘li bank tizimining rivojlanishi, davlat tomonidan makroiqtisodiy jarayonlarni o‘rganish va uni tartibga solish nu.tai-nazaridan davlatning qiziqishi, mulkchilik shakllarining ko‘payishi va turli mulkchilik munosabatlarining kengayib borishi asos bo‘ladi.

Iqtisodiyotda naqd pulsiz xisob-kitoblar ma’lum tizim asosida olib boriladi. Naqd pulsiz xisob-kitoblar tizimi o‘z ichiga hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari, shakllari, usullari hamda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish oldida qo‘yilgan talablarni oladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar bir necha shakllarda olib boriladi va bu shakllar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borishi mumkin. hozirgi kunda respublikada naqd pulsiz hisob-kitoblar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan va halqaro amaliyotda qabul qilingan shakllarda tashkil etiladi. Hisob-kitob shakllari deyilganda huquqiy me’yorlarda ko‘zda tutilgan, pul mablag‘larining maqsulot etkazib beruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlarning hisobvarag‘iga yozish usuli, hisob-kitob hujjatining turi va hujjatlar aylanishi tartibi bilan farq qiluvchi hisob-kitob turlari tushuniladi.

Xalqaro bank amaliyotida naqd pulsiz hisob kitoblarning 4ta shaklidan foydalanadi.

- To’lov topshiriqnomalari
- Cheklar
- Hujjatlashtirilgan akkreditivlar
- Inkasso

Iqtisodiy kontragentlar o’rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

1) inkasso operatsiyalari vositasidagi hisob-kitoblar;
2) akkreditivlar yordamidagi hisob-kitoblar;
3) bo’nak to’lovlari shaklidagi hisob-kitoblar;
4) ochilgan hisobvaraq bo’yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblar;
5) veksellar va cheklar shaklida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.

O‘zbekiston Respublikasi banklari naqd pulsiz hisob-kitoblarni quyidagi shakllarda tashkil etadilar va amalga oshiradilar:

1) to‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar;
2) akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblar;
3) inkasso bo‘yicha hisob-kitoblar;
4) cheklar bilan hisob-kitoblar.

Ko‘rsatilgan shakllar bo‘yicha naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi pul-hisob-kitob xujjatlaridan foydalaniladi:

1) memorial order;
2) to‘lov topshiriqnomasi;
3) to‘lov talabnomasi;
4) inkasso topshiriqnomasi;
5) akkreditivga ariza;
6) tijorat bankning hisob-kitob cheki.

Shuningdek, naqd pulsiz hisob-kitoblar plastik kartochkalar foydalangan holda, amalga oshirilishi mumkin.

Banklar memorial orderlardan fuqarolarning, olib borayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan holda, yozma topshiriqnomalari bo‘yicha naqd pulsiz pul mablag‘larini o‘tkazishni amalga oshirishda foydalanishlari mumkin.

Tijorat banklari o‘z operatsion xarajatlarini naqd pulsiz tartibda amalga oshirayotganda memorial order tuziladi.

Bank ish kuni yakunlanib, balans hisoboti tuzilib O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga jo‘natilganidan so‘ng, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlarga ertasi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlari kiritish (storno berish) yo‘li bilan, tuzatish memorial orderlari asosida to‘g‘rilanishi lozim. Bunday hollarda hisobvaraqlardan summalar mijozlarning roziligisiz hisobdan chiqariladi. Bu haqda bank bilan mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomada ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lishi shart.

To‘lov topshiriqnomasi - mijozning unga xizmat ko‘rsatuvchi bankka o‘z hisobvarag‘idan oluvchining hisobvarag‘iga ma’lum bir summani o‘tkazish to‘g‘risidagi topshirig‘ini anglatadi.

To‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar bo‘yicha hujjatlar aylanishini quyidagi rasm orqali ko‘rish mumkin:



4.4.3-rasm. To‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha hisob-kitoblardagi hujjatlar aylanishi[49].

Yuqorida keltirilgan rasmga quyidagicha tavsif beramiz:

1. Eng avvalo mol jo‘natuvchi va mol oluvchi korxonalar o‘rtasida xo‘jalik shartnomasi tuziladi.

2. Shartnomaga asosan mol jo‘natuvchi korxona mol oluvchi korxonaga maqsulot jo‘natadi.

3. Mol oluvchi korxona olgan maqsulotga pul o‘tkazish uchun to‘lov topshiriqi rasmiylashtirib o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi bankka topshiradi.

4. Bank xodimi tomonidan to‘lov topshiriqi asosida mol oluvchi korxona hisobvarag‘idan pul chegiriladi.

5. Hisob-kitob markazi orqali elektron to‘lov mol sotuvchi korxona bankiga jo‘natiladi.

[49] Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари асосида тузилди

6. Kelib tushgan elektron to‘lov mol sotuvchi korxona bankida mol sotuvchi korxona hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

7. Elektron to‘lov topshiriqining bir nusxasi to‘langan hujjatlar sifatida mol sotuvchi korxonaga beriladi.

Hozirgi kunda respublikamizda banklar orqali o‘tkazilayotgan barcha to‘lovlarning 45-50 foizi to‘lov topshiriqnomalari yordamida amalga oshirilmoqda, bu uning afzalliklari bilan bog‘liqdir.

Bu afzalliklar quyidagilardan iboratdir:

-birinchidan, hujjatlar aylanishining oddiyligi va tezligi, ya’ni hisob-kitoblarni amalga oshirishning texnik jixatdan kulayligi. Bu esa o‘z navbatida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va bank xodimlarining mexnat sarfini kamaytiradi;

-ikkinchidan, pul mablag‘lari xarakatining tezligi, ya’ni to‘lov talabnomasiga nisbatan to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanishi harakati qisqaligi so‘zsiz xo‘jalik oborot mablag‘larining aylanish tezligini oshiradi;

-uchinchidan, tovar sotib oluvchining qabul qilgan tovarlari yoki xizmatlar sifatini oldindan aniqlab olinishi. hisob-kitoblarning bu shaklida to‘lov talabnomasi orqali hisob-kitoblarda bo‘lgan kabi bankka raddiya arizasi topshirilmaydi, chunki to‘lovchining o‘zi tulovni to‘lashga rozi bo‘lsa, topshiriqnomani bankka topshiradi;

-to‘rtinchidan, to‘lov topshiriqnomasining barcha tovarsiz operatsiyalarda ko‘llanishi, bu esa ushbu shakl bo‘yicha hisob-kitoblarning ahamiyatini yanada yaqqol aks ettiradi.

To‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud. Kamchiliklar shundan iboratki, mol jo‘natuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxona uchun to‘lovning o‘z vaqtida o‘tkazilishi to‘la kafolatlanmagan. Chunki to‘lovning o‘z vaqtida o‘tkazilishi to‘lovchi korxonaning depozit hisob varag‘idagi mablag‘lar miqdoriga bog‘liq. To‘lovning to‘liq o‘tkazilishiga etarli pul mablag‘larining bo‘lmasligi pul aylanishi sekinlashtiradi va maqsulot jo‘natuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxonaning moliyaviy holatini yomonlashtiradi.

To‘lov talabnomasi — o‘zida mablag‘ oluvchini to‘lovchi tomonidan bank orqali ma’lum bir summani to‘lash to‘g‘risidagi talabi aks ettirilgan pul-hisob-kitob hujjatidir. To‘lov talabnomalari bo‘yicha hisob-kitoblar umumlashgan holda qanday amalga oshirilishini to‘lov talabnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarning hujjatlar aylanishi sxemasi orqali yaqqol ko‘rish mumkin.



1

4.4.5-rasm. To‘lov talabnomalari bo‘yicha hisob-kitoblardagi hujjatlar aylanishi[50]

1. Maqsulot jo‘natuvchi korxona bilan maqsulot oluvchi korxona o‘rtasida xo‘jalik shartnomasi tuziladi.

2. Maqsulot jo‘natuvchi korxona maqsulot oluvchi korxonaga tovar jo‘natadi.

3. Maqsulot jo‘natuvchi korxona o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi bank bo‘limiga to‘lov talabnomasi va tovar-transport hujjatlarini taqdim qiladi.

4. Maqsulot jo‘natuvchi korxona banki maqsulot oluvchi korxona bankiga pochta yoki kurerlar orqali hujjatlarni jo‘natadi.

5. Maqsulot oluvchi korxona banki kelib tushgan to‘lov talabnomasini akseptlash uchun maqsulot oluvchi korxonaga beradi.

6. Korxona o‘z bankiga akseptlangan talabnomani taqdim etadi.

7. Maqsulot oluvchi korxona banki talabnomada ko‘rsatilgan summani to‘lovchi korxona hisob varag‘idan chegirib, talabnoma bo‘yicha to‘lovni amalga oshiradi.

8. Maqsulot oluvchi korxona banki hisob Markaziga to‘langan elektron to‘lov talabnomasini modem orqali jo‘natadi.

9. Hisob Markazi elektron to‘lov tizimi orqali to‘langan talabnomani maqsulot sotuvchi korxona bankiga o‘tkazadi.

10. Maqsulot sotuvchi korxona banki talabnoma summasini maqsulot sotuvchi korxonaning hisobvarag‘iga o‘tkazadi.

11. To‘lovning kelib tushganligini habar qilish uchun kompyuterda chiqarilgan elektron to‘lov talabnomasining ikkinchi nusxasini hisobvaraqdan ko‘chirma bilan birgalikda maqsulot sotuvchi korxonaga topshiradi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllari kabi to‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblar xam ma’lum bir afzallik va kamchiliklarga ega. To‘lov talabnomalari bilan hisob-kitoblarnig afzalliklari quyidagilardan iborat:

1) Maqsulot sotuvchi bilan maqsulot oluvchi tomonlar bir-birini o‘zaro nazorat qilishga kulay.

2) Maqsulot oluvchiga tovarni jo‘natish kechiktirilmaydi.

3) Mol jo‘natuvchi bilan hisob-kitob qilish uchun maqsulot oluvchining mablag‘ini aloxida hisobvaraqda deponent qilib ko‘yish talab etilmaydi, ya’ni to‘lovchining mablag‘lari biror muddatga oborotdan tashqariga chiqib ketmaydi.

4) To‘lovchiga taqdim etilgan hujjatlar asosida mol etkazib beruvchining shartnoma shartlari .ay darajada bajarilishini tekshirish huquqi beriladi, shu bilan birga shartnoma shartlaridan biri buzilgan holda to‘lov to‘lashdan bosh tortish huquqiga ega bo‘ladi.

5) Mol oluvchi hisob varag‘idan akseptsiz talabnomalar bo‘yicha mablag‘larning majburiy olinishi maqsulot etkazib beruvchi yoki xizmat ko‘rsatgan tomon manfaatlariga mos keladi.

---

[50] Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари асосида тузилди.

To‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarning kamchiliklari quyidagilar:

1. Maqsulot sotuvchi korxonaga to‘lovning o‘z vaqtida o‘tkazilishi kafolatlanmaydi.

2. To‘lov o‘tkazilishi bilan tovar jo‘natilishi vaqtining bir-biriga mos kelmasligi.

3. To‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarda hujjatlar aylanishi to‘lov topshiriqiga nisbatan uzo.roq davom etadi.

Umuman, to‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarning ishlatilishi ko‘p hollarda - 2-kartotekadan o‘z vaqtida to‘lanmagan to‘lov talabnomalarning ko‘payishiga sharoit yaratadi, chunki talabnoma bankka to‘lov uchun kelib tushgan vaqtda to‘lovchining hisobvarag‘idan qar doim ham to‘lovni amalga oshirish uchun etarli pul mablag‘lari bo‘lmaydi. Kartotekaga qo‘yilgan qar bir to‘lov talabnomasi respublika qal. xo‘jaligi debetorlik va kreditorlik qarzlarining oshganligidan dalolat beradi. SHu sababli, respublika banklari o‘z mijozlarining kartotekadagi hujjatlari va ularni to‘lash bo‘yicha qanday ishlar olib borilayotganini nazorat qilib turadilar.

Hisob-kitoblarning akkreditiv shakli to‘lov oborotida juda kam ulushni tashkil etadi. Hisob – kitoblarning akkreditiv shaklida mijozning (to‘lovchining) topshirig‘iga ko‘ra mablag‘larni oluvchi foydasiga to‘lovni amalga oshirish uchun mablag‘ ma’lum muddatga deponentlanadi.

Akkreditiv-mijozning topshiriqiga ko‘ra shartnoma bo‘yicha uning kontrogenti foydasiga berilayotgan bankining shartli pul majburiyatidir. Unga ko‘ra akkreditiv ochgan bank maqsulot etkazib beruvchiga to‘lovni bajarishi yoki boshqa banklar tomonidan akkreditivda ko‘zda tutilgan hujjatlar taqdim qilinganda va akkreditivning boshqa shartlari bajarilganda ularga bu to‘lovlarni bajarish uchun vakolat berishi mumkin.

Akkreditiv bilan hisob – kitoblarning ijobiy jihati shundaki, korxona jo‘natgan tovar va ko‘rsatgan xizmatlari uchun to‘lov kafolatlanadi. SHu bilan birga aytish lozimki, akkreditiv bilan hisob – kitoblarda mol sotib oluvchi korxonaning mablag‘lari ma’lum muddatga o‘z ixtiyoridan chiqib ketadi.

Akkreditiv bo‘yicha hisob-kitob operatsiyalarni quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin.



1-tovarlarni oldi-sotdi shartnomasini imzolash.

2- sotib oluvchi o’z bankiga akkreditiv ochish to’g`risida ariza beradi.

3-akkreditiv ochiladi va bu haqda mol yetkazib beruvchining bankiga xabar beriladi. Xabar akkreditiv telegrammasi shaklida beriladi. Mana shu vaqtdan boshlab sotib oluvchining banki to’lov yuzasidan kafil hisoblanadi.

4-mol yetkazib beruvchining banki mol yetkazib beruvchini akkreditiv ochilganligidan xabardor qiladi.

5-mol yetkazib beruvchi tovarlarni jo’natadi.

6-mol yetkazib beruvchi tovarlar bilan bog`liq hujjatlarni o’zining bankiga uzatadi.

7-mol yetkazib beruvchining banki hujjatlarni tekshiradi va qabul qilib oladi.

8- mol yetkazib beruvchining banki tovarlar bilan bog`liq hujjatlarni sotib oluvchining bankiga jo’natadi.

9-sotib oluvchining banki akkreditiv bo’yicha to’lovni amalga oshiradi.

10-sotib oluvchining banki tovar hujjatlarini sotib oluvchiga beradi.

11- sotib oluvchining banki mol yetkazib beruvchining bankini (9) operatsiya bajarilganligi to’g`risida yozma ravishda xabardor qiladi.

12-mol yetkazib beruvchining banki to’lov summasini mol yetkazib beruvchining joriy hisob raqamiga kirim qiladi.

13- mol yetkazib beruvchining joriy hisob raqamidan ko’chirma berish.

Hujjatlashtirilgan akkreditivda ishtirok etuvchilarning o’z nomlariga ega:

Mol yetkazib beruvchi benifetsiar deyiladi

Sotib oluvchining banki xabar beruvchi deyiladi

Sotib oluvchi arizador diyiladi

Sotib oluvchining banki akkreditiv bank deyiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning akkreditiv shaklining o‘z afzalligi, shu bilan birgalikda, bir qator kamchiliklari mavjud. Akkreditiv shakli bo‘yicha hisob-kitob qilishning afzallik tomoni shundaki, maxsulot etkazib beruvchi uchun to‘lov to‘liq kafolatlangan bo‘ladi. Hujjatlashtirilgan akkreditiv ning asosiy kamchiligi bu uning qimmatligidir. Germaniya banklari aholiga ochganligi uchun 1,2-1,4% yevro oladi. O’zbekistonda esa akkreditiv summasi mijozning joriy hoisob raqamidan olinib alohida hisob raqamiga depozit qilinadi.

Akkreditiv shaklining kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:

- akkreditiv shakli bo‘yicha hujjatlar aylanishi texnik jiqatdan birmuncha qiyinroq;
- transportga qulay emas, akkreditiv ochilgan paytda yukni jo‘natish uchun tayyor transport bo‘lmasligi mumkin, bu esa yuk jo‘natishni kechikishiga olib keladi;
- bu shaklda to‘lovchining mablag‘lari oborotdan qisman chetlashadi, boshqa hisob-kitoblar uchun bu mablag‘lardan foydalanishga ruxsat etilmaydi;
- akkreditiv bo‘yicha odatda faqat bir mol etkazib beruvchi bilan hisob-kitob qilinadi.

4.5. To’lov tizimi va uning rivojlanish bosqihclari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri pul aylanishini to‘g‘ri va aniq tashkil qilishdan iborat, chunki bozor iqtisodiyoti tovar pul munosabatlarining holati va taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Korxona va tashkilotlar o‘zlarining xo‘jalik faoliyati jarayonida doimo bir-birlari bilan aloqada bo‘ladilar. Ular o‘rtasida tovar ayirboshlash jarayoni pul va pulli hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladi. Tovar ayirboshlashning o‘zi esa pul aylanishining moddiy asosi hisoblanadi, uning asosida boshqa pulli munosabatlar, jumladan, pensiya fondi, sug‘urta fondi, soliq idoralari, bank muassasalari bilan bo‘ladigan pulli munosabatlar hamda banklararo to‘lovlar vujudga keladi.

Uncha qimmat bo’lmagan kompyuter vujudga kelishi va internet xizmatlarining ommalashuvi electron to’lovlarni amalga oshirishga sharoit yaratib berdi. Agar oldinlari siz hisob raqam bo’yicha to’lovlarni amalga oshirishingiz uchun pochta orqali chekni jo’natisgingizga to’g’ri kelardi, hozirgi kunda esa bankning web-saytiga ulanib, bir nechta klaviaturani bosib va electron ko’rinshda to’lovni amalga oshirasiz. Siz nafaqat pochta xarajatlarini tejaysiz, balki kam vaqt va xarakat evaziga xisob raqamda to’lovlar yoqimli jarayon sifatida shakllanadi. Bank tomonidan taklif etilayotgan electron to’lovlar tizimi, sizni to'lovlarni amalga oshirish uchun setga ulanish zaruriyatidan ozod qiladi. Elektron to’lovning qiymati chek qiymati bilan solishtirilganda ancha tejamli hisoblanadi va bahosi 1dollardan oshmaydi. Shuning uchun AQSHda electron to’lovlar keng qo’llaniladi. Shu qatorda amerikaliklar evropaliklardan ayniqsa skandaniviyaliklar orqada qolmoqda.

Amerikaliklar dunyoda cheklardan keng foydalanuvchilar hisoblanadi. AQSHda yillik 100 mlrd. atrofida cheklar yoziladi va naqd pulsiz hisob kitoblarning 75 foizi qog’ozda otkazilardi. Bu vaqtning o’zida Evropaning ko’pgina davlatlarida naqd pulsiz hisob kitoblarning uchdan ikki qismi electron shaklda amalga oshirilar edi. Finlandiya va Shvetsiya dunyoda electron bank hizmatidan eng ko’p foydalanuvchilar hisoblanadi. Albatta, agarda finliyand yoki shved bolsa chek yozib berishdan ko’ra o’zining hisob raqamidan to’g’ri kompyuter yoki telefonidan to’lovlarni amalga oshirishni afzal ko’radilar[51].

Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda bank tizimlari iqtisodiyotning boshqa tizimlariga nisbatan kuchaytirilgan nazorat va tekshiruv ob’ektlari hisoblanadi, chunki tijorat banklari o‘z mijozlari hisoblangan davlat tashkilotlari, tijorat korxonalari va xususiy shaxslarning manfaatlari himoyalanishi uchun javob beradi. Shu sababli davlat respublika bank tizimining barqarorligi, bu barqarorlik xuquqiy ta’minlanishi va uning rivojlanishidan manfaatdordir. Respublika iqtisodiyotida davlat asosiy islohotchi bo‘lsa, bank tizimida esa bu vazifa Respublika Markaziy bankiga yuklatilgan. «Markaziy bank to‘g‘risida»gi qonunining, 3-moddasida ko‘rsatilgandek, Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri - respublikada to‘lovlarning samarali tizimini tashkil etish va ta’minlashdan iboratdir.

[51] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markrts.452p

Markaziy bank tejamkor to‘lovlar tizimini ta’minlash maqsadida milliy to‘lovlar tizimining yaqin kelgusidagi istiqbollari va rivojlanish strategiyasini belgilaydi. To‘lovlar tizimi sohasida bosh moliyaviy maqsad, joylarda pul mablag‘larini xavfsiz va samarali o‘tkazishdan iborat. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni o‘tkazishdagi tejamkorlik masalasi esa to‘lovlar tizimi samaradorligini baholashning asosiy mezonlaridan biridir. Iqtisodiyotdagi naqd pulsiz hisob-kitoblarning samaradorligini oshirish maqsadida Markaziy bank tomonidan «Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to‘g‘risida» Nizom ishlab chiqildi va 2002 yil 12 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan tasdi.landi. «Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to‘g‘risida»gi Nizom fuqarolik kodeksi. «Markaziy bank to‘g‘risida»gi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi korxonalari to‘g‘risida»gi qonunlar va Markaziy bankning O‘zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tartibga soluvchi boshqa me’yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan. Ushbu Nizomning bir maromda qo‘llanilishi mamlakatning butun iqtisodiy makonida hisob-kitoblarning uzluksizligini ta’minlaydi.

Milliy to’lov tizimi bu - alohida olingan bizning mamlakatda milliy valyutada to’lovlarni amalga oshirish shaklidir. Milliy to’lov tizimining tayanch asosini tijorat banklari tashkil etadi . CHunki tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarga hisob kitob xizmati ko’rsatadi. O’zbekistonda MDH davlatlariga a’zo bo’lgan mamlakatlar ichida birinchi bo’lib yagona banklararo elektron to’lov tizimi joriy etildi(1996-yil) .

Respublikamiz banklari o‘rtasidagi banklararo to‘lovlarni o‘tkazish tartibi bir necha marta o‘zgartirilgan.

O‘tgan asr 80-yillarining oxiri 90-yillarning boshlarigacha barcha banklar davlat mulki bo‘lib bir pog‘onali bank tizimi mavjud edi. Banklararo to‘lovlarni olib borish bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir bankdan ikkinchi bankka to‘lov hujjatlarini jo‘natish orqali olib boriladi. Hujjatlarni jo‘natish pochta yoki telegraf orqali amalga oshirilar edi. Buning uchun boshqa bankka jo‘natilishi lozim bo‘lgan hujjatlar asosida «avizo», ya’ni ogohnoma tuzilib kerakli bankka jo‘natilar edi.

90-yillarning boshlaridan banklararo to‘lovlarni tashkil etish uchun hisob markazlari bir yil o‘tgandan so‘ng ularning o‘rnida kliring markazlari tashkil etildi. Lekin ularning nomi o‘zgargani bilan funksiyalari bir xil edi, ya’ni ular banklar o‘rtasidagi to‘lovlarni tashkil qilar edilar. Bir shahardagi to‘lovlarni olib borish uchun 871-hisob raqami (Bir shahar ichidagi banklararo o‘zaro hisob-kitoblar) dan foydalanilar edi. Turli shaharlarda joylashgan banklar bir-birlariga vakillik hisobvarag‘i ochib o‘zaro munosabatlari shu hisob varaqalari orqali olib borilar edi.

1995 yilda Markaziy bank tomonidan hisob-kitoblarni tezlashtirish maqsadida barcha hududiy markaziy bank boshqarmalari qoshida hisob-markazlari tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. Kliring markazlari tugatildi. Pochta orqali jo‘natiladitgan ogoxnomalar ham bekor qilindi. YAngi hisob-kitob tizimi «elektron pochta» to‘lov tizimi joriy etildi.

Respublikamizda to‘lov tizimi yil sayin takomillashib bormoqda. Bu esa banklararo to‘lovlarni o‘tkazish texnologiyalariga qator o‘zgarishlarni kiritilishni taqozo qilmoqda. Banklararo hisob-kitoblar ham mazmuman, ham sifat jiqatidan avvalgi yillariga nisbatan o‘zgarmoqda.

Sobiq ittifoq davlatlari orasida eng samarali va jahon talablari darajasida deb hisoblangan respublika to‘lov tizimining rivojlanishi to‘rt bosqichga bo‘linadi:

1-bosqich. 1991-1994 yillar.

Viloyatlar ichida hisob-kitoblar pochta va tashuvchilar orqali yagona hisoblash markazida amalga oshirilardi. Bu jarayon bir haftani tashkil etar edi. Viloyatlararo hisob-kitoblar ham pochta orqali avizo hujjatlari asosida amalga oshirilgan. Bunda mablag‘lar bir mijozning hisobvarag‘idan ikkinchi mijozning hisobvarag‘iga bir oydan ikki oygacha bo‘lgan muddat mobaynida kelib tushar edi.

Markaziy bank Bosh axborotlashtirish markazida banklararo hisob-kitoblarda elektron pochta usuli yaratish ustida ishlandi. SHuningdek bank amaliy ish kunini kompyuterlar vositasida bajarish amaliy dasturini yaratish va ularni banklarda tadbiq etish bo‘yicha ish olib borildi.

1992 yili qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunini bajarish yuzasidan Markaziy bankda va uning hududiy Bosh boshqarmalarida axborotlashtirish boshqarmasi va bo‘limlari tashkil etildi. Banklararo maxsus ajratilgan aloqa kanallari vazifasida elektron to‘lov tizimini ishga tushirish borasida ish olib borildi. Respublika bank tizimini axborotlashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Sobiq Ittifoq respublikalari bilan o‘zaro hisob-kitoblarni tartibga solish va ularga xizmat ko‘rsatish amaliy dasturi yaratildi. Markaziy bankning hududiy boshqarmalari to‘liq kompyuterlashtirildi. YA’ni bir paytda respublika elektron to‘lov tizimini zamini yaratila boshlandi. 1993 yilning dekabr oyidan boshlab juda qisqa muddat uch oy mobaynida Sobiq Ittifoq respublikalari bilan 1991, 1992 hamda 1993 yillardagi yig‘ilib qolgan o‘zaro hisob-kitoblar, qarzlar hisoblab chiqildi va 1994 yilning mart oyiga kelib bu borada aniq ma’lumotlarga ega bo‘lindi. 1994 yil 18 mart kuni qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 146-sonli “Bank tizimini takomillashtirish, pul-kredit munosabatlarini barqarorlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, Markaziy bank tizimida elektron pochtalarni joriy etishni oktyabrga qadar tugallash vazifasi yuklatildi. SHuningdek, Qarorda respublika bank kompyuter tizimini yaratish uchun zarur valyuta mablag‘larini ajratish ham ko‘rsatildi.

13 iyul kuni Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror qabul qilindi. Unga asosan banklar qator soliqlardan ozod qilindi va bo‘shagan mablag‘larni o‘z faoliyatini kompyuterlashtirishga sarflash shart qilib qo‘yildi. Mazkur Qarorlarga binoan tijorat banklarining bo‘limlari kompyuterlashtirila boshlandi va ular elektron to‘lov tizimiga qo‘shib borildi.

Avgust oyi oxiriga kelib mustaqillikning uch yilligi sharafiga elektron to‘lovlar vaqtinchalik Nizomi yaratildi.

Oktyabr oyidan boshlab esa elektron pochta respublika bank tizimida ishga tushirildi.

Respublika bank tizimida buxgalteriya hisob-kitoblarni va bank amaliy ish kunini umumiy bir ko‘rinishga keltirish uchun zarur ishlar amalga oshirildi.

Markaziy bank qilingan bu ishlar bilan cheklanib qolmasdan o‘zining mutaxassislari kuchi bilan elektron to‘lov tizimi amaliy dasturini respublika miqiyosida tadbiq etish ustida ham tinimsiz ish olib bordi va 1995 yil uchun zamin yaratdi.

2-bosqich. 1995-1997 yillar

Aprel oyida Markaziy bank Jahon banki mablag‘lari hisobidan O‘zbekiston Respublikasi banklararo to‘lov tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan halqaro tanlov tender e’lon qildi.

Markaziy bankda tashkil etilgan elektron to‘lov tizimini yaratish ishchi guruhi o‘tgan yillardan olingan tajribalar va xulosalar, shuningdek jahonning ilg‘or davlatlari yutuqlarini o‘rganish va tahlil qilish asosida elektron to‘lov tizimi texnologiyasini yaratdilar. Eski tizim 19 avgustdan boshlab yangi texnologiya bilan almashtirila boshlandi. Bu paytga kelib Markaziy bank tizimida hisob-kitob markazlari tashkil etildi va tijorat banklariga elektron to‘lov bo‘yicha xizmat ko‘rsatila boshlandi. YAngi texnologiyaga o‘tila borishi sababli yilning oxirigacha respublikada 2 tizim: elektron pochta va elektron to‘lov tizimlari ishlab turdi. Yil oxiriga kelib esa barcha tijorat banklari Markaziy bankning hisob-kitob markazlari, kliring markazlari elektron to‘lov tizimiga qo‘shildi.

YAngi tashkil etilgan hisob-kitob markazlari tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlarini kliring markazlaridan o‘zlariga o‘tkaza boshladilar. Iyul oyiga kelib kliring markazlari butunday qisqartirildi. SHu bilan bir qatorda Markaziy bank Bosh axborotlashtirish markazi mutaxassislari va bank xodimlari to‘lovlarning o‘tishi muddatini yanada qisqartirishni ta’minlash borasida tinmay izlanish olib bordilar. Buning natijasi o‘laroq, yil oxiriga kelib to‘lovlar o‘tishi muddati respublika miqyosida 2 soat, viloyat miqyosida 1 soatni tashkil etdi.

Respublika bank tizimida yangi hisob tizimi rejasiga o‘tilishi tijorat banklari va Markaziy bank to‘lov tizimi tub burilish yasadi. Elektron to‘lov tizimining mavjud amaliy dasturi rivojlantirilib, tizimning katta o‘tkazish qobiliyati va hujjatlarning yuqori tezlikda qayta ishlanishi (hududlararo hisob-kitoblar - 15 daqiqada, bitta hudud ichidagi hisob-kitoblar esa – 3-5 daqiqada) pul mablag‘lari aylanishini jiddiy oshirdi. Bu esa respublika xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarining faoliyatiga ijobiy ta’sir etdi, banklarga vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘lardan samarali foydalanish va kredit xavf-xatari darajasini hamda likvidlilik xavf-xatarini tezkorlikda boshqarish imkonini berdi.

3-bosqich. 1998 -2001 yillar

Markaziy bank bilan Jahon banki o‘rtasida 1998 yil dekabr oyida “Respublika moliya sohasini rivojlantirish” uchun zayom ajratish to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Bu loyiha besh komponentga bo‘linib, shulardan to‘rtinchi komponent o‘z ichiga quyidagi masalalarni oladi:

to‘lov tizimini takomillashtirish;

boshqarish uchun axborot tizimini yaratish;

bank telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish;

axborot tizimi muhofazasini yaratish.

YUqorida keltirilgan masalalar bo‘yicha tadbirlarni nihoyasiga etkazish 2003 yilning ikkinchi yarmiga mo‘ljallangan bo‘lib, har bir masala bo‘yicha rivojlanish yo‘llari tijorat banklari bilan birgalikda aniqlandi va chet el ekspertlarining xulosalari olindi.

4-bosqich. 2002 yildan hozirgi kungacha

To‘lovlarni real vaqtda o‘tishini ta’minlash va tijorat banklariga yagona vakillik hisobvarag‘i orqali xizmat ko‘rsatish bo‘yicha texnologiya tanlanib, ushbu bo‘yicha texnik topshiriq, ishlab chiqildi va banklararo to‘lovlarni yagona vakillik hisobvarag‘i orqali o‘tkazish hamda banklarda axborotlashtirilgan axborot tizimini tashkil etish bo‘yicha dastur yaratildi. Tijorat banklarining banklararo to‘lovlarni yagona vakillik hisobvarag‘i orqali amalga oshirish tizimiga o‘tishi 2002 yilning iyun oyidan boshlandi.

To‘lov tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tender o‘tkazilib, tender g‘olibi bilan mavjud bank telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirish loyihasi bo‘yicha shartnoma tuzildi.

Plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblarni yo‘lga qo‘yish maqsadida to‘lovlarni amalga oshiradigan milliy tizim yaratish konsepsiyasi tavsiyanomalar va sxemalar ishlab chiqildi. Respublikamizda mavjud yirik banklar, xususan TIF Milliy bank, Asaka bank, Sanoatqurilish banki, Xalq banki va Paxta banklarida plastik kartochkalar orqali to‘lovlarni tashkil qilish yo‘lga qo‘yildi.

Tijorat banklarini banklararo to‘lovlarni yagona vakillik hisobvarag‘i orqali amalga oshirish tizimi 2003 yil 8 sentyabrda to‘liq ishga tushirildi va barcha banklarda markazlashtirilgan axborot tizimi tashkil etildi. Bu banklarga kundalik to‘lovlar o‘tkazish uchun band bo‘lgan mablag‘larni bir qismini bo‘shashiga va ularni o‘rinli aktivlarga joylashtirishga, bank o‘z filiallarini mavqeini tahlil qilib kerakli chora ko‘rishga, bankning kunlik yagona balansi uning likvidliligini, tavakkalchiliklarini, majburiyatlarni, o‘z kapitalini aniq ifoda etishga imkon beradi.

Shuningdek, Jahon banki krediti hisobiga tuzilgan shartnomaga asosan Bank telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirish loyihasini amalga oshirish ishlari bajarilayapti, shuningdek, respublika moliya tuzilmalarini banklararo ma’lumot uzatish tarmog‘iga ulash va o‘zaro ma’lumot almashinuvining elektron tizimini yaratish bo‘yicha ishlar olib borildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrda qabul qilingan “Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 445–sonli Qarori bilan ushbu tizimni kengaytirish borasidagi ilk reja ko‘rsatkichlari, shuningdek to‘lovlarni plastik kartochkalar orqali qabul qilish terminallari bilan jihozlanadigan ob’ektlar ro‘yxati tasdiqlandi. SHu bilan bir qatorda, mazkur qarorga muvofiq mamlakatda Yagona umumrespublika protsessing markazi tashkil etildi. Mazkur qarorga muvofiq, barcha tijorat banklari plastik kartochkalar tizimida ish olib borilishiga zamin yaratildi.

Barcha tijorat banklarida (DT Xalq bankidan tashqari) yagona balans tizimini joriy etildi. Davlat tijorat Xalq bankida yagona balans texnologiyasiga asoslangan tizimni joriy etish ishlari bosqichma-bosqich olib borilib, 2008 yil 24 noyabrida to‘liq ishga tushirildi. Bundan tashqari, Markaziy bankning Integrallashgan

axborot-tahliliy tizimi (IATT) 2009 yil may oyida yaratilib, unda tijorat banklari tomonidan 58 ta talabnoma asosida Markaziy bankning ma'lumotlar omborxonasida ma'lumotlarni jamlash, nazorat qilish, hisobini yuritish, qayta ishlash, shakllantirish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirish ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda IATT tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Integrallashgan avtomatlashtirilgan bank tizimi, Kredit axboroti milliy instituti axborot tizimi, YAgona vakillik hisobvaraqlar hisob-kitob markazi, Elektron hujjat aylanishi tizimi, bank tizimi ma'lumotlar bazalari kiritilgan va ma'lumotlar omborxonasi tashkil etilgan bo'lib, ayni paytda mazkur tizimlarni takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-sonli qarori bilan respublika "Elektron hukumat" tizimining kompleks axborot tizimlari tarkibiga Markaziy bankning "CHakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash" loyihasi ham kiritilgan bo'lib, mazkur Kliring tizimi amaliyotga tatbiq etildi.

Ushbu tizimni yaratishdan maqsad unga tijorat banklari filiallari, kassalari va O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi qoshidagi Yagona umumrespublika Protsessing markazini ulagan holda, jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek kommunal xizmatlar va mobil aloqa operatorlari uchun to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iborat. SHuningdek, mazkur tizim mijozlarga kunu-tun bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish va bank infokiosklari orqali ishlash imkoniyatini berdi.

Kliring tizimi bilan Davlat soliq qo'mitasi axborot tizimi, shuningdek, "O'zbekenergo" DAK hamda "O'ztransgaz" AKning billing tizimlari integratsiya qilingan holda soliq va boshqa majburiy to'lovlar hamda elektr energiyasi va gaz iste'moli to'lovlarini real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Shu bilan birga, "O'zkart" banklararo chakana to'lov tizimi faoliyatini tartibga solish va uning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, Markaziy bank huzuridagi Axborotlashtirish Bosh markazida "Banklararo universal netting axborot tizimi" dasturiy majmuasi ishga tushirilishi munosabati bilan "O'zkart" tizimida Hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bank vazifalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining Banklararo hisob-kitob markazidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Hisob-kitoblar markaziga o'tkaziladi. Bunda o'zaro majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblar tijorat banklarining Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshirilib, tizim xarajatlarini kamayishiga olib keladi va tijorat banklari o'z mablag'laridan samarali foydalanishlariga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish Kliring tizimi PQ-1989-sonli qarori bilan belgilangan muddatlarda ishga tushirilgan bo'lib, hozirgi vaqtda bank tizimi tomonidan ushbu axborot tizimini takomillashtirish va joriy qilish doirasini kengaytirish ishlari olib borilmoqda.

Erkin raqobatga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri davlat mulki yagona bo‘lmagan holda rivojlanayotgan turli mulkchilik shakllariga asoslangan tovar ishlab chiqarish va tovar muomalasining mavjudligidir. Tovar muomalasi mavjud ekan, u o‘z navbatida korxona va tashkilotlar o‘rtasida pulli munosabatlarni ya’ni hisob-kitoblarni keltirib chiqaradi. Tovar muomalasi va tovar ayirboshlash jarayoni doimo pul harakatini taqozo etadi. Tovar oboroti pul oborotining moddiy asosi bo‘lib hisoblanadi, lekin pul oborotining hajmi tovar oborotining hajmidan doimo katta bo‘ladi, chunki pul oboroti o‘z ichiga tovar ayirboshlashdan tashqari boshqa munosabatlarni ham oladi.

4.6. Plastik kartochkalar orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining taboro takomillashib borishi tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarining turlarini ko‘paytirmoqda. Xuddi shunday bank xizmatlaridan biri bu plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan hisob – kitoblar hisoblanadi. Bank plastik kartochkalar hozirgi kunda jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida keng qo‘llanilib, aholining ishonchiga sazovor bo‘lgan qulay, samarali va ishonchli to‘lov vositasi hisoblanadi.

Plastik kartalar asosida hisob-kitoblar tizimining rivojlanishi nafaqat aholi, balki butun bir mamlakatning milliy iftixori bo‘lgan milliy valyutaning qadrsizlanishining oldini oladi, mamlakat pul-kredit tizimi bir tekisda rivoj topishining ishonchli vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi barcha tijorat banklarining plastik kartochkalari bo‘lib, ular orqali naqd pullarni bankomatlardan olish va savdo shaxobchalarida foydalanish mumkin. Plastik kartochkalar asosan aholi o‘rtasida qo‘llanilib, naqd pulga bo‘lgan talabni kamaytirish, olib yurishdagi qulayligi, vaqtincha foydalanmasdan turgan mablag‘larni daromad keltirish kabi ijobiy jihatlari mavjud.

Plastik kartochka - harid qilingan tovar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarning zamonaviy, ishonchli va qulay to‘lov vositasidir. Plastik kartochkalarning eng muhim xususiyati shundan iboratki, ular o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda ma’lum axborotlar to‘plamini o‘zida saqlashi mumkin. Plastik kartochkalardan foydalanganda, kartochka egasining xotirasida bank hisobvarag‘ning joriy holati, barcha qilingan haridlar va ko‘rsatilgan xizmatlar amalga oshirilgan to‘lovlar to‘g‘risidagi ko‘pgina ma’lumotlarni ushlab turish zarurati bo‘lmaydi. Plastik kartochkaga ega bo‘lgan holda, maxsus uskuna yordamida pul mablag‘larining holati va ularni harakatlanishi to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarga bir necha soniya ichida ega bo‘lish mumkin. Plastik kartochkalarga “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida” 2465 sonli Nizomda plastik kartochkalarga quyidagicha izox berilgan: “Bank plastik kartochkalari — bank tomonidan emissiya qilingan, personalizatsiyalangan, to‘lov vositasi sifatida ishlatiladigan va o‘z saqlovchisiga bank hisobvarag‘idagi mablag‘lari doirasida operatsiyalarni, jumladan, hisobvaraq orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni (to‘lovlarni) amalga oshirish, undan naqd pul mablag‘larini va bank kreditini olish imkonini beruvchi bank plastik kartasi. Bank plastik kartochkalaridan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblarda, shuningdek naqd pul beradigan shoxobchalar va

bankomatlardan naqd pul mablag‘larini olishda foydalaniladi.”[52] Haqiqatda plastik kartochka harid qilingan tovar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarning zamonaviy, ishonchli va qulay to‘lov vositasidir.

Kartochkalar unga ma’lumot yozish, ya’ni kiritish usullariga ko‘ra embossirlangan (ma’lumotlar kuchli bosim bilan yoziladi), grafikli yozish, shtrix kod bilan ifodalash, magnit lentaga yozish va chipli turlarga bo‘lish mumkin.

Kartochkalarning o‘zi qanday maqsadga foydalanishga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi:

- Identifikatsiya kartalari. Ular kartochka egalarini identiftkatsiyalash, ya’ni biror binoga kirishga yoki biror uskunada belgilangan operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat beradi.
- Klub yoki diskont kartalari. Ushbu karochkaga ega bo‘lgan shaxslar uning emitentlari bo‘lgan klub yoki savdo tarmog‘ining xizmatidan foydalanishda, tovarlarni xarid qilishda ma’lum imtiyozlarga ega bo‘ladilar.
- Bank kartalari. Bularga biz yuqorida ko‘rib o‘tgan to‘lov vositalari bo‘lgan, banklar tomonidan emissiya qilinadigan plastik kartochkalar kiradi. Biz ushbu magistrlik dissertatsiyasida aynan bank kartalari haqida so‘z yuritamiz.

Bank plastik kartochkasi - bu personallashtirilgan to‘lov vositasi bo‘lib, u foydalanuvchiga tovar va xizmatlarga naqd pulsiz haq to‘lash, bankomat va bank bo‘limlaridan naqd pul olish imkoniyatini beradi.

Hisob-kitoblarni amalga oshirish imokniyatiga ko‘ra plastik kartalar debet va kredit kartalarga bo‘linadi:

- Kredit kartochkalar. Bunda foydalanuvchilar tovar va xizmatlarni kreditga olishda va kassa qarzini olishda kredit liniyasidan foydalanishadi. YA’ni tovar xarid qilayotganda mijozning hisobraqamidagi pul mablag‘i etmasa, bank unga ma’lum limit doirasida kredit beradi. Kredit ma’lum muddat mobaynida so‘ndirilishi kerak. Kreditni mijoz karta hisobvarag‘i ochish chog‘ida qo‘ygan sug‘urta depozitidan yoki kartochka egasi naqd pul qo‘ygan yoki pul o‘tkazgan hisobvaraqdan pul o‘tkazib so‘ndirishi mumkin.
- Debetli kartochkalar. Bunda foydalanuvchilar bankomatlardan naqd pul olish va elektron terminaldan foydalangan holda hisob-kitob qilish orqali tovarlarga va xizmatlarga haq to‘lashi mumkin. Bunda foydalanuvchining bankdagi hisobvarag‘idan mablag‘ hisobdan chiqariladi. Debet kartalar bo‘yicha agar foydalanuvchining hisobvarag‘ida mablag‘ mavjud bo‘lmasa, bu plastik kartochkalar bo‘yicha muomalalar amalga oshirilmaydi. Kredit kartochkalardan debet kartalarning afzalligi bir to‘lov bo‘yicha cheklanishlarning yo‘qligi hisoblanadi.

Foydalanish harakteriga ko‘ra kartochkalar shaxsiy, oilaviy va korporativ turlarga bo‘linadi. Ularning har biriga izoh beramiz:

- Shaxsiy kartochka - bu bankning alohida mijoziga beriladi. Bunday kartochkalar «standart» yoki «Oltin» bo‘lishi mumkin. Bu kartochkalar yuqori

[52] “Ўзбекистон Республикасида нақд пулсиз ҳисоб-китоблар тўғрисида” ги 2465-сонли Низом. 2013 йил 3 июнь.

kreditga layoqatli mijozlarga beriladi. Bunda foydalanuvchilar ko‘p imtiyozlarga ega bo‘ladi.

- Oilaviy kartochka - bu kartochkalar hisobvaraq bo‘yicha javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan oilaning bir a’zosiga beriladi.
- Korporativ kartochka – tashkilot va korxonalarga beriladi. Korporativ bank kartalaridan foydalangan holda naqd pulsiz shaklda to‘lash uchun sarf qilinayotgan pul mablag‘lari korporativ bank kartasining saqlovchisiga hisobdorlik sharti bilan beriladigan, qat’iy tarzda belgilangan maqsadlarga ishlatiladigan mablag‘lar bo‘lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, magnit va smart kartochkalar farqlanadi. Magnitli kartochkaga uning egasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar va tovar yoki xizmatga haq to‘lash uchun zarur miqdordagi pulni hisobdan chiqarish uchun qaysi bankka murojaat qilish to‘g‘risidagi axborot yoziladi. Bunday kartochkada kartochka schyotidagi pul miqdori to‘g‘risidagi axborot bo‘lmaydi. Smart-kartochkada mijoz, emitent-bank to‘g‘risidagi shifrlangan ma’lumot, pul o‘tkazish va hisobdan chiqarishga oid shaxsiy kod, uningdek o‘tkazilgan pul mblag‘lari to‘g‘risidagi axborot saqlanadi. Soxta mikroprotsessor kartochkasini amalda yasab bo‘lmaydi. CHipda saqlanayotgan axborotdan har qanday ruxsatsiz foydalanish chipning blokirovka qilinishiga va buzilishiga olib keladi. So‘nggi vaqtda to‘lov vositasi sifatida aynan smart-kartalardan foydalanish anchagina ko‘paygani kuzatilmoqda.

Kartochkalarni yana ularga identifikatsiya axborotini egasining ismi, kartochka raqami, uning amal qilish muddati va shu kabilarni kiritish usuli bo‘yicha farqlash mumkin. U embosserlash usuli bilan kiritilishi mumkin: maxsus apparat (embosser) ma’lumotlarni bo‘rtma xarflar bilan bosib yozadi. Bunday kartochka embosserlangan kartochka deyiladi. Ba’zan identifikatsiyalovchi axborot kuydirib yoziladi va odatda, bunday kartochka faqat elektron foydalanishga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Mikroprotsessorli plastik kartochkalarning eng muhim xususiyati shundan iboratki, ular turli xildagi o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda foydalanadigan ma’lum axborotlar to‘plamini o‘zida saqlashi mumkin.

Shunday qilib, har bir turdagi kartochkaning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, ular paydo bo‘lgandan boshlab to hozirgi kungacha mukammalashib bormoqda.

Bugungi kunda dunyoning 200 dan ortiq mamlakati o‘z to‘lov tizimida plastik kartochkalardan foydalanishi to‘lov kartalari bank tizimidagi texnologik revolyusiyaning eng muhim elementlaridan ekanini ko‘rsatadi. Aynan plastik kartochkalar ko‘p hollarda elektron bank tizimining hal qiluvchi elementi sifatida chiqmoqda.

Jahon bank tizimi amaliyotida plastik kartochkalar foydaning asosiy manbaasi hisoblanadi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, AQSHda jami bank kreditlarining 6 foizigina kredit kartalar orqali beriladi. SHu bilan bir qatorda bu banklar foydalarining 10 foizini aynan kredit kartalarga xizmat qilishdan oladilar.

To‘lov kartasining o‘zi bu plastik bo‘lagi, xolos. Uning amal qilishi uchun ma’lumotlarning tez, ishonchli, va xafvsiz almashinishini ta’minlaydigan turli axborot texnologiyalari kompleksi zarur. SHuningdek ushbu texnologiyalarni boshqarib va nazorat qilib turuvchi sub’ektlar, ular faoliyatini tartibga soluvchi

qonuniy-huquqiy asoslar kerak bo‘ladi. Bularning barchasi plastik kartochkalar orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar tizimini tashkil etadi. To‘lovlarni qanday algoritmda amalga oshirilishi esa hisob-kitoblar mexanizmini belgilaydi.

Plastik kartochkalarning turlari, amal qilish segmenti (lokal yoki xalqaro), mijozlarning xususiyatlari va boshqa omillarga qarab hisob-kitoblar mexanizmi turlicha bo‘lishi mumukin. Buni har bir to‘lov tizimi mustaqil belgilaydi.



4.6.6-rasm. Lokal to‘lov tizimida plastik kartochkalar orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar mexanizmi[53]

Rasmni qisqscha tushuntiramiz. Karta egasi xizmat ko‘rsatish shaxobchasiga kelib, tovar xarid qilish yoki xizmat haqqini to‘lash uchun kartasini beradi. SHaxobcha xodimi karta haqiqiyligini sirtdan tekshiradi hamda emitentga mijozning vakolati va moliyaviy imkoniyati tasdiqlash uchun so‘rov yuboradi. Bu avtorizatsiya deyiladi va uning natijasida operatsiyani amalga oshirishga ruxsat beriladi yoki u ta’qiqlanadi. Avtorizatsiya texnologiyasi to‘lov tizimi, karta turi va xizmat ko‘rsatish shaxobchasining texnik jihozlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ushbu mexanizm klassik mexanizm hisoblanadi va u jahondagi magnitli plastik kartochkalar orqali amalga oshiriladigan aksariyyat hisob-kitoblarning asosidir.

Bunday kartochkalargaga uning egasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar va tovar yoki xizmatga haq to‘lash uchun zarur miqdordagi pulni hisobdan chiqarish uchun qaysi bankka murojaat qilish to‘g‘risidagi axborot yoziladi.

Bunday kartochkada kartochka schyotidagi pul miqdori to‘g‘risidagi axborot bo‘lmaydi. SHu nuqtai nazardan bunday kartochkalar to‘lovlarni amalga

---

[53] Быстров Л.В., Воронин А.С., Гамольский А.Ю. и др. Пластиковые карты (5-е изд., перераб. и доп.). - "БДЦ-пресс", 2005 г. amaliy ensiklopediya ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

oshirayotganda mijozning bankdagi hisobraqami uchun “kalit” vazifasini bajaradi. Ushbu mexnizm onlayn mexanizm deyiladi.

Shu bilan bir qatorda offlayn mexanizm ham mavjudki, u avtorizatsiya jarayonida kartaga bir qancha qo‘shimcha talablar qo‘yadi. (1-rasmga qarang). Jumaladan:

- kartaning o‘zida xarajat limiti miqdori haqida ma’lumot saqlanishi lozim;
- avtorizatsiyadan so‘ng limit qoldig‘ining nazorat qilinadigan kamayib borish imkoniyati (kartani debetlash);
- limitni qayta tiklash (kartani kreditlash);

Offlayn avtorizatsiya qilish uchun krta POS terminalga solinadi. Buda terminal va karta o‘rtasida oldindan yozilgan ma’lumotlar almashishi yuz beradi. Ushbu jarayon muvaffaqiyatli bajarilganidan so‘ng to‘lov summasi ko‘rsatiladi, mijoz esa PIN kodini kiritadi. SHu yo‘l bilan kartadagi qoldiq to‘lov summasiga kamaytiriladi. POS terminal tranzaksiya haqidagi ma’lumotlarni saqlab qoladi. Karta esa egasiga qaytariladi



4.6.7-rasm. Plastik katochkalar bilan offlayn avtorizatsiya qilish mexanizmi[54]

Shu tariqa kun davomida tranzaksiyalar haqidagi ma’lumotlar POS terminalda yoki unga ulangan kompyuterda yoxud terminalga o‘rnatilgan maxsus smart kartada yig‘iladi. Kun oxirida ushbu ma’lumotlar protsessing markazga jo‘natiladi va hisob kitoblar amalga oshiriladi.

Lokal to‘lov tizimida amal qiladigan mexanizmlar bilan bir qatorda nisbatan rivojlangan (lokal chegaradan chetga chiquvchi) hisob-kitob mexanizmlarni ham ko‘rib o‘tish joiz. Bunday to‘lov tizimlarida hisob-kitoblar mexanizmi emitent va

[54] Быстров Л.В., Воронин А.С., Гамольский А.Ю. и др. Пластиковые карты (5-е изд., перераб. и доп.). - "БДЦ-пресс", 2005 г. amaliy ensiklopediya ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

.

ekvayer funksiyalarining chegaralanishi hamda ishtirokchilar tarkibiga hisob-kitob banki va protsessing kompaniyasining qo‘shilishi bilan murakkablashadi (3-rasmga qarang).



4.6.8-rasm. Rivojlangan to‘lov tizimida plastik kartochkalar orqali amalga oshiriladigan hisob kitoblar mexanizmi[55]

Bir qator g‘arb olimlari to‘lov tizimlarini uchta katta guruhga bo‘lishadi – kreditli, debetli va hisob-kitob to‘lov tizimlari.

Kreditli tizim kartochka hisobraqamida boshlang‘ich nol qoldiq bo‘lishini ko‘zda tutadi. Kartochka bilan bo‘ladigan barcha operatsiyalar hisobraqam debetiga yozilib boradi va karta egasi ularni ma’lum shartlarda so‘ndiradi.

Debetli tizim mohiyati shundan iboratki, har bir amalga oshirilgan to‘lov o‘sha kunning o‘zidayoq mijozning bankdagi karta hisobraqamidan echiladi. Agar to‘lov summasi karta qoldig‘idan oshib ketsa, operatsiya amalga oshirilmaydi. Tabiiyki, debetli kartalardan foydalanganda har bir operatsiya uchun avtorizatsiya qilish to‘g‘ri keladi. Qulay tarafi esa ruxsat etilmagan kreditning yuzaga kelish xavfi yo‘qoladi.

Bank plastik kartalari o‘z vazifasiga ko‘ra hisob-kitoblarda (debetli va kreditli) oraliq instrument hisoblanadi.

Kreditli mexanizm ayniqsa lokal tizimda, ya’ni emitent ham, ekvayer ham bitta bank bo‘lganda qulaydir. Bunda asosan magnit chiziqli kartalardan

[55] Быстров Л.В., Воронин А.С., Гамольский А.Ю. и др. Пластиковые карты (5-е изд., перераб. и доп.). - "БДЦ-пресс", 2005 г. амалий amaliy ensiklopediya ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

.

foydalaniladi. Ushbu mexanizmda yagona so‘rov yuborish texnologiyasidan foydalaniladi. YA’ni bitta so‘rov ham avtorizatsiya uchun, ham mablag‘ni karta hisobraqamidan echish uchun yuboriladi.



4.6.9-rasm. Lokal tizimda magnit chiziqli plastik kartalar orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar mexanizmi[56]

Bunda:

1. Karta terminalga solinadi;
2. Mijozning to‘lovga layoqatliligini aniqlash uchun so‘rov jo‘natiladi;
3. To‘lovga layoqatlilik tasdiqlanadi;

4-5. Karta hisobraqamidan xizmat ko‘rsatish shaxobchasi hisobraqamiga mablag‘ o‘tkazib beriladi.

YUqorida ko‘rib o‘tilganidek, plastik kartochkalar orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish mexanizmlari turlichadir. Biz faqat ularning asosiylariga to‘xtalib o‘tdik. Har bir bank, to‘lov tizimini tashkil etmoqchi bo‘lgan har bir tashkilot va davlat o‘zining imkoniyatlari, texnik jihozlanishi va mijozlar xususiyatlaridan kelik chiqib, ushbu mexanizlarni o‘ziga moslashtiradi.

Respublikamizda plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2013 yil 26 apreldagi 9/1 sonli Qarori bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 3 iyunda 2465-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Plastik kartochkalar, ulardan foydalanish va hisob-kitoblarni tashkil etish mexanizmida bir qator elementlar qo‘llaniladi. Ularning ba’zilariga izoh berib o‘tamiz.

Terminal – plastik kartochka egasiga xarid qilingan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish hamda bajarilgan operatsiyalar bo‘yicha sliplarni (cheklarni) shakllantirishga imkon beruvchi qurilma.

---

[56] Быстров Л.В., Воронин А.С., Гамольский А.Ю. и др. Пластиковые карты (5-е изд., перераб. и доп.). - "БДЦ-пресс", 2005 г. amaliy ensiklopediya ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Bankomat - bu plastik kartochka egasiga o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish rejimida kassa avanslarini olishga imkon beruvchi va bajarilgan operatsiyalar bo‘yicha sliplarni shakllantiruvchi qurilma.

Infokiosk - o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish asosidagi to‘lov-ma’lumot berish terminali bo‘lib, platik kartochkalardan foydalangan holda naqd pulsiz to‘lov operatsiyalarini bajarishga va reklama-ma’lumot berish xizmatlarini tezkor tarzda ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Infokioskdan bank, kredit-moliya muassasalari, uyali aloqa provayderlari, bo‘limlarning tarmoqlangan tarmog‘iga ega bo‘lgan kompaniyalar xizmatlarini ko‘rsatish uchun foydalanish mumkin.

PIN-kod – plastik kartochka egasining kartochka hisobvarag‘ida hisobga olinadigan pul mablag‘larini tasarruf qilish huquqini beruvchi va tasaarruf qilish plastik kartochka egasiga berilganligini tasdiqlovchi shaxsiy identifikatsion raqami.

Emitent – bank plastik kartochkalari emissiyasini amalga oshiruvchi, o‘zi tomonidan emissiya qilingan bank kartalariga nisbatan egalik huquqiga ega bo‘lgan va ular tomonidan bank plastik kartochkalaridan foydalanib to‘lash huquqlarini amalga oshirish bo‘yicha plastik kartochka egalari va ekvayerlar oldida o‘z nomidan majburiyatlarga ega bo‘lgan bank.

Bank-ekvayer - xizmat ko‘rsatuvchi bank bo‘lib, tovar-servis korxonalari bilan shartnomaviy munosabatlarga ega bo‘lgan, ulardan plastik kartochkalardan foydalanib amalga oshirilgan tranzaksiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qabul qiluvchi, ularga ma’lumotlarni o‘zaro almashishning tegishli tizimini yo‘naltiruvchi hamda ushbu tranzaksiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni tovar-servis korxonalari bilan tuzilgan shartnomalarga ko‘ra amalga oshiruvchi kredit-moliya korxonasi.

Protsessing markazi – “UZCARD” BTT da protsessor vazifasini bajaruvchi va banklar uchun xizmatlar majmuasini, jumladan “UZCARD EMV” dasturiy-apparat majmuasi asosida bank kartalari emissiyasi va ekvayringi hamda to‘lovlar provayderi funksiyasini ta’minlovchi tarkibiy bo‘linma.

Mijozlar istagan bankning plastik kartasidan foydalanish huquqiga egadirlar. Bank kartochkasiga ega bo‘lish uchun avval mijoz va bank o‘rtasida “Plastik kartochkalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish shartnomasi” tuziladi.

Plastik kartochkalarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan shartnoma quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

a) tomonlarning nomi;

b) shartnoma predmeti;

v) tomonlarning xuquqlari va majburiyatlari;

g) tomonlarning javobgarligi;

d) hisob-kitoblarni o‘tkazish shartlari;

e) shartnomani amal qilish muddati va uni bekor qilish shartlari;

j) nizolarni echish tartibi;

z) tomonlarning yuridik manzili.

Personalizatsiya qilinganda plastik kartochkaga quyidagi rekvizitlar yozilishi kerak:

a) identifikatsiyalovchi ma’lumotlar (kartochkaning tartib raqami, seriyasi va boshqalar);

b) bank-emitentning (plastik kartochkalarii muomalaga chiqaruvchi bankning) xos raqami;

v) schyotning tartib raqami va kartochka ushlovchining familiyasi, ismi, sharifi (tashkilotning nomi);

g) kartochkaning amal qilish muddati.

Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan hisob-kitoblar qog‘ozda (slip, elektron terminal kvitansiyasi) yoki elektron shaklda (bankomat yoki terminalning elektron hujjati) yoki boshqa ma’lumotnomalar bilan tasdiqlanadi. Bunda mazkur ma’lumotnomalar hisob-kitoblarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi tomonlarga etarli nusxalarda shakllantiriladi. Ma’lumotnomalar bank plastik kartochkalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Ma’lumotnomalarda bank plastik kartochkalari va bank plastik kartochkalari saqlovchilarning bankdagi hisobvaraqlari rekvizitlari, shuningdek tashkilotlar, naqd pul berish punktlari va bankomatlarning hisobvaraqlari rekvizitlari bo‘lishi shart.

Elektron ma’lumotnomalar bank-ekvayerga, bank-emitentga yoki shartnomada nazarda tutilgan protsessing markaziga yuboriladi.

Bank plastik kartochkalari bo‘yicha banklar o‘rtasidagi hisob-kitoblar:

- elektron to‘lovlar tizimi orqali umumiy asosda amalga oshiriladi;
- amaliyot kuni davomida o‘zaro majburiyatlarni yakuniy hisob-kitobi va yakuniy hisob-kitoblar summasini banklarning vakillik hisobvaraqlari orqali hisobga o‘tkazish asosida hisob-kitob ishtirokchilari tomonidan tashkil qilingan protsessing markazi orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish.

Amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha umumiy hisob-kitoblar elektron to‘lovlar tizimi orqali quyidagicha amalga oshiriladi:

a) bank-emitent tomonidan avtorizatsiya qilinmagan holda amalga oshirilgan hisob-kitoblarda:

bank tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotdan olingan elektron hujjatlar asosida bank-ekvayer uning hisobvarag‘iga tegishli mablag‘larni o‘tkazadi, bunda avtomatik ravishda debet elektron memorial order shakllanadi va elektron to‘lovlar tizimi orqali bank-emitentga yuboriladi;

mijozning bank plastik kartochkasi hisobvarag‘idagi mablag‘lar bank-emitent tomonidan debet elektron memorial order asosida dasturiy ravishda hisobdan chiqariladi. Debet elektron memorial order ro‘yxat ko‘rinishida chop etilib, bankning kunlik hujjatlar yig‘majildiga tikib qo‘yiladi;

b) bank-emitent tomonidan avtorizatsiya qilingan holda amalga oshirilgan hisob-kitoblarda:

bank tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotdan olingan elektron hujjatlar asosida bank-ekvayerda avtomatik ravishda elektron xabarnoma shakllanadi hamda o‘tkazmalarni avtorizatsiya qilish va amalga oshirish uchun elektron to‘lovlar tizimi orqali bank-emitentga yuboriladi;

bank-emitent elektron xabarnoma asosida tranzaksiyani avtorizatsiya qilib, mablag‘larni elektron to‘lovlar tizimi orqali tegishli tashkilotlar hisobvarag‘iga o‘tkazish uchun bank-ekvayerga yuboradi hamda mablag‘larni bank plastik kartochkalari hisobvarag‘idan hisobdan chiqarish uchun elektron memorial orderni dasturiy ravishda shakllantiradi;

mablag‘lar bank-ekvayer tomonidan bank-emitentdan olingan elektron memorial order asosida tegishli tashkilotlarning hisobvarag‘iga o‘tkaziladi va memorial order ro‘yxat ko‘rinishida chop etilib, bankning kunlik hujjatlar yig‘majildiga tikiladi.

Protsessing markazi orqali hisob-kitoblar quyidagicha amalga oshiriladi:

- amaliyot kuni davomida bank plastik kartochkalari bo‘yicha protsessing markazi orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar hisob-kitob ishtirokchilari uchun ochilgan alohida shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi;
- yakuniy summalar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning hisob-kitob markazida ochilgan banklarning vakillik hisobvaraqlari orqali shartnomada nazarda tutilgan muddatda o‘tkaziladi;
- banklar tomonidan protsessing markazidan olingan ma’lumotlar asosida mijozning BPK hisobvarag‘iga mablag‘lar o‘tkaziladi yoki hisobdan chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va tijorat banklari tomonidan savdo, xizmat ko‘rsatish va naqd pul muomalasi bilan faoliyat ko‘rsatadigan mijozlarni hisob-kitob terminallari, bankomatlar va plastik kartochkalar bilan ta’minlash, ularni yuqori darajada himoya qilish bo‘yicha belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish, plastik kartochkalardan foydalanish orqali naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirishda soxtalashtirish yoki boshqa qonunbuzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik masalalariga alohida e’tibor qaratilyapti.

5-MAVZU: PUL MASSASI VA PUL AGREGATLARI

REJA:

5.1. Pul massasi tushunchasi, uning mohiyati va tarkibi.

5.2. Muomala uchun zarur pul miqdorini aniqlash.

5.3. Pul multiplikatori va uning mohiyati.

5.4. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda pul agregatlari va ularning tarkibi.

5.1. Pul massasi tushunchasi, uning mohiyati va tarkibi.

B

iz oldin mavzularda ko’rganimizdek va keyingi mavzularda ham bevosita ko’rib o’tadigan pul nazariyalariga ko’ra, pul taklifidagi o’zgarishlar foiz stavkasi va inflatsiya darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Iqtisodiyotga ta’siri tufayli pul taklifini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Uni kim nazorat qiladi? Uni o’zgarishiga nimalar sabab bo’ladi? Uni yaxshilash

uchun qanday tarzda nazorat qilish kerak? Ushbu va keyingi bo'limlarda pul taklifi jarayonini maxsus asoslar orqali izohlab beramiz va yuqoridagi savollarga javob berib o'tamiz.

Pul massasi- yuridik va jismoniy shaxslarga hamda davlatga tegishli bo'lgan naqd va naqdsiz ko'rinishdagi pul mablag'larining yig'indisidir.

Pul muomlasini tashkil qilish va tartibga solish bir nechta omillarga asoslanadi:

1. Ana shunday muhim omillardan biri pul-tovar munosabatlarining mavjudligi hisoblanadi.
2. Yana bir omil pul mablag'larining tovarsiz harakatlanishi hisoblanadi.
3. Pul muomlasining meyoriy huquqiy asoslarining mavjudligi.
4. Pul muomalasini tashkil qiluvchi va tartibga soluvchi institutlarning mavjudligidir. Odatda pul muomlasini Markaziy bank tomonidan tashkil qilinadi va tartibga solinadi. Lekin pul muomnalasini tashkil qilishda bank tizimining 2-chi pog'onasida turuvchi tijorat banklari rol o'ynaydi.

Pul taklifi jarayonini tushunishning birinchi bosqichi banklardagi depozitlarni o'rganish hisoblanadi, chunki depozitlar pul taklifining katta tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuda banklarning depozit siyosati va ular bilan bog'liq operatsiyalari yoritilgan.

Pul taklifi jarayonidagi 3 ta asosiy subyektlar:

1. Markaziy bank-hukumat vakili hisoblanib, bank tizimini nazorat qilishga va monetar siyosatni tashkil etishga javobgar; AQShda Federal Zaxira Tizimi.
2. Banklar (depozitariy institutlar)- aholi va tashkilotlardan deposit qabul qiluvchi va qarz beruvchi tashkilotlar: tijorat banklari, kredit assotsiatsiyalari, maxsus jamg'arma banklar va kredit uyushmalari.
3. Depozitorlar-banklarga depozit qo'ygan yuridik va jismoniy shaxslar.

Ushbu 3 subyektning orasida Markaziy bank asosiy rolni o'ynaydi.

Fed.ning operatsiyalari va monetar siyosati uning balansida, aktivlar va majburiyatlar holatida aks etadi. Hozir biz pul taklifi jarayonini tushuntirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni keltiramiz[57].

Federal Zaxira Tizimi	
Aktivlar	**Majburiyatlar**
Qimmatli qog'ozlar Moliyaviy institutlarga berilgan qarzlar	Muomaladagi valyuta Zaxiralar

Majburiyatlar

Balansdagi 2 ta majburiyat ya'ni muomaladagi valyuta va zaxiralar Federal Zaxiraning monetar majburiyatlari hisoblanadi. Ular pul taklifining muhim qismi hisoblanadi chunki ularning birini o'sishi yoki ikkalasining ham o'sishi pul

[57] Federal Rezerv bakansi yoki undagi elementlar haqida ushbu kitobning ilova qismida yoki quyidagi web sahifadan topishingiz mumkin: www.peaisonglobaleditions.com/mishkin

taklifining o’sishiga sabab bo’ladi. Federal Zaxiraning Monetar majburiyatlari va hukumat xazina majburiyatlari monetar baza hisoblanadi. Bunda davlat xazina majburiyatlari umumiy bazaning 10%idan kam ulushga ega[58].

1. Muomaladagi valyuta. Ya’ni Federal Zaxira tomonidan chiqarilgan va aholini qo’lida bo’lgan pullardir. Depozitariy institutlardagi pullar ham Federal Zaxiraning majburiyati hisoblanadi lekin balansning zaxira qismida joylashgan.

2. Zaxiralar. Barcha banklar Federal Zaxiralar tizimi (Fed)da depozit sifatida o’z hisob raqamlariga egadirlar. Zaxiralar Feddagi depozit hisobraqamlaridan hamda bank kassalaridagi naqd pullardan tashkil topadi. Zaxiralar banklar uchun aktiv, Federal Zaxira uchun passiv hisoblanadi, chunki banklar istalgan paytda zaxiralar uchun to’lov talab qilishlari mumkin va Federal Zaxira o’z majburiyatini qoplash uchun Federal Zaxira notalari to’lab boradi. Keyinchalik ko’rib o’tishimiz mumkinki, zaxiralarning oshishi depozitlarning ko’payishiga va buning natijasida pul taklifining oshishiga olib keladi.

Umumiy zaxiralar 2 ta kategoriyaga ajratilishi mumkin: Federal Zaxira tomonidan qat’iy talab asosida saqlanishi kerak bo’lgan zaxiralar (majburiy zaxira), banklar tomonidan ixtiyoriy tarzda saqlanishi mumkin bo’lgan qo’shimcha zaxiralar (ortiqcha zaxira). Masalan, Fedning talabi bo’yicha depozitar tashkilotdagi depozitlarning har bir dollari uchun uning ma’lum qismi (misol uchun, 10 sent) zaxira sifatida shakllantirilishi kerak. Ushbu qism (10%) majburiy zaxira nisbati deb ataladi.

Aktivlar

Federal Zaxira buxgalteriya balansidagi 2 turdagi aktivlar ikki sabab bo’yicha eng muhim aktivlardan hisoblanadi. Birinchisi, aktiv moddalaridagi o’zgarishlar zaxiralar va pul bazasining o’zgarishiga olib boradi va natijada pul taklifi miqdoriga ham ta’sir ko’rsatadi. Ikkinchidan, ushbu aktivlar (davlat qimmatli qog’ozlari va Federal kreditlar) majburiyatlar (foiz to’lanmaydigan muomaladagi pullar, va zaxiralar)ga nisbatan balandroq foiz stavkalarida bo’lganligi sababli, Federal Zaxira har yili milliardlab dollarlar yig’ib oladi, chunki uning aktivlari kattagina daromad keltirsa, passivlari aytarli xarajat talab qilmaydi. Federal Zaxira foydasining ko’pgina qismini federal hokimiyatga qaytarishiga qaramay, u qolgan qismini ham arzirli sabablarga xarajat qilmaydi.

1. Qimmatli qog’ozlar. Aktivlarning ushbu kategoriyasi AQSh G’aznachiligi tomonidan chiqarilgan qimmatli qo’g’ozlarning Federal Zaxiradagi qismini va ko’zda tutilmagan holatlar (16-bo’limda aytib o’tilganidek) hamda boshqa qimmatli qog’ozlarni qoplaydi. Federal Zaxiraning bank tizimini zaxira bilan ta’minlashining birlamchi usuli undagi qimmatli qog’ozlarni sotib olish va shu orqali ulardagi aktivlardagi ulushini oshirish hisoblanadi. Federal Zaxiraning davlat yoki boshqa qimmatli qog’ozlardagi ulushining ortishi pul taklifining ortishiga olib keladi.

2. Moliya muassasalariga kreditlar. Federal Zaxiraning bank tizimini zaxira bilan ta’minlashining ikkinchi usuli – bu banklar va boshqa moliya tashkilotlariga

[58] Monetar bazani tahlil qilayotganimizda bu albatta xavfsiz hisoblanadi chunki qonuniy ta’qiqlarga ko’ra hukumat pul taklifida faol ishtirok etishi mumkin emas.

qarzlar berishidir. Ushbu muassasalar uchun, ular olgan qarzlar Federal Zaxiradan olingan mablag'lar yoki, boshqacha qilib aytganda, jalb qilingan zaxiralar bo'lib hisoblanadi. Ushbu mablag'lar moliya muassasalari balansida majburiyat sifatida namoyon bo'ladi. Moliya muassasalariga beriladigan qarzlarning ko'payishi ham pul massasi ko'payishining manbasi bo'lishi mumkin. Normal holatda, Federal Zaxira faqatgina banklarga qarz mablag'lari ajratadi va unga qo'yiladigan foiz stavkasi diskont stavka deb yuritiladi.

5.2. Muomala uchun zarur pul miqdorini aniqlash.

M uomala uchun zarur pul miqdori 2 asosiy yo'nalishda shakllanadi:

1. Pullarga bo'lgan aktiv talabning shakllanishi. Korxonalar o'zini faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ishlab chiqarishni kengaytiradi, ya'ni qo'shimcha sehlar quradi. Hamda yangi texnika va texnologiyalarni sotib oladi. Bunda qo'shimcha pul mablag'lariga talab yuzaga keladi.

2. Passiv talabning yuzaga kelishi. Aholi, kompaniyalar va davlat kelgusidagi jiddiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pul jamg'ara boshlaydi.

Pul muomalasi qonunlari muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash imkonini beradi.

I. Fisher tomonidan taklif qilingan pul muomalasi qonuni quyidagicha

M =P*Q/V

Bunda, M-muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori; P-tovarlar bahosi; Q-tovarlar hajmi; V-pulning aylanish tezligi.

Fisher aytadiki, tovar hajmi ko'rsatkichi o'rniga YaMM ko'rsatkichini qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki YaMMning o'sishi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini belgilaydigan asosiy omildir.

K. Marks tomonidan taklif qilingan pul muomalasi qonuni quyidagi ko'rinishga ega.

PM = (TXBS-KSTS+MKTS)/PBAT

PM-muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori,

TXBS-tovarlar va xizmatlar baholari summasi

KSTS-kreditga sotilgan tovarlar summasi

MKTS-muddati kelgan to'lovlar summasi

PBAT-pul birligining aylanish tezligi

Karl Marks aytadiki, tovarlar va xizmatlar bahosining o'sishi muomalada qo'shimcha pullarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Nobel mukofoti lauriyati M.Fridmen esa buni teskarisini aytadi. Muomalada ortiqcha pullarning paydo bo'lishi tovarlar va xizmatlar bahosining o'sishiga olib keladi.

Marks aytadiki mamlakatda tovarlarni kreditga sotish tizimini qanchalik rivojlangan bo'lsa pullarga bo'lgan talab shunchalik past bo'ladi.

Inflyatsiya yuqori bo'lgan sharoitda tovarlar va xizmatlar bahosining inflyatsiya ta'sirida o'sishi yuz beradi.

Natijada iqtisodchi olimlar tomonidan inflyatsiya darajasi hisobga olingan pul muomalasi qonuni taklif qilinadi.

M=Y*P/V

M-muomala uchun zarur bo’lgan pul miqdori

Y-real YaIM

P-Inflyatsiyaning o’sish sur’ati

V-pulning aylanish tezligi

XIX asr oxiri XX asr boshlarida dunyo bo’yicha veksel muomalasining jadal rivojlanishi yuz berdi. Bu iqtisodchi olimlarni pul muomalasi qonunlariga nisbatan munosabatini bir muncha o’zgartirdi. Chunki veksellar pulning to’lov vositasi funksiyasini bajara oladi. Shu sababli iqtisodchi olimlar pullarga bo’lgan talabni aniqlashda veksellar muomalasini hisobga olish kerak degan xulosaga keldi.

Pul massasini miqdoriy o’lchashga nisbatan 2 xil yondashuv mavjud:

1. Transaksion yondashuv- bunda pullarning to’lov vositasi va muomala vositasi sifatida harakatlanishi ko’zda tutiladi. Shu sababli transaksion yondashuvda pul massasining aktiv qismi e’tiborga olinadi.

2. Likvidli yondashuv – bunda pullar eng yuqori likvidli aktiv sifatida tan olinadi.

Aktivlarning likvidliligi deganda tez pulga aylana olish qobiliyati tushuniladi. Likvidli yondashuvga ko’ra nafaqat aktiv pullar balki passiv pullar ham pul massasining tarkibiga kiritiladi.

Pullarga bo’lgan talab nazariyalari ichida J.Keynsning likvidlikka ixlos qo’yish nazariyasi muhim o’rin egallaydi. Ushbu nazariyaga ko’ra pullarga bo’lgan talabni 3 ta omil belgilaydi:

1. Transaksion omil-tovarlar xomashyo va materiallar sotib olish uchun, ish haqi to’lash uchun kompaniyalarga pul kerak. Aholi ma’lum turdagi tovarlarni xarid qilish uchun, xizmatlar haqini to’lash uchun pul kerak. Shu sababli ular daromadlarining ma’lum qismini pul shaklida saqlaydilar.

2. Extiyotkorlik omili-aholi ham kompaniyalar ham kelgusida yuz berishi mumkin bo’lgan, ko’zda tutilmagan holatlardan himoyalanish maqsadida pul jamg’aradilar.

3. Spekulyativ (chayqovchilik) omili-aholi va kompaniyalar pul mablag’larini kelgusida daromad olish maqsadida aktivlar sotib olish uchun saqlaydi.

Nobel mukofotining laureati amerikalik iqtisodchi olim M.Fridman aytadiki pullarga bo’lgan talab o’zgarishi nominal daromadlarning o’zgarishi oqibatidir. Fozi stavkalri esa pullarga bo’l’lgan talabga sezilarli ta’sir ko’rsatmaydi. Shuning uchun u % stavkalarning elastikligini 0.15 ga teng deb oladi.

Fridmenning fikriga mko’ra pullarga bo’lgan talab iqtisodiy konyukturaning o’zgarishlariga bog’liq emas. Markaziy bank pul bazasi orqali pullarga bo’lgan talabga ta’sir ko’rsata oladi.

Ko’pchilik iqtisodchi olimlar pullarga bo’lagan talab va inflyatsiya o’rtasida bevosita aloqadorlik mavjuligini e’tirof etishgan. Masalan: Samuelson, Blansher, Fisher.

So’nggi yilarda dunyoning qator mamlakatlarida davlat byudjeti defitsiti va davlat qarzi darajasini o’sishi kuztilmoqda. Gretsiya, Ispqniya, Portugaliya va Irlandiyada davlat qarzi YaIM ga nisbatn 120-150% gacha etdi. Aslida me’yoriy darajada 60%dan ortmasligi lozim.

2014 yil yanvar holatiga ko’ra O’zbekistonda 17% tashqi qarz, 0.6% ichki qarz (YaIMga nisbatan).

Davlat byudjeti defitsitining YaIMga nisbatan aniqlanadigan me’yoriy darajasi 3% qilib belgilangan, 3% dan oshmasa normal defitsit hisoblanadi.

Pul taklifi – bu naqd va naqdsiz ko’rinishdagi pul mablag’larining muomlada paydo bo’lishi bo’lib, pulning to’lov vositasi va muomala funksiyalari bilan bog’liq.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqdsiz pul aylanmasining rivojlanganligi naqd pullar taklifining ko’payishiga to’sqinlik qiladi. O’tish iqtisodiyoti mamlakatlarida esa naqd pullarga bo’lgan talabning yuqori ekanligi naqd pullar taklifi oshishiga sabab bo’ladi. Taraqqiy etgan davlarda pullar taklifining tartibga solinishi, takomillashgan instrumentlar yordamida qo’llaniladi. Masalan AQShda Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalari orqali bank tizimidagi rtiqcha pullarni olib qo’yadi.

M.Fridman 1-chi bo’lib pul massasini aniqrog’I M2 pul agregati o’sish sur’atini nazorat qilishini taklif qilgan. Bu taklifning amaliyotga tadbiqi AQShda, Evropa malakatlarida pul massasining barqaror o’sish sur’atini ta’minlash imkonini bergan. Urushlar, tabiiy ofatlar pullar taklifining keskin osishiga sabab bo’ladi. Kapitallarning spekulyatib harakati pullar taklifida bevosita va kuchli ta’sir ko’rsatadigan omil hisoblanadi.

Davlatning pul aylanishiga ko’plab omillar ta’sir ko’rsatadi. Pul aylanishi tuzilmasi turli belgilar bo’yicha belgilanadi:

1) unda pullarning faoliyat yuritishi shakliga qarab. Ushbu belgiga qarab naqd pulsiz va naqd pullik pul aylanishini ajratish mumkin, chunki barcha pul belgilari u yoki boshqa shaklga ega bo’ladi;

2) ushbu pul aylanishi xizmat ko’rsatadigan munosabatlar tusiga qarab. Bu erda pul-hisob-kitob aylanishi, pul-kredit aylanishi, pul-moliya aylanishi ajratib ko’rsatiladi;

3) pul mablag’larining harakati yuz beradigan sub’ektlarga qarab. Ushbu tasnif bo’yicha quyidagilar ajratib ko’rsatiladi: pul mablag’larining yuridik shaxslar o’rtasida banklararo, banklarda aylanishi, yuridik va jismoniy shaxslar o’rtasidagi aylanish va, nihoyat, pul mablag’larining faqat jismoniy shaxslar o’rtasidagi aylanishi.

Shunga tegishlicha, iqtisodiyotda qo’llaniladigan pul aylanishi hajmiga ta’sir qiladigan omillarning muayyan guruhini ham ajratish mumkin. Barcha omillarni siyosiy, iqtisodiy va texnik omillarga ajratish mumkin. Tabiiyki, pul aylanishi tuzilmasini shakllantirishning iqtisodiy omillari asosiy ahamiyatga va bevosita ta’sir kuchiga ega bo’ladi. Bunday omillarga iqtisodiyotda ishlatiladigan pullar turlari, pul muomalasi tezligi, tovar aylanishi miqdori va shu kabilar kiradi. Binobarin, mavjud pul aylanishi miqdorlarini vujudga keladigan ehtiyojlarga muvofiq o’zgartirishga yoki pul aylanishining mavjud hajmlarini tovar aylanishining real ehtiyojlariga muvofiqlashtirishga faqat iqtisodiy uslublar vositasida pul aylanishi hajmiga ta’sir ko’rsatadigan ushbu omillar orqali ta’sir qilish mumkin.

Iqtisodiyotda faoliyat yuritadigan, faqat hukumatning ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan va iqtisodiyotning ehtiyojlaridan mustaqil pul mablag'lari miqdoridagi o'zgarishlar siyosiy omillar hisoblanadi.

Texnik omillar pul aylanishi tuzilishi va hajmiga faqat bilvosita ta'sir ko'rsatadi, lekin shunga qaramasdan, ularni hisobga olish zarur. Bunday omillarga u yoki boshqa hisob-kitobni o'tkazish uchun talab etiladigan vaqtni kamaytirish yoki hisob-kitobning o'zini amalga oshirishga imkon beradigan hisob-kitoblarning texnik vositalari kiradi. Masalan, bank plastik kartalariga xizmat ko'rsatuvchi texnik vositalarning keng ommalashganligi aholi o'rtasida ushbu to'lov vositasining ommalashuviga va, binobarin, naqd pulsiz pul mablag'larining qo'llanilishining oshishiga olib keladi. Naqd pulsiz pul mablag'lari qo'llanilishi chastotasining ko'payishi pul muomalasining umumiy tarkibida naqd pullarning kamayishiga va davlatning pul aylanishini tartibga solish asosiy uslublarining o'zgarishiga olib keladi.

Pul muomalasi – bu pullarning mamlakatning ichki iqtisodiy aylanishi, tashqi iqtisodiy aloqalar tizimidagi, tovarlar va xizmatlarning sotilishiga, shuningdek, uy xo'jaligidagi tovarsiz to'lovlarga xizmat ko'rsatadigan naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi harakatidir. Tovar ishlab chiqarish pul muomalasining ob'ektiv negizi bo'lib, undagi tovar olami tovarlarning ikki turiga: tovarlarning o'ziga va tovar-pullarga bo'linadi. Naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pullar yordamida tovarlar, shuningdek, ssuda va fiktiv kapitallarning muomalasi jarayoni amalga oshiriladi.

Siyosiy iqtisod matematik maktabining yirik vakili, Xalqaro iqtisodiy jamiyat asoschilaridan biri va uning birinchi prezidenti (1931-1933) **Irving Fisher** (1867-1947) pullarning miqdoriy nazariyasini zamonaviylashtirishga katta hissa qo'shdi. U «Pullarning xarid qilish kuchi. Uning belgilanishi va kredit, foizlar va tanazzullarga munosabati» asarida (1911) pullar massasi bilan tovarlar narxlari darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni formallashtirishga harakat qilgan. Tovarlar uchun to'langan pullar soni va sotilgan tovarlar narxlari summasi teng bo'lgani uchun buni I.Fisher tarozi bilan o'xshatmoqchi bo'ladi.

Matematik shaklda ayirboshlash tenglamasini quyidagi formula shaklida tasavvur etish mumkin:

M V = ∑PQ,

bunda: ∑ – (Expenditure) – pul muomalasining umumiy hajmi, ya'ni mazkur jamiyatda shu yil davomida tovarlarni sotib olish uchun sarflanadigan pullar summasi; M (Money) – ushbu jamiyatda yil davomida muomalada yurgan pullarning o'rtacha miqdori;

$$V = \frac{\sum PQ}{M}$$

(Velocity) – ne'matlarga ayirboshlashdagi pullar aylanishlarining o'rtacha soni; P – (Price) – ushbu jamiyatda sotib olinadigan har qanday alohida tovarning o'rtacha sotish narxi; Q – (Quantity) – tovarlarning jami xarid qilingan soni.

Fisher formulasi oltin tangali standart sharoitida to'g'ri bo'lmaydi, chunki u pullarning ichki qiymatini hisobga olmaydi. Biroq oltinga almashtirilmaydigan

qog’oz pullar muomala qiladigan sharoitda u muayyan mazmun kasb etadi. Bunday sharoitda pul massasining o’zgarishi, garchi I.Fisher tovarlar narxlarining mutloq elastikligini nazarda tutib, narx mexanizmini ma’lum ma’noda ideallashtirsa-da, lekin tovarlar narxlari darajasiga ta’sir ko’rsatadi. Boshqa neoklassiklar kabi Fisher ham mukammal raqobatchilikka asoslanadi va o’z xulosalarini monopoliyalar hukmronlik qiladigan va narxlar oldingi elastikligini jiddiy yo’qotgan jamiyatga tegishli deb biladi.

Ko’pgina hozirgi iqtisodchilar ayirboshlash tenglamasini bir xillik, ya’ni MV=PQ sifatida tavsiflashadi. Gap shundaki, bu tenglama D – T ayirboshlash harakatini tovarlarning jami massasiga daxldor deb ifodalashga urinadi, ya’ni tovarlar sotib olingan pullar summasi sotib olingan tovarlar narxlari summasiga teng (bir xil). Bu tavtologiyadir va shuning uchun ayirboshlash formulasi narxlarning umumiy (mutloq) darajasini izohlash uchun xizmat qila olmaydi.

Miqdoriy nazariya tarafdorlarining faraz qilishicha, ayirboshlash formulasi mutloq kattalikni EQ_o ni izohlaydi (ayni bir vaqtda talab va taklif mexanizmi undan nisbiy tebranishlarni izohlaydi).

I.Fisher va uning izdoshlari shunday nuqtai nazarga amal qilishgan. Ular pullarning aylanish tezligi (V) va ishlab chiqarish darajasi (Q) muomalada yurgan pullar miqdoriga (M) va narxlar darajasiga (P) bog’liq bo’lmasligini asoslashga urinishgan. Ular pullarning aylanishi tezligi avvalo demografik (aholining zichligi va hokazo) va texnik (transport vositalarining soni va sifati va hokazo) parametrlarga bog’liq bo’ladi, deb faraz qilishgan. Ishlab chiqarish darajasi esa asosan mehnat bozorida yuzaga kelayotgan shart-sharoitlar bilan belgilanib, narxlar darajasi va muomalada yurgan pullar soniga bog’liq bo’lmaydi. Shubhasiz, bozor xo’jaligi hukmronlik qiladigan sharoitda bunday qoidalar yaqqol noreal tus kasb etadi.

Qiymat konuni va uning muomala doirasida yuzaga chikish shakli - pul muomalasi konuni tovar-pul munosabati mavjud bulgan barcha ijtimoiy formatsiyalarga xosdir. kiymat shakllari va pul muomalasi tarakkiyot yo’lini taxlil kilayotib, KMarks pul muomalasining qonunini ochdi. Bu qonunga asosan momala vositasi funktsiyasini amalga oshirish uchun kerak bolgan pul miqdori aniklanadi.Metallik pul muomalasida muomaladagi pul miqdori stixiyali tarzda, pullarning xazina funktsiyasi yordamida tartibga solib turilgan: agar pulga ehtiyoj kamaysa, ortikcha pullar (oltin tanga) muomaladan xazinaga okib o’tishi kuzatilgan va aksincha. Shunday qilib, muomaladagi pul miqdori kerakli darajada ushlab turilgan. Keyinchalik muomalaga banknotalar chiqarilishi va ularning metallar (oltin yoki kumush)ga erkin almashinishi muomalada pulning ortiqcha miqdori bo’lishini inkor etadi.

Agar muomalada oltinga almashinmaydigan banknotalar yoki qog’oz xar (xazina biletlari) amal qilsa, u xolda naqd pul muomalasi pul muomalasi konuniga asosan amalga oshadi.

Qog’oz pullar miqdori muomala uchun kerak bo’lgan oltin pullarning miqdoriga teng bo’lganda pul muomalasida xech kanday salbiy jarayonlar yuz bermaydi. Yuqorida ko’rsatilgan talab pulning barqarorligini ta’minlaydi,

shuningdek pul muomalasi mavjud bo’lgan barcha ijtimoiy formatsiyalarda o’z kuchiga ega.

Pul muomalasi qonuni muomaladagi tovarlar massasi, ularning narxi va pul muomalasi tezligi orasidagi iqtisodiy aloqadorlikni aks ettiradi**.**

Shunday qilib, muomala uchun zarur bo’lgan pul miqdoriga ishlab chiqarish rivoji va shart-sharoitlariga bog’lik bo’lgan turli xil omillar ta’sir ko’rsatadi. Muomala uchun zarur bo’lgan pul miqdoriga ta’sir ko’rsatuvchi asosiy omil - bu tovarlar va xizmatlar baxosi xisoblanadi. Pul miqdori tovarlar va xizmatlar bahosiga tug’ri proportsional, ya’ni tovarlar va xizmatlar baxosining oshishi muomalaga ko’p pul chiqarishni talab qiladi. Pul miqdoriga ta’sir qiluvchi ikkinchi omil - bu pulning aylanish tezligi xisoblanadi. Bu omil pul miqdoriga teskari ta’sir ko’rsatadi. Odatda pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur bo’lgan pul mikdori shuncha kam talab qilinadi va aksincha.

Muomala uchun zarur bo’lgan pul miqdorini boshqarishda shu muxim omillarga aloxida e’tibor berilishi zarur.

Muomala uchun zarur bo’lgan pul miqdorini kamaytirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish muximdir. Bular: iste’mol kreditni rivojlantirish; kreditga qanchalik ko’p tovar sotilsa, shuncha kam miqdorda pul muomalada kerak bo’ladi;

- naqd pulsiz xisob - kitoblarning rivojlanishi;
- pullarning muomala tezligini oshirishga erishish va boshqalar.

Xar bir jamiyat pul muomalasi qonuni talablarini xisobga olgan xolda ish yuritishi zarur. Chunki pul muomalasi qonunining buzilishi pul barqarorligiga putur etkazadi. Bu xolda muomalaga chiqarilgan pul miqdori muomaladagi tovarlar baxosidan oshib ketishi, ya’ni inflyatsiya bo’lishiga, yoki pul ocharchiligiga (etishmovchiligiga) olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pul muomalasini ushlab turish shart-sharoitlari va qonuniyatlari ikki omilning o’zaro ta’siri bilan, ya’ni:

Xo’jalikning pulga bo’lgan ehtiyoji va amalda pullarning muomalaga borib tushishi bilan belgilanadi. Amaliyotda ko’proq uchraydigan hol bu oborotda xo’jalikka kerak bo’lganidan ko’proq pulning bo’lishidir. Bu albatta, pulning qadrsizlanishiga - pul biriligining xarid qobiliyatining tushushiga olib keladi.

5.3. Pul multiplikatori va uning mohiyati.

Pul bazasi (yuqori-kuchga ega pullar) muomaladagi pullar C qo’shilgan bank tizimidagi umumiy zaxira R ga teng bo’ladi. Pul bazasi MB quyidagicha ifodalanadi:

MB = C + R

Federal Zaxira 100 miilion $ mablag’ni 100 million $ qiymatdagi qimmatli qog’ozlarga ayirboshladi, va uning buxgalteriya yozuvi quyidagicha

bo’ladi:

Federal Zaxira Tizimi	
Aktivlar	**Maiburivatlar**
Qimmatli qog’ozlar +$100 m	Muomaladagi pullar +$100 m

Ushbu holatda ochiq bozor siyosatining sof ta’siri shundaki, zaxiralar o’zgarmas bo’lsa, muomaladagi pullar ochiq bozordagi sotib olish tufayli $100 millionga ko’payadi. Natijada, ochiq bozordagi savdo tufayli pul bazasi $100 millionga ko’payadi, zaxiralar esa yo’q.

Tahlil shuni ko’rsatadiki, **ochiq bozordagi savdoning zaxiralarga ta’siri obligatsiyalarni sotuvchining o’z daromadini depozitda yoki pul ko’rinishida saqlashiga bog’liq bo’ladi**. Agar daromad pul ko’rinishida saqlansa, ochiq bozorning zaxiralarga hech qanday ta’siri bo’lmaydi; agar daromad depozitda saqlansa, zaxiralar ochiq bozordagi savdo miqdoricha ko’payadi.

Shunga qaramay, obligatsiyalarni sotuvchi o’z daromadini xoh pul ko’rinishida saqlasin, xoh depozitda, ochiq bozorning pul bazasiga ta’siri doimo bir xilda bo’ladi (pul bazasi sotuv miqdorida ko’payadi). Ochiq bozor sotuvining zaxiralarga ta’siri uning pul bazasiga ta’siridan ko’ra bir muncha noaniqdir.

Ochiq bozor sotuvi. ***Agar Federal Zaxira $100 millionlik obligatsiyalarini banklarga yoki nobank shaxslarga sotsa, pul bazasi $100 millionga kamayadi. Masalan, Federal Zaxira obligatsiyalarini jismoniy shaxslarga naqd pulga sotadigan bo’lsa, sotib oluvchilar $100 million mablag’larini $100 millionlik qimmatli qog’ozga almashtiradi. Va uning buxgalteriya yozuvi quyidagicha bo’ladi:***

Nobank shaxslar	
Aktivlar	**Maiburivatlar**
Qimmatli qog’ozlar +$100 m Naqd pul -$100 m	

Federal Zaxira, o’z navbatida, egaligidagi qimmatli qog’ozlarni $100 millionga kamaytirdi va, shuningdek, ogligatsiyalar uchun to’lov sifatida naqd pul qabul qilib olish orqali o’z monetar majburiyatlarini kamaytirdi, natijada muomaladagi pul miqdori $100 millionga

kamaydi.

Federal Zaxira Tizimi	
Aktivlar	**Maiburivatlar**
Qimmatli qog'ozlar -$100 m	Muomaladagi pullar -$100 m

100 million dolarlik miqdordagi obligatsiyalarning ochiq bozor operatsiyalari orqali sotilishi natijasida zaxiralar doimiy holda saqlanadi deb faraz qilinsada, pul bazasining tang miqdorlarda kamayib borishiga erishiladi. Obligatsiyalarning xaridorlari banklar sanalganda, yoki sotib oluvchilar mahalliy bankda chekli deposit hisobraqamiga ochilgan cheklar orqali obligatsiyalarni sotib olish uchun pul to'lovlarini amalga oshirish jarayonida T korinishdagi buxgalteriya hisobraqamlari ustidan nazoratni amalga oshirish pul bazasida 100 million dollar miqdordagi kamayishga sabab bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, kamayish darajasi sodir bo'lib turadi, chunki zaxiralar darajasi 100 milion dollargacha tushib boradi.

Ochiq bozor savdolari va xaridlari tahlilidan quyidagi xulosa kelib chiqishi mumkin: Pul bazasi bo'yicha ochiq bozor operatsiyalarining natijasi zaxiralarga oid bo'lgan natijalarga qaraganda ancha aniqroq tasavvur qilinadi**.** Shuning uchun Federal Zaxira Tizimi pul bazasini ochiq bozor operatsiyalari orqali samaraliroq tartibga sola oladi, chunki bunda natijaga zaxiralarni nazoratga olish orqali erishish samarasiz sanaladi.

Ochiq bozor operatsiyalari davlat obligatsiyalari singari boshqa aktivlar shaklarida ham amalga oshirilishi mumkin va bunda ham shu kabi operatsiyalar pul bazasiga bir xil ta'sir eta oladi.

Depozitdan valyutaga o'tish (almashinish)

Federal zaxira tizimi ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirmasa, depozitning valyutaga almashinishi bank tizimida zaxira miqdori darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shunday bo'lsada bu kabi almashish pul bazasiga ta'sir o'tkazmaydi, chunki buning sababi FZT zaxiralarga qaraganda pul bazasiga ko'proq e'tibor qaratadi hamda nazoratni amalga oshiradi.

Masalan, faraz qilaylik rodjestvo bayrami arafasida aholi sovg'alar sotib olishni nazarda tutib ko'proq valyutaga ehtiyoj sezsin hamda naqd shaklda 100 million dolarlik pulni schyotidan yechib olsin. Nobank aholining T hisobvarag'i quyidagi natijaga ega bo'ladi:

Nobank aholi	
Aktiv	**Passiv**
Chekli depozitlar -100 million dollar	
Valyuta +100 million dollar	

Bank tizimi 100 million dollarlik depozitlaridan ayriladi va 100 million dollarlik zaxiralarga ega bo'ladi.

Bank tizimi	
Aktiv	**Passiv**
Zaxiralar -100 million dollar	Chekli depozitlar +100 million dollar

FZT nuqtayi nazaridan olib qaralganda, aholining harakat natijasi shuni anglatadiki, 100 million dollarlik qo'shimcha valyuta aholi qo'lida aylanayotgan bir vaqtda bank tizimida zaxiralar miqdori 100 million dollargacha tushib ketadi. FZT ning T hisobi quyidagi ko'rinishga keladi:

Federal Zaxira Tizimi	
Aktiv	**Passiv**
	Muomaladagi valyuta miqdori +100 million dollar
	Zaxira miqdori -100 million dollar

FZTning pul majburiyatlariga oid sof ta'siri yuvilib ketadi; pul bazasiga aholining naqd pulga bo'lgan talabining oshishi orqali ta'sir ko'rsatilmaydi. Ammo bundan farqli o'laroq, zaxiralar bunga ta'sir etadi. Zaxira miqdorining bir oz miqdorlarda o'zgarib turishi depozitdan valyutaga o'tish yoki aksincha hollarda vujudga keladi. Shunga o'xshash holatlar pul bazasi uchun tatbiq etilmaydi, chunki u muqarrar o'zgaruvchi sifatida olinadi.

Moliyaviy institutlarga qarzlar.

Mazkur bobda pul bazasidagi o'zgarishlar ochiq bozor operatsiyalarining natijasi sifatida sodir bo'lishi ko'rib o'tildi. Shuni ham aytib o'tish zarurki, FZT moliyaviy institutlarga qarz berganda ham pul bazasiga ta'sir ko'rsatiladi. FZT 100 million dollarlik qarzni milliy bankka taqdim etganda bank qarzning tushumlaridan kelgan 100 million dollarlik zaxiralarni kreditlaydi. Bank tizimi va FZTning balansida o'zgarishlar quyidagicha bo'ladi:

Bank tizimi		Federal zaxira tizimi	
Aktiv	**Passiv**	**Aktiv**	**Passiv**
Zaxiralar +100 mln dollar	Qarz (FZT dan olingan) +100 mln dollar	Qarz (FZT dan olingan) +100 mln dollar	Zaxiralar +100 mln dollar

FZTning monetar majburiyatlari yuqoridagi misolimizga ko'ra 100 million dollarga oshdi va pul bazasi ham shunga mos ravishda ko'tarildi. Agar bank FZTdan olingan qarzlarni to'lasa, bunga mos ravishda u FZT dan olingan 100 million dollarlik qarzni yopa oladi va balans quyidagi ko'rinishga keladi:

Bank tizimi		Federal zaxira tizimi	
Aktiv	**Passiv**	**Aktiv**	**Passiv**

Zaxiralar -100 mln dollar	Qarz (FR dan olingan) -100 mln dollar	Qarz (FR dan olingan) -100 mln dollar	Zaxiralar -100 mln dollar

FZT monetar majburiyatlari bo'yicha sof ta'siri va shundan kelib chiqib pul bazasi ham 100 million dollarga qisqardi. Pul bazasidagi o'zgarish FZTdan olingan qarzlar bilan bir xil miqdorda o'zgarganini ko'rishimiz mumkin.

Bankning zaxiralari tekshiruv bayon etilishiga bog'liqdir. Bank tizimidagi zaxiralarning umumiy miqdori bo'yicha joriy sof natija(shuningdek, pul bazasi) Federal Zaxira Tizimi(Fed)ning tekshiruv-kliring jarayonidagi holatidan kelib chiqadi va suzuvchanlik deb ataladi. AQSh Ga'znachiligi tijorat banklardan depozitlarni Fed da mavjud hisobraqamga jo'natganda, Fedda G'aznachilik depozitlarining oshishiga olib keladi, bu esa 11 Bobda ko'rsatib o'tilgan banklardan depozitlar chiqib ketishini yuzaga keltiradi, shuning uchun bank tizimidagi zaxiralarning va pul bazasining kamayishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, suzuvchanlik(ba'zi bir tasodifiy holatlar ta'sir qilishi mumkin, masalan cheklar qancha tezlikda to'lovga qabul qilinishi mumkin) hamda Fed dagi G'azna depozitlari(AQSh G'aznasining harakatlaridan kelib chiqib belgilanadi) har ikkisi ham pul bazasiga ta'sir ko'rsatadi, lekin ular Fed tomonidan boshqarilmaydi. Fed ning ishlariga aralashish bo'yicha AQSh G'aznachiligi qarorlari xorijiy valyuta orqali pul bazasiga ta'sir qiladi.

Bizning yuqoridagi mulohazamiz pul bazasining ikkita asosiy xususiyatlarini ifodalaydi: ochiq bozor operatsiyalari va moliyaviy institutlarga qarz berish. Bunda ochiq bozor operatsiyalaridagi xarajatlar yoki sotish hajmi Fed tomonidan qimmatli qog'ozlardagi dilerlarga buyruqlar berish bilan to'liq boshqariladi, markaziy bank buni mustaqil belgilay olmaydi, shuning uchun Fed dan olish mumkin bo'lgan qarzning miqdorini oldindan aytib bera olmaydi. Federal Zaxira diskont stavkani qo'llaydi(banklarga beriladigan kreditlarning foiz stavkalari), keyin banklar qarz berish haqida o'z qarorlarini qabul qilishadi. Fed ning diskont stavkasi ta'sir qiladigan qarz berish miqdori to'liqligicha Fed tomonidan boshqarilmaydi; banklarning qarorlari ham ahamiyatga ega.

Shuning uchun, biz pul bazasini ikkita tarkibiy qismga bo'lishimiz darkor: biri Fed tomonidan to'liq nazorat qila olinadi hamda boshqasi biroz kamroq boshqariladi. Biroz kamroq boshqariladigan tarkibiy qism bu Fed tomonidan bazaning kreditlar orqali boshqarilishidir. Bazaning qoldiq qismi(qarz berilmagan pul bazasi) Fed ning nazorati ostidadir, chunki uning natijalari asosan ochiq bozor operatsiyalaridan kelib chiqadi[59]. Qarz olinmagan pul bazasidan Feddan olingan qarzlarni ayirish orqali kelib chiqadi, u qarzga olingan zaxiralar deb ataladi:

$$\mathbf{MB_n = MB - BR}$$

[59]Odatda Fedning balans hisobvarag'idagi boshqa moddalar(veb saytda muhokama qilingan) berilmagan qarz pul bazasiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki ularning qarz olinmagan bazaga ochiq bozor operatsiyalariga bog'liqdir, hamda kichik va oldindan aytsa bo'ladigan holatda, boshqa moddalar qarz berilmagan pul bazasi kabi Fed ga qiyinchilik keltirmaydi.

Bunda: MB_n=qarzga olinmagan pul bazasi
MB=pul bazasi
BR= Fed dan qarzga olingan zaxiralar

Fed tomonidan boshqarilmaydigan omillar(masalan, Fed bilan suzuvchanlik va G'aznachilik depozitlari) qisqa muddatli variatsiyalarni yuzaga keltiradi va hafta kabi qisqa muddatda pul bazasidagi o'zgaruvchanlikning asosi bo'lishi mumkin. Biroq, ushbu o'zgaruvchanliklarni oldin aytib berish mumkin hamda ochiq bozor operatsiyalari bo'yicha muvofiqlashtirilishi mumkin. Fed bilan suzuvchanlik va G'aznachilik depozitlari qisqa muddatli o'zgaruvchanlikni yuzaga keltirsada, bunda ular pul bazasini boshqarishni qiyinlashtiradi, ular Fed tomonidan aniq boshqarishga to'sqinlik qila olmaydi.

Ko'p depozitni tashkil etish: oddiy model

Bizning bu bobda yoritilgan Federal Zaxiraning pul bazasini boshqarishi haqidagi tushunchalarimiz bilan, bizda depozitlar qanday tashkil etilishini tushuntirish vositalari mavjud., Bank tizimini Fed ortiqcha 1$ bilan ta'minlaganda, depozitlar ushbu miqdorga nisbatan ko'proq ortadi-bu jarayon ko'p depozitni tashkil etish deb ataladi.

Depozitni Tashkil Etish: Bitta Bank

Tasavvur qiling Birinchi Milliy Banki tomonidan 100 million dollarlik ochiq bozor xarajati olib borildi. Fed Birinchi Milliy Bankning qimmatli qog'ozlarini 100 million dollarga sotib olgach, bank zaxiralari 100 million dollarga ortganini biladi. Bu ortiqcha zaxiralar bilan bank nima qilishini bilish uchun taxmin qilish mumkinki bank orticha zaxiralarni saqlashni xohlamaydi, u bu orqali kichik summada daromad ko'radi. Biz tahlilni T-buxgalteriya shaklida boshlaymiz:

Birinchi Milliy Bank

Aktivlar	**Majburiyatlar**
Qimmatli qog'ozlar -$100 m	
Zaxiralar +$100 m	

Chunki bankda tekshiriladigan depozitlar o'smagani sababli, talab qilinadigan zaxira o'zgarmay qoladi hamda bank uning qo'shimcha 100 million dollari unda 100 million dollar ortiqcha zaxira ko'payganini anglatadi. Ortiqcha zaxiralarda bank 100 million dollarlik miqdorga teng kredit berdi deb tasavvur qilamiz, Bank kredit berganida, u qarz oluvchining hisob raqamini tekshirishni ko'rib chiqadi hamda, ushbu jarayonni bu hisobraqamga joriy qiladi. Bu holatda, bank o'z balans hisobvarag'ini majburiyatlarini tekshiriladigan depozitda 100 million dollarga oshirish orqali muvofiqlashtiradi hamda o'z aktivlarini 100 million dollarlik kredit orqali oshishiga olib keladi. Natijada quyidagi T-buxgalteriya yuzaga keladi:

Birinchi Milliy Bank

Aktivlar	**Majburiyatlar**

Qimmatli qog'ozlar -$100 m Tekshiriladigan depozitlar +$100 m
Zaxiralar +$100 m
Kreditlar +$100 m

Joriy balans hisobvarag'i holatida, Birinchi Milliy Bank hozir ham ortiqcha zaxiralarga ega hamda qo'shimcha kreditlar berishni xohlashi mumkin. Biroq, bu zaxiralar bankda uzoq vaqt davomida saqlanib qolmaydi.

Qarzga oluvchi sotib olishni cheklar yordamida amalga oshirganda,cheklar boshqa bankda jamg'arilib boriladi va 100 mln zaxira birinchi milliy bankdan chiqib ketadi. Natijada, bankda oldingiga qaraganda ko'proq hajmda qarz berish imkoniyati bo'lmay qoladi.

Birinchi milliy bankning so'ngi T-buxgalteriyasi

Aktivlar	**Majburiyatlar**
Qimmatli qog'ozlar -$100 mln	
Kreditlar +$100 mln	

Zaxiralarning $100 millionga ko'payishi birinchi milliy bankda $100 mln qo'shimcha kreditga aylantirgan, boshqa bank bilan kelishuv natijasida kelgan qo'shimcha $100 mln depozit qo'shilgan. Birinchi milliy bank hisob raqamida yozilgan barcha cheklar naqd pulga aylantirgandan ko'ra banklarda jamg'arib boriladi, chunki biz shuni xulasa qilamizki, odamlar qo'shimcha valyutani saqlab turishni xohlashmaydilar. Keling endi boshqa banklarda bu depozitlar bilan bog'liq nimalar sodir bo'lishi haqida so'z yuritamiz.

Depozitlarning hosil bo'lishi: bank tizimi

Tahlilni soddalashtirish uchun, shuni hisoblaymizki, birinchi milliy bankning krediti orqali jalb qilingan $100 mln depozit A bankda jamg'arildi, va bu bankda hech qanday bank ortiqcha zaxira saqlab turmaydi. A bankning T-buxgalteriyasi quyidagicha bo'ladi:

A BANK	
Aktivlar	**majburiyatlar**
Zaxiralar +$100 mln	Chekli depozitlar +$100 mln

Agar majburiy zaxira foiz stavkasi 10 % bo'lsa, bu bank majburiy zaxira uchun 10 mln dollar to'lab berishi kerak va 90 mln dollar qo'shimcha zaxira qoladi. Chunki A bank (xuddi birinchi milliy bankka o'xshab) ortiqcha zaxira saqlab turishni xohlamaydi. To'liq hajmda kreditga berib yuboriladi. A bankning krediti va chekli depozitlari 90 mln dollargacha ko'payadi, lekin qarzga oluvchilar chekli depozitlarni 90 mln dollarini sarflaganda, ular va A bankdagi zaxiralar shuncha summaga kamayadi. Sof natija A bankning T –schoti quyidagi ko'rinishga keladi:

A bank			
Aktivlar		**Majburiyatlar**	
Zaxiralar Kreditlar	+$ 10 m + $ 90 m	Chekli depozitlar	+ $100 m

Agar A bankka qarzga oluvchi tomonidan sarflangan pul boshqa bankda, misol uchun B bank, jamg'arilgan 90 mln dollar qarzga bersa, B bankni T- schoti quyidagicha bo'ladi:

B bank			
Aktivlar		**Majburiyatlar**	
Zaxiralar	+ $ 90 mln	Chekli depozitlar	+ $ 100 mln

Bank tizimidagi chekli depozitlar boshqa 90 mln dollarga oshdi, jami o'sish 190 mln dollar ya'ni A bankdagi 100 mln dollar qo'shilgan B bankdagi 90 mln dollar. Haqiqatda, A va B bank o'rtasidagi farq jami deposit hajmini oshirishda bir xil natijaga erishish uchun muhim hisoblanmaydi. Agar A bankdan qarz oluvchilar A bankda jamg'argan biror bir shaxsga chek yozsa, depozitlarda bir xil o'zgarish sodir bo'lar edi. B bank uchun T-schot A bankka ariza berganda va uning chekli depoziti 190 mln dollar miqdorga oshgan bo'lar edi.

B bank keyinchalik balansini o'zgartirishni xohlaydi. 90 mln dollarni 10 % ini saqlashi kerak(9mln dollar) majburiy zaxira sifatida va ortiqcha zaxirada 90 mln dollarni 90 % i (81 mln dollar) bo'ladi. Shu summani kreditga berishni amalga oshiradi. B bank qarz oluvchilarga 81 mln dollar kreditni taqdim etadi. B bankning T-schoti quyidagicha bo'ladi:

B bank			
Zaxiralar	+$9 m	Chekli depozitlar	+$90 m
Kreditlar	+$81 m		

B bankdan qarzdorlar sarflagan 81 mln dollar boshqa bir C bankda jamg'arilsin. Natijada, bank tizimidagi oshgan zaxiralar dastlabki 100 mln dollardan, tizimdagi chekli depozitlar umumiy o'sish summasi 271 mln dollargacha yetdi($100+$90+$81mln).

Quyidagilar ham xuddi shu sabab, agar barcha banklar ularning ortiqcha zaxiralarining to'liq hajmda kreditga berilsa, chekli depozitlardagi yangi o'sib borish davom etaveradi(A,B, C… banklarda) birinchi jadvalda ko'rsatilganidek. Shuning uchun, zaxiralardagi dastlabki 100 mln dollar o'sishidan depozitlardagi umumiy o'sish 1000 mln dollarga yetadi.

Agar bank ortiqcha zaxiralarni qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishni tanlasa, natija bir xil bo'ladi. Agar A bank uning ortiqcha zaxirasi va kredit berishdan ko'ra sotib olgan qimmatli qog'ozlari olinganda edi, uning T-hisobvarag'i quyidagicha ko'rinishda bo'lar edi:

A bank	
Aktivlar	**Majburiyatlar**
Zaxiralar +$ 10 m Qimmatli qog’ozlar + $ 90 m	Chekli depozitlar +$ 100 m

5.1-jadval

Pul multiplikatorining pul massasiga ta’siri

Depozit jalb qilish (10% zaxira talabiga va $100 milion zaxirada oshadi)			
Bank	**Depozit ortishi**	**Qarzning ortishi**	**Zaxiraning ortishi**
Birinchi milliy	0.00m	100.00m	0.00
A	100.00m	90.0m	10.00
B	90.00m	81.00m	9.00
C	81.00m	72.90m	8.10
D	72.90m	65.61m	7.29
E	65.61m	59.05m	6.56
F	59.05m	53.14m	5.91
…	…	…	…
Jami banklar	1000.00m	1000.00	100.00m

Bank 90 million dollarlik qimmatli qog’oz sotib olsa, bank qimmatli qog’oz sotuvchilarning 90 million yozadi, bu bank B ga 90 million deposit bo’lib qaytadi. jarayoni xuddi avvalgiday bo’ladi. Shunday qilib bank ortiqcha pulini kreditga beradimi yoki qimmatli qog’oz sotib oladimi, buning depozid ko’payishiga ta’siri bir xil.

Siz hozir bitta bankning butun bank tizimidan farqli ravishda deposit jalb qilishini ko’ramiz. Chunki bitta bank faqatgina o’zining ortiqcha zaxiralariga teng miqdorda deposit jalb qila olishi mumkin, uning o’zi mustaqil bir necha marta depozitni ko’paytira olmaydi. Bankning bir o’zi ortiqcha zaxiralaridan ko’p miqdorda kredit bera olmaydi, chunki bank boshqa banklarga berilgan kreditlardan yaratilgan depozit kabi zaxiralarini yo’qotadi. Shunga qaramasdan, bank tizimi bir necha marta depositni ko’paytirishi mumkin, chunki bitta bank ortiqcha zaxiraini yo’qotgani bilan individual bank bu zaxiraidan ayrilishi mumkin, lekin bu zaxira bank tizimidan chiqib ketmaydi. Shuning uchun har bir bank kredit beradi va deposit jalb qiladi, zaxiralar boshqa bankda ham yo’lini topadi, ular qo’shimcha kredit berishda va qo’shimcha deposit yaratishda qo’l keladi. Ko’rib turganingizdek, bu jarayon depozitning bir necha marta oshishida dastlabki zaxira natijalarining oshishiga qadar davom etadi.

Bank tizimi zaxiralarining oshishidan bir necha depozitlarning oshishi **oddiy deposit ko'paytuvchisi dep** ataladi. [60]Bizning misolimizdagi 10% li zaxira nisbatidan oddiy deposit ko'paytuvchisi 10 ligi kelib chiqadi. Umumiy qilib aytganda, oddiy deposit ko'paytuvchisi ulushni (masalan, 10=1/0.10) ifodalovchi ikki tomonlama zaxira nisbatiga teng bo'ladi, shuning uchun depozitning bir necha marta ko'payishi quyidagicha formula orqali ifodalanadi:

(1) $\Delta D=\frac{1}{rr}*\Delta R$

Bu yerda

ΔD-bank tizimidagi jami depozitlarni o'zgarishi

rr-talab qilingan rezarv nisbati (misol uchun 0.10)

ΔR -bank tizimi zaxiralarining o'zgarishi (misol uchun 100million$)

Oddiy depozit ko'paytmasining kelib chiqishi

Ushbu formula to'g'ridan to'g'ri algebradan foydalanish orqali hosil qilinishi mumkin. Biz depozit o'zgarishi yoki zaxira o'zgarishidan bir xil javob olishimiz mumkin.

Bizning vazifamiz jami ortiqcha zaxiraga kiruvchi duch kelgan zaxirani olish emas, balki RR ya'ni jami talab qilinadigan zaxira bank tizimidagi jami zaxirani-R ga teng deganidir:

RR=R

Jami talab qilinadigan zaxira esa talab qilinadiga zaxiraning jami deposit ko'paytmasiga teng:

RR=rr*D

Birinchi tenglikka RR ni o'rniga rr*D ni olib kelib qo'yamiz.

rr*D=R

Ikki tomonni ham rr ga bo'lib quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$D=\frac{1}{rr}*R$

Deltani o'zgarishlarni ko'rsatish uchun qo'shib (1) formulani hosil qilamiz:

$\Delta D=\frac{1}{rr}*\Delta R$

Bu formulani hosil qilish bizga depozitni bir necha marta hosil qilishning boshqacha yo'lini o'rgatadi, chunki u bitta bank tizimini tekshirganimizdan ko'ra butun bank tizimini birdan tekshirib jarayonni tezlashtiradi. Bank tizimi uchun deposit jalb qilish faqatgina ortiqcha bank zaxirasi 0 ga teng bo'lganda to'xtatiladi, bu bank tizimida bankning jami talab qilingan zaxiralari jami zaxiralarga teng bo'lganda kuzatiladi RR=R. rr*D RR bilan o'rnini almashtirganda R=rr*D hosil bo'ladi va bu bizga qanday baland depozitlar talab qilingan zaxiralarning jami zaxiraga teng bo'lishiga olib kelishini ko'rsatadi. Shunday qilib berilga zaxiralar depositga teng bo'ladi, ya'ni zaxira depozitni ta'minlaydi.

Bizning misolimizda, majburiy zaxira stavkasi 10%. Agar zaxira 100 million dollarga oshadigan bo'lsa , umumiy majburiy zaxira ham 100 million dollarga

[60] Bu ko'paytma Keynsning qadamma qadam tahlildan hosil qilinadigan ko'paytmasi bilan chalkashtirilmasligi kerak. U ko'paytma inverstitsiyaning daromadi oshishi bilan bog'liq bo'lsa, oddiy depozit ko'paytmasi depozitning oshishi rezervning oshishi bilan bog'liq.

oshirish uchun chekli depozitlar 1000 millionga oshirilishi kerak. Agar chekli depozitlarda aytaylik 900 million dollarga oshadigan bo'lsa , majburiy zaxiradagi oshish 90 million dollar zaxiradagi 100 million o'sishdan kam bo'ladi, demak ortiqcha zaxira bank tizimini qayeridadir mavjud bo'ladi. Banklar hozirgi kunda ortiqcha zaxiralarni qo'shimcha kreditlar berish yoki yangi depozitlar yaratishga sarflaydi: bu jarayon barcha zaxiralar ishlatilib bo'linguncha davom etadi, qaysiki chekli depozitlar 1000 million dollargacha oshiriladi.

Shuningdek biz umumiy (Birinchi Milliy Bankni o'z ichiga oladi) bank tizimining T-buxgalteriyaga qarab ham ko'rishimiz mumkin, natijalar quyidagi jarayonda:

Bank tizimi	
Aktivlar	**Majburiyatlar**
Qimmatli qog'ozlar -$100 m	Chekli depozitlar +$1000 m
Zaxiralar +$100 m	
Kreditlar +$1000 m	

Ortiqcha zaxiralarni kredit berish orqali bartaraf etish jarayoni bank tizimini(Birinchi Milliy Bank va Banklar A, B, C, Dva h.k) depozitlar 1000 million dollargacha yetganda 1000 million dollar miqdorigacha kredit beraolishini ifodalaydi. Bu usulda 100 million dollar zaxira 1000 million depozitni taminlaydi .

Oddiy modelning kamchiliklari

Bizning ko'proq deposit yaratish modelimiz ko'rsatadiki FZT zaxira normasini va majburiy zaxira stavkasini o'rnatish orqali chekli depozitlar ustidan butunlay nazorat qila oladi. Agar A bankning 90 million dollar kreditidan daromadi deposit qilinmasa, ammo valutada saqlansa, bank B ga hech qanday deposit qo'yilmaydi va deposit yaratish jarayoni to'xtaydi. Pul massaidagi umumiy ko'payish Birinchi Milliy Bank A bankka depozitga qo'yilgan kreditlari umumiy miqdori 190 million dollar, yuqorida hisoblangan oddiy modeldagi 1000 million dollarga qaraganda ancha kam, tomonidan yaratilgan boshlang'ich 100 million dollar deposit hamda valutadagi 90 million dollar ko'payishidir. Boshqacha qilib aytganda, depozitlar ko'payganda valutadagi pullar deposit ko'payganek ko'paymaydi. Shunday qilib, agar kreditdan keladigan daromadlar banklarga depozitga qo'yish o'rniga valuta boyliklarini oshirish uchun ishlatilsa, pul taklifi oshmaydi.

Yana bir vaziyatda esa banklar ortiqcha zaxiralari to'liq qiymatda kredit bermaydi yoki qimmatli qog'ozlar sotib olmaydi. Agar A bank o'zini ortiqcha 90 million zaxirasini hammasini B bankka deposit qo'ymasdan va bu deposit yaratish jarayonini to'xtatadi. Umumiy o'zgarish depozitlarda 100 million dollar bo'lishi mumkin bizning misolimizdagi 1000 million emas. Chunki agar banklar o'zlarini

ortiqcha zaxiralarini qisman yoki to'liq ushlab turishga qaror qilsa, depozitlar yaratishni oddiy modelida taxmin qilingan depositlarni oshishi sodir bo'lmaydi.

Bizning misolimiz ko'rsatadiki Federal zaxira pul massasi va depozitlar hajmiga tasir qiladigan yagona subyekt emas.

Pul taklifiga ta'sir qiluvchi omillar

Taqriz oddiy modeli pul taklifiga ta'sir qiluvchi omillar muhokamasini qanday yoritilishini ko'rsatadi. Keling har bir omildagi o'zgarishlarni qolganlarini o'zgarmas qilgan holda ko'rib chiqamiz.

Qarz bo'lmagan pul bazasidagi MB_n o'zgarishlar

Bobda oldinroq ko'rsatilgandek, federal zaxira ochiq bozori xaridlari qarz bo'lmagan pul bazasini oshiradi va uning ochiq bozor sotuvlari uni kamaytiradi. Qolgan o'zgaruvchilar o'zgarmagan holda, ochiq bozor xarididan kelib chiqadigan MB_n dagi o'sish pul bazasi va zaxiralarini ko'paytiradi, shu sababli ko'p sonli depositlarning yaralishi va pul taklifini oshiradi. Shunigdek, ochiq bozor sotuvining MB_n ni qisqartirishi pul bazasi va zaxiralar miqdorini kamaytiradi, bu orqali ko'p sonli deposit qisqarishi va pul taklifining kamayishiga olib keladi. Qutidagi xulosa kelib chiqadi: **Pul taklifi Qarz bo'lmagan mablag'lar MB_n bilan ijobiy bog'lanishga ega.**

Federal zaxiradan olingan qarz zaxiralari MB dagi o'zgarishlar

Fedral zaxiradan olingan qarzlarning oshishi qo'shimcha qarz zaxiralarini ta'minlaydi va shu orqali pul bazasi va zaxiralari miqdorini oshiradi, shu sababli ko'p sonli deposit yaralishi sodir bo'ladi va pul taklifi ortadi. Agar banklar diskont kreditlar darajasini qisqartirsa, boshqa barcha o'zgaruvchilar o'zgarmagan holda, pul bazasi va zaxira miqdori tushadi va pul taklifi ortadi. Natija: **Pul taklifi federal zaxirada olingan qarzlar zaxirasi bilan ijobiy bog'lanishga ega.**

Majburiy zaxira stavkasidagi ozgarishlar

Agar chekli depozitlar bo'yicha majburiy zaxira stavkasi oshsa, pul bazasidek boshqa barcha o'zgaruvchilar o'zgarmagan holda, ko'p sonli deposit oshishining qisqarishini ko'rdik va shu sababli pul taklifi tushadi. Agar, boshqa tarafdan, majburiy zaxira stavkasi tushishi, ko'p sonli depozit ko'payishi yuqori bo'ladi va pul taklifi oshadi.

Bundan shunday natija kelib chiqadi: **Pul taklifi majburiy zaxira stavkasi bilan salbiy bog'lanishga ega.** Avvallari Federal zaxira tizimi bazida majburiy zaxirani pul taklifi hajmiga tasir qilish maqsadida qollagan. Biroq , yaqin yillarda , majburiy zaxira pul multiplikatori va pul taklifini hisoblashdagi ta'sirini yo'qotdi, buni keying paragraflarda ko'rib o'tamiz.

Valyuta zaxirasidagi o'zgarishlar

Oldin ta'kidlanganidek, Chekli depozitlar valyutadan farqli ravishda turli xil ko'payishlarni boshdan o'tqazadi. Shu sababli, qachonki chekli depozitlar valyutaga almashtirilganda , valyuta zaxirasi bazasi va qolgan o'zgaruvchilar o'zgarmagan holda, keskin o'zgarish sodir bo'lib, pul taklifi tarkibi turli kengayishlarni boshdan kechiradi. Turli kengayishlar umumiy darajasi qisqaradi va pul taklifi tushadi.

Otiqcha zaxiralardagi o'zgarishlar

Banklar ortiqcha zaxirani ushlab turishni ko'paytirganda, o'zining yo'nalishida foyda keltirmaydigan depozitning hosil bo'lishiga sabab bo'lgan holda, pul massasining kamayishi natijasida bu zaxiralar umuman kreditga berilmaydi. Boshqa tarafdan banklar kamroq zaxiraga pul o'tkazsa qarzlar va depozitlar ko'payadi va pul massasi ham oshadi. Pul massasi ortiqcha zaxiraga teskari bog'langan. 11 sahifani eslaydigan bo'lsak ortiqcha zaxira saqlaydigan bank uchun eng foydali tarafi shundaki ular deposit oqimida yuzaga keladigan yo'qotishlarga qarshi sug'urtani shakllantiradi. Bu shuni anglatadiki, fular bankning muvaffaqiyatsizliklaridan boshqa korporatsiyalardan va Feddan qarz olish, qimmatli qog'ozlarni sotish, qarzlarni jalb et ish xarajatlaridan qochgan holda depozitlar oqimida bank tajribasini o'tkaza olish qobilyatiga ega bo'ladi. Agar banklar deposit oqimini oshishidan qo'rqsa, (Bunda, agar kutilgan deposit oqimi oshsa) ular yo'qotish ehtimolligiga qarshi ko'proq sug'rta qilishni xohlaydi va ortiqcha zaxira ko'payadi.

Pul massasi jarayoni qisqacha tafsiloti

Bizda hozir pul massasi jarayoni namunasi bor. Bu jarayonda Federal zaxira, depozitorlar va banklar to'g'ridan to'g'ri pul massasiga ta'sir o'tkazadi. 1 jadvalda pul massasi yo'qorida muhokama bo'lgan 5 ta faktorga javob beradi va quyida qisqacha synopsis berilgan (5.2-jadval).

O'zgaruvchilar asosiy ta'sir kuchiga ega ishtirokchilari orqali guruhlanadi. Masalan Federal zaxira birinchi ikkita o'zgaruvchini nazorat qilish orqali pul taklifiga ta'sir ko'rsatadi. Depozitorlar pul taklifiga valyutani saqlab turish qarori orqali ta'sir qiladi, banklar esa Federal zaxiradan qarz olish va zaxirlarni oshirish qarori orqali pul taklifiga ta'sir ko'rsatadi.

Pul multiplikatori

Pul multiplikatori – muomaladagi pul massasini qay darajada o'sib yoki kamayib borayotganini ko'rsatadi.

$$PM = \frac{\mathbf{M2}}{\mathbf{Pul\ bazasi}}$$

Yuqoridagi bo'limdan olingan ma'lumotlar pul taklifi jarayoni ishlashini tushunish uchun yetarli. Matematikaga tayanadigan odamlar yuqoridagi natijalarni pul multiplikatori nazariyasi orqali farqlaydi, …….. bu pul bazasini o'zgarishining pul taklifiga ta'sirini ifodalaydi. Pul taklifi, pul multiplkatori va pul bazasi o'rtasidagi aloqadorlik quyidagi tenglik orqali ifodalanadi:

M=m x MB

Pul multiplikatoridagi m bizga shuni anglatadiki pul bazasining ko'payishi pul taklifidan kelib chiqadi. Chunki pul multiplikatori doim birdan katta, mos pul bazasi qadri yuqori pul, quyidagi mazmunni bildiradi: pul bazasini 1 $ ga o'zgarishi pul taklifini 1 $ dan ko'proqqa o'zgarishiga olib keladi.

5.2-jadval

Pul massasiga ta’sir etuvchi omillar tahlili

pul massasi qaytimi				
ishtirokchi	**o'zgarish**	**o'zgaruvchanlik**	**pul massasi qaytimi**	**Sabab**
Fed	qarz olinmagan pul bazasi	↑	↑	depozit yaratilishi uchun pul bazasining ko'payishi
bankla r	talab qilingan zaxira ko'rsatkichi	↑	↓	depozit kengayishini kam miqdorda ko'payishi
	qarz olingan zaxiralar	↑	↑	depozit yaratilishi uchun pul bazasining ko'payishi
depozitorlar	ortiqcha zaxiralar	↑	↓	depozit hzlarning kamayishiosil bo'lishi va qar
	valuta jamg'armasi	↑	↓	depozi kengayishini kam miqdorda ko'payishi

Pul multiplikatorining hosil qilinishi

Faraz qilaylik pulni ushlab turish istagi C va ortiqcha zaxira ER chekli depozitlar D bilan proporsional; boshqacha qilib aytganda, bu o’zgaruvchilarning chekli depozitlarga ta’siri tenglamada o’zgarmas, bundan quyidagi ifoda kelib chiqadi:

C= { C/ D } = valyuta stavkasi

E = { ER/D } = ortiqcha zaxira darajasi

Biz depozitorlar istaydigan valyuta stavkasi banklar hohlaydigan ortiqcha zaxira stavkasi va Federal bank o’rnatadigan majburiy zaxira stavkalari pul multiplikatori m ga qanday ta’sir qilishini ko’rsatadigan formula tuzamiz. Biz quyidagi tenglik bilan taklif modelini yaratib olishni boshlaymiz:

R = RR + ER

Bu formula bank sistemasidagi zaxiralarning umumiy miqdori R majburiy zaxiralar RR va ortiqcha zaxiralar ER larga teng ekanligini ko’rsatadi.

Majburiy zaxirani umumiy miqdori majburiy zaxira stavkasi rr ning chekli depozitlar miqdori D ko’paytmasiga teng.

RR = rr x D

Birinchi tenglikda rr x D ni RR ning o’rniga qoysak bank sistemasidagi chekli depozitlarning miqdoriga zaxiralar va ular taminlay oladigan ortiqcha zaxiralarni bog’lovchi tenglikka kelamiz:

R = (rr + D) + ER

Bunda asosiy nuqta shuki, federal majburiy zaxira koeffisentini birdan past qilib o'rnatadi. Shuning uchun bir dollarlik zaxira bir dollarlik depozitdan ko'proq miqdorni ta'minlay oladi va bunda depozilar lko'ayishii sodir bo'ladi.

Buni qanday amaliyotda ishlashini ko'rib o'tamiz. Agar ortiqcha zaxiralar nol holatda (ER = o) bo;lsa majburiy zaxira stavkasi rr = 10 qilib belgilanadi va bank sistemasidagi chekli depozitlarning darajasi 800 mlr dollar, bu depozitlarni qoplash uchun kerak bo'ladigan zaxiralar miqdori 80 mlr dollar bo'ladi (= 0.10 * 800 dollar). 80 mlrd dollar zaxiralar chekli depozitlardagi mablag'larni 10 marotabagacha ta'minlay oladi chunki ko'paygan deposit holati yuzaga keladi.

Pul bazasi valyuta C va rezevlar V larning yig'indisidan tashkil topgani uchun biz pul bazasidagi pullarning chekli depozitlari va valyutani darajasini ko'rsatuvchi tenglikka erishishimiz mumkin. Tenglikning ikki tomoniga valyuta C ni qo'shamiz:

MB = R+C =(rr*D) + ER + C

Valyuta c={ C/D} va ortiqcha zaxiralar ko'rsatkichi E = { ER/D} ni hisobga olib pul multiplikatori frmulasini tuzish uchun oxirgi tenglikni qayta yozib olamiz, C ni c x D va ER ni e x D shaklida.

MB = (rr + D) + (e x D) + (c x D) = (rr + e + c) x D

Keyin tenglikni ikki tomonini qavs ichidagi muddatga bo'lamiz

$$D = \frac{1}{rr+e+c}$$ x MB

Chekli depozitlar va valyuta yigindisi hisoblangan pul taklifidan foydalanib va kata C ni c x D kabi belgilab

M = D + (c x D) = (e + c) x D

Uchinchi tenglikdagi D ning orniga boshqa tengligini qo'ysak

$$M = \frac{1+c}{rr+e+c}$$ x MB

Biz ikkinchi tenglikdan ifodani ajratib olamiz. Ko'rib turganinggizdek MB ga ko'payayotgan nisat bu pul multiplikatoridir:

m= $$M = \frac{1+c}{rr+e+c}$$

bu depozitorlar c o'rnatgan valyuta stavkasining, banklar o'rnatgan ortiqcha zaxira stavkasi e va CB o'rnatadigan majburiy zaxira stavkalarining fuksiyasidir.

Pul multiplikatorining mazmuni

Pul multiplikatori nimani anglatishini seziz uchun, haqiqiy sonlardan sonli misolni tuzib olamiz.

O'zgaruvchilar quyidagilar:

Rr – majburiy zaxira stavkasi = 0.10

C – muomaladagi pul = 400 mlrd dollar

D – chekli deposit = 800 mlrd dollar

ER – ortiqcha zaxiralar = 0.8 mlrd dollar

M – pul taklifi (m 1) = C + D = 1200 mlrd dollar

Bu sonlardan valyuta stavkasi c ni va ortiqcha zaxira stavkasi e ni hisoblab olamiz:

$$c=\frac{400\ mlrd\ dollar}{800\ mlrd\ dollar}=0.5$$

$$e=\frac{0.8\ mlrd\ dollar}{800\ mlrd\ dollar}=0.001$$

natijada pul multiplikatori quyidagicha :

m =2.5

Pul taklifi ma`lum omillar o`zgatrishiga o`z navbatida javob qaytaradi.

Pul bazasi $MB=MB_n+BR$ ekanligini e`tiborga olib, 2tengalamani qaytadan yozishimiz mumkin:

$M=m\ x\ (MB_n+BR)$ (6)

Ushbu barcha natijalarni biz 1-yig`ma jadvalda algebraic tarzda ko`rsatishimiz mumkin, bu esa omillar o`zgarishiga pul taklifi jarayonini ifodalaydi.

6-tenglamadan ko`rish mumkinki, $MB_n$ yoki BRdagi o`sishi M pul taklifining ko`p miqdorda o`sishiga olib keladi, chunki pul multiplikatori m 1dan kattadir. Ko`rishimiz mumkinki, majburiy zaxira me`yoridagi o`sish pul taklifini kamaytiradi, bunda –tenglamadan foydalanibtopilgan pul multiplikatori qiymati asosida hisoblash mumkin, bu rrning 10%dan 15%ga oshgan misolda ko`rish mumkin (barcha boshqa o`zgaruvchilar o`zgarmay qolgan). Shunda, pul multplikatori 2.5dan quyidagicha kamayadi,

$$m=\frac{1+0.5}{0.15+0.001+0.5}=\frac{1.5}{0.651}=2.3$$

xuddi kutganimizdek 2.5 dan kam.

Shunga o`xshash ravishda, o`z misolimizda ko`rishimiz mumkinki, valyutadagi o`sish pul taklifini kamaytiradi, bu c 0.50 dan 0.75 ga ortganida pul multiplikatorining o`zgarishi orqali hisob kitob qilinadi. Shunda pul multiplikatori 2.5 dan quyidagigacha kamayadi:

$$m=\frac{1+0.75}{0.1+0.001+0.75}=\frac{1.75}{0.851}=2.06$$

Natijada ko`rishimiz mumkinki, qo`shimcha zaxiralardagi o`sish pul taklifini kamaytiradi, bu esa e ning 0.001dan 0.005ga ortganida pul multiplikatori o`zgarishi orqali hisob kitob qilinadi. Bunda pul multiplikatori 2.5dan quyidagicha kamayadi:

$$m=\frac{1+0.5}{0.1+0.005+0.5}=\frac{1.5}{0.605}=2.48$$

Bo`lib qo`yish kerakki, qo`shimcha zaxiralar 5 barobarga oshsa ham, pul multiplikatorda bor yo`gi ozgina kamayish kuzatiladi, xolos. Ushbu kamayish kichik, chunki so`nggi yillarda e juda kichik bo`lgan sh sabab undagi o`zgarishlar pul multiplikatoriga kichik miqdorda ta`sir etgan . Lekin, shunday vaqtlar bo`lganki, masalan, Buyuk Depressiya va so`nggi moliyaviy inqirozlarda, ushbu ko`rsatkich anch ayuqori bo`lgan davrda uning pul taklifi va pul multiplikatoriga ta`siri ham sezilarli bo`lgan.

1930-1933 yillarda Buyuk Depressiya Bank inqirozi va pul taklifi.

Biz pul taklifi modelini o`tmishda pul taklifida ro`y bergan yirik o`zgarishlarni tushunish uchun qo`llaymiz. Ushbu bo`limida, yuqoridagi modelni AQSH tarixidagi eng dahshatli inqiroz , Buyuk depressiya davrida yuz bvergan

monetary o`zgarishlarni tushuntirish uchun qo`llaymiz. 9-bo`limda bank inqirozlari haqida suhbatlashdik, va ko`rdikki, ular kredit bozorida assimetrik ma`lumotlar bilan bo`gliq muammolarni yuzaga keltirib, iqtisodiyotga jiddiy ta`sir ko`rsatadi, huddi Buyuk Depressiya paytiga o`xshab.

1-rasm, 1929-1933 yillarda bankrotlikka uchragan tijorat banklaridagi depozuitlar hajmini ifodalash orqali Buyuk Depressiya vaqtidagi bank inqirozini tasvirlab bergan . Milton Fridman va Anna SHvartz , 1867-1960 yillardagi , AQSHning Monetar Tarixi nomli kitoblarda 1930-yillardagi bank inqirozini bank inqirozini quyidagi tasvirlagan:



5.1-rasm. 1929-1933 yillarda muvaffaqiyatsiz tijorat baklarining depozitlar.

1930-yil oktabrdan oldin, bankrotlikka uchragan banklardagi depozitlar 1929-yilga nisbatan ko`p edi. 1930-yil noyabrda, ularning miqdori 1921-yil noyabrning boshiga nisbatan 2 barobar ko`p edi. Bir qancha shtatlardagi , Missuri , Indiana, Illinois, Ayova, Arkanzas, Shimoliy Karolinadagi banklarning bankrotlikka uchrashi , banklardagi depozitlarni pul qilib olishga bo`lgan harakatlarning keng tarqalishiga olib keldi. Ushbu vahima , depozitorlar, ayniqsa, qishloq joylaridagi depozitorlar orasida keng tarqaldi hamda 20-asrdagi bank tizimidagi eng kata ko`ngilsizlikka sabab bo`ldi. 1930-yil noyabrda 180 million $ lik depozitlar bilan 256ta bank inqirozga uchragan bo`lsa, Dekabrga kelib 370 million $ depozitlarga ega 532 ta bankkacha ko`tarildi, eng dramatic bankrotlik 11dekabrda yuz berib , 200 million $lik depozitlarga ega AQSH banki inqirozga yuz tutdi .

1929 yildan 1933 yilgacha muvaffaqiyatsiz tijoratb banklarining miqdori Buyuk Depressiya davomida bank sohasi inqirozining asoratidir.

Portfolio tanlovi nazariyasi birinchi banklarning inqirozi boshlanishi bilan depozitorlar o’zlarining qo’yilmalarini chekli depozitlardan valutaga (o’zlarinini bankdagi hisob raqamlaridan valutani olish orqali) o’tkazishlarini xoxlar va c o’sar edi. Bizning oldingi ortiqcha zaxira stavkasi tahlilimiz deposit chiqimida natijaviy ko’tarilish banklarga o’zlarini ortiqcha zaxira stavkasi e ni ulkan miqdorda orishi

orqali himoya qilishiga ta’sir etishini ko’rsatadi. Ushbu ikkala bashorat 2-rasmda sana bo’yicha sanasi bo’yicha ko’rsatilgan. Birinchi bank sarosimasi davrida (1930 yil, oktabr – 1931 yil, yanvar) valuta kursi c yuqorilashni boshladi. Ko’proq tushirish 1930 yilning noyabr oyidan 1931 yilning yanvar oyigacha ikki baravardan ko’proq oshgan ortiqcha zaxira stavkasining tabiatidir.

Pul taklifi modeli e va c oshganda pul taklifi qisqarishini bashorat qiladi. Ko’p sonli deposit hajmini kengayishining umumiy darajasi susayishishida c natijalaridagi o’sish kichkina pul multiplikatorga va pul taklifida susayish boshlaydi. E dagi o’sish depozitlarni ushlab turish imkoniga egazaxiraning miqdorini kamaytiradi va hamda pul taklifini tushishiga ta’sir ko’rsatadi.



5.2-rasm. 1929-1933-yillarda ortiqcha zaxira stavkasi va valuta stavkasi

Birinchi bank sarosimasi davomida (1930 yil, oktabr – 1931 yil, yanvar) c ko’tarilishni bochladi, bu vaqtda e 1930 yil noyabrdan 1931 yil yanvarigacha ikka baravardan ko’proq oshgan. Keyinchalik, bank inqirozining davom etishi ikkala c da ham va e da ham o’sishni davom etishiga olib bordi

Bank sohasining inqirozi 1931 yildan 1933 yilgacha davom etdi va bizning model davomi orqali namuna bashorat qilindi: c o’sishni davom etdi va e ham. Inqirozning oxiriga kelib 1933 yilning martida pul taklifi (M1) 25%ga susaydi – butun Amerika tarixidagi eng katta susayish – va bu millatning eng yomon iqtisodiy qisqarishi bilan bir vaqtda ro’y bergan. Ushbu susayish monetar baza darajasida 20% o’sishga qaramay sodir bo’lganligi ajoyibdir . Monetar baza c dagi o’zgarishlar qanchalik muhimligini ifodalaydi va a ning bank sarosimasi davomida pul taklifining aniqlanishida bo’lishi mumkin. Bu yana Fedning monetary siyosatni boshqarish kasbi omonatchi va bank tabiati orqali murakkablashishi mumkin.

2007-2009-yillarda Moliyaviy Inqiroz va Pul Taklifi

Oldingi mavzu pul taklifi va monetar bazaning doim birgalikda harakatlanmasligini ko’rsatadi.

Oxirgi moliyaviy inqirozlar, 4-shaklda ko’rsatilganidek, moliyaviy inqirozlarni to`xtatish uchun qar bershning yangi qulayliklari yaratilganligi va Federal Zaxiraning mol mulklarni sotib olganligi natijasida pul bazasi 200 %dan

oshgan bir paytda pul taklifi 25%dan kamroqqa ko`tarilgan. Namunaviy pul taklifi buni qanday izohlaydi?



FIGURE 3 **M1 and the Monetary Base, 1929–1933**

The rise in *e* and *c* after the onset of the first bank crisis led to a decline in the money supply even though the monetary base rose.

Source: Milton Friedman and Anna Jacobson Schwartz, *A Monetary History of the United States, 1867–1960* (Princeton, NJ: Princeton University Press, 1963), p. 333.

5.3.-rasm. 1929-1933 yillarda

3-rasm 2007-2009 yillar davri uchun bo`lgan muomaladagi valyuta c va zaxiradagi ortiqcha valyuta c ni ko`rsatadi. Biz shuni ko`rishimiz mumkinki , muomaladagi valyuta bu davr mobaynida kamayib ketgan, bizning namunviy pul taklifida pul taklifini oshirish tavsiya qilinadi, chunki u bankdagi pulni (depozitni) umumiy hajmini oshiradi.

Har qanday holatda ham c dagi pasayishning natijalari zaxiradagi qo’shimcha valuta c dagi kutilmagan ko’tarirlish orqali boshqariladi, m bu davr mobaynida 500 dan ortiq omillarni yuzaga keltiradi.M1 va pul bazasi C dagi o’sish uchun izoh shundan iboratki,banklar ulkan mablag’ni zaxirada ushlab turishga harakat qiladi, chunki Federal Zaxira bu zaxiralar uchun foiz to’lashni boshlaydi va bu foizning qiymati koeffitsiyentini oshiradi,hamda banklar mablag’ evaziga ularni qarzga berib tura oladi.

4. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda pul agregatlari va ularning tarkibi.

B

izning pul ta’minotida pul bazasidagi o’sishiga qaramasdan, ko’paytiruvchi pul kamayishini va faqatgina uncha katta bo’lmagan miqdorda ta’minlovchi pulning oshishini taxmin qiladi.[61]

Pul agregatlari – bu pul massasini muqobil o’lchash imkoniyatini beruvchi ko’rsatkichlardir. Xalqaro amaliyotda quyidagi pul agregatlaridan keng foydalaniladi:

1. M0 – bu agregatni hisoblash uchun Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan ya’ni emissiya qilingan barcha naqd pullar summasidan banklar va korxonalarning kassasidagi naqd pullarning qoldig’I ayirib tashlanadi. Tarqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyotida M0 hisobga olinmaydi.

2. M1 = M0 + talab qilib olinadigan depozitlar + yo’l cheklari. Ayrim mamlakatlarda kredit kartalari ham M1 tarkibiga kiritiladi.

3. M2 = M1 + muddatli depozitlar + jamg’arma depozitlar. M2 hisoblashda summasi uncha katta bo’lmagan muddatli va jamg’arma depoztlar olinadi.

4. M3 = M2 + yirik summadagi muddatli depozitlar + deposit sertifikatlari + jamg’arma sertifikati.

5. M4(L- AQShda) = M3 + davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari + korporativ obligatsiya + jamg’arma obligatsiyalar + bank akseptlari + pul bozori o’zaro fondlari paylari.

Taniqli olim F.Mishkenning fikriga ko’ra Markaziy bank pul agregatlarining qisqa muddatli davriy orqalidagi o’sishini e’tiborga olmasligi lozim, chunki pul agregatlarining qisqa davrda o’sishi mavsumiy omillar ta’sisirida bo’ladi. Shuning uchun pul massasining yillik o’sish sur’atlarini nazorat qilish lozim.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning moliya statistikasida pul massasini aniqlashda quyidagi asosiy pul agregatlari to’plamidan (guruhidan) foydalaniladi:

M-1 agregati – muomaladagi naqd pullar (banknotalar, tangalar) va joriy bank schyotlaridagi mablag’larni o’z ichiga oladi;

M-2 agregati – M-1 agregati va tijorat banklaridagi muddatli va jamg’arma qo’yilmalaridan (to’rt yilgacha) tarkib topgan;

M-3 agregati – o’z ichiga M-2 agregati va ixtisoslashgan kredit muassasalaridagi jamg’arma qo’yilmalarini kiritgan;

M-4 agregati – M-3 agregati hamda yillik tijoriy banklarining depozitli sertifikatlaridan iborat.

AQSh da pul massasini aniqlash uchun 4 ta pul agregati, Yaponiya va Germaniyada – 3 ta, Angliya va Frantsiyada – ikkita pul agregatidan foydalaniladi.

Pul massasi tarkibi va dinamikasini tahlil qilish Markaziy bank tomonidan to’g’ri pul-kredit siyosati olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiya Federatsiyada muomaladagi jami pul massasi hisob-kitobi uchun quyidagi pul agregatlari qo’llaniladi.

M-O agregati – naqd pullar;

M-1 agregati – M-O agregati va hisob-kitob, joriy va boshqa schyotlar (maxsus schyotlar, kapital qo’yilmalar schyotlari, akkreditiv va chek schyotlari,

[61] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited pp. 2013. pp. 379-403

mahalliy byudjet schyotlari, byudjet, kasaba, uyush-malari, jamoat va boshqa tashkilotlarning schyotlari, davlat sug'urta mablag'lari, uzoq muddatga kreditlash fondi) dagi mablag'lar ti-jorat banklariga qo'yilmalar va jamg'arma banklaridagi talab qilib olinadigan depozitlarning yig'indisiga teng;

M-2 agregati – M-1 agregati va jamg'arma banklaridagi muddatli qo'yilmalardan iborat;

M-3 agregati – M-2 agregati hamda depozitli sertifikatlar va davlat zayom obligatsiyalari yig'indisidan iborat.

Pul massasi tarkibini uning harakatiga qarab ikkiga bo'lish mumkin, ya'ni pul massasining aktiv qismi – bu pul mablag'larining xo'jalik faoliyatidagi turli xil shakldagi hisob-kitoblarni olib borish bilan bog'liq qismi va ikkinchisi passiv qism – jamg'ar-madagi pullar va hisob raqamlardagi qoldiqlar hisoblanadi.

Pul massasi naqd pullardan tashqari muddatli hisob raqamdagi mablag' va jamg'armalarni, depozit sertifikatlari, investitsion fondlarning aktsiyalarini o'z ichiga oladi. Pul massasining yuqoridagi elementlari «kvazi» - "qariyb pullar" deb ham yuritiladi. Kvazi - pullar likvid aktivlar bo'lib, ular tez orada pulga aylanishi mumkin.

O'zbekistonda pul massasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat.

M_0 – naqd pullar;

M_1 – M_0 + schyotlardagi pul qoldig'i + mahalliy byudjet mablag'lari + byudjet, jamoa va boshqa tashkilot mablag'lari;

M2 –M1 + tijorat banklaridagi muddatli jamg'armalar;

M3 – M2 + sertifikatlar + maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlari.

Pul agregatlari M1 va M2 ning bir-biridan farqi M2 ning o'z tarkibiga yaqin orada pulga aylanishi mumkin bo'lgan «kvazi» - qariyb pullarni olishdadir.

Pul massasining turli xil ko'rsatkichlarini ishlatish pul muo-malasi holatini tahlil qilishga turli tomonlardan yondashishga im-kon beradi.

Mamlakat miqyosida pul massasi hajmining o'zgarishi muomala-dagi pul massasining o'zgarishi natijasi va pulning aylanish tez-lashganligining natijasi bo'lishi mumkin.

Pulning aylanish tezligi – pul muomala va to'lov vositasi sifa-tida amal qilgandagi uning harakat ko'rsatkichidir. Uning miqdori ni hisoblash qiyin, shuning uchun uni hisob-kitob qilishda bil-vosita ma'lumotlardan foydalaniladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda asosan pul aylanish tez-ligi o'sishining ikki ko'rsatkichi hisoblanadi:

– daromadlar aylanmasi pulning muomalada bo'lish tezligi ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkich yalpi milliy mahsulot (yamm) yoki milliy daromadning pul massasiga, aniqrog'i M-1 yoki M-2 pul agregatiga nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich pul muomalasi va iqtisodiy rivojlanish jarayoni orasidagi o'zaro aloqadorlikni ko'rsatadi;

– to'lov aylanmasida pulning aylanuvchanlik ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkich joriy bank hisob raqamlari bo'yicha o'tkazilgan mablag'lar yig'indisining pul massasi o'rtacha qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Pulning aylanish tezligi o'zgarishi umumiqtisodiy (iqtisodiyot-ning davriy rivojlanishi, iqtisodiy o'sish, narxlar sur'atlari), ham to'la monetar (to'lov

aylanmasi tarkibi, kredit operatsiyalari va o‘zaro hisob-kitoblarning rivojlanishi, pul bozorida foiz stavka-larning darajasi va h.k. lar) omillariga bog‘liq.

Pul aylanishining tezlashuviga metall pullarning kredit pul-lar bilan almashishi, o‘zaro hisob-kitoblar tizimining rivojla-nishi, banklar ishiga EHMning kiritilishi, pullik hisob-kitob-larda elektron vositalarning ishlatilishi yordam beradi.

Pul qadrsizlangan hollarda iste’molchilar pullarining to‘lov qobiliyatini saqlab qolish uchun ko‘proq tovarlar ko‘proq xarid qiladilar. Bu esa pul aylanishini tezlashtiradi. Boshqa ko‘rsatkichlar o‘zgarmas bo‘lganida pul aylanishining tezlashishi pul massasi oshishini bildiradi.

6-mavzu. Pul tizimi: mazmuni, turlari va elementlari

REJA:

6.1. Pul tizimi va uning mazmuni.
6.2. Pul tizimining elementlari.
6.3. Pul tizimini tashkil qilish shart-sharoitlari. Pul tizimini tashkil qilish prinsiplari.
6.4. Pul tizimi shakllari va ularning evolyutsiyasi: bimetallizm; monometallizm; qog’oz va kredit pullari tizimi.
6.5. Xitoy pul tizimi.
6.6. Yevropa Valyuta Ittifoqi tashkil topishi, hamda yevroning muomalaga kiritilishi.

6.1. Pul tizimi va uning mazmuni.

Pul tizimi pul muomalasini tashkil etishning tarixiy jihatdan qaror topgan va qonun bilan mustahkamlab qo’yilgan shaklidir. Boshqacha aytganda, bu pul muomalasining aniq bir mamlakatda muayyan vaqt ichida qo’llaniladigan qoidalari va normalari majmuidir.

Milliy valyuta tizimi pul tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Pul mablag’lari iqtisodiyotda amal qiladigan shaklga qarab pul mablag’larining ikki turi: metall pullar muomalasi tizimi va pul belgilari muomalasi tizimi farqlanadi.

Metall pullar muomalasi tizimlari pullik tovar (oltin va kumush) bevosita muomalada bo’lgan sharoitda amal qilgan. Bunda mazkur metall pullarning barcha funksiyalarini bajargan, mavjud kredit pullar esa metallga erkin almashtirilgan.

Metall pul belgilarining muomalasi tizimida bimetallizm davri va monometallizm davri farqlanadi. Bunday holda bimetallizm iqtisodiy jarayonlarda ikkita asl metallarning bir vaqtda foydalanishi bilan tavsiflanadi, monometallizm esa umumiy ekvivalent sifatida bir metallga o’tishni anglatadi. Bunda bimetallizm holatida quyidagicha xillar ajratib ko’rsatiladi:

1) parallel valyuta tizimi – oltin bilan kumush o’rtasidagi o’zaro nisbat bozorda stixiyali ravishda belgilanadi;

2) qo’shaloq valyuta tizimi – ikki metall o’rtasidagi o’zaro nisbat davlat tomonidan ushbu metallarga bo’lgan talabga, shuningdek, ushbu davlatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatga qarab belgilanadi;

3) nuqsonli valyuta tizimi – metallar iqtisodiy tizimda mavjud bo’ladiyu, lekin teng huquqlarga ega bo’lmaydi. Odatda, davlat kumush valyutaning zarb qilinishi va foydalanishiga cheklashlar kiritadi.

Faqat bir metallning amal qilishi tizimi sifatidagi monometallizmda ham ayrim o’zgarishlar yuz berdi:

1) oltin tangali standart – to’laqonli oltin valyutaning amal qilishi, unda tovarlarning qiymati ham ushbu valyuta bilan hisoblanadi;

2) oltin yombili standart – oltin muomalada bulmaydi, lekin unga katta miqdorlardagi (yombi miqdorida) almashinish amalga oshiriladi;

3) oltin valyutali (oltin devizli) standart – pullarning almashinishi faqat oltin yombili standartli mamlakatlarning valyutalariga amalga oshiriladi.

Valyuta tizimi - bu, mamlakatlar o’rtasida valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir.

Valyuta tizimi - bu, xo’jalik aloqalarini baynalmilallashuvi asosida tarixan shakllangan, valyuta amali bilan bog’liq iqtisodiy munosabatlar yig’indisidir.

Valyuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va roli jamiyatning iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

Valyuta tizimi davlat, rezident va norezident shaxslarga tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Sub’ektlarning ushbu faoliyati amalga oshishida valyuta qonunchiligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Maxsus adabiyotlarda valyuta tizimlarining 3 ko’rinishi farqlanadi, ya’ni milliy, jahon va hududiy valyuta tizimlari.

6.2. Pul tizimining elementlari.

Z amonaviy pul tizimi quyidagi elementlarni o`z ichiga oladi: pul birligi; valyuta kursini o’rnatish qoidalari, baholar masshtabi; pul ko’rinishlari; emissiya tizimi; davlat yoki kredit apparati.

Pul tizimining tarkibiy qismi milliy valyuta tizimidir.

Pul biriligi - qonuniy tarzda o`rnatilgan pul belgisi bo`lib, barcha tovarlar bahosini o`zaro solishtirish va ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko`pincha pul biriligi mayda bo`linuvchi qismlarga ajraladi. Kupchilik mamlakatlarda o`nlik bo`linish tizimi urnatilgan. Masalan, 1:10:100 (AQSh dollari 100 sentga, 1 funt sterling - 100 pensga, 1 Indoneziya rupiyasi - 100 sentga teng va x.k)

Rasman baholar masshtabi o’zining iqtisodiy ma’nosini davlat monopolistik kapitalizmi rivojlanishi va kredit pullarni oltinga almashinishi to’xtatilgandan so’ng yo’qotdi. 1976-1978 yilda o’tkazilagan Yamayka valyuta isloxoti natijasida oltinning rasmiy narxi va pul birliklarning oltin tarkibi bekor qilindi.

Qonuniy to’lov vositasi bo’lgan pul ko’rinishlari - bular asosan bank kredit biletlari, qog’oz pullar (xazina biletlari) va tangalardir. Masalan,AQSh da

muomalada quyidagi pullar mavjud: 100, 50, 20, 15, 5 va1 dollarlar, bank biletlari. Xazina biletlaridan tashqari ; kumush-mis va mis-nikel tangalar (50,20, 10, 5, 1 sentli) chiqariladi. Buyuk Britaniyada muomalada 50, 20, 10, 5, 1 f. st. banknotalar: 1 f. st., 50, 10, 5, 2 pensli, 1 va 1/2 pensli tangalar amal qiladi. Yana eski 2 va 1 shilling tagalari yuritiladi, ular yangi

10 va 5 pensga teng. Agar rivojlangan mamlakatlarda asosan bank biletlari chiqarilsa, qator rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'prok xazina biletlari chiqarish keng tarqalgan. Masalan, Indoneziyada 50, 25, 10, 5, 1 sent qiymatli, Xindistonda - 1 rupiya qiymatli xazina biletlari chiqariladi.

Yuzaga kelgan vaziyat va pul tizimi rivojining yuqorida ko'rsatilgan variantlari tahlili asosida dastlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 12 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi hududida so'm-kuponlarni muomalaga kiritishni joriy qilish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 1993 yil 15 noyabrdan boshlab oraliq valyuta sifatida «so'm-kupon» 1 so'm - 1 rubl nisbatda muomalaga kiritildi.

1994 yilda milliy valyutaning muomalaga kiritilishi bank tizimi rivojlanishining birinchi bosqichini yakunladi va ikkinchi bosqichini boshlab berdi. Bu iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlarda sifat jihatidan yangi bosqich boshlanganidan darak berardi. Bu davrda Markaziy bank asosiy e'tiborni makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga va shu asosda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratdi.

Bu davrda pul tizimining huquqiy bazasi mustahkamlanib, bank qonunchiligi takomillashtirildi. 1995 yili «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni va 1996 yili O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunining yangi tahrirda qabul qilinishi zamonaviy pul tizimini tashkil etilishini, tijorat banklarini xalqaro moliya bozorlariga chiqishini, aholi, korxonalar va xorijiy sarmoyadorlarning pul tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlanishini, barqaror iqtisodiy o'sishni hamda xalq farovonligini oshirilishini ta'minlashga qaratilgan istiqbollarni belgilab berdi.

Valyuta kursi nima

Ikki hil ko'rinishdagi valyuta kelishuvlari turi mavjud.

Spot kelishuvi*ning asosiy ko'rinishi, bank depozitlarining tezda (ikki kun davomida) almashinuvida namoyon bo'ladi.*

Forvard kelishuvi *bank depozitlarining kelajakdagi aniq muddatlarda almashinuvini bildiradi.*

Spot valyuta kursi *spot kelishuvining almashinuv kursidir,*

Forvard valyuta kursi *esa forvard kelishuvlari uchun qo'llaniladi.*

Ma'lumki, valyutaning qiymati ko'tarilsa, valyuta ***mustahkamlanishi*** *sodir bo'ladi; valyuta qiymati tushganda esa –* u ***qadrsizlanadi.***[62]

Valyuta kurslari

Wall Street jurnalining "Valyuta savdosi" (Currency trading) bo'limida har kuni valyuta kurslari bosib chiqariladi.Ushbu bo'limlardan biridagi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.

---

[62] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Credit Unions page 477



CURRENCY TIRADMNG"

Wednesday, February 5.2003

EXCHANGE RATES

The foreign exchange mid-range rates below apply to trading among banks in amounts of $1 million and more, as quoted at 4 p.m. Eastern time by Reuters and other sources Retell transactions provide fewer units of foreign currency per dollar.

Country	U.S. > Equivalent Wed	Tue	Currency per U.S. $ Wed	Tue
Argentine (Peso)-y	,3160	.3160	3.1646	3.1646
Australia (Dollar)	.5901	.6915	1.6946	1.6906
Bahrain (Dinar)	2.6522	2.6523	.3770	.3770
Brazil (Real)	,2784	.2798	3.5920	3.5740
Canada (Dollar)	.6874	.6602	1.5211	1.5147
1-month forward	.6566	.6595	1.S230	1.5163
3-months forward	,6548	.6576	1.5272	1.5207
6-months forward	.6517	.6544	1.5344	1.5281
Chile (Peso)	,001348	.001346	741.84	742.94
China (Renminbi)	.1208	.1208	8.2781	8.2781
Colombia (Peso)	,0003372	.0003378	2966.60	2960.33
Oaoh. Rep. (Koruna)				
Commercial rate	,03398	.03438	29.429	29.087
k (Krone)	,1463	.1463	6.8823	6.8353
«(US Dollar)	1.0000	1.0000	1.0000	1.0000
Hong Kong (Dollar)	,1282	.1282	7.8003	7.8003
Hungary (FOrint)	.004406	.004454	226.96	224.52
India (Rupee)	.02099	.02094	47.642	47.756
Indonesia (RupleW	,0001128	.0001127	8865	8873
Israel (Shekel)	,2060	.2049	4.8780	4.8804
Iaden (Yen)	.008336	.008353	119.96	119.72
1-morah forward	.008344	.008362	119.85	119.59
3-months fotward	,008363	.008381	119.57	119.32
«•months forward	.008391	.008408	119.18	118.93
Jordan (Dinar)	,1.4094	1,4085	.7095	.7 100
Kuwait (Dinar)	,3.3479	3.3523	.2987	.2983
Lebanon (Pound)	.0006634	0006634	1507.39	1507.39
Malaysia (Ringgit)-b	.2632	.2632	3.7994	3.7994
Matte (Ura)	2.5690	2.5861	,3883	.3867
Mexico (Paso)				
Floating rate	,0920	.0913	10.8648	10.9481
New Zealand (Dollar)	.5494	.5496	1.8202	1.3196
Norway (Krone)	.1434	.1448	6.9735	6.9061

Country	U.S. $ Equivalent Wed	Tue	Currency per U.S. $ Wed	Tue
	.01719	.01723	58.173	58.038
	.2866	.2863	3.4892	3.4928
Philippines (Peso)	.01852	.01853	53.996	53.967
Poland iZloty	.2606	.2622	3.8373	3.8139
Ruesia (Ruble)a	0.3142	0.3142	31.827	31.827
	.2667	.2667	3.7495	3.7496
	.5742	.5755	1.7416	1.7376
Slovak Rep. (Koruna)	.02579	.02607	38.775	38.356
South AMoa (Rand;	.1192	.1202	6.3893	8.3195
South Korea (Won)	.0008516	.0008529	1174.26	1172.47
	.1169	.1177	8.5943	3.4962
		.7424	1.3591	1.3470
1-month forward	.7362	.7428	1.3583	1.3463
3-month* forward	.7371	.7437	1.3567	1.3446
6-months forward	.7386	.7451	1.3539	1.3421
Taiwan (Dollar)	.02881	.02881	34.710	34,710
Thailand (Bant)	,02338	.02342	42.772	42,699
		.00000061	1639344	1639344
		1.6485	.6089	.6066
1-month forward	1.6391	1.6452	.6101	.6078
3-montns forward	1.6322	1.6382	.6127	.6104
6-months forward	1.6221	1.6283	.6165	.6141
United Arab (Dirham)	.2723	.2723	3.6724	3.6724
Uruguay (Peso)				
	.03500	.03550	28.571	28.169
	.000520	000520	1923.08	1923.08
SDR	1,3741	1,3697	.7277	7301
(lire		1.0883	9J64	.9189)

Specie) Drawing Rights (SDR) are based on exchange rates for the U.S., British, and Japanese currencies. Source: International Monetary Fund. a-Russian Central Bank rate. b-Government rate, y Boating rate.

.Souter Will *Stmet journal* Thursday. February ft 2003. p C)2

Har bir valyuta uchun birinchi qatorlar – bu ikki xil usulda kvotalanadigan, 2003 yil 5 fevral chorshanba kundagi spot valyuta kursidir. Masalan, “Euro” qatoridagi: 1.0795 dollar 1 yevroga va 0.9264 yevro 1 dollarga teng. Amerikaliklar yevro 1,0795 dollar, yevropaliklar esa dollar – 0.9264 yevroga teng deb hisoblashishadi. Qiyoslash uchun o’tgan kun seshanba kunidagi ko’rsatkichlar keltirib o’tilgan. Spot kursidan pastdagi 3ta qatorlar kelajakda (bir, uch yoki olti oydan keyin) qo’llaniladigan spot kurslari uchun.

Manba: Wall Street Journal, Thursday, February 6, 2003, p. C12.

1999-yillarda yevro 1.18 dollar baholangan, lekin moliyaviy yangiliklardan olingan ko’chirmaga ko’ra 2003 yil 5 fevralda yevro narxi 1.08 dollargacha tushganligini ko’rish mumkin. Demak yevro 8 % ga qadrsizlandi:

(1,08-1,18)/1,18=-0,08=-8%

Bir vaqtning o’zida AQSh dollarining qiymati 1990-yil boshida 0,85 yevrodan 2003-yil 5-fevral holatiga ko’ra 0,93 yevroga ko’tarilgan.[63]

Valyuta kurslarining muhimligi nimada?

Valyuta kurslarining muhimligini ularning o’z mamlakatlari hududidagi va xorijiy davlatlarning tovarlariga nisbatan qiymatiga ta’sir etishida ko’rishimiz

[63] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Credit Unions page 478

mumkin. Amerikaliklar uchun fransuz tovarlarining dollardagi narxi ikki omillarning o'zaro ta'siri orqali aniqlanadi: yevroda ifodalangan fransuz tovarlarining narxi hamda yevro/dollar valyuta kursidadir.

Tasavvur qiling, amerikalik Vanda Degustator o'zining vino kolleksiyasini to'ldirish maqsadida 1961-yilning qimmatbaho fransuz vinosini harid qilishga qaror qildi. Agar Fransiyada bir litr vinoning narxi 1000 yevro bo'lsa, ammo valyuta kursi 1 yevro uchun 1,18 dollarga teng bo'lsa, Vandaga vino 1080 dollarga to'g'ri keladi. (1000 yevro*1,08 dollar/yevro). Tasavvur qilaylikki, Vanda o'zining haridini ikki oyga kechiktirdi. Vaholanki ushbu davr mobaynida yevroning qiymati 1,2 dollarga oshdi. Agar bir litr vinoning ichki narxi 1000 yevro bo'lib, ya'ni o'zgarmasa, dollardagi qiymati esa 1080 dan 1200 ga o'sadi.

Boshqa tarafdan, valyutaning anologik mustahkamlanishi mamlakat ichida xorij mahsulotlarining narxini tushiradi. 2000 dollar narxidagi Compaq komputeri bir yevro uchun 1.08 dollarga to'g'ri keluvchi valyuta kursida programmist Pyer uchun 1852 yevroga tushadi. Agar valyuta kursi bir yevro uchun 1,02 dollar bo'lsa, computer 1667 yevro bahoga ega bo'ladi.

Yevro narxining tushishi AQShda fransuz tovarlarining narxlari tushishiga olib keladi va ayni shu bilan bir vaqtda Fransiyada Amerika mahsulotlarining narxlari oshishiga olib keladi. Agar bir yevro 0,90 dollar bo'lsa, Vandaga bit litr vino 1080 dollar emas 900 dollarga, Pyer uchun Compaq komputeri 1852 yevrogamas 2222 yevroga tushadi.

Bu turdagi yondashuv quyidagi xulosani keltirib chiqaradi: mamlakat valyutasi mustahkamlanganda (boshqa xorij valyutalariga nisbatan qiymati oshsa), ushbu mamlakatning mahsulotlari qimmatlashadi, mamlakat ichida import tovarlar arzonlashadi. Va aksincha, mamlakat valyutasi qadrsizlansa, uning mahsulotlari xorijda arzonlashadi, import tovarlar esa qimmatlashadi.

Masalan, AQShning po'lat quyuvchi sanoati nafaqat amerika qimmat po'latining xorijga eksporti qisqardi, balki AQShda nisbatan arzon import po'latning sotuvi ro'y berdi. To'g'ri, amerikalik iste'molchilar g'alaba qozonishdi, chunki import mahsulotlar arzonlashdi. Yaponiya videomagnitafonlari va kameralari, hamda Yevropaga yo'llanmalarning narxi dollarning mustahkamlanishi tufayli tushdi.[64]

Uzoq muddatli istiqboldagi valyuta kurslari.

Valyuta kursi ham erkin bozordagi har qanday mahsulotning yoki aktivning narxi talab va taklif nisbati orqali aniqlangandek aniqlanadi. Tahlilimizni osonlashtirish uchun erkin bozordagi valyuta kursini ikkita qismga bo'lamiz.

Birinchi valyuta kursini qanday qilib muddatli davrga o'rnatilishini tahlil qilamiz, keyin olingan bilimlardan foydalangan holda valyuta kursini qanday qilib qisqa muddatga o'rnatilishini ko'rib chiqamiz.[65]

6.3. Pul tizimini tashkil qilish shart-sharoitlari. Pul tizimini tashkil qilish prinsiplari.

[64] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Credit Unions page 479
[65] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Credit Unions page 480

Tizim deganda o’zaro bog’liq elementlarning birligi tushuniladi.

Pul tizimi – bu bir biri bilan o’zaro bog’liq holda xarakatlanuvchi va pul tizimining yaxlitligini ta’minlovchi elementlarning yig’indisidir.

Pul tizimi – bu mamlakatda yoki alohida olingan iqtisodiy hududda pul muomalasini tashkil qilishning davlat-huquqiy shaklidir.

Pul tizimini obektiv va subektiv asoslari mavjud. Pul tizimining obektiv asoslariga tovar pul munosabatlarining rivojlanganlik darajasi kiradi. Pul tizimining subektiv asoslariga to’lov hujjatlarini va vositalarini hamda ulardan foydalanish tartibini qonunchilik hujjatlarida belgilab qo’yilishi kiradi.

Pul tizimining ikkita jihati mavjud:

1. Funksional jihat(aspekt) – pul tizimi funksiyanal jihatidan pul muomalasidan tashkil qilish prinsiplari, shakllari va usullarining yig’indisidir.
2. Instituttsional jihat – institutsional jihatdan pul tizimi pul muomalasini tashkil qiluvchi va tartibga soluvchi institutlarning yig’indisidir. Bunday institutlarga Markaziy bank, tijorat banklari, kliring markazlari, hisob uylari kabi muassasalar kiradi.

Pul tizimini tashkil qilish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi

1. Pul tizimining barqarorligi va elastikligi prinsipi. Pul tizimining barqarorligi deganda pulning barcha funksiyalarini to’liq bajarilishini ta’minlash tushuniladi. Pul tizimining elastikligi deganda pul tizimining iqtisodiyotning pul mablag’lariga bo’lgan talabini o’zgarishiga o’z vaqtida javob bera olishiga aytiladi.

2. Muomalaga chiqarilgan pullarning ta’minlanganlik prinsipi. XX asrning 70-yillariga qadar muomalaga chiqarilgan naqd pullar oltin bilan ta’minlanar edi. Muomaladagi har bir AQSh dollari 1$=0.88 gramm sof oltin asosiga ega edi. 1 unsiya = 35$ bahoda almashtirib berdi. 1 unsiya = 31.1 gramm sof oltinga teng. Milliy valyutaning oltin bilan ta’minlanishi baho masshtabi deb ataladi. 1976-1978 yillarda bo’lib o’tgan Yamayka jahon valyuta tizimida oltinni demonitizatsiya qilish tugatildi. Bu oltindan to’lov vositasi sifatida foydalanishni ta’qiqlash. Natijada baho masshtabi dunyo mamlakatlarida bekor bo’ldi, eng oxirgi davlat Shvetsariya baho masshtabini 2011-yilda bekor qildi. Hozirgi davrda muomalga chiqarilayotgan pullar Markaziy bankning aktivlari bilan ta’minlanadi.

3. Pul aylanmasini rejalashtirish va prognoz qilish prinsipi.

4. Pul aylanmasini nazorat qilish prinsipi

Pul tizimlari XVI-XVII asrlarda ishlab chiqarish kapitalistik usulining yuzaga kelishi va qaror topishi munosabati bilan shakllangan, biroq shunday bo’lsa ham, uning ayrim elementlari bundan ancha oldin paydo bo’lgan. Tovar-pul munosabatlari va ishlab chiqarishning kapitalistik usuli rivojlanishi bilan pul tizimida sezilarli o’zgarishlar yuz beradi.

Pul tizimi turlari pul qanday shaklda amal qilishiga bog’liq, ya’ni umumiy ekvivalent - tovar sifatida yoki qiymat belgisi sifatida bo’lishiga qarab quyidagicha pul tizimlar mavjud bo’lgan.

1. Metall pul muomalasi tizimlari.
2. Qog’oz va kredit pullar muomalasi tizimlari.

Birinchi tizimda metall pul bevosita muomalada bo'ladi va pulning barcha funksiyalarini bajaradi, kredit pullar esa metallga almashinishi mumkin;

Kredit va qog'oz pullar muomalaga kiritilishi bilan qog'oz pullar muomalasi tizimi yuzaga kelgan.

Mamlakatda umumiy ekvivalent sifatida qabul qilingan metallga va pul muomalasi bazasiga qarab pul tizimi bimetalizm va monometalizm pul tizimlariga bo'linadi.

6.4. Pul tizimi shakllari va ularning evolyutsiyasi: bimetallizm; monometallizm; qog'oz va kredit pullari tizimi.

M amlakatda umumiy ekvivalent sifatida qabul qilingan metallga va tanga muomalasi bazasiga qarab pul tizimi bimetalizm va monometalizm pul zimlariga bulinadi.

Bimetalizm - pul tizimida umumiy ekvivalent rolini metall (kupincha oltin va kumush) bajargan, bu tizimda ikkala metalldan xam tangalarning erkin muomalaga chiqarilishi va ularning cheksiz almashishiga amal qilingan.Parallel valyuta tizimida ikki metall qiymati stixiyali, metallning bozor bahosiga munosib tarzda belgilangan. Bu pul tizimida davlat metallar orasidagi mutanosiblikni o`rnatib qo`ygan. Oltin va kumush tangalarning chiqarilishi va ularning axoli tomonidan qabul qilinishi ana shu mutanosiblikka muvofiq amalga oshirilgan.

Bimetallizm XVI-XVII asrlarda keng tarqalgan bo'lib G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlariga esa XIX asrgacha yetib kelgan. 1865 yili Fransiya, Belgiya, Shveytsariya va Italiya mamlakatlari bimetallizmni xalqaro sulh - Lotin tanga Ittifoqi yordamida saqlab qolishga urinishgan. Tuzilgan konvensiyada ikkala metalldan ham 5 frank va undan yuqori qiymatli tangalarni chiqarish, oltin va kumush o'rtasida 1:15,5 qiymat mutanosibligini o'rnatish shartlari ko'zda tutilgan[66].

Biroq, bimetallik pul tizimining qo`llanilishi rivojlangan kapitalistik xo`jalik extiyojlariga mos kelmasdi, chunki qiymat o`lchovi sifatida bir vaqtning o`zida ikki metall - oltin va kumushning qo'llanilishi pulning ushbu funksiyasi tabiatiga to'g'ri kelmagan. Umumiy qiymat o'lchovi bo`lib faqat birgina tovar xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari ikki metall orasidagi davlat tomonidan o'rnatiladigan nisbat ularning bozor narxiga to'g'ri kelmas edi. XIX asr oxirida kumush ishlab chiqarishning arzonlashishi va uning qadrini yo'qotishi natijasida oltin tangalar muomaladan xazinaga keta boshladi. Bunda Kopernik-Greshemning qonuni yuzaga chiqqan, ya'ni yomon pullar muomaladan yaxshilarini chiqarib tashlagan.

Kapitalizm taraqqiyoti mustaxkam pul, yagona umumiy ekvivalent bo'lishni talab qildi, shuning uchun bimetalizm o'z o'rnini monometalizmga bo'shatib berdi.

Monometalizm - bu pul tizimida yagona metall (oltin yoki kumush umumiy ekvivalent va pul muomalasining asosi bo'lib xizmat qiladi. Amal qilayotgan tanga va boshqa qiymat belgilari qimmatbaho metallar almashiniladi.

---

[66] Красавина Л.Н. "Международный валютно-кредитный и финансовый отношения" Москва, "Финансы и статистика". 2005. Стр 68.

Rossiyaning O’rta Osiyoga yurishi natijasida, 1865 yilda Toshkent ruslar qo’liga o’tgan. Keyinchalik Buxoro davlatining O’ra tepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo’rg’on, Urgut kabi shaharlari Rossiya tasarrufiga o’tgan. Buxoro amiri Rossiya bilan do’stlik shartnomasini tuzgan va yarim mustaqil davlat bo’lib o’zining mustaqil pul tizimini saqlab qolgan hamda mustaqil pul siyosatini olib borgan. O’sha davrda muomalaga oltin, kumush, mis tangalar chiqarilgan. 1 tillo Rossiyaning 6 rubl 80 kopeek, 1 tanga (kumush) 15 kopeekka, 1 mis tanga - (mira) 4 kopeekka, pul 1/4 kopeekka tenglashtirilgan. Muomalada ko'proq kumush tanga ishlatilib, uning kursi 1 tangaga 12 kopeekdan 20 kopeekkacha o’zgarib turgan. O’tgan asrning 90-yillarida Rossiya Toshkent va Qo'qonda, keyinchalik, Buxoroda o’z banklarini ochgan. Muomalaga rus oltin, kumush tangalari va kredit biletlari kirib kelgan. Buxoroda rus oltin, kumush tangasidan ko’ra kredit biletlari juda mashhur bo’lgan. Buxoro beklariga amirga to’laydigan soliq va boshqa to’lov, in’omlarini kumush tangada karvonlarda olib kelgandan ko’ra, kredit biletlarda olib kelish arzon va oson bo’lgan. Shuning uchun kumushlar rus kredit biletlariga almashtirilgan. Rus banklarida kumush tangalar qaytib muomalaga chiqmagan. Ular Rossiyaga jo’natilgan va Peterburgdagi zarbxonada qayta ishlatilib rus kumush tangasi sifatida muomalaga chiqarilgan[67].

Kumush monometalizmi Rossiyada 1843-1852 yillarda, Gollandiyada 1847-1875 yy. da mavjud bo`lgan.

Chor Rossiyada kumush monometalizmi tizimi 1839-1843 yillarda o’tkazilgan pul isloxoti natijasida qabul qilingan. Pul birligi kumush rubli bo’lgan. Keyinchalik muomalaga kredit biletlari xam chiqarilgan, ular kumush tanga bilan teng muomalada qatnashgan va erkin tarzda metallga almashtirilgan. Lekin bu isloxot sunayotgan krepostnoylik tizimi davlat byudjeti va tashqi savdo balansi taqchiligi sharoitida pul muomalasini uzoqroq muddatga tartibga sola olmagan. 1853-1856 yillardagi Qrim urushi ko’p miqdorda qo’shimcha kredit pullar emissiyasini talab qildi va natijada ular qog’oz pulga aylanib qoldi.

Ilk bor oltin monometalizmi (standart) pul tizimi sifatida Buyuk Britaniyada XVIII asr oxirida qaror topgan va qonun bilan 1816 yilda tasdiqlangan. Ko’pchilik boshqa davlatlarda u XIX asrning oxirlarida joriy qilingan: Germaniyada - 1871-1873 yilda, Shvetsiya, Norvegiya, Daniyada - 1873 yilda, Fransiyada - 1876-1878 yilda, Avstriyada - 1892 yilda, Rossiya za Yaponiyada - 1897 yilda, AQSh da - 1900 yilda.

Oltin tanga standarti kapitalizmning erkin raqobatiga juda mos kelgan, ishlab chiqarish, kredit tizimi, jaxon savdo kapitali kelib chiqishining rivojlanishiga yordam bergan.

6.5.Xitoy pul tizimi.

Y uan-Xitoy Xalq Respublikasining pul birligi. 1 yuan 10 szyao va 100 finyamga teng. Uning Xalqaro ifodasi OGU Yu. 1835 yildan kumush tangalar ko’rinishida zarb qilina boshlagan. 1933 yilning mart oyiga qadar Xitoyda

[67] R.Barr. Aforementioned work. Page 237.

lyan(XIV-XIX asrlarda muomalada bo'lgan kumush valyuta) pul birligi sifatida ishlatilgan. Bojxona bojlari va soliqlari yuanda hisob-kitob qilingan. Xitoy Xalq banki tashkil topganidan keyin pul islohoti o'tkazildi. 1955 yilga kelib eski pullar yangi pullarga 10000:1 nisbatda almashtirildi[68].

Yuan so'zi "dumaloq tanga" degan ma'noni anglatadi. Sin sulolasi birinchi bo'lib shu shakldagi dumaloq tangalarni (960-1279) zarb etishgan va bu tangalar bronzadan yasalgan. So'ng esa Min sulolasi (1368-1644) qog'oz pullarni birinchi bo'lib muomalaga chiqarishgan va bu tanga va qog'oz pullarda asosan imperatorlarning suratlari aks etgan.

Xitoy tarixida qog'oz pullar 7 marta emissiya qilingan:

1935-yildagi pul islohotida 1 dollar= 3.36 yuan;

1946-yildagi pul islohotida 1 dollar=3350 yuan;

1948-yildagi pul islohoti 0.222179lik toza oltindan iborat bo'lgan. 3 mln fabi=1 oltin yuan. 1 kumush yuan=500mln oltin yuanga.

1974- yilda boshqa valyutalar bilan pul ayirboshlash jarayonini Gongkong dollari orqali amalga oshirgan. Banknotalar:

1948- yili 1-dekabrda Xalq banki 1- banknotani chiqardi va ular 100,1000 yuanlik.

1949-yilda muomalaga chiqarilgan 200, 500, 5000 va 10000 yuanlik banknotalarning 62 ta variantlari mavjud bo'lgan.

Keyingi banknotalar 1955-yilda Xitoy iqtisodiyotining ochilish munosabati bilan muomalaga chiqarilgan va ular Jenbeli deb atalgan va bu banknotalar faqat mamlakat miqyosida amal qilgan.

3-nusxasi 1962-yilda 4-nusxasi 1987-1997 yillar oralig'ida 5- nusxasi 1999-yilda muomalaga chiqarildi. So'nggi banknota 2005-yilda chiqarilgan va unda 5,10,50,100 kupyuralar muomalaga chiqarildi[69].

. 1949 yildan keyin o'zining uzoq tarixli davlat ixtisoslashtirilgan chet el almashuv va savdo banki Xitoy chet el almashuv operatsiyalarini va chet el savdo aloqalarini rivojlantirish hamda iqtisodiy infratuzilmani ta'minlashni boshqarishga mas'ul bo'ldi. 1994 yilda bank to'liq davlat tijorat bankiga aylandi. 2004 yilning avgust oyida Bank of China Limited birlashtirildi. Bank the Hong Kong Stock Exchange va the Shanghai Stock Exchangelarni 2006 yilning iyun va iyul oylarida ro'yxatga kiritdi va dastlabki A-Share[70] va H-Share71ni yuritadigan birinchi Xitoy tijorat bankiga aylandi. 2014 yilda bank yana Global Systematically Important Bank sifatida loyihasi tuzildi. Keyingi to'rt yil ichida Global Systematically Important Bank sifatida yakka moliyaviy institut sifatida ishlashi tuzib chiqiladi[72].

---

[68] History of CPB. www.cpb.com

[69] Home of CPB. www.cpb.org

[70] Izoh: A-share – bankning kapitalidagi mahalliy investitsiya ulushlari, har birida RMB ning nominal qiymati o'z aksini topgan. U SSE(The Shanghai Stock Exchange) da ro'yxatdan o'tgan (kodi: 601988).

[71] Izoh: H-share - bankning kapitalidagi xorijiy investitsiya ulushlari, har birida RMB ning nominal qiymati o'z aksini topgan. U Hong Kong Stock Exchangeda ro'yxatdan o'tgan va Hong Kong dollarida savdo qilinadi (kodi: 3988).

[72] Annual report 2014 China. www.cpb.com

Xitoy banki tomonidan e’lon qilingan 2014 yil yakunlari bo’yicha quyidagi rasmlarga e’tibor bersak.



Xitoy va Global iqtisodiyotning o’zgarish dinamikasi[73] (2010-2014 yy.,%)

Yuqoridagi rasmda jahon iqtisodiyoti hamda Xitoy iqtisodiyotining YaIM o’sish ko’rsatkichlari namoyon bo’lgan. 2008 yilda AQSHda boshlangan iqtisodiy inqiroz qolgan davlatlarga ham yoyildi. Shunga ko’ra ko’pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti qiyin vaziyatga tushib qoldi. Bu murakkab vaziyatdan ko’pgina davlatlar hali hanuz chiqib keta olgani yo’q. So’zimiz tasdig’i sifatida yuqoridagi rasmdan ko’rishimiz mumkinki, jahon iqtisodiyotining o’rtacha rivojlanish ko’rsatkichi yildan-yilga tushish tendensiyasida. Jumladan, 2010 yilda bu ko’rsatkich 5 foiz atrofida bo’lsa, 2014 yilga kelib esa 3 foiz atrofida bo’lgan.

Jahon iqtisodiyotidagi inqiroz hatto Xitoy iqtisodiyotiga ta’sir qilmay qolmadi. Oxirgi yigirma yilda Xitoy iqtisodiyoti o’sish ko’rsatkichi ikki xonali raqam bilan ifodalangan bo’lsa, 2010 yildan boshlab hozirga qadar bu davlat iqtisodiyoti orqaga ketmoqda. Jumladan, 2010 yilda Xitoy YaIM o’sish ko’rsatkichi 10 foizdan ortiq bo’lgan bo’lsa, 2014 yilga kelib 7,4 foizga tushgan. Xalqaro Valyuta fondi ekspertlarining fikricha agar iqtisodiy islohotlar o’z vaqtida amalga oshirilmasa, Xitoy iqtisodiyotining o’sish ko’rsatkichi 2015 yilda 7 foizga tushishini taxmin qilmoqda.

Xitoy iqtisodiyotining pasayishiga sabab jahon iqtisodiyotining pasayishi bilan izohlanadi. Chunki Xitoy aholisi dunyo aholisining taxminan beshdan bir qismini tashkil etsada ichki iste’mol darajasi ya’ni yalpi ichki talab pastligicha qolmoqda. Shuning uchun ham rivojlangan davlatlardagi ishlab chiqarish Xitoyga ko’chgan, ya’ni Xitoyda ishchi kuchi arzon hisoblanadi. Buning salbiy tomoni shundaki, Xitoy iqtisodiyoti eksportga mo’ljallangan iqtisodiyotga aylanib qoladi. Demak, jahon iqtisodiyotidagi o’zgarish Xitoy iqtisodiyotidaham ta’sir qiladi.

[73] Annual report. www.cbc.org

RMB ayirboshlash kursining harakatlanishi
(2010-2014 yy.)



izoh: RMB - Renminbi, Xitoy Xalq Respublikasining qonuniy o'rnatilgan valyutasi

XXR ayirboshlash kursining harakatlanishi ko'rsatkichi[74](trln).

Yuqoridagi rasmdagi ma'lumotlarda Xitoy milliy valyutasining ayirboshlash kursi dinamikasi o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. Xitoy milliy valyutasi yuan ya'ni RMB (Renminbi) oxirgi oxirgi yillarda chet el valyutalarga nisbatan almashinuv kursi tushmoqda. Jumladan, Xitoy yuanining AQSH dollariga nisbatan doimiy revalvatsiya bo'layotganini ko'ramiz, ya'ni 2010 yilda USD/RMB kursi 6,75 bo'lgan bo'lsa, 2014 yilga kelib esa, bu almashinuv kursi 6,00 atrofida bo'lgan. Shuningdek, Xitoy milliy valyutasining real va nominal xarid quvvati ham mustahkamlanmoqda.

Bunga sabab Xitoy savdo balansi doimiy profitsit bilan chiqmoqda. Xitoy savdo balansida eksport hajmi import hajmiga nisbatan oyiga 20-30 mlrd. AQSH dollariga teng miqdorda profitsit kuzatilmoqda. Shuningdek, Xitoy Xalq banki (Markaziy bank) doimiy ravishda valyuta intervensiyasini o'tkazmoqda. Xalqaro ekspertlarning fikricha, agar Xitoy Xalq banki valyuta intervensiyasini o'tkazib, AQSH dollarini sotib olmasa, 1 Xitoy yuani 1 AQSH dollariga teng bo'lishini taxmin qilmoqda. Bu holat Xitoy iqtisodiyotiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki Xitoy iqtisodiyoti eksportga mo'ljallangan iqtisodiyot hisoblanadi. Xitoy ichki iste'mol darajasi past. Hozirda Xitoy hukumati jahon iqtisodiy inqiroziga qarshi ichki iste'mol darajasini oshirishga harakat qilmoqda.

[74] Annual report 2014 China. www.cpb.org

Xitoy pul massasi va kreditlarining o'sishi
(2010-2014 yy.)



Xitoy pul massasi va kreditlarining o'sishi[75](2010-2014 yy.,%).

Xitoy Xalq banki iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun, hamda birjadagi ortiqcha chet el valyutalarini intervensiya yo'li bilan olish sababli muomalada yuan miqdorini doimiy oshirib bormoqda. Jumladan Xitoyda 2014 yilda M2 monetizatsiya koeffitsienti 187 foizni tashkil etgan. Bu holat dunyoda Yaponiyadan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Shu sababli hozirda Xitoy tijorat banklarida kredit resurslari yetarlicha katta salmoqqa ega. Yuqoridagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2010 yildan 2014 yilga qadar Xitoy iqtisodiyoti bir maromda saqlangan, shu sababli tijorat banklarining kreditlash hajmi, qabul qilgan depozitlari hajmi bir maromda bo'lib kelmoqda. Shunga qaramasdan, Xitoy tijorat banklarining kreditlash salohiyati dunyoda eng yuqori o'rinda turadi.

2014 yil noyabr oyidan boshlab Xitoy hukumati bank tizimida islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda ularni yanada erkinlashtirish chora-tadbirlar doirasida kredit va depozit foiz stavkalarini tijorat banklari ixtiyoriga sekinlik bilan topshirish yo'lga qo'yildi.

6.6. Yevropa Valyuta Ittifoqi tashkil topishi, hamda yevroning muomalaga kiritilishi.

Y evropada yagona valyutaning muomalaga kiritilishi jahon valyuta tizimida ijobiy o'zgarish bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Sababi, bu integratsiya faqatgina davlatlarni Yevropa Ittifoqiga birlashtirishdan so'ng amalga oshgan bo'lsada, yagona valyutani tashkil qilish g'oyasi ancha oldin, ya'ni XIX asr va XX asr boshlarida vujudga kelgan edi.

II jahon urushi esa Yevropaning ahamiyatini yanada pasaytirib yubordi va oqibatda moliyaviy, iqtisodiy va monetar sohadagi muammolar kun tartibiga

[75]Annual report 2014 China. www.cpb.org

qo’yildi. 1944 yilning 22 iyulida jahon iqtisodiyotini boshqaruvchi qoidalar majmuidan iborat Bretton-Vuds kelishuvi imzolandi. Bu kelishuv esa Jahon banki va Xalqaro Valyuta Fondi singari tashkilotlarning tashkil etilishiga sabab bo’ldi. 1957 yilda Rim shartnomasi imzolandi va unga ko’ra bir qator Yevropa davlatlari Yevropa Iqtisodiy Jamiyati (YIJ)ni tashkil qilishdi. Umuman, ikkala jahon urushi davlatlarning turli birlashmalarga birlashishlari muhimligini ko’rsatib berdi va bu kabi birlashuvlar kelgusi muammolarni bartaraf etish uchun asos bo’lardi.

Yevropa Ittifoqining valyuta tizimlari rivojlanish tarixida kiritik nuqta 1957 yilga to‘g‘ri keladi. Imzolangan Rim Shartnomasiga binoan kelajakda Yevropa birlashmasining asosini tashkil etishi kutilgan Yevropa Iqtisodiy Jamiyati tashkil etildi. Biroq Yevropa davlatlarining valyuta ittifoqi sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar ancha kechroq, ya’ni 70 yillarning boshlarida AQSHda boshlangan valyuta inqirozi natijasida ro‘y berdi.

O‘zaro tor iqtisodiy aloqalarga ega bo‘lgan Yevropa davlatlari valyutalari o‘rtasida o‘zaro tebranish chegaralari o‘rnatilmagan holat, har bir a’zo uchun nafsiz va xavfli edi. Ma’lumki, iqtisodiy integratsiyaning ajralmas, zaruriy qismi bu valyuta ittifoqidir. Yevropada o‘sha davrga kelib valyuta ittifoqini tuzish zarurati quyidagilar edi:

A’zo mamlakatlar valyutalarini barqarorlashtirish bilan integratsiyalashuv jarayonini jadallashtirish;

Yagona Yevropa valyuta tizimi zonasini barpo etish orqali jahon valyuta tizimining ta’siridan saqlanish;

Jahon valyuta tizimining asosi bo‘lib hisoblangan AQSH dollarining tebranishlaridan ko‘riladigan zararlarning oldini olish va dollarni ta’sir doirasini cheklash maqsadida o‘zlarining barqaror valyutalarini kiritish[76].

Shu sababli ham zudlik bilan Bretton-Vuds tizimini vaqtinchalik o‘rnini bosadigan mexanizm ishlab chiqish zarurati paydo bo‘ldi va 1972 yil 24 apreldan “Yevropa Valyuta iloni” o‘z ishini boshladi.

Mazkur kelishuvning asosiy foydali jihati − barcha a’zo davlatlar valyutalari o‘rtasida markaziy kursni belgilab bergan. Unga ko‘ra, biror davlat valyuta kursining tebranish darajasi ixtiyoriy boshqa davlatnikidan 2.5% dan oshmasligi kerak edi[77]. O‘rnatilgan talablarni bajarish uchun Markaziy banklar valyuta bozorida operatsiyalar o‘tkazish (milliy valyuta kursi o‘zgarishini tartibga solishning amerikacha usuli) yoki boshqa usullar orqali milliy valyuta kursining markaziy kursdan uzoqlashishiga yo‘l qo‘ymasliklari kerak bo‘lgan. Bunday harakatni amalga oshirib samarali natijaga erishilmagan taqdirda, barcha a’zo davlatlar bilan kelishgan holda markaziy kursni o‘zgartirish imkoniyati mavjud edi.

Shuni ta’kidlash joizki, “Yevropa Valyuta iloni”ning samarali va barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun u amal qilinayotgan davlatlar bir xilda iqtisodiy rivojlanish xarakteriga ega bo‘lishlari va to‘lov balansida sezilarli darajadagi o‘zgarishlar bo‘lmasligi zarur. A’zo davlatlarda bunday iqtisodiy sharoit hamda bir

---

[76] Абдуллаева Ш.. Халқаро валюта-кредит муносабатлари. − Тошкент, 2007.

[77] http://studopedia.ru/view_economika/

xil iqtisodiy o‘sish darajasi bo‘lmaganligi sababli samarali natija bermadi. Oqibatda, Yevropada Valyuta ittifoqini tashkil etish yana kun tartibining asosiy masalasiga aylandi.

1975 yil aprelda Yevropa hisob-kitob birligi - YHKB (European unit of account – EUA) kiritiladi va endilikda valyuta kurslari dollarga nisbatan emas, balki YHKB tashkil topgan Yevropa valyutalarining bozor qiymati asosida belgilangan. Bu birlik davlatlararo va Yevropa Iqtisodiy Jamiyati byudjeti hisob-kitoblarida, Yevropa investitsion banklari operatsiyalarida keng qo‘llanildi.

1977 yilda Valyuta Ittifoqini tashkil qilish g‘oyasi GFR kansleri G.Shmitd va Fransiya prezidenti V.Jiskar d’Esten tomonidan qaytadan kiritiladi va Yevropa Ittifoqining o‘sha davrdagi rahbari R.Jenkins tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. 1978 yil 5-6 dekabrda Bryusseldagi Yevropa kengashida Yevropa Valyuta tizimini tashkil qilish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Natijada 1979 yil 13 martda Yevropa valyuta birligi – “EKYU” (European currency unit – ECU) va unga asoslangan Yevropa valyuta tizimi paydo bo‘ldi. YVT ning muhim tomoni shunda ediki, u o‘z ichiga Yevropaning barcha davlatlarini qamrab olgan edi[78].

1988 yil fevralda GFR tashqi ishlar vaziri D.Gensher “Yevropa valyuta bo‘shlig‘i va Yevropa Markaziy bankini tashkil qilish to‘g‘risida”gi memorandumini taklif qildi, hamda u Yevropa Ittifoqi yetakchisi J.Delor tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi va u keyinchalik “Delor rejasi” nomini oladi. Unda Delor Yevropa Ittifoqi davlatlarining iqtisodiyoti va valyuta siyosatini amalga oshishini, Yevropa Markaziy bankini tashkil qilinishi va yagona Yevropa valyutasiga o‘tish rejalarini ko‘rib chiqadi. Bu reja Yevropa valyuta tizimining ilmiy asosi sifatida 1989 yil 26 iyunda Madriddagi Yevropa kengashida dastur ko‘rinishida qabul qilinadi va uning asosiy g‘oyalari keyinchalik Maastrixt shartnomasiga kiritiladi.

Valyuta Ittifoqi o‘z ichiga faqatgina barqaror iqtisodiy rivojlanishga ega bo‘lgan davlatlarni qabul qila olishini hisobga olgan holda Maastrixt shartnomasi a’zo davlatlar uchun quyidagi talablarni qo‘ygan edi:

inflyasiya darajasi eng kam darajadagi 3 ta davlat o‘rtacha inflyatsiya darajasidan 1.5 % dan ortiq bo‘lishi mumkin emas;

uzoq muddatli foiz stavkalari eng kam darajadagi inflyatsiyaga ega bo‘lgan 3 ta davlat o‘rtacha foiz stavkasidan 2 % dan ortiq bo‘lishi mumkin emas;

milliy valyuta so‘nggi 2 yil ichida devalvatsiyalanmasligi va Yevropa valyuta tizimi belgilagan kursdan 2.5 % lik tebranish darajasida bo‘lishi kerak;

davlat byudjeti defitsiti YAIM ning 3 % dan oshmasligi lozim;

davlat tashqi qarzi – YAIM ning 60 % idan ortiq bo‘lmasligi lozim;

Belgilangan me’yor talablari Ittifoq davlatlari o‘rtasida barqaror makroiqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi ishonchli ko‘rsatkichlar bo‘lib hisoblangan. Mazkur talablarga Valyuta Ittifoqi davlatlari va bu ittifoqqa kirish istagini bildirgan boshqa davlatlar ham rioya qilishlari shart bo‘lgan.

Dastlabki davrlarda Maastrixt shartnomasi va Evropa Valyuta Ittifoqini tashkil qilish rejasi o‘zining kutilgan natijalarini bermadi. 1992-1993 yillarda

[78] Werner Becker. The Euro – currency for Europe. − Berlin, 2012.

Yevropa Valyuta tizimi qattiq inqirozni boshdan o‘tkazdi va natijada, Ispaniya, Portugaliya va Irlandiya davlatlarining milliy pul birliklari sezilarli darajada qadrsizlandi va hatto Buyuk Britaniya va Italiya davlatlari Yevropa Valyuta Ittifoqidan chiqishdi. Valyuta Ittifoqini saqlab qolish maqsadida 1993 yilning avgustida valyutalar kursi tebranish darajasini 15% gacha ko‘tarish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Inqirozdan chiqishga faqatgina 1990 yillarning oxiriga kelibgina erishildi. Bundan tashqari Maastrixt shartnomasini va umuman Yevropa Valyuta Ittifoqini tashkil qilishni qo‘llab-quvvatlash darajasi pasayib ketdi: Buyuk Britaniya umuman Yevropa Valyuta Ittifoqi loyihasida qatnashishdan bosh tortdi, Daniyada o‘tkazilgan 2 ta referendum natijalariga ko‘ra Maastrixt shartnomasini valyuta ittifoqining bir bo‘lagi sifatida qabul qilinmadi, Fransiyada shartnoma tarafdorlari juda kamchilikni tashkil qildi, Norvegiya esa o‘tkazilgan referendumga ko‘ra umuman Yevropa Ittifoqidan chiqishni afzal ko‘rdi. Natijada Maastrixt shartnomasidan 5 yil o‘tib davlat va mutasaddi tashkilotlar rahbarlarining qaytadan uchrashishiga va shartnoma shartlarini qaytadan ko‘rib chiqishlariga to‘g‘ri keldi.

1994 yil yanvarida Maastrixt shartnomasining bir bo‘lagi sifatida Frankfurt-na-Mayn da Yevropa Valyuta instituti tuzildi va u keyinchalik Yevropa Markaziy bankiga aylantirildi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarining kelishuviga ko‘ra Valyuta Ittifoqiga o‘tish davrini YI 3 bosqichda bosib o‘tdi deyishimiz mumkin:

Tayyorgarlik bosqichi – 1996 yil 1 yanvargacha, a’zo davlatlar to‘lov va kapital harakati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha to‘siqlarni olib tashlashdi va o‘z davlatlari moliyaviy holatini barqarorlashtirishni boshlashdi.

Tashkiliy bosqich – 1998 yil 31 dekabrgacha, davlatlar tomonidan moliyaviy barqarorlikka erishish jarayoni to‘liq yakunlandi va valyuta ittifoqining qonuniy va institutsional bazasi yaratildi.

Amalga oshirish bosqichi – 2002 yil 1 yanvargacha, avval naqdsiz yevroni va keyinchalik naqd pulli yevroni muomalaga kiritish bosqichi bo‘lib, bunda a’zo davlatlar o‘z milliy valyutalarini to‘liq yagona valyuta bilan almashtirishdi.

YVI rejalarini amalga oshirish maqsadida 1994 yil 1 yanvardan Frankfurtda ish boshlagan Yevropa Valyuta instituti, 1998 yildan e’tiboran Yevropa Markaziy bankiga aylantirildi. 1996 yil dekabrda Dublindagi sessiyada pul va valyuta siyosatiga munosabat bo‘yicha aniq qaror qabul qilindi va unga ko‘ra yevro ham har bir davlat uchun o‘z milliy valyutasi bilan bir qatorda rasmiy statusga ega bo‘ldi. Barcha davlatlar o‘z hududidagi hisob-kitoblar, davlat aktivlari va xususiy aktivlarni yevroda qaytadan hisoblab chiqishdi. Yevro EKYU bilan 1:1 nisbatda muomalaga kiritildi va a’zo davlatlarda hisob-kitoblardagi aniqlik uchun kursda verguldan keyin 6 ta son aniqligida o‘rnatildi (masalan: 1 EUR = 1.955834 GEM).

Yevropa Valyuta Ittifoqini tashkil qilish bo‘yicha qarorlarning tez qabul qilinishi natijasida kelib chiqqan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan 1996 yil mart oyida Turinda butun Yevropa tizimini va Maastrixt shartnomasini ko‘rib chiqish uchun hukumatlararo konferensiya o‘tkazildi. Uning natijalariga ko‘ra 1997 yil iyunda Amsterdamda o‘tkazilgan YI ning sammitida YI valyuta siyosatining asosiy elementlari va ayirboshlash kurslarining yangi mexanizmi (MOK-2) tasdiqlandi, YI ning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini va kelgusi asrdagi

siyosatini o‘zida ifodalovchi “Kun tartibi – 2000” dasturi va 1999 yil 1 yanvardan yevroning muomalaga kirishini o‘zida aks ettirgan “Barqarorlik va o‘sish Pakti” qabul qilindi.

1998 yil mart oyida Yevropa Ittifoqining komissiyasi davlatlarning Maastrixt shartnomasi talablari bo‘yicha ko‘rsatkichlarini o‘zida ifoda etgan hujjatni tayyorladi va unga ko‘ra 11 ta davlatning Yevropa Valyuta Ittifoqiga kirishi tavsiya etildi YIning Buyuk Britaniya, Daniya, SHvetsiya va Gretsiyadan boshqa barcha davlatlari). Barcha taklif qilingan davlatlar 1997 yilda ijobiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishdi: inflyasiya darajasining va uzoq muddatli kreditlar foiz stavkalari rekord darajada pasaydi – mos ravishda 1.6 va 5.9 %, byudjet tanqisligi – 2.5 %, to‘qqizta davlat valyutalarining so‘nggi ikki yildagi tebranish darajasi ±2.25 % dan oshmadi. YI davlatlarida inflyasiya darajasining tushishini kutilishi va davlat moliya tizimining sog‘lomlashganligi sababli mazkur davlatlar qimmatli qog‘ozlari bozor narxi bir muncha oshdi. Faqatgina mustasno tarzida davlat qarzining YAIM ga nisbatan ulushi 60% dan 75% ga ko‘tarildi.

Yevroning muomalaga kiritilishi asr oxiridagi asosiy iqtisodiy voqelik bo‘ldi. Yagona valyuta siyosatiga o‘tish va milliy pul birliklarini yagona valyutaga o‘tkazish o‘zida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlarni ko‘zda tutgan edi. 1998 yilning may oyida Yevropa kengashi belgilangan konvergensiya shartlarini bajargan 11 ta davlatni “yevro hudud”ga kirishga tayyor ekanligini ma’lum qildi. Yevropa Valyuta instituti asosida Yevropa Markaziy banki tashkil etildi va yevro muomalaga aynan YMB orqali chiqarildi.

1999 yil 1 yanvardan 2002 yil 1 yanvarga qadar Yevropa iqtisodiy Jamiyatining yagona hisob-kitob birligi bo‘lgan EKYUning yevroga almashtirish ishlari o‘tkazildi. Barcha yuridik hujjatlarda va hisob kitoblarda EKYU o‘rnini yevro egalladi va naqdsiz muomalaga 1:1 nisbatda kiritildi. EMB va a’zo davlatlar banklarida hisob-kitoblar, qayta moliyalashtirish va banklararo hisob-kitob operatsiyalar yevroda amalga oshirila boshlandi. Shuningdek, moliyaviy bozorlar va davlatning qimmatli qog‘ozlar emissiyasi bilan bog‘liq tarmoqlar ham to‘laligicha yevroga o‘tkazildi. Banklarda esa naqdsiz oborotda yevro milliy valyuta bilan birgalikda ishlatildi va milliy pul birliklarini yevroga o‘tkazish mexanizmlari ishlab chiqildi. Yevro va milliy valyutalar o‘rtasidagi kurs murakkab hisob-kitoblar natijasida, milliy valyutaning EKYUga nisbati, mamlakat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va kross-kurslarni hisobga olgan holda belgilandi. Shunday qilib, 1999 yil 1 yanvarda YMB tomonidan barcha a’zo davlatlarning milliy valyutalari va yevro o‘rtasidagi kurs belgilab berildi va uning 2002 yil 1 yanvarga qadar o‘zgarishsiz qolishi ko‘zda tutilgandi.

Muomalada esa 2002 yil 30 iyunga qadar yevro banknotalar milliy valyuta bilan birgalikda amal qildi. 6 oydan keyin milliy pul birliklari rasman to‘lov vositasi sifatida bekor qilingan bo‘lsada, banklar tomonidan ayirboshlash maqsadida uzoq vaqt davomida qabul qilindi. SHuningdek, 6 oy davomida bank mijozlari tomonidan hisob-kitoblarda va tuziladigan shartnomalarda valyutani erkin tanlash huquqi berildi.

2002 yil 1 iyuldan YVI ga a’zo davlatlarda milliy valyutada bo‘ladigan barcha hisob-kitoblar to‘xtatiladi va Yevro YVIning yagona valyutasi sifatida

saqlanib qoladi va hozirgi kunda 19 ta davlatda 328 milliondan ortiq Yevropa aholisi tomonidan muomalada qo‘llanilmoqda. O‘z navbatida, yevro yuqoridagi 19 ta davlatdan tashqari 9 ta hududda rasmiy va 3 ta hududda norasmiy tarzda muomalada qo‘llanilmoqda .

Davlatlarning belgilangan talablarni bajargan holda Yevropa Ittifoqiga kirish jarayonlari[79]

Yil	EVI ga qo‘shilgan davlatlar
1999	Portugaliya, Ispaniya, Irlandiya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Gollandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Avstriya, Finlandiya
2001	Gretsiya
2007	Sloveniya
2008	Malta, Kipr
2009	Slovakiya
2011	Estoniya
2014	Latviya
2015	Litva

Yevroning muomalaga kiritilishi orqali Yevropa Valyuta Ittifoqi o‘zining to‘laqonli faoliyatini boshladi. Jumladan Yevropa Markaziy banki YVIga a’zo davlatlarning pul-kredit siyosatlarini muvofiqlashtirib turuvchi yagona markazga aylandi. U tomonidan qabul qilinadigan yagona valyuta va kredit siyosatining aniq bajarilishi nazorat ostiga olindi. YMBning Boshqaruv Kengashi a’zo davlatlar zaxirasida asosiy foiz stavkalari va pul agregatlarini belgilab, shu bilan bir qatorda oltin valyuta zaxiralari ustidan umumiy nazoratni o‘rnatadigan bo‘ldi. Yevroning muomalaga kiritilishi natijasida yillar davomida oldindan rejalashtirilgan bir qator ijobiy maqsadlarga erishildi:

1. Asosiy maqsad bo‘lgan narxlar barqarorligiga erishildi. 15 yillik muomalada bo‘lish jarayonida yevrohududda barqaror narx darajalariga va past darajadagi inflyasiya ko‘rsatkichlariga erishildi.

2. Narxlar barqarorligidan kelib chiqqan holda past darajadagi foiz stavkasiga ega bo‘lindi. Past foizlarda pul va kapital bozorlarida kredit resurslarini yig‘ish osonlashdi va investitsiya tavakkalchiligini kamaydi.

3. Valyuta Ittifoqi savdo va investitsiyalarni rag‘batlantirdi. Yagona valyutaning kiritilishi yevrohududda valyutalarni ayirboshlash bilan bog‘liq xarajatlar va tavakkalchiliklarga barham bergan holda, kompaniyalar uchun ichki savdo va investitsiyalarda ishonch darajasini oshirdi.

4. Yevro moliyaviy bozorlar integratsiyasini tezlashtirdi. Yevropada moliyaviy bozorlarni birlashtirgan holda yagona moliyaviy bozorni tashkil qilish va bu orqali iqtisodiyotning real sektoriga qilinadigan qo‘yilmalarda foiz darajasini pasaytirishga erishish maqsad qilingan va unga erishilganini ijobiy baholash joiz.

5. Katta valyuta hududi iqtisodiy tavakkalchilik darajalarini pasaytirdi. Yevropa Valyuta Ittifoqining ijobiy ta’sirlaridan biri yirik valyuta hududini tashkil

[79] http://en.wikipedia.org/euro/

etilishi va buning natijasida, moliyaviy bozorlardagi tavakkalchilik darajasini pasayishiga olib kelishi bo‘ldi.



Ishlab chiqarish hajmining o’zgarish dinamikasi[80]
(2009-2014 yy., %).

Rasmdagi ma’lumotlardan shuni ko’rsak bo’ladiki, bunda Xitoy dunyoda eng yaxshi rivojlanayotgan davlatlardan biridir. Hozirda uning rivojlanish ko’rsatkichi 7 % dan yuqoridir. 2008 yildagi jahon iqtisodiy inqirozidan o’ziga kelishga ulgurmasdan Yevrohudud davlatlari qarzdorlik muammosiga duch kelishdi. Buning oqibatida Yevrohudud davlatlari qattiq byudjet siyosatini olib borishmoqda, bu o’z navbatida davlat xarajatlarini kamaytirib, YaIM ning o’sish tendensiyasiga to’sqinlik qildi. Yuqoridagi rasmdan ko’ramizki, 2010 yilda barcha davlatlar iqtisodiyoti keskin kamayib ketgan. Yevropadagi qarzdorlik masalasi butun dunyo davlatlariga ta’sir qildi.



[80] Annual report 2014. www.ecb.eu

Inflyatsiya darajasining o’zgarish dinamikasi[81](2009-2014 yy., %).

Yuqoridagi rasm ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, dunyoning yetakchi davlatlarida inflyatsiya pasayish tendensiyasiga ega. Jumladan, 2011 yilda Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya va Yevrohududda inflyatsiya darajasi yuqori va yaxshi holatda bo’lgan bo’lsa, oxirgi uch yilda bu ko’rsatkich pasaymoqda. Yevrohududda inflyatsiya 2011 yilda 3 foiz atrofida bo’lgan bo’lsa, 2014 yil oxiriga kelib Yevrohududda deflyatsiya kuzatilmoqda. Bu inflyatsiya darajasi o’zi iqtisodiyoti muammoli holatda bo’lgan Yevrohudud davlatlaridagi holatni yanada qiyinlashtirmoqda.

Yevropa Markaziy bankining bosh maqsadi inflyatsiyani 2-2,7 foiz atrofida saqlash hisoblanadi. Yevrohududni hozirgi holatdan chiqarish maqsadida 2015 yili YMB pul emissiyasini oshirishni maqsad qilib qo’ydi.



2008-2014 yillardagi M3 va xususiy sektorga qarzlar miqdorining o’zgarishi[82],%.

Ushbu statistik ma’lumotdan shuni ko’ramizki, Yevropa Markaziy banki pul emissiyasini 2008 yildan keyin kamaytirdi. Chunki YMB iqtisodiy inqiroz natijasida ishlab chiqarish tushib ketgandan so’ng inflyatsiyaning oshib ketishini prognoz qilib pul emissiyasini qisqartirdi. Bu monetar siyosat YMBning eng katta xatosi bo’ldi deb hisoblaymiz. AQSHda oxirgi besh yilda o’tkazilgan miqdoriy yengillik siyosatining ijobiy natijasini ko’rib, YMB 2014 yil oxiriga kelib o’z siyosatini o’zgartirdi va pul emissiyasini maqsad qilib qo’ydi.

[81] Annual report 2014. www.ecb.eu
[82] Annual report 2014. www.ecb.eu

Jumladan, 2008 yil boshida pul emissiyasi 12 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2010 yilga kelib esa 0 foizdan ham pastga tushgan. Bu holat iqtisodiyotning rivojlanishiga katta to’sqinlik qildi. Natijada 2010 yilda boshlab qisman pul emissiyasini oshirdi. 2014 yilga kelib pul emissiyasi o’sish tendensiyasiga ega.



2008-2014 yillarda muomaladagi yevro banknotalarining soni va qiymati[83]

Yevropa Markaziy bankining pul siyosatini doim ijobiy baholab bo’lmaydi, shunga qaramasdan yevro pul birligi butun dunyo davlatlarida katta obro’ga ega. Yevropa Markaziy bankining pul tizimining elementlariga nazar tashlasak quyidagilarga voqif bo’lamiz.

Yevropa Markaziy bankining pul bazasi 2008 yilda 800 mlrd. yevroni tashkil etgan bo’lsa, 2014 yilga kelib esa bu ko’rsatkich 1200 mlrd. yevroga yaqinlashgan. Bu holat YMB tomonidan pul emissiyasini oshirayotganidan va inflyatsiya past darajada ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, Yevropa Markaziy banki emissiya qilgan banknotalar soni 2008 yilda 10 mlrd. donani tashkil etgan bo’lsa, 2014 yilga kelib 15 mlrd. donani tashkil etgan.

YMB emissiya qilgan banknotalar tarkibiga nazar tashlasak quyidagilarga guvoh bo’lamiz.

[83] Annual report 2014. www.ecb.eu



2008-2014 yillarda muomaladagi yevro banknotalarining soni[84]

Yevropa Markaziy banki quyidagi birlikdagi banknotalarni emissiya qiladi, ya'ni, 1,5,10,20,50,100,200,500 yevrolarni emissiya qiladi. Yuqoridagi rasmdagi ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, 200 va 500 yevrolik banknotalar emissiyasi 2008 yildan 2014 yilga qadar o'zgarmay qolgan. 5,10,20,100 yevrolik banknotalar emissiyasi shu yillar davomida qisman ortgan. Ammo faqat 50 yevrolik banknota emissiyasi 2008 yildan 2014 yilga qadar juda katta tezlikda ortib borgan. Jumladan 2008 yilda 50 yevrolik banknota 4,2 mlrd. dona emissiya qilingan bo'lsa, 2014 yilga kelib esa 7,5 mlrd. donaga yetgan. Bu holat shundan dalolat beradiki, aholining talabi nisbatan 50 yevrolik banknotalarda yuqori darajada. Shu bilan birga YMB pul siyosati Yevrohudud aholisining iste'mol darajasini oshirishga qaratilgan.

7-mavzu: Inflyatsiya va unga qarshi kurashish yo'llari

REJA:

7.1. Inflyatsiya, uning mazmuni, kelib chiqish sabablari va shakllari. Muomaladagi pul massasi va uni boshqarish.

7.2.Inflyatsiyaning ijtimoiy, iqtisodiy oqibatlari.

7.3.O'zbekiston Respublikasida inflyatsion jarayonlarning o'ziga xosligi

7.4.Inflyatsiyaga qarshi kurashish maqsadida pul- kredit siyosati va uning amaliy ahamiyati

7.1. Inflyatsiya, uning mazmuni, kelib chiqish sabablari va shakllari. Muomaladagi pul massasi va uni boshqarish.

[84] Annual report 2014. www.ecb.eu

Inflyatsiya lotincha «inflatio» so'zidan olingan bo'lib «ish», «bo'rtish», «ko'pchish» degan ma'noni anglatadi. Bu so'z XIX asrning o'rtalaridan boshlab iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy termin sifatida ishlatilguncha qadar, u tibbiyotda xavfli o'sma kasalini ifodalashda qo'llanilgan. Tarix haqiqatda ham bu so'zning har tomonlama xavfli ekanligini ko'rsatdi. Chunki inflyatsiya qandaydir alohida olingan bozorda tovarlar va xizmatlar narxining o'sishidangina iborat bo'lmasdan, bu umumiqtisod uchun xavfli hodisadir. Inflyatsiya so'zining iqtisodiy tarjimasi – muomalada mavjud bo'lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan ko'p pul chiqarish degan ma'noni anglatadi. Iqtisodda inflyatsiyaning yakuni tovarlar bahosining o'sishiga, qoniqtirilmagan, lekin qisman to'lanishi mumkin bo'lgan talablarning vujudga kelishga olib keladi. Odatda inflyatsiyaning bu turi - klassik inflyatsiya deb yuritiladi. Inflyatsiya so'zi pul muomalasi sohasida AQSh ning Shimoliy va Janubiy shtatlari o'rtasida fuqarolar urushi bo'lganda muomalaga juda ko'p miqdorda (450mln. grin bek) qog'oz dollar chiqarilgan boshlab qo'llanila boshlagan. Ularning sotib olish qobiliyati ikki yildan keyin 50 foizlargacha tushib ketgan . Agar tarixga e'tibor beradigan bo'lsak, urush va boshqa ofatlar sababli davlat xarajatlarning oshib ketishi, inflyatsiya bilan uzviy bog'liq. Masalan, Angliyada kuchli inflyatsiya XIX asrning boshida Napoleon bilan urush davrida, Frantsiyada - Fransuz revolyutsiyasi davrida, Rossiyada XIX asrning o'rtalarida namoyon bo'lgan. Germaniyada juda yuqori sur'atlardagi inflyatsiya 1923 yillarda bo'lib, muomaladagi pul massasi 496 kvintillion markagacha etgan va pul birligi trillion marta qadrsizlangan. Bu tarixiy misollar ko'rsatadiki, inflyatsiya hozirgi davr jarayoni bo'lmasdan, tarixan mavjud bo'lgan jarayondir. Inflyatsiya va uning rivojlanishi alohida olingan mamlakatda ma'lum xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Hozirgi davr inflyatsiyasi, o'tgan davr inflyatsiyasidan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Oldingi inflyatsiyalar vaqtinchalik bo'lib, ular odatda urush vaqtida harbiy xarajatlarni qoplash uchun qog'oz pullar chiqarilishi natijasida yuzaga kelgan. Biror daromad olmasdan turib, ya'ni ishlab chiqarish va tovarooborot sur'atlarini oshirmasdan yoki bu ko'rsatkichlar kamayib ketgan holda davlat tomonidan bo'ladigan xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy yo'llaridan biri qog'oz pullarni muomalaga chiqarishdan iborat bo'lgan. Natijada muomalaga chiqarilgan pullar, muomala uchun zarur bo'lgan oltin miqdoridan oshib ketgan va pulning real qiymati uning nominal qiymatidan tushib ketgan, ya'ni, xaqiqatda pul birligi o'zida ko'rsatilganidan kam oltin miqdorni ifoda qila boshlagan. Oldingi inflyatsiyalarning yana bir xususiyati shundaki, ular ma'lum davrda namoyon bo'lgan. Hozirgi davr inflyatsiyasi esa odatda doimiy (xronik) xarakterga ega bo'lib xo'jalik hayotining barcha sohalarini qamrab olishi bilan, pul omillaridan tashqari boshqa iqtisodiy omillarga ta'sir qilishi

I

bilan farqlanadi. Oxirgi yillarda inflyatsiya tez-tez uchrab turadigan jarayon bo'lib, sifati ham o'zgarib bormoqda. Buning sababi shundaki, hozirgi kunlardagi inflyatsiya: birinchidan, uzluksiz baholarning oshishiga; ikkinchidan pul muomalasi qonunining buzilishi natijasida umumxo'jalik mexanizmining ishdan chiqishiga olib keladi. XX asr inflyatsiyasining asosiy sababi tovar kamyobligigina bo'lib qolmasdan, ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishda krizislar mavjudligi bilan ifodalanadi. Hozirgi davr inflyatsiyasi birinchidan; pul talabining tovar taklifidan oshishi natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi; ikkinchidan; - ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar salmog'ining o'sishi natijasida tovarlar bahosining oshishi va shu sababli pul massasining ortib borishi bilan ifodalanadi. Inflyatsiyaning asosiy sababi - bu xalq xo'jaligining turli sohalari o'rtasida vujudga kelgan nomutanosiblikdir. Bu avvalambor, jamg'arma va iste'mol o'rtasidasidagi, talab va taklif, davlatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muomaladagi pul massasi va xo'jaliklarning naqd pulga bo'lgan talabi o'rtasidagi nomutanosibliklardan iboratdir.

1960-yillarning boshida inflyatsiya darajasi AQSHda 1-2%ni tashkil etgan. Oxirgi yillarda bu ko'rsatkich yuqori bo'lib, nobarqarorligi bilan ajralib turadi. 1960-yilning oxirida inflyatsiya 5%ni tashkil etdi, 1974 yilda esa, ikki sonli ko'rsatkichga yetdi. 1975-1978 yillarda inflyatsiya darajasi bir muncha sekin o'sgan bo'lsada, 1979-1980 yillarda 10%dan o'sib ketdi. 1982 -1990 yillarda inflyatsiya darajasi 5%gacha pasaydi.[85]

Qisqa qilib aytganda, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishida yuzaga keluvchi disproportsiyalar sababli tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy yoki to'xtovsiz o'sishi va natijada pul muomalasi qonunining buzilishi oqibatda pul biriligining qadrsizlanishiga inflyatsiya deb aytiladi. Inflyatsiya quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Tovar va xizmatlar bahosining uzluksiz va tartibsiz o'sib borishi natijasida p ulning qadrsizlanishi va uning sotib olish qobiliyatining tushib borishi;
2. Chet el valyutasiga nisbatan milliy valyuta kursining tushib ketishi;
3. Milliy pul birligida oltin narxining oshib borishi va boshqalar.

Ba'zi bir iqtisodchilarimizning fikricha inflyatsiya - bu barcha tovarlar baholarining oshishini bildirmaydi. Inflyatsiya juda tez o'sgan taqdirda ham ayrim tovarlar bahosi barqaror bo'lib qolishi, boshqalarniki tushishi ham mumkin ekan.[86] Bizning fikrimizcha, bunday xulosalar 70-80 yillarning inflyatsiyasiga mos kelishi mumkin. Albatta, inflyatsiya davrida baholarning oshishi doim bir xil sur'atlarda bo'lmasdan, sakrab turadigan bo'lishi mumkin. Lekin, ba'zi tovarlar bahosining tushishi yoki

---

[85] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited. 2013. 610 page.

2. Jo'raev T.T., Jo'raev A.D. «Pul kapital va xazina mollari bozori. Moliya, kredit-bank tizimi va davlatning soliq siyosati» T.: 1994 y.

barqaror bo'lib turishi XX asrning inflyatsiyasi uchun mos deb to'liq ishonch bilan uqtira olmaymiz. Ba'zida davlat aralashuvi bilan aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan ayrim bir tovarlar bahosining ma'lum davrda barqaror ushlab turish mumkin, ammo inflyatsiyaning kuchayib borishi shu tovarlar baholarining ham oxir oqibatda oshishiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, baholar oshishi to'g'risida gapirganda, inflyatsiya darajasida baholar oshishi va umuman baholar oshishi tushunchalarini to'g'ri talqin qila olish kerak. Masalan, xamma vaqt ham ba'zi tovarlar bahosining oshishi inflyatsiyani anglatmasligi mumkin. Tovarlar bahosi oshishi inflyatsiya bo'lmagan davrda, oltin pul muomalasi sharoitida ham bo'lishi mumkin.

**O`rmolovchi inflatsiya.** Bunda narx-navo sekin o`sadi va inflatsiya suratlari yiliga 1-3 % dan 5-10 % gacha bo`ladi. Mamlakatda iqtisodiy o`sish davom etadi, ishsizlik katta bo`lmaydi, bunday inflatsiya odatda, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xosdir. Bu inflyatsiya aksincha ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishni rag`batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo`lishi mumkin. Pulning qiymati barqarorligidagi o`zgarish sezilmasligi mumkin. Masalan 1998 yilda inflatsiya suratlari Avstriya, Belgiya, Germaniyada – 1.0 %, Ispaniya, Buyuk Bretaniya va AQSH da – 2 %, Gresiyada esa 4.8 %ni tashkil etgan. Bulardan tashqari bu guruhga G`arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlari, Kanada, Yaponiya, Sengapur, Malayziya, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni va boshqalar kiradi.

Suzib yuruvchi inflatsiya. Bunda yillik inflatsiya suratlari 10 % dan 100 % gacha bo`ladi. Mamlakatda narx-navo tezroq o`sa boshlaydi, iqtisodiy o``sish suratlari pasayadi, ishsizlik ko`paya boradi. Bunday inflatsiya rivojlanayotgan mamlakatlarga xosdir. Masalan 2001 yilda Rossiyada inflatsiya – 18 % ni, O`zbekistonda esa – 24 % ni tashkil etgan. 2002 yili O`zbekistonda inflyatsiya darajasi ancha pasaydi, uning o`rtacha oylik miqdori 1.6 %dan iborat bo`ldi.

Geperinflatsiya. Bu haddan tashqari kuchaygan inflatsiya bo`lib, uning yillik o`sish sur'atlari 100 % dan ko`p bo`lib ayrim holatlarda 1000 % dan ham ortadi. Narx-navo shiddat bilan o`sadi, pul qadri g`oyat tez pasayadi, pul topishga intilish eng past darajaga keladi. Geperinflatsiya sharoitida korxonalar va aholi nima qilib bo`lsa xam, chet el valyutasini yig`ishga xarakat qilishadi. Narx-navoni umuman tartibga solib bo`lmay qoladi, narxlar oyiga 50 % dan o`sadi. Tovarlarni sotib olishda barter usulida foydalanish vujudga keladi. Pul muomalasi izdan chiqadi. Geperinflatsiya sur'atlari 1985 yilda Boliviyada-38000 %, 1990 yilda Nekaraguada-8500 %, Peruda-8291 %ni tashkil etgan. 1991 yilda SSSR parchalanib ketgandan so`ng, sobiq ittifoqdosh respublikalarda ham geperinflatsiya ro`y berdi. O`zbekistonda esa 1994 yilda inflatsiya darajasi eng yuqori cho`qqiga chiqib 1282 % ni tashkil etgan[87]. Inflyatsiyaning kelib

[87] Z.D.Niyozov "Pul kredit va banklar" S. 2012 – Niyozov Z.D.

chikish sabablariga qarab uning ikki toifasini ko`rsatish mumkin: talab inflyatsiyasi va ishlab chiqarish bilan bog`liq inflyatsiya (taklif inflyatsiyasi).

Talab inflyatsiyasi. Inflyatsiyaning bu an'naviy turi talab oshib ketganda yuzaga keladi. Ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to`la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovarlar bahosi o`sadi. Kam miqdordagi tovarlarga ko`p pul massasi to`g`ri keladi.

Inflyatsiyada nafaqat chakana baxo, balki ulgurji baxo ham oshib boradi. G'arb mamlakatlarida inflyatsiyaning asosiy ko'rsatkichi qilib chakana baxolarning o'zgarishi (oshishi) qabul qilingan. Agar ma'lum davrda baxolar ikki marta oshsa, pul ham ikki marta qadrsizlangan deb hisoblanadi. Chakana baxolar o'sishini hisoblash maxsus davlat organlari tomonidan aniqlanadigan baxolar indeksiga asoslanadi. Baxolar indeksini hisoblashning boshlang'ich nuqtasi sifatida (yuz foiz deb) bazis yili olinadi va joriy yilda baxolar o'zgarishi, o'rtacha yillik o'sish sur'ati hisoblanishi mumkin. Baxolar indeksi bu joriy yildagi tovarlar va xizmatlar baxosi yig'indisi, ya'ni tovarlar bozor savati baxosining shu tovar va xizmatlarning bazis yildagi umumiy baxosi, ya'ni bozor savati baxosiga nisbati sifatida aniqlanishi mumkin. Yuqoridagi fikrni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin.

$$BI_{joriy} = \frac{BS_{joriy}}{BS_{bazis}}$$

Bunda

BI_{joriy} -joriy yilda baxolar indeksi

BS_{bazis} - bazis yildagi bozor savati baxosi

BS_{joriy} - joriy yildagi bozor savati baxosi

Baxolar indeksini hisoblashda iste'mol tovarlar baxosining indeksi katta ahamiyatga ega. Baxolar indeksi turli usullarda baxolar darajasini solishtirishga imkon beradi. Joriy yildagi baxolar indeksi bazis yildagi baxolar indeksiga nisbatan oshishi- inflyatsiya deb nomlansa, " Baxolar darajasining oshishi"dan, baxolar indeksining kamayishideflyatsiya ya'ni baxolar darajasining kamayishidan dalolat beradi.

Aytaylik, bazis davr 2010- yil bo'lsin (baxolar darajasi 100% deb olamiz) va 2015 –yilda baxo darajasi 400. Demak 2010-2015- yillarda baxolar 4 marta yoki 300% ga oshgan, yoki 2010- yilda biror Tovar 100 so'm bo'lsa, 2015-yilda shu tovar 400 so'm turadi.

Iste'mol tovarlar baxosi indeksidan tashqari ba'zi guruh tovarlar va xizmatlar, masalan: oyoq kiyimlar, transport, uy-joy xizmatlari va boshqalar bo'yicha baxolar indekslarini hisoblash mumkin. Baxolar indeksiga asoslanib, inflyatsiya sur'atlarini aniqlash mumkin. Buning uchun joriy yil baxolar indeksidan bazis davr baxolar indeksini chegirib, bazis davr indeksiga bo'lamiz.

Masalan, 2005- yilda iste'mol tovarlarning baxo indeksi 110, 2007 –yilda 140 bo'lsa, 2007-yilda inflyatsiya sur'ati quydagicha aniqlanadi.

Inflyatsiya darajasi = $\frac{140-110}{110} \times 100 = 27.27\%$

Demak, 2007-yilda inflyatsiyaning o'sish sur'atlari taxminan 27.3% teng bo'lgan. Inflyatsiyaning o'sish sur'atlari to'g'risida gapirganda, uning rivojlanishining boshqa yo'li ham mavjud. Bu usul << 70 lar qoidasi>> deb ataladi. Agar har yillik inflyatsiya darajasi ma'lum bo'lsa, baxolar ikki marta oshishi uchun necha yil kerak ekanligini aniqlash mumkin. Buning uchun 70ni har yilgi inflyatsiya darajasiga bo'lish kerak. Masalan, inflyatsiyaning har yillik darajasi 5% bo'lsa , baxolar darajasi 14 yildan keyin ikki marta oshishi kerak. Agar har yillik inflyatsiya darajasi 20% bo'lsa, baxolar darajasi 3 yildan keyin ikki marta oshishi kerak.

Iste'mol narxlar indeksidan tashqari inflytsiyni hisoblashning boshqa usullari ham mavjud.

Ishlab chiqaruvchlar indeksi (Producer Price Index)-ishlab chiqarishni yetkazish, soliq va boshqa qo'shimcha ustamalarsiz sof o'z qiymatida ifodalanishini bildiradi, PPIning ko'rsatkichi vaqt jihatdan CPI ko'rsatkichidan oldinroq bo'ladi.

Yashash xarajatlari indeksi (Cost-of-living Index, COLI)-daromad va xarjatlarning o'sishini hisobg olgan holda inflyatsiyani hisoblash usulidir.

YAIM deflyatori (GDP deflator)-bir xil turdagi tovarlar guruhi narxlarini o'zgarishi orqali inflyatsiya darajasini hisoblash usuli.

Paashe indeksi-joriy yildagi iste'mol xarajatlarining o'tgan yilda huddi shu assortimentdagi maxsulotlarni olish uchun ketgan xarajatlar summasi nisbatini ifodalaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu usul hamma vaqt ham masalan inflyatsiyaning o'sish sur'atlari yuqori (har kuni, oyda o'zgarib boradigan) bo'lsa, qulay hisoblanmaydi. << 70 lar qoidasi >> aholi jamg'armalarining, real yoki milliy maxsulot hajmining ikki marta oshishi uchun necha yil kerak ekanligini to'g'ri aniqlab berishga imkon beradi.

Oshkora inflyatsiya. Talab tomoniga qaragan makroiqtisodiy tengsizlik doimiy ravishda narx-navoning ko`tarilib borishi bilan ifodalanadigan bo`lsa, bunday inflyatsiya oshkora inflyatsiya deb ataladi. Oshkora inflyatsiya bozor mexanizmini buzmaydi: narx-navo ba`zi bozorlarda ko`tarilishi bilan bir vaqtda boshqa bozorlarda pasayib borishi mumkin. Buning asosiy sababi shundan iboratki, bozor mexanizmlari o`z ta`sirini davom ettirib, milliy iqtisodiyotga baholar to`g`risidagi ma`lumotlarni oshkora etkazib turadi, investitsiyalarni ilgari surib, ishlab chiqarishning kengayishi bilan taklifni rag`batlntirib boradi.

Yashirin inflyatsiya. Inflyatsiyaning ushbu turi shunday ko`rinishda bo`ladiki, bunday holatda ba`zi bir iste`mol mahsulotlariga narx-navo ma`muriy tarzda davlat tomonidan o`rnatiladi va tartibga solib turiladi. Bundan asosiy maqsad, davlat tomonidan ba`zi mahsulotlarga narx-navoni «ijtimoiy past» darajada belgilaydi. Yashirin inflyatsiya sharoitida narx-navoning keskin o`sishi kuzatilmasligi mumkin. Lekin milliy pul birligining qadrsizlanishi, mahsulotlar aholi pul mablag`lariga kerakli mahsulotlarni harid qilib bo`lmasligi holatlari paydo bo`ladi. Iqtisodiyotda yashirin inflyatsiya yuzaga chiqqanda mahsulotlarning narxnavosi hamda aholini daromadlarini o`sishi

vaqtincha to`xtatiladi. Yashirin inflyatsiyani vujudga kelishini asosiy sabablaridan biri bu narxlar ustidan ma`muriy nazorat o`rnatishdir. Buning natijasida bozor mexanizmi deformatsiyalanadi. Uning qaysi darajada va o`zgarganligi darajasi va davomiyligi davlat tomonidan olib boriladigan siyosatga hamda tartibga solish shakliga bevosita bog`liq bo`ladi. Ushbu inflyatsiyaning salbiy tomoni shundan iboratki, inflyatsiya davrida ishsizlik darajasi oshadi, chunki ishlab chiqarish rivojlanmaydi. Xorijiy va milliy iqtisodiy nazariyaning qarashlariga asosan milliy iqtisodiyotning balansini buzilishi va uning oqibatida inflyatsiyaning yuzaga chiqishining quyidagi to`rtta omillari mavjud:

- qog`oz pullarning emissiya qilishda va tashqi savdoda davlatning mutloq monopoliyasi;
- hozirgi zamon davlat funktsiyalarini bajarish uchun davlat xarajatlarini ortishi;
- kasaba uyushmalari tomonidan byudjet muassasalari ishchi-xodimlarining ish haqlarini oshirish bo`yicha faoliyati;
- iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish sohasida ayrim xo`jalik sub`ektlarining monopoliya (oligopoliya) holatining mavjudligi.

Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi omillarga qarab uning sabablarini ichki va tashqi sabablarga bo'lish mumkin. Inflyatsiyaning ichki omillari monetar-pul siyosati bilan va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq turlariga bo'linadi. Pul muomalasi muomaladagi pul massasaini bank tomonidan muomalaga chiqarilgan pullarning bankga qaytib kelish tezligini ifodalaydi. Agar muomalada oltinga almashinmaydigan banknotalar yoki qog'oz pullar amal qilsa, u holda naqd pul muomalasi pul muomalasi qonuniga asosan amal qiladi. Qog'oz pullar miqdori muomala uchun kerak bo'lgan oltin pullarning nazariy miqdoriga teng bo'lganda pul muomalasida hech qanday salbiy jarayonlar yuz bermaydi. Yuqorida ko'rsatilgan talab pulning barqarorligini ta'minlaydi, shuningdek, pul muomalasi mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy tizimlarda o'z kuchiga ega. Pul muomalasi qonuni muomaladagi tovarlar massasi, ularning narx darajasi va pul muomalasi tezligi orasidagi iqtisodiy aloqadorlikni aks ettiradi. Bu qonunga asosan muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

Realizatsiya qilinadigan tovarlar narxi summai	—	Kreditga sotilgan tovarlar narxi summasi нархи суммаси	+	Majburiyatlar bo'yicha to'lovlar summasi	—	Bir birini qoplaydigan to'lovlar summasi.

Pulning muomala va to'lov vositasi sifatida o'rtacha aylanish tezligi.

chiqarish rivoji va shart- sharoitlariga bog'liq bo'lgan turli xil omillar ta'sir ko'rsatadi. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil- bu tovarlar va xizmatlar baxosi hisoblanadi. Pul

miqdori tovarlar va xizmatlar baxosiga to'g'ri proporsional, ya'ni tovarlar va xizmatlar baxosining oshishi muomalaga ko'p pul chiqarishni talab qiladi. Bu omil pul miqdoriga teskari ta'sir ko'rsatadi. Odatda, pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori shuncha kam talab qilinadi va aksincha. Bu holda muomalaga chiqarilgan pul miqdori muomaladagi tovarlar baxosidan oshib ketishi, ya'ni inflyatsiya bo'lishiga yoki pul tanqisligiga olib kelishi mumkin. Pulning sotib olish qobiliyati shu pul birligiga to'g'ri keluvchi tovar va xizmatlar miqdori bilan ifodalanadi. Binobarin, pulning sotib olish qobilyatini ifodalovchi ko'rsatkich tovarlar va xizmatlar baxosi hisoblanadi. Agar tovar va xizmatlar baxosi barqaror bo'lsa, pulning sotib olish qobiliyati ham barqaror bo'ladi. Agar pul o'zgarmagan sharoitda tovarlar baxosi oshadigan bo'lsa, bu hol pulning sotib olish qobiliyati tushganini ko'rsatadi va aksincha, tovar va xizmatlar baxosining tushishini pulning sotib olish qobiliyati oshganligidan dalolat beradi. Inflyatsiya yuqori sur'atli sharoitda har bir ishlab chiqaruvchi resurslarni narxning oshib ketishidan cho'chib, o'z tovari narxini yuqori qilib belgilaydi. Keragidan ortiqcha tovar olish natijasida jamg'arma o'z navbatida kamayadi, kredit resurslarining kamayishi, investitsiyaning o'sishiga to'sqinlik qiladi, u o'z navbatida tovar va xizmatlar taklifining qisqarishiga olib keladi.

Inflyatsiyani uzoq muddat uchun izohlashda ko'plab iqtisodchilar bilan Fridman pul massasi va narxlar darajasidan foydalanishgan. Ular "Inflyatsiya bu puldan paydo bo'ladigan holatdir". Agar televidinie orqali o'tgan oydagi inflyatsiya darajasini e'lon qilinsa, bu ko'rsatkich inflyatsiyani ifodalamaydi, balki narxlar darajasi qanchaga oshganligini ko'rsatadi deb tushuntirishadi. Masalan, siz oxirgi yilda inflyatsiya darajasi 1%(yil uchin 12%) bo'lganligini eshitsangiz, unda narxlar darajasi 1%ga o'sganligini bildiradi. Balki bu bir martalik va vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lgan holatdir. Agarda inflyatsiya darajasi uzoq muddat (oxirgi yillarda oyiga 1%dan yuqoribo'lgan holat) davom etsa, unda iqtisodchilar uzoq muddati inflyatsiya haqida garirishadi.

Milton Fridmanning qarashini quyidagicha tushunish kerak:"Narx darajalarining o'sishi uzoq muddat davom etsagina monetar holat hisoblanadi". Inflatsiyaning mohiyatini anglagan holda, davom etayotgan tez narxlar o'sishini ko'plab iqtisodchilar (monetaristlar, keynslar ham) Fridman

pul massasining doimiy o'sishi holatidagina narx darajalarining o'sishini kuzatish mumkinligini ta'kidlashadi.

Monetaristlar nuqtai nazaridan pul taklifining doimiy o'sishi oqibatlarini 1-rasm orqali tahlil qilib chiqsak. Tasavvur qilaylik, iqtisodiyotdagi holat boshlang'ich 1 nuqtada bo'lsa, yalpi talab(AD) va taklif (AS)ning kesishish nuqtasi, tabiiy emissiya F va narxlar P darajada, agar pul massasi yil davomida barqaror o'ssa, yalpi talab o'ng tarafga AD taklif tomonga suriladi, qisqa muddatda iqtisodiyotning barqarorlik 1′ holatga suriladi, yalpi emissiya K′(tabiiy darajaga oshadi. Ammo, ishsizlik darajasining tabiiy

darajadan pastga tushishi ish haqining oshishiga olib kelib, egri yalpi talab chap tarafga suriladi. U AS_2 holatga emissiya uzoq muddatli egri yalpi taklifning tabiiy holatini egallaydi. Muvozanat nuqtasi 2 holatga suriladi, narxlar darajasi P_1 dan P_2 nuqtaga suriladi.

Agar kelgusi yilda pul massasi yana o'ssa, yalpi talab o'ng tarafga surilib, AD_3 nuqtasini egallaydi, egri yalpi talab esa, AS_y o'rinni egallaydi. Iqtisodiy muvozanat nuqtasi avval 2' holatga keyin 3nuqtaga suriladi. Bu holatda narxlar darajasi P_3 holatga suriladi. Agar kelgusi yillarda ham o'sib borsa, iqtisodiyotdagi narxlar darajasi oshib boraveradi va inflyatsiyani yuzaga keltiradi.[88]



1-rasm. Pul massasining doimiy o'sishining ta'siri.

Pul massasining doimiy o'sishi yalpi egri talabni AD_X o'ngdan AD_3 va AD_e o'ng tarafga qarab suriladi, ayni vaqtda pul massasining doimiy o'sishi egri yalpi taklifni L5 holatdan AS_2, AS_3 va AS_r chapga nuqtalarga suriladi. Natijada narxlar darajasi P, dan P_2, P_3 va P_4 gacha ortishiga olib keladi.

Monetaristlar nuqtai nazaridan, yalpi egri taklif darhol AS_2 holatga surilishi mumkin, chunki korxona firmalar pul massasining o'sishini kutishadi va bu kutilayotgan inflyatsiya darajasini oshishiga olib keladi. Bu holatda 2 nuqtaga harakatlanish tez bo'ladi va emissiya tabiiy darajadan yuqori bo'ladi.

Monetaristlar tarafdorlari inflyatsiyani pul taklifini o'sishidan boshqa omillar ham keltirib chiqarishi mumkinmi deb o'ylashadimi? Yo'q. Monetaristlarning nuqtai nazaridan yalpi egri talabni harakatining yagona manbasi pul taklifidir. ***Monetaristlar tarafdorlari yuqori darajadagi inflyatsiya darajasi pul massasining jadal tez o'sishi bilan yuzaga keladi deyishadi.***

Keyns nazariyasiga ko'ra, pul massasining doimiy o'sishi yalpi egri talab va yalpi egri taklifga rasmda ko'rsatilganligi singari ta'sir qiladi. Yalpi egri talab o'ngga harakatlansa, yalpi egri taklif chapga harakatlanadi. Xulosa

[88] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited. 2013. 620 page.

oldingidek qoladi, ya'ni pul taklifining jadal o'sishi narx darajalarini yuqori tezlikda o'sishi orqali inflyatsiyani yuzaga keltiradi.

Keyns modeliga ko'ra, pul massasining o'sishidan boshqa omillar yuqori darajadagi inflyatsiyani yuzaga keltirishi mumkinmi? Yo'q. Bu hayratlanarli ko'rilinishi mumkin, chunki Keyns tarafdorlari yalpi talab va yalpi taklifga fiskal siyosat va shoklar ta'sir qilishi qayd etishgan edi. Nima uchun Keyns nazariyasining tarafdorlari inflyatsini monetar holat deyishadi, chunki pul massasining yuqori darajada o'sishidan boshqa holatlar inflyatsina keltirib chiqarmaydi[89].

Inflyatisiyaga ta'sir etuvchi omillarni ichki va tashqi omillarga bo'lish mumkin. Inflyatsiyaga ta'sir qiluvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi:

✓ Xarbiy xarajatlarning oshishi. Mamlakat bujeti xarajatlarini oshirib, inflatsiya darajasining oshishiga olib keladi.

✓ Xaddan ziyod investisiyalarning kiritilishi;

✓ Balanslashmagan oylik ish xaqi va narxlarning o'sishi;

✓ Ekspansion siyosat. Kredit qo'yilmalarining arzonlashuvi iqtisodiyotga ortiqcha pul massasining chiqishiga olib keladi.

✓ Haddan ziyod emissiya yoki pul aylanishi tezligining oshishi.

Barcha iqtisodchilar iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlarini: yuqori darajadagi bandlik va narxlar barqarorligini bir xil tushunishadi. Ammo, odatda uni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalarni qarama qarshi berishadi. Aktiv iqtisodiy siyosat tarafdorlari o'z-o'zini boshqarish mexanizmi juda sekin ishlaydi shuning uchun hukumat maqbul darajada ishsizlik darajasini ushlab turish uchun aktiv faoliyat olib borishi lozim deb hisoblashadi. Passiv iqtisodiy siyosat tarafdorlari esa, ishsiz darajasini tushirish bo'yicha hukumat aktiv faoliyatni amalga oshirmasa iqtisodiyot muvafaqqiytliroq rivojlanadi deydi[90]. Inflyatsiya darajalarining oshishiga olib keluvchi tashqi omillar mamlakat ichki siyosatiga bog'liq bo'lmagan holda tashqi siyosat natijasida yuzaga kelishi mumkin, ularga quyidagilar kiradi:

✓ Tuzilmaviy inqirozlar;

• Tashqi savdodan tushumning kamayishi

---

[89] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited. 2013. 621 page.

[90] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited. 2013. 630 page.

• To’lov balansining salbiy qoldiqqa ega ekanligi.

Mamlakat tashqi savdo hamkor mamlakatlari va jahon miqyosida yuzaga kelgan tuzilmaviy inqirozlar mamlakatning ichki iqtisodiy holatiga ham salbiy ta’sir qiladi. Bunday holat mamlakatning eksportini pasayishi, kutilgan valuta tushumiga ega bo’lmasligi hamda ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta’sir qilishi orqali namoyon bo’ladi.

7.2.Inflyatsiyaning ijtimoiy, iqtisodiy oqibatlari.

Har bir mamlakatda inflyatsiya mavjudligi undagi iqtisodiy holatnig yomonlashuviga sabab bo`ladi. Ushbu salbiy holatlar quyidagi yo`nalishlarda yuzaga chiqadi:

1) Ishlab chiqarish xajmi qisqaradi, chunki narx-navolarning doimiy tarzda tebranib turishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga bo`lgan istiqbollarga ishonchni yo’qotishga olib keladi.

2) Ishlab chiqarish sohasidagi kapital savdo va vositachilik operatsiyalariga oqib o`tishi kuzatiladi. Chunki savdo va vositachilik sohalarida kapital aylanishi tez amalga oshadi va katta foyda keltiradi. Inflyatsiya yuqori bo`lgan davrda aholi o`rtasida puldan qochish holati kuzatiladi, ya`ni kishilar qo`llaridagi pullardan imkoniyat darajasida tezroq sarflashga harakat qiladilar. Ular pullarga turli tovarlar sotib oladilar.

3) Narx-navoning keskin va notekis o`zgarishi natijasida chayqovchilik kengayadi. Inflyatsiya natijasida tovar tanqisligi (defitsit) yuzaga chiqadi. Ushbu taqchillik narx-navoning keskin ko`tariladi. Chunki inflyatsiya darajasi tufayli yuridik va jismoniy shaxslarga tijorat banklaridan beriladigan kreditlarning 17 foiz darajasinig yuqori darajada o`rnatiladi. Ushbu salbiy holat ishonchni pasaytiradi. Inflyatsiyaning eng asosiy ijtimoiy oqibati bo`lib daromadlar va boyliklarni qayta taqsimlanishi amalga oshishi hisoblanadi. Ushbu qayta taqsimlanishi quyidagi omillar natijasida amalga oshadi:

- mamlakat aholisining daromadlari indeksatsiya qilinmasligi;
- tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar baholar indekslarining o`zgarishini hisobga olinmagan holda berilishligi. Inflyatsiya shart-sharoitlarida mamlakatda ichki mahsulot va milliy daromad quyidagi yo`nalishlarda qayta taqsimlanadi:

1) Milliy iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish sohalari va mamlaat xududlari o`rtasida narx-navoning notekis o`sishi natijasida

2) Mamlakat aholisi va davlat o`rtasida. Bunda davlat tomonidan muomaladagi ortiqcha pul massasidan qo`shimcha daromad sifatida foydalanadi. Xalqaro amaliyotda bu inflyatsion soliq deb nomlanadi;

3) Mamlakat aholisining sinflari va turli toifalari o`rtasida. Maxsulotlar va xizmatlarga bo`lgan narx-navoning notekis o`sib ketishi natijasida aholi o`rtasida ijtimoiy toifalarga bo`linishini (boylar, kambag`allar, qashshoqlar), mulkiy holatidagi farqni chuqurlashuviga, jamg`armalar va joriy iste`molning keskin

o`zgarishi yuzaga chiqadi. Inflyatsiyaning ijtimoiy salbiy ta`siri eng avvalo qat`iy belgilangan daromadlari oluvchi shaxslar hisoblangan – nafaqaxo`rlar, nogironlar, ko`p farzandli oilalar va davlat xizmatchilari (o`qituvchilar, vrachlar, bog`cha xodimlari va boshqalar) uchun juda og`ir kechadi;

4) Debitorlar va kreditorlar o`rtasida. Ushbu holatda olingan qarzlarni pul qadrsizlanishi natijasida debitorlar daromad oladi va buning aksi, kreditorlar qo`shimcha zarar ko`radi. Biz yuqorida keltirgan inflyatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy salbiy oqibatlari qo`shimcha ravishda mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarga ham faol ta`sir ko`rsatadi. Inflyatsiya darajasi yuqori mamlakatlar bilan qo`shimcha sug`urta va 18 turli kafolatlar asosida o`zaro munosablar olib boradilar. Xalqaro amaliyotda ushbu munosabatlar savdoning kamsitilishi yoki diskriminatsiya deb nomlangan. Mamlakat iqtisodiyotiga ayniqsa jilovlanmagan (giperinflyatsiya) juda salbiy ta`sir etadi. Buning natijasida iqtisodiy va ijtimoiy qarama-qarshiliklar keskinlashadi, aholi o`rtasida xukumatga bo`lgan norozilik kuchayadi. Shuning uchun, xukumat qarama-qarshiliklarni ijobiy hal qilish, milliy pul tizimining barqarorlashtirish uchun oqilona ishlab chiqilgan inflyatsiyaga qarshi choratadbirlarni amalga oshirishi lozim bo`ladi

Inflyatsiya jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko`rsatadi.

1. Mamlakat iqtisodiy ahvolini tang holga olib keladi:

- ishlab chiqarish hajmi tushib ketadi baholarning oshib borishi ishlab chiqarish istiqbollariga tug`onoq bo`ladi.
- kapitalning asosiy qismi ishlab chiqarishdan savdo sohasiga, vositachilik sohasiga oqib o`tadi. Chunki ishlab chiqarishdan ko`ra savdo sohasidagi kapital tezroq va ko`proq foyda keltiradi;
- baholarning o`zgarib turishi olib-sotarlikni rivojlantiradi, arzon vaqtida olib, qimmat bo`lganda sotish jarayoni, tovar zaxiralarini yashirish jarayonlari avj oladi;
- kredit berish jarayonlari cheklangan bo`ladi. Qarz oluvchilar ko`payadi-yu, qarz beruvchilar soni qisqaradi, chunki qarz bergan yutqazishi mumkin. Davlatning moliya resurslari qadrsizlanadi va hk.

2. Aholining kam daromad oluvchi qismining ijtimoiy jihatdan ahvoli yomonlashadi. Ularning real daromadlari kamayadi. Nominal daromadning baholar o`sishidan tushib ketishi natijasida aholining hayot darajasi pasayadi. Ayniqsa, nafaqa, davlat tashkilotlaridan maosh oluvchilarning ahvoli qiyinlashishi mumkin. Inflyatsiya aholi jamg`armalarininig qadrsizlanishiga olib keladi. Ba'zida inflyatsiya aholi ba'zi qatlamlarining (savdo-sotiq sohasida) boyishiga olib keladi. Davlat aholining daromadlar darajasini tenglashtirish maqsadida daromad va soliqlarni indeksatsiya qilib boradi.

Mamlakat tomonidan inflyatsiyaning samarali tashkil qilinmasligi natijasida quydagi oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

a) harbiy xarajatlarning o`sishi va iqtisodning militarlashuvi. Harbiy texnika sotib olish va boshqa harbiy xarajatlarni qoplash bilan bog`liq bo`lgan jarayonlar muomalaga keragidan ortiqcha pul chiqarishga sabab bo’ladi.

b) davlat qarzlarning o`sishi va budjet defitsitining mavjudligi.

Budjet defitsiti odatda zayomlar chiqarish yoki banknotalar emissiya qilish yo`li bilan qoplanadi. Bu o`z navbatida qo'shimcha muomala vositalari bo`lishiga, qo`shimcha talab yuzaga kelishiga olib keladi. O`zbekistonda byudjeti defitsitini qoplash yuqorilardagidan tashqari 1996-yildan boshlab davlat qisqa muddatli majburiyatlarini (DQM) sotish orqali ham qoplanmoqda.

Barchamiz singari hukumat ham o'z harajatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishi lozim. Albatta uning ham bujet cheklovlari bor. O'z xarajatlarimizni to'lash uchun pulni ishlab topishimiz yoki qarzga olib turishimiz mumkin. Davlat huddi shu usullardan foydalanadi: davlat bujetini yangi soliqlarni kiritish yoki qarzga mablag'larni davlat obligatsiyalarini chiqarish orqali jalb qilishi mumkin. To'g'risi bizdan farqli ravishda davlat uchinchi imkoniyati ham mavjud: pulni emissiya qilish va maxsulot va xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish.

Davlat xarajatlarini moliyalashtirish usullari davlat bujetini chegaralash shartlariga bo'ysunadi va quyidagicha tashkil etiladi: davlat bujeti difisiti DEF (davlat xarajatlari G va soliq daromadlarining Tning farqi) monetary baza AMB va aholi qo'lidagi obligatsiyalarning AB summasi o'zgarishiga teng bo'lishi kerak. Matematik nuqtai nazardan quyidagicha bo'ladi:

$$DEF = G - T = AMB + AB.$$

Amaliyotda davlat bujet cheklovlarini tushunish uchun 100 mln.dollarga hukumat superkomputerlar sotib olgnda ko'rib chiqsak. Agar u aholini computer shu narxga arzishini isbotlasa, soliqlarini 100 mln.dollarga oshirish mumkin, bunda bujet difisiti 0 ga teng bo'ladi. Bu holatda pul emissiya qilish ham obligatsiya chiqarishga ham extiyoj tug'ilmaydi, chunki bujet balans jolatida bo'ladi. Agar soliq to'lovchilar komputerni qimmat deb hisoblab, soliq to'lashdan bosh tortishsa, unda davlat bujeti cheklovlariga ko'ra, davlat obligatsiyalari yoki pul emissiya qilish orqali 100 mln.dollarni sotib olishga to'lanadi. Bu holatda bujet cheklovlari amalga oshiriladi; 100 mln.dollar bujet difisiti aholi qo'lidagi aholi qo'lidagi davlat obligatsiyalarining (AB =100 mln.dollar) yoki monetary bazani (AMB = 100 mln.dollar) o'sishi hisobiga qoplanadi.

Bujet cheklovlari bo'yicha xulosa qilsak, davlat bujetini difisitini obligatsiyalar chiqarish orqali qoplansa, pul bazasiga ta'sir qilmaydi, pul massasini oshiradi[91].

v) Xalq xo`jaligiga ortiqcha kreditlar berish natijasida muomalada kredit bilan bog`lik muomala vositalari yuzaga keladi. Bular tovar va xizmatlarga bo`lgan talabni oshirilishiga olib keladi.

g) Chet el valyutasining mamlakatga kirib kelishi va uning milliy valyutaga almashinuvi natijasida, muomalada pul massasi ortib boradi , milliy pulga nisbatan chet el valyutasining qadri oshishiga sabab bo'ladi.

---

[91] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited. 2013. 622 page.

Xalq xo`jaligining yetakchi tarmoqlarini keragidan ortiqcha investitsiya ham oborotga qo`shimcha pul ekvivalentlarini chiqarishiga olib keladi.

d) har xil jarayonlar va tarkibiy o`zgarishlar tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida maxsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Umuman xalq xo`jaligi bo`yicha ishlab chiqarish hajmi, binobarin, tovarlar bo`yicha taklif qisqaradi va tovarlar bahosi oshadi. Korxonalarning foyda hajmi qisqaradi.

e) har xil yangi xizmat turlari payd o bo`ladi ishlab chikarishga nisbatan kam mehnat unumdorligida yuqori ish haqi olishga imkoniyat tug`iladi. Natijada tovar va xizmatlarga bo`lgan baho oshib boradi.

f) aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash maqsadida ish haqining oshishi, tovarlar bahosining oshishiga olib keladi va yana ish haqi oshadi. va h.k. bu zanjir uzluksiz davom etish mumkin.

Xarajatlar inflyatsiyasida xom-ashyo va energetik resurslarga bo`lgan xarajatlarning o`sishi tufayli ishlab chiqariladigan mahsulotlar 12 va bajariladigan ishlarning narx-navosini o`sishi natijasida yuzaga chiqadi. Xomashyo va energetik resurslarga bo`lgan dunyo narxlarini ko`tarilishi hamda xorijiy valyutaga nisbatan milliy valyuta kursini pasayishi xarajatlar inflyatsiyasining yuzaga chiqishini asosiy sabablari hisoblanadi. Xarajatlar inflyatsiyasida ma`lum bir mahsulotning narx-navosini o`sishi avtomat ravishda boshqa mahsulotlar narxnavoni o`sishiga olib keladi. Masalan, neft` mahsulotlariga bo`lgan bahosinig o`sishi natijasida unga bevosita bog`liq mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko`rsatiladigan xizmatlar narx-navosi o`sib ketadi. Xarajatlar inflyatsiyasi taklif inflyatsiyasiga o`xshash, lekin bu inflyatsiyada ba`zi xarajatlarning o`sishi aniq olingan mamlakat iqtisodiyotiga bevosita bog`liq bo`lmagan holatlarda yuzaga chiqishi mumkin.

O’ 7.3. O’zbekiston Respublikasida inflyatsion jarayonlarning o’ziga xosligi

zbekistondagi inflyatsiya bu mustaqil O`zbekiston zaminida vujudga kelgan inflyatsiya emas. Tarixan bu inflyatsiya sobiq SSSR da yuzaga kelgan. Bu inflyatsiyaning umumiy iqtisodiy sababi davlat boshqaruvida iqtisodga nisbatan siyosatga ko`p e'tibor berganidadir. Natijada ishlab chiqarish sur'atlari tushib ketdi. Tovar kamyobligi yashirin jarayon bo’lib, tovarlarni ishlab chiqarish uchun ko`p xarajat qilinsada (xom-ashyolarning narxi yuqoriligi tufayli) tovarlar past bahoda sotilgan. Farq davlat byudjetidan qoplana borgan. 1992 yilning boshidan erkin baholarga o`tish natijasida (oziq ovqat va yoqilg`i resurslardan tashqari) inflyatsiya yuzaga otilib chiqdi va tez sur'atlar bilan rivojlanib ketdi.

Pulning qadrsizlanish darajasi alohida olingan mamlakatda har xil bo`lishi mumkin. Inflyatsiya darajasi rivojlanga n mamlakatlarda pastroq; va u tez o`tishi, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda uning darajasi yuqori, surunkali va “davolash” ham k o`prok vaqt talab qilishi mumkin. Masalan, 1971 - 1984 yillarda baholar o`sishi sur'atlarni oladigan

bo`lsak, u rivojlangan mamlakatlarda 4,9% dan (Germaniya), 71% (Jazoir) gacha bo`lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 8,5% dan (Xindiston), 153% ga (Argentina) yetgan [92]. Inflyatsiyaning namoyon bo`lishi har bir mamlakat iqtisodining rivojlanish darajasiga, milliy xo`jalik faoliyatiga va xususiyatiga, milliy an'analariga, mintaqaviy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish xususiyatlariga bog`liq. Rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiyaning sharoit va omillari har xilligini hisobga olib uni quyidagi guruhlarga bo`lish mumkin: *Birinchi guruhga rivojlanayotgan Lotin Amerika mamlakatlari -Argentina, Braziliya, Peru kabilar kiradi. Bu davlatlarga surunkali davlat budjet defitsiti, iqtisodiy muvozanatning yukligi asosiy va oboro t fondler qiymatining doimo indeksatsiya kilinishi, milliy valyuta kursining chet el valyutasiga nisbatan tushib borishi pul qadrsizlanishining omillari hisoblanadi. Bu mamlakatlarda surunkali budjet defitsitini emissiya yo`li bilan moliyalashtirish natijasida yillik pul qadrsizlanishi bir necha ming foizga etishi kuzatilgan. Argentina, Chili kabi mamlakatlarda inflyatsiya pul qadrini yemirib tashlashi natijasida oddiy biror tovarni sotib olish uchun bir necha million pul birligi zarur bo`lgan. 1983 yilda iyungacha, ya'ni muomalada eski peso bo`lganda Argentinada bir juft tufli yetti million peso, engil mashina sotib olish uchun bir necha milliard peso kerak bo`lgan. Bu hol xisob-kitoblarni olib borishda, pul muomalasida juda katta qiyinchilik tug`dirgan. Bir necha marta o`tkazilgan denominatsiyalar pul qadrsizlanishini to`xtatishga asos bo`la olmagan. Lotin Amerikasi mamlakatlarida bo`lgan inflyatsiya darajasini baholar indeksidan ham ko`rish mumkin. Bu mamlakatlarda baholar I ndekslari bir necha sonlardan iborat bo`lgan. Masalan, Chilida 1971-1984 yillarda bahodar indeksi 842162 yoki bu ko`rsatkich shu yillarda baholar 8,4 ming marta oshganidek, Argentina uchun shu indeks 436432250, bu baholar 436 ming marta osh ganini bildiradi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari ko`rsati b turibdiki, 1990 yilda Nikaraguada tovarlar bahosi 8500%, Peruda - 8291,5%, Braziliyada - 2359,9% ga oshgan*[93].

Ikkinchi guruh mamlakatlar: Kolumbiya, Ekvador, Venesuela, Eron, Suriya kabi mamlakatlarda ham iqtisodiy muvozanatning yo`qligi, moliyaviy siyosatdagi kamchiliklar - defitsitni moliyalashtirish, xalq-xo`jaligiga ko`p kreditlar ajratish inflyatsiyani bo`lishini ta'minlanmoqda. Bu mamlakatlarda inflyatsiya shiddatli xarakterga ega bo`lib, baholarning yillik o`sishi 30-40%. atrofida, ba'zida undan yuqori buladi. Inflyatsiya sur'atiga qarab jamg`armalar, to`lovlar bo`yicha indeksatsiya o`tkazib boriladi, ishsizlik oshib bormoqda.

Uchinchi guruhga: Xindiston, Indoneziya, Pokiston, Tailand, Filippinlar kabi mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlarda cheklangan iqtisodiy muvozanat mavjud bo`lib eksportdan valyuta tushumi ancha

---

[92] “1970 – yillarda dunyo mamlakatlarida inf. darajasi”- Fox News jurnalining 7-soni

[93] “1970 – yillarda dunyo mamlakatlarida inf. darajasi”- Fox News.jurnalining 7-soni

yuqori. Yillik inflyatsiya sur'ati 5-20% atrofida va qisman indeksatsiya o`tkazilib turiladi. Turtinchi guruh davlatlar - Singapur , Malayziya, Janubiy Koreya, Baxreyn, Arabistonda - iqtisodiy muvozanatning mavjudligi, inflyatsiya sur'atlarining sustligini ko`rsatadi. Bu mamlakatlardagi inflyatsiya 2-6% tashkil qiladi va uni sudraluvchi inflyatsiya deb qarash mumkin. Bu mamlakatlarda tovarlar va xizmatlar bahosi oshishi ustidan qattiq nazorat olib borildi[94].

Jahon moliya inqirozi sharoitida pul-kredit siyosatini amalga oshirishning muhim hususiyatlaridan yana biri monetar indikatorlarning nobarqaror bo‘lishi hisoblanadi. Masalan, Xitoy Markaziy banki 2007- yilda hisob stavkasini 5 marta o‘zgartirdi, AQSH Federal zaxira tizimi esa, 2007-2008- yillarda hisob stavkasini 18 marta o‘zgartirdi.[95]

Respublikamizda 2013-yilda inflyatsiya ko’rsatkichi 6.8 foizni, 2014-yilda esa 6.1 ni tashkil qilib o’tgan yilga nisbatan 11%ga kamaygan. Bu esa mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy tadbirlarning samarasi hisoblanadi. 2015- yilda esa bu ko’rsatkich 5.6 % ni tashkil qilib 2014-yilga nisbatan 9 % ga kamayib, yurtimizdagi ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish chakana savdo aloqalarining oshganidan dalolat beradi. Inflyatsiya darajasi 2016 yil yakunlari bo’yicha 5,6%ni tashkil etib, qayta moliyalashtirish stavkasi ham o’zgarishsiz qoldirildi, bu mamlakatimiz Markaziy Banki tomonidan o’rnatilgan maqsadli ko’rsatkichlar doirasidagi ko’rsatkich va rivojlanayotgn mamlakat uchun ijobiy holat hisoblanadi. Xalqaro amliyotda inflyatsiya darajasining 2% bo’lishi tabiiy holat hisoblanadi va iqtisodiyotga xech qanday salbiy ta’sir ko’rsatmasligidan dalolat beradi.

Xalqaro andozalar odatda, g’arb mamlakatlari turmush darajasi va mentalitetiga asoslangan bo’ladi. Usgbu andozalarga binoan iste’mol savatiga kirgan tovar va xizmatlarni axoli 12 oy, 4 fasl bir xil miqdorda iste’mol va xarid qiladi. Markaziy Osiyo mamlakatlari xususiy O’zbekiston ayrim meva-sabzavotlar yilning ayrim oylarida bozorda mavjud bo’lmasligi mumkin. Inflatsion ortiqcha talab sharoitlarida davlat o’z xarajatlarini qisqartirib, soliqlarni oshiradi. Natijada talab qisqarib, inflatsiya sur’atlari pasayadi. Biroq shu bilan bir vaqtning o’zida ishlab chiqarish sur’arlari ham chegaralanadi.

7.4. Inflyatsiyaga qarshi kurashish maqsadida pul- kredit siyosati va uning amaliy ahamiyati

Inflyatsiyaning har tomonlama avj olib ketishi mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qarama- qarshi qarshiliklar yuzaga kelishiga olib keladi.

Shuning uchun davlat inflyatsiyaning oldini olish, pul muomalasini barqarorlashtirish chora- tadbirlarini ishlab chiqadi. Inflatsiyaning qarshi kurashning asosiy shakllari:

[94] B.Andrew. B.Bernanke “Macroeconomics” eight edition, 2010. 239 page
[95] http://lenta.ru//news/2008/12/22/ japan sayti ma’lumotlari.

inflyatsiyaning qarshi siyosat va pul islohati hisoblanadi. Har davlatda pul muomalasi ma'lum qonun qoidalar asosida tartibga solib turiladi. Oldingi markazlashgan rejali boshqaruv asoslangan iqtisodiy tizimda pul muomalasi rejalashtirish asosida boshqarib kelingan. Axolining daromadi va xarajatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirib turilgan. Tovar ishlab chiqarishni kengaytirish axoliga kreditga tovar berish, baxolar tizimini o'zgartirib turish va hokazolar. Barcha jarayonlar davlat tomonidan boshqarilgani uchun pul muomalasi qonuni buzilganda davlat o'z vakolati doirasida narxlarni o'zgartirish yo'li bilan pul reformasi bilan pul muomalasini tartibga solib kelgan. *Bozor iqtisodi sharoitida pul muomalasini ma'lum usullar yordamida tartibga solib turadi.*

Inflyatsiyaga qarshi kurashish quyidagicha amlga oshirilishi mumkin:

- *Pul islohatlari (revolvasiya, devolvatsiya, nulifikasiya va denominasiya);*
- *Antiinflatsion siyosat: daromadlar siyosati va deflyatsion siyosat.*

Daromadlar siyosati (ijtimoiy noroziliklarni yuzaga keltirishi mumkin) ish haqi va narxlar o'sishini parallel nazorat qilgan holda, ish haqi o'sishini chegaralash yoki muzlatishdir. Deflatsion siyosat pul-kredit siyosati va soliq mexanizmlari orqali boshqarish bo'lib, unda davlat xarajatlari kamaytiriladi va soliq stavkalari oshirilishi yoki Markaziy bankning pul-kredit siyosati instrumentlari orqali pul massasini boshqarishdir.[96]

Markaziy bank pul muomalasini barqarorlashtirish va inflyatsiyani oldini olish borasida quyidagi pul-kredit siyosatini olib boradi:

1. Qayta moliyalashtirish siyosati
2. Majburiy rezervlar me'yorlari
3. Ochiq bozordagi operatsiyalar
4. Valyuta siyosati

Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarning majmui bo'lib, ushbu siyosat quyidagi uch xil kreditlash usulidan foydalanilgan holda amalga oshiriladi:

a) *tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan ularning balansidagi trattalarni qayta hisobga olish yo'li bilan kreditlash usuli;*

b) tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan ularning balansidagi qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kreditlash usuli;

v) tijorat banklarini to'g'ridan to'g'ri kreditlash usuli[97].

Mazkur usulda berilgan kreditlar overdraft shaklida yoki muddatli kreditlar shaklida beriladi. Mamlakatimizda Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan qayta moliyalashtirish stavkasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak u quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan:

Mamlakatimizda ham O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankining tijorat banklari beriladigan kreditlari uchun o'rnatiladigan qayta moliyalash

---

[96] B.Andrew. B.Bernanke "Macroeconomics" eight edition, 2010. 239 page

[97] P.Salin "International monetary system and the theory of monetary system" 2016, 217 page

stavkasi inflyatsiyaga qarshi kurashda asosiy stavkalardan biri sifatida xizmat qiladi. Respublikamizda milliy valyuta so'm muomalaga kiritiladigan paytda qayta moliyalash stavkasi yiliga 150% ni tashkil etar edi.Ammo milliy valyuta kiritiladiguncha bo'lgan inflyatsiyaning inersiya kuchi shu darajada katta ediki tezda qayta moliyalash bu darajasi yetarli emasligi ma'lum bo'lib qoldi. Inflyatsiyani kamaytirish borasida yanada qat'iyroq siyosat yuritish maqsadida markaziy bank 1994-yil oktabrdan boshlab qayta moliyalash stavkasini 150% dan 225 %gacha ko'tardi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan qayta moliyalashtirish stavkasi foizlari[98]

Amal qilish muddati	Foiz
01. 01. 2015 dan hozirgacha	9 %
01. 01. 2014 dan 31. 12. 2014 gacha	10 %
01. 01. 2011 dan 31. 12. 2013 gacha	12 %
15. 07. 2006 dan 31. 12. 2010 gacha	14 %
21. 12. 2004 dan 14. 07. 2006 gacha	16 %
05. 07. 2004 dan 20. 12. 2004 gacha	18 %
10. 09. 2003 dan 04. 07. 2004 gacha	20 %
16. 07. 2003 dan 09. 09. 2003 gacha	24 %
01. 01. 2002 dan 15. 07. 2003 gacha	30 %
01. 07. 2000 dan 31. 12. 2001 gacha	24 %
01. 06. 2000 dan 30. 06. 2000 gacha	27,6 %
01. 05. 2000 dan 31. 05. 2000 gacha	28,8 %
01. 04. 2000 dan 30. 04. 2000 gacha	30 %
01. 01. 1998 dan 31. 03. 2000 gacha	36 %
01. 11. 1997 dan 31. 12. 1997 gacha	30 %
01. 01. 1997 dan 31. 10. 1997 gacha	39,6 %
01. 08. 1996 dan 01. 12. 1996 gacha	48 %
01. 07. 1996 dan 31. 07. 1996 gacha	60 %
01. 08. 1995 dan 30 . 06. 1996 gacha	84 %
01. 07. 1995 dan 31. 07. 1995 gacha	120 %
20. 03.1995 dan 30. 06. 1995 gacha	300 %
01. 02. 1995 dan 19. 03. 1995 gacha	250 %
01. 10. 1994 dan 31. 01. 1995 gacha	225 %
02. 05. 1994 dan 30. 09. 1994 gacha	150 %

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan qayta moliyalashtirish stavkasi mustaqilligimmizning dastlabki yillarida barcha o'tish davridagi davlatlar kabi mamlakatda yuz bergan katta inflatsiya sabali yuqori stavkalarda belgilanishiga sabab bo'lgan. Ma'lumotlardan shunday fikrga kelish mumkinki yillar o'tgan sari iqtisodiyotimizdagi kamchiliklar tobora bartaraf etib borilgani barcha sohalardagi tub islohotlar samarasi o'laroq vujudga kelgan rivojlanishlar tufayli bu stavka ham

[98] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi

tobora ijobiy tomonga pasaytirib borilgan va 2015 – yil 1 – yanvardan 9 % etib belgilangan. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi pul bozoridagi foiz stavkalarini boshqarish hamda iqtisodiy o'sish jarayonlarini rag'batlantirish maqsadlariga yo'naltirildi. Inflyatsiya darajasi, pul massasining va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning maqsadli parametrlaridan kelib chiqib, qayta moliyalash stavkasi 2015- yilning 1-yanvaridan yillik 10 foizdan 9 foizga tushirildi va yil davomida o'zgartirilmagan holda saqlab turildi. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi instrumentidan ham pul bozoridagi foiz stavkalarini boshqarishda hamda iqtisodiy o'sish jarayonlarini rag'batlantirish maqsadida keng foydalanildi. Inflyatsiya darajasi, pul massasi hajmining va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning belgilangan maqsadli parametrlaridan kelib chiqib Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2012- yilda yillik 12 foiz miqdorida saqlab qolindi. Qayta moliyalash stavkasining ushbu darajada ushlab turilishi pul bozorida moliyaviy resurslarga bo'lgan talab va taklifning muvozanatini saqlashga, real sektor korxonalarining investitsion imkoniyatini oshirishga, iqtisodiyotni kreditlash hajmini yanada kengaytirish va ayni paytda tijorat banklarining resurs bazasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

2016- yilda ham inflyatsiya darajasi 2015- yildagi kabi 5,5-6,5 foiz doirasida prognoz qilinayotganligini hisobga olib, qayta moliyalash stavkasini 9 foiz darajasida qoldirish ko'zda tutilmoqda. Qayta moliyalash stavkasining 9 foiz darajasida saqlab qolinishi inflyatsiya darajasini belgilanayotgan prognoz ko'rsatkichlari doirasida bo'lishini ta'minlashga qaratilgan qat'iy pul-kredit siyosatini yuritish uchun qulay sharoit yaratadi. O'z navbatida, Markaziy bank, zarur hollarda, tijorat banklaridan xorijiy valyutalarni (AQSh dollari, evro, yapon ienasi va funt sterling) belgilangan muddat va almashinuv kursida qayta sotish sharti bilan, sotib olish (SVOP operatsiyalari) yoki xorijiy valyutalarni garovga olgan tarzda qayta moliyalash kreditlarini berish operatsiyalarini amalga oshirib boradi.[99] Respublikamiz tijorat banklarining yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarga qilgan investitsiyalarining miqdori darajasining juda past ekanligi Markaziy bankning lombard kreditlari hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini bermayapdi. Ko‘pchilik xorijiy davlatlarda, shu jumladan, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ko‘pchiligida yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar tijorat banklari aktivlarining umumiy miqdorida sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi. Demak, hozirgi davrda, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash siyosati doirasida amalga oshiriladigan diskont operatsiyalarining mavjud emasligi, lombard operatsiyalarining esa rivojlanmaganligi, bizning fikrimizcha, qisqa muddatli davriy oraliqlarda, Markaziy bankning tijorat banklariga beriladigan muddatli kreditlarining hajmini oshirish yo‘li bilan milliy ssuda kapitallari bozoridagi resurslar taklifiga va kreditlarning o‘rtacha bozor darajasiga ta’sir etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Markazlashgan kreditlarning respublikamiz

[99] 2016 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari

tijorat banklari kredit resurslarining umumiy hajmida juda kichik salmoqqa ega ekanligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining diskont siyosatining mavjud emasligi va uning lombard operatsiyalarining rivojlanmaganligi Markaziy bankning qayta moliyalash siyosatini takomillashmaganligidan, uning muomaladagi pul massasini tartibga solishdagi ahamiyatining past ekanligidan dalolat beradi. Mening fikrimcha, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank i tijorat banklarini kreditlash hajmini oshirish yo‘li bilan bank kreditlarining foiz stavkalarining darajasiga real ta’sir etishi va shu asosda ularning kreditlariga bo‘lgan talabni rag‘batlantirishi hamda tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasini sezilarli darajada oshirishi lozim. Bu esa, pirovard natijada, so‘mning o‘rta va o‘zoq muddatli davriy oraliqlarda barqarorligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy muhitni yuzaga keltiradi.

Ushbu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘ilishi mumkin, ya’ni Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati orqali tijorat banklarining kredit emissiyasini rag‘batlantirilishi muomaladagi pul massasining keskin oshishiga va shuning asosida inflyasiyani kuchayishiga olib kelmaydimi, degan savol tug‘ilishi mumkin. Chunki buyuk M. Fridmenning pul-kredit konsepsiyasidagi muhim qoidalardan biri - tijorat banklarining kredit emissiyasini keskin oshishi muomaladagi pul massasining oshishiga va shuning asosida inflyasiyaning kuchayishiga olib keladi, degan qoida hisoblanadi. Ammo bizning fikrimizcha, M. Fridmenning ushbu qoidasi O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi davrida o‘z isbotini topmaydi. Buning sababi shundaki, hozirgi davrda, respublikamizda milliy iqtisodiyotning bank kreditlari bilan ta’minlanish darajasi nisbatan juda past.

Majburiy zaxira siyosati Markaziy bank pul-kredit siyosatining an’anaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi. *Ushbu instrument dastlab tijorat banklarining kredit ekspansiyasini jilovlash maqsadida AQSH bank amaliyotiga joriy qilingan edi. Hozirgi davrga kelib majburiy zaxira siyosati muomaladagi pul massasini tartibga solishning, milliy bank tizimining likvidliligiga Markaziy bank tomonidan ta’sir etishning muhim, ta’sirchan vositasiga aylandi. Majburiy zaxira siyosati kam sonli davlatlarda pul-kredit siyosatining instrumenti sifatida qo‘llanilmaydi*[100]. Markaziy bank pul-kredit siyosatining instrumentlaridan foydalanish amaliyoti takomillashmagan mamlakatlarda, xususan, ko‘pchilik o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida majburiy zaxira siyosatidan Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri sifatida foydalanilmoqda. Majburiy zaxira siyosati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy, an’anaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarining rivojlanmaganligi majburiy zaxira siyosatining ahamiyatini yanada oshiradi. Mamlakatimizda majburiy rezervlar meyorlarini belgilash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1994 – yil 1 – maydan boshlab amalga oshirib kelinmoqda.

Bu ko’rsatkich 15 % gacha tushdi va bu ko’rsatkich 2007- yilga kelib 13 % gacha pasaytirildi. Lekin 2008 yilda vujudga kelgan jahon moliyaviy – iqtisodiy

[100] P.Salin “International monetary system and the theory of monetary system” 2016, 217 page

inqirozi tufayli yana 15 % ga ko’tarildi. 2009 – yilga kelib jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozini bartarf etish barobarida pul – kredit siyosati sohasidagi islohotlarga ehtiyoj sezildi va shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan yaxshilangan va zamon talablariga javob beradigan to’rt xil toifadagi guruhlash tizimi joriy etildi.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2009 yil 1-sentabrda o’rnatilgan majburiy rezerv me’yorlari[101]

Yuridik shaxslarning talab qilinguncha saqlanadigan va muddati 1 yilgacha bo’lgan depozitlari bo’yicha	Yuridik shaxslarning muddati 1 yildan 3 yilgacha bo’lgan depozitlari bo’yicha	Yuridik shaxslarning muddati 3 yildan ortiq bo’lgan depozitlari bo’yicha	Yuridik shaxslarning xorijiy valutadagi depozitlari uchun
15 %	12 %	10.5 %	15 %

Bu guruhlashning avvalgisidan farqli jihati shundaki 2009 – yil 31 – avgust-gacha yuridik shaxslarning muddati 3 yildan ortiq bo’lgan depozitlari bo’yicha 15% lik miqdor belgilangan bo’lsa 2009 – yil 1 – sentabrdan e’tiboran bu toifa ham 2 guruhga ajratildi va yuridik shaxslarning muddati 1 yildan 3 yilgacha bo’lgan depozitlari bo’yicha 12 %, yuridik shaxslarning muddati 3 yildan ortiq bo’lgan depozitlari bo’yicha 10.5 % lik me’yor o’rnatildiqolgan guruhlar va ularning foiz ko’rsatkichlari o’zgarishsiz ya’ni 15 %lik miqdorda belgilanligini ko’rishimiz mumkin. Hozirgi paytda ham respublikamizda mazkur zaxira me’yorlari qo’llanib kelinmoqda.

Markaziy bankning valyuta siyosati uning an’anaviy pul-kredit instrumentlaridan biri hisoblanadi. SHu sababli, valyuta siyosatining pirovard maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash hisoblanadi. 2016 yilda valyuta siyosati milliy valyuta almashuv kursi keskin tebranishlari oldini olishga, inflyatsion jarayonlarni jilovlashga hamda mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi. Bunda valyuta bozorini samarali tartibga solish maqsadida valyuta kursining o'zgarib boruvchi boshqariladigan strategiyasini qo'llash orqali so'mning AQSh dollariga nisbatan kursini bosqichma-bosqich pasaytirish choralari ko'rildi.

Mamlakatimiz tashqi savdo operatsiyalarining asosiy qismi AQSh dollarida amalga oshirilishini inobatga olib, so'mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda operatsion mo'ljal sifatida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursidan foydalanildi. Shunga muvofiq, so'mning AQSh dollaridan boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslari ushbu valyutalarning tashqi valyuta bozorlaridagi AQSh dollariga nisbatan kurslari dinamikasi va ichki valyuta bozorida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv

[101] O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari

kursi ta'siri ostida shakllandi. Mazkur davrda so'mning Buyuk Britaniya funt sterlingiga nisbatan almashuv kursi 11 foizga, evroga nisbatan 2,8 foizga, Xitoy yuaniga nisbatan 15,8 foizga, Yaponiya ienasiga nisbatan 17 foizga va Janubiy Koreya voniga nisbatan 8,7 foizga pasaydi. Markaziy bank milliy valyuta almashuv kursini maqsadli koridor doirasida ushlab turish uchun valyuta bozorida xorijiy valyutalarni sotuvchi va sotib oluvchi sifatida qatnashib, valyuta operatsiyalarini amalga oshirib bordi.

Markaziy bankning valyuta siyosati bilan pul-kredit siyosati o‘rtasida qarama-qarshilik tez-tez uchrab turadi. Masalan, respublikamizda tijorat banklariga naqd pul tushumi bo‘yicha «naqd pullarni qaytish koeffitsienti» deb nomlanuvchi ko‘rsatkich sifatida majburiyat yuklangan. Bundan tashqari respublikamiz tijorat banklarining aylanma kassalariga kelib tushgan naqd pullarning asosiy qismi (75-80%) birinchi darajadi to‘lovlarni (davlat byudjetining kassa ijrosi bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lovlar) to‘lashga yo‘naltirilmoqda. Natijada, respublikamizning tijorat banklarida so‘mdagi naqd pullarning etishmasligi muammosi yuzaga keldi. Bunday sharoitda tijorat banklari naqd xorijiy valyutalarni sotib olishdan manfaatdor bo‘lmaydi. CHunki naqd xorijiy valyutalarni bank tomonidan sotib olinishi uning so‘mdagi chiqimlari summasining oshishiga olib keladi va buning oqibatida naqd pullarning etishmasligi muammosi yanada chuqurlashadi. Xorijiy mamlakatlarning amaliyotida ham pul-kredit siyosati bilan valyuta siyosati o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ko‘zatish mumkin. Masalan, Rossiyada 1998-2000 yillarda milliy bank tizimidagi zaxiralarning o‘sishi sharoitida rubldagi pul massasining ma’lum qismini muomaladan olish imkonini beradigan moliyaviy instrumentlar etarli bo‘lmaganligi sababli pul agregatlarining o‘sishi yuz beradi. Buning natijasida baholarning o‘sish jadallashdi. SHunday qilib, pul-kredit munosabatlarini muvofiqlashtirish uchun Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining diskont, ochiq bozorlardagi operatsiyalar, majburiy zaxira normalari va valyuta siyosati instrumentlaridan foydalaniladi. Ushbu instrumentlardan foydalanishdan bosh maqsad mamlakat pul birligi barqarorligini ta’minlashdan iborat. Bunga erishish uchun esa pul bozorida talab va taklifga ta’sir ko‘rsatish orqali muomaladagi pul massasini muvofiqlashtirishdan iboratdir.Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining uch asosiy turi xalqaro bank amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Ular quyidagi operatsiyalardan iboratdir:

1. Valyuta intervensiyasini amalga oshirish maqsadida o‘tkaziladigan operatsiyalar. Valyuta intervensiyasi doirasida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari xorijiy valyutani milliy valyutaga sotib olish va sotish operatsiyalaridan iboratdir. Respublikamizda intervensiya vositasi sifatida ishlatilayotgan bazaviy valyuta AQSH dollari bo‘lganligi sababli, shu maqsadda amalga oshirilayotgan operatsiyalar AQSH dollarini sotib olish va sotish operatsiyalaridan iboratdir. Odatda, markaziy banklar valyuta intervensiyasining samaradorligini ta’minlash maqsadida intervensiya fondidan sotilgan xorijiy valyutadagi mablag‘larning miqdorini va intervensiya hisobarqamining qoldig‘ini sir tutadilar. Buning sababi shundaki, valyuta intervensiyasining samaradorligi deganda uning vositasida milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan almashuv

kursining favqulodda va keskin tebranishiga barham berilishi hisoblanadi. Agar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar Markaziy bank tomonidan xorijiy valyutani sotish hajmining o‘sib borishi sharoitida milliy valyutaning qadrsizlanishi davom etayotganligini sezib qolsalar, bu holat valyuta bozorida ruhiy vahima holatini yuzaga keltiradi va buning natijasida xorijiy valyutaga bo‘lgan talab keskin ortishi mumkin. Bunga xalqaro amaliyotdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, 1992 yilning sentyabr oyida G‘arbiy Evropadagi valyuta bozorlarida yuz bergan inqiroz natijasida Buyuk Britaniya funt sterlingi va Italiya lirasining nominal almashuv kursining keskin pasayib ketishi natijasida ular Evropa valyuta tizimidan chiqib ketdi. Buning sababi shundaki, Angliya va Italiya markaziy banklari o‘z milliy valyutalari kurslarining favqulodda tebranishiga valyuta intervensiyasi orqali barham berishning uddasidan chiqa olmadilar. Masalan, Angliya Markaziy banki valyuta intervensiyasi doirasida AQSH dollarini sotish hajmini oshirishi bilan London valyuta bozori ishtirokchilari tomonidan AQSH dollarini sotib olish hajmi ham oshib bordi. Buning oqibatida valyuta intervensiyasi samara bermadi. CHunki bozorda ruhiy vahima kuchli edi. Bu esa, bozorda AQSH dollariga nisbatan kuchli talabni yuzaga keltirdi.

2. Hukumatning tashqi qarzini to‘lash bo‘yicha Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari. Ma’lumki, rivojlangan sanoat mamlakatlarida, xususan, AQSH, GFR, Fransiyada hukumat xorijiy valyutalarda zaxiralarga ega emas, chunki bu mamlakatlarda davlatga tegishli barcha oltin-valyuta zaxiralari Markaziy bankning balansiga qonuniy asosda o‘tkazilgan. Bunday sharoitda hukumatning tashqi qarzi Markaziy bankning balansidagi oltin-valyuta zaxiralari hisobidan to‘lanadi. To‘lov amalga oshirilgandan so‘ng, Markaziy bank, xorijiy valyutada to‘langan mablag‘ning milliy valyutadagi ekvivalentini hukumatning joriy hisobraqamidan chegirib oladi. Hukumatning tashqi qarziga xizmat ko‘rsatishning mazkur shakli hukumatning tashqi qarz botqog‘iga botib qolishdan saqlaydi. CHunki Markaziy bank hukumatning to‘lanishi lozim bo‘lgan tashqi qarzining milliy valyutadagi ekvivalenti mavjud bo‘lmagan sharoitda to‘lov topshiriqnomasini qabul qilmaydi. SHu o‘rinda ta’kidlash joizki, hukumatning tashqi qarziga xizmat ko‘rsatishning mazkur tartibidan foydalanishda Markaziy bankning iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqilligining ta’minlanganligi muhim rol o‘ynaydi. Chunki Markaziy bankning mustaqilligi to‘liq ta’minlangan sharoitdagina uning Prezidenti hukumatning tashqi qarzini qonuniy to‘lanishini talab qila oladi. Aks holda, Hukumat Markaziy bankni tashqi qarzni to‘lashga majbur qiladi. Bunday sharoitda hukumat Markaziy bankning kreditlaridan tashqi qarzni to‘lashda manba sifatida foydalanishi mumkin. Xalqaro bank amaliyoti tajribalarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davrda, Markaziy bank o‘zining balansidagi oltin valyuta zaxiralarini boshqarishda asosan quyidagi usullardan foydalanadi:

– valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish usuli;
– valyutaviy svop operatsiyalaridan foydalanish;
– Gold svop operatsiyalaridan foydalanish;
– ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirish.

Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish deganda tarixan bir vaqtning o‘zida bir nechta yetakchi va barqaror valyutalarda zaxiralar tashkil qilish tushuniladi. Shunisi harakterliki, so‘nggi yillarda bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan (masalan, L. Krasavina, A. Kireev va boshq.) tomonidan valyuta zaxiralarining tarkibini nobarqaror valyutalarni sotish va ularning o‘rniga barqaror valyutalarni sotib olish yo‘li bilan yangilash operatsiyalari ham valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish sifatida e’tirof etilmoqda. Fikrimizcha, bu e’tirof mantiqan asoslidir. CHunki valyuta zaxiralarining tarkibini oldi-sotdi operatsiyalari orqali yangilash valyuta zaxiralarining diversifikatsiya darajasining sifatini oshiradi va valyuta zaxiralarining riskka uchrash xavfini pasaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida milliy valyuta bozorida oldi-sotdi ob’ekti vazifasini AQSH dollari bajarayotganligi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning xorijiy valyutadagi zaxiralarining 80 foizdan ortiq qismini AQSH dollarida shakllanganligi, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan chet el valyutasida berilgan kreditlarning 66 foizdan ortiq qismini (2006 yilning 1 yanvar holatiga) AQSH dollarida berilganligi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xorijiy valyutalardagi zaxiralarining diversifikatsiya darajasiga salbiy ta’sir qilmoqda. Oltinni xalqaro oltin bozorlarida (asosan London va Syurix bozorlarida) qulay bozor baholarida sotish malakali mutaxassislarning mavjud bo‘lishini taqozo etadi, mabodo, respublikamiz Markaziy bankida bunday kadrlarning, ya’ni oltin savdosi bilan shug‘ullanuvchi kadrlarning etishmasligi muammosi mavjud bo‘lsa, u holda Gold svop operatsiyalarini xalqaro hisob-kitoblar banki orqali amalga oshirish mumkin. Halqaro hisob-kitoblar banki markaziy banklarga valyutalar va oltindagi zaxiralarni svop sharti bo‘yicha joylashtirish, depozit-ssuda operatsiyalarini amalga oshirishda amaliy yordam ko‘rsatadi. SHuningdek, Markaziy bank O‘zbekiston hukumatiga, uning xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar bo‘yicha bergan kafilliklari bo‘yicha majburiyatlarini bajarishda, Gold svop operatsiyalari orqali amaliy yordam ko‘rsatishi mumkin. YA’ni, Markaziy bank hukumatning xorijiy valyutadagi to‘lovlari uchun zarur bo‘lgan miqdordagi tushumni olish imkonini beradigan miqdordagi spot sharti bo‘yicha sotadi. Xorijiy valyutada olingan tushumni hukumatga beradi. Undan keyin esa, Markaziy bank bilan hukumat o‘rtasida to‘zilgan to‘lov shartnomasining muddatidan kelib chiqqan holda, Markaziy bank xorijiy Markaziy bank bilan forvard valyuta shartnomasini to‘zadi. Forvard shartnomasining muddati tugashi bilan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Hukumatdan olingan xorijiy valyutadagi tushum hisobidan oltinni forvard kursi bo‘yicha sotib oladi. Milliy valyuta kursining iste’mol tovarlarining bahosiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’siriga barham berish markaziy banklarning valyuta siyosatida muhim o‘rin egallaydi. Buning boisi shundaki, inflyasiya va valyuta kursi o‘rtasida o‘zviy aloqadorlik mavjud. Odatda, milliy valyuta kursining pasayishi kelgusida inflyasiyaning o‘sishiga olib keladi. Inflyasion tayziq foiz stavkalarining o‘sishi bilan susayishi mumkin, ammo foiz stavkalarining o‘sishi investitsion va iste’molchi talabining pasayishiga olib kelishi mumkin. Agar

milliy valyutaning qadrsizlanishi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning investitsiya portfelining o‘zgarishi natijasi bo‘lsa, u holda, bunday qadrsizlanish yuqori darajadagi inflyasiyani yuzaga keltirishi mumkin. Bunday sharoitda foiz stavkalarining o‘sishini ta’minlash inflyasiyani jilovlashning oqilona yo‘li hisoblanadi. Agar milliy valyutaning qadrsizlanishi tashqi savdo shartlarining o‘zgarishi oqibati bo‘lsa, u holda foiz stavkalari pasaytirilishi lozim. CHunki bunday sharoitda sof eksport va umumiy talab qisqaradi. SHunisi harakterliki, milliy valyutaning qadrsizlanishi umumiy talabning qisqarishiga olib kelgan sharoitda Markaziy bank tomonidan restriksion pul-kredit siyosatining qo‘llanilishi milliy iqtisodiyotning rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni YAIMning o‘sish sur’ati sekinlashadi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi davrda foiz stavkalari va inflyasiya o‘rtasida bevosita aloqadorlik mavjud emas. Masalan, 2003-2006- yillarda tijorat banklari kreditlarining o‘rtacha tortilgan foiz stavkasining pasayishi tendensiyasi ko‘zatilmoqda. Buning natijasida tijorat banklarining kredit emissiyasi hajmi sezilarli darajada oshishi, inflyasiyaning o‘sishi ko‘zatilishi lozim edi. Lekin bu holatlar 2003-2006-yillarda ko‘zatilmadi. Masalan, 2003- yilda inflyasiyaning yillik darajasi 3,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2004- yilda — 3,7 foizni, 2005- yilda — 7,8 foizni, 2006-yilda — 6,8 foizni tashkil etdi. Fikrimizcha, foiz stavkalari va inflyasiya o‘rtasida bevosita aloqadorlikning mavjudligi ko‘zatilmagan sharoitda, milliy valyutaning nominal va real almashuv kurslarining import qilinayotgan tovarlarning va eksport qilinayotgan tovarlarning bahosiga ta’sirini tahlil qilish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirning oldini olish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta siyosatida muhim o‘rin tutishi lozim.

Ochiq bozordagi operatsiyalar muomaladagi pul massasini boshqarish, bank tizimi likvidligini tartibga solish va foiz stavkalari barqarorligini ta’minlovchi asosiy instrumentlardan biri sifatida Markaziy bank tomonidan muntazam ravishda keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Markaziy bank tomonidan pul-kredit ko‘rsatkichlarining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda, to‘lov balansining ijobiy saldosi hisobiga shakllangan qo‘shimcha likvidlikni sterilizatsiya qilish operatsiyalari o‘tkazilib borildi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozor operatsiyalarida oldi-sotdi ob’ekti bo‘lib hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalari va o‘rta muddatli xazina majburiyatlaridan foydalanilmoqda. SHu bilan birga, respublikamizda muomalada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari mavjud. Ammo bu obligatsiyalar tijorat banklarining vakillik hisobraqamlaridagi likvidlilikning ma’lum qismini olib qo‘yish maqsadida emissiya qilingan. Bir qator rivojlangan sanoat davlatlarida, masalan, AQSH, GFR, Buyuk Britaniya va Fransiyada Markaziy bankning qimmatli qog‘ozni bevosita emitentning o‘zidan sotib olishi ochiq bozor operatsiyasi hisoblanmaydi, balki kredit operatsiyasi hisoblanadi. Masalan, hukumatning qimmatli qog‘ozlarini bevosita hukumatning o‘zidan sotib olish Davlat byudjeti harajatlarini Markaziy bank tomonidan kreditlanishi hisoblanadi. SHuningdek, hukumatning qimmatli qog‘ozlarining kursini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan joriy operatsiyalar

ham ochiq bozor operatsiyalari hisoblanmaydi. Markaziy bank, odatda, ochiq bozor siyosatini amalga oshirish yo‘li bilan milliy bank tizimining zaxiralariga ikki usul bilan ta’sir qiladi:

1. Agar Markaziy bank tijorat banklarining likvidliligini oshirishni va milliy valyutadagi pullarning taklifini oshirishni maqsad qilib olgan bo‘lsa, u holda, Markaziy bank bozorda qimmatli qog‘ozlarni sotib oluvchi bo‘lib ishtirok etadi. Bunda Markaziy bank qimmatli qog‘ozlarga qat’iy belgilangan kurs o‘rnatishi va kurs shu belgilangan darajaga etishi bilan taklif qilingan barcha qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yo‘lidan foydalanishi mumkin. YOki Markaziy bank taklif etilgan paytdagi kursning qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ma’lum turdagi qimmatli qog‘ozlarni sotib olish miqdorini belgilashi mumkin.

2.Agar Markaziy bank milliy bank tizimidagi ortiqcha likvidlilikni kamaytirishni maqsad qilib olgan bo‘lsa, u holda, Markaziy bank qimmatli qog‘ozlar bozorida sotuvchi bo‘lib ishtirok etadi. Bunda ham Markaziy bank ikki imkoniyatga ega bo‘ladi:

– Markaziy bank ma’lum kursni e’lon qilishi va qimmatli qog‘ozlarning kursi e’lon qilingan darajaga etishi bilan istalgan miqdordagi qimmatli qog‘ozni sotish majburiyatini olishi mumkin;

– Markaziy bank qo‘shimcha tarzda ma’lum miqdordagi qimmatli qog‘ozni sotish majburiyatini olishi mumkin. Buning natijasida davlatning qimmatli qog‘ozlaridan va boshqa yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlardan keladigan daromadlarning miqdori oshadi va shuning asosida ularning investitsion jozibadorligi oshadi. Pirovard natijada, tijorat banklari va boshqa kredit institutlarining mazkur qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi va ularning kreditlash salohiyati pasayadi. Bu esa, o‘z navbatida, kreditlarning foiz stavkalarining oshishiga olib keladi. Agarda foiz stavkalarining shu taxlitda o‘sishi Markaziy bankni qoniqtirmasa, u yana qimmatli qog‘ozlarni sotib olishi mumkin. Bunday holatni bir qator rivojlangan sanoat mamlakatlari markaziy banklarining faoliyatida ko‘zatish mumkin. Masalan, GFR Federal banki (Bundesbank) tomonidan ochiq bozorda qat’iy foizli qimmatli qog‘ozlarni sotib olish 1975-yilning ikkinchi yarmiga kelib o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Bu vaqtda Bundesbank banklarning likvidliligini ta’minlash va foiz stavkalarini o‘zining pul-kredit siyosatining oraliq va taktik maqsadlariga mos keladigan darajasidan oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida 7,5 mlrd. nemis markasi miqdoridagi summaga yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlar sotib olgan edi. 1976 yilda esa, aksincha, Bundesbank bunday qimmatli qog‘ozlarni juda katta miqdorda sotdi34. Buning sababi shundaki, Bundesbank qat’iy foizli qimmatli qog‘ozlarning kursini oshishi natijasida bank kreditlari va depozitlari foiz stavkalarining pasayish jarayonini to‘xtatib qo‘ymasdan turib, bozordan katta miqdordagi likvidlilikni olib qo‘yishi zarur edi. Birgina 1976- yilning o‘zida Bundesbankning qimmatli qog‘ozlar portfeli 6,5 mlrd. nemis markasiga kamaydi. SHunisi harakterliki, ko‘pchilik rivojlangan sanoat mamlakatlarida ma’lum turdagi qimmatli qog‘ozlarga nisbatan kursni belgilab qo‘yish siyosati qo‘llaniladi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, Markaziy bank, qisqa muddatli qarz majburiyatlari bilan operatsiyalarni amalga oshirayotganida, minimal stavkani ko‘rsatadi. SHundan

keyin tijorat banklari, ularning kreditga bo‘lgan talablari qondirilgan sharoitda, to‘lashga rozi bo‘lgan stavkani ko‘rsatib ariza beradilar. Markaziy bank tushgan arizalar asosida o‘zining hisob stavkasini aniqlaydi. Bunda yuqori foiz stavkalari taklif qilgan kredit institutlari katta miqdorda kredit resurslari oladilar. Ochiq bozor operatsiyalarining e’tiborga molik jihatlaridan biri shundaki, xalqaro bank amaliyotida Markaziy bank bilan tijorat banklari o‘rtasida kursni belgilash borasidagi shartnomani imzolashda quyidagi ikki xil standart mavjud:

1. Foiz stavkalari barcha tijorat banklari uchun yagona stavkada belgilanadi.

Ushbu standart «kreditlarni taqsimlashning gollandcha usuli» deb ataladi.

2. Foiz stavkalari har bir tijorat bankiga nisbatan alohida o‘rnatiladi. Ushbu standart «amerikacha standart» deb ataladi.

Markaziy bankning ochiq bozor siyosati orqali tijorat banklari tomonidan depozitlarga to‘lanadigan va kreditlardan olinadigan foiz stavkalariga ta’sir ko‘rsatish mumkin. Mazkur ta’sir mexanizmi quyidagi ko‘rinishga ega: Markaziy bank iqtisodiyotning nobank sektoridagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bilan ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirganida pul bozorini tartibga solish maqsadini ko‘zlamaydi. Demak, Markaziy bank tomonidan sotib olinuvchi qimmatli qog‘ozlar tarkibiga kirmaydigan qimmatli qog‘ozlarning sotilishi ham bank tizimining likvidliligini kamaytiradi. Bundan tashqari, Markaziy bank, nobank sektoridagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga qimmatli qog‘ozlarni sotishda yuqori foizlar belgilash yo‘li bilan, tijorat banklarining depozitlarga to‘laydigan foiz stavkalariga faol tarzda ta’sir ko‘rsatishi mumkin. 2015- yilda bank ustav kapitalini oshirish maqsadida aktsiyadorlik-tijorat banklari tomonidan jami 553,6 mlrd. so'mlik aktsiyalar investorlar o'rtasida joylashtirildi va ularning 319,6 mlrd. so'mlik qismi nodavlat sektori hissasiga to'g'ri keldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga asosan «O'zsanoatqurilishbank» tomonidan 157 mlrd. so'mlik, Xalq banki tomonidan 54 mlrd. so'mlik aktsiyalar chiqarilib, investorlar orasida joylashtirildi. Shuningdek, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining ustav kapitali – 35 mlrd. so'mga, «Agrobank»niki – 50 mlrd. so'mga, «Mikrokreditbank»niki – 25 mlrd. so'mga va «Qishloq qurilish bank»niki – 25 mlrd. so'mga oshirildi. Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar natijasida bank tizimining umumiy kapitali so'nggi 5 yil davomida 2,4 martaga o'sdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida inflyatsiya mavjudligi tabiyi bo`lgani kabi, mamlakatning «soliq infratuzilmasi»da ham inflyatsiyaning qay darajada bo`lishi olib borilayotgan chora -tadbirlarga bog`liqdir. Xususan, O`zbekiston Respubliksi xukumati tomonidan tayinlangan ma`sul muassasalar (O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, O`zbekiston Respublikasi Markaziy Bank, O`zbekiston Respublikasi Soliq Qo`mitasi) tomonidan olib borilayotgan barcha iqti o`sish choralari «soliq inflyatsiya» siga qarshi olib borilmoqda. Sababi shundaki, «soliq inflyatsiya»sining dinamik pasayishi sodir bo`lganda quyidagi o`zgarishlar kuzatiladi: Ishlab chiqarish samaradorligi barqarorlashadi, real daromadlar ko`payadi. Demak, soliq to`lovchi xo`jalik yurituvchi sub`eklar xam kupayadi; xukumat tomonidan byudjetdan ajratiladigan loyihalarni moliyalashtirish bo`yicha investitsiyalar iqtisod qilinib, ularni real va effektiv moliyalashtirish

uchun xususiy sektor jalb etiladi; Umuman olganda, mamlakatda barcha tovar va xizmat belgilangan yuqori soliq bojxona stavkalari iste`mol va noiste`mol tovar va xizmatlarga belgilangan baholarning o`sishiga olib keladi. Inflyatsiya o'zi bilan birga katta iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlarni olib keladi. Natijada resurslar noto'g'ri joylashtiriladi, va bu o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi. Shuningdek, inflyatsiya iqtisodiy vakillarga o'z faoliyatini kelgusida rivojlantirishga halaqit beradi, hamda ularning olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga bo'lgan ishonch darajasini pasaytiradi. Bundan tashqari u milliy daromadni aholining bir qismi foydasiga va ikkinchi qismi zarariga qayta taqsimlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosatini asosiy vazifalardan ham inflyatsiya sur'atlarini pasaytirishdan iborat. Chunki Markaziy bankning monetary siyosati to'g'ri olib borilishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri bo'lib inflyatsiya hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan masalalar to'la hal qilinsa, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetary siyosatini yanada takomillashtirish, demakki, natijada bank tizimini yanada rivojlantirish mumkin. Bu o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishi va natijada axolining turmush darajasini yanada oshirishi mumkin.

8-mavzu. Kreditning zarurligi, funksiyalari, turlari va shakllari

REJA:

8.1.Kredit va uning mazmuni

8.2. Fondlar aylanishi va kreditning zarurligi.

8.3.Kredit munosabatlari va ularning turlari.

8.4. Kreditning tamoyillari.

8.5.Kreditning ob'ektlari va sub'ektlari.

8.6. Kreditning funksiyalari.

8.7.Kreditning turlari.

8.8.Kreditning shakllari

8.1.Kredit va uning mazmuni

J amiyatda tovar – pul munosabatlaridan keyingi vujudga kelgan muhim ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlardan biri kredit munosabatlari hisoblanadi. Kredit, pul kabi iqtisodiy kategoriya bo‘lib, pul mablag‘larining samarali ishlashiga, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslarning ortiqcha vaqt va mablag‘ sarf qilmasdan qo‘shimcha pul mablag‘lariga bo‘lgan talabini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit munosabatlari iqtisodiy fanlarning barcha bo‘g‘inlarida bevosita yoki bilvosita alohida ijtimoiy – iqtisodiy jarayon sifatida o‘rganiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “kredit” so‘zi lotincha *“creditum”* – ssuda, qarz so‘zidan paydo bo‘lganligi qayd etiladi. Ayrim iqtisodchi olimlar “*credo”,* ya’ni

“*ishonaman*” degan ma’noni anglatishini qayd etadi[102]. Albatta, kredit munosabatlarida ishtirok etayotgan sub’ektlarning bir – biriga bo‘lgan ishonchi asosiy omil hisoblanadi. Bu erda kreditor, kreditni berishda asosiy masala kredit oluvchiga nisbatan “ishonchi” muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi uchun birgina ishonchning o‘zi etarli bo‘lmaydi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishida ishonch bilan birgalikda shunday bir kategoriya mavjudki, bu kreditor va kredit oluvchi o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishga undaydi. Buni kreditor va qarz oluvchi nuqtai nazardan ko‘radigan bo‘lsak, kreditorni ushbu munosabatlarni rivojlantirishiga asosiy omil bu iqtisodiy manfaatdorlik, ya’ni kredit foizi hisoblanadi. Qarz oluvchi uchun esa ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta’minlash orqali tegishli iqtisodiy manfaatdorlikka erishishdir.

Bundan ko‘rinib turibdiki, kredit va kredit munosabatlarini vujudga kelishi va rivojlanishida har ikkala tomonning ham iqtisodiy manfaatdorligi kuchli moliyaviy mexanizm hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

– kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatdorligini ta’minlanishi. Xususan, kreditor kredit hisobidan foiz to‘lovlari sifatida foyda olsa, qarz oluvchi ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlash orqali tegishli foydani shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

– iqtisodiyotda vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘lar ssuda kapitali sifatida jamg‘arilib, tegishli maqsadlarga yo‘naltiriladi;

– iqtisodiyotda ishlab chiqarish siklining davriyligi. Bunda ayrim tarmoqlarda vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘lari vujudga kelsa, boshqalarida qo‘shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj tug‘iladi, ushbu jarayon kredit orqali tartibga solinadi;

– ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida qo‘shimcha moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojning asosiy qismi kreditlar orqali qondiriladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda kredit muhim moliyaviy element sifatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlashining asosida tovar ishlab chiqarish, yanayam aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak – kapital muomalasi va aylanishi yotadi. Jamiyatda kapital muomalasi va aylanishi doimo ham bir maromda amal qilmaydi, bular yuqorida ta’kidlanganidek qator omillar bilan izohlanadi.

Kreditning mohiyatiga qator iqtisodchi olimlar tegishli ta’riflarni shakllantirgan. Xususan, Щegorsova V.A. tahriri ostida tayyorlangan darslikda, “Kredit – qaytarish va to‘lov sharti bilan qarzdorga vaqtinchalik foydalanish maqsadida pul mablag‘i yoki moddiy buyum ko‘rinishida berish jarayonida

---

- Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С.410.
-

vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir” tarzidagi ta’rifi shakllantirilgan[103].

Professor O.I.Lavrushin tahriri ostida nashr etilgan darslikda kreditning mohiyatiga aniq ta’rif berilmagan. Biroq, ularning fikricha, kredit ijtimoiy munosabatlarning bir ko‘rinishi bo‘lib, iqtisodiy kategoriyadir. SHu bilan birga, kredit turlicha ijtimoiy munosabatlarda emas, balki iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi qiymatning harakati jarayonida namoyon bo‘ladi. Darslikda, kreditning mohiyatini aniq aks ettirish uchun uning tarkibi, harakat qilish jarayoni va vujudga kelish asosiga e’tibor qaratish lozimligi ta’kidlanadi[104].

Boshqa rossiyalik iqtisodchi olimlar “Pulli (tovarli) kredit to‘lov asosida amalga oshiriladigan bir toifadagi ekvivalentning turli vaqtdagi o‘zaro harakatining yig‘indisir.”, degan ta’rifni berishgan [105].

O‘zbekistonlik iqtisodchilardan professor Sh.Abdullaeva tomonidan nashr ettirilgan darslikda: “Kredit – bu vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma’lum muddatga, haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir” tarzidagi ta’rif berilgan[106].

Kreditning iqtisodiy mohiyatiga berilgan ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, bu borada iqtisodchi olimlarning fikrlari bir – biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bois, *“Kredit – tegishli tamoyillar asosida (qaytarishlik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik, muddatlilik va maqsadlilik) qiymat va moddiy buyum ko‘rinishida, jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etiladigan iqtisodiy kategoriyalarning bir shaklidir”* tarzidagi ta’rifni shakllantirishga jazm etdik.

8.2. Fondlar aylanishi va kreditning zarurligi

I shlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishidagi va fondlarning bir marta aylanishidagi qiymatning harakati kredit munosabatlari paydo bo‘lishining iqtisodiy asosidir.

Bizga ma’lumki, korxonalarning ishlab chiqarish fondlari (qiymat shaklidagi mehnat vositalari va predmetlari) muayyan bir muddatda pul (P), ishlab chiqarish va tovar (T) shakllarida bo‘lishi mumkin. Korxona ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

P T ... Ishlab chiqarish ... T^I P^I

---

[103] Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под. ред. проф.– Щегорцова В.А. М.:ЮНИТИ – ДАНА, 2005. –С.176.

[104] Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лавшурина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –С. 237 – 238.

[105] Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. –С.428.

[106] Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: “Иқтисод – молия”, 2007, 165 – б.

Fondlar doiraviy aylanishining birinchi bosqichida (PT) pul fondlarining ishlab chiqarish fondlariga aylanishi sodir bo‘ladi. Bunda mavjud pul mablag‘lariga mehnat predmetlari va vositalari sotib olinadi.

Fondlar aylanishining ikkinchi bosqichida ishlab chiqarish jarayoni sodir bo‘lib, bunda tayyor mahsulotni yaratish ro‘y beradi, mahsulot ko‘rinishi tovar ko‘rinishini oladi, ishlab chiqarish vositalari qiymatiga yangi qiymat qo‘shiladi.

Uchinchi bosqichda (T^I P^I) tayyor mahsulot sotiladi. Tovar o‘zining boshlang‘ich pul shakliga o‘tadi, lekin bunda tovar ham, pul ham o‘zining ishlab chiqarish jarayonidan oldingi holatiga nisbatan qiymat jihatdan va miqdor jihatdan ortgan holda bo‘ladi.

Mahsulotni sotgandan keyin olingan pul fondlari, o‘z navbatida, yana xarajat qilinadi, yani yangi ishlab chiqarish jarayoni uchun yangi ishlab chiqarish vositalari sotib olinadi, ish haqi to‘lanadi va boshqa xarajatlarga sarflanadi. SHunday qilib, aylanma mablag‘larning aylanishi qaytaqayta takrorlanaveradi va fondlarning doiraviy aylanishi vujudga keladi.

Fondlarning har bir individual doiraviy aylanishi ijtimoiy takror ishlab chiqarishning bir qismi sifatida boshqa doiraviy aylanishlar bilan uzviy bog‘langan.

Ma’lumki, 1-bosqich korxonalar tomonidan yaratilgan mahsulot 2- bosqich korxonalari va noishlab chiqarish sohasi tomonidan iste’mol qilinadi. O‘z navbatida, 2-bosqich mahsuloti nafaqat o‘z iste’molchilari ehtiyojini, shuningdek, 1-bosqich istemolchilarining ham ehtiyojini qondirish uchun ishlatiladi.

Bularning hammasi aylanma fondlarining doiraviy aylanishi uzluksizligidan va fondlarning individual aylanishlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligidan dalolat beradi.

Asosiy fondlar qiymati harakati jarayonida resurslarni ishlab chiqarishdan bo‘shatilishi ko‘zga tashlanadi. Ma’lumki, ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat xizmat qiladi va ularning qiymati tovar mahsuloti qiymatiga astasekin o‘tib boradi. Asosiy fondlarning astasekin eskirish qiymati o‘z o‘lchami bo‘yicha korxonaning yangi vositalar sotib olish hajmini ta’minlay olmaydi.

Fondlarning aylanishida asosiy fondlarning o‘zgaruvchan harakati ro‘y beradi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, bunda ba’zi korxonalarda bo‘sh pul mablag‘lari to‘planib qoladi, boshqalarida esa katta xarajatlarga ehtiyoj tufayli mablag‘lar etishmovchiligi yuzaga keladi.

Xuddi shunday vaziyat aylanma fondlari harakatida ham vujudga keladi. Bu erda ularning uzluksiz aylanishidagi tebranishlar yanada xilmaxildir. Dastavval bu tebranishlar ishlab chiqarishning mavsumiyligi, mahsulot ishlab chiqarish davri bilan mahsulotni sotish vaqti birbiriga mos kelmasligi tufayli vujudga keladi.

Mablag‘lar harakatidagi tebranishlar tovar mahsulotini jo‘natish bilan bog‘liq xarajatlar tufayli ham vujudga keladi. Ma’lumki, mahsulotni jo‘natish vaqti bilan uni sotishdan olinadigan tushumning korxona hisob raqamiga kelib tushish vaqti ko‘p hollarda to‘g‘ri kelmaydi. Bu hol turlicha sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Masalan, mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxona bilan uni iste’mol qiluvchi korxona birbiridan muayyan masofada joylashganligi, mol sotib oluvchi korxonaning

ayni vaqtda tovar va xizmatlarga to‘lash uchun hisobkitob raqamlarida pul mablag‘larining etarli emasligi va boshqalar tufayli kelib chiqadi.

Fondlarning doiraviy aylanishidagi tebranishlar zaminida ishlab chiqarish vaqti bilan mahsulotlarni sotish vaqtining mos kelmay qolishidan vujudga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi munosabatlarning paydo bo‘lishi tabiiy holga aylanadi. Bu munosabatlar mablag‘larning vaqtincha bekor turib qolishi bilan bu mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoj o‘rtasidagi qaramaqarshilikni bartaraf etadi. Bunday munosabatlar odatda, kredit munosabatlar deb yuritiladi va kredit munosabatlar asosida iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lgan **kredit** tushunchasi yuzaga keladi.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib, bo‘sh qolgan mablag‘larning harakatsiz turib qolishining oldi olinadi;

ikkinchidan, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo‘lishi zarur. SHu masala bo‘yicha ba’zi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kredit yuzaga kelishining quyidagi shartlariga ko‘proq e’tibor berilganini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Kredit munosabati bo‘lishi uchun:

birinchidan, kredit munosabati ishtirokchilari – qarz beruvchi va qarz oluvchi – huquqiy jihatdan mustaqil sub’ekt bo‘lishi kerak. Mustaqil sub’ekt sifatida har ikkala tomon birbiri bilan o‘zaro aloqalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishini moddiy jihatdan kafolatlay olishi kerak. Majburiyatlarni bajara olish qobiliyatini hisobga olgan holda mustaqil huquqiy sub’ekt sifatida tomonlar iqtisodiy munosabatga kirishishlari kerak.

ikkinchidan, qarz beruvchi va qarz oluvchi manfaatlari birbiriga mos tushgan taqdirdagina kredit zaruriyatga aylanadi. Bu manfaatlar, avvalambor, ob’ektiv jarayonlar, o‘zaro manfaatlarni taqozo etuvchi aniq vaziyat bilan bog‘liq.

Kreditor(qarz beruvchi) tomonidan pul mablag‘larini qarzga berish bo‘yicha, qarz oluvchi tomonidan esa shu mablag‘larni olish bo‘yicha qiziqish tug‘ilgan taqdirdagina kredit munosabatlari vujudga keladi.

Kreditning vujudga kelishi kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarining yo‘nalishiga bog‘liq. Tomonlar manfaatlarining mos kelishi kredit shartnomasi tuzilishini ta’minlaydi. Lekin kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaati nafaqat vaqt va makon jihatdan, shuningdek, sifat jihatdan ham mos tushgan taqdirdagina bu munosabatlar reallikka aylanadi. SHu bilan birga, kreditning bu muhim sifatlari kredit munosabatlari sodir bo‘lishining asosiy sababi bo‘lolmaydi. Kredit vujudga kelishi uchun, yuqorida aytilgandek, aniq bir iqtisodiy asos fondlarning doiraviy aylanishi va shunga o‘xshash boshqa aniq sharoitlar bo‘lishi zarur. Faqatgina ana shu ta’sir etuvchi omillar bo‘lgan taqdirdagina kreditning vujudga kelishi reallikka aylanadi.

Ba’zi iqtisodiy adabiyotlarda kreditning zarurligi xususida bir necha boshqa fikrlar ham uchraydi. Masalan, kredit korxonalar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish uchun zarur, deb ta’kidlanadi. Agar bu fikr to‘g‘ri deb qaraydigan

bo‘lsak, kreditning zarurligi faqat kreditor uchun tushunarli bo‘ladi, chunki u qarz berish orqali qarz oluvchi faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bunday sharoitda kreditning chegarasi ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishiga asoslangan ob’ektiv jarayonlarga emas, balki bankning kredit operatsiyalari orqali qarz oluvchining faoliyatini nazorat qilish istagiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Bu mulohazalardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish mumkinki**,** kreditning ob’ektiv zarurligi takror ishlab chiqarish jarayonida fondlarning doiraviy aylanishi qonuniyatlariga asoslangandir.

Kreditga zarurat tug‘ilganda quyidagi manbalardagi bo‘sh mablag‘lardan kredit resurslar sifatida foydalanish mumkin. Bu manbalar asosan quyidagilardir:

- asosiy fondlarni tiklash, kapital tamirlash uchun ajratiladigan amortizatsiya sifatidagi pul mablag‘lari;
- tovarlarni sotish va yangi moddiy resurslarni sotib olish vaqtlarining birbiriga mos kelmaganligi tufayli yuzaga kelgan bo‘sh pul mablag‘lari;
- tovarlar realizatsiyasidan tushgan tushum bilan ish haqini to‘lash vaqtlari orasida vaqtincha bo‘sh turib qolgan pul mablag‘lari;
- kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig‘iladigan va kapitallashtirish uchun mo‘ljallangan qo‘shimcha mablag‘lar;
- shaxsiy sektor daromadlari, jamg‘armalari va boshqa bo‘sh pul mablag‘lari.

Kreditning zarurligini ifodalovchi omillar mohiyatini ochishda, ularning har birining ahamiyatini kredit shartnomasini tuzish darajasigacha olib kelish xato hisoblanadi. Alohida olingan bir omilning o‘zi kredit berilishi uchun u yoki bu darajada etarli bo‘lmasligi mumkin.

Masalan, aytaylik korxonalarda ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishi jarayonida ularda kreditga ehtiyoj tug‘iladi. SHunga asosan kredit takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash zarurligidan kelib chiqadi, degan shartga asoslangan holda kredit berilishi kerak. Ammo bunda qo‘shimcha resurslarga muhtojlik o‘zo‘zidan avtomatik tarzda kredit berilishi kerakligini ifodalamaydi. Buning uchun kreditning zarurligini ifodalovchi boshqa sharoitlar ham mavjud bo‘lishi kerak.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri kredit munosabatlarini rivojlantirishda banklar kredit uchun xarakterli muhim shartlar va qonunlarga asoslangan holda kreditlash jarayonini amalga oshirishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarning xo‘jalik hisobida ish yuritishida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash, korxonaning asosiy va aylanma fondlarining doiraviy aylanishining to‘xtab qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, korxonalarning moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasining maromiyligini saqlash, korxonalar tomonidan tovar mahsulotini sotganda sotilgan tovar uchun to‘lov summasini olish ob’ektiv va sub’ektiv sabablar tufayli kechiktirgan holda kreditning zarurligi kelib chiqadi.

Ammo kredit berish uning zarurligi bilangina kifoyalanib qolmasdan uning maqsadli ishlatilishi shartsharoitlari bilan ham belgilanadi.

Iqtisodiyotning bir tekisda rivojlanishini ijtimoiy ishlab chiqarish ta’minlaydi. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini esa kredit vositasida uzluksiz davom ettirib, bir zum bo‘lsada, to‘xtab qolishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Demak, kredit iqtisodiyotning bir tekisda rivojlanishini ta’minlovchi dastaklardan biri degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Bizga ma’lumki, pul mablag‘lariga ko‘p hollarda kreditlarni, korxonalarning hisobvarag‘dagi mablag‘larini va naqd pullarni, aylanma mablag‘larini va moliyaviy resurslarni kiritadilar.

Bu iqtisodiy kategoriyalar tashqi tomondan o‘xshagani bilan, ularning ichki xususiyatlari juda xilma-xil va bir-biriga o‘xshamaydi.

8.3.Kredit munosabatlari va ularning turlari.

K redit o‘zining tarixiy rivojlanishida quyidagi bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan.

Boshlang‘ich shakllanish. Boshlang‘ich rivojlanish bosqichi natural xo‘jalikdan tovar xo‘jaligiga o‘tish bilan yuzaga kelgan. Ishlab chiqarish davrning o‘zaro mos kelmasligi, bir mahsulot egasi ikkinchi zarur mahsulotni olish uchun o‘z mahsulotini sotishga majbur bo‘ladi. Bunday jarayonda to‘lovlarning ikkinchi mahsulotni ishlab chiqarilgunga qadr kutishni talab qiladi. Ushbu jarayonda xaridor qarzdor bo‘lib, sotuvchi kreditor bo‘ilb yuzaga chiqadi. SHu bilan tovar ko‘rinishidagi kredit munosabatlari shakllana boshlangan. Ushbu rivojlanish bosqichining rivojlanishida sudxo‘rlik krediti muhim ahamiyat kasb etdi. Boy oilalar o‘z mahsulotlarini vaqtinchalik kreditga berib, evaziga shaxsning o‘zini garovga yoki er, mol-mulkini garovga olishgan.

Bu bosqichning asosiy belgisi ssuda kapitali bozorida maxsus vositachilar faoliyat yuritmasdan, kredit munosabatlari, bo‘sh pul mablag‘lar egalari va qarz oluvchilar o‘rtasida bevosita amalga oshirigan. Bu erda kredit sudxo‘rlik kapitali sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarkibiy rivojlanish. Ushbu bosqichda boshqariladigan kredit munosabatlariga o‘tilgan. Kredit rivojlanishining ushbu bosqichi ssuda kapitali bozorida kredit-moliya tashkilotlari kabi maxsus ilk vositachilarning paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Kreditga zaruriyat tug‘ilganda quyidagi manbalardagi bo‘sh mablag‘lardan kredit resurslar sifatida foydalanish mumkin.

- asosiy fondlarni tiklash, kapital ta’mirlash uchun ajratiladigan eskirish sifatidagi pul mablag‘lari;
- tovarlarni sotish va yangi moddiy resurslarni sotib olish vaqtlarining bir biriga mos kelmaganligi tufayli yuzaga kelgan bo‘sh pul mablag‘lari;
- tovarlarni sotishdan tushgan tushum bilan ish haqini to‘lash vaqtlari orasida vaqtincha bo‘sh turib qolgan pul mablag‘lari;
- kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig‘iladigan va kapitallashtirish uchun mo‘ljallangan qo‘shimcha mablag‘lar;
- shaxsiy sektor daromadlari, jamg‘armalari va boshqa bo‘sh pul mablag‘lari.

Kredit munosabatlari juda qadim zamonlarda vujudga kelgan. Dastlab natura shaklida (g‘alla, chorva va boshqalar) mulkdorlar tomonidan qarzga berish rasm bo‘la boshlagan. Keyinroq pul shaklida ham beriladigan bo‘ldi. Qarzga pul berishning dastlabki shakli sudxo‘rlik bo‘lib, u nihoyatda yuqori darajada foiz bilan qaytarilishi bilan kreditdan farq qiladi. Qadimgi Gretsiyada eramizgacha IV- asrda oyiga 42 %, yiliga 570 % gacha foiz to‘langani tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Sudxo‘rlik krediti nafaqat mayda ishlab chiqaruvchilarni, balki yirik quldorlarning xo‘jaliklariga ham putur etkazgan. Shuningdek, bu kreditning mavjudligi quldorlarning mavjud bo‘lishiga zid ijtimoiy hodisa edi.

Sudxo‘rlikka qarshi, shuningdek, yana bir grek faylasufi Arastu ham o‘z fikrlarini aytib o‘tgan. U sudxo‘rlarni ishratxonalarni va o‘g‘ri, qaroqchi kazzoblar, kisavurlar qatoriga qo‘ygan. U aniq chegaralagan holda 2 xil xo‘jalik faoliyatini ajratadi: iqtisod va xrematistika.

Xrematistika esa faoliyatning asosiy maqsadi ehtiyojdan ortib boylik orttirishga yo‘naltiriladi. Arastu buni 2 argument bilan asoslaydi:

1) bunday operatsiyalar narsalar tabiatiga qarshi bo‘lib,pulning o‘sishiga olib keladi, pul pulni yaratmaydi va foiz daromad keltirmaydi;

2) pulning asosiy va haqiqiy vazifasi-tovar almashinuvini ta’minlaydi.

Sobiq ittifoq davriga qadar kreditning ikki asosiy nazariyasi shakllangan bo‘lib, ular naturalistik va kapital yaratuvchilik nazariyalaridir.

Naturalistik nazariyaning asoschilari ingliz iqtisodchilari A.Smit va D.Rikardolardir. Fransuz iqtisodchilari J.B.Sey, F.Bastiya hamda amerikalik iqtisodchi D.Mak-Kulloxlar ham ushbu nazariya tarafdorlaridir.

J.Keyns nazariyasi kreditning kapital yaratuvchilik qobiliyatiga asoslangan.

J.Keyns ssuda kapitalini pulga tenglashtirgan va foiz darajasini umumiy muomaladagi pul miqdori orqali aniqlagan. Uning biroz keyin yaratgan konsepsiyasiga ko‘ra pul foizga ta’sir ko‘rsatadi, foiz – investitsiyaga, investitsiya – ishlab chiqarishga, ishlab chiqarish – daromadga, daromad esa narxga ta’sir qiladi.

Ayni vaqtda, pul massasi foizga ma’lum bir darajagacha ta’sir qiladi, foiz esa har doim ham investitsiyaga istalgan shaklda ta’sir qila olmaydi.

Kapital yaratuvchilik nazariyasining keyingi rivoji monetarizm nazariyasida o‘z aksini topdi. Monetarizm nazariyasi (ta’limotchilari) vakillari AQSHda M.Fridmen, P.Rouz, A.Berns, Fransiyada J.Ryueff, GFRda O.Faytlardir. Ushbu nazariyaning etakchi namoyondasi bo‘lib, M.Fridmen hisoblanadi. Uning konsepsiyasi (ta’limoti)ga ko‘ra iqtisodiyotni boshqarishning asosiy instrumenti kredit emas, balki pul massasi hamda foiz stavkalarining o‘zgarishidir.

Krediy munosabatlari rivojlanishini belgilovchi omillarga quyidagilar kiradi:

1.Iqtisodiyotning rivojlanishi;

Iqtisodiyot rivojlanish bosqichida bo’lgan davlatlarda kreditlarga bo’lgan talab ortadi. Kreditlash jarayonidagi risklar kamayadi.

Kredit munosabatlari siklik mazmunga ega bu iqtisodiyotning siklik rivojlanishi bilan bog’liq.

2.Bank tizimining rivojlanganlik darajasi.

3. Kredit oluvchining to’lovga bobilligi.

4. Iqtisodiy inqirozlarning yuzaga kelishi.

5.Markaziy bank monitar siyosatining o’zgarishi.

6. Siyosiy risk darajasi.

Siyosiy risk – mamalakatda siyosiy vaziyat yomonlashishi natijasida zarar ko’rish havfidir.

7.Mamlakatlar o’rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanganlik darajasi. Bunda xalqaro moliya institutlari bilan bo’ladigan hamkorliklar ham kiradi.

Kredit munosabatlari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari.

1.Bank krediti kreditning asosiy shakliga aylandi va uning miqdori dunyo mamlakatlarida o’sish tendensiyalariga ega bo’lmoqda.

2.Trasmilliy banklarning paydo bo’lishi bilan bank kreditining davlatlararo xarakatining hajmi va miqyosi kengaydi.

3.Kreditning xilma-xil turlari va shakllari paydo bo’ldi.

4.Kredit munosabatlari bilan moliya bozorilari o’rtasida kuchli aloqadorlik yuzaga keldi. Ushbu aloqadorlik quyidagi shakllarda namoyon bo’ladi:

a) moliya bozori instrumentlarining o’zgarishi kreditlar bahosining o’zgarishiga bevosiya ta’sir qila boshladi.

b)qimmatli qog’ozlar tijorat banklari kreditlari uchun garov obyekti hisoblanadi. Hulumatning qimmatli qog’ozlari eng yuqori likvidli garov obyekti hisoblanadi. Bazel qo’mitasining standartiga ko’ra kamida 3B reytingiga ega bo’lgan har qanday emitentning qimmatli qog’ozi likvidli garov obyekti hisoblanadi.

c)yuqori riskli qimmatli qog’ozlar muomalasi (obsionlar, fyucherslar) kreditlarning qaytmaslik ehtimolini oshirmoqda.

d)tijorat banklari kreditlari turli valyutalarda berilmoqda. Bu esa ayrim hollarda kredit riskining chuqurlashishiga olib keldi.

6.kreditning sug’urta bilan bog’liqligi yuzaga keldi.

O’zbekistonda kredit munosabatlarining o’ziga xos xususiyatlari:

1.Bank krediti kreditning yagona shakli hisoblamadi.

Respublikamizda tijorat kreditlari mavjud emas. Shu tufayli tijorat veksellari muomalasi ham mavjud emas.

2.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlash maqsadida maxsus bank Mikrokreditbank tashkil etildi.

3.Davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan paxta va bug’doyni yetishtirish xarajatlari Agrobank tomonidan amalga oshitiladi.

4. O’zbekistonda kreditning maqsadlilik ta’moyiliga amal qilinadi. Shu sababli kredit mijozning joriy hisob raqamiga tashlab berilmaydi.

5.Respublikamizda to’lovlarning maqsadli ketma-ketligi amal qiladi. Bu esa ayrim hollarda banklar tomonidan berilgan kreditlarni o’z vaqtida qaytarilishiga to’sqinlik qiladi.

8.4. Kreditning tamoyillari.

Kreditning funksiyalarini to‘laqonli amal qilishida uning tamoyillari alohida o‘rin tutadi. Kredit quyidagi tamoyillarni bajaradi:

–*muddatlilik tamoyili* (kreditlar kredit shartnomasiga asosan ma’lum muddatga beriladi. Mamlakatimiz bank tizimida kreditlar muddatiga qarab, qisqa yoki uzoq muddatli kreditlarga guruhlanadi);

–*to‘lovlilik tamoyili* (kreditor barcha kreditlar uchun tegishli to‘lovlarni foiz ko‘rinishida kredit oluvchidan undiradi);

–*ta’minlanganlik tamoyili* (berilgan kreditlarning barchasi u yoki bu darajada tegishli risk bilan bog‘liq bo‘ladi, kreditor ushbu riskni pasaytirish maqsadida kredit oluvchidan uning ta’minlanganligini talab etadi. Odatda, kreditlar mol – mulklarni garovga qo‘yish, sug‘urta polisi va uchinchi shaxslarning kafolat xatlari bilan ta’minlanadi);

–*qaytarishlik tamoyili* (kreditor tomonidan vaqtincha foydalanishga berilgan mablag‘lar tegishli muddatlardan so‘ng to‘liq qaytaralishi lozim bo‘ladi);

–*maqsadlilik tamoyili* (kreditor berayotgan kredit bo‘yicha tuzilgan shartnomada kreditni yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan aniq maqsadlarni qayd etadi va olingan kreditni shu maqsadga ishlatishi belgilab qo‘yiladi).

Xulosa qilib aytganda, kreditning funksiyalari va tamoyillarini to‘laqonli amal qilishiga qator omillar ta’sir etadi. Mazkur omillar mamlakat bank tizimining holati, milliy iqtisodiyotdagi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlari, davlatning ichki va tashqi siyosati natijalari sifatida namoyon bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aynan shu munosabat va siyosatlarni samarali jarayonlarini ta’minlanganligi kredit funksiyalari va tamoyillarida o‘z aksini topadi.

8.5.Kreditning ob’ektlari va sub’ektlari.

Kreditning mohiyatini yanada aniqroq va to‘liqroq ochib berishda uning sub’ektiv va ob’ektiv mohiyatiga e’tibor qaratish lozim. Kredit munosabatlarining vujudga kelishida, shuningdek, uning mohiyatini ochib berishda kreditning sub’ektiv mohiyati ham alohida o‘rin tutadi.

Kreditning sub’ektiv mohiyati bir – biriga bog‘liq bo‘lgan *“kreditor”* va *“kredit oluvchi”*ning munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

“Kreditor” va “kredit oluvchi” o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarning asosida tovar – pul aylanmasi yotadi. Jamiyatda vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larning mavjudligi va tovar aylanmasining mavjudligi kredit va qarz oluvchining manfaatlarini bir – biriga to‘qnashishiga xizmat qiladi. Agar, ushbu manfaatlar bir – biriga mos kelsa ular o‘rtasida kredit munosabatlari vujudga keladi.

Kreditor – kredit munosabatlarini tashkil etishda kredit beruvchi sifatida maydonga chiqadi. Kreditor pul mablag‘larini vaqtinchalik foydalanishga beruvchi sub’ektlar hisoblanadi. Bunday sub’ektlar banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlar, lombardlar, davlat va boshqa moliyaviy tashkilotlar bo‘lishi mumkin. Kreditor ssuda sifatida beradigan pul mablag‘lari ularning *o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lari* hisobidan shakllantiriladi. Kreditor sub’ektlar ichida, banklar va kredit uyushmalari nafaqat o‘z mablag‘lari hisobidan, balki chetdan jalb qilingan mablag‘lar hisobidan kreditlar beradi. Mablag‘larni jalb qilishning turli yo‘llari mavjud bo‘lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyalar va obligatsiyalarni muomalaga chiqarish asosiy va samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Kreditor jamiyatdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni tegishli shartlar asosida jalb qilib, ushbu mablag‘larni kreditning qayta taqsimlash funksiyasi orqali real sektorning zarur bo‘lgan bo‘g‘inlariga joylashtiradi. Bu jarayon iqtisodiyotdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini samarali ishlashini, ya’ni kapital aylanmasini to‘xtovsizligini ta’minlash bilan birga, kreditor jamlangan mablag‘larni zarur maqsadlarga joylashtirish asosida ushbu mablag‘larni o‘z maqsadi va kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlari yo‘lida xizmat qilishiga erishadi.

Kredit oluvchi – kredit munosabatlarida kredit oluvchi sifatida ishtirok etadi. Kredit oluvchi sub’ektlar sifatida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, aholi, davlat, banklar va boshqa shaxslar maydonga chiqadi. Iqtisodiy adabiyotlarda kredit oluvchini qarzdor sifatida talqin etish holatlari uchraydi, shuningdek, kredit va qarzning bir – biridan iqtisodiy jihatdan farqlanishi xususida ham tortishuvlar ko‘zga tashlanadi. Albatta, “kredit” va “qarz” o‘rtasida o‘zaro bog‘liklik bo‘lishi mumkin, lekin iqtisodiy mohiyatan bu ikki tushuncha o‘rtasida bir – biridan jiddiy farq qiladigan jihatlari mavjud. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida tegishli ijtimoiy – iqtisodiy qonunlar va tamoyillar asosida amal qiladi. Kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi har ikkala tomonning iqtisodiy manfaatlari mavjud bo‘lib, ushbu manfaatlar o‘zaro mujassamlashganda kredit munosabatlari ro‘y beradi.

Kreditor berilgan kredit uchun iqtisodiy manfaatdorlik (foyda)ni foiz ko‘rinishida undirsa, kredit oluvchi kredit yordamida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash orqali qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kredit munosabatlarida kreditor uchun kredit oluvchi shaxsning qanday shaxs ekanligi, qanday faoliyat bilan shug‘ullanishi judayam muhim emas, asosiysi berilgan kredit o‘z vaqtida va tegishli foiz to‘lovi bilan to‘liq qaytishi muhim hisoblanadi.

Qarz munosabatlarida esa qarz beruvchi uchun birlamchi masala shaxs hisoblansa, berilayotgan qarz summasi uchun tegishli manfaatdorlikni ustama to‘lov sifatida olishga umid bog‘lamaydi, ya’ni ko‘pchilik hollarda berilgan qarz uchun qo‘shimcha haq talab etilmaydi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish munosabatlarining chuqurlashuvi, tovar – pul munosabatlarining mavjudligi, ishlab chiqarish siklining davriyligi, o‘zaro iqtisodiy manfaatlarning bir – biriga mos kelishi kreditning zarurligiga zamin yaratuvchi asosiy omillar bo‘lib qolaveradi. Kredit munosabatlari jarayonida ishtirok etuvchilar, mavjud ijtimoiy – iqtisodiy holat esa uning mohiyatini u yoki bu darajada yoki ko‘rinishda namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

8.6. Kreditning funksiyalari.

Kreditning mohiyati uning funksiyalarida yanayam yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Kreditning funksiyalari turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha va miqdorda keltiriladi.

Ayrim adabiyotlarda iqtisodchi–olimlar kreditning funksiyalarini beshta ekanligigini ta'kidlashsa[107], ayrimlarida uning funksiyalari ikkitadan iboratligiga da'vogarlik qiladi[108].

Iqtisodchi – olimlarning kredit funksiyalari haqidagi fikrlariga, shuningdek, kreditning tovar–pul munosabatlari va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokiga tayangan holda, uning *qayta taqsimlash (1), muomala jarayonini tezlashtirish (2), pullarni muomalaga chiqarish va naqdlashtirish (3) hamda pul kapitalini jamg'arish va markazlashuvini jadallashtirish (4) funksiyalarini* bajarishini ta'kidlash mumkin.

Kreditning funksiyalari ichida *qayta taqsimlash funksiyasi* asosiy funksiyalardan biri hisoblanadi. Kredit ushbu funksiyasi orqali jismoniy va yuridik shaxslarining taqsimlangan daromadlarining vaqtinchalik foydalanilmagan qismini tegishli fondlarga jalb qiladi. Jalb qilingan mablag'lar iqtisodiyotning qo'shimcha resurslarga ehtiyoji mavjud tarmoqlariga qayta taqsimlanadi.

Kredit ushbu funksiyasi orqali vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larining sohiblariga qo'shimcha daromad olish imkoniyatini yaratsa, kreditorga qo'shimcha mablag'larga ehtiyoji mavjud shaxslarga tegishli foizlar berish asosida daromad olishga, kredit oluvchilarga esa ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta'minlash natijasida qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatini yaratadi.

Demak, kreditning qayta taqsimlash funksiyasi orqali ssuda kapitali iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida, qaytarishlik asosida joylashtiriladi, bu kredit munosabatlarida bevosita ishtirok etayotgan tomonlarning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlash bilan birga, vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini kreditor ixtiyoriga yo'naltirgan shaxslarga tegishli daromad olishiga xizmat qiladi.

Kreditning qayta taqsimlash funksiyasini amal qilishida pulning jamg'arma funksiyasining bevosita va bilvosita ta'siri mavjud. Ushbu masalaga klassik va neoklassik maktab vakillari alohida e'tibor qaratishgan. Xususan, A.Marshall «odamlar sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaramasdan, ular uni (pulni) ishlatmasliklari mumkin», deydi. Ko'rinib turibdiki, ushbu e'tirof Sey qonunini to'lig'icha inkor etmaydi. Aksincha, neoklassik – iqtisodchilar shunday to'xtamga kelishdiki, Sey qonuni bir shart bilan bajariladi, bu vaqtda faqat jamg'arma (S) investitsiya (I) ko'rinishini oladi. Ularning ta'kidlashicha, bu vaqtda kapital bozoridagi talab va taklifning muvozanati foiz stavkasining barqarorligi hisobiga yuz beradi. Agar jamg'arma (kapitalning taklifi) hajmi mo'ljallangan investitsiya qilish hajmidan kam bo'lsa, natijada foiz stavkasi oshadi, buning oqibatida investitsiyaga bo'lgan talab kamayadi, jamg'armaga nisbatan taklif esa ortadi.[109] Ushbu holat o'rtasidagi o'zaro muvozanat jamg'arma va kreditning foiz stavkasi asosida tartibga solinadi.

Agar klassik maktab vakillari investitsiya va jamg'armaning hajmiga foiz stavkasining ta'sirini asosiy omil qilib ko'rsatsalar, keynschilar esa uning hajmiga

---

[107] Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. –Т.: "Иқтисод – молия", 2007, 168 – 170 бб.

[108] Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лавшурина. – 5 – е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2007. –С. 251 – 252.

[109] Ядгаров Я.С. История экономических учений. –М.: ИНФРА – М, 2001, – С.313.

uy xo‘jaligi a’zolari tomonidan olayotgan daromadlar miqdori ta’sir qiladi, deb ta’kidlaydilar. Albatta, bu jarayon kreditning qayta taqsimlash funksiyasiga bilvosita ta’siri mavjud.

Kreditning *muomala jarayonini tezlashtirish* funksiyasi mamlakat pul muomalasi, pul massasi, pulning aylanish tezligiga bevosita ta’sir qiladi. Bu jamiyatdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini tegishli fondlarga jalb etish orqali ularni pul aylanmasiga kiritadi.

Ma’lumki, mamlakat pul massasining tovar massasiga nisbatning ta’minlanishi milliy valyutaning barqarorligi va sotib olish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda kredit mamlakat pul massasining umumiy hajmini oshirmagan holda iqtisodiyot tarmoqlarining qo‘shimcha mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni ta’minlaydi.

Odatda berilayotgan kreditlar asosan moliya muassasalari orqali bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqlarga o‘tkaziladi. Bu o‘z navbatida muomaladagi pullarning aylanish tezligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kredit paydo bo‘lishi bilan birga, kredit pullarining oddiy shakli bo‘lgan veksellarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Albatta, veksellar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning vaqtinchalik pul mablag‘lari bilan bog‘liq muammolarni hal etishda, kredit munosabatlari yordamida muhim moliyaviy qurol sifatida maydonga chiqadi.

Kreditning *pullarni muomalaga chiqarish va ularni naqdlashtirish funksiyasi* asosan Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati orqali amalga oshiriladi. Ma’lumki, Markaziy bank muomaladagi pul massasini tartibga solish maqsadida qayta moliyalash stavkalari asosida tijorat banklariga kreditlar beradi, berilgan kreditlar iqtisodiyotdagi pul massasini oshirish bilan birga, Markaziy bank tomonidan kreditlar ko‘rinishida muomalaga chiqarilgan naqdsiz pullarni u yoki bu yo‘l bilan naqdlashtiradi.

Kredit *pul kapitalini jamg‘arish va markazlashuvini jadallashtirish* funksiyasi yordamida yirik ssuda kapitalini tegishli fondlarda jamg‘aradi. Jamg‘armalar yordamida mamlakatlar, hududlar, mintaqalar, qit’alar yoki ayrim kompaniyalarda mablag‘larning markazlashuvi ro‘y beradi. Kredit mablag‘larining markazlashuvi hududning iqtisodiyoti va moliya – kredit tizimi rivojlangan joylarda yuz beradi.

8.7.Kreditning turlari.

Kreditning turi deganda uning ma’lum belgilariga ko‘ra o‘ta aniqlikda shakllantirilgan tavsifi tushuniladi.

Kreditlar muddatiga ko‘ra uch turga bo‘linadi:

– qisqa muddatli kreditlar;

– o‘rta muddatli kreditlar;

– uzoq muddatli kreditlar.

Kreditlarning muddati bo‘yicha turlarga ajratish dunyo mamlakatlarida bir-biridan farq qiladi. Masalan, AQSHda muddati 1 yildan 8 yilgacha bo‘lgan kreditlar o‘rta muddatli kreditlar hisoblanadi. Germaniyada esa, 1 yildan 6 yilgacha

muddatdagi kreditlar o‘rta muddatli kreditlar hisoblanadi[110]. O‘zbekistonda esa, umuman o‘rta muddatli kreditlar toifasi mavjud emas. Demak, respublikamizda 1 yilgacha muddatga berilgan kreditlar qisqa muddatli, 1 yildan ortiq har qanday muddatga berilgan kreditlar uzoq muddatli kreditlar hisoblanadi.

Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning aylanma mablag‘larini to‘ldirish maqsadiga berilsa, ularning o‘rta va uzoq muddatli kreditlari investitsion xarajatlarni moliyalashtirish maqsadiga beriladi.

Kreditlar ta’minlanganligiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

– ta’minlanmagan kreditlar;

– qisman ta’minlangan kreditlar;

– to‘liq ta’minlangan kreditlar.

Ta’minlanmagan kreditlar deganda hech qanday ta’minotsiz berilgan ishonchli kreditlar tushuniladi. Bunday kreditlar tijorat banklarining to‘lovga qobilligi yuqori bo‘lgan ishonchli mijozlariga beriladi.

Qisman ta’minlangan kreditlar deganda ta’minot summasi kreditning asosiy qarz summasi va foizini to‘liq qoplashga etmaydigan kreditlarga aytiladi.

To‘liq ta’minlangan kreditlar deganda ta’minot summasi kreditning asosiy qarz summasi va foizini to‘liq qoplashga etadigan kreditlarga aytiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talabi bo‘yicha, tijorat banklari kreditlari uchun qabul qilingan ta’minot summasi kredit bo‘yicha qarzdorlik summasiga nisbatan kamida 125% bo‘lishi lozim.

Kreditlar takror ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

– ishlab chiqarish jarayoniga beriladigan kreditlar;

– ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish uchun beriladigan kreditlar;

– iste’mol maqsadi uchun beriladigan kreditlar.

Tovarlar ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlashda tijorat banklari beradigan kreditlar muhim rol o‘ynaydi. SHuningdek, ishlab chiqarilgan tovarlarni xarid qilish uchun iste’molchilar har doim etarli darajada pul mablag‘lariga ega bo‘lmaydi. Shu sababli, ular tovarlarning ma’lum qismini tijorat banklarining kreditlari hisobidan xarid qiladilar.

Kredit bahosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

– bepul (tekin) kreditlar;

– arzon kreditlar;

– qimmat kreditlar.

Garchi foiz to‘lashlilik kreditning prinsiplaridan biri bo‘lsa-da, ba’zan kreditlar foizsiz beriladi. Bunga misol qilib, Xalqaro ta’mirlash va taraqqiyot banki tomonidan qashshoq mamlakatlarga berilayotgan foizsiz kreditlarni keltirish mumkin. Xususan, Afrikaning Sahara davlatidan janubda joylashgan barcha mamlakatlarda ocharchilik hukm surmoqda. Mazkur mamlakatlarga ijtimoiy maqsadlar uchun foizsiz kreditlar berilmoqda.

---

[110] Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009. - С. 268.

Arzon kredit deganda, odatda, foiz stavkasi, ya’ni bahosi bozor stavkasidan past bo‘lgan kreditlarga aytiladi.

Kreditlarning bahso ssuda kapitallari bozorida shakllanadi. Ssuda kapitallari bozorining ikki segmenti mavjud bo‘lib, pul bozori segmentida qisqa muddatli kreditlarning bahosi shakllanadi. Kapitallar bozori segmentida esa, o‘rta va uzoq muddatli kreditlarning bahosi shakllanadi.

Qimmat kreditlar deganda foiz stavkasi bozor stavkasidan yuqori bo‘lgan kreditlarga aytiladi. Odatda, risk darajasi yuqori bo‘lgan bitimlar banklarning qimmat kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi.

Shuningdek, 2-jadval ma’lumotlari respublikamiz tijorat banklari kreditlarining foiz stavkasining ijobiy darajaga ega ekanligini, ya’ni inflyasiya darajasidan yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Kreditlar foiz stavkasining turiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

– suzuvchi stavkaga ega bo‘lgan kreditlar;

– qat’iy belgilangan stavkaga ega bo‘lgan kreditlar.

Tijorat banklari har doim suzuvchi stavkada kreditlar berishdan manfaatdor bo‘ladi. Buning sababi shundaki, kredit suzuvchi stavkada berilganda, uning foiz stavkasi qanday o‘zgarishidan qat’iy nazar, bank oladigan daromad, ya’ni marja yoki spred, o‘zgarmasdan qoladi.

Kredit oluvchi har doim qat’iy belgilangan stavkaga ega bo‘lgan kreditlarni olishdan manfaatdor bo‘ladi. Chunki, bunda kreditning bahosi o‘zgarmasdan saqlanib qoladi. Agar kredit suzuvchi stavkada olingan bo‘lsa, u holda, kreditning bahosining oshishi kredit oluvchining foiz to‘lovlari miqdorining oshishiga olib keladi.

Kreditlar tarmoq xususiyatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

– sanoatga berilgan kreditlar;

– qishloq xo‘jalik kreditlari;

– qurilish kreditlari;

– savdo kreditlari va h.k.

Kreditlash ob’ektlariga ko‘ra kreditning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– tovar-moddiy qimmatliklarni sotib olish uchun berilgan kreditlar;

– ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish uchun berilgan kreditlar (masalan, respublikamizda paxta va g‘allani etishtirish xarajatlari imtiyozli kreditlar hisobidan moliyalashtiriladi);

– mijozlarning to‘lov aylanmasidagi uzilishni qoplash uchun berilgan kreditlar.

Kreditning maqsadi yo‘nalishi va kredit munosbatlarida ishtirok etuvchi sub’ektlarga ko‘ra kreditning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– sinditsiyali kreditlar;

– ipoteka kreditlari;

– xalqaro kreditlar.

Sinditsiyali kredit deganda bitta ob’ektni yoni loyihani kreditlash uchun ikki yoki undan ortiq bank tomonildan berilgan kreditga aytiladi.

Bosh bank bilan ishtirokchi banklar o‘rtasida Bosh bitim tuziladi va ushbu bitimga asosan bank sindikati tashkil etiladi.

Bank sindikati bilan kredit oluvchi o‘rtasida kredit shartnomasi tuziladi.

Sinditsiyali kreditlar berish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

A. Etakchi bankning to‘lovga qobil va likvidli bo‘lishi.

B. Etakchi bank sinditsiyali kreditning kamida 25 foizini o‘zining resurslari hisobidan beradi.

V. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining kreditlash faoliyatiga nisbatan o‘rnatilgan iqtisodiy normativlarni buzmaslik:

– bir mijozga yoki o‘zaro bog‘liq mijozlar guruhiga beriladigan ta’minlangan kreditlarning maksimal miqdori;

– bir mijozga yoki o‘zaro bog‘liq mizojlar guruhiga beriladigan ta’minlanmagan kreditlarning maksimal miqdori;

– tijorat banki tomonidan beriladigan yirik kreditlarning maksimal miqdori;

– insayderlarga beriladigan kreditlarning maksimal miqdori.

G. Kredit oluvchi sub’ektning kredit to‘loviga layoqatli bo‘lishi.

D. Kredit bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni (kredit shartnomasi, Bosh bitim va boshqalar) yuridik jihatdan to‘g‘ri rasmiylashtirish va ushbu jarayonni nazorat qilish.

Hozirgi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarda suzuvchi stavkadagi sinditsiyali kreditlardan keng ko‘lamda foydalanilmoqda. Buning sababi shundaki, mazkur mamlakatlar tijorat banklarining depozitlari tarkibida suzuvchi stavkalarda jalb qilingan depozitlarning salmog‘i oshib bormoqda. Bu esa, suzuvchi stavkalardagi sinditsiyali kreditlar hajmining oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Buning sababi shundaki, suzuvchi stavkalarda jalb qilingan depozitlar hisobidan qat’iy belgilangan stavkalardagi sinditsiyali kreditlarni berish tijorat banklari faoliyatida kredit riskini chuqurlashish xavfini yuzaga keltiradi.

Sinditsiyali kreditlar bo‘yicha marja miqdori 0,5 foizdan 2,5 foizgacha bo‘lgan darajani tashkil etadi.

Ipoteka krediti deganda qo‘zg‘almas mulkni garovga olish yo‘li bilan beriladigan kreditlarga aytiladi.

Ipoteka kreditlari berish amaliyoti quyidagi ikki yo‘nalishga ega:

1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga va aholiga ipoteka kreditlari berish;

2. Ipoteka kreditlarini ikkilamchi bozorda sotish.

O‘zbekiston Respublikasida ipoteka kreditlari bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining “Ipoteka to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga solinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 7 yanvardagi PQ-2282-sonli “2015 yilda Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi dasturi va 2016 yilgi qurilishning asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi qarori ipoteka kreditlari berish amaliyotining muhim huquqiy asosi hisoblanadi.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibda uy-joy qurish uchun beriladigan ipoteka kreditlari eng kam ish haqining 1000 barobari miqdorida, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50% darajasidagi foiz stavkasi bo‘yicha beriladi.

Uy-joy qurish yoki sotib olish uchun beriladigan ipoteka kreditlari uy-joy qiymatining 75 foizigacha miqdorda beriladi. Uy-joy qiymatining qolgan 25% kredit oluvchining o‘z mablag‘lari hisobidan dastlabki badal sifatida to‘lanishi lozim.

Xalqaro kreditlar – bu ssuda kapitalining davlatlararo harakati bo‘lib, ushbu hara kat valyuta va tovar ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berishlik, foiz to‘lashlilik va muddatlilik shartlari asosida berish natijasida berish natijasida yuzaga keladi.

Xalqaro kreditlarning ikki asosiy turi mavjud:

1. Xalqaro bank krediti.
2. Xalqaro tijorat krediti.

Xalqaro bank krediti banklar tomonidan valyutalarda beriladi.

Xalqaro tijorat krediti firmalar, kompaniyalar tomonidan tovarlar ko‘rinishida beriladi.

Xalqaro kreditlarning bahosi xalqaro ssuda kapitallari bozorida shakllanadi va ular har kuni e’lon qilinadi. Dunyodagi eng yirik xalqaro ssuda kapitallari bozori bo‘lib, London ssuda kapitallari bozori hisoblanadi.

London ssuda kapitallari bozorida har kuni mahalliy vaqt bilan soat 11.00 da etakchi xorijiy valyutalardagi depozitlar va kreditlarning foiz stavkalari aniqlanadi va butun dunyoga e’lon qilinadi.

Xorijiy valyutalardagi depozitlarning bozor stavkasi **LIBOR** deb, kreditlarning bozor stavkasi esa, **LIBID** deb ataladi.

Xalqaro kreditlar ikki xil stavkada – suzuvchi va qat’iy belgilangan stavkalarda beriladi.

Xalqaro kreditlarning prinsiplari quyidagilardan iborat:

– qaytarib berishlik;
– muddatlilik;
– foiz to‘lashlilik;
– ta’minlanganlik.

Hozirgi davrda tijorat banklari amaliyotida qo‘llanilayotgan zamonaviy kreditlash usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) aylanma bo‘yicha kreditlash usuli;
b) qoldiq bo‘yicha kreditlash usuli;
v) aylanma-qoldiq usuli

Aylanma bo‘yicha kreditlash usulida kredit, mijozning, ya’ni kredit oluvchi mijozning xarajatlarini, uning resurslari bo‘shagunga qadar, moliyalashtirishga beriladi. Kredit miqdori ssudaga bo‘lgan ehtiyoj oshib borishi bilan ortib boradi va ushbu ehtiyojning kamayishiga qarab qoplanib boradi.

Aylanma bo‘yicha kreditlash usuli kredit oluvchining ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini ta’minlash imkonini beradi.

Qoldiq bo‘yicha kreditlash usulida kredit kredit oluvchining tovar-moddiq qimmatliklarining qoldig‘i va xarajatlarining o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan ehtiyojga qarab beriladi. Masalan, korxona tovar-moddiy qimmatlikni o‘zining mablag‘lari hisobidan sotib oldi va shundan keyingina bankka ssuda so‘rab

murojaat qildi. Bunday sharoitda kredit xarajatlarni avanslash uchun emas, balki tovar-moddiy qimmatliklarning qoldig‘iga, qoplash tartibida beriladi.

Amaliyotda kreditlashning yuqorida qayd etilgan har ikkala usuli uyg‘unlashib, kreditlashning yangi usulini, ya’ni aylanma-qoldiq usulini yuzaga keltiradi.

Ushbu usulda kredit dastlab tovar-moddiy qimmatliklar va xarajatlar shakllanishining dastlabki bosqichida beriladi, keyingi bosqichda esa, kredit mijozning bank oldidagi muddatli majburiyatining qoldig‘i asosida so‘ndiriladi.

Kreditlashning aylanma-qoldiq usulida kredit aniq belgilangan muddatlarda so‘ndiriladi, biroq, bu muddatlar resurslarning bo‘shash muddatlariga mos kelmasligi mumkin.

Kreditlashning har uchala uslida kreditlarning harakati mijozning ssuda hisobraqami orqali amalga oshiriladi.

Berilgan kreditlar ssuda hisobraqamining debetida, kreditning qaytarilishi uning kreditida aks etadi.

Kredit oluvchi korxonaning aylanmasiga bog‘liq ravishda ssuda hisobraqamlarining uch turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– aylanma-to‘lov ssuda hisobraqami;

– qoldiq-kompensatsion ssuda hisobraqami;

– aylanma-qoldiq ssuda hisobarqami.

Aylanma-to‘lov ssuda hisobraqami mijozga barcha majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlarni, jumladan, etkazib berilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha yuzaga kelgan kreditor qarzdorlikni, soliqlar bo‘yicha qarzdorlikni va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Aylanma-qoldiq ssuda hisobrami ham barcha to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ammo qoldiq-kompensatsion ssuda hisobraqami bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish uchun mijozning kreditlash ob’ekti qancha bo‘lsa, shuncha qoldiq-kompensatsion ssuda hisobraqami ochish kerak.

Zamonaviy kreditlash usullaridan foydalanish samaradorligi bevosita qo‘llanilayotgan to‘lovlarning ketma-ketligiga bog‘liq.

Taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida to‘lovlarning kalendar ketma-ketligi qo‘llaniladi. Bunda qaysi qarzdorlik oldin paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha birinchi bo‘lib to‘lanadi. Shu sababli, tijorat banklari kredit olgan mijozning pul oqimini aniq baholash imkoniga ega bo‘ladi.

O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ko‘pchiligida, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida to‘lovlarning maqsadli ketma-ketligi qo‘llaniladi. Bunda bank mijozining davlat byudjeti oldidagi qarzdorligini to‘lashga ustuvorlik beriladi. Ayrim hollarda, soliq inspeksiyalari kelgusi davrdagi soliq qarzdorligi bo‘yicha inkasso talabnomasi qo‘yadilar. Natijada, mijozning joriy davrdagi pul mablag‘lari oqimi zaiflashib, berilgan kreditni o‘z vaqtida undirish imkonini bermasligi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida lizing ob’ektini qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilmagunga qadar tijorat banklarining lizing kreditlariga foiz hisoblashning mumkin emasligi, Respublika valyuta birjasining konvertatsiya uchun tashlab berilgan kreditlarga konvertatsiya amalga oshirilgunga qadar foiz

hisoblamasligi ssuda hisobraqamlaridan foydalanish jarayonida hisobga olinadigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

8.8.Kreditning shakllari

Tijorat banklari faoliyatida kreditlashning quyidagi shakllari qo‘llaniladi:

1. Mijozni alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabali kreditlash shakli.

Ushbu shakl O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida keng qo‘llaniladigan kreditlash shakli hisoblanadi.

Kreditlashning ushbu shaklida mijozga kredit berish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingandan keyin ssuda hisobraqami ochiladi va kredit bir marotabalik to‘lov shaklida mol etkazib beruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchiga tashlab beriladi.

Kreditning maqsadlilik prinsipi mavjud bo‘lganligi sababli, kredit summasini kredit oluvchining joriy hisobraqamiga tashlab berishga ruxsat etilmaydi.

Mijozni alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabali kreditlash shaklining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat:

– kreditdan foydalanish samaradorligi ta’minlanmasligi mumkin, ya’ni mol etkazib beruvchi tomonidan tovar o‘z vaqtida etkazilmay qolishi mumkin, mijoz esa, kredit uchun foiz to‘layveradi;

– berilgan kreditdan foydalanilishi ustidan nazorat qilishning iloji yo‘q. CHunkit. Kredit summasi to‘liq mol etkazib beruvchining joriy hisobraqamiga tashlab berildi.

2. Mijozni kredit liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlash shakli.

Kreditlashning ushbu shaklida mijozga kreditlash limiti ajratiladi va ushbu limitdan foydalanish davri belgilanadi. SHuningdek, kreditning foiz stavkasi va mijozdan undiriladigan bir marotabalik komission to‘lov stavkasi belgilanadi.

Mijozdan qo‘shimcha ravishda undiriladigan komission to‘lov kredit liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlashda tijorat banki uchun likvidlilik riskining mavjudligi bilan belgilanadi. Chunki, mijoz talab qilgan har qanday vaqtda bank kreditni chiqarib berishi shart.

Kredit liniyasining quyidagi turlari mavjud:

A) qayta tiklanadigan kredit liniyasi;

B) qayta tiklanmaydigan kredit liniyasi;

V) bitimning ma’lum shartlariga asoslangan kredit liniyasi.

Qayta tiklanadigan kredit liniyasi jalb qilingan resurslarga doimiy ehtiyoji bo‘lgan mijozlarga ochiladi. Xalqaro bank amaliyotida qayta tiklanadigan kredit liniyalari ishonchli mijozlar uchun 5-7 yilga ochiladi. SHu davr mobaynida mijoz istalgan vaqtda bankning kreditidan foydalanilishi mumkin. Biroq, tijorat banki kredit shartnomalari shartlarining bajarilishi ustidan nazorat qilish huquqini saqlab qoladi.

Qayta tiklanmaydigan kredit liniyalarida mijoz o‘ziga ajratilgan limitni to‘liq ishlatib bo‘lishi yoki limitdan foydalanish muddati tugashi bilan kredit liniyasidan foydalanish huquqidan mahrum bo‘ladi.

Tijorat banki va mijoz o‘rtasida tuzilgan bitimning ma’lum shartlariga asoslangan kredit liniyasi, odatda, ma’lum davrda etkazib beriladigan tovarlar

haqini to‘lash hamda ma’lum davrda amalga oshiriladigan xarajatlarni moliyalashtirishda qo‘llaniladi.

Kredit liniyasining ushbu turida beriladigan kreditlar miqdori aniq olingan operatsiya doirasida yoki bitimning ma’lum shartlari bilan cheklangan bo‘ladi.

Kredit liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlash shaklining afzalliklari:

* mijoz har safar kredit so‘rab bankka murojaat qilish zaruriyatidan xalos bo‘ladi;

* ajratilgan kreditlash limitining faqat foydalanilgan qismi uchun foiz to‘lanadi;

* bank ma’lum davr mobaynida barqaror foizli daromad oladi;

* tijorat banki kreditlash shartnomalari shartlarining bajarilishi ustidan nazorat qilish imkoniga ega bo‘ladi. Agar kredit shartnomasi shartlarining mijoz tomonidan buzilishi yuz bersa, bank kredit liniyasini vaqtinchalik yopib qo‘yio‘i mumkin.

Kreditlashning overdraft shakli ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda (Angliya, Shotlandiya. Irlandiya, Uels, Kanada) yaxshi rivojlangan.

Overdraft krediti doimiy pul tushumiga ega bo‘lgan ishonchli mijozlarga beriladi va ular faoliyatida yuzaga keladigan qisqa muddatli pul mablag‘lari etishmovchiligiga barham berish maqsadida beriladi.

Overdraft krediti mijozning joriy hisobraqamini debetli qoldig‘i summasiga beriladi. Tijorat banki va mijoz o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga ko‘ra, mijozga bank tomonidan kreditlash limiti ajratiladi. Mijozning joriy hisobraqamida pul mablag‘larining etishmaslik holati yuzaga kelganda, ya’ni debetli qoldiq hosil bo‘lganda, bank ajratilgan limit doirasida overdraft krediti ajratadi.

Overdraft kreditida ssuda hisobraqami ochilmaydi. Kompyuter dasturi berilgan overdraft kreditini mijozlar toifasi bo‘yicha avtomatik ravishda hisobga oladi.

Overdraft krediti mijozning joriy hisobraqamiga pul kelib tushishi bilan avtomatik ravishda qoplanadi.

Overdraft kreditining foiz stavkasi muddatli kreditlarning foiz stavkasidan yuqori bo‘ladi. Buning sababi shundaki, overdraft kreditlari ta’minlanmagan kreditlar bo‘lib, ularning risk darajasi nisbatan yuqoridir.

Overdraft kreditlarida garov ta’minotining mavjud emasligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

– kredit oluvchining joriy hisobraqamida qachon pul mablag‘lari etishmasligini oldindan bilish qiyin;

– kredit oluvchining joriy hisobraqamida qancha miqdorda pul mablag‘lari etmay qolishini oldindan bilib bo‘lmaydi.

Angliya bank amaliyotida overdraft kreditlari bo‘yicha kredit riski darajasini pasaytirish maqsadida mijozlarga har oyining so‘nggi kunida joriy hisobraqamning debetli qoldig‘ini ta’minlash sharti qo‘yiladi. Shu tariqa, overdraft krediti bo‘yicha qarzdorlikni keyingi oyga o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozlarning joriy hisobraqamining debetli qoldig‘ini yuzaga kelishiga ruxsat etilmaydi.

Kreditlashning kontokorrent shakli nemis tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda (Germaniya, Avstriya, Shveysariya) yaxshi rivojlangan.

Kreditlashning kontokorrent shaklida mijozning joriy hisobi yopiladi va uning o‘rniga kontokorrent hisobraqami ochiladi.

Kredit olgan mijozning faoliyatidan keladigan barcha tushumlar kontokorrent hisobraqamining kreditida aks etadi, uning majburiyatlari yuzasidan barcha to‘lovlari kontokorrent hisobraqamining debetida aks etadi.

Kontokorrent kreditida mijozga kreditlash limiti ajratiladi.

Kontokorrent krediti kontokorrent hisobraqamining debetli qoldig‘i summasiga beriladi.

Kontokorrent krediti kontokorrent hisobraqamiga pul mablag‘lari kelib tushishi bilan avtomatik ravishda qoplanadi.

Kontokorrent krediti kredit to‘loviga layoqatliligi bo‘yicha birinchi toifaga mansub bo‘lgan mijozlarga garovsiz beriladi. Buning sababi shundaki, kontokorrent risk darajasi yuqori bo‘lgan kreditlash shakli hisoblanadi.

Kontokorrent krediti yiriklashtirilgan kreditlash ob’ektiga beriladi.

Kontokorrent kreditining debetli qoldig‘i uchun mijoz bankka, uning kreditli qoldig‘i uchun bank mijozga foiz to‘laydi. Bunda mijoz bankka kredit uchun foiz to‘laydi, bank esa. mijozga talab qilib olinadigan depozit hisobraqamlari qoldig‘iga to‘lanadigan foiz darajasida (0,5-1,0%) foiz to‘laydi.

Shunisi ahamiyatliki, kontokorrent krediti qaytarilmaydigan moliyalashga aylanib qolmasligi lozim. Shu sababli, kreditlashning ushbu shaklida kredit riskini chuqurlashishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida quyidagi choralar qo‘llaniladi:

* mijozning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini 80-90 foizi o‘z kapitali hisobidan qoplanishi lozim;

* kontokorrent krediti bo‘yicha qarzdorlikni keyingi oyga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Buning uchun mijozga har oyning so‘nggi ish kunida kontkorrent hisobarqamining kreditli qoldig‘ini ta’minlash sharti qo‘yilishi lozim.

Kontokorrent krediti, odatda, mijozning joriy ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qoplashga mo‘ljallangan. Ammo amaliyotda kontokorrent kreditidan uzoq muddatil investitsion loyihalar bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim xarajatlarni qisqa muddatli moliyalashtirishda ham foydalaniladi. Ushbu maqsadlarga berilgan kontokorrent krediti uzoq muddatli kredit berilishi bilan so‘ndiriladi.

Kreditlashning faktoring shaklida tovar hujjatlari yoki tijorat veksellari tijorat banki tomonidan diskont stavkasi bo‘yicha regress huquqi bilan yoki regress huquqisiz mol etkazib beruvchidan sotib olinadi.

Tovar hujjatlari yoki tijorat veksellari regress huquqi bo‘yicha sotib olinganda, agar sotib oluvchi to‘lovga noqobil bo‘lib qolsa, tijorat bankida to‘lab berilgan summani mol etkazib beruvchidan undirish huquqi saqlanib qoladi.

Tovar hujjatlari yoki tijorat veksellari regress huquqisiz sotib olinganda, agar sotib oluvchi to‘lovga noqobil bo‘lib qolsa, tijorat bankida to‘lab berilgan summani mol etkazib beruvchidan undirish huquqi bo‘lmaydi va zarar to‘liq bankning zimmasiga yuklanadi.

Faktoring shaklida kreditning foizidan tashqari, faktoring xizmati ko‘rsatganligi uchun mijozdan qo‘shimcha komission to‘lov undiriladi.

“Xalqaro faktoring to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiyaga (UNIDRUA) asosan operatsiya faktoring operatsiyasi sifatida tan olinishi uchun quyidagi 4 talabdan kamida 2 tasi bajarilishi lozim:

1. Qarz majburiyatlarini oldindan to‘lash shaklidagi kreditlashning mavjudligi.
2. Mol etkazib beruvchining buxgalteriya hisobini yuritish.
3. Mol etkazib beruvchining debitor qarzdorligini inkassatsiya qilish.
4. Mol etkazib beruvchini kredit riskidan sug‘artalashning mavjudligi.

Kreditlashning faktoring shaklining afzalliklari:

* tijorat banki ham foiz ko‘rinishida, ham komisson haq ko‘rinishida daromad oladi;
* mol etkazib beruvchining pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyoji qondiriladi;
* korxonalar o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik hajmi qisqaradi.

Kreditlashning forfeyting shaklida uzatma tijorat veksellari, ya’ni trattalar tijorat banki tomonidan, diskont stavkasi bo‘yicha, mol etkazib beruvchidan regress huquqisiz sotib olinadi.

Forfeyting mol etkazib beruvchini kreditlash shakli hisoblanadi.

Forfeyting kreditlari tijorat bankiga diskont stavkasi ko‘rinishida daromad keltiradi. Ammo forfeyting kreditlarining risk darajasi yuqoridir. Agar sotib oluvchi to‘lovga noqobil bo‘lib qolsa, zarar to‘liq tijorat bankining zimmasida qoladi. Chunki, tijorat bankida mol etkazib beruvchidan to‘lovni undirish huquqi bo‘lmaydi. Shu sababli, sotib oluvchining to‘lovga qobilligini tahlil qilish va baholash kreditlashning forfeyting shaklidagi kredit riski darajasini pasaytirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi.

Forfeyting kreditlari mol etkazib beruvchilarning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi bank amaliyotida kreditlashning forfeyting shakli mavjud emas. Buning asosiy sababi – trattalar muomalasining mavjud emasligidir.

9-Mavzu. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi.

REJA:

9.1. Dastlabki banklarning paydo bo‘lishi va bank operatsiyalari.
9.2. Banklarning funksiyalari.
9.3. Banklar faoliyatining rivojlanishi va Markaziy bankning paydo bo‘lishi.
9.4. Banklarning turlari.
9.5. Bank tizimi va uning elementlari.
9.6. Banklarning iqtisodiyotdagi roli.

9.1. Dastlabki banklarning paydo bo‘lishi va bank operatsiyalari.

Banklarning vujudga kelishi tovar – pul munosabatlarining asosiy elementlari sifatida, pulning qiymat shakli paydo bo‘lishi bilan bir davrga to‘g‘ri kelgan. Iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki banklarning vujudga kelishi haqida aniq

ma’lumotlar mavjud emas. Ayrim iqtisodchi olimlar banklarni feodalizm davrida vujudga kelganligini ta’kidlashsa, ularning ayrimlari esa kapitalistik tuzumning dastlabki davrlarida paydo bo‘lganligini ta’kidlaydi. Uchinchi guruh olimlar, banklar faoliyatiga xos bo‘lgan operatsiyalar miloddan ilgarigi davrlarda paydo bo‘lganligini qayd etadilar.

Manbalarga ko‘ra, dastlabki bankirlar kichik – kichik do‘konlarda mahalliy pullarni xorijiy pul birliklariga ma’lum darajadagi to‘lov evaziga almashtirib berishgan. Shuningdek, yirik pul egalarining pullari va tijorat veksellarini tegishli haq evaziga saqlash bilan shug‘ullangan. Keyinchalik banklar vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni tegishli shartlar asosida jalb etib, ushbu mablag‘larga ehtiyoji bo‘lgan shaxslarga ma’lum to‘lov evaziga bera boshlagan.

*Bankning kelib chiqish tarixini o‘rgangan bir qator iqtisodchi olimlarning xulosasiga ko‘ra dastlabki banklar Italiyaning Venetsiya va Genuya shaharlarida X asrda paydo bo‘lgan. Shuning uchun ham bank so‘zi italyancha “**banco**” so‘zidan olinib “stol” degan ma’noni anglatadi. Garchi valyuta ayirboshlash operatsiyalari dastlabki banklarning 1-operatsiyasi bo‘lsada , hozirgi paytda banklarning jamiyatdagi o‘rni ularning kredit operatsiyalari bilan belgilanadi. Qadimgi Gretsiyada pul almashtiruvchi odamlarni “trapezida” (grekcha-stol), Qadimgi rimda “mensarilar”(lotincha-stol) deb atashgan*[111].

Qadimgi Bobilda er. av. VIII asrda faoliyat olib borgan Bobil bankining bajargan funksiyalari e’tiborni tortmay qolmaydi. Ular sirasiga: omonatga foiz to‘lovlari asosida pullar qabul qilingan, yozma shaklda ssuda va kredit berish, xattoki «gudu» (hudu-«gudu») deb nomlangan bank biletlarini chiqarish kirgan. Bobilda «Igibi» bankirlar uyining bir muncha murakkabroq vazifalarini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin. «Igibi» banki mijozlar hisobiga vositachilik orqali savdo-sotiqda va to‘lovda ishtirok etish, pul omonatlari qabul qilingan, kredit berilgan (bunda omonatchi omonatiga foiz to‘lovlarini natural shaklda olgan, ya’ni omonatchi bankdan pul olgan shaxsning xosilini bir qismiga egalik qilish xuquqi berilgan), shartnomalarga kafil bo‘lish, turli savdo tadbirlarini moliyalashtirish, turli akt va shartnomalarni rasmiylashtirishda maslaxatchi hamda vakolatli shaxs sifatida ishtirok etganlar.

Qadimgi Bobildagi bank tizimini xuquqiy asoslari shox Xammurapi qonunlarida er.av. XVII asrda belgilab qo‘yilgan. Bu Qonunda sudxo‘rlik foizlarini ta’qiqlovchi qoidalar ham ko‘rsatilgan. Bunga ko‘ra yillik puldagi foiz mikdori 20% yoki hosilning 1/3 qismidan ko‘p bo‘lmasligi. Yana sudxo‘rlik foizlarini to‘lay olmagan insonlarni qullik bo‘lish muddatini 3 yil qilib belgilangan.

1401-yili turli savdo uyushmalari birlashtirilib, mashhur Muqaddas Grigoriy banki Genuyada ochildi. Bu bank shahar xokimligining ximoyasida bo‘lib, shahar meri xokimlik lavozimiga o‘tirayotganda bu bankni himoya qilishga qasam ichgan. Chunki bu bank Respublikaning kreditori vazifasini bajargan. 1463-yildan to 1505-yilgacha Rim papasigi bankning qarzdorlarini murtab deb e’lon qilish (cherkovdan chetlashtirish bunday takdirga uchraganlar ko‘p xuquqlardan mahrum bo‘lib, qattiq

[111] “Money, Bank credit and Economic cycles”. JESÚS HUERTA DE SOTO. Second edition 2009. 41-42 pages.

jazolangan) xuquqi berilgan hamda buning natijasida bankning qarzdorlari bo‘lmagan.Faqatgina 1675-yildagina bu bank jirobankka aylantirildi.

XV asrda Fransiyada tarixda birinchi marta Lombardlar paydo bo‘ldi, ular asosan sudxo‘rlik bilan shug‘ullanganlar. 1848 yillardan esa Prussiyada ham Lombardlar o‘z faoliyatlarini boshlaganlar.

XVI asr oxirlarida va XVII asrning boshlarida Gollandiyada kassirlar pul almashtiruvchilarning faoliyatini bajarardilar. SHuning uchun kassirlik hamda pul almashtiruvchi ixtisosliklari qo‘shilib ketish xavfi paydo bo‘ldi va kuchaydi. SHu xavfni oldini olish uchun Amsterdam xukumati 1609-yili Amsterdam jamoatchilik bankini tashkil qildi. Bu bank pul almashtirishda o‘rnatilgan rasmiy foiz stavkasi 5 % bo‘lgan hamda bank ma’lum muddat monopol bo‘lib faoliyat yurgiza boshladi. Ammo 1621-yili pul almashtiruvchi kassirlar faoliyati qaytadan tiklandi, natijada pul almashtiruvchi kassirlar va bank o‘rtasida raqobat kuchaydi. 1641-yili harakatdagi pullarni qiymatini o‘rnatilgan qonuniy narxlarga yaqinlashtirish uchun ba’zi monetalar «yaxshi bank pullari» deb nomlandi. Bank kreditor sifatida «yaxshi» pullardan, pul almashtiruvchi sifatida esa «kassa pullari» deb nomlangan pullardan foydalangan. 1651-yili shahar xukumati pul islohotini amalga oshirdi va harakatga mayda pul birliklari «gulden»lar zarb qilina boshlandi va nihoyat 1681-yili bu bank depozit va jirobank ko‘rinishini oldi.

Amstredamning tajribasiga tayangan holda xuddi o‘sha sabablar bilan Gamburg shahrida ham Gamburg Veksel Banki tashkil etildi hamda u 1812-yilgacha faoliyat olib bordi.

Bu banklarda pul almashinuvi asosiy operatsiya bo‘lganligi uchun ularda almashinuv birliklari paydo bo‘la boshladi. Ularning mashhurlari Hamburger-Mark Banco, Bankgeld Surantgeld va boshqalar.

Germaniyalik YA. Fuggerning (1450-1528) savdo uyi turli xildagi pulli va bank operatsiyalarini bajargan. Ammo bu savdo muassasasi 1637-yili Genuyaliklarga sotib yuborilgan. 1648-yili yirik fransuz savdogarlari Germaniyada birinchi xunarmandlik hamda savdogarlik tijorat bankini tashkil qilishdi. Bu bank «Germen Credit» deb nomlangan.

Shu tarzda banklar yangi-yangi jiro banklarning paydo bo‘lishi hisobiga rivojlanib bordi. Bu davr uchun xarakterli bo‘lgan bank operatsiyasi bir hisob raqamdan ikkinchi hisob raqamga o‘tkazish operatsiyasi keng qo‘llanilgan. Bu bosqichda depozit banklarning kurtaklari paydo bo‘la boshlagan. Ammo bu operatsiya keyingi davrda rivojlandi. Bu bosqichda hech bir bank banknotalar emissiyasi bilan shug‘ullanmagan.

Dastlabki banklar valyuta ayirboshlash operatsiyalaridan tashqari , odamlarning pul boyliklarini saqlash va omonatchilarga hisob-kitob xizmatlari ko‘rsatish bilan ham shug‘illanganlar. Keyinchalik bankerlar shu narsani tushindiki , bankda harakatsiz yotgan pullarni ma’lum foiz evaziga berib daromad olish mumkin. Shu tariqa banklarning kredit operatsialari paydo bo‘lgan.

Bank deb pul mablag‘larini yig‘uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasaga aytiladi.

Banklar paydo bo‘lishining asosi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovar-pul munosabatlarining yuzaga kelishi va ularning rivojlanib

borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda banklarning mavjud bo‘lishini taqozo qiladi.

Banklar o‘rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat, shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o‘z bo‘sh turgan mablag‘laridan foyda olish maqsadida ularni vaqtincha foydalanishga mablag‘ zarur bo‘lgan sub’ektlarga berishgan. Bu hol pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan.

Izokrat va Demosfenlar ma`ruzalarining lotin tilida ekvivalentlari bo‘lmaganligi tufayli, Rim banklari Greklarga o‘xshamagan holda unchalik hujjatlashtirilmagan. Biroq, Rim qonunlaridan bilamizki, bank va monetar betartib deposit judayam yaxshi rivojlangan va bu sohadagi ta`minlangan Rim klassik qonunlarining boshqarilishini ko‘rib chiqqandik. Haqiqatdan ham, Rim argentariilari tantundem depositlarini ishlatishda istagancha erkin bo‘lmaganlar, lekin eng olisdagi harakatning qo‘riqlanishi topshirilgan. SHundan ma`lumki, garchi depositor bankni o‘z nomidan to‘lovlar qilishi uchun ishlata olsa ham, pul depozitlari foizlar to‘lamaganligi va nazariyada qarzga olinmagan. SHunga mos xolda, bankirlar banklarga kredit yoki mutuum shartnomalar hisoblangan muddatli depositlarni qabul qilgan. Bular kelishilgan muddatlarda mos holda ishlatilishi huquqini bergan. Bu amaliyot ma`lumotlari mil. Avv. 350 yillarga Plutoning Captivi, Asinaria and Mostellaria,va Terensening Phormio kabi bir qator komediyalarda paydo bo‘ladi. Shuningdek bu asarlarda biz moliyaviy operatsiyalar, klering xizmatlari, hisob balanslari, cheklarning ishlatilishi kabi aniq dialoglarni uchratishimiz mumkin. Har qanday vaziyatda ham , bu Rim bank tizimini yaxshiroq boshqargan va nima qonuniy va nima qonuniy bo‘lmasligi haqida ba’zi fikrlar bilan ta’minlagan professional yuristlarning asarlari paydo bo‘lishiga olib keldi. Biroq, bankirlarning qonuniy harakat qilishiga va talab qilib olingungacha bo‘lgan depozitlardagi pullarni o‘z foydasiga ishlatmsligiga hech qanday kafolat yo`q. Ma`lumotlarga ko‘ra, Pergamum dagi savdogarlaga Hadrianning asari mavjud. U noqonuniy harakatlar va bankirlarning haqqoniy bo‘lmagan harakatlaridan shikoyat qiladi. Shuningdek, Mylasa shaxridan imperator Septimius Severusga yollangan yozma hujjat shahar hokimi va odamlarning o‘zlarning banklari faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan qarorini o‘z ichiga olgan. Bularning hammasi shuni taklif qiladiki, yunon dunyosida oddiy hol bo‘lganiga qaraganda ehtimolliklar juda kam bo‘lgan davrda o‘z depozitorlarining mablag‘lari o‘zlashtirib olgan va natijada inqirozga yuz tutgan bankirlar mavjud.[112]

XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilar «bancherii» deb atagan. Agar puldorlardan birortasi ishonchni oqlamasa va o‘z ishiga mas’uliyasizlik qilsa, u o‘tirgan stolni sindirib tashlashgan va uni «Banco rotto», yani bankrot deb atashgan. Ya’ni bizga ma’lum bo‘lgan «bankrot» so‘zi ham italyancha «banca» so‘zidan olingan.

Banklar paydo bo‘lishining boshlang‘ich bosqich XVI asrda Florensiya va Venetsiyada tashkil qilingan kichik jirobanklar hisob-lanadi. Keyinchalik shunday

[112] “Money, Bank credit and Economic cycles”. JESÚS HUERTA DE SOTO. Second edition 2009. 52-53 pages.

banklar Amsterdamda (1605 y.), Gamburgda (1618 y.), Milanda, Nyurnbergda, Genuyada vujudga kelgan. Bu banklar asosan o‘z mijozlari–savdogarlarga xizmat qilgan, ular o‘rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borgan. Bu banklar o‘z mijozlarini monetalar tarkibi buzilishi tufayli zarar ko‘rishdan himoya qilgan. Ular hisoblarni ma’lum summadagi qimmatbaho metallni ifodalovchi maxsus pul birligida olib borishgan. O‘zlari-ning bo‘sh pul mablag‘larini jirobanklar davlatga, shaharlarga, chet el savdogarlariga ssudaga berishgan.

Tarixda birinchi yuzaga kelgan bank Angliya banki hisoblanib, u 1694 yilda aksionerlik banki sifatida tashkil bo‘lgan. Bu bank aksioner-emission bank bo‘lib, unga davlat tomonidan banknotlar chiqarishga ruxsat berilgan. Keyinchalik, sanoat rivojlanishi nati-jasida banklar boshqa mamlakatlarda ham tashkil qilinib borgan. Banklarning kelib chiqishi va rivojlanish ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar va talablarning oshishi, savdo kapitali aylani-shining tezlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan. Natural xo‘jalik munosabatlarining tugashi, savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi pullik hisob-kitoblar olib borishga, kreditning rivojlanishiga yo‘l ochdi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish yollanma mehnatni jalb qilishga olib kelgan. Yollanma mehnat uchun haqning pul shaklida to‘lanishi, doimiy pul aylanishini yuzaga keltirdi. Pul aylani-shini esa bank tomonidan boshqarilishi zarur edi. SHunday qilib, banklar mablag‘larni yig‘ish va taqsimlash orqali ssuda kapitali harakatini boshqara boshladi. Ssuda kapitalistidan farqli o‘laroq bankir tadbirkor sifatida o‘z ish faoliyatini olib borgan.

Agar sanoat sohasidagi puldor o‘z kapitalini sanoatga, savdogar o‘z mablag‘ini savdoga qo‘ysa, bankir o‘z kapitalini bank ishiga qo‘yadi. Ssuda kapitalisti asosan o‘zining bo‘sh kapitalini qarzga bersa, bankirlar asosan chetdan jalb qilingan mablag‘larga tayanadi. Ssudaga mablag‘ beruvchi puldorning daromadi ssuda foizi bo‘lsa, bankir-ning daromadi bank foydasi hisoblanadi. Banklar korxona, tash-kilot, davlat muassasalari, aholi bo‘sh pullarini jalb qilish orqa-li katta hajmdagi kapitalni o‘z qo‘llarida jamlaydilar va daromad keltiruvchi kapital harakatini boshqarib boradilar. Banklarning yiriklashuvi va ular faoliyatining takomillashuvi ularning maxsus korxonalar – kredit muassasalariga aylanishiga olib keladi.

Shunday qilib, bank faoliyati xalq xo‘jaligi mavjud bo‘lgan bo‘sh mablag‘larni jalb qilish va ssuda kapitalini taqsimlashni o‘z ichiga oladi. Bank o‘z faoliyati davomida ma’lum daromadga ega bo‘ladi. Bu daromad bank jalb qilgan resurslarga yo‘naltirilgan foiz va joylashtirgan resurslar bo‘yicha oladigan foiz o‘rtasidagi farqdan iborat bo‘ladi.

Kredit tizimi deb kredit munosabatlar majmuasi va kredit munosabatlarni tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kredit insti-tutlar yig‘indisiga aytiladi. Kredit tizimi orqali huquqiy va jis-moniy shaxslarning vaqtincha bo‘sh mablag‘lari yig‘iladi va korxona, tashkilotlarga, aholiga, davlatga vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit tizimi bir necha bo‘g‘inlardan iborat bo‘lishi mumkin. Mab-lag‘larni jalb qilishi va taqsimlanishiga qarab kredit tizimi bo‘g‘inlari o‘z xususiyatlariga ega bo‘ladi. Jahon amaliyotida kredit tizimi o‘zining tashkil qilinish turiga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

– Markaziy bank;

– tijorat banklar;
– maxsus-kredit institutlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki pog‘onali kredit bank tizimi ko‘p mamlakatlar iqtisodining asosi hisoblanadi. Bu Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir.

Bank institutlariga quyidagi banklar kiradi:
– tijorat banklar;
– investitsiya banklari;
– jamg‘armalar jalb qiluvchi banklar (O‘zbekistonda Xalq banki);
– ipoteka banki;
– savdo banklari;
– tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha banklar;
– tarmoqlar bo‘yicha ixtisoslashgan banklar va boshqalar.

Nobank kredit tashkilotlarga:
– investitsiya kompaniyalari;
– sug‘urta kompaniyalari;
– nafaqa va boshqa fondlar kiradi.

Kredit tizimida asosiy o‘rinni bank institutlari, bank ins-titutlari tarkibida salmoqli o‘rinni tijorat banklari egallaydi. Tijorat banklari kredit tizimining boshqa bo‘g‘inlariga nisbatan ko‘proq bo‘sh resurslarni jalb qiladi va ko‘p miqdorda mijozlarga kreditlar beradi.

Maxsus ixtisoslashgan kredit institutlari (banklar) tijorat banklari faoliyatini to‘ldiradi va ular iqtisodiyotning kam renta-bellik, kam foydali tarmoqlariga (qishloq xo‘jaligi, uy-joy quri-lish, tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar) engil sharoitda kreditlar berish yo‘li bilan ularning faoliyatini rag‘batlantirib, rivojlantirib boradi.

9.2. Banklarning funksiyalari

B anklarning mohiyati ularning funksiyalarida yanayam yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Banklarning funksiyalari ularning nazariy masalalari sifatida e’tirof etiladi. SHu bois ham banklarning mohiyatini yoritishda vujudga kelgan qator mulohazali holatlar ularning funksiyalarini yoritishda ham mustasno emas. Xususan, iqtisodiy adabiyotlarda banklarning funksiyalari haqida qator mulohazali va tushunmovchilik holatlar mavjud. Masalan, ayrim manbalarda banklar bajaradigan operatsiyalar ularning funksiyalari sifatida qayd etiladi. Bu erda bank faoliyati natijasida ular tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalari nazarda tutiladi. Biroq, shuni ta’kidlash joizki, banklarning barcha operatsiyalari ham ularning funksiyalari bo‘la olmaydi. Bank funksiyasi uning ma’lum ko‘rinishdagi faoliyatini ifodalaydigan iqtisodiy kategoriya bo‘lishi lozim.

Shunga qaramasdan, ayrim iqtisodiy manbalarda banklar to‘lov aylanmasi, kassaga naqd pullarni qabul qilish va berish, kredit berish, qimmatli qog‘ozlarni saqlash va boshqarish, naqd va naqdsiz ko‘rinishda xorijiy valyutani sotish va sotib olish, shuningdek, bank tomonidan bajaraladigan boshqa operatsiyalar ularning funksiyalari sifatida ta’kidlanadi.

Bundan tashqari, iqtisodiy adabiyotlarda banklarning qimmatbaho metallar va buyumlarni saqlash uchun maxsus seyflar berish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning kapitalini shakllantirishda ishtirok etishi, kreditlash uchun resurslarni jalb etish va boshqa shu kabi operatsiyalari ularning funksiyalari sifatida talqin etiladi. Albatta, bu banklarning pul – kredit siyosatini amalga oshiruvchi muassasa sifatidagi faoliyatini aniqroq tushinishda va ularning imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Biroq, ushbu operatsiyalarning barchasi banklarning funksiyalari bo‘lib hisoblanmaydi. Chunki yuqorida ta’kidlaganimizdek, banklarning har – bir operatsiyasini ularning funksiyalari sifatida e’tirof etadigan bo‘lsak, demak zamonaviy banklar 300 dan ortiq funksiyani bajaradi degan fikr paydo bo‘ladi.

Banklarning funksiyalari haqida gap ketganda, bu jarayonni nafaqat banklar nuqtai nazaridan, balki uning mijozlari manfaatlaridan ham kelib chiqib so‘z yuritish lozim. Shu jihatdan banklarning funksiyalarini o‘rganishda ularni quyidagi mezonlariga e’tibor qaratish lozim:

1. makroiqtisodiy darajada, banklar va real sektor ishtirokchilari o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar;
2. banklarning tashkiliy – huquqiy va mulkiy shakli jihatidan amal qilishi (Markaziy bank, tijorat banki, ixtisoslashgan bank va boshqalar).

Banklarning funksiyalari to‘g‘risida fikr yuritganda quyidagi masalalarni e’tibordan chetda qoldirish kerak emas. Birinchidan, banklarning funksiyalari ularning mohiyatini kengroq ochishga xizmat qilishi lozim, ikkinchidan, banklarning funksiyasi sifatida ta’kidlangan iqtisodiy kategoriya barcha moliyaviy institutlarning xususiyatlariga xos bo‘lgan jarayon emas, balki faqat banklargagina xos bo‘lgan iqtisodiy kategoriya bo‘lishi lozim.

Ma’lumki, banklarning asosiy operatsiyalaridan biri iqtisodiyotdagi bo‘sh pul mablag‘larini tegishli shartlar asosida o‘ziga jalb etishga qaratilgan. Bu banklarning funksiyasi bo‘la oladimi, degan savol tug‘iladi. Markaziy bankda tijorat banklarining majburiy zaxiralari jamg‘ariladi, banklarda esa aholi va mijozlarning vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘lari jamg‘ariladi. Iqtisodiyotda vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni jamg‘arish banklarning qadimiy operatsiyalaridan biri hisoblanadi. Bu erda asosiy masala shundan iboratki, vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni jamg‘arish faqatgina banklarga xos bo‘lgan operatsiya emas, ushbu operatsiyani jismoniy shaxslar yoki boshqa yuridik shaxslar ham amalga oshirishi mumkin. CHunki, har qanday sub’ekt u yoki bu ob’ektni moliyalashtirish uchun dastlab ma’lum miqdordagi moliyaviy mablag‘larni jamg‘arishi lozim. Biroq, masalaga yanayam chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, banklar ushbu operatsiyani bajarganda boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bajaradigan operatsiyalardan jiddiy farq qiladi. Ular asosan quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Banklar pullarni jalb etganda o‘z pullarini emas, balki begona shaxslarning mablag‘larini jamg‘aradi;
2. Banklar jamg‘argan mablag‘larni o‘zining ehtiyoji uchun emas, balki boshqa shaxslarning ehtiyojlari uchun sarflaydi (qayta taqsimlash asosida).

Banklarning funksiyalari xususidagi mulohazalarni chuqurlashtirish fikridan yiroq ekanligimizni ta’kidlagan holda, ularning quyidagi funksiyalari mavjudligini qo‘llab – quvvatlaymiz.

Birinchi funksiyasi, vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni jalb qilish, jamg‘arish va ushbu mablag‘larni kapitalga aylantirish funksiyasi. Banklarning juda qadimiy funksiyalaridan hisoblanadi. Banklar jamiyatdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini tegishli shartlar asosida o‘zlariga jalb qiladi va ushbu mablag‘larni samarali yo‘nalishlarga joylashtiradi. Albatta, banklardan tashqari turli investitsion fondlar, moliya – sanaot korxonalari ham pul mablag‘larini jalb qilish va jamg‘arish bilan shug‘ullanadi, biroq ularning pul mablag‘larini jalb qilish va jamg‘arishi bilan banklarnikidan jiddiy farqlar mavjud. Banklarning itiyorida bo‘lgan mablag‘larning deyarli 90 foizi chetdan jalb qilingan pul mablag‘lari hisoblanadi. Bu banklarning asosiy faoliyati boshqa shaxslarning mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi anglatish bilan birga, yuqori darajada riskka bog‘liqligini keltirib chiqaradi.

Ikkinchi funksiyasi, korxona va tashkilotlar, davlat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlash. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi mulkiy shaklidan qa’tiy nazar barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini oshiradi. Xususan, korxona va tashkilotlar ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash va kengaytirish, mehnat taqsimotini takomillashtirish, qo‘shimcha aksiyalarni sotib olish va boshqa maqsadlarni amalga oshirishda qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larga kuchli ehtiyoj sezadi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bu ehtiyojining asosiy qismi banklarning kredit berish funksiyasi orqali qondiriladi. Albatta, banklar ushbu funksiyani amalga oshirishda kreditning tegishli tamoyillariga (muddatlilik, ta’minlanganlik, to‘lovlilik, qaytarishlik va maqsadlilik) amal qilgan holda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga tijorat asosida taqdim etadi.

Uchinchi funksiyasi, xo‘jalik sub’ektlari pul hisob – kitoblarini amalga oshirish hisoblanadi. Iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik sub’ektlari kun davomida bir necha yuz minglab turli darajadagi pul aylanmalarini (asosan naqdsiz pul ko‘rinishida) amalga oshiradi. Banklarning bevosita ishtiroki natijasida ushbu o‘tkazmalar jo‘natuvchidan oluvchiga etib boradi. SHuningdek, banklar pul o‘tkazmalari orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapitalni joylashtiradi va kredit liniyalari ochadi. Bularning barchasi banklarning pul hisob – kitoblarni amalga oshirish funksiyasi orqali bajariladi va tartibga solinadi.

Banklarning pul aylanmasini tartibga solish funksiyasi orqali Markaziy bank iqtisodiyotdagi tovar massasi va pul massasi o‘rtasidagi o‘zaro muvozanatlikni ta’minlaydi. Ma’lumki, ushbu muvozanatning buzilishi iqtisodiyotda inflyasiya darjasini ortib ketishi yoki pul taqchilligini vujudga kelishiga olib keladi. SHu bois ham Markaziy bank o‘zining pul – kredit instrumentlari orqali pul aylanmasi uchun zarur bo‘lgan to‘lov vositasining miqdorini tartibga solib turadi.

To‘lovni amalga oshirishda vositachilik qilishi banklarning to‘rtinchi funksiyasi hisoblanadi. Banklar iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi tomonlar o‘rtasida to‘lovlarni amalga oshirish orqali vositachilik ishlarini amalga oshiradi.

Banklar orqali bank mijozlarining, aholining, davlatning moliyaviy mablag‘lari o‘tadi, bank ular o‘rtasida to‘lovlarni amalga oshiruvchi moliyaviy muassasa sifatida vositachilik vazifasini amalga oshiradi. Banklar vositachilik funksiyasi orqali nafaqat pullarni bir xo‘jalik yurituvchi sub’ektdan ikkinchisiga o‘tkazadi, balki iqtisodiyotdagi moliyaviy kapitalni bir tarmoqdan ikkinchisiga o‘tishini nazorat qilib boradi va ushbu tarmoqlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit mablag‘larni muomalaga chiqarish banklarning beshinchi funksiyasi hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, ushbu funksiyani barcha banklar bajarish huquqiga ega emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida muomalaga kredit pullarni chiqarish Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Markaziy bank muomalaga chiqarayotgan pul massasini mamlakatda yaratilayotgan tovar massasiga nisbatan muvozanatligini ta’minlashga e’tibor qaratadi. Markaziy bankning ushbu funksiyani samarali bajarayotganligi milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamligi va inflyasiya darajasining pastligi belgilaydi.

Demak, tijorat banklari kredit pullarini muomalaga emissiya qilish huquqiga ega emas, ular muomaladagi mavjud pul hajmi doirasida faoliyat yuritadi. Muomaladagi pul massasining hajmini o‘zgarishiga tijorat banklari bevosita ta’sir qila olmaydilar, bunga faqat Markaziy bankning huquqi mavjuddir.

Iqtisodiy va moliyaviy maslahatlarni berish banklarning oltinchi funksiyasi hisoblanadi. Banklar iqtisodiyotdagi moliyaviy muassasa sifatida mulkiy shaklidan qa’tiy nazar mamlakatdagi barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga o‘zlarining huquqiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli darajadagi iqtisodiy va moliyaviy maslahatlarni beradi. Albatta, ushbu maslahatlar mijoz va bank o‘rtasida tuzilgan tegishli shartnomalar yoki o‘zaro kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, banklarning funksiyalari ularning mohiyatini va bajaradigan operatsiyalarining mazmunini anglashga xizmat qiladi. Banklarning funksiyalari turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etilishining asosiy sababi ijtimoiy – iqtisodiy hayotda yuz berayotgan va rivojlanib borayotgan munosabatlarning doimiy ravishda yangi qirralarining vujudga kelayotganligi bilan izohlanadi.

9.3.Banklar faoliyatining rivojlanishi va Markaziy bankning paydo bo‘lishi.

Banklar faoliyati rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- Davlat va aholi tomonidan banklarga bo‘lgan ishonchning ortishi ularning ixtiyoridagi vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larni bankka jalb qilish imkonini beradi. Keyinchalik ishlab chiqaruvchi koxonalar ham o‘z pul mablag‘larini depozit sifatida banklarga joylashtira boshladi
- XVI asrda Amerikadan Evropaga juda katta miqdorda oltin va kumushning kirib kelishi Italiya va Gollandiya banklarining monopoliyasiga barham berdi. Natijada Evropada banklararo raqobat shakllandi.
- Banklar faoliyati rivojlanib borishi bilan ular endigna qimmatli qog‘ozlar bzorida paydo bo‘lgan. Shu tariqa banklarning yangi operatsiyalari paydo bo‘ldi.

•Banklar o‘zining spitsifik ya’ni “o‘ziga xos” xususiyatiga ko‘ra milliy to‘lov tizimining tayanchiga aylantirildi. Endi iqtisodiyotdagi barcha to‘lovlar banklar orqali o‘tadigan bo‘ldi. Bu banklarning iqtisodiyotdagi mavqeini keskin oshirdi.

Birinchi Markaziy bank 1650-yilda Shvetsitaning Riks banki;

1694-yilda Angliya Markaziy banki;

1800-yilda Fransiya Markaziy bani;

1893-yilda Italiya Markaziy banki;

1913-yilda AQSH federal zaxira tizimi tashkil etildi.

Markaziy banklarning paydo bo‘lishi quyidagi sabablar bilan belgilanadi:

1. Naqd pullarni emissiya qilishning bitta markazda to‘planishining zarurligi
2. Tijorat banklarining inqiroz paytida naqd pul emissiyasi bo‘yicha majburiyatlarini taminlay olmasdi. Bunga misol qilib , 1907-yilda AQSHdagi inqirozni aytish mumkin.
3. Davlatni moliyaviy tang, og‘ir ahvoldan qutqarish. Angliya Markaziy bankining monarz Karl II ni davlat moliya majburiyatlarini bajarish uchun tashkil etilgan.
4. Xususiy tijorat banklarining o‘zi ham pul emissiya qilishdan bezib qolishdi. (Senvoraj-naqd pul emissiyasidan olinadigan daromad)

9.4. Banklarning turlari

K apitalistik tuzumning rivojlanishi turli mulkchilik shakllarining rivojlanishiga, moliyaviy mablag‘larning alohida moliyaviy muassasalar ixtiyorida markazlashuviga olib keladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ko‘pchilik kapitalistik mamlakatlarda ayrim banklarning milliylashtirilishi yuz berdi. Bu o‘z navbatida banklarning mulkiy, huquqiy, funksiyasi, tabiati va boshqa qator mezonlari bo‘yicha tavsiflanishiga sabab bo‘ldi.

Zamonaviy iqtisodiyotda banklar quyidagi mezonlar bo‘yicha tavsiflanadi.

Mulkiy jihatdan – davlat banki, aksiyadorlik banki, kooperativ bank, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo‘shma banklariga bo‘linadi. Banklarni mulkchilik nuqti nazardan tasniflanganda asosan ularning ustav kapitali tarkibida kimning ulushi 51 foizdan yuqori bo‘lsa, bank shu shaxslarning nomlarini oladi.

Masalan, bank kapitalining asosiy ulushi xususiy yoki kooperativ tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelsa, mazkur banklar xususiy yoki kooperativ bank deya yuritiladi.

Davlat banklari kapitalining asosiy ulushi davlatga tegishli bo‘ladi, ko‘pchilik mamlakatlarda mamlakat Markaziy banklari davlat banki hisoblanadi. O‘zbekistonda Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Davlat – aksiyadorlik Xalq banki, aksiyadorlik tijorat “Asaka” banklarning kapitali tarkibida asosiy ulush davlatga tegishli bo‘lganligi bois mazkur banklar davlat banklari hisoblanadi.

Mamlakatimizda aksiyadorlik tijorat banklari sifatida, aksiyadorlik tijorat “Agrobank”ni, Aloqabank, Turonbank va boshqalarni keltirish mumkin. Mamlakatimizda yopiq turdagi aksiyadorlik tijorat banklari mavjud emas.

Xorijiy kapital ishtirokida qo‘shma banklar mamlakat qonunchiligiga asosan

belgilangan miqdordagi ustav kapitali xorijiy ishtirokchilar tomonidan shakllantirilsa mazkur banklar shu maqomga ega bo‘ladi. Mamlakatimizda xorijiy kapital ishtirokidagi banklarni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Huquqiy jihatdan – banklar ochiq va yopiq turdagi jamiyatlar sifatida tasniflanadi. Banklarning kapitalini asosiy ulushi yuridik shaxslar hissasiga to‘g‘ri keladi, ushbu banklar ochiq aksiyadorlik yoki yopiq aksiyadorlik banklari bo‘lishi mumkin.

Ochiq yoki yopiq aksiyadorlik banklari deyilishiga sabab ularning aksiyalarini sotish va sotib olish jarayoni bilan bog‘liq bo‘ladi. Qatnashchilari o‘zlariga tegishli aksiyalarini o‘zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo‘lgan aksiyadorlik jamiyati ochiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi.

Aksiyalari faqat o‘z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati yopiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Mamlakatimizda mulkiy jihatdan tashkil topishidan qa’tiy nazar, faoliyat yuritayotgan barcha banklar ochiq aksiyadorlik banklari hisoblanadi.

Banklar bajaradigan funksiyasi (operatsiyalari) jihatidan –emission, tijorat, investitsion, ipotekali va jamg‘arma banklar sifatida tasniflanadi. Emission banklar mamlakat iqtisodiyotiga pullarni emissiya qilish, shuningdek, kredit muassasalari faoliyatini tartibga solish va pul – kredit siyosatini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Bunday vazifani hozirgi paytda mamlakat Markaziy banklari bajaradi. Markaziy banklar bevosita mijozlarga bank xizmatlarini ko‘rsatmaydi va tijorat faoliyati bilan shug‘ullanishi ta’qiqlanadi.

Tijorat banklari mamlakat bank tizimi va kredit muassasalari tarkibidagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan moliyaviy muassasalar hisoblanadi. Ushbu banklar banklar bajarishi mumkin bo‘lgan barcha operatsiyalarni bajaradi.

Investitsion banklarning asosiy faoliyati passiv operatsiyalari natijasida shakllantirgan moliyaviy mablag‘larini asosiy ulushini qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishdan iborat bo‘ladi. Mamlakatda investitsion banklar faoliyat yuritishi uchun qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlangan va etarli darajada investitsion muhit yaratilgan bo‘lishi lozim.

Ipoteka banklari jismoniy va yuridik shaxslarga garov asosida uzoq muddatli kreditlar berish bilan shug‘ullanadi. Ipoteka atamasi ko‘chmas mulklarni garovga qo‘yish natijasida vujudga keladigan moliyaviy munosabat bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri garovga qo‘yilgan ko‘chmas mulk kredit (qarz) oluvchining tasarrufida qolishidir. Odatda ipoteka banklari faoliyatining asosiy yo‘nalishini ipoteka krediti berishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Biroq, amaliyotda ushbu qoida doimo ham o‘zining isbotini topmaydi, chunki hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan ipoteka banklari kredit portfeli tarkibida nafaqat ipoteka krediti, balki boshqa maqsadlarga yo‘naltirilgan kreditlarning hajmi salmoqli ulushni tashkil etadi.

Jamg‘arma banklarining asosiy mijozlari jismoniy shaxslar bo‘lib, ushbu banklarning asosiy faoliyati aholidan muddatli omonatlarni jalb qilishga qaratilgan bo‘ladi. Jamg‘arma sifatida shakllantirilgan mablag‘larni yirik tijorat banklariga, savdo va qurilish tashkilotlariga investitsiya va kreditlar ko‘rinishida joylashtiradi.

Banklar bajaradigan operatsiyalarining tabiati jihatidan –universal va ixtisoslashgan banklarga bo‘linadi. Universal banklar banklar bajaradigan barcha operatsiyalarni bajaradi. Bunga misol sifatida tijorat banklarini keltirish mumkin. Ixtisoslashgan banklar esa iqtisodiyotning ma’lum tarmog‘iga xizmat ko‘rsatish va shu tarmoqni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida qator ixtisoslashgan banklar (O‘zmevasabzavot, Zaminbank, Engilsanaot, G‘allabank, Paxtabank) tashkil etildi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi natijasida ushbu banklar universal banklarga aylantirilib, bir – biriga qo‘shib yuborildi yoki universal tijorat banklariga aylantirildi.

Shuningdek, ixtisoslashgan banklar, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni bajarish, investitsion faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin. Biroq mamlakatimizda, alohida tarmoqqa xizmat ko‘rsatadigan yoki operatsiyalarni bajaradigan ixtisoslashgan banklar mavjud emas.

Shu bilan birga banklarning faoliyati xizmat ko‘rsatadigan tarmoqlari, filiallarining soni, xizmat ko‘rsatish doirasi, kapitalining hajmi nuqtai nazaridan ham tasniflanadi.

Xizmat ko‘rsatadigan tarmoqlari bo‘yicha – banklarning faoliyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ayrim banklar iqtisodiyotning turli tarmoqlariga xizmat ko‘rsatadi. Jumladan, avtomobilsozlik, neft sanoati, qurilish va boshqa sohalar. Masalan, mamlakatimiz Sanoatqurilishbanki ko‘plab tarmoqlarga xizmat ko‘rsatadi, biroq asosiy faoliyati og‘ir sanoat korxonalariga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan. SHuningdek, Agrobankning asosiy faoliyati qishloq xo‘jaligi korxonalariga, Asakabank mashinasozlik sohasiga va hokazo.

Filiallarining soni bo‘yicha – ayrim banklarda filiallar umuman mavjud emas, ayrimlarida esa mamlakatning barcha hududlarida filiallari mavjud. Mamlakatimizda bunday banklar sirasiga Agrobank, Xalqbank, Mikrokreditbanklarni kiritish mumkin. Ushbu banklarning mamlakatimiz tumanlarining deyarli barchasida o‘z filiallari faoliyat yuritadi. Banklarning filiallari yuridik shaxs sifatida barcha huquq va majburiyatlarga ega bo‘lmaydi, ular tegishli nizom asosida bosh bank tomonidan berilgan chegaralangan huquq va majburiyatlar doirasida faoliyat yuritadi.

Xizmat ko‘rsatish doirasi bo‘yicha – banklar ma’lum hududga, hududlararo, xalqaro darajada mijozlarga xizmat ko‘rsatishi e’tiborga olinadi. Buning uchun banklar Markaziy bankning tegishli litsenziyalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Masalan, mamlakatimizda Markaziy bankning tegishli talablarni bajargan tijorat banklariga milliy valyutada va xorijiy valyutalarda faoliyat yuritishi uchun alohida – alohida litsenziyalar beradi.

Kapitalining hajmi bo‘yicha – banklar kichik, o‘rta va yirik tijorat banklarga guruhlanadi. Masalan, mamlakatimiz barcha banklari ustav kapitalining 40 foizdan ortig‘i TIF Milliy banki hisasiga to‘g‘ri keladi, yoki mamlakatimizda beshta yirik bankning (TIF Milliy banki, Sanoatqurilishbank, Agrobank, Asakabank, Ipotekabank) kapitali jami banklar kapitalining 85 – 90 foizini tashkil etadi.

Yakuniy so‘z sifatida ta’kidlash mumkinki, banklarning turlarini ko‘pqirraligi, ularning bajaradigan operatsiyalarining sonini ortib borishi

jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bularning barchasi tegishli qonun, qoida, tartib va mexanizmlar asosida tartibga solib boriladi.

9.5. Bank tizimi va uning elementlari.

B ank tizimi-tor ma’noda mank muassasalari yig‘indisidir. Bank tizimi keng ma’noda bank muassasalari va ular faoliyatining meyoriy huquqiy asoslari, tashkiliy moddiy-texnik va moliyaviy asoslarining yig‘indisidir.

1996-yil 25-aprelda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun;

1995-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun.

Amerikalik olim Fridrix Mishkin , rus olimi Andrushen va yana ko‘plab olimlar sug‘irta kompaniyalarini , pensiya fondlarini va kredit uyishmalarini bank tizimi tarkibiga kiritadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida 2 pog‘onali bank tizimi shakllanadi:

1-pog‘onada Makaziy bank ;

2-pog‘onada Tijorat banklari turadi.

Lekin 3 pog‘onali bank tizimi ham paydo bo‘ldi. Bunga misol qilib, evropa hududiga kirgan mam;lakatlarning bank tizimini ko‘rsatish mumkin:

- Evropa Markaziy banki
- Evro hudud mamlakatlarining Markaziy banki
- Evropa hudud mamlakatlarining tijorat banklari

Bank tizimi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. Bank tizimining huquqiy asoslari .

2. Bank tizimining tashkiliy asoslari. Masalan: AQShda tijorat banklari tashkiliy tuzilishiga ko‘ra 2 ga ajratiladi:

Universal banklar-depozit qabul qilish huquqiga ega, kreditlash, hisob-kitoblar va boshqa moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadi. Lekin ular qimmatli qog‘ozlar chiqarish yo‘li bilan resurs jalb qilish huquqiga ega emas. Universal banklar federal zaxira tizimi tomonidan nazorat qilinadi.

Investitsion banklar-depozit qabul qilish huquqiga ega emas. Ular qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarib, resurslar jalb qiladi va bu resurslardan o‘rta va uzoq muddatli kreditlar beradi.

Xitoyda 4 ta bank Markaziy bank bilan bir xil bank turadi: Xitoy sanoat banki, Xitoy qishloq-xo‘jalik banki , Xitoy eksport-import banki va Xitoy banki.

3. Bank tizimining iqtisodiy asoslari. Banklar faoliyat yuritish uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan miqdorda ustav kapitalini shakllantirish lozim. Ustov kapitali shakllangandan keyin Markaziy bank tijorat banklarga Bosh litsenziya beradi.

4. Banklar turlari. Tijorat banklari mijozlarning tarkibiga ko‘ra 3 turga bo‘linadi:

a) ulgurji banklar – bu banklar yirik kompaniyalariga moliyaviy xizmat ko‘rsatish, aholi va kichik biznes subektlari bilan ishlamaydi.

b) chakana banklar – faqat aholiga va kichik mijozlarga moliyaviy xizmat ko‘rsatadi.

c) aralash banklar bu banklarning mijozlari tarkibida aholiga ham , kichik subektlariga ham yirk kompanyalarga xizmat ko‘rsatadi.

9.6. Banklarning iqtisodiyotdagi roli.

B anklarning mohiyati va funksiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko‘rsatadigan xizmatlari ularning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi. Banklarning iqtisodiyotdagi roli deganda asosiy e’tiborni ularning vujudga kelish omillari, rivojlanish jarayonlari va bajaradigan operatsiyalariga qaratish lozim. Banklarning roli ularning funksiyalari kabi ma’lum darajadagi xususiyatlarga egadir. Banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan bo‘lishidan qa’tiy nazar, iqtisodiyotda umum ahamiyatga ega bo‘lgan operatsiyalarni bajaradi. SHu bois ham banklar qanday mulkiy shaklda yoki ixtisoslikda tashkil topgan bo‘lishidan qa’tiy nazar, ular iqtisodiyotda alohida ahamiyat kasb etadi.

Banklarning iqtisodiyotdagi roli xususida so‘z ketganda, dastlab jamiyatda ularning bajaradigan operatsiyalarini zarurligi va turlari, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va aholining ularga bo‘lgan ehtiyoji doirasida so‘z yuritish maqsadga muvofiq. Bularning barchasi banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyatini anglatadi.

Albatta, banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyati juda ko‘pqirrali bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

-jamiyatdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni tegishli shartlar asosida o‘ziga jalb etadi;

-qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larga ehtiyoji mavjud xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va aholiga qaytarishlik, to‘lovlik, muddatlilik va ta’minlanganlik asosida mablag‘lar beradi;

-milliy valyutaning emissiyasini tashkil etadi va uning barqarorligini ta’minlash doirasida pul – kredit siyosatini amalga oshiradi;

-pul aylanmasini tashkil etadi va uning tartibini belgilaydi;

-iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi sub’ektlar o‘rtasida hisob – kitob va to‘lovlarni amalga oshirishda vositchilik qiladi;

-bozor ishtirokchilariga turli darajadagi komission va maslahat xizmatlarini amalga oshiradi;

-aholiga va mijozlarga trast va depozitar xizmatlarini taklif etadi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolining asosiy jihatlaridan biri, jamiyatdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini jamg‘arish asosida ularni iqtisodiyotning tegishli tarmoqlariga qayta taqsimlashda namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, jamiyatda faoliyat yurituvchi xo‘jalik sub’ektlarining asosiy maqsadi iqtisodiy foyda olishga qaratilgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayoni turli tarmoqda turlicha bo‘lganligi bois, ma’lum davrda ayrim xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larga ehtiyoj tug‘ilsa, ayrimlarida aksincha. Iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish siklining turli – tumanligi (qishloq xo‘jaligi, qayta ishlovchi korxonalar, qurilish sanoati va boshqalar) sababli, moliyaviy mablag‘lar vaqtinchalik ishlab chiqarish

jarayonidan chetlashtiriladi. Bu jarayonda bir tomondan bir guruh iqtisodiyot tarmoqlarida qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larga nisbatan qo‘shimcha ehtiyojni keltirib chiqarsa, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mablag‘larning ishlab chiqarishdan chetlashishini keltirib chiqaradi.

Bu ikki tomonning iqtisodiy manfaatlarini birlashtiruvchi moliyaviy tashkilot sifatida banklar maydonga chiqadi. Birinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlarining vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini tegishli shartlar asosida jalb etib, ushbu mablag‘larga ehtiyoji bo‘lgan ikkinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlariga, ya’ni qo‘shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezgan xo‘jalik sub’ektlariga qayta taqsimlab beradi.

Bizningcha, ushbu munosabatlarni bankdan bo‘lak birorta moliyaviy tashkilot samarali va tez hal eta olmaydi. Banklarning ushbu o‘ziga xos jihati iqtisodiyotdagi rolini belgilaydi.

Banklarning iqtisodiyotda bajaradigan yana bir o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, bu ularning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, aholi va davlat tashkilotlari o‘rtasida amalga oshiriladigan hisob – kitoblarni tashkil etishi va ularning ustidan tegishli nazorat ishlarini amalga oshirish hisoblanadi. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik sub’ektlari o‘rtasida har kuni bir necha yuz minglab pul o‘tkazmalari amalga oshiriladi. Bularning barchasi banklar tomonidan amalga oshiriladi va tartibga solib turiladi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolini yuqori yoki pastligiga qator omillar ta’sir qiladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

a). Aholi va mijozlarning banklarga bo‘lgan ishonchining mustahkamligi. Xalqaro bank amaliyoti va mustaqillikdan keyin bosib o‘tilgan qisqa davrda yig‘ilgan tajribalarning natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotining asosiy o‘zagi asosan o‘zaro ishonch va halollikka tayanadi. Agar mazkur holatni aholi va mijozlarning banklarga bo‘lgan ishonchi yo‘qolishi bilan bog‘lab ko‘radigan bo‘lsak, banklarga nisbatan ishonch yo‘qolishi oqibatida ularning jamiyatdagi rolini pasayishiga olib keladi.

Aholi va mijozlarning banklarga bo‘lgan ishonchining zaifligiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

–banklarning mijozlar oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmasa;

–aholi va mijozlarning kreditga, ayniqsa naqd pulga bo‘lgan talabi to‘liq va o‘z vaqtida qondirilmasa;

–mijozlarning hisobvaraqlari bo‘yicha mablag‘lar qoldig‘i va aylanmalari haqida bank siri ta’minlanmasa;

–mijozlarning pul o‘tkazmalarini istalgan paytda va zarur miqdorda tegishli manzilga o‘tkazilmasa;

–bankda omonatlarni saqlashning iqtisodiy manfaatdorligi pasayib ketishi va boshqalar.

b). Mamlakat iqtisodiyotida bozor mexanizmlari to‘liq va barchaga barobor ravishda amal qilishi lozim. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 1991 yil mustaqillikka erishganimizdan so‘ng iqtisodiyotni markazdan boshqarishning byurokratik usullaridan voz kechib, iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlariga o‘tdik, – deganimiz bilan amaliyotda buning ijobati to‘liq

namoyon bo‘lmayapti. Xususan, tijorat banklarining xo‘jalik sub’ektlariga kreditlarni berishda, ayniqsa mijozlarning naqd pullarga bo‘lgan talabini qonidirilmasligi bu boradagi vaziyatning dolzarbligini anglatadi. Bularning barchasi banklarning iqtisodiyotdagi rolini yanada oshirish lozimligidan dalolat beradi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolini oshishi yoki pasayishiga nafaqat ularning sayi harakatlari, balki milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi va raqobatbardoshligi bevosita ta’sir qiladi. CHunki, banklar milliy iqtisodiyotdan ajralgan holda, alohida sub’ekt sifatida samarali faoliyat yuritishi mumkin emas. Masalan, banklarning asosiy faoliyat turlaridan biri muomalaga pulni emissiya qilishini oladigan bo‘lsak, muomalaga emissiya qilingan pul massasi tovar massasi bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim. Aks holda, milliy valyutaning inflyasiya darajasi oshishi bilan birga, uning sotib olish qobiliyati pasayib ketadi. Demak, muomalaga emissiya qilingan pullar tegishli tovar massasi bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim. Bu o‘z navbatida iqtisodiyotda ishlab chiqarish va tovarlar aylanmasi samaradorligi ta’minlanganligini talab etadi.

Demak, iqtisodiyotda tovar massasi va pul massasi o‘rtasidagi muvozanatlikning ta’minlanishi, birinchidan, bankning iqtisodiyotdagi rolini oshirsa, ikkinchidan, milliy iqtisodiyotning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq, bu muvozanatlikni ta’minlanishiga qator ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sir qiladi.

Masalan, 90 yillarning oxirlarida Rossiyada, shuningdek, qator sobiq ittifoq respublikalarida, shu jumladan malakatimizda ham pullarni muomalaga chiqarish hajmi ishlab chiqarish hajmidan sezilarli darajada pasayib ketdi. Buning natijasida ishlab chiqarish jarayonida uzilishlarni vujudga kelishiga, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida debitor – kreditor summalari miqdorining sezilarli darajada oshib ketishiga olib keldi.

Banklarning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini, ya’ni ularning rolini real sektorni kreditlash munosabatlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Mamlakat real sektori ishtirokchilari bank kreditiga nisbatan doimiy ravishda ehtiyoji mavjud bo‘lib, ushbu ehtiyoj ayniqsa, iqtisodiy inqiroz sharoitida ortib ketadi. Inqiroz sharoitida iste’mol tovarlarga nisbatan talabning hamda tovar va xizmatlar bahosining pasayishi, davlat buyurtmalari hajmining qisqarishi, debitorlarning to‘lovga layoqatsizligi korxonalarda qo‘shimcha moliyaviy resurslarga bo‘lgan kuchli talabni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Albatta, ushbu talab to‘lig‘icha banklarning kreditlari hisobidan qondirilishi, birinchidan, maqsadga muvofiq emas. Ikkinchidan, banklarda iqtisodiy inqiroz sharoitida ushbu ehtiyojni qondirish uchun etarli moliyaviy resurslarning taqchilligi paydo bo‘ladi.

Bundan tashqari, eng muhimi banklar tomonidan berilgan kreditlarning to‘liq qaytmaslik xavfi, ya’ni kredit riski vujudga keladi. Shu bois, iqtisodiy inqiroz sharoitida banklarning kreditiga talab yuqori bo‘lsada, banklar kredit quyilmalari hajmini oshirishga moyillik sezishmaydi. Bu banklarning iqtisodiyotdagi rolini pasayishiga emas, balki banklar ham tijorat muassasa sifatida asosiy e’tiborini iqtisodiy manfaatdorlik olishga qaratishini, eng muhimi banklar risk asosida kredit sifatida beradigan mablag‘lari o‘z mablag‘lari emas, balki chetdan jalb qilingan

boshqa shaxslarning mablag‘lari hisobiga faoliyat yuritayotganligini unutmaslik lozim.

10-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning tarkibi

REJA:

10.1. Bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari
10.2. O‘zbeksiton Respublikasi bank tizimi pog‘onalari
10.3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki vazifalari va funksiyalari
10.4. Tijorat banklari vazifasi va funksiyalari

10.1.Bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari

Bank tizimi bozor iqtisodiyotining muhim va ajralmas qismi-dir. Tovar pul munosabatlarining keng miqyosda rivojlanishi bank-lar oldida yangidan-yangi operatsiyalar bajarishga imkoniyatlar ochib beradi.

SHuning uchun ham, respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablari-ga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug‘ildi. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining bosh maqsadi jahon tala-biga mos keluvchi, rivojlangan milliy kredit tizimiga ega bo‘lish, xo‘jaliklar va aholining bo‘sh turgan mablag‘larini jalb qilish va uni samarali taqsimlash asosida aholining talablarini qondirish uchun zamin yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishishdan iborat. Bu maqsadga erishishni taminlash uchun davlatimiz tomonidan mamlakatimiz bank sektorining rivojlanishini ta’minlovchi zaru-riy makroiqtisodiy sharoitlarni hamda bank tizimi barqarorli-gini ta’minlash, shuningdek, bank nazorati tizimini va banklar faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish, banklarning depozit, kredit, va investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirishga erishish va banklar o‘rtasida raqobat bo‘lishini ta’minlashga asos yaratishdan, nobank tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, moliya-kredit sektorining huquqiy bazasini yaxshilash, ularning moddiy-texnik jihatdan samarali taminlanganligiga erishish kabi choralarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Bank tizimini qayta tashkil qilishni amalga oshirish quyidagi tamoyillarga acoclangan holda olib borilishi mumkin:

– xorijiy va mahalliy investorlarning ishonchini qozonish maqsadida bank-moliya tizimi barqarorligiga erishish;

– Bank tizimidagi islohotlar umumiqtisodiy islohotlarning o‘tkazilishi bilan mos kelishi;

–bank-moliya tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish yo‘li bilan jahon bank tizimiga yaqinlashtirish;

– pul-kredit siyosatini olib borishda mamlakatning ichki ehtiyoj-lari va iqtisodiyotning xususiyatini hisobga olish;

– banklar faoliyatida mijozlar manfaatini ustun qo‘yish va boshqalar.

Bizning zaminimizda mavjud bo‘lgan banklarning rivojlani-shini ikki yirik davrga bo‘lib qarash mumkin. Birinchi davr bu –O‘z-bekiston mustaqillikka erishgungacha bo‘lgan davrdagi bank tizimi va ikkinchi davr O‘zbekiston

mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Biz ta’kidlaganimizdek, O‘zbekistonda bank tizimi ikki pog‘ona-li bo‘lib, banklar tizimining birinchi pog‘onasi – bu O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, ikkinchi pog‘onasi – tijorat bank-lari, ularning sho‘‘balari, chet el banklari sho‘balari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi banklar tizimini kengaytirgan holda quyidagicha chizmada keltirish mumkin. 1991 yilning 31 avgustida Respublikamiz mustaqilligining e’lon qilinishi tarixiy voqea bo‘ldi. Mustaqillik bizga o‘z-o‘zi-mizni boshqarish, imkoniyatlarimizdan o‘zimiz foydalanish, shaxsiya-timizni qaytib olishimizga katta yo‘l ochib berdi.

Butun dunyo mamlakatlari tomonidan tan olingan bozor iqtiso-diyoti bizning respublikamizga ham kirib keldi. SHuning uchun ham respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug‘ildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar bo‘lgan bank tizimining rivojlanishini tahlil qilib qaraydigan bo‘lsak, uning rivoj-lanishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin:

– birinchi bosqich XIX asrning oxiridan 1930-32 yillargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr ichida oldingi mavjud bo‘lgan banklar zaminida Sobiq Sovet Ittifoqining kredit tizimi tashkil qilindi. Bu davrda 30-yillarda iqtisodning rivojlanishiga mos keluvchi banklar: tarmoq banklari, o‘lka banklari, tijorat banklari, maxsus banklar, davlat banklari kabi banklar faoliyat ko‘rsatgan;

– ikkinchi bosqich 1932 yildan 1959 yillargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda banklar faoliyatida o‘zgarishlar yuz berdi va banklar veksel orqali kreditlashdan (o‘sha davrlarda bu kreditlash amaliyotda «egri» kreditlash deb nom olgan) to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxonalarni kreditlashga o‘tkazilgan. Bu davrda xo‘jaliklar o‘rtasidagi vazifalar taqsimlangan va iqtisodiyot sohalari bo‘yicha banklar tashkil qilingan hamda bu banklar faqat shu sohalarni uzoq muddatli kreditlash va moliyalashtirish bilan shug‘ullangan. Davlat banki esa asosan qisqa muddatli kreditlash jarayonlarini olib borgan;

– uchinchi bosqich 1959 yildan 1988 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda mavjud tarmoq banklari qayta tashkil qili-nib, mamlakatdagi barcha kredit munosabatlarini olib borish maqsadida uchta bank tashkil qilindi. Bular: Davlat banki, qurilish banki, tashqi savdo banki bo‘lgan. Davlat banki iqtisodiyotning barcha sohalariga faqat qishloq xo‘jaligining ba’zi ehtiyojlari uchun uzoq muddatli kreditlar berilgan) qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug‘ullangan. Qurilish banki kapital qo‘yilmalar bilan bogg‘liq bo‘lgan xarajatlarni, qurilishni moliyalashtirish, uzoq muddatli kreditlar berish bilan bog‘liq operatsiyalarni bajargan. Tashqi savdo banki Moskvada joylashgan bo‘lib, mamlakatning eksport-import bilan bog‘liq faoliyatini boshqarib borgan;

– to‘rtinchi bosqich bank tizimini qayta tashkil qilish davri bo‘lib, u 1988 yildan 1990 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan. Bu davrda bank tizimida katta o‘zgarishlap ro‘y berdi va Davlat banki bilan bir qatorda maxsus tarmoq banklari tashkil qilindi.

Bu banklar jumlasiga, Sanoat Qurilish banki, Agrosanoat banki, Uy-joy qurilish va ijtimoiy ta’minot banki, jamg‘arma bank va tashqi iqtisodiy faoliyat banki kabilar kiradi. Bu banklar faoliyatining xususiyatli tomoni shunda ediki, ular o‘zi xizmat ko‘rsatadi-gan sohaga uzoq va qisqa muddatli kreditlar berish huquqiga ega edilar.

SHu davrdan boshlab Davlat bankidan kreditlash funksiyasi olib tashlandi va u emission bank sifatida faoliyat ko‘rsatadigan bo‘ldi. 90-yillarda bank tizimini qayta tashkil qilishdan asosiy maqsad mamlakatda yuz berayotgan asosiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda banklar zimmasiga korxonalar va tashkilotlarga kompleks xizmat ko‘rsatishni ta’minlash va korxonalar bilan banklar o‘rtasidagi munosabatlarni xo‘jalik hisobiga o‘tkazish, quyi bank muassasalari-ning huquq va majburiyatlarini oshirishdan iborat edi.

Mustaqillikka erishgunga qadar O‘zbekiston hududidagi bank muassasalari SSSR bank tizimi tarkibiy qismiga kirar edi. SHu bilan birga bu banklar sobiq «Ittifoq» bank tizimi doirasidan tashqarida faoliyat ko‘rsata olmasdilar. Sobiq SSSR bank tizimida Davlat banki monopol mavqega ega bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida emis-siya instituti, qisqa muddatli kreditlashtirish va xo‘jaliklarga hisob-kitob operatsiyalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi markaz hisob-lanardi. Davlat bankining ham emissiya funksiyalarini ham hisob-kitoblar va 90-yillargacha kreditlar bo‘yicha mijozlarga xizmat ko‘rsatish funksiyalarini bajarishga mononollashuvi uni davlat boshqaruv va nazorat organiga aylangan edi.

Ma’muriy buyruqbozlik davrida kredit munosabatlari iqtisodiyotni boshqarishda normal xarakterga ega. Davlat banki kredit resurslari bo‘yicha cheklanmagan monopol mavqega ega edi. Kredit resurslari harakatini ham boshqarish ham nazorat qilish Davlat bankining monopol ta’siri ostida edi. Rivojlangan mamlakatlar bank tizimiga xos barcha xususiyatlarining inkor etilishi, sobiq «Ittifoq» bank tizimining tor doirada rivojlanishiga olib keladi.

Markazlashtirilgan bank tizimi boshqaruv asosida faoliyat ko‘r-satayotgan respublika banklar tor doirada pul resurslari haraka-tini boshqarar, lekin resurslarni taqsimlash, emission jarayonlarni amalga oshirish va nazorat qilish sobiq «Ittifoq» Davlat banki qo‘lida edi.

Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qo‘yilishi bilanoq markazlashtirilgan bank tizimini qator kamchiliklari ro‘yobga chiqdi. Bu esa bank tizimida tub o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etardi. Albatta, bu bozor iqtisodiyotiga ilk qadamlar qayta qurish sharofati bilan bozorga xos ba’zi bir belgilarni totalitar iqtisodiyotga tatbiq etilishi bilan tushuniladi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy strukturasini o‘zgartirish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimni rivojlanishiga ularning ta’sirini kuchaytirish, kreditni harakatdagi iqtisodiy dastakka aylantirish ko‘zda tutilgandi.

Bank tizimi rivojlanishining ikkinchi davri asosan O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrni quyidagi bosqichlarga bo‘lib tahlil qilish mumkin:

– mustaqil O‘zbekiston bank tizimini tashkil qilishning birin-chi bosqichi. Bu 1991-1994 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda 1992 yilning sentyabrgacha

O‘zbekiston davlat banki sobiq SSSR Davlat bankining respublika bo‘limi sifatida faoliyat ko‘rsatdi va u kredit resurslarni davlat korxonalari miqyosida taqsimlash, emission operatsiyalarni olib borish bilan shug‘ullandi. Qolgan tarmoq bank-lar ham davlat mulkiga asoslangan edi.

O‘zbekistonda ikki pog‘onali bank tizimini tashkil qilishga 1988 yildan boshlab kirishilgan bo‘lsa-da, bu maqsadning to‘liq amalga oshirilishiga sharoit 1994 yildan boshlab yuzaga keldi. Bu davrga kelib Markaziy bankning tashkiliy tarkibiy asosi, faoliyat olib borish uslubi o‘zgardi, tijorat banklarning soni va ular bajara-digan operatsiyalar salmog‘i oshib bordi.

Bank tizimini tashkil qilishning birinchi bosqichida markazlashgan rejalashtirishda Markaziy bankning mavqei hali ham yuqori edi, sohalarning deyarli hamma qismi davlat tasarrufida edi.

O‘zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimining tashkil etilishi tamal toshi 1991 yil 15 fevraldagi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi» qonun hisoblanadi. Bu qonunga binoan davlat boshqaruv organlari respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmasliklari kerak, u faqat Respublika Oliy Majlisiga hisobot berish o‘rinli ekanligi belgilab berildi. Bu qonunni amalga tatbiq etish asosan Respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kirit-ganidan so‘ng boshlandi.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish yo‘li-ni tanlanganligi bois, birinchi bosqichdagi pul-kredit siyosati sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgi-landi:

– Markaziy bank boshchiligida keng tarmoqli tijorat va xususiy banklarni ikki bosqichli bank tizimi shaklida vujudga keltirish;

– Respublika hududida yirik chet el banklarining bo‘limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratish;

– Barqaror pul muomalasini ta’minlash, kredit va naqd pul emissiyasini, asossiz o‘sishini keskin cheklash;

– O‘zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni yaratish va boshqalar.

Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichida davlat banklarini yangi strukturasini tashkil etish boshlandi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

– ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: Markaziy emission bank va bevosita xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan banklarni tashkil qilish;

– ixtisoslashgan banklarni to‘laligicha xo‘jalik hisobiga va o‘z-o‘zini moliyalashga o‘tkazish:

– iqtisodiy tizim doirasida huquqiy va jismoniy shaxslar bilan bo‘ladigan kredit munosabatlari uslublari va shakllarini takomillashtirish va boshqalar.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o‘zining kredit tizimidagi markaziy o‘rnini saqlab qolgan holda korxona va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitob-larni olib berish funksiyasini maxsus ixti-soslashgan banklarga topshiradi, ya’ni bankning emission faoliyati, kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qo‘yildi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul-kredit siyosatini olib boruvchi muassasalarga aylanadi.

Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: Sanoat Qurilish banki, Kommunal Qurilish va ijtimoiy taraqqiyot banki, Agrarsanoat banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Jamg‘arma banki xo‘jaliklar bilan banklar o‘rtasidagi aloqalarni tobora yaqinlashtirishda ixtisoslashtirilgan davlat banklari o‘zlarida ma’lum darajada boshqaruvchilik mavqeini saqlab qoladilar. Bank tizimini takomillashtirish jarayonida juda muhim natijalarga erishildi, lekin tashkil qilingan banklar iqtisodiy munosabatlarining xususiyatlarini to‘liq ifoda qilolmasdi. SHuning uchun ham, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida bank tizimini takomillashtirishning ikkinchi bosqichi ob’ektiv zaruriyatga aylandi.

O‘zbekistonda bank tizimini tashkil qilishning ikkinchi bosqichi 1994 yildan keyingi davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda bank tizimining takomillashgan faoliyatini belgilab beruvchi bank qonun-lari: 1995 yil 21 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi va 1996 yil 25 aprelda «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarga asosan banklar faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berildi va ularning ishlash usullarini takomillashtirish choralari ishlab chiqildi.

Tijorat banklarining samarali faoliyatini ta’minlash maqsadida bank nazorati va monitoringini amalga oshirish, tijorat banklari faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish va xalqaro talablarga moslash, yangi schetlar tizimiga o‘tish, chet el banklarining sho‘‘balarini ochish, to‘lov tizimini takomillashti-rish, tijorat banklarining qimmatbaho qog‘ozlar bilan operatsiya-larini rivojlanlantirish, pul va valyuta bozorida banklarning aktiv faoliyatini ta’minlash kabi dolzarb masalalar hozirgi kunda mustaqil bank tizimining rivojlanishi tufayli o‘z yechimini topmoqda.

10.2. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi pog’onalari

Respublikamizda ikki pog‘onali bank tizimini jahon tajribasida qabul qilingan tamoyillarga muvofiq shakllantirish ko‘zda tutilgan. Ixtisoslashish va kredit-investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlash Respublikamizdagi bank muassasalarining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ularning faoliyati asosan ustuvor tarmoqlar qishloq xo‘jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar, uy-joy qurilishi, avtomobilsozlik savdo va boshqa sohalarni rivojlantirishga qaratilgan. Hozirgi banklar aksiyador-tijorat banklari sifatida tashkil qilinib, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashga moslashgan va ular ixtisos-lashgan banklar bo‘lsa-da, boshqa tarmoqlardagi mijozlarga ham kre-dit va hisob-kitoblar bo‘yicha xizmat ko‘rsatishlari mumkin. Banklar faoliyatining universallashuvi ular o‘rtasida raqobatning yuzaga kelishiga, bu esa ularning bozor iqtisodiyotiga barqaror kirib borishini ta’minlaydi.

Mustaqil bank tizimini vujudga keltirishning ikkinchi bos-qichining xususiyatlaridan biri shundaki, 1995 yildan boshlab O‘zbekistonda maxsus nobank kredit tashkilotlari tashkil qilina bosh-landi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishni tezlashtirish, korxona va tash-kilotlar faoliyatini rivojlatirish maqsadida maxsus moliya-kredit institutlari – «Madad» sug‘urta kompaniyasi, «O‘zbekinvest» milliy

sug‘urta kompaniyasi, xususiylashtirish investitsion fondlari va boshqalar tashkil qilinishi respublika bank-moliya tizimining ri-vojlanishini tezlashtirmoqda.

Hozirda respublikadagi keng tarmoqli banklar zamonaviy talab-larga javob beradigan shaklda xo‘jaliklar, tashkilotlar va aholiga xizmat ko‘rsatmoqda.

10.3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funksiyalari

Markaziy bankning vazifalari va funksiyalari to‘g‘risidagi fikrlar O‘zbekiston Markaziy bankiga ham tegishlidir. Bu paragrafda biz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining ba’zi bir xususiyatli tomonlari to‘g‘irisida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekiston Rsspublikasida Markaziy bankning asosiy maqsadi pul-kredit tizimi va milliy valyuta barqarorligini ta’minlash asosida iqtisodiy o‘sishga erishishdan iborat.

Pul-kredit siyosatini samarali amalga oshirish uchun Markaziy bank pul-kredit siyosatini rivojlantirishning bir yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqadi. Bu yo‘nalishlar Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangandan keyin harakat dasturi sifatida qabul qilinadi. Markaziy bankning vazifalari xilma-xil bo‘lib, bu qonunda aks ettirilgan.

O‘zbekiston Resnublikasi Markaziy banki huquqiy shaxs sifatida, davlat mulkiga asoslangan bo‘lib, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa sifatida o‘z xarajatlarini daromadlari hisobidan qoplashi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki o‘z miqyosi va faoliyat darajasiga ko‘ra respublikamizdagi eng yirik bank hisoblanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Mar-kaziy banki to‘g‘risida»gi qonun asosida faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu qonunning 3-moddasida ko‘rsatilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh maqsadi milliy valyutaning barqaror-ligini ta’minlashdir. Valyuta barqarorligi pul massasi, narx-navo va milliy valyuta kursining barqaror bo‘lish tushunchasini o‘z ichiga oladi. Albatta, pul massasi, valyuta kursi, narx-navoga ta’sir qiluvchi boshqa omillar ham mavjud. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qator muhim vazifalarpi hal etadi. Ularning asosiylari quyidagilardir:

– monetar siyosatni va valyutani boshqarish siyosatini shakl-lantirish, qabul qilish hamda amalga oshirish;

– O‘zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil qilish va ta’minlash;

– banklar faoliyatini tartibga solish va banklar faoliyati usti-dan nazorat qilish;

– O‘zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zaxirasini saqlash va ularni boshqarish;

– Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish.

Markaziy bankka ayrim bank korxona va tashkilotlarning kapitalida qatnashishi, ularga moliyaviy yordam koʻrsatishi, tijorat turi-dagi faoliyatlarni olib borishi man qilinadi. Markaziy bankni boshqarishning yuqori tashkiloti boshqaruv boʻlib, u monetar siyosat-ni hamda oʻz zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarni amalga oshirishda boshqa davlat tashkilotlarining bevosita va bilvosita arala-shuvidan holi hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki oʻz zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi.

1. Iqtisodiyotni pul-kredit dastaklari yordamida boshqarish.
2. Hisob-kitob va pul oʻtkazish operatsiyalarini bajarishni yoʻlga qoʻyish.
3. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish.
4. Boshqa kredit muassasalarining kassa zaxiralarini saqlash.
5. Rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini saqlash.
6. Hukumat uchun hisob-kitob va kredit operatsiyalarini bajarish.
7. Tijorat banklariga kredit berish.
8. Pul emissiyasi.

Markaziy bank oʻz sarf xarajatlarini daromadlari hisobidan qoplovchi iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir. Markaziy bankning mol-mulki uning pul va boshqa moddiy boyliklardan ibo-rat boʻlib, ularning qiymati Markaziy bank balansida aks ettiri-ladi.

Respublika Markaziy bankining nizom kapitali 2 mlrd. soʻm deb belgilangan. Shuningdek, Markaziy bank soliqlar va bojlardan «Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki toʻgʻrisida»gi qonunning 23-moddasiga muvofiq ozoddir. Markaziy bank kelgusi yil uchun Oʻzbekiston Respublikasi monetar siyosatining asosiy yoʻnalishlarini ishlab chiqadi va har yili keyingi moliya yili boshlanishidan 30 kun oldin Oliy Majlisga bu haqda axborot beradi. Markaziy bank pul-kredit, moliya, valyuta va narx munosabatlari-ning ahvoliga asoslanib, muomaladagi pul muassasining bitta yoki bir qancha koʻrsatkichlari oʻzgarishining aniq maqsadli moʻljal-larini belgilashi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosati iqtisodiyot vaziyatni tahlil qilish va oldindan aytishni, pul miq-dorini yillik oʻstirish surʼatlarining maqsadli koʻrsatkichlarini, kredit, foiz va valyuta siyosatini amalga oshirish yoʻnalishlarini oʻz ichiga olib muhim makroiqtisodiy jarayonlar: pulning qadrsiz-lanishi, milliy ishlab chiqarishning umumiy hajmi hamda mehnat resurslarining bandligi, toʻlov balansini barqarorlashtrishga yoʻnaltirilgan boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki oʻzaro hisob-kitoblarning Oʻzbekiston tijorat banki tomonidan belgilangan va hamma bank hamda mijozlar uchun majburiy boʻlgan qoidalar asosida olib borilishini nazorat qiladi. CHunki belgilangan qoidalarning bir taxlitda qoʻllanilishi butun respublika hududida hisob-kitoblar-ning uzluksizligini taʼminlaydi.

«Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida»gi Qonunning 50-moddasiga muvofiq, banklarni nazorat qilishdan asosiy maqsad bank tizimining barqarorligini taʼminlash, omonat-chi va kreditorlar manfaatlarini himoya

qilishdan iborat. O‘zbe-kiston Respublikasi Markaziy banki bank faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank muassasalarining rivojini xar tomonlama hi-sobga olib va kuzatib boradi, kapitalning aynan bir xilligi, lik-vidlikka doir talablarni o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy me’yorlarni (52-modda), shuningdek, kreditlash hajmi, limitlarini belgilaydi. Kapitalning etarliligi, aktivlarining sifati, foydaligi va likvidliligiga qarab tijorat banklarining moliyaviy ahvoli bahola-nadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organidir. SHu bilan bir-ga, Markaziy bank yuridik va jismoniy shaxslarga chet el valyutasida operatsiyalar o‘tkazishga litsenziyalar beradi va milliy valyutani chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash shartini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xalqaro hisob-kitob-larda zaxiradagi aktiv va kafolatli sug‘urta fondi vazifasini bajarish bilan birga dunyo moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish yo‘li bilan mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari qiymatini ham yaratadi. Boshqa moliya muassasalari, korxonalar va xususiy shaxslar ham xorijiy valyutaga ega bo‘lish va valyuta opera-siyalari o‘tkazish huquqi borligiga qaramasdan, O‘zbekiston Respub-likasi Markaziy banki valyuta zaxiralarini saqlovchi asosiy depo-zitariy bo‘lib qolishi lozim.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hukumatining bankiri, maslahatchisi va xazina vakili sifatida ish tutadi.

«O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunning 44-moddasiga muvofiq Markaziy bank hukumat bankiri sifatida hukumat muassasalari va tashkilotlarining hisob varaq-larini yuritadi, ana shu hisob varaqlarda mablag‘larni jamg‘aradi va ulardan to‘lovlarni amalga oshiradi; davlat qimmatbaho qog‘ozlari bilan operatsiyalar o‘tkazib turadi; davlatga bevosita qisqa muddatli va uzoq muddatli ssudalar shaklida yoki davlat obligatsiyalarini xarid qilish tarzida kredit beradi; hukumat idoralarining topshirig‘iga binoan oltin bilan yoki xorijiy valyutada operatsiyalar bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumatning xazina vakili sifatida hukumat hisobvaraqlarini yuritadi, Hukumatning moliya operatsiyalariga ko‘maklashadi byudjet daromad va xarajatlari masalalari yuzasidan maslahatlar beradi, davlat qimmatli qog‘oz-larini joylashtiradi, ular bo‘yicha hisobvaraqlar yuritadi va dav-latning boshqa qarz majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshi-radi.

Banklar banki sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy ban-ki hisob-kitob-to‘lov operatsiyalarini o‘tkazish, banklararo to‘lov-larning hisob-kitob-kliring xizmatini uyushtirish tartibini bel-gilaydi, tijorat banklariga kreditlar, tegishlicha ko‘rsatmalar beradi.

Tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi o‘z hisob varaqalaridan o‘zaro hisob-kitoblar uchun foydalanadilar. Bundan tashqari, ularning o‘z mablag‘lari kamlik qilsa, Markaziy bankdan kredit olishlari, naqd pul bo‘yicha ham Markaziy bankka murojaat qilishlari mumkin.

SHuningdek, o‘z hisob va kredit operatsiyalari bo‘yicha stavkalarni mustaqil ravishda belgilaydi. Markaziy bank O‘zbekiston Respub-likasi hududida qonuniy to‘lov vositasida banknotalar va tanga ko‘rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqaradi.

Markaziy bank va u vakolat bergan talabga ko‘ra bir nominal qiymatdagi banknota va tangalarni boshqasiga hech qanday to‘lovsiz yoki vositachilik haqisiz almashtirib beradi. Naqd pul mablag‘larini muomalaga chiqarish va qaytarib olishni faqat Markaziy bank amalga oshiradi.

Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy zaxira miq-dorini belgilab beradi. Hozirgi kunda bu ko‘rsatkich milliy valyutada 15 % va xorijiy valyutada 8 %ni tashkil qiladi. U pul muomalasini barqarorlashtirish va banklar likvidligini ta’minlashda ahamiyatga ega.

10.4. Tijorat banklarining vazifalari va funksiyalari

Tijorat banklarining iqtisodiy mavqei faoliyat doirasining keng bo‘lishiga olib keladi. Tijorat banklari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi.

1. Vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larni yig‘ish va ularni kapitalga aylantirish.
2. Korxona, tashkilotlar, davlat va aholini kreditlash;
3. muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari) ni chiqarish.
4. Iqtisodiyotda hisob-kitoblar va to‘lovlarni amalga oshirish.
5. Moliya - valyuta bozorida faoliyat ko‘rsatish.
6. Iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va konsultatsiya xizmatlarini ko‘rsatish.

Banklar bo‘sh pul mablag‘larini yig‘ish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasini bajara turib, mavjud bo‘sh pul daromadlari va jamg‘armalarni yig‘adi. Jamg‘aruvchi (bo‘sh pul mablag‘i egasi) o‘z mablag‘larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag‘lardan foydalangani uchun ma’lum foiz hisobida daromad oladilar. Bo‘sh pul mablag‘lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond xalq xo‘jaligi tarmoqlarini kreditlash uchun ishlatiladi.

Tijorat banklar faoliyatida asosiy o‘rinni korxona, tashkilotlarni, aholini, davlatni kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi rolini o‘ynaydi. U bo‘sh turgan mablag‘larni jalb qiladi va o‘z nomidan mijozlarga vaqtincha foydalanishga beradi. Bank krediti hisobidan xalq xo‘ja-ligining muhim tarmoqlari – sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo‘ladi.

Muomalaga kredit pullarni chiqarish funksiyasi tijorat banklarini boshqa moliya institutlaridan ajratib turadi. Tijorat banklari depozit-kredit emissiya qilganida, ssudalar berganida, pul massasi oshadi va ssuda bankka qaytarilganda, muomaladagi pul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitenti hisoblanadi. Tijorat bank tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob raqamiga o‘tkaziladi va bankning

qarz majburiyati ortadi. Mijoz bu mablag‘ning ma’lum qismini naqd pul shaklida hisob raqamidan olishi mumkin. Bu holda muomaladagi pul massasining miqdori oshadi. SHuning uchun ham, Markaziy bank tijorat bank-larining faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

Tijorat banklarining muhim funksiyalaridan biri hisob-kitoblarni olib borishdir. Hisob-kitoblarni olib borishda bank mijozlar o‘rtasida vositachi bo‘lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari qimmatbaho qog‘ozlar chiqarish va joylashtirish bilan ham shug‘ullanishi mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiy ahvolni nazorat qilish jarayonida mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berishi mumkin.

Aksioner tijorat banklarning yuqori organi – aksionerlarning umumiy yig‘ilishi hisoblanadi. Har yili aksionerlarning yig‘ilishi nizomdagi va nizom kapitalidagi o‘zgarishlarni, yillik faoliyat va uning natijalarini, bank daromadlarini tasdiqlash, Bank Kengashi tarkibini saylash bankning sho‘‘ba muassasalarini tashkil qilish va bekor qilish kabi masalalarni ko‘rib chiqishi mumkin.

Tijorat banklari quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

– passiv operatsiyalar;

– aktiv ssuda operatsiyalar;

– bank xizmatlari va vostitachilik operatsiyalari;

– bankning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiradigan operasiyalar va boshqalar.

Tijorat banklarni ochishga litsenziya (ruxsatnoma)ni Markaziy bank beradi. U tijorat banklar faoliyatini olib borish bo‘yicha iqtisodiy normativlar belgilab beradi va ularning bajarilishini nazorat qilib boradi

Bu bobda biz banklarga taalluqli bo‘lgan umumiy funksiyalar to‘g‘risida gapirib o‘tmoqchimiz. Keyingi boblarda biz alohida-alohida olingan holda birinchi va ikkinchi bo‘g‘in banklarining funk-siyalari to‘g‘risida fikr yuritamiz.

SHunday qilib, bank tizimi miqyosida olib qaraydigan bo‘lsak, banklar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni yig‘ish va kapitalga aylan-tirish;

– kredit munosabatlarida vositachilik qilish;

– to‘lov jarayonlarida vositachilik qilish;

– muomalaga kredit vositalarini chiqarish.

Xalq xo‘jaligidagi vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni yig‘ish va ularni kapitalga aylantirish – banklarning ilk funksiyalaridan biri hisoblanadi. Bu funksiya amalga oshirilishi natijasida bir tomondan, huquqiy va jismoniy shaxslar jalb qilingan mablag‘lari bo‘yicha ma’lum miqdorda daromadga ega bo‘ladilar, ikkinchi tomon-dan bu mablag‘lar banklarning kreditlash salohiyatini tashkil qila-di va shu resurslarga asoslangan holda banklar ssuda operatsiyalari-ni olib boradi.

Vaqtincha bo‘sh pul mablag‘lar banklar ishtirokisiz bir korxona (tarmoq) tomonidan ikkinchi korxona (tarmoq)ga vaqtincha foydala-nishga beriladigan bo‘lsa, bu munosabatlarni tashkil qilishda ma’-lum qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin:

– birinchidan, kreditga so‘ralayotgan summa bilan kreditga berilishi mumkin bo‘lgan summa o‘rtasida nomutanosiblik bo‘lishi mumkin;

– ikkinchidan, ortiqcha bo‘sh mablag‘ga ega bo‘lgan korxonaning mablag‘larni vaqtincha foydalanishga beradigan muddati mablag‘ zarur bo‘lgan korxonani qoniqtirmasligi mumkin;

– uchinchidan, banklar ishtirokisiz korxonalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kreditlashda qarz beruvchi qarz oluvchi korxonaning moliyaviy ahvo-lini to‘liq o‘rgana olmasligi mumkin. Qarz oluvchining to‘lovga layo-qatsiz bo‘lishi kreditor korxonaning ham moliyaviy ahvolining yomonlashuviga va boshqa salbiy hollarga olib kelishi mumkin.

Xalq xo‘jaligidagi barcha bo‘sh mablag‘larning bank tomonidan yig‘ilishi natijasida vujudga keladigan kredit resurslar hisobi-dan qarz oluvchi korxonaga zarur bo‘lgan summada, zarur bo‘lgan mud-datda kredit berishga imkoniyat yaratiladi. Undan tashqari, bank kor-xonalarning to‘lovga layoqatliligini har tomonlama tahlil qilishi, ularning moliyaviy ahvolini yaqqolroq baholab bera olishi mumkin.

Iqtisodiyotning o‘sishi bank kreditining qo‘llanilish ko‘lamini kengaytirib boradi. Kredit faqatgina har kunlik faoliyat bilan bog‘liq ishlab chiqarish va muomala jarayonining qisqa muddatli eh-tiyojlari uchun emas, balki uzoq muddatga kapitalga bo‘lgan ehtiyoj-ni qoplashga yo‘naltiriladi. O‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab, banklar yirik mijozlarga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslasha bordi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun banklar mablag‘larni jalb qilish miqyosini, iste’mol uchun kreditlar berish ko‘lamini kengaytirdi.

To‘lovlarda vositachilik funksiyasida banklar o‘z mijozlarining topshirig‘iga asosan to‘lov jarayonlarini amalga oshiradi, hisob varaqlariga mablag‘larni qabul qiladi, pul tushumlarining hisobi-ni olib boradi, mijozlarga pul mablag‘larini beradi.

Hisob-kitoblarning bank orqali olib borilishi muomala xara-jatlarining kamayishiga olib keladi. Mijoz mamlakat ichida va boshqa mamlakat bilan qiyinchiliksiz o‘z mablag‘larini bank orqali o‘z hisobvarag‘idan boshqa korxona hisobvarag‘iga yoki boshqa mamlakat bankiga o‘tkazishi mumkin.

Muomalaga kredit vositalarini chiqarish. Bank kreditining manbai faqat vaqtincha bo‘sh mablag‘lar va kapital bo‘lib qolmasdan, kredit asosida chek-depozit emissiyasi ham amalga oshiriladi. Bank tomonidan beriladigan kredit miqdori mavjud jamg‘armalardan ko‘p bo‘lsa, bank chek-depozit emissiyasini amalga oshirishi mumkin.

11-mavzu. Markaziy bank va uning funksiyalari

REJA:

11.1. Markaziy bank faoliyatining maqsadi. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi. Markaziy bankning funktsiyalari.

11.2. Markaziy bank faoliyatining maqsadi va vazifalari. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi.

11.3. Markaziy bankning funktsiyalari: emission funktsiya; “banklarning banki” funktsiyasi.

11.4. Markaziy bankning “davlatning banki” funktsiyasi; rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funktsiyasi.

11.1. Markaziy bank faoliyatining maqsadi. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi. Markaziy bankning funktsiyalari.

Mamlakatning Markaziy Banki - shu davlat bank tizimining asosiy qismi bo’lib xisoblanadi. Markaziy bank - birinchi o’rinda davlat va iqtisodiyot o’rtasida vositachi bo’lib xizmat qiladi. Ammo Markaziy bank o’z oldiga foyda olishni maqsad qilib ko’ymaydi.

Markaziy bank - masalan, Angliya banki, Frantsiya banki, Bundes bank, Yaponiya banki, Shvetsariya milliy banki, Finlyandiya banki va boshqa yagona banklardan tashkil topadi.

Markaziy bank mulk shakliga ko’ra ular Davlat (kapital davlatga tegishli) aktsioner va aralash kapitalli turlariga bo’linadi.

Ba’zi Markaziy banklar Davlat banklari ko’rinishlarida shakllanadilar. Ularga Kanada markaziy banki 1943 yilda shakllanganligi misol bo’lishi mumkin. Ba’zi Markaziy banklar- oldin xususiy bank masalan, Angliya banki (1694), sifatida keyinchalik esa milliylashtirilib davlat bankiga aylantirilgan.

Aktsioner turidagi Markaziy bank qatoriga AKSh FRT (Federal Rezerv tizimi) kiritish mumkin. FRS 1913 yildagi Federal Rezerv asosida paydo bo’lgan aralash turdagi Markaziy banklar jumlasiga kapitalida davlat, aktsioner va xususiy va kapital ishtirok etgan banklar kiradi. Bu guruxlar qatoriga kiruvchi Yaponiya banklar (1882y.) misol kilinib keltirilishi mumkin. Qonun buyicha 1942yilda 55% ustav kapitali davlatga tegishlidir. Deyarli barcha mamlakatlarda Markaziy bank xukukiy me’yorlarini tartibga soluvchi, aniklovchi (belgilovchi) qonunlar mavjuddir. Turli mamlakatlarda Markaziy banklarga turli funktsiyalarni belgilab berilishi mumkin. Lekin Markaziy bank doimo Davlat va bank belgilarini o’zida mujassamlashtirilgan o’zida Davlatning tartibga soluvchi organi bo’lib qoladi.

12ta federal zaxira tumanining xar birida bir nechta tumanlarda filiallarga ega 1tadan FZbanki mavjud. Tumanlarning, federal zaxira banlari va filiallarning joylashishi 1-rasmda ko’rsatilgan. 3ta aktiv bo’yicha eng yirik banklar Nyu-Yorkda, Chikagoda va San-fransiskoda joylashgan bo’lib, birgalikda ular 50%dan yuqori FZTning aktivlariga ega. Nyu-Yorkdagi FZ banki aktivlarning 4/1kismiga egalik kilib, FZTdagi eng yirik bankdir.[113]

[113] “The economy theory of money, banks and financial markets.”F.Mishkin 2006. p.431

12 ta federal zaxira tumanining xar birida bir nechta tumanlarda filiallarga ega 1tadan FZbanki mavjud. Tumanlarning, federal zaxira banklari va filiallarning joylashishi ko'rsatilgan.

Kanada Banki. *Kanada Banki nisbatan kech shakllangan – 1943 yilda. Uch yillik muddatga hukumat tomonidan saylanadigan bank direktorlari, bank raisini etti yillik muddatga tayinlaydilar. Rais hamda uning to'rtta o'rinbosarlaridan iborat bo'lgan Boshqaruv kengashi – FOMC singari, monetar siyosat bo'yicha qarorlarni qabul qiluvchi organ bo'lib hisoblanadi.*

1967 yilda qabul qilingan, bank qonunchiligidagi o'zgarishlarga muvofiq tarzda, hukumat monetar siyosat uchun asosiy ma'suliyatga egadir. Bundan kelib chiqadiki, qonunga binoan Kanada Banki, FRT singari instrumentlarni tanlashda mustaqillikka ega emas. Biroq, tajribada aslida uning o'zi monetar siyosatni nazorat qiladi. Bank va hukumatning o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan holda, moliya vaziri bank bajarishi majbur bo'lgan ko'rsatmani chiqarishi mumkin. Biroq, ko'rsatma yozma ravishda rasmiylashtirilishi va ma'lum bir davrga tegishli bo'lishi kerakligi sababli, uning vujudga kelishining ehtimoli kam. Haqiqatdan ham, bugungi kungacha bitta ham bunday ko'rsatma chiqarilmagan. Monetar siyosatning maqsadi Kanada Banki va hukumat bilan birgalikda belgilanadi. Demak, Kanada Banki, FRTga qaraganda, kamroq darajadagi mustaqillikka ega.

Angliya Banki. *1694 yilda barpo etilgan Angliya Banki – eng qadimiy markaziy banklardan biri bo'lib hisoblanadi. 1946 yildagi Banklar haqidagi Qonunga asosan, Angliya Banki hukumatga bo'ysinadi. Angliya Banki Boshqaruvi (FRT boshqaruvchilari kengashining ekvivalenti) besh yillik muddatga saylanadigan rais va uning ikkita o'rinbosari, hamda uch yilga tayinlanadigan 16ta boshqaruv a'zolaridan iborat bo'ladi.1997 yilga qadar Angliya Banki, ushbu bobda ko'rib chiqilayotgan markaziy banklar orasida eng kam darajadagi mustaqil bank bo'lib hisoblangan, chunki foiz stavkalarini o'zgartirish haqidagi qaror Angliya Banki ichida emas, balki g'aznachilik kansleri bilan birgalikda qabul qilinar edi (AQSH G'aznachiligi kotibi ekvivalenti). Buning hammasi, leyboristlarning yangi hukumati 1997 yilning may oyida hokimiyat tepasiga kelgan paytda o'zgardi. Ushbu paytda, g'aznachilik yangi kansleri Gordon Braun Angliya Banki endi foiz stavkalarini belgilashga vakolatli emasligi haqida kutilmaganda xabar berdi. Biroq, Bank instrumentlarni tanlashda to'liq mustaqillikka ega bo'lmadi: hukumat uning qarorlarini o'zgartira oladi va foiz stavkalarini "favqulloddagi sharoitda" hamda "cheklangan muddatga" belgilay oladi. Bunga qaramay, Kanadada bo'lgani singari, ommaviy xarakterga ega bo'lishi kerak bo'lgan va faqatgina eng qattiq sharoitda hamda cheklangan muddat davomida qo'llanilishi kerak bo'lgan Bank qarorlarini bekor qilish – vujudga kelish ehtimoli kam bo'lgan hodisadir.*

Foiz stavkalarini, rais, uning ikkita o'rinbosari, kansler bilan konsultatsiyadan so'ng tayinlanadigan ikkita a'zo (odatda markaziy bankning mansabdor shaxslari), va kansler tomonidan tayinlanadigan yana to'rtta tashqi iqtisodchi-ekspertlardan tashkil topgan, monetar siyosat bo'yicha Ko'mita belgilaydi. (SHunisi hayratlanarliki, ushbu ko'mitaga birinchi bor kiritilgan to'rtta

tashqi ekspertlardan ikkitasi Buyuk Britaniya fuqarolari bo‘lmagan: bittasi golland millatiga mansub bo‘lsa, ikkinchisi amerikalik bo‘lgan, ammo ikkalasi ham doimiy ravishda Birlashgan Qirollikda yashagan). Angliya Banki uchun inflyasiyaning maqsadli ahamiyatini g‘aznachilik kansleri belgilaydi, bundan kelib chiqib, Angliya Banki, FRTga nisbatan maqsadni tanlashda kamroq darajadagi mustaqillikka ega. [114]

Yaponiya banki.*Yaponiya Banki 1882 yilda tashkil topgan. Monetar siyosatni hukumat tomonidan tayinlanadigan va parlament tomonidan tasdiqlanadigan, rais, uning ikkita o‘rinbosari, hamda oltita tashqi a’zolardan tashkil topgan, Siyosiy Kengash olib boradi; ularning hammasi lavozimlarini besh yil davomida egallaydilar.*

Ohirgi paytgacha, Yaponiya Banki rasman, u erdagi asosiy rol Moliya vaziriga tegishli bo‘lgan, hukumatdan mustaqil holda faoliyat yuritar edi. Biroq, 1998 yilning aprel oyidan amal qilayotgan, Yaponiya Banki haqidagi yangi Qonun 55 yil davomida ilk marotaba uning vakolatlariga o‘zgartirish kiritdi. Avvalom bor, yangi qonunga binoan, monetar siyosatning maqsadi – narx barqarorligini saqlab qolish. Bundan tashqari, qonun Bankga instrumentlarni va maqsadni tanlashda ko‘proq mustaqillikni ta’minladi. Bundan oldin hukumat Siyosiy Kengashda ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan ikkita vakilga ega edi, Moliya vazirligi va Iqtisodiy rejalashtirish bo‘yicha Agentlikdan bittadan. Endi esa hukumat ushbu ikkita idoraning ikkita vakilini kengash majlislariga yuborishi mumkinligi bilan, ular ovoz berish huquqiga ega emas, faqat monetar siyosat bo‘yicha qarorlarning ijrosini keyinga qoldirishni so‘rashlari mumkin. Bundan tashqari, Moliya vazirligi Bankning ko‘plab operatsiyalarini nazorat qilish imkoniyatini yo‘qotdi, hususan, oliy rahbariyatni ishdan bo‘shatishni. Biroq, Moliya vazirligi Yaponiya Banki byudjetining, monetar siyosatga aloqasi bo‘lmagan, bir qismini nazorat qilishda davom etadi, bu holat Bank mustaqilligini bir oz darajada kamaytiradi.

Yevropa markaziy banki. *Maastrixt shartnomasi orqali ta’sis etilgan, Evropa markaziy banki (EMB) va Evropa markaziy banklar tizimi o‘z faoliyatini 1999 yilning yanvar oyida boshladilar. Markaziy bank tuzilmasi AQSH FZT tuzilmasi bilan o‘hshash. Alohida davlatlarning banklari, AQSH federal zahiraviy banklari singari, huddi o‘sha pozitsiyalarni egallaydilar. Evropa markaziy bankining ijroiya organi tarkibiga prezident, vitse-prezident va sakkiz yillik muddatga saylanadigan to‘rtta qolgan a’zolar kiradi.Monetar siyosat bo‘yicha kengash ijroiya kengashining oltita a’zosi va barcha evropa davlatlari markaziy banklarining raislaridan tashkil topgan; ularning hammasi kamida 5 yil ishlagan bo‘lishi kerak.*

Yevropa markaziy banki – dunyodagi eng mustaqil markaziy bank – hattoki Germaniya markaziy banki (Bundesbank) bilan solishtirganda, ko‘proq darajada mustaqil.

---

[114] “The economy theory of money, banks and financial markets.”F.Mishkin 2006. p.432

Yevropa markaziy banki monetar siyosatni to‘liq boshqarib, maqsad va instrumentlarni tanlashda mustaqillikka ega – ham Evropa ittifoqidan, ham boshqa milliy hukumatlardan. Bundan tashqari, EMB narhlarning barqarorligi uchun javob beradi. [115]

Markaziy bankning asosiy maqsadi bo’lib milliy valyuta kursini barqaror holatda saqlash va shu orqali mamlakat hududida baholar barqarorligini ta’minlash hisoblanadi.[116]

Bugungi kunda har qanday davlatning moliya-kredit tizimida eng asosiy va muhim o’rinni rasmiy pul-kredit siyosatini yurgizuvchi - Markaziy bank egallaydi. O’znavbatida pul-kredit siyosati byudjet siyosati bilan birgalikda iqtisodiyotni butun mamlakat miqyosida tartibga solishning asosi bo’lib hisoblanadi.

Banklar paydo bulishining boshlangich davrlarida ular markaziy emissiya yoki tijorat banklari tariqasida yuzaga kelgan emas, ya’ni ular o’rtasida xozirgidek bo’linish bulmagan. Bank ishi ivojlanishining birinchi bosqichlarida rivojlantan mamlakatlarda ijorat banklari kapitallarni yig’ish maksadida muomalaga banknotalar chiqarganlar. Banklarning yiriklashuvi, bank ishining rivojlanishi natijasida banknotalarni muomalaga chikarish yirik tijorat banklar qo’liga o’ta borgan va keyinchalik biror yirik bank ixtiyoriga berilgan. Bu bank milliy yoki emission bank keyinchalik Markaziy bank deb atalgan. Markaziy bank ya’ni kredit tizimini boshqarib turuvchi, barcha banklar faoliyatini nazorat qilib turuvchi kredit instituta sifatida namoyon bo’ladi.

Jaxon amaliyotida Markaziy banklar vujudga kelishining ikki asosiy yo’li mavjud.

Birinchi yo’l - bu uzoq davr davomida tijorat banklarining rivojlanishi natijasida, ularni milliylashtirish yo’li bilan Markaziy banklarning tatkil tsilinishi. Bunga misol kilib Angliya bankini 1844yil, Frantsiya bankini 1848 yil, Ispaniya banki 1874 yil, Germaniya Reyxsbanki - 1875 yil, Italiyada 1893 yilda, Ispaniyada 1874 yilda mavjud banklarning emission markaz sifatida faoliyat ko’rsatishga moslashganligini keltirish mumkin.

Ikkinchi yo’l - tashkil qilingadayok Markaziy bank -emission markaz sifatida qabul qilingan banklar. Bunday banklarga AKShning Federal banklari, 1913 yillarda kupgina Lotin Amerika mamlakatlarda tashkil kilingan banklar, Avstriya banki va boshqalarni misol keltirish mumkin.

AQShda Markaziy bank funktsiyasini 12 federal rezerv bankdan iborat Federal Rezerv tizimi bajaradi. Federal rezerv banklar aktsioner banklar bo’lib, bu banklarning aktsionerlari sifatida milliy tijorat banklari faoliyat ko’rsatadi. Tijorat banklar aktsioner sifatida dividend olishadi. Dividend miqdori 6% dan oshmasligi kerak.

Federal rezerv Konuni va boshka konuniy xujjatldarni urgangan paytda biz FZTning rasmiy tuzilishi va monetar siyosatga tegishli karorlarni kim kabul

---

[115] “The economy theory of money, banks and financial markets.”F.Mishkin 2006. p.433

[116] Узбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисидаги Конун. Тошкент, 1995 йил, 21 декабрь.

kilishini kuramiz. Ammo konunchilikdagi belgilangan faoliyat karorlarni kabul kilinish tartibi va xukmronlikni xakikiy bulinmasini tulik kursatmaydi.

FZT yaratuvchilari 1913 yilda bu tizim 12ta aloxida uzaro alokador markaziy bnklarni birlashtiruvchi butunlay nomarkazlashgan tizim bulishi kerarkligi xakida fikr berishgan. Boshlangich rejada FZT foiz stavkalarini boshkarib, pul massasini nazoratini olib borishda iktisodiyotni axvoliga umuman ma'sul emasligi belgilangandi. Keyinchalik FZT iktisodni barkarorlashishiga javob bera boshladi vash u bilan uzini yagona markaziy bank bulib aylanishiga yordam berdi.

1913 yilda federal zaxira Konuni mualiflari FZT monetar siyosatni boshqarishda faqat bitta instrument ya'ni FZTga kiruvchi banklarning diskont ssudalarini boshqarish orqali ishlatadi. Ochiq bozordagi operatsiyalarni ishlatilishi oxirgacha tushunasiz edi, chunki zaxira talablari Federal zaxira Konuni bilan mustaxkamlanardi. Diskont ssudalar federal zaxira banklari va Federal zaxira Kengashi karori bilan birgalikda berilardi, shuningdek ikkalasi xam monetar siyosatni belgilashi mumkin. Ammo, kengashning diskont stavkani «tekshirib tasdiklash» karori, shu siyosatni belgilashda viloyat banklari ustidan xukmronlik kilishga xukuk berardi. [117]

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. *O'zbekiston banklari milliy iqtisodiyotga ta'sir etuvchi qudratli tuzilmaga aylanish uchun rivojlanishning uzoq evolyusion, ya'ni tadrijiy yo'lini bosib o'tishiga, anchagina mashaqqatlarni bartaraf etishiga to'g'ri keldi.*

1991 yilda qator banklar shakllana boshladi. Ular O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining o'zgaruvchan sharoitlarida faoliyat yuritib, zamonaviy ish uslublarini o'zlashtirgan holda tobora yangi qirralarga ega bo'la bordi. 1991-1992 yillar banklar faoliyatiga doir qarashlarda chinakam burilish yillari bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi ikki darajali bank tizimining tarkib topishi va mamlakat Markaziy banki zimmasiga yangi vazifalar yuklanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Uning oldiga pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimi hamda to'lov tizimini shakllantirish vazifalari qo'yildi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish endi tashkil etiladigan, zamonaviy tamoyil va talablar asosida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishi lozim edi.

1993–1994 yillarda bank tizimidagi islohotlar davom etdi. 1994 yilning 1 iyulidan e'tiboran milliy valyuta — so'mning muomalaga kiritilgani mustaqil bank tizimining, umuman, O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu Markaziy bank o'z faoliyatida to'liq mustaqil bo'lganini, kelgusida bozor instrumentlari orqali milliy pul tizimini tartibga solish samarali tashkil etilishiga yordam berishi mumkin ekanini anglatar edi. Aynan shu vaqtdan boshlab

---

[117] "The economy theory of money, banks and financial markets."F.Mishkin 2006. p.433

Markaziy bankning pul-kredit siyosatini yuritish, valyutaga oid ishlarni tartibga solish, bank faoliyatini boshqarish va keyinchalik samarali to‘lov tizimini yaratish bo‘yicha faoliyati to‘laqonli ravishda milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashga qaratildi.

1995 yil bank qonunchiligini takomillashtirish davri bo‘lgani bilan ajralib turadi. Tarixiy muhim hujjat — “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun nafaqat bank tizimining huquqiy asosini boyitdi, balki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi, alohida maqomi va vakolatlarini, asosiy maqsad-vazifalarini aniq-ravshan belgilab berdi. SHu bilan bir qatorda mazkur yilda aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, kredit va depozit bozorlarida raqobat muhitini shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Banklarning kapital hajmiga jalb etiladigan aholi jamg‘armalari miqdorini cheklovchi qoida bekor qilingach, bank muassasalarining imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi va raqobat kuchaydi. Buning samarasi darhol namoyon bo‘ldi. Agar 1994 yil boshida aholi jamg‘armalarining 98,5 foizi Jamg‘arma banki (hozirgi Xalq banki), 1,5 foizi esa boshqa banklar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, o‘sha yil oxirida boshqa tijorat banklarining hissasi ham ko‘payib, bu boradagi ko‘rsatkich 12,8 foizga etdi. Bugungi kunga kelib, bu boradagi ko‘rsatkich 83,2 foizni tashkil etmoqda.

1996 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi — tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini konkretlashtirdi.

Bank tizimiga taalluqli ikki asosiy hujjat — “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi hamda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarining ishlab chiqilishida rivojlangan moliya tizimiga ega mamlakatlar tajribasi inobatga olinganini alohida ta’kidlash joiz. Mazkur qonunlar, shuningdek, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun nodavlat banklarning xususiy va aksiyadorlik-tijorat shaklida tashkil etilishiga qulay huquqiy sharoit yaratdi. Bu davrda bank tizimi rivojiga alohida ta’sir etgan ikki omilni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchisi, olib borilgan islohotlar natijasida 1996 yilda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar boshqaruv va bank nazoratining to‘la huquqli organi bo‘ldi. Ikkinchisi, O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi – tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini aniq-puxta belgilab berdi. Unda bank aktivlarini diversifikatsiyalash va xorijiy kapital jalb qilish asosida universal tijorat banklarini shakllantirish prinsiplari mustahkamlangan.

Bu davrda iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga xizmat ko‘rsatuvchi kredit-moliya tashkilotlari tashkil etildi. Bunday ixtisoslashuv qishloq xo‘jaligi, avtomobil sanoati, aviasozlik kabi xalq xo‘jaligining muayyan soha va tarmoqlarini moliyalashtirish zarurati bilan bog‘liq edi. Kelgusida ixtisoslashgan banklar o‘z operatsiyalari va mijozlari doirasini mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining yangi darajasi va biznes-muhit talablariga ko‘ra kengaytira boradi.

Mazkur davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank sektorini boshqaruvchi va nazorat qiluvchi organ sifatida shakllanish jarayonlari davom

etdi. Bank tizimiga taalluqli qonunchilik bazasi sifat jihatidan yangilanib, xalqaro bank amaliyoti bilan muvofiqlashtirildi.[118]

Markaziy banklar ijrochi tashkilotlar ta'sirisiz, o'z faoliyatini olib borishlari kerak.

Jahonda o'z faoliyatini olib borishda eng mustakil bo'lgan banklardan biri bu Nemis Federal banki - Bundes bank zxisoblanadi. Ba'zi bir davlatlarda Markaziy bank parlamentga xisobot beradi- Ko'pgina hollarda Markaziy banklar o'z faoliyatida mustaqil bo'lsada, shu bilan birga davlat banki xisoblanadi.

11.2. Markaziy bank faoliyatining maqsadi va vazifalari. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi.

M arkaziy bank quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:

-banknotalar (naqd pullar) emissiyasi,

-davlatning oltin - valyuta zaxiralarini saklash,

-pul-kredit siyosati instrumentlari yordamida iqtisodni muvofiqlashtirish,

-kredit institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish,

-davlat banki sifatida faoliyat ko'rsatish,

-to'lov-xisob munosabatlarini tashkil qilishni belgilab berish,

-valyuta kursini muvofiqlashtirish.

Jahonning barcha mamlakatlarida banknotalarni muomalaga chiqarish funktsiyasi Markaziy banklarning asosiy funktsiyalaridan biri xisoblanadi va u bu soxada monopol xuquqga ega. Kredit pullar Markaziy bank tomonidan qonunda belgilangan ravishda chiqariladi va Markaziy bank muomalaga chiqarilgan pullarning qaytib bankga kelib tushishi choralarini ishlab chiqishlari zarur.

Davlatning oltin - valyuta rezervlarini boshqarish funktsiyasi. Markaziy Bank davlatning oltin, kimmatbaxr metal va kamyob toshlarni valyuta zaxiralarini boshqaradi. Davlatning rasmiy oltin-valyuta zaxiralari xalkaro xisob-kitoblarda aktivlar rezervi, xisob-kitoblar bo'yicha davlatning kafolatli sug'urta fondi sifatida namoyon bo'ladi. Odatda mamlakat oltin zaxiralarining asosiy qismi Markaziy bank ixtiyoriga berilgan bo'ladi. Ba'zi davlatlarda oltin zaxiralar moliya ministrligi ixtiyorida bo'lib, markaziy bank oltin bilan operatsiyalarni olib boradi.

Markaziy banklar mamlakat valyuta rezervlarini o'zida yig'adi va burezervlar xaltaro xisob-kitoblarni amalga oshirish, to'lov balansi defitsitini qoplash va mamlakat milliy valyutasi kursining barqarorligini ta'minlash uchun ishlatiladi.

Markaziy bank orqali davlatning iqtisodiy siyosati, yanada aniqrog'i davlatning pul-kredit siyosati olib boriladi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati davlatning shugisodni boshkarish siyosatining bir qismi bo'lib, muomaladagi pul massasi, kredit xajmi, foiz stavkalari darajasini va boshqa pul muomalasi va ssuda kapitali bozori ko'rsatkichlarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar yig'indisidan tashkil topadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi milliy valyuta barkarorligini ta'minlash, valyuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o'rnatish asosida inflyatsiya

[118] cbu.uz/uzc/o-banke/istoriya-bankovskoy-sistemy/

sur'atlarini kamaytirish, kreditdan foydalanishning samaradoryaigini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat.

Pul-kredit siyosati ikki yo'nalishda olib borilishi mumkin. Birinchi yo'nalish - kredit ekspantsiyasi bo'lib, bu siyosat pul-kredit emissiyasini rag'batlantirish yo'li bilan olib boriladi, ya'ni ishlab chikarish sur'atlari tushib ketgan holda, kon'yunkturada rivojlanishga erishish mumkin. Ikkinchi yo'nalish - kredit restriktsiya siyosati bo'lib, u iqtisodiy o'sish davrida pul-kredit emissiyasining qisqarishiga asoslanadi.

Markaziy bank "tor" va "keng" ma'noda pul -kredat siyosatini olib borishi mumkin. "Tor" siyosatda valyuta bozorida investitsiya, xisob stavkasi va qisqa muddatli kreditlar buyicha foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi boshqa instrumentlar yordamida valyuta kursini maqbulliliga erishish tushuniladi. "Keng" siyosatda muomaladagi pul massasiga ta'sir qilish orqali inflyatsiyaga qarshi ko'rash olib borish tushiniladi. Pul-kredit siyosatining xalqaro jixatlari valyuta kursi, valyuta rezervlari va to'lov balansi kabi masalalarning echimiga karatilgan bo'ladi. Markaziy bank ruxsat etilgan instrumentlar yordamida pul muomalasini boshqarib boradi. Markaziy bankning pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari bo'lib quyidagilar xisoblanadi:

-minimal majburiy rezerv normalarini o'rnatish,

-foiz (diskont) siyosati ,

-tijorat banklarini qayta moliyalashtirish,

-ochiq bozor siyosati,

-targetlash va boshqalar.

AQSH Federal Zaxira Tizimining bankining tahkiliy tuzilishini ko'rib chiqilsa Federal zaxira Qonunining mualiflari, FZTning formal tuzilishi vakolatlarning taqsimlanishi regionlararo, xususiy sektor va davlat, shuningdek bankirlararo, biznesmenlar va axoli urtasida bo'lishiga xarakat qilishgan. Bu birlamchi taksimlanish FZTning tuzilishiga olib keldi, bugunda uz ichiga federal rezerv banklarini, FZT boshkaruv kengashi, ochik bozordagi operatsiyalar federal komiteti (FOMC), federal konsultativ kengash va 4800ga yakin banklarni-FZT ishtirokchilarini oladi.

Federal Zaxira Banklari.[119]

12ta federal zaxira tumanining xar birida bir nechta tumanlarda filiallarga ega 1tadan FZbanki mavjud. Tumanlarning, federal zaxira banlari va filiallarning joylashishi 1-rasmda kursatilgan. 3ta aktivы buyicha eng yirik banklar Nyu-Yorkda, Chikagoda va San-fransiskoda joylashgan bulib, birgalikda ular 50%dan yukori FZTning aktivlariga ega. Nyu-Yorkdagi FZBanki aktivlarning 4/1kismiga egalik kilib, FZTdagi eng yirik bankdir.

FZTning Nyu-York Federal Zaxira Banki.[120]

---

[119] "The economy theory of money, banks and financial markets."F.Mishkin 2006. p.420-421

[120] "The economy theory of money, banks and financial markets."F.Mishkin 2006. p.420-421

Nyu-York Federal Zaxira Banki bir nechta sabablarga ko'ra asosiy axamiyatga ega. Birinchidan butun amerika moliya tizimining xolatini xavfsizlik va farovonligini belgilovchi AQSHning kupchilik yirik xususiy banklar bu tumanda joylashgan. Nyu-York Federal Zaxira Banki barcha bank xolding kompaniyalari va uz tumanidagi shtat ma'muriyati bilan litsenziyalangan banklarni, shuningdek AKSHning yirik moliya tizimi muassasalarini faoliyatini nazorat kiladi. Xayratlanarli emas, bank nazorat guruxi- Nyu-York Federal Zaxira Bankida va FZT eng yirik bulinmasi xisoblanadi.

Nyu-York bankining asosiy o'rin egalashining ikkinchi sababi - bu uning obligatsiyalar va valyuta bozorlaridagi aktiv faoliyati. Nyu-York Federal Zaxira Banki tarkibiga, ochiq bozordagi operatsiyalarni (obligatsiyalarni sotish va sotib olish) olib borish uchun javobgar savdo bo'limi kiradi. Bu operatsiyalarni miqyosini bank tizimining zaxiralarining miqdori belgilab beradi. Xazina qimmatli qogozlari bozoridagi aktiv faoliyatiga binoan va Nyu-York va Amerika fond bozorlariga teritorial yaqinligi bo'lgan, Nyu-York Federal Zaxira Banki boshliqlari, doimiy ravishda AQSHning asosiy moliya bozorlari bilan aloqadorlikni olib borishadi. Bundan tashqari bank valyuta bozoridagi operatsiyalar bo'yicha bo'linmalarini, valyuta intervensiyalarini FZT va AQSH g'aznachiligi nomidan olib borilishini o'z ichiga oladi. Bu moliya bozorlaridagi faoliyat Nyu-York Federal Zaxira Bankini mamlakatdagi va chet eldagi moliya bozorlaridagi tadbirlari xaqida, ayniqsa inqiroz vaqtida va FZTning boshqaruvchilari va boshqa bozor ishtirokchilarini aloqalari xaqida ma'lumot bilan ta'minlab turadi.

Nyu-York Federal Zaxira Bankining 3 asosiy o'rin egalashining sababi, bu- xalqaro xisoblar Bankining (Bank for InternationalSettlements, BIS) ishtirokchisi bo'lib xisoblanuvchi yagona FZbankidir. Shuning uchun FZB prezidenti, boshqarma kengashi ishtirokchilari bilan bir qatorda chet davlatlari asosiy banklari bilan birgalikda xar oylik majlislarda FZTni taqdim etadi. Chet davlatlari markaziy banklarining boshqaruvilari bilan yaqin aloqasi va valyuta bozorlaridagi faoliyati, Nyu-York Federal Zaxira Banki xalqaro aloqalarda markaziy banklararo va boshqa ishtirokchilari o'rtasida asosiy o'rin egalashini ko'rsatadi. Undan tashqari Nyu-York Federal Zaxira Bankida 100mlrd.dollariga yaqin oltin zaxira mavjud – Fort Knoxdan ko'prok.

Nixoyat, Nyu-York Federal Zaxira Bankining presidenti - federal rezerv prezidentlari o'rtasida yagona FOMC ning doimiy ishtirokchisi va shu kengashning vitse-prezidenti bo'lib xisoblanadi. Shu sababli Nyu-York Federal Zaxira Bankining prezidenti, boshqarma kegashining prezidenti va vitse prezidenti – bu FZTdagi 3ta muxim shaxslar bo'lib xisoblanadi.



FIGURE 1 Federal Reserve System
The locations of the Federal Reserve districts, the Federal Reserve banks, and their branches.
Source: Federal Reserve *Bulletin*.

1. rasm. Federal zaxira tizimi.[121]

FRS okrugi
- FRS boshqaruv Kengashi
- FRS Banklari
- FRS bank filiallari
- FRS Okrugi chegaralari
(Alaska va Gavai 12 okrud ichiga kiradi)

Barcha federal zaxira banklari- bu xususiy kvazi (ma'lum kismi davlatga tegishli) muassasalari. Uning egalari – viloyat xususiy tijorat banklari FZTmi ishtirokchilari. Bu banklar FZBning uzining viloyatidagi aksiyalariga ega va shu aksiyalar buyicha dividentla yillik 6%dan oshmasligi kerak. Xar bir viloyatda ishtirokchi-banklar 6ta viloyat federal banki direktorini saylashadi; yana 3tasini FZT boshkarma kengashi tayinlaydi. Bu 9ta direktor bank prezidentini saylab so'ngra uni boshqarma Kengashi tasdiqlaydi.

Viloyatlararo direktorlari 3ta kategoriyaga bo'linadi. A kategoriyaning 3ta direktori (bank ishtirokchilari tomonidan tayinlagan) – bu professional bankirlar, yana 3ta B kategoriya direktorlari, - yirik sanoat kompaniyalari, qishlok xo'jaligi yoki xizmat bo'limi boshqaruvchilari. Boshqaruv kengash bilan tasdiklangan 3ta S kategoriya direktori, jamiyat manfaatlarini taqdim etib, boshqaruvchi, xizmatchi yoki bank aksioneri bo'lla olmaydilar. Federal Zaxira Konuni mualliflari direktor tanloviga shunday yondashilganki xar bir federal zaxira banki direktorini amerikaning barcha viloyat bo'linmalari taqdim qilishi shart.

11.3. Markaziy bankning funktsiyalari: emission funktsiya; "banklarning banki" funktsiyasi.

E mission funksiyasi. Markaziy bank banknotalarni muomalaga chiqarish bo'yicha monopol mavqeiga ega. Bu «banknota yakka hokimligi», deb ham ataladi. Banknotalar mamlakat hududidagi hisob-kitoblarda cheklanmagan miqdorda qabul qilinuvchi yagona to'lov vositasidir. Markaziy bankning naqd

[121] "The economy theory of money, banks and financial markets."F.Mishkin 2006. p.420-421

pullarni berish jarayonidagi monopol mavqei, uning barcha pul massasining hajmini, shu jumladan, tijorat banklarining hisob-raqamlaridagi pul mablag'larini ham nazorat qilishiga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xaqidagi qonunning 34-38- chi moddalarida Markaziy bank mamlakatda muomalaga pul chiqarish huquqiga ega bo'lgan monopol bank ekanligi qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, u muomaladagi pul massasining barqaror ravishda aylanishiga javobgardir.

Markaziy bank uchun banknotalarning xarid qobiliyatini barqaror darajada saqlab turish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, eng avvalo, muomaladagi banknotalar miqdorining o'zgarishiga bog'liq. Bu holatni hisobga olgan bir qator markaziy banklar, xususan, Germaniya Markaziy banki rahbariyati muomaladagi naqd pul massasini tartibga solishni, kreditlash hajmini nazorat qilish bilan bir qatorda, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashning muhim sharti, deb hisoblaydi.

«Banklarning banki» funktsiyasi. Markaziy bankning «banklarning banki» sifatidagi funktsiyasi, bizning fikrimizcha, asosan, quyidagi to'rt yo'nalishda namoyon bo'ladi:

Barcha tijorat banklari o'z mablag'larining ma'lum qismini Markaziy bankdagi foizsiz hisob-raqamlarida minimal rezervlar sifatida saqlashga majburdirlar.

Xususan, Germaniya Federativ respublikasida 1984 yildan boshlab, asosan, barcha tijorat banklari bilan bir qatorda uzoq muddatli qo'yilmalar bilan shug'ullanuvchi kredit institutlari va qurilish jamg'arma kassalari ham minimal rezervlarini Markaziy bankda saqlashga majbur bo'ldilar.[122]

Bank mijozlari o'zjamg'armalarining yoki kreditlarining ma'lum qismini Markaziy bank biletlarida, ya'ni naqd pullarda oladilar. Mijozlarning bu talabini tijorat banklari Markaziy bankdagi muddatsiz jamg'armalarining istalgan paytda naqd pulga almashtiriladigan qismi hisobidan qondiradilar. Markaziy bank ana shunday yo'l bilan butun bank tizimining to'lovga qobilligiga ta'sir qiladi. Ammo, bundan har bir tijorat banki o'zining naqd pullarga bo'lgan talabini faqatgina ikki muhim vazifani hal qilish imkoniyatiga ega bo'lib turibdi. Birinchidan, minimal emission bank mablag'lari hisobidangina qondira oladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ayrim banklarda banknotalarning ortiqcha zaxirasi mavjud bo'ladi va ular boshqa banklarga bu pullarni kreditga berishi mumkin. Pul bozori rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon texnik jihatdan juda silliq ko'chadi. Shunisi xarakterliki, tijorat banklaridagi ortiqcha naqd pullar miqdori emission bank yaratgan pullar miqdoriga tengdir. Demak, tijorat banklarining banknotalarni kreditga berish imkoniyati cheklangan. Bu esa, ularning banknota emissiyasi sohasida Markaziy bankka bog'liqligini saqlab qoladi.

Shunday qilib, Markaziy bank rezervlar tizimi orqali bank tizimining to'lovga qobilligini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchidan, pul bozoridagi naqd pullarga bo'lgan talabni boshqarish orqali tijorat banklarining pul va kredit ekspansiyasini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'layapti.

---

[122] Немецкий Федеральнқй банк. Специальное издания Немецкого Федерального банка, №7, 1993 г., стр. 64.

1. Markaziy bank barcha tijorat banklari va boshqa kredit institutlari uchun «so'nggi kreditor»dir.

Tijorat banklari vaqtinchalik likvidli kredit oladilar. Bu kreditlar, albatta, tijorat veksellari bilan, davlatning qimmatbaho qog'ozlari bilan yoki bankning boshqa qarz majburiyatlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalashtirish bo'yicha amalga oshiradigan doimiy operatsiyalari tufayli pul bozorining mq'tadil faoliyati ta'minlanadi. Bu esa, o'znavbatida, tijorat banklariga mijozlarga qulay bo'lgan foiz stavkalarida kreditlar berish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Ayni vaqtda, Markaziy bank, tijorat banklariga bergan kreditlari uchun belgilaydigan foiz stavkalarini qzgartirish yo'li bilan kredit resurslariga bo'lgan talabni tartibga solish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Markaziy bankning ushbu funktsiyasi doirasidagi uchinchi yo'nalish, asosan, ikki holatda namoyon bo'ladi. Markaziy bank mamlakat hududida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar shakllarini, ularni qo'llash tartibini va muddatini belgilab beradi. Xususan, Nemis Federal banki to'g'risidagi qonunda Bundesbankning «hisob-kitoblar tizimining banklar tomonidan mamlakatda va xorij bilan bo'lgan aloqalarda ijro etilishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi» belgilab qo'yilgan.

Haddan ziyod katta miqdordagi zaxiralarni tijorat banklari tomonidan saqlab turilishi xazina va tijorat veksellari kabi pul bozori vositalariga bo'lgan talabni qisqarishiga olib keladi. Shu bilan birga, tqlovning kechikishi yuqori inflyatsiya sharoitida kelib tushadigan pul mablag'lari real qiymatining pasayishiga, davlat va korxonalar tomonidan kreditga bo'lgan talabning kuchayishiga olib keladi. Bunday sharoitda restriktsiyaviy pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi, shubhasiz, mablag'lar etishmovchiligi natijasida ijro etilmagan to'lov topshiriqnomalarining to'planib qolishiga va korxonalarning o'zaro qarzdorlik summalarining sezilarli darajada o'sishiga olib keladi.

3. Mamlakat bank tizimining mo''tadil faoliyat ko'rsatishida Markaziy bankning qanday usullar yordamida va qay darajada tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunga kelib banklar faoliyatini nazorat qilish rivojlangan xorijiy davlatlarda markaziy banklarning muhim faoliyatiga aylandi. Faqat Buyuk Britaniya Markaziy bankigina nisbatan kech, ya'ni 1979 yilda rasman, qonuniy asosda banklar faoliyatini nazorat qilish huquqiga ega bo'ldi.

Bundesbankning bu sohadagi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u bevosita banklar faoliyatini nazorat qilish bilan shug'ullanmaydi. Balki nazoratni Federal nazorat mahkamasi amalga oshiradi. Ammo Bundesbank nazorat mahkamasiga yaqindan ko'maklashadi. Xususan, ushbu mahkamaning joylarda bo'linmalari mavjud emas va u to'liq Federal bankning joylardagi muassasalaridan foydalanadi. Bundan tashqari, qarorlar qabul qilishda nazorat mahkamasi bir qator masalalar bo'yicha Markaziy bankning roziligini olishi

kerak. Masalan, banklarning o'zkapitali va to'lovga layoqatliligi xususida qaror qabul qilinishi uchun albatta, Bundesbankning roziligi bo'lishi shart.[123]

Markaziy bankning banklar faoliyatini nazorat qilishining eng asosiy sababi mamlakatda bank tizimiga bo'lgan yuksak ishonchni ta'minlash. Bu ishonch tijorat banklarining o'zmijozlari - huquqiy va jismoniy shaxslar oldidagi majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajara olishi orqali ta'minlanadi.

11.4. Markaziy bankning "davlatning banki" funktsiyasi; rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funktsiyasi.

Markaziy bank, davlat banki sifatida, Davlat byudjetining kassali bajarilishini amalga oshiradi, davlat organlarining naqd pulsiz operatsiyalarini ma'lum qismini amalga oshiradi, xukumatning tashqi qarzlarini to'lashga xizmat qiladi, byudjet defitsitining ma'lum qismini qoplashga va boshqa davlat muassasalarining xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlariga qisqa muddatli kreditlar beradi. Hamda xukumatga pul-kredit va valyuta masalalari bo'yicha maslahatlar beradi.

Masalan, Bundesbank davlat banki sifatida Federatsiyaga, ma'muriy-hududiy bo'linmalarga hamda Federatsiyaning parabyudjet fondlariga kreditlar berish huquqiga ega. Bu kreditlar hajmi cheklangan bo'lib, qisqa muddatli xarakterga egadir.

Davlat banki sifatida Bundesbank, xukumat nomidan uning obligatsiyalarini, moliyaviy veksellarini sotadi va ularni sotish uchun e'lon qiladi. U federal zayomlar kursini barqaror darajada saqlanishi uchun javobgar hisoblanadi.

Markaziy bank davlatning asosiy bankiri va xukumatning moliyaviy maslahatchisi bo'lib hisoblanadi. Bu borada:

- *xukumat miqyosidagi tashkilotlarning hisob raqamlarini yuritadi;*
- *davlat zayomlarini chiqarish, saqlash va ular bilan tegishli operatsiyalarni amalga oshiradi;*
- *xukumatga kredit beradi;*
- *davlatning oltin-valyuta va qimmatbaho toshlardan iborat rezervini o'zida saqlaydi va boshqaradi;*
- *mamlakat miqyosida valyuta kursini o'rnatadi, foiz siyosatini yurgizadi va davlatning boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlariga javob beradi. Ular bilan korrespondentlik munosabatlarini o'rnatadi va olib boradi.*[124]

Markaziy bankning davlat banki sifatidagi funktsiyasining muhim kqrinishlaridan biri xukumatning tashqi qarzlarini to'lash jarayonida namoyon bo'ladi.

Oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funktsiyasi. Rivojlangan davlatlarda xukumatning odatda, chet el valyutalarida hisob-raqamlari bo'lmaydi. Mamlakatning oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish Markaziy bank zimmasida bo'lib, ularning summasi Markaziy bank balansida aks etadi. Xukumatning esa,

---

[123] www.bundesbank.de/Navigation/EN/Bundesbank
[124] http://www.bundesbank.de/Navigation/EN/Home

chet el valyutalarida tashqi qarzlari mavjud bo'ladi. qarzni tqlash muddati kelishi bilan xukumat Markaziy bankka tqlov topshiriqnomasi yozadi. Bank qzining valyuta zaxiralari hisobidan xukumatning tashqi qarzini to'laydi va to'langan summaning milliy valyutadagi ekvivalentini xukumatning hisob raqamlaridan chegirib oladi.

Rivojlangan industrial davlatlarda Markaziy bank bajaradigan an'anaviy funktsiyalardan biri - valyuta zaxiralarini boshqarishda Markaziy bankning monopol mavqeiga ega ekanligidir. Xususan, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh kabi davlatlarning markaziy banklari mamlakat valyuta zaxiralarini boshqarishda ana shunday huquqqa egadirlar.

Markaziy banklarning maslahatlar berish va ma'lumotlar bilan ta'minlash funktsiyasini uning davlat banki sifatidagi funktsiyasiga kiritish mumkin.

Markaziy bankning ma'lumotlar talab qilish huquqi to'g'risida tijorat banklari uchun hisobotlar shaklini va topshirish muddatini belgilab berishligini Markaziy bankning ma'lumot - tadqiqot funktsiyasining bir ko'rinishi sifatida ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy bankning funktsiyalari qo'yilgan maqsadlarga erishishni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shu sababli asosiy maqsadga erishish yqlida belgilangan u yoki bu vazifani hal etish Markaziy bank funktsiyalarining ayrimlarini boshqalariga nisbatan faolroq jalb qilinishini talab etadi.

Yuqorida qayd etib qtilgan Markaziy bankning asosiy an'anaviy funktsiyalari xalqaro bank tizimida an'anaviy ko'rinish sifatida keng tarqalgan, ya'ni har bir rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar Markaziy banklarining funktsiyalari bir-biriga o'xshab ketadi.

Xorij tajribasida ko'riladigan bo'lsa AQSH Federal Zaxira Tizimining funksiylarini ko'rib o'tamiz.:

FZB 12tasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. *Cheklarning kliringi;*
2. *Yangi nakd pul emissiyasi;*
3. *Eskirgan pullarni muomaladan chikarish;*
4. *Uz viloyati banklariga diskont ssudalarni berilishi va ularni boshkarmasi;*
5. *Banklarning uyushmasi va ularning faoliyatini kengaytirish borasidagi takliflar baxosi;*
6. *Biznes vakolatchilari va FZT urtasidagi vositachilik;*
7. *Bank xolding kompaniyalari va ma'muriyat vakolati bilan shtat bank-ishtirokchilarining nazorati*
8. *Biznes olib borilishi ma'lumoti xakidagi shartlarni yigilishi;*
9. *Monetar siyosatni olib borish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chikilishi uchun professional iqtisodchilarni ishlatilishi;*[125]

12ta FZBlari monetar tizimni bir nechta yo'llar bilan olib borishadi.

[125] "The economy theory of money, banks and financial markets."F.Mishkin 2006. p.421-422

10. Boshqarma kengashi xar bir viloyatni teshirib nazorat kilishidan tashkari yakin atrofidagi bank direktorlari diskont stavkasini belgilaydilar,

11. Direktorlar kaysi banklar (FZT ishtirokchisi bulishi shart emas) viloyat FZBdan diskont stavkasini olishi mumkunligini xal qiladi.

12. Federal konsultativ kengash ishida ishtirok etish uchun direktorlar xar bir viloyatdan 1tadan tijorat banki vakilini tanlashi va shu vakil boshqarma Kegashiniga maslaxat va ma'lumot beradigan, monetar siyosatni olib borishga yordam beruvchi vakil.

13. 12 viloyat banki prezidentidan 5tasi FOMCda ovoz berish xukukiga ega, va ular davlat qimmatli qogozlarini savdo-sotigi boshqaruvini foiz stavkalarini oshishiga va bank tizimi zaxira xajmini o'sishiga ta'sir qiladi. Nyu-York FZB prezidenti FOMCda doimiy ovozga ega. Bu barcha banklar orasida eng e'tiborliligini ko'rsatadi. Kolgan 4ta ovoz 11ta prezident viloyat banklari orasida ketma ketlikda taqsimlab chiqiladi.[126]

12-mavzu: Markaziy bankning mustaqilligi

REJA:

12.1. Markaziy bank mustaqilligi tushunchasi.

12.2. Rivojlangan davlatlar markaziy banklari.

12.3. Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi va uni belgilovchi me'zonlar.

12.4. Xorijiy davlatlarda markaziy bankning mustaqilligini belgilovchi xususiyatlar.

12.1. Markaziy bank mustaqilligi tushunchasi.

Iqtisodiy adabiyotda Markaziy bankning mustaqilligi tushunchasi turli iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Massachusets texnologiya universiteti professori Stenli Fisherning fikriga ko'ra, Markaziy bank mustaqilligining 2 turi mavjud:

- instrumentlarni tanlashdagi mustaqillik
- maqsadlarni tanlashdagi mustaqillik

1991-yilda V. Grilli fanga Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi tushunchasini kiritdi. Uning fikriga ko'ra, Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi – bu Markaziy bank rahbariyatini tayinlash jarayonini hukumatdan mustaqilligidir. Ammo hozirgi davrda Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi nafaqat Markaziy bank rahbariyatini tayinlash jarayonidagi mustaqillikni, balki pul-kredit siyosatini amalga oshirishdagi mustaqillikni ham o'z ichiga oladi.

Ko'pchilik iqtisodchi olimlar – (Maskiandaro, Tabellini, Sukerman, Eyffinger, Shennaev va boshq.) tomonidan Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligini mavjudligi e'tirof etilgan. Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi

---

[126] "The economy theory of money, banks and financial markets."F.Mishkin 2006. p.423-424

– bu Markaziy bankning o'z ixtiyoridagi mablag'lar va instrumentlardan foydalanishda hukumatdan va davlat boshqaruv organlaridan mustaqilligidir.

Markaziy bankning mustaqilligini belgilovchi indekslar:

- Sukerman indeksi;
- GMT (Grilli, Maskiandaro va Tabellinilar tomonidan asos solingan) indeksi;
- Eyffinger–Shaling indeksi;

Sukerman indeksi mustaqillikni tavsiflovchi 4 ta guruhga bo'lingan 16 ta ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtiradi. Kadrlar siyosatini mustaqilligi pul-kredit siyosatini ishlab chiqish Uning maqsadlari va davlat byudjetini moliyalashtirishni chegaralash. Har bir 16 ta ko'rsatkich 0 dan 1 gacha belgilanishi mumkin. GMT indeksi 2 qismdan iborat bo'lib, MBning siyosiy va iqtisodiy mustaqilliligini belgilaydi. Har bir qism o'zida indekslarni aks ettirib faqat 2 ta ko'rsatkich bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda GMT indeksi MBning mustaqililigini baholash uchun ko'plab ishlatilayotgan indeksdir, chunki uni hisoblash uchun etarli ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi

GMT indeksi doirasida MB siyosiy mustaqilligini baholashning asosiy me’zonlari quyidagilar:

- MB raisini tayinlashda hukumat aralashuvi;
- MB raisi 5 yildan ortiqroq muddatga tayinlanishi;
- MB direktorlar kengashi hukumat aralashuvisiz tayinlanishi;
- MB direktorlar kengashi 5 yildan ortiqroq muddatda boshqarishi;
- MBning direktorlar kengashida xukumat vakillarini ishtirokiga zaruratning yo'qligi;
- Pul-kredit siyosatiga oil qarorlarni hukumat tomonidan tasdiqlanishi lozim emasligi;
- MB qonunchilikka asosan asosiy maqsadlardan biri sifatida narxlar darajasini barqarorlashtirishga harakat qilishi shart;
- MB bilan hukumat o'rtasida muamolarni hal qiluvchi qonunchilik normalarini mavjudligi.

Eyffinger–Shaling indeksi 3 ta faktor asosida hisoblanadi:

- MBning pul-kredit siyosatini aniqlashdagi mustaqilligi;
- MB boshqaruv organlarida hukumat organlarining mavjudligi;
- Hukumat tomonidan tayinlanadigan MB boshqaruv organlari a'zolarining ulushi;

Bu indeks qanchalik shartlarni bajarilishiga ko'ra 1 dan 5 gacha baholanadi. Hozirgi vaqtda MB siyosiy mustaqilligi MB boshqaruvini tayinlash jarayonining qonun bilan boshqarilishidir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda MBning boshqaruvini tanlash va ularning vakolat muddatlarini qisqartirishga hukumat doimiy aralashmoqda. Bank boshqaruvida hukumat vakillarining ko'pincha ishtirok etishi. Hukumat bilan munozaralarda MBning qonuniy himoyasining chegaralanganligi.

MB raisi yoki Prezidentlarini tayinlash. U quyidagicha amalga oshirilishi mumkin. MB rahbarlarini tayinlashda:

- parlament, Bank boshqaruvi;
- qonunchilik hokimiyati;

- ijro etuvchi va qonunchilik hokimiyati birgalikda;
- bir-ikki ijro jetuvchi hokimiyat vakillari(hukumat rahbar va/yoki moliya vazirligining ishtiroki)

Xalqaro amaliyotda Markaziy bankning siyosiy mustaqilligini baholashda GMT indeksidan keng foydalaniladi. Ushbu indeksning nomi uni birinchi bo'lib taklif etgan olimlarning familiyalarini bosh harfidan kelib chiqqan.

* Grilli
* Maskiandaro
* Tabellini

GMT indeksi bo'yicha Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi 8 ta me’zon bo'yicha baholanadi:

1. Markaziy bank rahbari Hukumatning aralashuvisiz tayinlanadi.
2. Markaziy bank rahbari 5 yildan ortiq muddatga tayinlanadi.
3. Markaziy bank Boshqaruvchilar kengashi a'zolari Hukumatning ishtirokisiz tayinlanadi.
4. Markaziy bank Boshqaruvchilar kengashi bankni 5 yildan ortiq boshqaradi.
5. Markaziy bank Boshqaruvchilar kengashida Hukumat vakillarining majburiy ishtirokiga zaruriyat yo'q.
6. Pul-kredit sohasida qabul qilingan qarorlarni Hukumat tomonidan ma'qullanish zaruriyatining yo'qligi.
7. Markaziy bankda qonun bo'yicha ustuvor maqsadlardan biri sifatida mamlakatda baholar barqarorligini ta'minlash majburiyati bo'lishi kerak.
8. Markaziy bank Hukumat bilan qarama-qarshilikka borib qolganda, uning pozitsiyasini kuchaytirish imkonini beradigan qonunchilik me'yorlarining mavjudligi.

Hozirgi davrda dunyo bo'yicha siyosiy mustaqillik darajasi eng yuqori bo'lgan Markaziy bank – bu Yevropa Markaziy bankidir (YeMB).

• YeMB Yevropa Ittifoqi boshqaruv organlariga va evrohudud hukumatlariga umuman bo'ysunmaydi.
• YeMB baholar barqarorligiga javob beradi.
• YeMBning vakolatlarini qonunchilik asosida o'zgartirilishi mumkin emas.

YeMBning vakolatlari faqatgina Maastrixt shartnomasini qayta ko'rib chiqish natijasida o'zgartirilishi mumkin. Bu esa, juda murakkab jarayon bo'lib, barcha ishtirokchilarning roziligini olishni talab etadi.

Bugungi kunda Markaziy bank mustaqilligini baholash har bir mamlakat uchun bank tizimining nazorat qilinishida va eng asosiysi mamlakatda monetar siyosatning qay darajada olib borilishini baholashda muhim o'rin tutadi. Markaziy bank mustaqilligini baholashda xalqaro bank amaliyotida turli xil yondashuvlar mavjud. Ulardan so'nggilari sifatida “The New Index for Central Bank Independence” reytingli baholash ko'rsatkichini keltirish mumkin. Ushbu ko'rsatkich 0-36 ballgacha oraliqda Markaziy bank mustaqillik darajasini aniqlaydi. Bunda asosiy me’zon qilib, Markaziy bankning 3 guruh: Monetar siyosat mustaqilligi (MSM), Personal mustaqillik (PM) va Moliyaviy mustaqillik (MM) ko'rsatkichlariga yaratilgan holda ular ham tarkiban balli baholashga asoslanadi.

GMT indeksi bo'yicha Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi 7 ta me’zon bo'yicha baholanadi:

1. Hukumatga avtomatik tarzda kreditlar berish jarayonining mavjud emasligi.
2. Markaziy bank kreditlari Hukumatga bozor stavkalarida beriladi.
3. Markaziy bank kreditlari Hukumatga ma'lum muddatga beriladi.
4. Kreditlar Hukumatga cheklangan miqdorda beriladi.
5. Markaziy bank davlat qimmatli qog'ozlarining birlamchi ishtirokchisi hisoblanmaydi.
5. Markaziy bank davlat qimmatli qog'ozlarining birlamchi ishtirokchisi hisoblanmaydi.
6. Markaziy bank o'zining foiz stavkalari mustaqil, Hukumat bilan kelishmasdan, o'rnatadi.
7. Markaziy bank bank sektorini nazorat qilish yuzasidan javobgardir. (Bu holatda GMT indeksi asosida MB ga 2 ball o'zlashtiriladi yoki boshqa davlat organi bilan birgalikda amalga oshirilsa 1 ball qo'yiladi).

12.2. Rivojlangan davlatlar markaziy banklari.

M oliya bozorlarining asosiy ishtirokchisi bo’lib hisoblanuvchi Markaziy banklar monetar siyosatni olib boruvchi davlat organlarini o’zida aks ettirdi. Markaziy banklar foiz stavkalari, kreditlar, pul massasining salmog’ini boshqaradi. Bularning barchasi nafaqat moliya bozorlariga balki umumiy ishlab chiqarishga va inflyatsiyaga o`z ta’sirini ko`rsatadi. Markaziy banklar moliya bozorlarida va umuman iqtisodiyotda qanday o`rin egallashni bilish uchun, bu tashkilotlar qanday ishlashini ko`rish zarur. Kim Markaziy banklarni nazorat qiladi va ularning xarakatlarini yo`naltiradi? Ularning xulqi sabablari nimada? Kimning boshqaruvi ostida? Yirik Markaziy banklarning va eng birinchi o`rinda dunyodagi nufuzli Markaziy bank “Federal zaxira Tizimi” (FZT)ning institutsional tashkiliy tuzilishi quyidagi bobda ko`rib chiqamiz. FZTning rasmiy tuzilishini o`rganishdan boshlab, so`ng FZT xaqiqiy faoliyatini taqsimlovchi norasmiy tuzilishini ko`rib chiqamiz. Kim qaror qabul qilishini bilgan xolda, ularning qay tarzda qabul qilinishini yaxshiroq bilib olamiz. Nixoyat, boshqa muhim banklar, jumladan, Yevropa Markaziy bankining tuzilishi va mustaqilligini ko‘rib chiqamiz. Amaliyotda monetar tizim qanday olib borilishini quyidagi ma’lumotlardan bilib olishimiz mumkin.

Federal Zaxira Tizimining tashkil qilinishi.

Federal Zaxira Tizimi dunyodagi barcha Markaziy banklar orasida eng noyob tashkiliy tuzilmaga ega desa bo’ladi. Bu tuzilma kelib chiqishini ko`rish uchun, FZTning tashkil qilingan vaqti 1913 yilga to`xtalib o`tamiz.

XX asrning boshlangunigacha markazlashgan kuch va shtatlarning faoliyati, xuquqiy nazorati oldidagi qo`rquv, Amerika siyosatining asosiy xususiyati bo’lgan. Amerika jamiyatining Markaziy bank faoliyatiga nisbatan qo`pol muomalasi bank tizimini boshqara oladigan ikkita yirik tajribaviy Markaziy bankning qulashiga olib keldi: AQSHning birinchi banki 1811 yilda tarkatilib yuborilgan, ikkinchi AQSH bankining milliy ustavi AQSH prezidenti E.Djekson uning faoliyatini davom qilinishiga 1832 yilda veto e’lon qilgandan so`ng 1836 yilda tugatildi.

Ikkinchi bank faoliyatini bekor qilinishi, 1836 yilda amerika moliya bozorlariga bir qator muammo tug`dirdi, chunki inqirozli vaziyatda kreditor bank vaximasini oldini oluvchi so`ngi kreditor yo`qolgan edi. Shuning uchun 19 asr oxiri 20 asr boshlarida so`ngi 20 yil ichida umummilliy miqyosda bank vaximalari doimiy ravishda sodir bo`laveradi.

FZTning tashkiliy tuzilishi

Federal Rezerv Aktini yozganlar xususiy sektor va xukumat, bankirlar, tijoratchilar o‘rtasida mintaqaviy to‘siqlarni tarqatib yuborishni maqsad qilishgan edi. Kuchlarning dastlabki tarqalishi FZTning quyidagi subyektlarni o‘z ichiga olishiga olib keldi: FZT banklari, FZT direktorlar kengashi, Federal ochiq bozorlar qo‘mitasi (FOBQ), Federal maslahat kengashi va 2500 atrofidagi a’zo banklar.

Federal Zaxira Tizimining tuzilishi.

Federal zaxira qonunining mualiflari, FZTning formal tuzilishi vakolatlarning taqsimlanishi regionlararo, xususiy sektor va davlat, shuningdek bankirlararo, biznesmenlar va axoli o`rtasida bo`lishiga xarakat qilishgan. Bu birlamchi taqsimlanish FZTning tuzilishiga olib keldi, bugunda o`z ichiga federal rezerv banklarini, FZT boshqaruv kengashi, ochiq bozordagi operatsiyalar federal komiteti (FOMC), federal konsultativ kengash va 2500 ga yaqin banklarni- FZT ishtirokchilarini oladi.

Federal Zaxira Banklari.

Federal Zaxira banklarining va filialarining manzillari va telefon raqamlari. 12ta zaxira banklariga va boshqaruv kengashlariga aloqa saytlari. 12ta federal zaxira tumanining xar birida bir nechta tumanlarda filiallarga ega 1tadan FZbanki mavjud. Tumanlarning, federal zaxira banlari va filiallarning joylashishi 1-rasmda ko‘rsatilgan. 3ta aktivi bo`yicha eng yirik banklar Nyu-Yorkda, CHikagoda va San-fransiskoda joylashgan bo’lib, birgalikda ular 50%dan yukori FZTning aktivlariga ega. Nyu-Yorkdagi FZBanki aktivlarning 4/1qismiga egalik qilib, FZTdagi eng yirik bankdir.



FIGURE 1 Federal Reserve System
The locations of the Federal Reserve districts, the Federal Reserve banks, and their branches.
Source: Federal Reserve *Bulletin*.

12.1-rasm. Federal Zaxira banklarining va filialarining manzillari

Barcha federal zaxira banklari- bu xususiy kvazi (ma’lum qismi davlatga tegishli) muassasalari. Uning egalari –viloyat xususiy tijorat banklari FZTmi ishtirokchilari. Bu banklar FZBning o’zining viloyatidagi aksiyalariga ega va shu aksiyalar bo`yicha dividendlar yillik 6%dan oshmasligi kerak. Xar bir viloyatda ishtirokchi-banklar 6ta viloyat federal banki direktorini saylashadi; yana 3tasini FZT boshqarma kengashi tayinlaydi. Bu 9ta direktor bank prezidentini saylab so`ngra uni boshqarma Kengashi tasdiqlaydi.

Viloyatlararo direktorlari 3ta kategoriyaga bo`linadi. A kategoriyaning 3ta direktori (bank ishtirokchilari tomonidan tayinlagan) – bu professional bankirlar, yana 3ta B kategoriya direktorlari, -yirik sanoat kompaniyalari, qishloq xo`jaligi yoki xizmat bulimi boshqaruvchilari. Boshqaruv kengash bilan tasdiqlangan 3ta S kategoriya direktori, jamiyat manfaatlarini taqdim etib, boshqaruvchi, xizmatchi yoki bank aksioneri bo`la olmaydilar. Federal Zaxira Qonuni mualliflari direktor tanloviga shunday yondashilganki xar bir federal zaxira banki direktorini amerikaning barcha viloyat bo`linmalari taqdim qilishi shart. 2010 yilgacha barcha to‘qqizta direktorlar qaror qabul qilishda ishtirok etishgan ammo Dodd Frank qonuni 2010 yil iyulda uchinchi klass A direktorlarni bank prezidentini tanlashda jalb qilishni bekor qildi. Kongress bankirlarning aynan banklarning nazorat boshqaruvini nazorat qilish huquqiga ega bankirlarning Federal zaxira bankining prezidentini tanlashini noto‘g‘ri deb baholadi.

O‘n ikkita FZBlari monetar tizimni bir nechta yo’llar bilan olib borishadi.

1. Boshqarma kengashi xar bir viloyatni teshirib nazorat qilishidan tashqari yaqin atrofidagi bank direktorlari diskont stavkasini belgilaydilar,
2. Direktorlar qaysi banklar (FZT ishtirokchisi bulishi shart emas)viloyat FZBdan diskont stavkasini olishi mumkunligini xal qiladi.
3. Federal konsultativ kengash ishida ishtirok etish uchun direktorlar xar bir viloyatdan 1tadan tijorat banki vakilini tanlashi va shu vakil boshqarma Kegashiniga maslahat va ma’lumot beradigan, monetar siyosatni olib borishga yordam beruvchi vakil.

O‘n ikkita viloyat banki prezidentidan 5tasi FOMCda ovoz berish xuquqiga ega, va ular davlat qimmatli qog`ozlarini savdo-sotig`i boshqaruvini foiz stavkalarini oshishiga va bank tizimi zaxira xajmini o`sishiga ta’sir qiladi. Nyu-York FZB prezidenti FOMCda doimiy ovozga ega. Bu barcha banklar orasida eng e’tiborliligini ko`rsatadi. Qolgan 4ta ovoz 11ta prezident viloyat banklari orasida ketma ketlikda ta`simlab chiqiladi.

O‘n ikkita FZB quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Cheklarning kliringi;
2. Yangi naqd pul emissiyasi;
3. Eskirgan pullarni muomaladan chiqarish;
4. O`z viloyati banklariga diskont ssudalarni berilishi va ularni boshqarmasi;
5. Banklarning uyushmasi va ularning faoliyatini kengaytirish borasidagi takliflar baxosi;
6. Biznes vakolatchilari va FZT o`rtasidagi vositachilik;

7. Bank xolding kompaniyalari va ma’muriyat vakolati bilan shtat bank-ishtirokchilarining nazorati

8. Biznes olib borilishi ma’lumoti haqidagi shartlarni yig`ilishi;

9. Monetar siyosatni olib borish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqilishi uchun professional iqtisodchilarni ishlatilishi;

Banklar-Federal Zaxira Tizimi ishtirokchilari.

Barcha milliy banklar (valyuta nazorati Federal boshqaruvi litsenziyalagan tijorat banklari) FZT ishtirokchilari bo`lishi kerak. Shtat ma’muriyati bilan litsenziyalangan tijorat banklari, FZT ishtirokchisi bo`lishi shart emas ammo ular ham qo`shilishi mumkin. Xozirda AQSH tijorat banklarning 3 qismi FZT ishtirokchilaridir. Eng yuqori salmoqni (umumiy tijorat banklaridan 49%) FZT ishtirokchi banklari 1947 yilda ega bo’lgan.

1980 yilgacha faqatgina FZT ishtirokchilari federal zaxira banklarida depozit xisobvaraqlarida zaxiralariga ega bulishi kerak. Qolgan banklar shtat ma’muriyati belgilagan rezerv talablariga bo`ysinishgan. Odatga ko`ra, shtat darajasida, zaxiralarni qimmatli qog`ozlar foizi shaklida saqlashga ruxsat berilardi. FZBda joylashgan depozitlar bo`yicha foiz to`lanmaganligi uchun, FZT ishtiroki foiz stavkasi o`sishi bilan xarajatni talab qilgan. Shu sababli ko’pchilik banklar tizimdan chiqib ketgan.

FZT ishtirokchi banklarning kamayib borishi boshqarma kengashini xavotirga solar edi, chunki bu monetar siyosatni olib borishga qiyinchilik tug`dirib, pul massasini hajmi ustidan nazoratni kuchsizlantirgan. Boshqaruv Kengashi raisi barcha tijorat banklari FZT ishtirokchisi bulishiga yangi qonunchiligini joriy etishga majbur qildi. FZTni Kongressga bosim utkazishni bir sababi depozit muassasalarini nazoratini susaytirish va 1987 yilgacha bo’lgan 1980 yildagi pul massasini nazorati haqidagi qonuni ishlab chiqib, barcha depozit muassasalari yagona talablarga bo`ysinib – FZTdepozitlarida zaxira ushlashlari haqidagi qonun. Shunday qilib, rezerv talablar barcha banklar uchun ham FZT ishtirokchilari uchun ham qolgan banklar uchun bir xilda bo`ldi. Bundan tashqari barcha depozit muassasalar FZT imkoniyatlari doirasida bir xil xuquqlarga ya’ni diskontli oyna(17 bobda kuriladi) va cheklar kliringi kabilarga ega bo`lishdi. Qonunchilikning o`zgarishi banklarning tizimdan ketishini tuxtatib FZT ishtirokchilari va oddiy banklar orasidagi farqlikni tekislab yubordi.

Nyu-York Federal Zaxira Bankining.

Nyu-York Federal Zaxira Banki bir nechta sabablarga ko`ra asosiy ahamiyatga ega. Birinchidan butun amerika moliya tizimining xolatini xavfsizlik va farovonligini belgilovchi AQSHning ko’pchilik yirik xususiy banklar bu tumanda joylashgan. Nyu-York Federal Zaxira Banki barcha bank xolding kompaniyalari va o`z tumanidagi shtat ma’muriyati bilan litsenziyalangan banklarni, shuningdek AQSHning yirik moliya tizimi muassasalarini faoliyatini nazorat qiladi. Xayratlanarli emas, bank nazorat guruxi- Nyu-York Federal Zaxira Bankida va FZTeng yirik bo`linmasi hisoblanadi.

Nyu-York bankining asosiy o`rin egalashining ikkinchi sababi- bu uning obligatsiyalar va valyuta bozorlaridagi aktiv faoliyati. Nyu-York Federal Zaxira Banki tarkibiga, ochiq bozordagi operatsiyalarni(obligatsiyalarni sotish va sotib

olish) olib borish uchun javobgar savdo bo`limi kiradi. Bu operatsiyalarni miqyosini bank tizimining zaxiralarining miqdori belgilab beradi. Xazina qimmatli qog`ozlari bozoridagi aktiv faoliyatiga binoan va Nyu-York va Amerika fond bozorlariga teritorial yaqinligi bo'lgan, Nyu-York Federal Zaxira Banki boshliqlari, doimiy ravishda AQSHning asosiy moliya bozorlari bilan aloqadorlikni olib borishadi. Bundan tashqari bank valyuta bozoridagi operatsiyalar bo`yicha bo`linmalarini, valyuta intervensiyalarini FZT va AQSH g`aznachiligi nomidan olib borilishini o`z ichiga oladi. Bu moliya bozorlaridagi faoliyat Nyu-York Federal Zaxira Bankini mamlakatdagi va chet eldagi moliya bozorlaridagi tadbirlari haqida, ayniqsa inqiroz vaqtida va FZTning boshqaruvchilari va boshqa bozor ishtirokchilarini aloqalari haqida ma'lumot bilan ta'minlab turadi.

Nyu-York Federal Zaxira Bankining 3 asosiy o`rin egalashining sababi, bu xalqaro xisoblar Bankining(Bank for InternationalSettlements, BIS) ishtirokchisi bo'lib hisoblanuvchi yagona FZbankidir. Shuning uchun FZB prezidenti, boshqarma kengashi ishtirokchilari bilan bir katorda chet davlatlari asosiy banklari bilan birgalikda har oylik majlislarda FZTni taqdim etadi. Chet davlatlari markaziy banklarining boshqaruvlari bilan yaqin aloqasi va valyuta bozorlaridagi faoliyati, Nyu-York Federal Zaxira Banki xalqaro aloqalarda markaziy banklararo va boshqa ishtirokchilari o`rtasida asosiy o`rin egallashini ko`rsatadi. Undan tashqari Nyu-York Federal Zaxira Bankida 100mlrd.dollariga yaqin oltin zaxira mavjud – Fort Noksdan ko`proq.

Nixoyat, Nyu-York Federal Zaxira Bankining prezidenti- federal rezerv prezidentlari o`rtasida yagona FOMC ning doimiy ishtirokchisi va shu kengashning vitse-prezidenti bo'lib hisoblanadi. Shu sababli Nyu-York Federal Zaxira Bankining prezidenti, boshqarma kegashining prezidenti va vitse prezidenti – bu FZTdagi 3ta muxim shaxslar bo'lib xisoblanadi.

Federal Zaxira Tizimi boshqaruv Kengashi.

FZT mavjud bo'lgan yillaridagi boshqaruv kengashining barcha ishtirokchilarining ro`yxati.

FZTni 7ta ishtirokchidan tashkil topgan, Boshqaruv Kengashi boshqaradi Vashingtonda shtab kvartirasi joylashgan. Xar bitta boshqaruvchi AQSH prezidenti orqali tayinlanib Senat tomonidan tasdiqlanadi. Prezident nazoratini FZTustidan cheklash maqsadida va ularni boshqa siyosiy ta'sirlaridan cheklash uchun, boshqaruvilar 14 yillik uzaytirilmaydigan muddat bilanishlaydilar, shunda xar bir boshqaruvchining muddati har yanvarda tugaydi. Boshqaruvchilar (ko`pchiligi iqtisod mutaxassislari) Federal zaxiraniturli xil viloyatlarini taqdim etishlari kerak. Bir viloyat ikkinchisi ustidan nazorat qilolmasligi uchun. Boshqaruv Kengash Raisi 7ta boshqaruvchi ichidan saylanib, keyingi 4yil davomida shu lavozimni egallaydi. yangi Rais tayinlanishi bilan, eski Rais faoliyati tugash muddati kelmagan bo`lsa ham, kengashdan ketishi zarur.

Boshqaruv Kengashi davlatdagi monetar siyosatni olib borishda faol ishtirok etadi. barcha 7ta boshqaruvchi FOMC ishtirokchilari va ovoz berish huquqiga ega. FOMCda 12tagina ishtirokini ovozi inobatga olingani uchun, Boshqaruv Kengashi ko`proq ovoz berish huquqiga ega. Shuningdek boshqaruv Kengashi, zaxira

bo`yicha talablarni belgilaydi(qonun doirasida),diskont stavkani samaradorligini boshqaradi, va federal zaxira banklari belgilagan diskont stavkani tekshirib, tasdiqlaydi. Boshqarma Kengashini Raisi iqtisodiy siyosat bo`yicha AQSH prezidenti kotibi bo'lib, ommaviy axborot vositalarida FZTnomidan chiqib, Kongressga ma'lumot beradi. Rais va boshqa boshqaruvchilar xalqaro muzokaralarni olib borishda iqtisodiy savollar bo`yicha, AQSHni taqdim qilishlari mumkin. Kengash professional iqtisodchilar shtatiga ega bo'lib, ular Kengash qarorlarini to`g`riligini isbotlab, analitik tadqiqotlarni olib borishadi.

FZT boshqaruv Kengashi tadqiqot bo`limini roli.

FZT nafaqat AQSHda balki butun dunyo bo`yicha eng katta iqtisodchilar shtatiga ega. Tadqiqotchi - iqtisodchi shtati 1000ga yaqin odamdan iborat bo'lib, yarmidan ko`pi iqtisodchilar. Ulardan 500tasi iqtisodchi bo'lib, 250tasi boshqaruv Kengashida, 100tasi Nyu-York FZBda, qolganlari boshqa FZBlarida ishlaydilar. ularning ilari nimadan iborat?

FZT iqtisodchilarining asosiy vazifasi-davlat va xususiy tashkilotlarni ma'lumotlarini taxlil qilib, siyosiy arboblarga iqtisodiy siyosatni qanday boshqarishi haqida va harakatlarning ehtimoliy oqibatlari nimalarga olib kelishi haqida tavsiyalar taqdim etish, FOMCning xar bir kengashi oldidan xar bir FZB ekspertlari bank boshqaruvchilarini batafsil milliy iqtisodiyotni rivojlanishini bashorati to`g`risida, kengashda qurilishi mumkin bo'lgan savollarni muhokama qilish haqida ma'lumotlarni taqdim qilishi kerak.

Shuningdek viloyat bankining tadqiqot markazi FOMC majlisiga bank prezidenti uchun o`z viloyati bo`yicha iqtisodiy siyosat va milliy iqtisodiyotni bashoratlari haqida ma'lumot beradilar. Boshqarma Kengashining iqtisodchilari, milliy iqtisodni bashorat qilishga yordam beradigan katta ekonometrik modeldan foydalanib, uning barcha jixatlari bo`yicha boshqaruvchilarga ko`rsatmalar beradilar.

Bundan tashqari FZT ekspertlari bank nazorati guruxiga yordam sifatida banklarning rivojlanish tendensiyasini va boshka moliya muassasalari va bozorlarni o`rganib chiqishadi. Boshqarma Kengashi banklarning birikmasi haqida qaror qabul qilishi kerak bo'lgani sababli, boshqarma Kengashi kabi tadqiqot markazlari va shu viloyat banklari birikish bo`lishi kerak bo'lgan joyda, raqobatli muxitga ta'sir qiluvchi birikish haqidagi ma'lumotlarni yigishadi.

AQSH iqtisodiyotiga ta'sir qiluvchi boshka mamlakatlarning iqtisodiyotini nazarga olib, FZT ekspertlari boshka mamlakatlar iqtisodiy rrivojlanishi ma'lumotini, va monetar siyosatga ta'sir qiluvchi valyuta bozorlarini tendensiyalarini urganib chikadilar. Bundan tashqari, ekspertlar zaxira darajasi va monetar agregatlarni darajasini bashoratlab, ochiq bozordagi operatsiyalarni olib borishda yordam beradilar.

FZT ekspertlari shuningdek asosiy tadkikotlarni ya'ni monetar siyosatni Inflatsiya darajasi va ishlab chikarishga ta'siri, mexnat bozori rivoji, xalkaro savdo, xalkaro fond bozorlari, banklar va boshka moliya muassasalari, viloyat iqtisodiyotini tadkikoti bilan shugulanishadi. Bu tadkikotlarning natijalari akademik jurnallarda va FZT nashriyotlarida keng kursatiladi. (oxirgisi talabalar uchun yaxshi ma'lumot negizi bo'lib xizmat qiladi.)

Ekspertlarning yana bir muxim faoliyat turi bu viloyat banklarining ta'limi. Iqtisodchilar ko`pincha axolii uchun eki bank boshqaruv kengashi uchun takdimotlar utkazib berishadi.

Qonunchilik bo`yicha boshqarma kengashi ko`pincha monetar siyosat bilan boglik bo`lmagan masalalarni xal qilishiga to`gri keladi. Masalan, oldin Kengash Q kursatmalari bo`yicha kaysidir depozitlar ga foiz stavkani maksimal xajmini belgilardi. (1986yildan so`ng muddatli depozitlar bo`yicha maksimum foiz stavka bekor qilindi ammo, talab qilib olguncha bo'lgan depozitlar foizlar tulanishi me'yori koldirildi). Qonun bo`yicha 1982yilgacha faoliyat qilgan, 1969 yil kredit berilishi nazorati bo`yicha, Kengash prezident tomonidan sanksiyalangan kreditlarni nazorat va boshqarish huquqiga ega bo'lgan. Shuningdek Kengash qimmatli kogozlarning narxini yarmini belgilab, zaem mablaglardan xisobidan emas balkim naqd pul bilan tulanishi lozim. Bundan tashqari prezident va federal zaxira banklarining barcha ma'muriyatlarining okladini belgilaydi va barcha banklarning byudjet daromadini nazorat qiladi. Nixoyat Kengash bank boshqaruvi bilan shugullanadi: ya'ni yangi banklarning tuzilmasi va o`zaro qo'shilishini, bank xolding kompaniyalarining majburiyatlarini belgilaydi, AQSHdagi chet el banklarini nazorat qiladi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar bo`yicha federal qumita (FOMC)

Ochiq bozor operatsiyalari bo`yicha qumita reja bo`yicha yiliga sakkiz martadan yigilib monetar bazaga xajmiga ta'sir etuvchi ochiq bozordagi operatsiyalarni olib borilishi haqida qarorlarni qabul qiladi. Matbuotchilar ko`pincha FOMCga, FZTga qarab baxo beradilar. Masalan nashriyotda FZT majlisi haqida e'lon qilinsa FOMC nazarda tutiladi. Qumita ichiga 7ta kengash boshqaruvchilari, Nyu-York FZB prezidenti va yana 4ta FZB prezidentlari kiradi. Boshqaruv Kengash Raisi, ham FOMC Raisi bo'lib xisoblanadi. 5ta FZB prezidentining FOMCda ovoz berish huquqi bo`lsa ham qolgan 7ta prezidentlar FOMC majlislarida ishtirok etishi va muxokama qilishi mumkin. Qumita qarorlariga ta'sir etishi ham joiz.

Pul massasini boshqarish uchun FZT ishlatayotgan instrument eng asosiysi ochiq bozordagi operatsiyalar bo'lgani uchun, FOMCning faoliyati FZTning butun siyosatini belgilab beradi. Bugunda qumita diskont stavkani va zaxira bo`yicha talablarni belgilamagan bo`lsa ham bu instrumetlarni iqtisodiy siesati bo`yicha qarorlarni shu erda qabul qilinadi. Qumita qimmatli kogozlarning oldi soti operatsiyalarini olib bormaydi. Nyu-York FZB ning savdo bulimiga direktivalar chikarib, unda ichki ochiq bozordagi operatsiyalarni olib boruvchi menedjer davlat va korporativ qimmatli kogozlarni oldi sotisi bilan shugullanuvchi ko'plab ishchilarni nazorat qilib turadi. Menedjer xar kuni FOMC ekspertlari va ishtirokchilari bilan aloqa qilib, savdo bulimii faoliyati bo`yicha savollarni muxokama qiladi.

FZTning ichki holati. FOMC majlislari.

FOMC majlislari Vashingtondagi boshqarma Kengashining asosiy binosini 2kavatida bo'lib utadi. 7ta boshqaruvchi va 12ta bank prezidentlari FOMC kotibi bilan, direktor va boshqaruv Kengashi statistikasi va iqtisodiy tadkikotlar bulimi direktor o`rinbosari, shuningdek, monetar siyosat va xalkaro moliya bulimi

direktori majlislar stoli atrofida yigiladilar. 5ta federal zaxira banki direktorlari FOMCda ovoz berish huquqiga ega bo`lsa ham, qolganlar muxokamada faol katnashadilar. Majlisda shuningdek, barcha FZBning tadkikot bulimii direktorlari va shu banklarning boshka boshqaruvchilari ovoz berilmasa ham, ishtirok etadilar . Fevral va iyul majlislaridan tashqari, odatda, boshqaruv kengashi Raisining Qumitadagi majlisda ma'ruzsiga bagishlangan bo'lib, FOMC majlislari seshanba soat 9:00da boshlanadi. Avallo oldingi majlis nizxomi tasdiqlanib utiladi. Kun tartibining birinchi moddasida- ochiq va valyuta bozorlaridagi menedjerining ma'ruzasi va shu boyicha boshka savollar ham kurib chiqiladi. Prezidentlar va boshqaruvchilar barcha savollarni va ma'ruzalarni muxokama qilib bo'lgandan so`ng, takliflar ovoz berish yo'li bilan tasdiqlanadi.

Majlisning keyingi bulimida iqtisodiy tadkikotlar va boshqaruv kengashi statistika bkulimi direktorii, kengash iqtisodchilari bilan qilingan milliy iqtisodiyotni bashoratini takdim etadi. Bu bashoratni «kuk kitob» deb nomlashadi. Ma'ruzachini bashorat bo`yicha berilgan savollarga javob berib bo'lgandan so`ng, xar bir FZB prezidenti uz viloyatidagi iqtisodiy axvolini kurgazmasi bilan va bank nomidan milliy iqtisodiyotni bashoratining baxolashi, xar bir boshqaruvchi esa Raisdan tashkri milliy iqtisodiyotga nisbtan bashoratini etib utadi. Odatda shu paytda ma'ruzachilar monetar siyosatga tegishli savollarni ko`rmaydilar.

FZT uchun bu ranglar nimani bildiradi? 3ta analitik xujjat monetar tizimni olib borishda muxim rol uynaydi. FOMCda ular asosiy o`rin egallaydilar. iqtisodiy tadkikotlar va boshqaruv kengashi statitstikasi bulimi bajargan keyingi 2yilga qilingan milliy bashorat, «kuk kitob» deb mashxurlik topgan. FOMC majlisi ishtirokchilari uchun muljallangan. «Xavorangli kitob»-ham barcha ishtirokchilar uchun muljallangan. Bu kitobda boshqaruv kengashining monetar siyosat bulimi bilan tayorlangan pul agregatlari bo`yicha bashorati kursatilgan. Reja bo`yicha kelgusi monetar siyosat uchun 3ta alternativ variant kurib chiqiladi. «jigarrang kitob» federal zaxira banklari tomonidan ezilib, xar bita viloyat bo`yicha iqtisodiy axvol eritilgan bo'ladi. Ma'lumotlar manbasi- etakchi firma va moliya muasassalaridagi savol javob natijalari. «jigarrang kitob» - yagona hammabop ktob bo'lgan uchun nashriyotda ko`pincha kursatib utiladi.

Qisqa tanaffusdan so`ng barcha ishtirokchilar qayta joylashadilar. Kun tartibining keyingi savoli monetar siyosat va ichki siyosat. Boshqaruv kengashining monetar siyosat bulimini direktorii xavorangli kitobda kurstilgan monetar siyosatning turli ma'lumotlarni keltirib muzokarani ochib beradi. Savol javoblardan so`ng, rais keyingi muzokarani ya'ni o'zining fikrini iqtisodiy axvol va monetar siyosat bo`yicha chora tadbirlarni berib utadi. FOMC barcha ishtirokchilari va bank prezidentlari uzlrining monetar siyosatga nisbatan karashlarini etib utadilar. Rais muzokarani yakunlab, qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foiz stavkaning maqsadli belgisi bo`yicha konkret direktiva nashriyotini takdim etadi. Direktiva ochiq bozor operatsiyalari bulimiga yo'naltiriladi. FOMC kotibi takdim etilgan matni uqib chiqadi va barcha komitet ishtirokchilari uni saylov orkali tasdiqlaydilar.

So`ng tushlik paytida ishtirokchilar norasmiy tartibda Kongress tomonidan kurib chiqilgan eki tasdiqlangan bank qonunchiligining so`ngi o`zgarishlari

haqidagi ma’lumotni kurib chiqishadi. Taxminan 14:15 majlis tugatilib, uning rasmiy natijalari e’lon qilinadi: kiska muddatli kreditlar bo`yicha foiz stavka va diskont stavka o`zgardimi, kelgusida iqtisodiyotga iqtisodiyotga Inflatsiya usishi eki pasayishini mavjudmi. SHu paytgacha bunday rasmiy ma’lumotlar e’lon qilinmagani sababli, bozorlar qanday siyosiy qarorlar qabul qilinganini faxmlashardi. FOMC majlisi natijalarining nashriyoti- bu FZT ochiqligining o’sishiga yana bir qadam hisoblanadi. 2011 yil Aprelda ushbu yo‘nalishda qo‘shimcha qadamlar tashlandi. Aprel, iyun, noyabr va yanvarda FOMC ning majlislaridan keyin Federal zaxira boshlig‘i press konferensiya o‘tkazadi va FOMCning qarorlari to‘g‘risida ommaviy nashrlarga ma’lumot beradi.

Federal zaxira tizimining norasmiy tuzilishi.

Federal rezerv Qonuni va boshka qonuniy xujjatldarni urgangan paytda biz FZTning rasmiy tuzilishi va monetar siyosatga tegishli qarorlarni kim qabul qilishini ko’ramiz. Ammo qonunchilikdagi belgilangan faoliyat qarorlarni qabul qilinish tartibi va xukmronlikni xakikiy bulinmasini tulik kursatmaydi.

FZT yaratuvchilari 1913 yilda bu tizim 12ta aloxida o`zaro aloqador markaziy bnklarni birlashtiruvchi butunlay nomarkazlashgan tizim bulishi kerarkligi haqida fikr berishgan. Boshlangich rejada FZT foiz stavkalarini boshqarib, pul massasini nazoratini olib borishda iqtisodiyotni axvoliga umuman ma’sul emasligi belgilangandi. Keyinchalik FZT iqtisodni barqarorlashishiga javob bera boshladi va u bilan o`zini yagona markaziy bank bo’lib aylanishiga yordam berdi.

1913 yilda federal zaxira Qonuni mualliflari FZT monetar siyosatni boshqarishda faqat bitta instrument ya’ni FZTga kiruvchi banklarning diskont ssudalarini boshqarish orqali ishlatadi. Ochiq bozordagi operatsiyalarni ishlatilishi oxirgacha tushunasiz edi, chunki zaxira talablari Federal zaxira Qonuni bilan mustaxkamlanardi. Diskont ssudalar federal zaxira banklari va Federal zaxira Kengashi qarori bilan birgalikda berilardi, shuningdek ikkalasi ham monetar siyosatni belgilashi mumkin. Ammo, kengashning diskont stavkani «tekshirib tasdiqlash» qarori, shu siyosatni belgilashda viloyat banklari ustidan xukmronlik qilishga huquq berardi.

Buyuk Depressiya davrida qaytadan tiklangan FZT boshqaruv Kengashining markazlashgan hukmi qonuniylashgan edi. Monetar siyosatning 2ta instrumenti tasarrufiga o`tdi, - ochiq bozordagi operatsiyalar va zaxira talablarining o`zgartirilishi. 1933 yildagi Bank tizimi haqidagi Qonun FOMCga ochiq bozorni boshqarish imkonini, 1935 yildagi bank tizimi haqidagi qonun esa boshqaruv kengashiga FOMCdagi ko`proq ovoz berishni va zaxira talablarini o`zgartirishga huquq berdi. 1930 yillardan boshlab FZT boshqaruv kengashi tasarrufiga monetar siyosatning barcha instrumentlari kirdi. So`nggi yillarda uning xukmi o’sib bordi. Kengash qarori bilan direktorlar federal zaxira banklari prezidentlari tayinlansada, ko`pincha amaliyotda kengash viloyat banklari direktorlariga o’z nomzodlarini (iqtisodchilarni) bank prezident lavozimiga taklif etadilar va direktorlar ham shu taklif bilan qo`shiladilar. Bank prezidentining okladini belgilaganda vahxar bir bank byudjetini tekshirganda boshqaruv Kengashi qo’shimcha ravishda viloyat banklari faoliyatiga ham ta’sir qiladi.

Agar boshqaruv Kengashining hukmi shunday bo`lsa u xolda Federal konsultativ kengash va FZB egalari FZT tasarufidagi banklar amaliyotda qanday huquqlarga ega? Umuman xech qanday. FZT ishtirokchi banklari FZB aksiyalari egalari bo`lsa ham ular uz mulkidan xech qanday foyda ko`rmaydilar. Birinchidan ular, FZT kancha daromad olganiga qaramasdan yiliga 6%dan ko'p bo`lmagan dividentga ega. Ikkinchidan ular xususiy korporatsiya aksionerlaridan ko'ra FZTda mulki qanday ishlatilishiga ta'sir qilmaydilar. Uchinchidan odatda o`ta direktorlik joyiga faqat 1tadan nomzod bank ishtirokchilar tomonidan qo'yiladi, va shu nomzodni ko`pincha FZB prezidenti tayinlaydi(uz navbatda boshqaruv Kengashi bilan tasdiqlangan). Natijada FZT bank ishtirokchilari ko`pincha siyosiy vaziyatdan chetlashtirilib real voqealarga kamdan kam ta'sir kursatadilar. Turtinchidan, Federal konsultativ kengashi uz nomidan kelib chiqib faqat maslahat berish imkoniga ega va FZT real faoliyatini boshqara ololmaydi. Ammo,FZT bank ishtirokchilari o`z mablag`iga hukmdor bo`la olmasligiga qaramasdan ular FZTda asosiy ko`rimsizgina bo`lsada o`rin egallaydilar.

Federal zaxira tizimi Bank ishtirokchilarning o`rni.

FZT bank ishtirokchilari FZB aksionerlari bo`lsa ham FZTga to`g`ridan to`g`ri faoliyatiga ta'sir etmay asosiy urini egallaydilar. Direktorlar kengashida ularning 6ta vakolatchilari xar bir FZBda nazorat funksiyasini olib boradilar. Qolgan 3ta direktorlar bilan ular FZB audit faoliyatini nazorat qiladilar. Diskont stavkani o`zgarishi bo`yicha takliflarga ovoz berish yo'li bilan, monetar siyosatni munozarasida ishtirok etishadi va xususiy sektorning vakili sifatida prezident va bank direktorlariga o`z fikrlarini bildirishadi. SHuningdek ular FZBning ishini ichidan ham urganishadi. Shuning uchun ular Federal zaxiradagi vaziyatni xususiy sektor vakillari va siyosatchilarga tushuntirib berishlari mumkin.

Umuman olganda federal zaxira bank egalari ovozga ega bo`lmasa ham, ular Federal zaxirada xususiy sektor talabi va xoxishlari bilan aloqani ushlab turishda muxim o`rin egallaydilar.

FZTni hozirgi vaziyatda Vashingtondagi shtab kvartiraga va 12ta shaxarda filialarga ega markaziy bank deb ta'riflash joiz (Kolumbiya federal okrugi). Agarda FZTni barcha faoliyat turlarini amalda Kengash boshqarsa, Kengashni kim boshqaradi? Boshqaruv Kengash Raisi qonun bo`yicha uning faoliyatini nazorat qilish vazifasi yuklatilmagan bo`lsa ham shu ishni FZT nomidan Kongress eki AQSH prezidentiga takdim etadi. SHunindek boshqaruv Kengashi va FOMC majlislarini kun tartibini belgilab beradi. Masalan, FOMC majlislarida Kengash raisi monetar siyosat masalasi bo`yicha birinchi bo'lib so`z boshlashi, unga konkret yo`nalishlariga ko`proq ta'sir kursatilishi huquqi beriladi. Boshqaruv Kengashi raisining o`rni uni tashki kurinishi va shaxsiy sifatlari ham rol uynaydi. Kengash raislari doimo qo'yilgan maqsadga erishuvchi kuchli sifatlarga ega shaxslar bo'lib xisoblanganlar.

Boshqaruv Kengash raisining faoliyati mutaxassis maslaxatchilar va iqtisodchilardan tashkil qilingan katta shtat ushlab qo'llab quvvatlaydi. Kengash uchun ma'lumot tuplab va uning uz echimlarini ishlab chikishdagi analitik tadkikotlarini olib borish bilan birgalikda, olimlar shu bilan birga monetar siyosatga ham ayrim ta'sirni kursatadilar. Bundan tashqari boshqaruv

Kengashining ayrim ishtirokchilari oldin mutaxassis maslaxatchilardir, shuning uchun raisning ta’siri kuchayadi va 4yillik muddatdan ko`proqa chuzilishi mumkin.

FZT qanchalik mustaqil?

Keyingi uchta bobda FZTni monetar siyosatni olib borishini o`rganayotganda, nima uchun aynan shu yo’l bilan faoliyat olib borishiga qiziqishimiz mumkin. Uning xatti xarakatlarini tushuntirish uchun, sabablarini tushunishimiz kerak. FZT Kongressdan va prezidentning to`gridan to`gri ta’siridan qanchalik ozod? Uning foaliyatiga iqtisodiy, byurokratik eki siyosiy faktorlar ta’sir qiladimi? Haqiqatan ham FZT tashki bosimdan mustaqilmi?

Massachusets texnologik institutining professori va Xalqaro valyuta fondining direktor-raxbar urinbosari Stenli Fisher markaziy banklarning mustaqiligini ikki xil ko‘rinishni belgilab berdi: **instrumentlarni tanlashdagi mustaqillik** – markaziy bankning monetar siyosatni olib borishdagi instrumentlarni tanlash qobiliyati, va **maqsadlarni tanlashdagi mustaqillik -** monetar siyosat maqsadlarini belgilashdagi markaziy banklarning qobiliyati. FZT 2xil ko`rinishdagi mustaqillika ega va boshqa davlat organlariga ta’sir qiluvchi siyosiy bosimdan ozod bo’ladi. Boshqaruv Kengashi ishtirokchilari 14 yillik muddatga saylanadilar va bu muddat qayta tiklanishga mo`ljallanilmaganligi uchun boshqaruvchilarni Kongress yoki prezident tassarufini egalashga yo’l qo’yilmaydi.

Ehtimol, Kongress injikliklaridan FZTni mustaqil qiluvchi yana bir muhim omil, bu qimmatli qog`ozlardan keluvchi daromad va kichik darajada banklarning kreditlanishi. Masalan, 2010 yilda FZT 80 mlrd.doll. ga yaqin sof daromad ko`rdi-bu uncha kam emas! Shu daromadlarning katta qismini Gaznachilikka berilgani sababli FZT boyib ketmagan, ammo qolgan davlat muassasalari oldida unga muhim foyda ya’ni: byujdet xisobidan moliyalashtirilmasligi sababli, federal xukumat uning monetar va valyuta siyosatlarini nazorat qila olmaydi. Xamyon ustidan xukm – bu umumiy hukm sinonimi, shuning uchun FZTning moliyaviy mustaqiligi boshqa bir omillardan ko`ra muximrok.

Ammo FZT qonunchiligiga o`zgarishlar kiritadigan Kongress ta’siriga FZT bog`lik bo’ladi. FZT monetar siyosatni olib borishida deputatlar noroziligini bildirsa ular, boshqa davlat muassasalari kabi FZTnng mablag`larini qo`lga kiritib uning xarajatlarini byudjet orkali moliyalashtirishni taxdid qiladilar.

Shuningdek Kongress, FZTning qonunchiligiga o’zining faoliyati uchun javogarligi maqsadida o`zgartirish kiritgan. 1975yilda Kongress FZTdan monetar agregatlarning o`sishini maqsadli ma’nosini nashr etishni talab qiluvchi 133 nomli rezolyutsiyani qabul qilgan. To`liq bandlik va balanslashtirilgan o`sish bo`yicha 1978-yilda qabul qilingan Qonun, FZTdan shu monetar agregatlar o`sishining maqsadli yo`naltirilishi AQSH prezidenti e’lon qilgan, iqtisodiy rivojlanish rejalariga to`gri kelishini tasdiqlab berishini talab qilib qo`ydi.

Prezident xam FZTga uz ta’sirini ko`rsatishi mumkin. Birinchidan Kongress orqali chunki, oxirgisi to`gridan to`gri FZTga va monetar siyosatni olib borishiga ta’sir qiladi. Ikkinchidan, rasman prezident Boshqaruv Kengashining bir yoki ikkita ishtirokchilarining bir prezidentlik muddati davomida saylashi mumkin bo`lsada, tajribada ularni ko`proq saylash huquqiga ega. Buning sabablaridan biri

ko’pchilik boshqaruvchilar lavozimini to`liq 14 yil egallamaydilar (boshqaruvchining okladi xususiy biznesdagidan ko`ra ancha kam). Bundan tashqari prezident boshqaruv Kengashi raisini xar 4 yilda saylashi mumkin va oldingi rais yangi muddatga saylanmasdan Kengashdan ketadi va uni o`rniga boshqasi saylanadi.

Ammo prezidentning boshqaruv Kengashi tuzilmasiga chegaralangan. Kengash raisining muddati prezident saylanish muddati bilan to`gri kelmagani sababli, prezident undan oldin saylanib ketilgan rais bilan ishlashga to`gri keladi. Masalan, Alan Grinspen 1987 yilda Ronald Reygan prezidenti tomonidan FZT boshqaruv kengashi raisi deb saylangan va ya’ni muddatga boshqa prezident Djorj Bush tomonidan qayta saylanilagan. 1993yilda demokrat Bill Klinton prezident etib u 1996-yilda qayta saylagan va Grinspen muddati tugashiga bir necha yil bor edi. Kuchli ta’sir ostida Klinton Grinspeni respublikalik bo`lishiga qaramasdan 1996-yilda va 2000-yilda qayta mudatga saylab qo`ydi.

Ko`rinib turgandek FZT – bu dunyodagi mustaqil markaziy banklardan biri. Ammo u siyosiy bosimdan ozod emas. FZTni xatti xarakatini tushunish uchun, axolini qo’llab quvvatlashi uning faoliyatida muxim rolni uynashini tan olish kerak.

FZT mustaqil bo‘lishi mumkinmi?

Ko‘rganimizdek, ko‘plab mamlakatlar o‘zlarining markaziy banklariga ko‘proq mustaqillik berishmoqda. Markaziy bank siyosatiga qattiq qarshi chiquvchi siyosatchilar o‘zlari xohlaganday siyosat yuritish maqsadida tez-tez o‘zlarining nazoratiga olishga harakat qilishadi. Markaziy bank mustaqil bo‘lishi lozimmi yoki prezident yoki parlament nazoratida bo‘lgani yaxshimi?[127]

Buyuk Britaniyaning kredit tizimi o‘zining iqtisodiy va tarixiy evolyusiyasi jihatidan dunyodagi eng rivojlangan, o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan tizimlardan hisoblanadi. U juda yuqori jihatdan ixtisoslashgan kredit instituti bo‘lib, uning bosh bo‘g‘ini Angliya banki, tijorat banklari va maxsus kredit – moliya institutlaridan tashkil topgan.

Kredit institutlari o‘rtasida yuridik va tashkiliy jihatdan juda katta cheklovlar mavjud emas, keyingi yillarda ko‘p hollarda an’anaviy bozorlar kuchayib bormoqda, buning natijasida kredit muassasalari doimiy ravishda universallashib bormoqda.

Angliya Banki (Markaziy banki) 1694 yilda xususiy aksiyadorlik kompaniyasi shaklida tashkil topgan. XVIII asr o‘rtalaridan boshlab, emissiya monopoliyasini qo‘lga olidi va hukumatning banki sifatida Markaziy bankning funksiyalarini bajara boshladi. Jumladan, Angliya Banki quyidagi asosiy funksiyalarini bajaradi:

– tijorat banklarning banki sifatida xizmat ko‘rsatadi;

– davlat byujetini barcha daromad va xarajatlari u orqali amalga oshiriladi va hukumatning banki vazifasini bajaradi;

– banklar emissiyasini amalga oshiradi;

[127] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited pp. 2013. pp. 354-361

– hukumatning qarz operatsiyalarni amalga oshiradi va hisobini yuritadi;

– valyuta operatsiyalarini amalga oshiradi va nazorat qiladi, hukumatning rasmiy oltin – valyuta zaxiralarini boshqaradi va tasarruf etadi;

– hukumatga pul kredit siyosatini amaga oshirish bo‘yicha maslaxatlar beradi va uning ijrosini ta’minlaydi.

Angliya Banki rasmiy jihatdan hukumatdan mustaqil hisoblanadi, biroq moliya vazirligining umumiy rahbarligi ostida faoliyat yuritadi.

Angliyada eng yirik tijorat banklari “katta to‘rtlik”ni tashkil etib – depozit va kredit operatsiyalari bo‘yicha mamlakatda etakchi o‘rinda turadi. “Katta to‘rtlik” banki dunyoning eng yirik tijorat banklari tarkibiga kirib, Neshnl Vestminister, Barklayz, Midlend va Lloyds banklaridan tashkil topgan.

Mamlakatda oltita etakchi banklar depozit banklari hisoblanadi, chunki ular London kliring (hisob – kitob) palatasi a’zosi hisoblanadi.

Umuman olganda, mamlakatda 14 mingdan ortiq tijorat banklari mavjud bo‘lib, ularni “chakana banklar” sifatida ham atashadi. Juda ko‘p tijorat – depozit banklari xalqaro miqyosdagi operatsiyalarni bajarishda faol ishtirok etadi va xorijiy mamlakatlarda ko‘plab filiallariga ega.

Angliya maxsus kredit – moliya institutlari tarkibiga quyidagi moliya muassasalari kiradi:

– savdo bank;
– hamkorlik banki;
– hisob (uchetnыe) uylari;
– moliyaviy uylar;
– ishonch jamg‘arma banklari;
– milliy jamg‘arma banklari;
– qurilish jamiyatlari;
– milliy jirobanklar;
– sug‘urta kompaniyalari va pension fondlar;
– investitsion trestlar;
– ishonchli pay fondlari;
– moliyaviy korporatsiyalar;
– vinchur (riskli) moliyalashshtiruvchi firmalar;
– xorijiy banklar.

Savdo banklari – bir necha o‘nta moliyaviy muassasa bo‘lib, ular asosan tashqi savdo va xalqaro kredit – moliya operatsiyalari bilan shug‘ullanadi.

Ushbu banklarning asosiy yutug‘i shundaki, ular an’anaviy ravishda ssuda kapitali va qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyat yuritib keladi. Savdo banklari depozit – ssuda operatsiyalarning birgalikda bajarilishi bilan ajralib turadi.

Hamkorlik banklari – rasmiy nomi sobiq britaniya kolonnalari banki deb yuiritiladi. Hozirgi kunda statistik ma’lumotlarda aks ettirilmaydi, chunki ularning ko‘pchiligi yirik banklarning tarkibiga kirib ketgan. Ushbu banklarning farqli jihati shundaki, ularning aksiyadorlari britaniya fuqarolari hisoblanadi. Bunday banklarning tinchlik vakili sifatida Stendart garted bankni aytish mumkin. Ushbu bank 1300 dan ortiq xorijiy bo‘limlarga ega bo‘lgan va Angliyaning eng yirik 10 talik banklari tarkibiga kiradigan bank hisoblanadi.

Hisob (uchet) uylari – moliya bozorida faoliyat yuritadigan, uncha yirik bo‘lmagan moliya muassasi. Ular an’anaviy tarzda talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarni jalb etib, (onkol’ kredit) ushbu mablag‘larni tijorat banklariga, g‘aznachilik veksellariga, davlat obligatsiyalariga, munitsipal majburiyatlarga, muddatli depozitlar va depozit sertifikatlariga joylashtiradi. Keyingi paytlarda ularning soni juda qisqarib, 2000 yillarga kelganda 13 tadan 8 taga tushib qoldi. Yunion Diskount, Djerrord End neshenl, Keyter Allen kabi taniqli hisob uylari xozirgi kunda ham faoliyat yuritib kelmoqda.

Moliyaviy uylar – iste’mol tovarlari va ayrim sanoat mollariga to‘lovni kechiktirish tartibida kereditlar beradi. Ularning asosiy moliyaviy manbalari sanoat savdo filiallari, banklar va aholidan 3 – 6 oyga jalb etgan depozitlari hisoblanadi. Mamlakat kredit operatsiyalari hajmida ularning ulushi unchalik yuqori emas, ko‘pchilik moliyaviy uylar an’anaviy faoliyat turlari bilan emas balki, lizing operatsiyalari va kredit kartochkalari bilan shug‘ullanadi.

Ishonchli jamg‘arma banklari, milliy jamg‘arma banklari va qurilish jamiyatlari asosan axoli mayda jamg‘armalarini jalb etish orqali moliyaviy mablag‘larini shakllantiradi.

Ishonchli jamg‘arma banklari boshqaruvi tarkibida davlatning ishonchli vakili bo‘lib, tijorat banklari bajargan barcha operatsiyalarni bajaradi.

Milliy jamg‘arma banki – sobiq pochta – jamg‘arma bnki hisoblanib, barcha mablag‘lari davlatning qimmatli qog‘ozlarini moliyalashtiradi.

Qurilish jamiyatlarining moliyaviy mablag‘lari asosan uzoq muddatli uy joylarini qurish ishlariga joylashtiradi.

Milliy jirobanklar – 1968 yilda davlat tomonidan pochta bo‘limlari bazasida tashkil etilgan bo‘lib, asosan tijorat banklarida qo‘llaniladigan chek kliring tizimini tashkil etish bilan shug‘ullanadi.

Sug‘urta kompaniyalari va pension fondlar faoliyati bilan bog‘liq manbalar hisobidan shakllantirilgan mablag‘larni uzoq muddatli investsiyalarga joylashtirish bilan shug‘ullanadi. Ularning moliyaviy mablag‘lari 20 – 25 yil muddatga, asosan aksiya va qimmatli qog‘ozlarga joylashtiriladi.

Angliyaning Royal, Kommershl yunion va boshqa sug‘urta kompaniyalari dunyo sug‘urta monopoliyasi tarkibidan mustahkam o‘rin egallaydi.

Investsion trestlar – asosan qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari bilan shug‘ullanadi. Ular o‘z aksiya va obligatsiyalarini chiqarish orqali iqtisodiyotdan moliyaviy kapitalni jalb etadi va ushbu mablag‘larni yirik kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlariga joylashtiradi. Ushbu muassasalarning faoliyati o‘ziga xos jihatga ega bo‘lib, bozor konyukturasiga bog‘liqlik darajasi juda yuqori hisoblanadi.

Ishonchli pay fondlari – faoliyati investitsion trestlar faoliyatiga o‘xshash bo‘lib, jamg‘arilgan moliyaviy mablag‘larni kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlariga joylashtiradi.

Boshqa davlatlar markaziy banklarining tuzilmasi va mustaqilligi. 12 okrug banklaridan tashkil topgan, markazlashtirilmagan Federal zahiraviy tizimdan farq qilgan holda, boshqa rivojlangan davlatlardagi markaziy banklar bitta yagona markazlashtirilgan bo‘linmani tashkil qilib, bu bo‘linma hukumatga bo‘ysinadi.

To‘rtta eng muhim, horijiy markaziy banklarning tuzilmasini va mustaqillik darajasini ko‘rib chiqaylik, ularga Kanada Banki, Angliya Banki, Yaponiya Banki va Yevropa markaziy banki kiradi.

Kanada banki

Kanada Banki nisbatan kech shakllangan – 1943 yilda. Uch yillik muddatga hukumat tomonidan saylanadigan bank direktorlari, bank raisini etti yillik muddatga tayinlaydilar. Rais hamda uning to‘rtta o‘rinbosarlaridan iborat bo‘lgan Boshqaruv kengashi – FOMC singari, monetar siyosat bo‘yicha qarorlarni qabul qiluvchi organ bo‘lib hisoblanadi.

1967 yilda qabul qilingan, bank qonunchiligidagi o‘zgarishlarga muvofiq tarzda, hukumat monetar siyosat uchun asosiy ma’suliyatga egadir. Bundan kelib chiqadiki, qonunga binoan Kanada Banki, FRT singari instrumentlarni tanlashda mustaqillikka ega emas. Biroq, tajribada aslida uning o‘zi monetar siyosatni nazorat qiladi. Bank va hukumatning o‘rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan holda, moliya vaziri bank bajarishi majbur bo‘lgan ko‘rsatmani chiqarishi mumkin. Biroq, ko‘rsatma yozma ravishda rasmiylashtirilishi va ma’lum bir davrga tegishli bo‘lishi kerakligi sababli, uning vujudga kelishining ehtimoli kam. Haqiqatdan ham, bugungi kungacha bitta ham bunday ko‘rsatma chiqarilmagan. Monetar siyosatning maqsadi Kanada Banki va hukumat bilan birgalikda belgilanadi. Demak, Kanada Banki, FRTga qaraganda, kamroq darajadagi mustaqillikka ega.

Angliya Banki

1694 yilda barpo etilgan Angliya Banki – eng qadimiy markaziy banklardan biri bo‘lib hisoblanadi. 1946 yildagi Banklar haqidagi Qonunga asosan, Angliya Banki hukumatga bo‘ysinadi. Angliya Banki Boshqaruvi (FRT boshqaruvchilari kengashining ekvivalenti) besh yillik muddatga saylanadigan rais va uning ikkita o‘rinbosari, hamda uch yilga tayinlanadigan 16ta boshqaruv a’zolaridan iborat bo‘ladi.1997 yilga qadar Angliya Banki, ushbu bobda ko‘rib chiqilayotgan markaziy banklar orasida eng kam darajadagi mustaqil bank bo‘lib hisoblangan, chunki foiz stavkalarini o‘zgartirish haqidagi qaror Angliya Banki ichida emas, balki g‘aznachilik kansleri bilan birgalikda qabul qilinar edi (AQSH G‘aznachiligi kotibi ekvivalenti). Buning hammasi, leyboristlarning yangi hukumati 1997 yilning may oyida hokimiyat tepasiga kelgan paytda o‘zgardi. Ushbu paytda, g‘aznachilik yangi kansleri Gordon Braun Angliya Banki endi foiz stavkalarini belgilashga vakolatli emasligi haqida kutilmaganda xabar berdi. Biroq, Bank instrumentlarni tanlashda to‘liq mustaqillikka ega bo‘lmadi: hukumat uning qarorlarini o‘zgartira oladi va foiz stavkalarini “favqulloddagi sharoitda” hamda “cheklangan muddatga” belgilay oladi. Bunga qaramay, Kanadada bo‘lgani singari, ommaviy xarakterga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan va faqatgina eng qattiq sharoitda hamda cheklangan muddat davomida qo‘llanilishi kerak bo‘lgan Bank qarorlarini bekor qilish – vujudga kelish ehtimoli kam bo‘lgan hodisadir.

Foiz stavkalarini, rais, uning ikkita o‘rinbosari, kansler bilan konsultatsiyadan so‘ng tayinlanadigan ikkita a’zo (odatda markaziy bankning mansabdor shaxslari), va kansler tomonidan tayinlanadigan yana to‘rtta tashqi iqtisodchi-ekspertlardan tashkil topgan, monetar siyosat bo‘yicha Ko‘mita belgilaydi. (SHunisi hayratlanarliki, ushbu ko‘mitaga birinchi bor kiritilgan to‘rtta tashqi ekspertlardan

ikkitasi Buyuk Britaniya fuqarolari bo‘lmagan: bittasi golland millatiga mansub bo‘lsa, ikkinchisi amerikalik bo‘lgan, ammo ikkalasi ham doimiy ravishda Birlashgan Qirollikda yashagan). Angliya Banki uchun Inflatsiyaning maqsadli ahamiyatini g‘aznachilik kansleri belgilaydi, bundan kelib chiqib, Angliya Banki, FRTga nisbatan maqsadni tanlashda kamroq darajadagi mustaqillikka ega.

Yaponiya banki

Yaponiya Banki 1882 yilda tashkil topgan. Monetar siyosatni hukumat tomonidan tayinlanadigan va parlament tomonidan tasdiqlanadigan, rais, uning ikkita o‘rinbosari, hamda oltita tashqi a’zolardan tashkil topgan, Siyosiy Kengash olib boradi; ularning hammasi lavozimlarini besh yil davomida egallaydilar.

Ohirgi paytgacha, Yaponiya Banki rasman, u erdagi asosiy rol Moliya vaziriga tegishli bo‘lgan, hukumatdan mustaqil holda faoliyat yuritar edi. Biroq, 1998 yilning aprel oyidan amal qilayotgan, Yaponiya Banki haqidagi yangi Qonun 55 yil davomida ilk marotaba uning vakolatlariga o‘zgartirish kiritdi. Avvalom bor, yangi qonunga binoan, monetar siyosatning maqsadi – narh barqarorligini saqlab qolish. Bundan tashqari, qonun Bankga instrumentlarni va maqsadni tanlashda ko‘proq mustaqillikni ta’minladi. Bundan oldin hukumat Siyosiy Kengashda ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan ikkita vakilga ega edi, Moliya vazirligi va Iqtisodiy rejalashtirish bo‘yicha Agentlikdan bittadan. Endi esa hukumat ushbu ikkita idoraning ikkita vakilini kengash majlislariga yuborishi mumkinligi bilan, ular ovoz berish huquqiga ega emas, faqat monetar siyosat bo‘yicha qarorlarning ijrosini keyinga qoldirishni so‘rashlari mumkin. Bundan tashqari, Moliya vazirligi Bankning ko‘plab operatsiyalarini nazorat qilish imkoniyatini yo‘qotdi, hususan, oliy rahbariyatni ishdan bo‘shatishni. Biroq, Moliya vazirligi Yaponiya Banki byudjetining, monetar siyosatga aloqasi bo‘lmagan, bir qismini nazorat qilishda davom etadi, bu holat Bank mustaqilligini bir oz darajada kamaytiradi.

Yevropa markaziy banki

Maastrixt shartnomasi orqali ta’sis etilgan, Yevropa markaziy banki (EMB) va Yevropa markaziy banklar tizimi o‘z faoliyatini 1999 yilning yanvar oyida boshladilar. Markaziy bank tuzilmasi AQSH FRT tuzilmasi bilan o‘hshash. Alohida davlatlarning banklari, AQSH federal zahiraviy banklari singari, huddi o‘sha pozitsiyalarni egallaydilar. Yevropa markaziy bankining ijroiya organi tarkibiga prezident, vitse-prezident va sakkiz yillik muddatga saylanadigan to‘rtta qolgan a’zolar kiradi. Monetar siyosat bo‘yicha kengash ijroiya kengashining oltita a’zosi va barcha Yevropa davlatlari markaziy banklarining raislaridan tashkil topgan; ularning hammasi kamida 5 yil ishlagan bo‘lishi kerak.

Yevropa markaziy banki – dunyodagi eng mustaqil markaziy bank – hattoki Germaniya markaziy banki (Bundesbank) bilan solishtirganda, ko‘proq darajada mustaqil.

Yevropa markaziy banki monetar siyosatni to‘liq boshqarib, maqsad va instrumentlarni tanlashda mustaqillikka ega – ham Yevropa ittifoqidan, ham boshqa milliy hukumatlardan. Bundan tashqari, EMB narhlarning barqarorligi uchun javob beradi.

12.3. Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi va uni belgilovchi me’zonlar.

Bugungi kunda Markaziy bank mustaqilligini baholash har bir mamlakat uchun bank tizimining nazorat qilinishida va eng asosiysi mamlakatda monetar siyosatning qay darajada olib borilishini baholashda muhim o‘rin tutadi.

Markaziy bank mustaqilligini baholashda xalqaro bank amaliyotida turli xil yondashuvlar mavjud. Ulardan so‘nggilari sifatida “The New Index for Central Bank Independence” reytingli baholash ko‘rsatkichini keltirish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich 0-36 ballgacha oraliqda Markaziy bank mustaqillik darajasini aniqlaydi. Bunda asosiy me’zon qilib, Markaziy bankning 3 guruh: Monetar siyosat mustaqilligi (MSM), Personal mustaqillik (PM) va Moliyaviy mustaqillik (MM) ko‘rsatkichlariga jaratilgan holda ular ham tarkiban balli baholashga asoslanadi.

A. Monetar siyosat mustaqilligi (MSM)

A1. Markaziy bankning konservativlik darajasi yoki samarali maqsad va vazifalarni o‘rnatishdagi mustaqilligi.

a) Monetar siyosatning maqsadi faqatgina baholar barqarorligi yoki baholar barqarorligi asosiy hisoblanib, u uzoq muddatga mo‘ljallangan monetar siyosatning vazifasi bo‘lsa (3 ball)

b) Monetar siyosatning maqsadi baholar barqarorligi va boshqa aspektlar, masalan, moliyaviy barqarorlik, valyuta kursi barqarorligi hamda bank sektori barqarorligini ifodalasa (2 ball)

c) Monetar siyosatning maqsadi baholar barqarorligi va iqtisodiy o‘sish hamda ish bilan bandlik barqarorligini ifodalasa (1 ball)

d) Monetar siyosatning maqsadi to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy o‘sish va ish bilan bandlik barqarorligini qisman ta’minlasa yoki baholar barqarorligini ta’minlashga imkoni yo‘q bo‘lsa (0 ball)

A2. Vazifalar va ko‘rsatgichlarni belgilash mustaqilligi

a) Markaziy bank bir qancha ko‘rsatkichlar yoki vazifalarni, masalan, valyuta kursi, pul agregatlari, foiz stavkasi yoki Inflatsiyani o‘zi o‘rnatishi (3 ball)

b) Markaziy bank va Hukumat birgalikda ko‘rsatkichlar va vazifalarni, masalan, siyosiy bitim va kelishuvlar orqali belgilasa (1,5 ball)

c) Hukumatning o‘zi maqsadga erishish vazifalarini belgilasa (0 ball)

A3. Markaziy bank qo‘llaydigan instrumentlar mustaqilligi darajasi

a) Markaziy bank o‘z maqsadlariga erishishida monetar siyosatning instrumentlarini o‘zi belgilasa (3 ball)

b) Markaziy bank va Hukumat birgalikda monetar siyosatning instrumentlarini o‘zi belgilasa (1 ball)

c) Hukumatning o‘zi instrumentlarini o‘zi belgilashda qaror qabul qilsa (0 ball)

A4. Umumiy siyosat yuritishdagi munozaralar(konfliktlar)

a) Markaziy bank siyosat yuritishda Hukumatdan mutlaq ustunligi (3 ball)

b) Hukumat ushbu jarayonda keyinchalik Markaziy bankga ustunlik berishni maqsad qilsa (0,5 ball)

c) Hukumat mutlaq ustunlikka ega bo‘lsa (0 ball)

A5. Valyuta kursi siyosati koordinatsiyasi

a) Markaziy bank valyuta kursi va xorijiy valyuta kursi siyosatlari barqarorligini saqlab turadi va tijorat banklari tomonidan qaraganda Hukumatga bo‘ysinadi (1 ball)

b) Markaziy bank valyuta kursi va xorijiy valyuta kursi siyosatlarini Hukumat yo‘riqnomalari asosida ishlab chiqsa (0 ball)

A6. Moliyaviy nazorat

a) Bank nazorati Markaziy bank tomonidan amalga oshirilsa va Hukumat organiga hisobot bersa (1 ball)

b) Bank nazorati Markaziy bank va maxsus hukumat organi bilan birgalikda amalga oshirilsa (0,5 ball)

c) Monetar siyosatning funksiyasi va bank nazorati boshqa yagona moliyaviy institut tomonidan amalga oshirilsa (0 ball)

MSM uchun maksimal ball =12 ball

A. Siyosiy mustaqillik yoki personal mustaqillik (PM)

V1. Markaziy bank Raisini tayinlash

a) Markaziy bank Raisi markaziy bank Kengashi yoki boshqa hukumat organlari bilan birgalikda xolisona tayinlansa (2 ball)

b) Hukumat Markaziy bank Raisi nomzodini kiritsa va tayinlasa, masalan, Moliya vazirligi nomzodni kiritsa va Vazirlar Mahkamasi Raisni tayinlasa (0 ball)

V2. Markaziy bank Boshqaruvi vazifasining amal qilish muddati

a) 5 yildan ortiq muddatga (2 ball)

b) 5 yil muddatga (1 ball)

c) 4 yil muddatga (0,5 ball)

d) 4 yildan kam muddatga (0 ball)

V3. Markaziy bank Raisi mustaqilligi

a) Markaziy bank Raisi bankning qoniqarsiz faoliyat ko‘rsatayotganligi ustidan nazorati yuqoriligi (1 ball)

b) Agar boshqa ishtirokchilar transparent bo‘lmasa (0,5 ball)

c) Markaziy bank Raisi Hukumatga bo‘ysinsa (0 ball)

V4. Kengash a’zolarini tayinlash

a) Hukumat kengash a’zolarining yarmidan ko‘pini tayinlasa yoki boshqa organlar, masalan, Moliya vazirligi nomzodlarni kiritsa va qonunchilik organi tayinlasa (3 ball)

V5. Kengash a’zolarining vazifalarining amal qilish muddati

a) 5 yildan ortiq muddatga va o‘zgartirilgan (2 ball)

b) 5 yil muddatga va o‘zgartirilgan (1 ball)

c) 4 yil muddatga va o‘zgartirilgan (0,5 ball)

d) 4 yimldan kam muddatga va o‘zgartirilgan (0 ball)

V6. Markaziy bank Kengashida Hukumatning ishtiroki darajasi

Hukumatning Markaziy bank Kengashida hal qiluvchi ishtiroki bo‘lmasa (2 ball)

a) Hukumatning Markaziy bank Kengashida hal qiluvchi ishtiroki bo‘lsa (0 ball)

PS uchun maksimal ball =12 ball

S. Fiskal mustaqillik yoki moliyaviy mustaqillik (MM)

S1. Majburiyatlar bo‘yicha limitlar (Sek’yuteritizatsiya qilinmagan kreditlar bo‘yicha)

a) Markaziy bankning Hukumat oldida hech qanday majburiyati bo‘lmasa (3 ball)

b) Markaziy bank majburiyatlarning bir qismini zimmasiga olganda (2 ball)

c) Markaziy bank va Hukumat majburiyatlari bo‘yicha hech qanday qonuniy cheklov bo‘lmasa (0 ball)

S2. Sek’yuteritizatsiya qilingan kreditlar bo‘yicha limitlash

a) Markaziy bankning Hukumat oldida hech qanday majburiyati bo‘lmasa (1,5 ball)

b) Markaziy bank majburiyatlarning bir qismini zimmasiga olganda (1 ball)

c) Markaziy bank majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishida qisman cheklov mavjud bo‘lsa (0,5 ball)

d) Markaziy bank va Hukumat majburiyatlari bo‘yicha hech qanday qonuniy cheklov bo‘lmasa (0 ball)

S3. Markaziy bank kreditlari bo‘yicha limitlar o‘rnatish ixtisosligi darajasi

a) Markaziy bank kreditlari absolyut valyuta qiymatida ifodalansa (1,5 ball)

b) Markaziy bank kreditlarining bir qismi Hukumat daromadlari hisobidan amalga oshirilsa (1 ball)

c) Markaziy bank kreditlari to‘liq Hukumat xarajatlari hisobiga bo‘lsa (0 ball)

S4. Kreditlar muddati

a) Markaziy bank kreditlari muddati 6 oydan oshmasa (2 ball)

b) Markaziy bank kreditlari muddati 6 oydan ortiq, lekin 1 yildan oshmasa (1 ball)

c) Markaziy bank kreditlari muddati bo‘yicha hech qanday cheklov yo‘q bo‘lsa (0 ball)

S5. Foiz stavkasi

a) Markaziy bank Hukumatga bozor foiz stavkasida kredit bersa (2 ball)

b) Markaziy bank Hukumatga bozor foiz stavkasidan pastroq, lekin ijobiy stavkada kredit bersa (0 ball)

S6. Hukumat qimmatli qog‘ozlari oldi-sotdisida Markaziy bankning birlamchi bozorda ishtiroki

a) Markaziy bank Hukumatning qimmatli qog‘ozlarini birlamchi bozordan sotib oluvchi sifatida emas, balki volantyor bo‘lib qatnashsa (2 ball)

b) Markaziy bank Hukumatning qimmatli qog‘ozlarini birlamchi bozordan sotib oluvchi va faol ishtirokchi bo‘lsa (0 ball)

MM uchun maksimal ball =12 ball

Maksimal ball: MBM=MSM+PM+MM=36 ball

Markaziy bank mustaqilligini aniqlashda 25 ta mamlakatda tadqiqot o‘tkazilagn bo‘lib, unda monetar siyosat mustaqilligi MSM A1, A2, A3, A4, A5 va

A6 agregatlari yig‘indisidan, PM V1, V2, V3, V4, V5 va V6 agregatlari yig‘indisidan, MM S1, S2, S3, S4, S5 va S6 agregatlari yig‘indisidan iborat.

12.1-jadval

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda Markaziy bank mustaqilligi va inflyatsiya darajasi

Aspektlar/ Davlatlar	**MSM**	**PM**	**MM**	**MBM**	**MBM renkengi**	**Yillik Inflatsiya darajasi**
Buyuk Britaniya	8,5	2	12	22,5	15	1,8
Yangi Zenlyandiya	9	5	12	26	9	2,7
Kanada	10	5	8	23	14	2,6
Shvetsiya	11	6,5	8,5	26	9	2,4
Janubiy Korea	10,5	4,5	7,5	22,5	15	4
AQSH	10,5	10,5	11	32	2	2,8
Avstraliya	7,5	4	12	23,5	13	4,4
Italiya	7,5	7,5	10,5	25,5	10	2,7
Ispaniya	10,5	5	12	27,5	6	3,6
Finlyandiya	9,5	5,5	10,5	26,5	8	2,5
Shvetsariya	10	7,5	11,5	29	4	0,96
Fransiya	9,5	8	11	28,5	5	1,6
Germaniya	12	10	11,5	33,5	1	2,3
Braziliya	8,5	7	11,5	27	7	6,8
Tailand	11	3	11,5	25,5	10	1,7
Chexiya	10	4	10,5	24,5	11	4,7
Chili	12	11	8	31	3	3,6
Polsha	11	5	8	24	12	5,5
Indoneziya	5	8	7	20	17	11,5
Isroil	9,5	5	11,5	26	9	1,2
Janubiy Afrika	9,5	6,5	7	23	14	5,6
Malayziya	8,5	4	11	23,5	13	1,4
Meksika	10,5	5	6	21,5	16	6,3
Hindiston	6,5	2,5	8,5	17,5	18	3,6
Peru	10	10	9	29	4	2

Keltirilgan jadvallar asosida tahlil olib borildi. Jadval ma’lumotlari asosida tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Germaniya (33,5 ball) eng mustaqil Markaziy bankka ega va AQSH 32 ball bilan keyingi o‘rinni egallaydi, shuninngdek Chili (31 ball) va Peru, Shvetsariya (29 ball) shular jumlasidandir. Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya (22,5 ball), Meksika (21,5 ball) o‘rtacha mustaqillikka ega Markaziy bankka ega. Hindiston Markaziy banki (17,5 ball) Indoneziya Markaziy bankidan keyingi o‘rinda turadi.

12.4.Xorijiy davlatlarda markaziy bankning mustaqilligini belgilovchi xususiyatlar.

Markaziy banklar tuzilmasi va mustaqilligi borasidagi bizning kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ohirgi yillarda mustaqillik o‘sishiga nisbatan ahamiyatli moyillik kuzatilmoqda. FRT deyarli barcha qolgan markaziy banklarga qaraganda, etarli darajada mustaqil hisoblanardi. Faqatgina Germaniya va Shveysariya banklari bundan istisno. Bugungi kunda Yevropa markaziy banki FRTga nisbatan ancha mustaqil. Angliya va Yaponiya banklari ko‘proq mustaqilikka ega bo‘ldilar, bu holat ularni FRT va Yangi Zelandiya, Shvetsiya va boshqa Yevropa davlatlarning markaziy banklari bilan bir qatorga joylashtirdi. Ham nazariya, ham tajriba tasdiqlagandek, ko‘proq darajada mustaqil bo‘lgan banklar samaraliroq monetar siyosatni amalga oshiradi.

Markaziy bankning o‘zini tutish sabablari

Byurokratiya o‘zini tutishini baholashga bo‘lgan yondashuvlarning biriga asosan, byurokratik apparat jamiyatning manfaatlari uchun ishlaydi. Biroq, ayrim iqtisodchilar, byurokratik hulq-atvor nazariyasini ishlab chiqqan bo‘lib, bu nazariya byurokratiya faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa omillarning mavjudligini nazarda tutadi. Byurokratiya boyligi hokimiyat darajasi va avtoritetga bog‘liq bo‘ladi. Bunday qilib, ushbu nazariyaga binoan, markaziy bankning hulq-atvorini belgilaydigan eng muhim omil – bu hokimiyatni kuchaytirish va avtoritetni ko‘tarishga intilish. Bu borada markaziy bankning o‘zini tutishi haqida nima desa bo‘ladi? Bir tomondan, Federal zahira, bankirlar va biznesmenlarning kuchli qo‘llab-quvvatlashiga asoslangan holda, o‘z avtonomiyasi uchun kurashadi, bunda Kongressning FRT byudjetini nazorat ostiga olishning yangi va yangi urinishlarini aks ettiradi.

Boshqa tarafdan, FRT, uning avtonomiyasini buzishi mumkin bo‘lgan, nufuzli kuchlar bilan ortiqcha nizolashishdan yiroqda bo‘ladi. Ma’lum bo‘lganidek, FRT etarli darajada sekin ravishda foiz stavkalarini ko‘taradi va iloji boricha muvaffaqiyatli tarzda ularning o‘zgarishini bildirmaslikka xarakat qiladi. Bunday hulq-atvorning sabablaridan biri shundaki – FRT prezident va Kongress bilan foiz stavkalarining o‘sishi borasida nizo kelib chiqishidan qo‘rqadi. SHu sababli ham, FRT faoliyati to‘liq tarzda oshkor qilinmagan.

FRT ning iloji boricha ko‘prok hokimiyatga ega bo‘lish hohishi, shuningdek uning iloji boricha ko‘proq banklarni o‘z nazorati ostiga olishga intilish bilan tushuntiriladi. Ushbu jarayonning kulminatsiyasi – 1987 yilgacha barcha banklarni (nafaqat ularning a’zolarini) FRT zahiraviy talablariga bo‘ysuntirgan qonunchilikning qabul qilinishi.

Byurokratik hulq-atvor nazariyasi FRT xarakatlariga nisbatan qo‘llanilishi mumkin, ammo uni e’tibori faqat o‘z manfaatlariga qaratilgan tizim sifatida ko‘rib chiqish ham noto‘g‘ri. O‘z boyligining maksimizatsiyasi altruizmni inkor etmaydi. Albatta, FRT monetar siyosatini jamiyat manfaatlariga javob berish uchun amalga oshiriladi.

FRS mustaqil bo‘lishi kerakmi

Ko‘rib turganimizdek, FRT – AQSHdagi ko‘proq darajada mustaqil bo‘lgan davlat idoralaridan bittasi. Ayrim vaqtlarda Kongressda uning mustaqillik darajasini pasaytirish kerakmi, degan masala yuzasidan muhokamalar bo‘ladi. FRT ning o‘zini tutishini oqlamaydigan davlat arboblari odatda uning faoliyatini nazorat ostiga olishni taklif qiladi. Savollar yuzaga keladi: “FRT mustaqil bo‘lishi kerakmi? Ehtimol, prezident yoki Kongress boshqaruvi ostidagi markaziy bank mavjud bo‘lgani yaxshimikan?”

Mustaqillik foydasiga dalillar

FRT mustaqilligining himoyasiga eng muhim bo‘lgan dalillardan biri – agarda u siyosiy bosimga bo‘ysunadigan bo‘lsa, bu inflyasion monetar siyosatga olib kelishi borasidagi dalil. Ko‘plab analitiklarning fikricha, demokratik jamiyatdagi siyosatchilar odatda uzoqni ko‘zlamaydilar, chunki ularning asosiy istagi - yaqin oradagi saylovlarda g‘olib chiqish. Ular uzoq muddatli tendensiyalar borasida qayg‘urmaydilar, ular muammoning echimini qisqa muddatli davr mobaynida ko‘radilar.

Yuqorida bayon etilgan dalillarning varianti – AQSHdagi siyosiy jarayon ishbilarmonlik faolligining siyosiy siklini yuzaga keltirishini tasdiqlash: bevosita saylovdan oldin ekspansion siyosat o‘tkazilib, uning asosiy maqsadi ishsizlik va foiz stavkalarini pasaytirish.Saylovdan keyin ushbu siyosatning salbiy natijalari yuzaga keladi – bu yuqori Inflatsiya va yuqori foiz stavkalari, bu esa o‘z o‘rnida qat’iy monetar siyosatning zarurligiga olib keladi. Hukumat aholi ushbu ko‘ngilsiz davrni keyingi saylovgacha esidan chiqarishiga umid qiladi. FRTning prezidentga bo‘ysunishi yana shunisi bilan havfliki, uning pul mablag‘lari G‘aznachilik tomonidan g‘azna obligatsiyalarini sotib olish yo‘li bilan byudjetning kattagina defitsitini moliyalash amalga oshirilishi mumkin. G‘aznachilikning FRTga bosimi Inflatsiyaning keskin sakrashiga olib kelishi mumkin. Mustaqil bo‘lgan FRT esa G‘aznachilikning bosimiga qarshilik qila oladi.

Mustaqillik himoyasiga yana bitta dalil shundan iboratki, monetar siyosatni nazorat qilish siyosatchilar uchun nihoyatda mukammal vazifa bo‘lib, ular bir nechta marta mukammal va muhim masalalarni echa olmaslik qobiliyatini namoyish qilgan edilar.

Mustaqillikka qarshi dalillar

FRTning prezident yoki Kongressga bo‘ysunishining tarafdorlari ma’lum qilishicha, agarda monetar siyosat, hech kimga bo‘ysunmaydigan, tanlangan odamlar guruhi amalga oshirsa, bu demokratik hisoblanmas ekan.

Jamiyat hisoblashicha, prezident va Kongress mamlakatning iqtisodiy gullab-yashnashi uchun javob beradilar, ammo ularga iqtisodiy rivojlanishga ehtimol juda jiddiy ta’sir ko‘rsatib turgan davlat idorasini nazorat qilishlari etishmay turibdi.

Markaziy bank mustaqilligiga qarshi yana bir dalil mustaqil markaziy bank xar doim ham erkinligini muvaffaqqiyatli foydalanmaydi. Misol tariqasida, Buyuk Depressiya davrida FZT so‘nggi kreditor sifatidagi rolini bajara olmadi. 1960-1970 yillarda bu mustaqillik yalpi ekspansion monetar siyosat yuritishdan to‘xtatib qololmadi va ushbu davrda Inflatsiyani tezda o‘sishiga olib keldi.

Markaziy banklarning mustaqilligi va boshqa davlatlardagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar. Markaziy banklarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishlarining tarafdorlari shunga ishonadiki, ularga yanada ko‘proq mustaqillik berilishi

natijasida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ham yaxshilanadi. Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqodlar bu xulosani tasdiqlaydi. Markaziy banklarni, ularning mustaqillik darajasi bo‘yicha ajratsa (eng kichigidan eng kattasigacha), markaziy banklar maksimal darajada mustaqil bo‘lgan davlatlarda Inflatsiyaning eng yaxshi ko‘rsatkichlari mavjud ekanligi aniqlandi. Markaziy banklar uchun mustaqil holat xarakterli bo‘lgan davlatlardagi Inflatsiyaning pastroq templari ishsizlik yoki chiqarish ko‘rsatkichlarini yomonlashtirishi aniqlanmagan. Markaziy banklar mustaqil bo‘lgan davlatlarda ishsizlik darajasi, tobe markaziy banklar mavjud bo‘lgan davlatlardagiga nisbatan uncha yuqori emas.[128]

13-mavzu. Tijorat banklari funksiyalari va ularning operatsiyalari

REJA:

13.1 Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish va uning iqtisodiy va huquqiy asoslari

13.2 Tijorat banklarining funksiyalari va ularning mohiyati

13.3 Tijorat banklarining passiv operatsiyalari

13.4 Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari

13.5 Tijorat banklarining noa’nanaviy operatsiyalari

13.1.Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish va uning iqtisodiy va huquqiy asoslari

aniqli iqtisodchi olimlar, jumladan Lavrushin “tijorat banki – bu tashkilot emas balki korxona deb hisoblaydi. Ularning fikriga ko’ra tijorat banklari ham mahsulot yaratadi. Tijorat banklari nomoddiy shaklga ega bo’lgan mahsulotlarni yaratadi. Misol: **depozit** va **kredit**.

Lekin amaliyotda tijorat banklarini kredit muassasasi va kredit tashkiloti deb atash keng tarqalgan. *Boshqa moliyaviy institutlar ko’plab moliyaviy xizmatlarni taklif qilishlariga qaramasdan, faqatgina banklar bir paytning o’zida depozitlar qabul qiladi va shular hisobidan ssudalar beradi.*

Depozit mahsulotlariga talabga ko’ra yoki ba’zi so’rovdan so’ng haq to’lanadi. Depozitlar banklar foydani maksimallashtirish uchun boshqarilishi kerak bo’ladigan majburiyatlar hisoblanadi. Shuningdek, ular ssuda orqali yaratilgan aktivlarni asosini tashkil qiladi. Shunday qilib, bu faoliyatning asosi depozitchilar va qarz oluvchilar o’rtasidagi vositachilik jarayonidir.[129]

Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatidagi o’ziga xos maqomni quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo’ladi.

Tijorat banklari butun iqtisodiyotda subektlari hamda aholini kreditlaydigan qudratli moliya institutlari hisoblanadi. Bugungi kunda ularning kreditlarisiz biror bir mamlakatda iqtisodiy o’sishni ta’minlash va uy-joy muammosini hal qilish

[128] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited pp. 2013. pp. 361-363

[129] Shelagh Hefferman. Modern banking. John Wiley&Sons. Ltd. 2005.p.1

mumkin emas. Tijorat banklari aholiga va xo'jalik yurituvchi subekt, hisob-kitob kassa xizmat ko'rsatadigan moliyaviy institut hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyati davlat tomonidan qattiq nazorat qiladigan moliya institutidir. Davlat odatda tijorat banklari faoliyatini Markaziy bank orqali nazorat qiladi. Bunday qattiq nazoratning asosiy sababi banklarga depozitlar va omonatlar berish huquqini berilganligidir.

Tijorat banklari shartnoma asosida mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan kredit institutlari hisoblanadi.

Bu moliyaviy xizmatlarning bahosi bank va mijoz o'rtasidagi kelishuvga asoslandi. Hech qaysi davlat organi bank xizmatlari bahosini shakllanish jarayonida aralashishiga haqqi yo'q.

Tijorat banklari mijozlarning bankka jalb etilgan mablag'larini sir tutishi ni kafoltlaydigan moliya institute hisoblanadi. Bu kafolatlar bank siri to'g'risidagi qonunda o'z ifodasini topadi.

Tijorat banklari ishlab chiqarish, sug'urta va savdo faoliyati bilan shug'ullanish man etilgan instituti.

Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lar doirasida kredit resurslarini tashkil qilish va ishlash tamoyili bank faoliyatining poydevori hisoblanib, uning depozit va omonatlar jalb qilishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, passivlarni jalb qilish bo'yicha raqobat muhitining yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Undan tashqari chetdan jalb qilingan va qo'yilgan mablag'lar mutanosibligi banklarda depozitlarni jalb etishga qiziqishni kuchaytiradi va bu mablag'lardan unumli foydalanishga asos yaratadi. Tijorat bankning ikkinchi va asosiy tamoyillaridan biri bu **haqiqatda mavjud bo'lgan mablag'lar chegarasida xizmat ko'rsatish**dir. Tijorat banki boshqa bank vakillik hisob raqamiga naqd pulsiz to'lovni amalga oshirish, boshqalarga kredit xizmatini ko'rsatish va vakillik hisob varag'ida qolgan qoldiq chegarasida naqd pullik operatsiyalarni bajarishi mumkin. Tijorat banklarining haqiqatda mavjud mablag'lar chegarasida faoliyat ko'rsatishi deganda, bankning nafaqat o'z resurs va kredit qo'yilmalarining mutanosibligi, balki bankning aktivlari bilan uning jalb qilingan mablag'lari o'rtasidagi mutanosibligini ta'minlashi tushuniladi. Bunda avvalambor, passivlar va aktivlar muddatlarining bir xilligi inobatga olinishi lozim. Binobarin, agar bank mablag'larni qisqa muddatga jalb etgan bo'lsa va bu mablag'larni o'zoq muddatli ssudalarga joylashtirsa, bankning majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtda amalga oshira olishi bir muncha muammolar bilan bog'liq bo'lishi, bu esa o'z navbatida bankning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bank aktivida risk darajasi yuqori bo'lgan ssudalar miqdorining ko'payishi, bankning resurslari hajmida o'z mablag'lar hissasining oshirilishini taqozo qiladi. Shunga ko'ra, bank faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy normativlarni aniqlashda bank aktivlarining passivlarga mutanosib bo'lishini inobatga olish lozim.

Prinsipal vositachi naariyasi quyidagilar o'rtasidagi bitimlarning xarakterini tushuntirish maqsadida tatbiq qilinadi:

- *Bankning aksiyadori va uning boshqaruvi;*
- *Bank va uning xodimlari;*
- *Bank va qarzdor;*

- *Omonatchilar va bank.*[130]

Prinsipal vositachining xatti-harakati to'g'risida to'g'ri ma'lumotga ega bo'lolmaganligi yoki qiyinlashtirgani uchun rag'batlantirishda muammolar vujudga keladi. Masalan, bank aksiyadorlari boshqaruvning har bir qarorini nazorat qilib chiqolmaydi, depozitorlar bank harakatlarini nazorat qila olmaydi.Natijalar yomon bo'lganda bank boshqaruvi salbiy muvaffaqqiyatsizlikni sabab qilib ko'rsata oladi.

Bankning qiyin muammoga uchrashining asosiy sabablaridan biri prinsipal va agent tomonidan saqlanadigan malumotlardagi har xillik yoki noto'g'ri malumotdir, chunki bank prinsipalda korxona, yakka shaxs va agentdan qarz majburiyatini bajarmaslik to'g'risidagi malumot kamroq bo'ladi.

Ruhiy xavf-xatar prinsipal yoki iste'molchi pulini agentlikka yoki bankka depozitga qo'yishidagi boshqa bir muammodir. Shartnomaning kirib kelishida shuningdek shartnoma kelishuvining o'zgarganida ham manaviy xavf xatar oshadi.[131]

Bank qonun doirasida o'z resurslaridan mustaqil ravishda foydalanishi mumkin, lekin uning aktiv operatsiyalari hajmini ma'muriy taqiqlov usullari bilan chegaralash mumkin emas.

Ma'muriy cheklovlar bir martalik va favqulodli hollarda qo'llanilishi mumkin. Bu cheklovlarni doimiy tarzda qo'llash bankning tijorat asoslarining bo'zilishiga olib keladi. Shunga ko'ra, banklar faoliyatini tartibga solish uchun iqtisodiy me'yorlardan keng foydalaniladi. Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lar doirasida kredit resurslarini tashkil qilish va ishlash tamoyili bank faoliyatining poydevori hisoblanib, uning depozitlar jalb qilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, passivlarni jalb qilish bo'yicha raqobat muhiti yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Undan tashqari jalb etilgan va qo'yilgan mablag'larning mutanosibligi tamoyili banklarda depozitlarni jalb etishga qiziqishini kuchaytirish va bu mablag'lardan unumliroq foydalanishga qaratilgan. Bu tamoyil asosida ishlash tijorat banklarni likvidligini oshirishga yordam beradi.

Uchinchi tamoyil bu **bankning to'la iqtisodiy mustaqilligi**dir. Bu tamoyilga asosan bank o'z va jalb etilgan mablag'lardan mustaqil foydalanishi, mijozlar va omonatchilarni o'zi mustaqil ravishda tanlashi, kredit siyosatini mustaqil to'zishi va amalga oshirishi, foiz stavkalarini mustaqil o'rnatishi va o'zgartirishi, daromadlarni mustaqil ravishda taqsimlashi va boshqa faoliyat turlarini mustaqil bajarishi mumkinligi ko'zda tutiladi. Banklar faoliyati to'g'risidagi amaldagi huquqiy-me'yorlarga asosan barcha tijorat banklari o'z fond va daromadlaridan iqtisodiy jihatdan mustaqil foydalanishlari mumkin.

Tijorat bankining soliq to'lagandan keyingi qolgan foydasi aktsionerlarning umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq taqsimlanadi. Aktsionerlarning umumiy yig'ilishi bankning har turligi fondlarga ajratmalarining norma va miqdorini, aktsiyalarga to'g'ri keluvchi divident summasini belgilaydi.

[130] For a more theoretical treatment, see Bhattahcharya and Pfleiderer (1985), Diamond (1984), and Rees (1985).
[131] Shelagh Hefferman. Modern banking. John Wiley&Sons. Ltd. 2005.p.6

Majburiyatlari bo’yicha tijorat banki o’z mablag’lari va mol-mulki bilan javob beradi. Tijorat banki o’tkazadigan operatsiyalarning riskini o’z zimmasiga oladi.

Uchinchi tamoyil asosida tijorat bank va mijoz munosabatlari yotadi, ya’ni bank ssuda berayotgan bozor mezonlaridan daromad, risk va likvidlik darajalaridan kelib chiqqan holda beradi.

Tijorat bank faoliyatini olib borishning to’rtinchi tamoyili **bank faoliyatining tijoratlashuvi** bo’lib, bunda banklarning tijorat ob’ekti vaqtincha bo’sh turgan pul mablag’lari hisoblanadi. Bu pul mablag’lari bankka tegishli bo’lmagan bo’lsada, faoliyati davomida bank ularni o’z nomidan joylashtiradi.

Bank tijorati kam investitsiya qilib ko’proq daromad olish tamoyiliga asoslangani uchun, uning majburiyatlarining passivlaridagi ulushi kam bo’lishi kerak.

Tijorat banki kredit berish va investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida iloji boricha ko’p daromad olishni mo’ljallaydi.

Undan tashqari bank faoliyatining xavfsizligi ham bank tijoratining asosidan biri hisoblanadi. Bank har doim risk bilan bog’liq faoliyat ko’rsatadi. Bank faoliyatida risk darajasi qancha kam bo’lsa va xavfsizligi yuqori bo’lsa, bankning daromadi ham shuncha ko’p bo’ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatining yana bir muhim tamoyili shundaki, bank iqtisodiy tashkilot sifatida o’zining kapitali, daromadi bilan risk qilishi mumkin, lekin u mijozning daromadi yoki kapitali bilan risk qilishi mumkin emas. O’isqacha qilib aytganda, bank faoliyati **“hamma narsa mijoz uchun”** degan tamoyilga asoslangan bo’lishi kerak. Bu tamoyil bank mijoz uchun to’laligicha javob berish zarurligini bildiradi, uning daromadini ta’minlaydi. Mijozlar tomonidan qaraganda bank har doim sherik tashkilot hisoblanadi. Sheriklik munosabatlari ikki tomonning o’zaro qiziqishlariga va roziliklariga asoslangan holda amalga oshirilishi lozimligi tufayli bank mijozlar manfaatini ta’minlashni birinchi o’ringa qo’yishi lozim.

Tijorat banklari faoliyatining keyingi tamoyili bu banklar ko’rsatadigan xizmatlar va operatsiyalarning **universallashuvi** va **diversifikatsiyasi** bo’lib, banklar faoliyatining turli tarmoq va sohalarni qamrab olishini kam risklilik asosida yuqori daromad olishga yo’naltirilgan bo’lishi lozim.

Banklar qaysi mulk shakliga asoslanganligidan qat’iy nazar ularning faoliyati yuqoridagi tamoyillarga asoslanadi.

Oldingi paragrafda ta’kidlanganidek banklar aktsiyador jamiyat kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi aktsiyador banklar bo’lishi mumkin. Aktsiyadorlar safiga kirish aktsiyalarni sotib olish yo’li bilan amalga oshiriladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aktsiyadorlarini sotib olishi va aktsiyadorlar bo’lishi mumkin.

Ba’zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdagi banklarning qatnashchilari ham huquqiy va jismoniy shaxslar bo’lishi mumkin.

Xususiy banklar-jismoniy shaxslarning pul mablag’lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

Bajaradigan operatsiyalariga qarab tijorat banklari universal va maxsus banklarga bo’linadi.

Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, har xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo’ladi. Maxsus banklar ma’lum yo’nalishlarga xizmat ko’rsatib, o’z faoliyatini shu yo’nalishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag’ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko’rsatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, ipoteka-zamin banklarini kiritish mumkin.

Joylashish belgisiga qarab tijorat banklar: xalqaro, respublika, mintaqaviy, viloyat banklariga bo’linishi mumkin.

Tarmoqlarga xizmat ko’rsatishga qarab: sanoat, qurilish, qishloq xo’jalik, savdo va boshqa banklarga bo’linishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning roli, ularning iqtisodiyotga ta’siri o’sib bormoqda. Kredit muassislari, aholi, korxona, tashkilotlar, kompaniyalarning bo’sh pul mablag’larini yig’ish va joylashtirishdan tashqari, korxonalarning xo’jalik faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi va korxonalar faoliyatini ko’zatib borishi mumkin. Banklar va uning krediti yordamida mavjud kapital tarmoqlar o’rtasida, ishlab chiqarish va muomala sohasi o’rtasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Sanoat, transport, qishloq xo’jaligi sohasida qo’shimcha investitsiyaga bo’lgan talablarni moliyalashtirib, banklar xalq xo’jaligida progressiv yutuqlarga erishishni ta’minlashi mumkin.

Tijorat banklarining iqtisodiy roli uning faoliyat doirasining keng bo’lishiga olib keladi. Bu sababli tijorat banklari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

-vaqtincha bo’sh turgan pul mablag’larni yig’ish va ularni kapitalga aylantirish;

-korxona, tashkilotlar va aholini kreditlash;

-iqtisodiyotda hisob-kitoblar va to’lovlarni amalga oshirish;

-moliya-valyuta bozorida faoliyat ko’rsatish;

-iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va maslahat xizmatlarini ko’rsatish va boshqalar.

13.2.Tijorat banklarining funksiyalari va ularning mohiyati

Tijorat banklarining iqtisodiy mavqei faoliyat doirasining keng bo’lishiga olib keladi. Bankning asosiy faoliyati vositachilik bilan bog‘liq bo‘lib, u pul mablag‘larni qarz beruvchidan qarz oluvchilarga o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni bajarishdan iborat. Banklar bilan bir qatorda pul mablag‘lari harakatini boshqa moliyaviy va kredit tashkilotlari, investitsion fondlar, sug‘urta kompaniyalari ham amalga oshiradilar. Tijorat banklari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi.

1. Vaqtincha bo’sh turgan pul mablag’larni yig’ish va ularni kapitalga aylantirish.

2. Korxona, tashkilotlar, davlat va aholini kreditlash;

3. Muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari) ni chiqarish.

4. Iqtisodiyotda hisob-kitoblar va to’lovlarni amalga oshirish.

5. Moliya - valyuta bozorida faoliyat ko’rsatish.

6. Iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va konsultatsiya xizmatlarini ko’rsatish.

Banklar bo’sh pul mablag’larini yig’ish va ularni kapitalga ayla-ntirish funksiyasini bajara turib, mavjud bo’sh pul daromadlari va jamg’armalarni yig’adi. Jamg’aruvchi (bo’sh pul mablag’i egasi) o’z mab-lag’larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag’lardan foydalangani uchun ma’lum foiz hisobida daromad oladilar. Bo’sh pul mablag’lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond xalq xo’jaligi tarmoqlarini kreditlash uchun ishlatiladi.

Tijorat banklar faoliyatida asosiy o’rinni korxona, tashkilot-larni, aholini, davlatni kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayo-nini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi rolini o’ynaydi. U bo’sh turgan mablag’larni jalb qiladi va o’z nomidan mijozlarga vaqtincha foydalanishga beradi. Bank krediti hisobidan xalq xo’ja-ligining muhim tarmoqlari – sanoat, qishloq xo’jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo’ladi.

Bankning nima uchun mavjudligini uning vositachilik va to’lov funksiyasi izohlaydi, bank tashkiliy strukturasini qanday tashkil qilishi muhim savollardan biridir.

Yuqori foydaga intilayotgan banklar xuddi boshqa korxonalar kabi bir xil maqsadga ega; bu savolga eng yaxshi javob sifatida an’anaviy modellarni ko’rsatish mumkin. Koase o’zining klassik tahlilida bozor narhlariga bog’liq bo’lishdan ko’ra “buyruqbozlik” asosida samaraliroq tashkil qilinadigan ba’zi jarayonlar sababli iqtisodiy faoliyatni tashkil qilishning usuli sifatida firmalar bozor bitimlarida muqobil vosita sifatida faoliyat ko’rsatadi. Bunday holatlarda bozor kuchlariga suyangandan ko’ra korxona strukturasidan foydalangan ko’proq foydaliroqdir. Qarz beruvchi va qarz oluvchi o’rtasida vositachilik qiladigan o’zining mijozlariga hisob-kitob xizmatlarini taklif qiladigan an’anaviy banklarning mavjudligi Koase teoremasi bilan juda mos keladi.

Ssudalar va depozitlar bankning o’zida amalga oshirilganligi uchun bankning asosiy funksiyasi umumiy tashkiliy strukturasi orqali samarali amalga oshiriladi.

Agar banklar buyruqbozlikka asoslangan bozorda qatnashayotgan bo’lsa, bunday struktura ham samarali bo’ladi. Bu qarashlar firmani nazorat qilish ahamiyati va uning rag’batlantirish strukturasining yaratgan Alchain va Demsetz tomonidan yaratildi va izohlab berildi. Villimson firmaning tashqi bitimlar narxini qisqartirishdagi noaniqlik holatini ko’rsatib berdi.[132]

Muomalaga kredit pullarni chiqarish funksiyasi tijorat bank-larini boshqa moliya institutlaridan ajratib turadi. Tijorat banklari depozit-kredit emissiya qilganida, ssudalar

“Banklar va bank faoliyati to’g’risida”

[132] Shelagh Hefferman. Modern banking. John Wiley&Sons. Ltd. 2005.p.5

berganida, pul massasi oshadi va ssuda bankka qaytarilganda, muomaladagi pul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitenti hisob-lanadi. Tijorat bank tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob raqamiga o'tkaziladi va bankning qarz majburiyati ortadi. Mijoz bu mablag'ning ma'lum qismini naqd pul shaklida hisob raqamidan olishi mumkin. Bu holda muomaladagi pul massasining miqdori oshadi. Shuning uchun ham, Markaziy bank tijorat banklarining faoliyati ustidan nazorat olib boradi. Tijorat banklarining muhim funksiyalaridan biri hisob-kitoblarni olib borishdir. Hisob-kitoblarni olib borishda bank mijozlar o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlar chiqarish va joylashtirish bilan ham shug'ullanishi mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiy ahvolni nazorat qilish jarayonida mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berishi mumkin.

Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo'lganligi tufayli uning tashkil topishi o'zoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu vaqt ichida bo'lg'usi ta'sischilar o'rtasida o'zaro munosabatlar o'rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo'lgan mablag'lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi, tegishli tekshiruvdan o'tkaziladi va hokazolar. Bankning vositachilik operatsiyalari bozor iqtisodiyoti tizimini rivojlantirish borasida bank o‘z faoliyatida risk va noaniqlikning oldini olishga sharoit yaratadi. Pul mablag‘lari bank vositachiligisiz ham kreditor va qarz oluvchi orasida muomalada bo‘lishi mumkin, ammo bu bilan mablag‘larni yo‘qotish bilan bog‘liq risk darajasi oshadi va mablag‘larni o‘z vaqtida qaytarib berish muammolari yuzaga keladi. Bu muammolarning yuzaga kelishi shundan iboratki, kreditor va qarz oluvchi bir-birovi haqida yetarli darajada ma'lumotga ega emasligi, mablag‘larga bo‘lgan talabning taklif bilan doimo miqdoran va bir vaqtda teng emasligidadir. Tijorat banklari mablag‘larni depozitga jalb etishi, ssuda berishi mumkin. Bank o‘z aktivlari bo‘yicha keng diversifikatsiya usulini qo‘llab omonatlarni qaytara olmaslik riski darajasini kamaytirishi mumkin.

Iqtisodiy tizimni qayta qurish uchun asosan va birinchi galda ichki xo‘jalik jamg‘armalariga tayanish lozim. Tijorat bank moliya bozoriga kredit resurslariga talab bilan kirar ekan, nafaqat iqtisodiyotda mavjud bo‘lgan barcha jamg‘armalarni maksimal darajada yig‘ishga, balki joriy iste'molni chegaralash bilan jamg‘armani shakllantirishga samarali ta'sir ko‘rsatmog‘i lozim. Jamg‘arma mablag‘larni shakllantirishda tijorat banklarni depozit siyosatining ta'siri katta. Omonatchilarga yuqori foizlardan tashqari, bank kreditlariga yuqori kafolat va ishonchlilik kerak. Omonatlarni qo‘yishda xavfsizlik bilan bir qatorda mijoz tijorat bank faoliyati etarlicha ma'lumotga ega bo‘lishi va bu bilan u bankni moliyaviy ahvoliga baho bera olishi mumkin.

Tijorat banklar faoliyatida asosiy o‘rinni korxona, tashkilotlarni, aholini va turli sub'ektlarni kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi rolini o‘ynaydi. U bo‘sh turgan mablag‘larni jalb qiladi va o‘z nomidan mijozlarga vaqtincha foylanishiga beradi. Bank krediti hisobidan

iqtisodiyotning muhim tarmoqlari-sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo‘ladi.

Tijorat banklari shartnoma asosida bir-birlarining mablag‘larini depozit, kredit shaklida jalb etishlari, joylashtirishlari, o‘z ustavlarida ko‘rsatilgan boshqa o‘zaro operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Mijozlarga kredit berish va o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun mablag‘ etishmay qolgan taqdirda tijorat banklari kredit resurslari olish uchun Markaziy bankka murojat qilishlari mumkin.

Tijorat banklari operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalari ularning o‘zlari tomonidan mustaqil belgilanadi. Ammo bu stavkalar davlat pul-kredit siyosatining bosh yo‘nalishlarida belgilab beriladigan foiz stavkalari siyosatiga asoslangan bo‘lishi lozim.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida qimmatli qog‘ozlar bozorining yaxshi taraqqiy etmagan bosqichlarida iqtisodiyotda mavjud bo‘lgan asosiy moliyaviy resurslar banklarga omonatlarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

Banklarning keyingi funksiyasi bu mustaqil sub’ektlararo to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish funksiyasidir. Rejali iqitsodiyot davrida barcha to‘lovlar bir davlat banki orqali amalga oshirilgan, hisob-kitoblarni bunday tizimida to‘lovlarni amalga oshirishda davlat o‘zi kafil bo‘lardi. Mustaqil tijorat bank tizimini shakllantirish hisob-kitob tizimini ajralishiga olib keladi va banklar o‘z zimmalariga oladigan risk darajasini ko‘paytirdi. MFO hisob varaqalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan hisob-kitoblar o‘rniga banklararo hisobning korrespondent schetlarga o‘tishi ham risk darajasini ko‘payishiga olib keldi. Bunday sharoitda tijorat banklar, mijozlar hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishilishi bo‘yicha mas’uldir.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha mamlakatlarda tijorat banklar iqtisodiyotining to‘lov mexanizmida etakchi o‘rin tutadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyot to‘lovlarni amalga oshirishni isloh qilish va rivojlantirish orqali mamlakatimiz to‘lov tizimida tijorat banklarning o‘rni kengaymoqda.

Undan tashqari tijorat banklar moliya-valyuta bozorida faoliyat ko‘rsatish, ya’ni qimmatli qog‘ozlar chiqarish va ularni joylashtirish, sotib olish bilan shug‘ullanishi, mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berish bilan shug‘ullanishi mumkin.

Tijorat banklari yuqorida keltirilgan funksiyalar asosida quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

-passiv operatsiyalar;

-aktiv operatsiyalar;

-bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;

-bankning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalari va boshqa turdagi operatsiyalarni bajaradilar.

Tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi Qonunda ifodalangan. Shu qonunning 2-bobi “Banklarni tashkil etish va ular faoliyatini tugatish tartibi” deb nomlanib o’z ichiga 13 modda(7-19 moddalar)ni oladi.

13.3 Tijorat banklarining passiv operatsiyalari

B ankning passiv operatsiyasi - banklarning vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish bilan bog‘liq operatsiyalari passiv operatsiyalar hisoblanadi. Bankning asosiy vazifalaridan biri bo‘sh pul mablag‘larini mumkin qadar ko‘prok jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Tijorat banklari asosan jamiyatdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni jalb qilish va ushbu mablag‘larni tegishli maqsadlarga joylashtirish orqali tegishli foydani shakllantiradi. Banklarning vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish bilan bog‘liq operatsiyalari passiv operatsiyalar hisoblanadi. Banklarning passiv operatsiyalari tegishli xarajatlar evaziga amalga oshirladi.

Demak, tijorat banklari passiv operatsiyalari natijasida moliyaviy resurslarni shakllantiradi. Resurslar ikkita yirik manba: jalb qilingan mablag‘lar va o‘z mablag‘laridan iborat. Resurslar bank balansining passivida hisobga olib boriladi. Tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar (jalb qilingan mablag‘lar) tashkil etib, ular jami bank resurslari tarkibida 85–90 foizdan iborat bo‘ladi.

Bankning passiv operatsiyasi - Banklarning vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish bilan bog‘liq operatsiyalari passiv operatsiyalar hisoblanadi.

Majburiyatlarni muddati va vujudga kelish manbasiga qarab: –barqaror va –beqaror mablag‘larga, ular uchun to‘lanadigan xarajatlar miqdoridan kelib chiqib: –arzon va –qimmat mablag‘larga ajratish mumkin.

***Jalb qilingan mablag‘larning manbasi*:**

1. Depozitlar

1. CHaqirib olinguncha saqlanadigan depozitlar;
2. Muddatli depozitlar;
3. Jamg‘arma depozitlar.

Xalqaro bank amaliyotida bank resurslari tarkibida depozit mablag‘lar, ayniqsa muddatli depozitlar asosiy ulushni tashkil etadi. Bank resurslari tarkibida muddatli depozitlar ulushining yuqoriligi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga va to‘lovga layoqatliligini ta’minlashga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’kidlash lozimki, respublikamiz tijorat banklari resurslari tarkibida muddatli mablag‘larning ulushi o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2001 yil 1 yanvar holatiga taxminan 7 – 8 foizni tashkil etgani holda, 2008 yil 1 yanvar holatiga 17 foizga, 2010 yilda 35 – 40 foiz yaqin darajani tashkil etgan.

Depozitsiz mablag‘lar – depozit bo‘lmagan mablag‘lar bo‘lib, bunda o‘z ichiga banklararo kredit resurslari, hukumat hisobvaraqlaridagi vaqtincha bo‘sh mablag‘lar, tijorat banklaridan olingan resurslar va boshqa mablag‘lar kiradi

1. *Depozitsiz mablag‘lar*
1. Banklararo kredit resurslari;
2. Hukumat hisobvaraqlaridagi vaqtincha bo‘sh mablag‘lar;
3. Tijorat banklaridan olingan resurslar;
4. Boshqa mablag‘lar.

Banklarning depozit bo‘lmagan mablag‘lari tarkibida moliya bozoridan jalb qilingan banklararo kredit resurslari asosiy salmoqni egallaydi. Banklararo kreditlar asosan qisqa muddatli xarakterga ega bo‘lib, odatda ushbu kreditlarni berish va olish jarayoni o‘zining tezkorligi bilan muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon bo‘yicha asosiy operatsiyalar banklarning vakillik hisobvaraqlari doirasida amalga oshiriladi. Ya’ni, tijorat banklari o‘zaro kelishuvga erishganda mablag‘lar vakillik hisobvaraqlari orqali o‘tkazib beriladi. Shu bilan birga, ushbu kreditlar tijorat banklari uchun nisbatan arzon va muddati jihatidan «uzun» mablag‘lar hisoblanadi.

Banklar faoliyatini tartibga solishning iqtisodiy tahlili.

Bizga ma’lumki, moliya tizimi-iqtisodiyotning eng ko’p tartibga solinadigan sektorlaridan biridir, banklar esa,- eng ko’p tartibga solinadigan moliyaviy muassasadir. Afsuslar bo’lsinki, tartibga solish har doim ham kutilgan natijalarga olib kelmaydi, chunki yaqinda bank tizimida bo’lib o’tgan inqirozlar buni isbotladi. Ular nafaqat AQShga, balki jahonning ko’pgina mamlakatlariga yopirildi. Ushbu bobda biz bank faoliyatining iqtisodiy tahlili yordamida jahon bank inqirozining kelib chiqish sabablarini tushuntiramiz va tartibga solish tizimining kelgusida inqirozlarni bartaraf etish etishini yoritib beramiz[133].

Axborotlarning va bank faoliyatini tartibga solishning tarqoqliligi.

Oldinigi boblarimizda biz axborotlarning tarqoqliligini-(shu yaqqol isbotlandiki, moliyaviy bitimni kelishgan tomonlar teng darajada axborotdan xabardor bo’lmagan) noto’g’ri tanlash va ma’naviy riskka olib kelishini AQSh moliya tizimiga katta ta’sir ko’rsatishini kuzatdik. Axborotlarning tarqoqliligi noto’g’ri tanlash va ma’naviy risk kontseptsiyasi nima uchun AQSh va boshqa davlatlar hukumatlari banklar faoliyatini tartibga solishning mayyan shaklini tanlab olganliklarini tushuntirishga yordam beradi. Banklar faoliyatini tartibga solishning jami sakkiz turi mavjud: omonatlar xavfsizligining davlat tizimi; bank aktivlari tarkibiga cheklovlar; kapitalga nisbatan talablar; banklarni litsenziyalash va tekshirish; risklarni boshqarishni baholash; axborotlarni ochishga nisbatan talablar; iste’molchilarni himoya qilish; raqobatni cheklash[134].

Omonatlar xavfsizliginining davlat tizimi.

www.nv.frb.org/piohome/regs.html

Banklar faoliyatini tartibga solish haqida axborot.

8-bobdan bilamizki, banklar noto’g’ri tanlash va ma’naviy risk muammosini muvaffaqiyatli hal etish mumkin, chunki ular xususiy ssudalar beradilar, bu esa “chiptasizlik” muammosini chetlab o’tishga imkon beradi. Bu boshqa muammolarni keltirib chiqaradi,-ya’ni axborotning tarqoqliligi, chunki bunda

[133] Mishkin, Frederic S. The ecocnomics of money, banking, and financial markets. Seventh edition. Columbia University - 2004. Page 260.

[134] Mishkin, Frederic S. The ecocnomics of money, banking, and financial markets. Seventh edition. Columbia University - 2004. Page 260.

omonatchilar bunday xususiy ssudalar sifati haqida etarli darajada xabardor bo'lmaganlar. Bunkdan nima uchun bank tizimi to'liq ravishda yaxshi faoliyat yurita olmayapti, degan ikkita sabab kelib chiqadi[135].

Birinchidan, 1934 yilga qadar Omonatlarni sug'urta qilish Federal korporatsiyasi (OSQFK) o'z faoliyatini boshlaganida banklarning bankrotliligi (banklarning monatchilar va kreditorlar oldidagi majburiyatlari javob beraolmay qolishi va o'z faoliyatini to'xtatish holati) shunday vaziyatlarga olib kelgan ediki, omonatchilar o'z depozitlarini banklar likvidatsiya bo'lganiga qadar kutishga majbur edilar (ya'ni, aktivlari naqd pul mablag'lariga aylangunga qadar kutar edilar).O'sha paytlarda omonatchilarga mablag'larning faqat bir qismini qaytarar edilar. Bank menedjerlari kimlar ekanligi haqida etarli tasavvurga ega bo'lmasdan va ular katta miqdordagi risklarni qabul qiladimi, yo'qmi, omonatchilar esa banklarga o'z jamg'armalarini xoxlamasdan olib borar edilar. Banklar esa, o'z navbatida, etarli darajada faoliyat yuritishga qodir emas edilar[136].

Ikkinchidan, omonatchilarning bank aktivlari sifati haqida etarlicha xabardor emasligi, bank shov-shuvlariga olib kelishi mumkin edi, buni biz 8 bobdan yaxshi bilamiz, bu iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Buni tushunish uchun quyidagi holatni tasavvur qilamiz. Depozitlar sug'urta qilinmagan va iqtisodiyot tepki ostida qolmoqda. Natijada banklarning 5 foizi ssudalar bo'yicha juda katta yo'qotishlarni boshidan kechiradi, to'lovga qobil bo'lmay qoladi (banklarning sof qiymati salbiy ko'rsatkichga aylanadi va ular bankrot bo'ladi). Axborotlarning tarqoqliligi natijasida omonatchilar o'zlarining mablag'lari barqaror faoliyat ko'rsatayotgan bankdami? yoki yuqorida qayd etilgan 5 foiz yomon holatga tushib qolgan banklardami?, degan savolga javob ololmaydilar. Omonatchilar yaxshi banklardan ham yomon banklardan ham o'z depozitlarining har bir dollaridan 100 tsentni xoxlasalar ham qaytarib ololmaydilar[137]. Banklar mijozlarning talablarini navbati bilan qondirar ekan, omonatchilar birinchi bo'lib bankka kelishlari va o'z pullarini qaytarib olishlaridan juda minnatdorlar, chunki, omonatchilar bankka kelishni cho'zib yuborsalar banklarning resurslari vaqt o'tishi bilan tugashi va omonatchilar hech vaqosiz qolishlari mumkin. Bank tizimining umumiy holatidagi noaniqliklar shunday vaziyatga olib kelishi mumkinki, omonatchilar ishonchsiz va ishonchli banklardan ham o'z pullarini olib keta boshlaydilar va bitta bankning bankrotliligi boshqa banklarning bankrotliligiga olib kelishi mumkin (bunday holatni yuqumlilik ta'siri, deb atashadi). Agar banklarga bo'lgan ijtimoiy ishonchni tiklash bo'yicha hech nima qilmasdan qo'l qovushtirib o'tirsa, ushbu holat bank shov-shuvlariga ham olib kelishi mumkin[138].

Real holatda bank shov-shuvlari XIX asrning oxiridan XX asrning boshiga qadar AQSh tarixining bir qismiga aylandi. Ushbu shov-shuvlarning eng yiriklari har 20 yilda sodir bo'la boshladi. Xususan, 1819 yilda, 1837, 1873, 1893, 1930-

[135] Mishkin, Frederic S. The ecocnomics of money, banking, and financial markets. Seventh edition. Columbia University - 2004. Page 260.

[136] Mishkin, Frederic S. The ecocnomics of money, banking, and financial markets. Seventh edition. Columbia University - 2004. Page 261.

[137] Mishkin, Frederic S. The ecocnomics of money, banking, and financial markets. Seventh edition. Columbia University - 2004. Page 261.

[138] Mishkin, Frederic S. The ecocnomics of money, banking, and financial markets. Seventh edition. Columbia University - 2004. Page 261.

1933 yillarda. Banklarning bankrotga uchrash holatlari hatto iqtisodiy o'sish davrida ham jiddiy muammoga aylandi. 1920 yillarda banklarning bankrotlikka uchrash holatlari soni o'rtacha 600 taga etdi[139].

Omonatlarning xavfsizligini ta'minlashning davlat tizimi omonatchilarning banklarga bo'lgan e'tirozlarini bartaraf etish va bank shov-shuvlari paydo bo'lishining oldini olishi mumkin hamda omonatchilarning banklarga omonatlarini joylashtirmaslik xoxishlarini bartaraf etishi mumkin. Omonatlar xavfsizligini ta'minlashning shakllaridan biri bu depozitlarni sug'urta qilish, kafolat yuzaga chiqdi. Bu esa, AQShda OSQFK ta'minlandi. Bunda omonatlarning bank depozitlariga qo'yilgan dastlabki 100 ming dollari bankka nima bo'lishidan qat'iy nazar, omonatchilarga to'liq ravishda to'lab beriladi[140]. Agar depozitlar bo'yicha to'liq qoplash nazarda tutilgan bo'lsa, omonatchilar o'z pullarini qaytarib olishlari uchun banklarga yugurib borishlari shart emas, hatto ular bank muassasining moliyaviy sog'lomligi bo'yicha vahimaga tushgan bo'lsada. Chunki, ularning omonatlarining har bir dollari uchun 100 tsent hisobida bankka nima bo'lishidan qat'iy nazar, to'liq qaytarib beriladi. 1930 yildan 1933 yilga qadar, ya'ni bevosita OSQKF paydo bo'lganiga qadar banklarning o'rtacha yillik bankrot bo'lish holati yiliga 2000 tagacha etdi. 1934 yilda OSQKF tashkil etilganidan keyin banklarning bankrot bo'lish holati kamaydi va 1981 yilga kelib banklarning bankrot bo'lish holtlari soni yiliga 15 tadan ham kamayib ketdi141.

OSQKF bankrot bo'lgan banklar bilan ishlashda ikkita asosiy usuldan foydalanadi. To'lash usuli deb nomlangan birinchi usuldan foydalanilganda banklarning bankrot bo'lishiga yo'l qo'yiladi va omonatchilarga belgilangan 100 ming dollarlik limit to'lab beriladi OSQKF sug'urtasiga ega bo'lgan banklar tomonidan to'lanadigan mablag'lar hisobidan sug'urta to'lovlari sifatida tushgan pul mablag'lari hisobidan to'lab beriladi. Bank likvidatsiya qilinganidan keyin OSQKF boshqa kreditorlar bilan aktivlarni sotishdan tushgan mablag'lar bilan hisob-kitob qiladi. Odatda to'lab berish usuli qo'llanilganida omonatchilarning 100 ming dollardan ortgan omonatlarining 90 foizi kompensatsiya qilinadi va u bir necha yillarga cho'zilishi mumkin142.

Xalqaro bank amaliyotida banklarning depozit bo'lmagan resurslari tarkibida asosiy yirik manbalardan biri qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Banklar moliyaviy resurslarni shakllantirish maqsadida aksiya, obligatsiya, depozit va jamg'arma sertifikatlarni muomalaga chiqaradi. SHuningdek, tijorat banklari uzoq muddatli resurslarini shakllantirishda ipoteka va subordinar qimmatli qog'ozlari muhim o'rin tutadi. Banklarning qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali resurslarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarini ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq.

---

[139] Mishkin, Frederic S. The ecocnomics of money, banking, and financial markets. Seventh edition. Columbia University - 2004. Page 261.

[140] Mishkin, Frederic S. The ecocnomics of money, banking, and financial markets. Seventh edition. Columbia University - 2004. Page 261.

[141] Mishkin, Frederic S. The ecocnomics of money, banking, and financial markets. Seventh edition. Columbia University - 2004. Page 261.

[142] Mishkin, Frederic S. The ecocnomics of money, banking, and financial markets. Seventh edition. Columbia University - 2004. Page 261.

Birinchi guruhga, tijorat banklari ustav va qo‘shimcha kapitalini shakllantirish maqsadida aksiya va subordinar qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish bo‘yicha operatsiyalari, ikkinchi guruhga esa qisqa va uzoq muddatli resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qoplash uchun obligatsiya va ipoteka qimmatli qog‘ozlari, depozit va jamg‘arma sertifikatlari bilan bog‘liq operatsiyalari kiradi.

Aksiya va sertifikatlarning bozor bahosi banklarning ushbu bozordagi faoliyatini baholovchi iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Tijorat banklari aksiyalari va sertifikatlarning bozor bahosi ortib borishi ularning oldi–sotdisiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pchilik hollarda tijorat banklari o‘z aksiyalari va sertifikatlarining ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi bahosini oshirish maqsadida investitsion kompaniyalar orqali investor sifatida ham maydonga chiqishi mumkin.

Tijorat banklari aksiyalari va sertifikatlarning bozor bahosi moliya bozoridagi mavjud talab va taklif asosida o‘rnatiladi. Aksiya va sertifikatlarning nominal va bozor bahosi o‘rtasidagi farq ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Agar ushbu farq ijobiy bo‘lsa, tijorat banklari moliyaviy jihatdan barqaror va raqobatbardosh ekanligidan dalolat beradi. Mazkur holat banklarning qimmatli qog‘ozlar orqali resurslarini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tijorat banklari aksiya va sertifikatlarining bahosiga ta’sir qiladigan asosiy omillardan biri ularga to‘lanadigan dividend va foiz to‘lovlari hisoblanadi. Aksiya va sertifikatlarga to‘lanadigan to‘lovlar miqdorining yuqoriligi va barqarorligi banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emitent nufuzini oshirishga bevosita ta’sir qiladi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatning asosida iqtisodiy foyda olish yotadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emitent, investor yoki vositachi sifatidagi ishtirokiga iqtisodiyotdagi inflyasiya darajasi bevosita ta’sir qiladi. SHu bois, banklar qimmatli qog‘ozlar bozorida, ayniqsa emitent sifatida qatnashganida inflyasiya darajasini inobatga olishi lozim.

Tijorat banklari mablag‘lari ikkinchi yirik manbasini ularning kapitali tashkil etadi. Bank kapitali tarkibida ustav kapitalining tashkil topishi va barqarorligi jihatidan muhim moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi.

O‘z mablag‘lari manbasi:

2. Umumiy kapital

3. Asosiy (birinchi darajali) kapital:

4. Ustav kapitali;
5. Emission daromad;
6. Maxsus zaxiralar;
7. Taqsimlanmagan foyda.

8. Qo‘shimcha (ikkinchi darajali) kapital:

9. Joriy yilning sof foydasi;
10. Qayta baholash zaxirasi;
11. Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari;
12. SHo‘‘ba korxonalarga qilingan quyilmalar.

Yuqoridan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklari regulyativ kapitali birinchi va ikkinchi darajali kapitaldan tashkil topadi. Iqtisodiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar

va Bazel andozalariga ko‘ra birinchi darajali kapital asosiy kapital sifatida ham e’tirof etiladi.

Tijorat banklari asosiy kapitali - xalqaro Bazel andozalariga asosan ustav kapitalining to‘langan qismi, muddatsiz nekumulyativ imtiyozli aksiyalar, emission daromad, sof foyda hisobidan shakllantirilgan zaxira summalari va o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan tashkil topadi.

Tijorat banklari asosiy (birinchi darajali) kapitali xalqaro Bazel andozalariga asosan ustav kapitalining to‘langan qismi, muddatsiz nekumulyativ imtiyozli aksiyalar, emission daromad, sof foyda hisobidan shakllantirilgan zaxira summalari va o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan tashkil topadi.

Tijorat banklari ikkinchi darajali (qo‘shimcha) kapitali kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxiraning riskka tortilgan aktivlar miqdori 1,25 foizidan oshib ketmaydigan qismi, qayta baholash zaxirasi, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari va konsolidatsiyalashgan sho‘‘ba korxonalarini tashkil etish maqsadiga yo‘naltirilgan qo‘yilmalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston tijorat banklari kapitalining tarkibi va uning etarliligiga qo‘yilgan talablar Markaziy bankning 1998 yil 2 noyabrda tasdiqlangan 420–sonli «Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida Nizomi» asosida tartibga solinadi.

O‘zbekiston tijorat banklari birinchi darajali kapitali tarkibiga xalqaro Bazel andozalaridan farqli o‘laroq, bankning ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo‘lgan valyuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya zaxirasi alohida manba sifatida e’tirof etiladi. SHuningdek, tijorat banklarining joriy yildagi sof foydasi ikkinchi darajali kapitali tarkibiga kiritilgan.

Mazkur paragrafning poyonida ta’kidlash mumkinki, tijorat banklari passiv operatsiyalari natijasida aktiv operatsiyalar uchun zarur bo‘lgan resurslarni shakllantiradi, banklarning passiv operatsiyalari xarajatlarni keltirib chiqaradi.

uridik va jismoniy shaxslar pul mablag‘larini bank xisobvarog‘iga, jamg‘armalar qo‘yishga jalb qilish bo‘yicha passiv operatsiyalar.

Y

Tijorat banklari, boshqa xo‘jalik sub’ektlari kabi o‘zining xo‘jalik va tijorat faoliyatini ta’minlash uchun ma’lum miqdorda pul mablag‘lariga, ya’ni resurslariga ega bo‘lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, ya’ni iqtisodiyotning bozor modeliga o‘tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatiladi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Undan tashqari, uning aktiv operatsiyalari ob’ekti orqali aniqlanadigan bank faoliyatining ko‘lami, ular joylashtiradigan resurslar hajmi, miqdori, jalb qilingan

mablag‘lar summasiga bog‘lik bo‘ladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish bo‘yicha banklar o‘rtasida raqobatni keltirib chikaradi.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo‘sh pul mablag‘larini mumkin qadar ko‘prok jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi. Bank resurslarini ikki katta guruhga bo‘lish mumkin. Bular, banklarning o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lardir. Jalb qilingan resurslarni ba’zi hollarda ikkiga bo‘lib qaraladi – bu jalb qilingan depozitlar, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurlardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya’ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o‘zaro chambarchas bog‘lik bo‘lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko‘p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi. Shu bilan birga resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o‘zgarishi ham ta’sir kiladi.

Bank resurlarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag‘lari tashkil kiladi. Bank boshqa kapitallarni jalb qilish uchun bank o‘z kapitalining etarli darajasi miqdorini ko‘rsatish lozim.

Tijorat banki o‘z mijozlarining bo‘sh turgan mablag‘larini qarzga olish bilan bir vaqtning o‘zida bu mablag‘larni o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo‘lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo‘lib, ular aholining bo‘sh turgan pul mablag‘larining bankka sari oqimini ta’minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo‘lgan holatda mijozlar o‘z mablag‘larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil kiladi va bu esa uz navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos xisoblanadi.

Jalb qilingan mablag‘lar aktiv operatsiyalarni, avvalo kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul resurslariga bo‘lgan ehtiyojni qoplaydi. Ularning roli juda katta bo‘lib, bank resurslarining 70%dan ortig‘ini tashkil qiladi. Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh mablag‘laridan foydalanish orqali, tijorat banklari ular yordamida xalq xo‘jaligining va aholining qo‘shimcha aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi, pullarni kapitalga aylanishiga yordam beradi.

Banklar mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo‘lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turadi. Jalb qilingan mablag‘lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank kapitali bilan jalb qilingan mablag‘lar orasidagi nisbatni bir qator zaruriy me’yorlar yordamida tartibga soladi. Bu quyidagi normativlar: kapital etarliligi, bir kredit oluvchiga to‘g‘ri keladigan maksimal risk miqdori, aholidan jalb qilingan depozitlarning maksimal miqdori va boshqalar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yo‘riqnomasiga muvofiq,

aholidan pul omonatlarini jalb qilish miqdori bankning o‘z kapitali miqdori bilan chegaralanadi.

Hozirgi kunda banklar amaliyotida mavjud me’yoriy hujjatlargi asosan:

1. davlat ixtisoslashtirilgan banklar bazasida tashkil topgan tijorat banklari uchun jalb qilinadigan mablag‘lar hajmi o‘z kapitalining 25 barobaridan oshmasligi kerak;
2. yopiq turdagi aktsioner banklar uchun 20 barobardan oshmasligi;
3. ochiq turdagi aktsioner banklar uchun 15 barobardan oshmasligi kerak.

Rejali iqtisodiyot davrida banklarda bo‘sh turgan mablag‘larini jalb qilishdan manfaatdorlik yo‘q edi, chunki banklarning aktiv operatsiyalari miqdori jalb qilingan mablag‘lar miqdoriga qarab emas, balki kredit qo‘yilmalar bo‘yicha o‘rnatilgan limitga qarab aniqlanar, jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha rag‘batlantirish bilan banklar shug‘ullanmas edilar. Aksariyat hollarda yirik loyihalarni amalga oshirish uchun bank ssudalari o‘rniga ko‘proq byudjet mablag‘lari jalb qilinar edi. Shu bois muddatli omonatlarni o‘rta va uzoq muddatli kredit manbalari sifatida jamg‘arishga ehtiyoj bo‘lmagan.

Ikki pog‘onali bank tizimiga o‘tilishi, iqtisodiy mustaqil tijorat banklarining tashkil topishi, banklarning o‘z-o‘zini moliyalashtirish tamoyiliga o‘tishi, passivlar va aktivlar muvofiqligiga erishish muammosi bank faoliyatida dolzarb masalalarga aylandi. Bozor munosabatlarining rivojlantirish bank resurslarining ham turli-tumanlashuviga olib keldi.

Banklar jalb qiladigan mablag‘lar tarkibi turlicha bo‘ladi. Ularning asosiy turlariga quyidagilar kiradi: bank mijozlar bilan ishlash jarayonida jalb qilgan mablag‘lar (depozitlar), o‘z qarz majburiyatlarini chiqarish yo‘li bilan mablag‘larni to‘plash (depozit va jamg‘arma sertifikatlarini, veksellar, obligatsiyalar) va banklararo kredit vositasida boshqa kredit tashkilotlaridan olinadigan va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olinadigan ssuda mablag‘lari va boshqalar kiradi. Xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan resurslar ularni yig‘ish usuliga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

4. depozitlar;
5. nodepozit resurslar.

Jalb qilingan mablag‘larni asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi.

Banklarda maqsadlarni amalga oshirish uchun pul mablag‘larini qo‘yilmalarga jalb qilish operatsiyalari depozit operatsiyalari deyiladi.

Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga bankka ham manfaatlidir. Ko‘pgina depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi, keyinchalik esa bank turli xo‘jalik sohalarini qulay shartlar asosida kreditlaydi. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi bank marjasi (mukofoti) bo‘lib hisoblanadi.

Bankning «Oltin qoidasi»ga ko‘ra, bank moliyaviy talablarining hajmi va muddati bank majburiyatlari miqdori va muddatiga mos kelishi kerak. Bu qoidaga rioya qilib, banklar joriy schetlar bo‘yicha qoldiqlarni kredit resursi sifatida ishlata olmaydilar, chunki mijozlar ularni xohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin. Vaholanki, mijozlar, odatda, o‘z mablag‘larining hammasini birdaniga olishmaydi, shuning uchun, bankning naqd pul rezervi omonatlarga nisbatan shakllanadi.

Bundan tashqari, aksariyat bank operatsiyalari naqd pulsiz ko‘rinishda amalga oshiriladi. Kassa zahiralari ko‘rinishida bo‘lmagan naqd pullar bank likvidligini oshiradi va u boshqa mijozlarga yoki bankka kredit sifatida yo‘naltirilishi mumkin. Kassa zahiralaridan tashqari tijorat banklari tomonidan depozitlardan kredit resursi sifatida foydalanishda boshqa cheklovlar bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘rnatiladigan majburiy zahiralar shaklida ifodalanadi.

Depozit hisobvaraqalari turlicha bo‘lishi mumkin va ularning tasniflanishi asosida qo‘yilmalar manbai, ularning maqsadli yo‘naltirilganligi, daromadlilik darajasi va boshqa shu kabi mezonlar etadi, ammo aksariyat hollarda mezon sifatida pul qo‘yuvchi toifasi va qo‘yilmani olish shakllari inobatga olinadi.

Pul qo‘yuvchilar toifasidan kelib chiqqan holda, depozitlar quyidagilarga bo‘linadi:

1. yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar);
2. jismoniy shaxslar;

Mablag‘larni olish shakliga ko‘ra depozitlar quyidagilarga bo‘linadi:

3. muddatli depozit mablag‘lar;
4. talab qilib olingunga qadar depozit mablag‘lar;
5. aholining jamg‘arma qo‘yilmalari.

O‘z navbatida bu guruhlarning har biri turli belgilariga qarab tasniflanadi. Muddatli depozit mablag‘lar ularning muddatidan kelib chiqib tasniflanadi;

6. 3 oy muddatgacha depozitlar;
7. 3 oydan 6 oygacha depozitlar;
8. 6 oydan 9 oygacha depozitlar;
9. 9 oydan 12 oygacha depozitlar;
10. 12 oydan yuqori bo‘lgan depozit mablag‘lar.

Bank tomonidan jalb qilingan mablag‘larning yuqori likvidlik darajasini ushlab turish va ma’lum yuqori daromad olish ehtiyojini belgilab beruvchi mavjud qonun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chiqib turli aktivlarga joylashtiriladi.

Talab qilib olinguncha qadar depozitlar – bu bankni oldindan ogohlantirmay mijoz tomonidan xohlagan vaqtda talab qilib olinadigan mablag‘lardir.

Ularga joriy, hisob-kitob, byudjet va hisob – kitoblarni amalga oshirishi yoki mablag‘lardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq hisob-varaqalardagi mablag‘larni, boshqa banklarning vakillik hisobvarag‘idagi qoldiqlarni kiritish mumkin. Talab qilinguncha depozitlar joriy hisob kitoblar uchun mo‘jallangan. Bu hisobvaraqdagi mablag‘lar harakati naqd pul, pul o‘tkazish, boshqa hisob-kitob hujjatlari bilan rasmiylashtirilishi mumkin. Bank likvidligini boshqarish nuqtai nazaridan qaraganda joriy va byudjet hisobvaraqlari, kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish bo‘yicha hisobvaraqlar, maxsus hisobvaraqlar banklar uchun foydaliroq hisoblanadi. Chunki bu mablag‘lar yuqori likvidlilikka ega. Bu depozit turining asosiy kamchiligi – ular bo‘yicha juda kam miqdorda foizlarning to‘lanishi yoki umuman to‘lanmasligidir. Bundan tashqari joriy va byudjet hisobvaraqa egalari o‘zlarining statuslaridan kelib chiqib kredit olmaydilar, bu esa banklarga mablag‘larni o‘z rejalari asosida ishlatishga imkon beradi.

Talab qilib olguncha bo‘lgan depozitlarga banklarning korrespondent banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqalaridagi mablag‘larini ham kiritish

mumkin. Bu hisobvaraqalar ular hisob kitoblarni va to‘lovlarni bir tomonlama tartibda yoki bir birlarining topshiriqlari bo‘yicha amalga oshirish maqsadida ochilgan. Mazkur bankning boshqa bankda ochilgan vakillik hisobvarag‘i «Nostro» scheti, mazkur bank boshqa bank uchun ochgan vakillik hisobvarag‘i «Loro» scheti deb yuritiladi va bunday hisobvaraqalarini ochish banklararo imzolangan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi. Bu hisobvaraqalardan to‘lovlar, qoidaga ko‘ra, ulardagi mablag‘lar hajmi chegarasida amalga oshirilishi kerak. Ular bo‘yicha mavjud mablag‘lardan ko‘proq operatsiyalar o‘tkazish zaruriyati tug‘ilganda, vakilga alohida balans hisobvarag‘idan overdraft krediti berilishi mumkin.

Talab qilib olinguncha bo‘lgan depozitlarga kontokorrent hisobvarag‘i mablag‘larini ham kiritish mumkin mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida talab qilib olinguncha yuqoridagi depozitlardan tashqari nau-hisobvaraqalar (uchinchi shaxs foydasiga hisob hujjatlarini yozib berish), bank tomonidan belgilanadigan hisob cheklari ham kiritiladi.

Talab qilib olingungacha bo‘lgan depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

11. depozitning bu turida xohlagan vaqtda, xohlagan summada mablag‘ni qo‘yish yoki olishi mumkin;
12. depozit muddati chegaralanmagan;
13. kam miqdorda foiz to‘lanadi;
14. bu turdagi depozitlar bo‘yicha Markaziy bankga o‘tkaziladigan majburiy rezervlar salmog‘i yuqori va h.k.

Tijorat banklarida jalb qilingan mablag‘lar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlar turlicha hajmga ega. Bu odatda, bank resurslarini shakllantirishning eng arzon manbaidir. Mablag‘larning yuqori harakatchanligi tufayli talab qiluvchi hisobvaraqalardagi qoldiq doimiy emas, ba’zida juda o‘zgaruvchan. Hisobvarag‘i egasi istagan paytda mablag‘larni olish ehtimoli bank oborotida yuqori likvid aktivlarning hissasi ko‘proq bo‘lishini talab qiladi. Bu esa kamroq likvidlika ega bo‘lgan, biroq yuqori daromad keltiruvchi aktivlarning hissasining qisqarishi evaziga yuz beradi. Shu sababli banklar talab qilgungacha hisobvarag‘i egalariga past foiz to‘laydilar yoki umuman to‘lamaydilar. Biroq, talab qilguncha hisobvaraqalardagi mablag‘larning yuqori darajadagi harakatchanligiga qaramasdan, ularning minimal, doimiy qoldig‘ini aniqlash va ulardan barqaror kredit resursi sifatida foydalanish imkoniyatiga banklar ega bo‘lmog‘i lozim.

Muddatli depozitlar – bu banklar tomonidan ma’lum muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Bu turdagi depozitlar qo‘yilgan muddatda o‘zgarmas bo‘lishi lozim va ular joriy to‘lovlar uchun ishlatilmaydi.

Muddatli qo‘yilmalar mablag‘larni shartnoma bo‘yicha muddat va shartlarda to‘liq bank ixtiyoriga berishni anglatadi, bu muddat tugashi bilan muddatli qo‘yilma xohlagan paytda egasi tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Muddatli qo‘yilma bo‘yicha to‘lanadigan foiz hajmi depozit muddati, summasi va shartnomani pul qo‘yuvchi tomonidan bajarilishiga bog‘liqdir. O‘o‘yilmaning muddati va summasi qanchalik katta bo‘lsa, foizi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek amaliyotda asosan 1, 3, 6, 9, 12 oy yoki yanada uzoqroq muddatga qo‘yilmalar rasmiylashtiriladi. Bunday aniq chegaralar pul qo‘yuvchilarni o‘zlarining mablag‘larini ratsional tashkil qilish va qo‘yilmalar

qo‘yishga rag‘batlantiradi, shuningdek banklarga o‘zlarining likvidliklarini boshqarish uchun sharoit yaratadi. Pul qo‘yuvchi tomonidan qo‘yilma bo‘yicha mablag‘larni muddatidan oldin olinganda u shartnomada ko‘rsatilgan foizlardan to‘liq yoki qisman mahrum bo‘lishi mumkin. Odatda bunday hollarda foizlar talab qilgungacha qo‘yilmalarga to‘lanadigan foizlar hajmigacha pasaytiriladi.

Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankka barqaror resurs bazasini ta’minlaydi. Shu bois tijorat banklari muddatli depozitlar salmog‘ini ko‘paytirishga harakat qilishlari lozim.

Muddatli depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

15. aniq muddatga ega va ular bo‘yicha o‘zgarmas (depozit siyosatida ko‘rsatilgan) foiz to‘lanadi;
16. joriy hisob-kitoblar uchun foydalanilmaydi;
17. mijoz tomonidan muddatidan oldin olinmasligi lozim aks holda foiz to‘lash bo‘yicha shartnoma shartlari bekor qilinadi va talab qilib olinguncha depozit miqdorida foiz to‘lanishi mumkin;
18. mablag‘lar sekin aylanadi, uzoq muddatli ssudalarga yo‘naltiriladi;
19. majburiy rezerv normasi nisbatan past bo‘lishi mumkin va h.k.

Jamg‘arma depozitlari aholi pul jamg‘armalarining to‘planishi uchun xizmat qiladi. Jamg‘arma depozitlarga pul mablag‘larini jamg‘arish yoki saqlash maqsadida shakllantirilgan qo‘yilmalar kiradi. Ularning maxsus xususiyatli tomonlari – saqlashning rag‘batlantirilishi va yuqori daromadlilik darajasi, ma’lum davr ichida jamg‘arila borishi kabilar hisoblanadi.

Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati to‘lovlar amalga oshiriladi, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi.

13.4 Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari

Tijorat banklarining aktiv opersiyalari – bu banklarning passiv operatsiyalari natijasida shakllantirilgan mablag‘larini iqtisodiy jihatdan daromad (foyda) olish maqsadida turli maqsadlarga joylashtirish va likvidligini ta’minlash bilan bog‘liq operatsiyalardir. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ularning faoliyatida juda muhim hisoblanadi. Chunki ular ushbu operatsiyalar orqali daromadlarni shakllantiradilar va aktiv operatsiyalar doimo ma’lum darajada risk, ya’ni qarzdorning defolti (to‘lovga qobiliyatsizlik) bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tijorat banklarining aktiv opersiyalari – bu banklarning passiv operatsiyalari natijasida shakllantirilgan mablag‘larini iqtisodiy jihatdan daromad (foyda) olish maqsadida turli maqsadlarga joylashtirish va likvidligini ta’minlash bilan bog‘liq operatsiyalardir.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalari iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra:

-ssuda operatsiyalari (kreditlash);
-hisob – kitob operatsiyalari;
-kassa operatsiyalari;

-investitsiya va fond operatsiyalari;

-valyuta operatsiyalari va kafolatlar berish bilan bog‘liq operatsiyalardan iborat.

Ssuda operatsiyalari orqali banklar mamlakatdagi faoliyat yuritayotgan mulkiy shaklidan qat’iy nazar barcha xo‘jalik sub’ektlariga tegishli kerditlarni beradi. Ma’lumki, bank kreditlari bir yilgacha – qisqa muddatli, bir yil va undan ko‘p davrga – uzoq muddatli kreditlarga bo‘linadi.

Hisob – kitob operatsiyalarida banklar mijozlarning topshiriqlariga asosan turli maqsadlarga ularning hisobvaraqlarini debetlash orqali o‘tkazadi, shuningdek, ssuda operatsiyalari ham bevosita kredit oluvchining ssuda hisobvarag‘ini debetlash orqali amalga oshiriladi.

Hisob – kitob operatsiya - banklar mijozlarning topshiriqlariga asosan turli maqsadlarga ularning hisobvaraqlarini debetlash orqali o‘tkazadi, shuningdek, ssuda operatsiyalari ham bevosita kredit oluvchining ssuda hisobvarag‘ini debetlash orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya operatsiyalarida banklar ho‘jalik yurituvchi sub’ektlar va davlatning qimmatli qog‘ozlariga moliyaviy mablag‘larni joylashtiradi. Albatta ushbu operatsiyalar banklar uchun ma’lum darajadagi riskli operatsiyalar hisoblanib, banklarning foydasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fond operatsiyalarida banklar qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar bajarish bilan birga, fond birjalarida oldi – sotdi qilinadigan qimmatli qog‘ozlar va veksellar bilan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Investitsiya operatsiya - banklar ho‘jalik yurituvchi sub’ektlar va davlatning qimmatli qog‘ozlariga moliyaviy mablag‘larni joylashtiradi.

Banklar ***kassa operatsiyalari*** orqali mijozlarga naqd pullarni berish va ulardan naqd pullarni qabul qilish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshiradi.

Banklarning ***valyuta operatsiyalari*** bevosita xorijiy mamlakatlar milliy valyutasini oldi – sotdisi bilan bog‘liq operatsiyalar hisoblanib, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursini o‘zgarishi hisobiga foyda yoki zarar ko‘rishi mumkin.

Kassa operatsiyalari - orqali mijozlarga naqd pullarni berish va ulardan naqd pullarni qabul qilish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshiradi.

Valyuta operatsiyalari - bevosita xorijiy mamlakatlar milliy valyutasini oldi – sotdisi bilan bog‘liq operatsiyalar hisoblanib, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursini o‘zgarishi hisobiga foyda yoki zarar ko‘rishi mumkin

Banklar yirik va yuqori darajadagi to‘lov qobiliyatiga ega moliyaviy muassasa sifatida kompaniya, korporatsiya va boshqalarga uchinchi shaxs sifatida ***kafolatlar*** berishi mumkin. Albatta, berilgan kafolatlar evaziga banklar ma’lum darajadagi foydani olishni rejalashtiradi.

YUqorida qayd eilganlarga asoslanib, banklarning aktiv operatsiyalarini to‘rtta guruhga ajratish mumkin.

1.Erkin zahiralar – bunga kassadagi naqd pullar, Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar, boshqa kredit tashkilotlarning vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar. Erkin zahirlar yuqori likvidli mablag‘lar hisoblanib, bankka qisman yoki umuman daromad keltirmaydi.

2.Berilgan kreditlar va depozit ko‘rinishida boshqa moliya muassasalariga, shuningdek Markaziy bankka joylashtirilgan mablag‘lar.

3.Investitsiyalar – bu bankning qimmatli qog‘ozlarga va nomoddiy aktivlarga, shuningdek pay ko‘rinishida xo‘jalik faoliyatiga yo‘naltirilgan resurslari.

4.Bankning o‘ziga (ichki investitsiyalar) moddiy va nomoddiy aktivlarga yo‘naltirilgan mablag‘lari. Bunga bank faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan binolar, jihozlar va boshqa uskunalar kiradi.

Tijorat banklarining daromadi bankning 2 va 3 guruhiga kiruvchi aktiv operatsiyalari hisobidan tashkil topib, bank aktivlarining risk darajasi qancha yuqori bo‘lsa, ushbu operatsiyalardan kelayotgan daromadlar miqdori ham shuncha yuqori bo‘ladi va aksincha.

Demak, banklarning aktiv operatsiyalari daromad keltirish darajasiga qarab:

1. Daromad keltiradigan (kredit va investitsiyalar) aktivlar;
2. Daromad keltirmaydigan (erkin zaxiralar, moddiy) aktivlarga bo‘linadi.

Aktivlar Markaziy bankning 2000 yil 26 apreldagi 420 – sonli yo‘riqnomasiga asosan riskka tortilgan darajasiga qarab to‘rtta guruxga bo‘linadi.

3. Birinchi guruxga – riskdan ozod bo‘lgan aktivlar – 0;
4. Ikkinchi guruxga –minimal risk darajasiga ega aktivlar – 20;
5. Uchinchi guruxga – o‘rta risk darajasiga ega aktivlar – 50;
6. To‘rtinchi guruxga – yuqori riskli aktivlar – 100.

Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 1998 yyil 9 sentyabrda tasdiqlangan 242 – sonli “Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ssudalar bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar o‘rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxirani shakllantirish va undan foydalanish” tartibiga asosan bank kreditlari yaxshi kreditlar, standart kreditlar, substandart kreditlar, shubhali kreditlar va umidsiz kreditlar sifatida tasniflanadi.

Bank kreditlarini tasniflashdan asosiy maqsad ularni to‘liq qaytarishini ta’minlash bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirishga qaratiladi. Bank kreditlari “YAxshi” deb tasniflanganda ularda qaytarilmasligi alomatlari bo‘lmaydi, shu bois ushbu kreditlar bo‘yicha tegishli zaxiralar ajratilmaydi. Foizlar muddati o‘tgan ssudalar "YAxshi" deb tasniflanishi mumkin emas.

Kreditlar “Standart” sifatida tasniflangan aktivlar bo‘yicha qaytarilmagan kredit summasining 10 foizi miqdorida zaxiralar tuzishi shart.

“Substandart” sifatida tasniflangan aktivlar bo‘yicha bank asosiy qarzning to‘lanmagan summasining 25 foiziga teng bo‘lgan zaxiralarni shakllantirishi lozim.

“Shubhali” deb tasniflangan aktivlar bo‘yicha bank asosiy qarz to‘lanmagan summasining 50 foizi miqdorida zaxirani tashkil etishi shart.

Bank tomonidan berilgan kreditlar kamida 180 kunga kechiktirilganda bular “umidsiz” deb tasniflanadi. Umidsiz deb tasniflangan aktivlar bo‘yicha bank asosiy

qarzning to‘lanmagan summasining 100 foizi miqdorida zaxiralar yaratishi kerak.

Bank aktivlari likvidli, ya’ni tez naqd mablag‘ga aylantirish imkoniyati bo‘lishi kerak. Bank aktivlari likvidlilik nuqtai nazaridan quyidagilarga bo‘linadi:

7. Yuqori likvidli aktivlar – bevosita pul ko‘rinishidagi mablag‘lar bo‘lib, ushbu aktivlar istalgan paytda bank maburiyatini bajarishga yo‘naltirilishi mumkin;

8. Qisqa muddatli likvidli aktivlar – qisqa muddatli kreditlar va ikkilamchi bozorga ega bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar;

9. Qiyin realizatsiya qilinadigan aktivlar – o‘rta va uzoq muddatli kreditlar, ikkilamchi bozorga ega bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar, pay ulushlari va boshqalar;

10. Past likvidli aktivlar – bankning asosiy vositalariga yo‘naltirilgan mablag‘lar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, banklarning aktiv operatsiyalari ularning foydasini shakllantirishga xizmat qilish bilan birga, ma’lum darajadagi risklarni vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Banklar aktiv operatsiyalarni bajarishda asosiy e’tiborni mavjud risklarning darajasini pasaytirish orqali balansning likvidligini ta’minlashga qaratadi.

13.5 Tijorat banklarining noa’nanaviy operatsiyalari

B ozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari mijozlarning moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish va foyda manbasini oshirish maqsadida qator noa’nanaviy operatsiyalarni bajaradi. Bunday operatsiyalar sirasiga ***faktoring, kredit – ijara (lizing), kontokorrent (overdraft), forfeyting, trast*** kabi operatsiyalarni kiritish mumkin.

Faktoring operatsiyalari

Faktoring operatsiyalari*da* banklar tovar sotib oluvchining qarz hujjatlarini sotib oladi, unda asosan uchta tomon ishtirok etadi.

Birinchisi, *faktor – vositachi,* bankning faktoring operatsiyalarini bajaruvchi bo‘limi. Odatda, rivojlangan mamlakatlar tajribasida faktoring operatsiyalarini amalga oshirishga ixtisoslashgan faktoring kompaniyalari tashkil etish amaliyoti ham mavjud.

Ikkinchisi, *mijoz (tovar sotuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi),* faktor – vositachi bilan kontrakt tuzuvchi sanoat yoki savdo firmasi.

Uchinchisi, *tovar sotib oluvchi*.

Mijoz sotilgan tovar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo‘lgan pul mablag‘ini talab qiluvchi hujjatlar asosida “faktor – vositachi” bilan faktoring operatsiyasi bo‘yicha shartnoma tuzadi. Faktor – vositachi imzolangan faktoring shartnomasi asosida, ma’lum komission to‘lov hisobiga mijozga sotilgan tovar yoki ko‘rsatilgan xizmatlarga to‘lovni amalga oshiradi. Soddaroq qilib aytganda, faktor – vositachi mijozdan tovar sotib oluvchiga mablag‘larni to‘lash bilan bog‘liq to‘lov hujjatlarni komission to‘lov asosida “sotib oladi”.

Faktor – vositachi mijoz bilan faktoring operatsiyasini imzolayotganda tovar sotib oluvchining moliyaviy holatini oqilona baholashi juda muhim hisoblanadi. Agar sotib oluvchining moliyaviy holati yomonlashib, faktoring operatsiyasi

bo‘yicha faktor – vositachi tomonidan mijozga to‘lagan summani to‘lay olmasa, ushbu zarar faktor – vositachining gardaniga tushadi.

Iqtisodiyotda faktoring operatsiyalarni vujudga kelishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

– sotib oluvchi korxona va tashkilotlar olingan tovar yoki ko‘rsatilgan xizmatlarga to‘lashi lozim bo‘lgan mablag‘larni o‘z vaqtida to‘lash imkoniyatlarining mavjud emasligi. Bu qator ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlar tufayli vujudga keladi;

– tovar sotuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi mijozning ishlab chiqarish jarayonini doimiy ravishda davom ettirib turishi uchun moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashning zarurligi;

– banklarning moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanish hisobiga qo‘shimcha foydani shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojining mavjudligi.

Kredit – ijara (lizing)

Iqtisodiy nuqtai nazardan, ***kredit – ijara (lizing)*** murakkab savdo – moliya – kredit operatsiyalarining bir shakli hisoblanadi. Kredit – ijaraning asosiy xususiyatlari sifatida lizing muddati davomida ijaraga berilgan vositalarga nisbatan egalik huquqini saqlab qolishdir. Uning asosiy shakllaridan biri mashina va jihozlarni ijaraga berish, asosiy usullaridan biri investitsiyalarni moliyalashtirish va ta’minotni faollashtirish hisoblanadi.

Kredit – ijara (lizing) operatsiyasida odatda uch tomon ishtirok etadi:

1. ishlab chiqaruvchi (tovar sotuvchi), bo‘lajak lizing beruvchiga tegishli mashina va jihozlarni sotuvchi yuridik shaxs;

2. lizing beruvchi, tovar sotuvchidan mashina va jihozlarni sotib oluvchi, mulkning egasi sifatida lizing shartnomasiga asosan ma’lum muddatga va to‘lov evaziga mashina va jihozlarni lizing oluvchiga beruvchi. Odatda, lizing beruvchi sifatida etarli darajada moliyaviy mablag‘ga ega bo‘lgan banklar, ixtisoslashgan lizing kompaniyalari, korxonalar maydonga chiqadi;

3. lizing oluvchi, lizing shartnomasiga ma’lum muddat va to‘lovga asosan mashina va jihozlarni oluvchi shaxs.

Odatda, lizing oluvchi sifatida asosan yuridik shaxslar maydonga chiqadi. Lizing beruvchi va lizing oluvchi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga ko‘ra, lizinga olingan mashina va jihozlarning shartnoma muddati tugagandan so‘ng lizing beruvchiga qaytariladi yoki lizing oluvchining ixtiyorida qoladi. Lizing o‘ziga xos bo‘lgan shartnoma hisoblanadi, unda ijara elementlari va kredit elementlari mujassamlashadi. SHu bois, lizing so‘zi “kredit – ijara” tarzida talqin etiladi.

Lizing iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, kredit munosabatlariga xos bo‘lib, kreditning iqtisodiy mohiyati va elementlarini o‘zida aks ettirsada, kredit sifatida to‘liq e’tirof etilmaydi. CHunki, kreditor va qarzdor kapital sifatida pul mablag‘i bilan emas, balki ishlab chiqaruvchi jihozlar vositasida o‘zaro munosabatga kirishadi. SHu bilan birga, lizing kredit hisoblanib, unda kreditning barcha tamoyillari o‘z aksini topadi, shu jihatdan lizing qiymat shaklidagi kredit ko‘rinishida emas, balki tovar shaklidagi kredit sifatida namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiyotda lizingning qator ijobiy jihatlari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– lizing oluvchi korxona va tashkilotlarda mashina va jihozlarni sotib olish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy mablag‘lar etishmovchiligi yoki mavjud emasligi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘z faoliyatini yangidan boshlayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga qimmat va zamonaviy mashina va jihozlarni sotib olish bilan bog‘liq muammolarni echishga yordam beradi. Bu iqtisodiyotda ishlab chiqarishni tashkil etishga va boshqa qator ijtimoiy – iqtisodiy ziddiyatlarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi;

– ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan mashina va jihozlarni sotish bilan bog‘liq muammolar bartaraf etilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta’minlanadi;

– lizing beruvchining ixtiyoridagi pul mablag‘lari samarali manbalarga joylashtiriladi va buning natijasida ma’lum darajada foyda olish imkoniyati vujudga keladi.

Kontokorrent operatsiyalari

Banklarning noa’anaviy operatsiyalaridan biri ***kontokorrent operatsiya****lar* hisoblanadi. Kontokorrent (overdarft) operatsiyalarda mijozlarning banklardagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari bo‘yicha ma’lum miqdorda debet qoldiq (overdraft) qolishiga ruxsat beriladi. Albatta, bu iqtisodiy jarayon bank va mijoz o‘rtasida tegishli shartnoma asosida rasmiylashtiriladi, kontokorrent shartnomasiga binoan mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlarida mablag‘lar mavjud bo‘lmagan holda, unga to‘lovlarni amalga oshirish uchun tegishli summani debet qoldig‘i hisobidan o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Kontokorrent (overdraft) operatsiyalarida mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘ining aktiv qismida qolgan qoldiq asosida bank hisobiga tegishli foiz hisoblanadi. Mijoz tomonidan sotilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan mablag‘lar uning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘i tushishi orqali debet qoldiq (overdraft) summasi yopiladi.

SHu tariqa, bank va mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomada kelishilgan muddat davomida kontokorrent (overdraft) operatsiyasi amalga oshiriladi. Uning ishtirokchilari bank va bankning mijozi hisoblanib, bank kontokorrent (overdraft) shartnomasini tuzayotganda mijozning moliyaviy holati, balansining likvidligi va boshqa mezonlariga alohida e’tibor qaratadi. Bunda asosan bank bilan uzoq yillardan buyon hamkorlik qilib kelayotgan va asosli to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan hamda ishonchli mijozlari yuqori mavqiega ega bo‘ladi.

Kontokorrent (overdraft) operatsiyalarining qator afzalliklari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

– mijozning qisqa muddatli moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlaydi va qo‘shimcha hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt va moliyaviy mablag‘larni tejash imkoniyatini beradi;

– banklarga moliyaviy mablag‘larni ishonchli va samarali maqsadlarga joylashtirish imkoniyatini berish bilan birga, qo‘shimcha foyda olishga sharoit yaratadi.

Forfeyting operatsiyalari

***Forfeyting operatsiya**lari* asosan yirik banklar va kompaniyalar o‘rtasida uzoq muddatga, juda katta miqdordagi moliyaviy mablag‘larni to‘lashda qo‘llaniladigan operatsiyalar hisoblanadi.

Forfeyting operatsiyasida, faktoring operatsiyasidagi kabi uch tomon ishtirok etadi. Birinchisi, mol etkazib beruvchi, ikkinchisi, mol sotib oluvchi va uchinchisi, vositachi – bank yoki moliyaviy muassasa.

Forfeyting operatsiyalarining faktoring operatsiyalaridan asosiy farqi sifatida ushbu operatsiyalar uzoq muddatga (6 oydan 5 – 6 yilgacha) va yirik summalarga tuzilishini ta’kidlash mumkin.

Forfeyting iqtisodiy termeni odatda majburiyatni sotib olish ma’nosida qo‘llaniladi, uni so‘ndirish tovar va xizmatlarni sotib olish jarayonida kelgusida yuz beradi. “a forfait” so‘zi fransuzchadan vujudga kelgan bo‘lib, “huquqdan voz kechish” ma’nosini anglatadi. Forfeytingda pul mablag‘ini olishga talabgor bo‘lgan sotuvchi o‘tkaziladigan veksel inodassamentiga[143] “to‘lovni qaytarish shartisiz” so‘zini qayd etish orqali to‘lov regressidan[144] o‘zini himoya qiladi. Forfeyting vekslini sotuvchi asosan yirik eksporterlar hisoblanib, ular vekselni to‘lov hujjati sifatida akseptlab sotilgan tovar yoki ko‘rsatilgan xizmatlarning summasini diskont asosida zudlik bilan to‘lash hisobiga barcha risk va majburiyatlar bilan birgalikda forfetterga (ya’ni vekseldagi summani to‘lab beruvchi va o‘zida qayd etib boruvchi bankka) o‘tkazadi.

Agar importer birinchi darajali to‘lov qobiliyatiga va yuqori moliyaviy mavqiega ega bo‘lmasa, har qanday forfetterlangan qarz summa aval[145] shaklida kafolatlangan yoki chaqirib olinmaydigan bank kafolatiga ega bo‘lishi lozim.

Vekselni forfeterlash paytida undagi summa forfet krediti berilayotgan to‘liq muddatga diskont asosida forfetter tomonidan avans tarzida ushlab qolinadi. Eksporter forfet krediti bo‘yicha hech qanday majburiyatni o‘ziga olmaydi, faqatgina u jo‘natayotgan tovarlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati va tuzilayotgan hujjatlarning qonuniyligi hamda haqoniyligini ta’minlashga mas’ul hisoblanadi.

Forfeyting operatsiyalariga misol sifatida AQSHning Boing samolyotini ishlab chiqaradigan kompaniya bilan yirik avikompaniyalar o‘rtasidagi o‘zaro oldi – sotdilarni keltirish mumkin. CHunki, boeng samolyotlarining bahosi juda yuqori bo‘lishi aviakompaniyalarga ushbu mablag‘larni birdan to‘lash imkoniyatini bermaydi, biroq o‘z navbatida ishlab chiqarilgan samolyot uchun tegishli to‘lovni ololmagan samolyotsozlik kompaniyasida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlashda muammolar vujudga keladi. Aynan shu muammo banklarning ishtirokida forfeyting operatsiyalari orqali hal etiladi. Bundan bank samolyotni sotib olgan aviakompaniyaning boeng kompaniyasi oldidagi majburiyatlarini sotib oladi (savdo trattasi, o‘tkazma yoki oddiy veksel shaklida) va to‘lovni bir yo‘la amalga oshiradi, kelgusida esa bank va aviakompaniya o‘rtasida tuzilgan shartnomaga bo‘yicha asosiy summa tegishli jadval asosida, qo‘shimcha foiz to‘lovlari bilan birgalikda undirib boriladi.

Trast operatsiyalari

[143] Индоссамент – векселни бошқа шахсга ўтказиш ҳуқуқини берувчи орқа тарафидаги ёзув.
[144] Регресс – олдин тўланган суммани қайтаришни талаб этиш.
[145] Авал – вексел бўйича тўланмай қолган суммани тўлаб бериш ҳақида мажбуриятни олиш.

Xalqaro bank amaliyotida ***trast operatsiyalari*** banklar mijozlarning topshirqlariga asosan ularning mulkini boshqarish yoki ishonchli vakil sifatida ularning nomidan xizmatlarni bajaruvchi shaxs.

Tijorat banklarida trast – bo‘limlari trast operatsiyalari doirasida quyidagi uch yo‘nalishdagi ishlarni bajaradi:

– mijozlarning vasiyatlariga binoan ularning meroslarini boshqarash;

– ishonchli vakil sifatida xizmatlarni bajarish va otaliqqa olish;

– agentlik (vositachilik) xizmati.

Mijozlarning vasiyatlariga binoan ularning meroslarini boshqarish. Meroslarni boshqarishda ularning asosiy vazifalari sud qarorini olish, meros bilan bog‘liq mol – mulklarni butligi va xafsizligini ta’minlash, ma’muriy xarajatlarni amalga oshirish, qarzlarni to‘lash yoki undirish, mol – mulk bilan bog‘liq soliqlarni to‘lash va vasiyatchining merosxo‘rlariga tegishli xizmatlarni ko‘rsatish va yordam berish. Masalan, amaliyotda bunday holat mulkdorning farzandlari voyaga etmaganda erta olamdan ko‘z yumushi natijasida vujudga kelishi mumkin.

Mijozning ishonchli vakili sifatida ishlarni bajarish yoki shartnoma asosida vaqtinchalik mol – mulkini boshqarish. Bu shakldagi operatsiyalar mijoz uzoq muddatga safarga yoki jismoniy zaifligi oqibatida o‘ziga tegishli mol – mulk (uy – joy, mashina, uy hayvonlari va boshqalar)ni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lmagan holatda yuz beradi.

Agentlik (vositachilik) xizmati.

1. qimmatli qog‘ozlarni saqlashga qabul qilish;
2. qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlarni undirish;
3. qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha olinadigan daromadlar haqida benefitsarga ma’lumot berib turish;
4. muddati tugagan qimmatli qog‘ozlarni so‘ndirish;
5. qimmatli qog‘ozlarni sotish va sotib olish;
6. benefitsarning hisobvaraqlari bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish;
7. sug‘urta polislarini rasmiylashtirish;
8. seyflarni ijaraga berish.

YAkunlovchi fikr sifatida ta’kidlash mumkinki, har qanday iqtisodiyotda banklarning noa’ananaviy operatsiyalarini rivojlanishiga qator omillar ta’sir qiladi. Xususan, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursining barqarorligi, real inflyasiya darajasining xalqaro amaliyotda umumqabul qilingan me’yorlarini ta’minlanishi, bank tizimiga aholi va mijozlar ishonchining mustahkamligi kabilar shular jumlasidandir.

14-mavzu. Nobank moliya-kredit muassasalari

Reja:

14.1 Nobank moliya-kredit muassasalarining zarurligi.

14.2. Kredit kooperativ va uyushmalari

14.3. Jamg‘arma tashkilotlari: boshqarish va strukturasi

14.4 Mikrokredit tashkilotlari

14.5 Lombard tashkilotlari

14.1. Nobank kredit tashkilotlari va ularning zarurligi.

N obank kredit tashkilotlari deganda tor doirada ixtisoslashgan va alohida bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqi bo‘lgan kredit tashkiloti tushuniladi.

Biroq, nobank kredit tashkilotlari har qanday bank operatsiyasini amalga oshira olmaydi. Masalan: ular tijorat banklari amalga oshiradigan quyidagi muhim operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega emas:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarga hisob raqam ochish va yuritish
2. Yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini depozit hisob raqamlariga jalb etish
3. Mazkur pul mablag‘larini o‘z nomiga joylashtirish

Har qanday mamlakatning kredit tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib tijorat banklari hisoblanadi.Ammo tijorat banklari harqanday operatsiyani yuksak darajada bajara olmaydi. Shu sababli alohida bank operatsiyalarini bajarishga ixtisoslashgan kredit tashkilotlari paydo bo‘ldi .

Nobank moliya tashkilotlari asosan quyidagilarga ko‘maklashadi:

- kam ta’minlangan aholini tadbirkorlikka jalb etishga;
- kambag‘allikni qisqartirishga, insonlarni ijtimoy-iqtisodiy rivojlanishiga;
- ayollarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etib, gender muaamosini echishga:
- yangi ish o‘rinlari yaratishga;
- moliya bozorida yangi segmentni yaratilishiga va h.k.

Nobank moliya tashkilotlari funksiyasini iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarga bo‘lish mumkin:

Iqtisodiy funksiyasi - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga, aholini ushbu jarayonga jalb qilinishiga, shuningdek, kichik biznesni yiriklashishiga va mulkdorlar qatlamini yaratilishi ko‘maklashishdir.

Yangi moliya tuzilmasi sifatida - moliya tizimini kengayishi va mustaxkamlashiga, jamg‘armalar va kreditlarni bozorini diversifikatsiyalashga ko‘maklashadi. Shuningdek, keyinchalik banklardan kredit olish uchun kredit tarixini yaratish vositasi ham hisoblanadi.

Dunyo tajribasiga ko‘ra moliya tashkilotlari uchta guruhga bo‘linadi:

- rasmiy institutlar;
- yarim rasmiy institutlar;
- norasmiy institutlar.

Rasmiy moliya institutlari mikromoliya xizmatlari ko‘rsatib, ularning faoliyati umumiy qonunchilik bilan birga banklarning regulyativ qoidalari bilan tartibga solinadi. Shuning uchun bunday moliya institutlari banklar singari nazorat kilinadi.

Yarim rasmiy moliya institutlari umumiy qonunchilikka bo‘ysunadilar, lekin ularning faoliyati banklarning regulyativ qoidalari bilan tartibga solinmaydi.

Norasmiy institutlarga esa umumiy tijorat hamda banklar qonunchiligi ko‘llanilmaydi.

Xalqaro amaliyotda nobank kredit tashkilotlariga quyidaglar kiradi:

1. Kredit uyushmalari. Ular faqat o‘z-o‘zlariga depozit qabo‘l qiladi va o‘z-o‘zlariga kredit beradi.

2. Mikrokredit tashkilotlari. Mikrokredit tashkilotlar aholining iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan aktiv ammo kam ta’minlangan qatlamlariga kredit beradi. Ular depozit va omonatlar qabo‘l qilish huquqiga emas.

3. Lombardlar oltin va tilla taqinchoqlarni garovga olish yo‘li bilan kredit beradi.

4. Lizing kompaniyalari

5. Faktoring kompaniyalari.

Lizing kompaniyalari bahosi yuqori va muddatli foydalaniladigan tovarlarni to‘la qiymatda sotib olib ularni lizingga beradi.

a) Moliyaviy lizing

b) Operativ lizing

Faktoring kompaniyalari tovarlar bilan bog‘liq hujjatlarni sotib olish, ularni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida yuritish bilan shug‘ullanadi.

Kliring muassasalari. Kliring palatalari banklar o‘rtasida to‘lov instrumentlari bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

- Kredit kooperativlari ma’lum bir sohada faoliyat yuritayotgan subyektlarni kreditlash maqsadida tashkil etilgan.
- Pensiya fondi
- Inkassatsiya tashkilotlari. Bu tashkilotlar naqd pullardan va to‘lov hujjatlarini inkassatsiya qilish bilan shug‘ullanadi. Lekin O‘zbekistonda bunday tashkilotlar yo‘q. Respublikamizda naqd pullarni inkassatsiya “Respublikamiz inkassatsiya birlashmalari” tomonidan amalga oshiradi.
- Sug‘urta kompaniyalari.

Nobank kredit tashkilotlari faoliyatidagi quyidagi xos xususiyatlariga ega: Nobank kredit tashkilotlari faqat alohida olingan bank operatsiyalarini amalga oshiradi.

Nobank kredit tashkilotlari faoliyati tor doirada ixtisoslashgan bo‘ladi. Bu ularni raqobatbardoshligini ta’minlash imkoniyatini beradi. Chunki nobank kredit tashkilotlari bitta sohada sifatli va arzon bitta mahsulot yarata oladi.

17.1-jadval

Davlat fondlari, nodavlat mikromoliyalashtirish tashkilotlari va kredit kooperativlarining asosiy xarakteristikasi

	NMMT	**Kooperativlar**	**Davlat fondlari**
Yuridik shakli, maxsus qonunchilik	Notijorat tashkiloti sifatida ro‘yxatdan o‘tadi	Kooperativlar to‘grisidagi qonunchilik bo‘yicha faolityat ko‘rsatadi.	Budjet qonunchiligi bo‘yicha ishlaydi. Davlat ta’sis etgan yoki sezilarli bo‘lmagan nodavlat tashkilotlari ishtirokidagi fondlar

Asosiy xizmatlari	Asosiy maxsuloti-mikrokredit. sug‘urta. jamg‘arma xizmatlari ko‘rsatadigan shakllari mavjud	A’zolaridan jamg‘armalar qabo‘l qilish, ularga mikrokreditlar berish, mikrolizing va mikrosug‘urta xizmatlari ko‘rsatish.	Asosiy maxsuloti mikrokredit
Qarzdorlarga munosabat	Mijozlarga qarz	Kreditlar kooperativ a’zolariga beriladi.	Mijozlarga qarz
Moliyalashti-rish manbasi	O‘z mablaglari, donorlar mablag‘lari, depozitlar, tijorat banklari qarzlari yoki qimmatbaho qog‘ozlar chiqarish orqali qarzlari	A’zolari mablag‘larini mobilizatsiya qilish, donorlar mablag‘lari	Asosan davlat budjeti va budjetdan tashqari davlat fondlari mablag‘lari
Xizmat oluvchilar qamrovi	Kapitali hajmi, amaliyot xarajatlari va texnologik imkoniyatlari bilan chegaralangan	Kooperativga a’zo bo‘lganlar doirasi	Mablag‘lari hajmi, texnologik imkoniyatlari va maqsadli yo‘nalishlari bilan chegaralangan

Nobank kredit tashkilotlari faoliyati past riskli hisoblanadi.

Nobank kredit tashkilotlari faoliyati Markaziy bank tomonidan Tijorat banklari faoliyati kabi qattiq nazorat qilinmaydi

Nobank kredit tashkilotlarining resurs bazasi quyidagi manbalardan tashkil topadi:

a)Ustav kapitali

b)Boshqa tashkilotlarga berilgan moliyaviy yordam

c)O‘zining a’zolaridan jalb qilingan pul mablag‘lari

d)Tijorat banklarining kreditlari

e)Sof foyda

f)Foyda hisobidan shakllantirilgan zaxiralar

g)O‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi

Nobank kredit tashkilotlarining aktiv operatsiyalari ularning faoliyati yo‘nalishlariga mos ravishda shakllanadi. Masalan: Kredit uyushmalari o‘zlariga

a’zo bo‘lgaan subyektlarni kreditlash maqsadida tashkil etiladi. Shu sababli kredit uyushmalari bitta aktiv operatsiyaga ega.U ham bo‘lsa kredit operatsiyasidir.

Mikrokredit tashkilotlari aholining iqtisodiy lekin kambag‘al qatlamlariga kredit beradi. Mikrokredit tashkilotlarining asosiy aktiv operatsiyasi bu kichik summada, past foiz stavkasida kredit berish operatsiyasidir.

Faktoring kompaniyasi jo‘natilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha debitor qarzdorlarini inkassatsiya qilish bilan shug‘ullanadi. Ular Tovar hujjatlarini 2 ta shart asosida regress huquqi bilan va regress huquqisiz sotib oladi.

Tovar hujjatlari regress huquqi bilan sotib olingan to‘lovchi to‘lovga noqobil bo‘lib qolganda faktoring kompaniyasiga to‘lovni mol etkazib beruvchiga undirish huquqi saqlanib qoladi.

Agar tovar hujjatlari regress huquqisiz sotib olinsa , to‘lov riski to‘liq ya’ni 100 % faktoring kompaniyasining zimmasida qoladi. Chunki to‘lovchi to‘lovga noqobil bo‘lib qolganda faktoring kompaniyasi to‘lovni undirish bo‘yicha mol etkazib beruvchiga murojaat qila olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida faktoring kompaniyalari mavjud emas. Faktoring operatsiyalarini tijorat banklari bajaradi. Ammo ular tovar hujjatlarini regress huquqi bilan sotib olish mumkin emas. Bundan tashqari, O‘zbekiston banklari faktoring operatsiyalarini amalga oshirilayotganda bu operatsiyalarning buxgalteriya hisobini yuritmaydi. Xolbuki taraqqiy etgan mamlakatlarda faktoring kompaniyalari faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobini ham yuritadi.

Lizing kompaniyalari uzoq muddatli kreditlar bozorida tijorat banklari bilan raqobat qila oladi . Ular bahosi yuqori va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni uzoq muddatli ijaraga beradi. Lizing shartnomalarining o‘rtacha muddati 3-5 yilni tashkil qiladi. Ammo lizing kompaniyalarining zaif jihati bor, ya’ni lizing kompaniyalarida resurslar etishmaydi. Ular faoliyatini asosan o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishga majbur. Shu sababli ular tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlarini keng ko‘lamda jalb qiladilar.

O‘zbekiston Respupblikasida lizing operatsiyasi bilan tijorat banklari va lizing kompaniyalari shug‘ullanadi. Asosiy muammo shundaki, to lizing obyekti lizing-oluvchi tomonidan qabo‘l qilib olinmagunga qadar tijorat banklari lizing kreditiga foiz hisoblay olmaydi.

Kliring uylari (palatalari) nobank kredit tashkiloti hisoblanadi va ular chek va hosilaviy qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

Kliring palatasi har bir ishtirokchi bankka schotlar ochadi. Bu schotlar mazmuniga ko‘ra aktiv-passiv schotlar hisoblanadi, ya’ni bu schotlar debitli qoldiqqa ham ega bo‘lishi mumkin, kreditli qoldiqqa ham ega bo‘lishi mumkin. Kliring palatasi bir ish kuni mobaynida barcha hisob-kitoblarni amalga oshiradi va ish kuni so‘nggida har bir bankka uning hisob raqamidan ko‘chirma beradi. Agar bank ko‘chirmani debitli qoldiq bilan olgan bo‘lsa , demak unga to‘la berishadi.

Ko‘pchilik mamlakatlarda nobank kredit tashkilotlari faoliyati Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Ammo Angliya, Germaniya, Luksemburg kabi mamlakatlarda nazorat funksiyasiga ega emas. Shu sababli ushbu mamlakatlarda nobank kredit tashkilotlarining faoliyati moliya bozorining

regulyatori tomonidan nazorat qilinadi. Nazorat jarayonida nobank kredit tashkilotlarining ustav kapitalining minimal miqdoriga nisbatan talablar qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasida lombard ochish uchun minimal ish haqining 40 baravarining miqdorida pul mablag‘lari kerak. Mikrokredit tashkiloti uchun 100 ming evro ekvivalenti miqdorida pul mablag‘lari kerak. Iqtisodiy adabiyotlarda olimlarnig bir guruhi “Mikrokredit tashkilotlarining faoliyati nazorat qilinmasligi kerak” degan fikrni ilgari surishadi. Kredit uyushmalari taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari bilan raqobat qila oladigan darajada shakllangan kredit muassasalari hisoblanadi. Ular o‘z a’zolaridan depozitlar qabo‘l qilish huquqiga ega. Shu sababli ularning faoliyati nazorat organlari tomonidan qattiq nazorat qilinadi.

14.2. Kredit kooperativ va uyushmalari

Ilk marotaba kredit kooperativini tashkil etish kontsepsiyasi 1850-yilda Germaniyada, aholining kam ta’minlangan qatlamlarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida paydo bo‘lgan. Tegirmonchi va novvoylarning dastlabki kooperativ kredit jamiyatini tuzgan German Shultse-Delich va kredit uyushmalari faoliyatining asosiy qoidalarini birinchi bo‘lib bayon etgan hamda keyinroq kredit uyushmalari federatsiyasi (assotsiatsiyasi)ni shakllantirishga ko‘mak bergan Frederik Rayfayzen kooperativ harakatiga asos solganlar. Frederik Rayfayzeng bu inson birinchi bo‘lib kredit uyushmalar uchun faoliyat printsiplarini yozadi va keyinchalik Kredit Uyushmalari Assotsiatsiyasini tashkil etadi. Bu assotsiatsiyani tashkil etib, yangi ochilgan kredit uyushmalarni qonun, mijozlar bilan ta’minlash bilan shug‘ullangan.

Kredit uyushmalari – kooperativ moliya tashkiloti bo‘lib, u uyushma a’zolariga tegishli va ularga demokratik prinsiplar asosida xizmat ko‘rsatadi. Kredit uyushmasining maqsadi jamg‘armalarni jalb qilish, umumiy mablag‘lardan a’zolarga kreditlar berishda foydalanish va uyushma a’zolarining moliyaviy ahvolini yaxshilovchi boshqa moliya xizmatlarini ko‘rsatishdan iborat.

Bozor ehtiyojlaridan kelib chiqib faoliyat yuritadigan kredit uyushmasi o‘z ishtirokchilariga moliyaviy mahsulot va xizmatlar taqdim etadi – ya’ni, u siyosat yoki hukumatga emas, balki ishtirokchilarga mo‘ljallangan. Kredit uyushmasining faoliyati moliyaviy subsidiyalarga bog‘liq emas. Kreditlash ushun mo‘ljallangan mablag‘larning asosiy manbai jamg‘arma depozitlari hisoblanadi. Ushbu mablag‘larning o‘sishi jamg‘armalarni safarbar qilishning o‘sishiga, kredit uyushmasining ishida esa – kapitallashtirish (taqsimlanmagan foyda) orqali o‘sishga bog‘liqdir.

Kredit uyushmalari bilan banklar o‘rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, kredit uyushmasi kishilarning biror-bir guruhiga ularga tegishli bo‘lgan mablag‘larni saqlash va bir-birlariga kredit berish imkonini beradigan moliyaviy kooperativ hisoblanadi, unga aksiyadorlar emas, balki ishtirokchilarning o‘zlari demokratik tamoyillar asosida egalik va rahbarlik qiladilar. Bundan tashqari, kredit uyushmalarining banklardan farqi shundaki, kredit uyushmasi asosiy maqsadi jamg‘armalarni safarbar qilish bo‘lgan institut hisoblanadi, bunda foyda olish asosiy maqsad hisoblanmaydi. Aksariyat hollarda banklar bir aholi punktida

joylashgan aholi va korxonalardan depozitlarni qabo‘l qiladi, va ushbu mablag‘larni boshqa bir joyda sarmoya qiladi. Bundan farqli ularoq, kredit uyushmasining barcha kreditlari ular taqdim etilgan hamjamiyat doirasida qolishi, kredit uyushmasining barcha foydasi esa (operatsion xarajatlar qoplanib, kapitallashtirish bo‘yisha talablar bajarilib, kreditlar bo‘yisha zararlarni qoplashga zaxiralar barpo etilganidan so‘ng) hamjamiyatga pay badallari bqyisha dividendlar shaklida qaytarilishi kerak yoki uning ishonchliligi va xavfsizligini mustahkamlash ushun zarur bo‘lgan kapitallashtirishni amalga oshirish uchun qoldiriladi. Bankda nazorat jamlangan, ovoz huquqi esa aksiyadorlik kapitalida egalik qilish ulushidan kelib chiqib belgilanadi. Bu nazoratni bir nechta yirik aksiyadorning amalga oshirishiga yo‘l qo‘yadi. Kredit uyushmasida nazorat bir yerda jamlanmagan. Pay badali miqdoridan qat’iy nazar, bir ishtirokchi bir ovozga egadir.

Kredit uyushmasi (KU) kooperativ bo‘lib, unga a’zo bo‘lgan har bir kishi uning sherik egasiga aylanadi. Sizning uyushmadagi pay hisob varag‘ingiz sizning “ulushingiz”ni bildiradi. Biroq pay badallari birjadagi kursi i yoki tushib ketishi mumkinbo‘lgan aksiyalardan farq qiladi.

Pay badallari hisobvaraqlari bo‘yisha dividendlar to‘lanadi. Kredit uyushmasi kooperativ bo‘lganligi sababli u amalda ishlab topilgan ortiqcha foydanigina taqsimlay oladi. Faqat ishtirokchilar tomonidan saylanadigan KU direktorlar kengashi dividendlar miqdorini KU daromadlaridan kelib chiqib belgilaydi. Foizlar (dividendlar) miqdori kredit uyushmasining moliyaviy holati qanchalik maqbo‘l ekanligiga bog‘liq.

Kredit uyushmasidan uning a’zosi chiqqanda yoki chiqarilganda pay badali kredit uyushmasining a’zosiga, uning kredit uyushmasi oldidagi barcha qarzi uzilganidan keyin, qaytariladi.

17.2-jadval

Kredit uyushmalari bilan banklar o‘rtasidagi asosiy farq

	Banklar	**Kredit uyushmalari**
1. Mulkga egalik huquqi	Odatda banklar badavlat shaxslarga yoki korporatsiyalarga qarashli bo‘ladi va ijtimoiy bozorda xizmatlar taqdim etadi. Mulk huquqi aniq belgilangan.	Kredit uyushmasi xizmat ko‘rsatadigan jamoa aholisiga tegishli bo‘ladi. Mulk huquqi ham xizmat ko‘rsatish bozori singari “tarqoq”. Kredit uyushmalari faqat o‘zining ishtirokchilariga xizmat ko‘rsatadi.
2. Nazorat	Tabiiyki, nazorat jamlangan. Ovoz huquqi aksiyadorlik sarmoyasidagi egalik qilish ulushidan kelib chiqib belgilanadi, bu esa nazoratni bir nechta yirik aksiyador amalga oshirishiga yo‘l qo‘yadi.	Nazorat “tarqoq”. Pay badalidan qat’i nazar, bir ishtirokchi bir ovozga ega. Ishtirokchilar pay badalining miqdoridan qat’i nazar teng huquqlarga ega.

3. Foyda olish	Bozor raqobati sharoitida aksiyadorlik sarmoyasiga qilingan investitsiyalardan kelgan foyda samarali xizmat ko‘rsatish faoliyatning asosiy mezoni hisoblanadi. Aksiyadan kelgan daromad, aksiyaning bozor qiymati va dividendlar aksiya egasini qondirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.	Ishtirokchilarga xizmat ko‘rsatish faoliyat samaradorligining asosiy mezoni hisoblanadi. Foyda olish ishtirokchilar mablag‘lari (jamg‘armalar va pay badallari) bo‘yicha operatsion xarajatlarni qoplash, ssuda zararlarini qoplash va institutsional sarmoyani oshirishga zaxiralar barpo etish uchun etarli bo‘lgan foydaning real me’yorini (inflyasiya stavkasidan yuqori) tayinlash bilan cheklanadi. Odatda, foydaning belgilangan me’yori olinishi bilanoq kreditlar bo‘yicha kredit stavkalari pasaytiriladi va/yoki jamg‘armalar bo‘yicha foiz stavkalari ishtirokchining farovonligi uchun eng ko‘p foyda olish uchun yo‘naltiriladi.
4. Bozor qamrovi sohasi	Bankning asosiy maqsadi eng ko‘p foyda olish hisoblanishi sababli banklar, odatda, e’tiborni yirik, qiymat nuqtayi-nazaridan yanada rentabelli operatsiyalarni amalga oshira oladigan badavlat mijozlarga qaratadi. Banklar xarajatlari/daromadlari tarkibi ayrim mayda mijozlarga xizmat ko‘rsatishni qiyinlashtiradi va ko‘pincha yo‘qqa chiqaradi.	Kredit uyushmalari ishtirokchilari – mijozlarining katta qismi etarli darajada ta’minlanmagan va shu sababli banklar taqdim etadigan moliyaviy xizmatlardan foydalana olmaydigan shaxslardir. Garchi ular bank mijozlari taalluqli bo‘lgan mijozlar darajasiga mansub bo‘lishmasada, barqaror daromad oladilar va shu sababli kreditga qobiliyatlidirlar.
5. Operatsiyalar miqyosi	Banklar amalga oshiradigan operatsiyalar miqyosi kredit uyushmalariga qaraganda ancha keng va ko‘proq turli geografik bozorlarni qoplaydi. Ovoz huquqi aksiyadorlik sarmoyasida egalik qilish ulushiga bog‘liqligi sababli banklar ko‘p darajada badavlat mijozlarni jalb eta oladi.	Demokratik qoidalarga asoslangan boshqarish kredit uyushmalarining ular faoliyatini amalga oshiradigan jamoadan tashqarida o‘sishini cheklaydi, mablag‘larni jalb etish banklar bilan taqqoslaganda ancha sekinlashgan – odatda ishtirokchilarning institutsional

	Bundan tashqari, sarmoya xajmidan kelib chiqib ovoz berish huquqi yanada moslashuvchanroq rahbarlik qilishga imkon beradi.	sarmoyaning o‘sishiga ulushlari bilan cheklangan. Biroq, banklar bilan taqqoslaganda, kredit uyushmalari ular xizmat ko‘rsatadigan jamoa ichidagi ancha mustahkam va barqaror o‘zaro munosabatlar bilan farqlanadi.

Kredit uyushmalarida boshqaruvning yuqori organi bo‘lib uning a’zolarining umumiy yig‘ilishi hisoblanadi. Kredit uyushmasi a’zolarining umumiy yig‘ilishi bir yilda kamida bir marotaba, moliyaviy yil tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkazilishi kerak. Kredit uyushmasi a’zolarining umumiy yig‘ilishini o‘tkazish haqida kamida o‘ttiz kun oldin xabar qilinadi. Kredit uyushmasining har bir a’zosi, ustav fondidagi pay badali miqdoridan qat’i nazar, umumiy yig‘ilish tomonidan qaror qabo‘l qilish paytida bir ovoz huquqiga egadir. Umumiy yig‘ilish qarori umumiy yig‘ilishda hozir bo‘lgan kredit uyushmasi a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabo‘l qilinadi. Kredit uyushmasi a’zolarining umumiy yig‘ilishi:

- ustavga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritadi, ustav fondini ko‘paytirish yoki kamaytirishga doir o‘zgartishlar bundan mustasno;
- daromadning bir qismini kredit uyushmasining a’zolariga to‘lash tartibini tasdiqlaydi;
- kredit uyushmasi a’zolari orasidan kengash, kredit qo‘mitasi, taftish komissiyasi a’zolarini saylaydi, ularning vakolatlarini bekor qiladi;
- yillik moliyaviy hisobotni, kengash, ijroiya organi, kredit qo‘mitasi va taftish komissiyasining hisobotlarini tasdiqlaydi;
- auditorlik tashkilotini va u bilan shartnoma tuzish shartlarini belgilaydi;
- kredit uyushmasini tugatish va qayta tashkil etish to‘g‘risida qaror qabo‘l qiladi.

KU tashkiliy tuzilmasi :

1. Ishtirokchilar Umumiy yig‘ilishi
2. Kredit qo‘mitasi Kengash Taftish komissiyasi
3. Ijrochi Organ
4. Kredit uyushmasi xodimlari

KU oladigan foydaning bir necha manbalari mavjud:

- ishtirokchilarga kredit berish paytida olinadigan foizlar;
- KU amalga oshiradigan investisiyalar bo‘yisha foizlar;
- ba’zi xizmatlarni taqdim etganlik ushun komission to‘lovlar.

Xavfsiz va moliyaviy barqaror institut bo‘lishi uchun omonat kredit uyushmasi ishtirokchilarning jamg‘armalarini himoya qilish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirayotganda har tomonni o‘ylab ish tutishi kerak. Butun dunyoda faoliyat ko‘rsatayotgan kredit uyushmalarini takomillashtirish kredit uyushmalari faoliyatining samaradorligini ta’minlaydigan moliyaviy boshqaruv hamda ishki nazorat tizimini barpo etish yo‘l i bilan amalga oshirilib, institutning xavfsizligi va barqarorligiga qaratilgan va shunga asosiy e’tiborni beradi.

Ustav fondiga pay badalini kiritgan istalgan yuridik yoki jismoniy shaxs kredit uyushmasining ishtirokchisi bo‘la oladi. Unga kredit uyushmasi tomonidan berilgan sertifikat shaxsning kredit uyushmasiga a’zoligini tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadi.

Kredit uyushmasining a’zosi:

- kredit uyushmasi taqdim etadigan xizmatlardan foydalanish;
- kredit uyushmasini boshqarishda ishtirok etish;
- belgilangan tartibda kredit uyushmasi daromadining bir qismini olish;
- ustavga muvofiq kredit uyushmasi faoliyati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborot olish;
- kredit uyushmasidan chiqish;
- kredit uyushmasi tugatilgan taqdirda mol-mulkning pay badaliga mutanosib qismini olish huquqiga egadir.

Kredit uyushmasining a’zolari qonun hujjatlari va ustavga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘la oladilar.

Kredit uyushmasi a’zolari quyidagi majburiyatlarga ega:

- ustavga rioya qilish;
- kredit uyushmasi a’zolarining umumiy yig‘ilishi, kredit uyushmasi kengashi, kredit qo‘mitasi, taftish komissiyasining qarorlarini bajarish;
- olingan kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish;
- kredit uyushmasining amaliy obro‘-nufuzi va kredit qobiliyatini oshirishga ko‘mak berish.

Kredit uyushmasining a’zolari qonun hujjatlari va ustavga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

Kredit uyushmalari AQSH misolida

Kredit uyushmalari – mayda kooperativ ssuda tashkiloti bo‘lib, alohida guruh shaxslari atrofida umumiy majburiyatlar bilan tashkil etilgan (alohida firmalar xodimlari yoki kasaba uyushmasi a’zolari). Kredit uyushmalari soliqqa tortilmaydigan va shtat organlari va Federal hukumat tomonidan litsenziyalanishi mumkin bo‘lgn yagona moliyaviy tashkilot. Shu bilan birga yarimidan ko‘p kredit tashkilotlari Federal hukumat tomonidan lisenziyalanadi. Kredit tashkilotlarining milliy boshqarmasi (KTMB) federal litsenziya beradi va federal darajada ro‘yxatdan o‘tgan kredit uyushmalariga minimal kapital talablarini o‘rnatish, doimiy hisobotlarini tekshirish va kredit uyushmalarini doimiy tekshiruvlarni amalga oshirish orqali kredit uyushmalarining faoliyatini boshqaradi. KTMBning sho‘ba tashkiloti-kredit uyushmalari ulushlarining sug‘urtalash milliy fondi (KUUSMF) depozitlarni federal sug‘urtalash (bitta hisobraqamga 250 ming dollarlik limit doirasida) federal organ tomonidan va shtat hukumati tominidan litsenziyalangan uyushmalar tomonidan taqdim etiladi. Ko‘plab kredit uyushmalari asosan qisqa muddatli iste’mol ssudalarini taqdim etishadi, ssuda-jamg‘arma assotsiatsiyasi va o‘zaro jamg‘arma banklari singari qiyinchiliklarini sezishmaydi.

Kredit uyushmalarining a’zolari jami majburiyatlarini o‘zaro taqsimlanishadi, odatda ular katta emas va ularning aktivlari 10 mln.dollardan oshmaydi. Bundan tashqari, ma’lum bir tarmoq yoki kompaniyalar bilan uzviy bog‘liqlik kredit uyushmalarining inqirozi ehtimoli ko‘plab ishlaydigan tarmoq va

kompaniyalar ssudalar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmasa oshadi. Oxirgi regulyativ o‘zgarishlar xususiy kredit uyushmalarining turli iste’molchilar guruhlarini majburiyatlarini yumshoqroq talablari asosida xizmat ko‘rsatish kredit uyushmalarining sonini ortishi va ularning inqirozi ehtimolini kamaytirdi.

Tez-tez kredit uyushmalarining aksionerlari ko‘p shtatlar ba’zan butun dunyo bo‘yicha tarqalgan, shuning uchun federal darajada litsenziyalan kredit kredit uyushmalarining filiallarini turli shtat va mamlakatlarda ochishga ruxsat etiladi. Masalan, Navy Federal Credit Union aksiyadorlari Harbiy-daryo floti va AQSH Daryo korpusi a’zolari butun dunyo bo‘yicha filialga ega. [146]

14.3. Jamg‘arma tashkilotlari: boshqarish va strukturasi

J amg‘arma tashkilotlari (ssuda-jamg‘arma assotsiayasi, o‘zaro jamg‘arma banklari va kredit uyushmalari) sanoati strukturasi va boshqarish tizimi tijorat banklari tizimi bilan ko‘pgina umumiy jihatlarga egaligi hayratlanarli emas.

Ssuda-jamg‘arma assotsiasiyalari

Ssuda-jamg‘arma assotsiatsiyasi tijorat banklari singari federal hukumat va shtatning vakolatli organlaridan litsenziya olishlari mumkin. Ko‘plab ssuda-jamg‘arma assotsiatsiyalari lisenziyalovchi organdan qat’iy nazar uy-joy krediti banklar Federal tizimi (UJKBFT) a’zosidir.UJKBFT 1932-yilda FZT tashkil etilgandan so‘ng asos solingan edi.Tizim jamg‘arma tashkilotlarini nazorat qilish boshqarmasida tomonidan 12 ta uy-joy krediti federal banklarni sanashgan.

Ssuda-jamg‘arma assotsiasiyasi depozitlarni federal sug‘urtalash (250ming dollargacha) omonatlarni sug‘urtalash Federal korporatsiyasi bo‘linmasi, jamga’rma assotsiatsiyalarini sug‘urtalash fondi orqali ta’minlanadi. Omonatlarni sug‘urtalash Federal korporatsiyasi bo‘linmasi federal darajada sug‘urtalangan assotsiasiya faoliyatini minimal kapital talablarini o‘rnatish orqali, hisobotlarini doimiy majburiy tekshirish va ssuda-jamg‘arma assotsiatsiyalari faoliyatini reviziya qilish orqali boshqaradi.

Ssuda-jamg‘arma assotsiatsiyasi filiallarni ochish bo‘yicha faoliyatini boshqarish tijorat banklarini boshqarishga nisbatan liberalroq edi: deyarli barcha assotsiasiya bor shtatlarga filiallar ochishga ruxsat berilar edi, 1980 yildan esa, federal darajada lisenziyalangan assotsiyasiya turli shtatlarda filial ochish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. 1981 yildan shtat chegaralaridan qat’iy nazar moliyaviy qiyinchiliklar his qilayotgan assotsiasiyalarni qo‘shib olishga ruxsat berildi.Bugungi kunda ssuda-jamg‘arma assotsiasiyasiga butun mamlakat hududida filial ochish imkoniyat berilgan.

FZT va UJKBFTlar o‘z a’zolariga (obligatsiyalar chiqarishdan yig‘ilgan resurslar doirasida) ssudalar taqdim etishmoqda. Ammo, FZTning diskont ssudalaridan farqli ravishda qisqa muddatda qaytarishni ko‘zda tutadi, UJKBFTning ssudalari asosan uzoq muddatli. Bundan tashqari, bunday ssudalar bo‘yicha foiz stavkalar odatda ochiq bozor foiz stavkalaridan past. Bunday holda UJKBFTning ssuda loyihalari ssuda-jamg‘arma assotsiasiyasiga (uy-joy qurilishi

[146]Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markrts. Credit Unions page 345.

bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar uchun bilvosita, chunki asosan ssuda-jamg‘arma assotsiasiyasi ssudalari uy-joy qurish uchun ipoteka kreditlarini nazarda tutadi) dotatsiyalarni ko‘zda tutadi.

Ssuda-jamg‘arma assotsiasiyasi 1980-yillarda jiddiy qiyinchiliklarga yuz tutdi.(12-bobga qarang). Bugungi kunda assotsiatsiyalar ko‘plab tijorat bank faoliyati bilan shug‘ullanishadi, assotsiatsiya faoliyatini boshqarish va litsenziyalash uchun alohida boshqaruv apparati kerak emas.

O‘zaro jamg‘arma banklari

Tahminan 400 ga yaqin jamg‘arma banklarining yarimi shtat organlari tomonidan litsenziyalangan.Shtat hukumatlari bunday banklarni faoliyatini asosan boshqargan, bitta hisob raqam uchun 250 minga dollargacha summadagi depozitlar omonatlarni sug‘urtalash federal korporatsiyasi (OSFK) tomonidan sug‘urtalangan.O‘zaro jamg‘arma banklari ishlari ko‘p jihatlari OSFK normalari bilan boshqarilgan, OSFKda sug‘urtalanmagan depozitlar shtat sug‘urtalash fondlari hisobiga o‘z depozitlarini sug‘urtalashadi.

Filiallar ochish bo‘yicha o‘zaro jamg‘arma banklar faoliyati banklar joylashgan shtat organlari tomonidan boshqariladi.Bunday boshqarish normalari juda qattiq emas, o‘zaro jamg‘arma banklari aktivlari 25 mln.dollardan kam darajadadir.[147]

14.4 Mikrokredit tashkilotlari

B MT tomonidan insoniyatni global muammolarini hal etish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish va muvofiqlashtirish uchun qabo‘l qilingan ming yillik deklaratsiyasida kambag‘allik masshtabini kamaytirish maqsadi qo‘yilgan. Ushbu maqsadga erishishning hayotbaxsh strategiyalaridan biri bo‘lib mikromoliyalashtirish bo‘lib, bu o‘zining samaradorligini ko‘pgina davlatlarda ko‘rsatdi.

Hozirgi vaqtda mikromoliyalashtirish tashkilotlari dunyo bo‘yicha 500 mln.dan ortiq mijozlarga xizmat qiladi, ularning jami zayom portfeli 2,0 mlrd.dollardan oshiqdir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha mikromoliyalashtirish tashkilotlari 67,6 mln. oilaga foyda keltirmoqda, ularning katta qismi – 37,7 mln. mikromoliyalashtirish programmasiga ishtirok etishni boshlaganlarida juda kambag‘al oilalardan bo‘lganlar.

Mikromoliyalashtirishni tor va keng ma’noda qarash mumkin. Tor ma’noda mikromoliyalashtirish deganda unchalik katta bo‘lmagan kreditlar berish va lizing xizmatini ko‘rsatishga tushuniladi. Keng ma’noda esa, mikromoliyalashtirish deganda mikrokredit va mikrolizingdan tashqari mikrojamg‘armalar, mikrosug‘urtalar, pul o‘tkazmalari va konsalting xizmatlari kabi keng tarmoqli moliyaviy xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Mikromoliyalashtirish tashkilotlari kichik tadbirkorlarni qo‘llab quvvatlash, aholining iqtisodiy aktivligini oshirish hisobidan yashash darajasini rivojlantirish va oilalar daromadini oshirishga yo‘naltirilgandir.

[147]Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markrts. Saving and Loan Associations page 344.

Mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar koʻrsatish boʻyicha faoliyatni amalga oshiruvchi mikromoliyaviy xizmatlar koʻrsatuvchi yuridik shaxs mikrokredit tashkilotidir.

Mikrokredit tashkiloti ishlab chiqarish, sugʻurta, savdo-vositachilik va Qonunda nazarda tutilmagan boshqa faoliyat bilan bevosita shugʻullanishga haqli emas. "Mikrokredit tashkilotlari toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mikrokredit tashkilotlarining boshqa mikromoliyaviy xizmatlar koʻrsatuvchi tashkilotlardan farqi, ular qarz majburiyatlarini chiqarishga hamda jismoniy shaxslardan omonatlar (depozitlar) qaboʻl qilishga ham haqli emas deb koʻrsatilgan.

Mikrokredit tashkilotlari yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi mumkin.

Mikrokredit tashkilotlari davlat organlari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va diniy tashkilotlar tomonidan tashkil etilishi mumkin emas.

Mikrokredit tashkiloti ta'sis hujjatlari asosida faoliyat koʻrsatadi. Mikrokredit tashkilotining ustav fondi pul mablagʻlaridan, shuningdek mazkur tashkilot ustav fondi miqdorining yigirma foizidan oshmaydigan boshqa mol-mulkdan shakllantiriladi.

Mikrokredit tashkilotining ustav fondini shakllantirishda kreditga, garovga olingan mablagʻlardan va boshqa jalb qilingan mablagʻlardan foydalanishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Mikrokredit tashkiloti ustav fondining eng kam miqdori litsenziya olish uchun murojaat qilingan kunga qadar faqat pul mablagʻlaridan shakllantirilgan boʻlishi kerak.

Mikrokredit tashkilotining firma nomida "mikrokredit tashkiloti" soʻz birikmasi ifodalanishi va mazkur nom boshqa mikrokredit tashkilotlarining firma nomiga oʻxshash boʻlmasligi kerak. Ushbu Qonun talablariga javob bermaydigan yuridik shaxs oʻz nomida "mikrokredit tashkiloti" soʻz birikmasidan foydalanishga haqli emas.

Mikrokredit tashkiloti oʻzining firma nomi davlat tilida toʻliq yozilgan hamda joylashgan yeri koʻrsatilgan muhriga ega boʻlishi kerak. Muhrda ayni vaqtning oʻzida firma nomi boshqa tilda ham koʻrsatilishi mumkin.

Mikrokredit tashkiloti oʻz nomi yozilgan shtamplarga, blankalarga va oʻz emblemasiga ega boʻlishga haqlidir.

Mikrokredit tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq davlat roʻyxatidan oʻtkazilishi kerak.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda mikrokredit tashkiloti mikromoliyaviy xizmatlar koʻrsatish faoliyatini litsenziya olganidan keyin amalga oshiradi.

Mikrokredit tashkilotiga litsenziya berish toʻgʻrisidagi yoki litsenziya berishni asoslantirilgan holda rad etish toʻgʻrisidagi qaror litsenziya berish haqidagi ariza bilan murojaat qilingan va litsenziya olish uchun zarur boʻlgan hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran oʻttiz kalendar kun ichida qaboʻl qilinadi.

Bugungi kunda mikrokredit tashkilotlari mikrokredit yoki mikroqarz berish, qarz majburiyatini sotish yoki sotib olish (faktoring), mikrokredit tashkiloti lizing

beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing (moliya ijarasi) va qonun xujjatlariga muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan iste’mol kredit berish bilan shug‘ullanmoqdalar. Mikrokredit tashkilotlari kredit siyosatiga muvofiq o‘rtacha yillik 60 % gacha mikrokreditlar bermoqdalar. Garov, ta’minot sifatida ular tilla taqinchoqlar, avtomobil vositalari va boshqa buyumlar qabo‘l qilishadi.Mikrokredit tashkilotlari o‘z faoliyatini belgilangan qonuniy hujjatlar asosida olib boradilar. Qonuniy baza to‘g‘ri va mustahkam bo‘lsa ularning faoliyati barqaror bo‘ladi.

Bugungi kunga kelib mikrokredit tashkilotlari asosan jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatishlari bilan, berilayotgan mikrokreditlarning uzog‘i bilan 3 ish kunida ajratilishi va ular asosan naqd pul shaklida berilishlari bilan tijorat banklarining ko‘rsatilayotgan xizmatlaridan bir muncha ustunlikga ega bo‘lib kelinmoqda.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda kredit muassasalari tomonidan iqtisodiyot sohalarini, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni noan’anaviy kreditlash usullarini qo‘llangan holda rivojlantirish aholi bandligi va daromad darajasini ortishiga yordam beradi

Mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxs mikrokredit tashkilotidir.

Mikrokredit tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi hududida bank hisobvaraqlarini belgilangan tartibda ochishga haqli.

Mikrokredit tashkiloti ishlab chiqarish, sug‘urta, savdo-vositachilik va ushbu Qonunda nazarda tutilmagan boshqa faoliyat bilan bevosita shug‘ullanishga haqli emas.

Mikrokredit tashkilotlari yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi mumkin.

Mikrokredit tashkilotlari davlat organlari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va diniy tashkilotlar tomonidan tashkil etilishi mumkin emas.

Mikrokredit tashkiloti ta’sis hujjatlari asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Mikrokredit tashkilotining ta’sis hujjatlarida muayyan tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslar uchun qonun hujjatlarida belgilangan ma’lumotlarga qo‘shimcha ravishda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

- mikrokreditlar, mikroqarzlar, mikrolizing berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat to‘g‘risidagi;
- boshqaruv organlarining tuzilishi va vakolatlari to‘g‘risidagi;
- mikrokreditlar, mikroqarzlar, mikrolizing berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish uchun mablag‘larni shakllantirish manbalari to‘g‘risidagi;
- mikrokredit tashkilotida audit o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi.

Mikrokredit tashkilotining ustav fondi pul mablag‘laridan, shuningdek mazkur tashkilot ustav fondi miqdorining yigirma foizidan oshmaydigan boshqa mol-mulkdan shakllantiriladi.

Mikrokredit tashkilotining ustav fondini shakllantirishda kreditga, garovga olingan mablag‘lardan va boshqa jalb qilingan mablag‘lardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mikrokredit tashkiloti ustav fondining eng kam miqdori litsenziya

olish uchun murojaat qilingan kunga qadar faqat pul mablag‘laridan shakllantirilgan bo‘lishi kerak. Mikrokredit tashkilotining firma nomida "mikrokredit tashkiloti" so‘z birikmasi ifodalanishi va mazkur nom boshqa mikrokredit tashkilotlarining firma nomiga o‘xshash bo‘lmasligi kerak. Ushbu Qonun talablariga javob bermaydigan yuridik shaxs o‘z nomida "mikrokredit tashkiloti" so‘z birikmasidan foydalanishga haqli emas.

Mikrokredit tashkiloti o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko‘rsatilgan muhriga ega bo‘lishi kerak. Muhrda ayni vaqtning o‘zida firma nomi boshqa tilda ham ko‘rsatilishi mumkin. Mikrokredit tashkiloti o‘z nomi yozilgan shtamplarga, blankalarga va o‘z emblemasiga ega bo‘lishga haqlidir.

Mikrokredit tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda mikrokredit tashkiloti mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini litsenziya olganidan keyin amalga oshiradi. Mikrokredit tashkilotiga litsenziya berish to‘g‘risidagi yoki litsenziya berishni asoslantirilgan holda rad etish to‘g‘risidagi qaror litsenziya berish haqidagi ariza bilan murojaat qilingan va litsenziya olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar taqdim etilgan kundan e’tiboran o‘ttiz kalendar kun ichida qabo‘l qilinadi.

Mikrokredit tashkiloti litsenziya olish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga yoki uning hududiy boshqarmalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- litsenziya berish haqidagi ariza;
- mikrokredit tashkilotining ta’sis hujjatlari;
- mikrokredit tashkiloti davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning notarial tartibda tasdiqlangan nusxasi;
- mikrokredit tashkiloti boshqaruv organlarining tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- mikrokredit tashkilotining ustav fondi shakllanganligini tasdiqlovchi bank hujjati.

Taqdim etilgan hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan talablarga nomuvofiq bo‘lgan va taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz yoki buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlar mavjud bo‘lgan hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mikrokredit tashkilotiga litsenziya berishni rad etishi mumkin.

Litsenziya berishni rad etish to‘g‘risidagi qaror buyurtma beruvchiga rad etish sabablari hamda buyurtma beruvchi mazkur sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni qaytadan ko‘rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo‘lgan muddat ko‘rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi.

Litsenziya berishni rad etish to‘g‘risidagi qaror ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror quyidagi hollarda qabo‘l qilinadi:

- mikrokredit tashkiloti tomonidan ushbu Qonun hamda boshqa qonun hujjatlari talablari, shu jumladan litsenziya talablari va shartlari buzilganda;
- mikrokredit tashkilotining faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar mazkur tashkilot tomonidan bajarilmaganda.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qaror quyidagi hollarda qabo‘l qilinadi:

- mikrokredit tashkiloti to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lganda;
- hisobot ma’lumotlari muntazam ravishda buzib ko‘rsatilganda;
- mikrokreditlar berish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish litsenziya berilgan paytdan e’tiboran olti oydan ortiq muddatga kechikkanda.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qaror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qabo‘l qilinishi mumkin.

Litsenziyaning soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlangan taqdirda, u bekor qilinadi.

Mikrokredit tashkiloti quyidagi turlardagi mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishi mumkin:

- mikrokreditlar yoki mikroqarzlar berish;
- qarz majburiyatlarini sotib olish va sotish (faktoring);
- mikrokredit tashkiloti lizing beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing (moliya ijarasi);
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan iste’mol kreditlari berish.

Mikrokredit tashkiloti mikrokreditlar, mikroqarzlar, mikrolizing berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq maslahat va axborot xizmatlari ko‘rsatishi mumkin.

Mikrokredit tashkiloti qarz majburiyatlarini chiqarishga hamda yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar (depozitlar) qabo‘l qilishga haqli emas.

Mikrokredit tashkiloti quyidagilar hisobidan mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatadi:

- o‘z mablag‘lari, shu jumladan olgan daromadlari;
- investorlar, shu jumladan chet ellik investorlar tomonidan investitsiya shartnomalari asosida berilgan mablag‘lar;
- banklarning kreditlari va davlat maqsadli jamg‘armalarining mablag‘lari;
- xalqaro moliya institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining, shu jumladan chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining grantlari va qarz mablag‘lari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy tizimning barqarorligini saqlash, qarz oluvchilar va kreditorlarning manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash maqsadida "O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mikrokredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda:

- mikrokredit tashkilotlari ustav fondining eng kam miqdorini hamda moliyaviy va kassa operatsiyalari o‘tkazishning, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishning mazkur tashkilotlar uchun majburiy bo‘lgan qoidalarini belgilaydi;
- mikrokredit tashkilotlarining faoliyatini tekshiradi va ularning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etishga oid bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar beradi;

- mikrokredit tashkiloti ijro etuvchi organi rahbarining malakasiga doir talablarni belgilaydi;
- mikrokredit tashkiloti tomonidan ayrim moliyaviy operatsiyalar o‘tkazishni uch oygacha bo‘lgan muddatga cheklaydi;
- mikrokredit tashkiloti litsenziyasining amal qilishini to‘xtatib turadi, tugatadi yoki litsenziyani bekor qiladi.

Mikrokredit tashkiloti qonun hujjatlarida belgilangan tartibda filiallar tashkil etishga haqli.

Mikrokredit tashkilotining filiali o‘z faoliyatini mikrokredit tashkiloti uchun berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Mikrokredit tashkilotini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Mikrokredit tashkilotlarining buxgalteriya hisobi barcha mikrokredit tashkilotlari uchun yagona bo‘lgan Mikrokredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida hisob ikki yoqlama yozuv usulida yuritiladi. Bunda har bir asosiy hisobvaraq yoki asosiy hisobvaraqlar guruhi uchun kontr-hisobvaraqlar mavjud bo‘lib, ulardan faqat buxgalteriya hisobi maqsadlari uchungina foydalaniladi. Balans hisoboti yoki shu kabi boshqa moliyaviy hisobotlarda asosiy hisobvaraqlar aks ettirilib, kontr-hisobvaraqlardagi ma’lumotlari ko‘rsatilmaydi.

Buxgalteriya apparati mikrokredit tashkilotlarining hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalar hisobini, hisob hujjatlarini rasmiylashtirish va nazoratini amalga oshiradigan xodimlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tuzilma mikrokredit tashkilotlarining bosh buxgalteri tomonidan boshqariladi.

Har bir mikrokredit tashkilotida xodimlarning lavozim vazifalari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan bo‘lishi zarur. Mazkur lavozim vazifalarining nusxalari tegishli xodimlarga tanishtiriladi va bosh buxgalter tomonidan imzo qo‘ydirib beriladi.

Buxgalteriya xodimiga, uning lavozim majburiyatlariga muvofiq ma’lum vazifalarni bajarish yuklatiladi.

Chiqim kassa operatsiyalari ustidan nazorat maxsus ajratilgan buxgalter-nazoratchi tomonidan, agar mikrokredit tashkilotida bu lavozim ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, bosh buxgalter yoki uning o‘rinbosari tomonidan mikrokredit tashkiloti rahbarining buyrug‘i asosida amalga oshiriladi. Shu bilan bir vaqtda mikrokredit tashkilotida chiqim kassa operatsiyalari bo‘yicha kassa chiqim jurnali yuritilishi lozim.

Hisobga olish hujjatlarida mikrokredit tashkilotlari operatsiyalari hisobining yuritilishini tashkil etish va hisobotlar tuzish hamda hisob va hisobotlarning saqlanishi ustidan rahbarlik bosh buxgalterga yuklatiladi, u bo‘lmagan vaqtda, mikrokredit tashkiloti rahbarining buyrug‘i asosida bosh buxgalterning o‘rinbosariga yuklatilishi mumkin.

Buxgalteriya xodimlarining ish kuni davomida mikromoliyalashga oid hisob hujjatlari rasmiylashtirilishi va ushbu hujjatlar asosida amalga oshirilgan operatsiyalar shu kunning o‘zida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirilishi lozim.

Har bir mikrokredit tashkilotida tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlar aylanish jadvali belgilanadi. Jadvalda hujjatlarning barcha ko‘rib chiqish jabhalari bo‘yicha o‘tish tartibi belgilanadi.

Moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganda ularning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi, shuningdek mablag‘lar va qimmatliklarning but saqlanishini tegishlicha nazorat qilish ta’minlanishi lozim.

Kassa chiqim operatsiyalari chiqim kassa orderi bilan rasmiylashtiriladi va nazorat qilinadi. Bosh buxgalter amalga oshiriladigan operatsiyalarning haqqoniyligini, qonun hujjatlariga mosligini, hujjatlar to‘g‘ri rasmiylashtirilishini tekshiradi. Kassa chiqim orderi ijrochi direktor va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi.

Kassa chiqim hujjatlarini to‘lov uchun kassaga yo‘naltirilish tartibi mikrokredit tashkiloti ijrochi direktori va bosh buxgalteri tomonidan o‘rnatiladi.

Kassa kirim operatsiyalarini rasmiylashtirish va mikrokredit tashkiloti kassa hisobvarag‘iga mablag‘larni kiritish faqat kassaga haqiqatda pul kelib tushganidan so‘ng amalga oshirilishi lozim.

Bunda kassa kirim orderi 3 nusxada rasmiylashtirilib, naqd pul topshirilgandan so‘ng, uchinchi nusxa naqd pul qo‘yuvchiga kvitansiya sifatida mikrokredit tashkiloti muhri va kassir imzosi bilan qaytariladi, ikkinchi nusxa buxgalteriyaga tegishli buxgalteriya o‘tkazmasini amalga oshirish uchun beriladi, birinchi nusxa kassa kunlik hujjatlariga tikiladi.

Mikrokredit tashkilotining bosh buxgalteri muhrlar, shtamplar va blanklardan foydalanish, ularning yo‘qolishi yoki suiiste’molchilik maqsadlarida foydalanish sharoitiga imkon bermaslik uchun tegishli ravishda saqlanishini ta’minlashi shart. Mikrokredit tashkiloti rahbarining buyrug‘i asosida bosh buxgalter muhrlarni ro‘yxatga olish kitobini yuritadi. Mazkur kitobda muhrlar va burchak muhrlarining hisobi ularni saqlayotgan buxgalter hamda kassirlar familiyasi va lavozimi hamda biriktirilgan burchak muhrlarning izi ko‘rsatilgan holda imzo orqali rasmiylashtiriladi.

Mikrokredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish uchun Bosh va Yordamchi kitoblardan (sintetik va analitik hisob) foydalaniladi.

Bosh kitob bu hisobvaraqlar rejasi nomenklaturasiga mos hisobvaraqlar guruhi bo‘lib, moliya hisobotlarni (balans hisoboti, daromad va xarajatlar to‘g‘risida hisoboti va boshqalar) tayyorlashda ishlatiladigan yig‘ma ma’lumotlarni aks ettiradi.

Mikrokredit tashkilotlarida bosh kitob kunlik balans shaklida yuritiladi. Bundan tashqari bosh kitob balans hisobvaraqlari bo‘yicha mablag‘lar aylanmasi va qoldiqlari ma’lumotidan tashkil topishi mumkin. Bosh kitob ma’lumotlari quyidagi yordamchi kitoblar ma’lumotlari asosida shakllantiriladi:

- pul mablag‘larini hisobga olish kitobi;
- berilgan mikrokredit, mikrolizing, mikroqarz va boshqa mikromoliyalash operatsiyalarni hisobga olish kitobi;
- hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish kitobi;
- kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni hisobga olish kitobi;
- mehnatga haq to‘lashni hisobga olish kitobi;
- hisobot davri xarajatlarini hisobga olish kitobi;

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish kitobi;
- kirim va chiqim kassa kitoblari.

Barcha kunlik operatsiyalar Yordamchi kitobda xronologik tartibda aks ettiriladi. Yordamchi kitob uchun manba bo‘lib quyidagi birlamchi buxgalteriya hujjatlari hisoblanadi:

- kirim kassa orderi;
- chiqim kassa orderi;
- memorial orderi;
- to‘lov topshiriqnomasi;
- kirim va chiqim bo‘yicha kassa kitoblari;
- boshqa birlamchi hujjatlar.

Yordamchi kitobni yuritishni soddalashtirish va qo‘shimcha nazorat uchun kassa operatsiyalari hisobi kirim va chiqim bo‘yicha kassa kitoblarida yuritiladi. Kun oxirida kirim va chiqim kassa kitoblaridagi qoldiqlar kassa bilan solishtiriladi. Mazkur daftarlardagi ma’lumotlar har bir hisobvaraq bo‘yicha alohida yig‘ilib, yordamchi kitobiga o‘tkaziladi. Kassa hujjatlari alohida tikib boriladi va ular kassada saqlanadi.

Mikrokredit tashkiloti kassa kitoblarining barcha varaqlari raqamlangan, ip o‘tkazib tikilgan va mikrokredit tashkiloti ijro etuvchi organ rahbari va bosh buxgalterining imzosi, shuningdek mikrokredit tashkiloti muhri bilan tasdiqlanadi.

Hisobga olish davri moliyaviy operatsiyalar tahlilidan boshlanib, moliyaviy hisobotlarni tuzish va hisobvaraqlarni yopishgacha bo‘lgan hisob jarayonining ketma-ket bosqichini o‘z ichiga oladi.

Hisobga olish davri quyidagi bosqichlardan iborat:

a) birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish (kirim kassa orderi, chiqim kassa orderi, memorial orderi va boshqa hujjatlar);

b) yordamchi kitoblarda operatsiyalarni ro‘yxatga olish;

v) oyning oxirida yordamchi kitoblardagi jami summani Bosh kitobga o‘tkazish;

g) oy oxirida buxgalteriya balansini tayyorlash;

d) buxgalteriya balansi asosida moliyaviy hisobotni tayyorlash;

e) hisobot yili oxirida mikrokredit tashkilotining foyda va zararlar hisobvaraqlarini yopish;

j) yillik moliyaviy hisobotlarni tuzish.

Bosh va Yordamchi buxgalteriya kitoblarida hech qanday tuzatishlar qilinishiga ruxsat etilmaydi. O‘chiruvchi suyuqliklar yordamida, shuningdek summalarni o‘chirib yozish va tuzatish yo‘li bilan tuzatishlar kiritish taqiqlanadi.

Aniqlangan xato yozuvlar ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlarga teskari yozuvlar kiritish yo‘li bilan (storno usulida) tuzatish orderlarini tuzish asosida tuzatilishi lozim.

Tuzatish orderi ikki nusxada tuziladi:

a) birinchi nusxasi o‘tkazmani tasdiqlovchi birlamchi hujjat hisoblanadi;

v) ikkinchi nusxasi tuzatish orderlarini ro‘yxatga olish kitobiga tikiladi.

Tuzatish orderi matnida qachon va qaysi hujjatda xatoga yo‘l qo‘yilgani ko‘rsatilishi kerak, agarda qarzdorning tashabbusi bilan berilgan arizaga asosan

bo‘lsa, unda arizaga eslatma beriladi. Ushbu ariza birlamchi hujjatlar bilan birga saqlanadi.

Tuzatish orderi ikkinchi nusxasining teskari tomonida, shuningdek ro‘yxatga olish kitobida xatoga yo‘l qo‘ygan shaxsning F.I.SH. va lavozimi ko‘rsatiladi. Ro‘yxatga olish kitobi bosh buxgalterda saqlanadi.

Summasi keyinchalik storno bilan tuzatilgan kredit kartochkasida yoki shaxsiy hisobvaraqdagi xato yozuv qarshisiga albatta "Stornolangan" belgisi qo‘yilishi, tuzatish kiritilgan sana va tuzatish orderining raqami ko‘rsatilishi shart. Bu qayd tuzatish orderini imzolagan bosh buxgalter yoki uning muovini imzosi bilan tasdiqlanadi.

Mikrokredit tashkilotlari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, banklarda depozit hisobvaraqlari va boshqa bank hisobvaraqlari ochish huquqiga ega.

Mikrokredit tashkiloti bilan mijoz o‘rtasida mikrokredit berish bo‘yicha kredit shartnomasi kuchga kirgandan so‘ng, keyingi ish kunidan kechiktirmasdan mikrokredit tashkiloti ijrochi direktori mikrokreditning muddati va foiz stavkasini ko‘rsatgan holda, mijoz uchun shaxsiy ssuda hisobvarag‘i ochish to‘g‘risida buxgalteriyaga farmoyish beradi. Farmoyishga asosan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan mijozga shaxsiy ssuda hisobvarag‘i ochiladi. Bunda mikrokredit tashkiloti tomonidan har bir qarzdorga alohida kredit kartochkasi ochiladi.

Mikrokredit tashkilotlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratiladigan mikrokreditlar hamda jismoniy shaxslarga mikroqarzlar miqdori qonunchilik bilan belgilanadi.

Mikrokredit tashkiloti tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor va yuridik shaxslarga mikrokredit hamda jismoniy shaxslarga mikroqarzlar berilganda har bir qarz oluvchiga kredit kartochkasi rasmiylashtiriladi. Kredit kartochkasida berilgan barcha mikrokredit va mikroqarzlar bo‘yicha operatsiyalar hisobi olib boriladi.

Mikrokredit va mikroqarz berish bo‘yicha operatsiyalar o‘tkazilganda bosh buxgalter:

- har bir qarzdor uchun mikrokredit (mikroqarz) shartnomasi va ijrochi direktor farmoyishiga asosan alohida shaxsiy ssuda hisobvarag‘ini ochadi;
- mikrokredit va mikroqarzlar berish bo‘yicha farmoyishdagi operatsiyalarni va tegishli o‘tkazmalarni amalga oshirishni tasdiqlaydi;
- farmoyishni ushbu qarzdor hisobvarag‘ini yurituvchi buxgalteriya xodimiga beradi, mikrokredit va mikroqarz shartnomasini kredit bo‘limi xodimiga jo‘natadi.

Bunda mikrokredit va mikroqarz bo‘yicha naqd pul mablag‘lari berilganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet Mikrokredit va mikroqarz bo‘yicha tegishli shaxsiy ssuda hisobvarag‘i;

Kredit 10101 - "Kassadagi pul mablag‘lari" hisobvarag‘i.

Mikrokredit va mikroqarz mijozga naqd pulsiz tarzda berilganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet Mikrokredit va mikroqarz bo‘yicha tegishli shaxsiy ssuda hisobvarag‘i;

Kredit 10503 - "Banklarga qo‘yilgan talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar" hisobvarag‘i.

Mikrokredit va mikroqarz bo‘yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlar naqd pulda so‘ndirilganda quyidagi o‘tkazma amalga oshiriladi:

Debet 10101 - "Kassadagi pul mablag‘lari" hisobvarag‘i;

Kredit Mikrokredit yoki mikroqarz bo‘yicha tegishli shaxsiy ssuda hisobvarag‘i;

Kredit 163** - Mikrokredit yoki mikroqarz bo‘yicha olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar bo‘yicha tegishli hisobvaraq.

Xuddi shuningdek mikrokredit va mikroqarz bo‘yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlar naqd pulsiz shaklda so‘ndirilganda quyidagi o‘tkazma amalga oshiriladi:

Debet 10503 - "Banklarga qo‘yilgan talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar" hisobvarag‘i;

Kredit Mikrokredit yoki mikroqarz bo‘yicha tegishli shaxsiy ssuda hisobvarag‘i;

Kredit 163** - Mikrokredit yoki mikroqarz bo‘yicha olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar bo‘yicha tegishli hisobvaraq.

Hisoblangan foizlar summasi mikrokredit tashkiloti tomonidan har xil mikrokredit yoki mikroqarz turlari bo‘yicha belgilangan yillik foiz stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Foizlar hisoblashda bir yil deb 365 (366) kun qabo‘l qilinadi. Foizlar mikrokredit yoki mikroqarz berilgan sanadan boshlab haqiqiy kunlar miqdoridan (mikrokredit yoki mikroqarz berilgan kun hisobga olingan holda) yoki foizlarni qaytarishni oxirgi kunidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

$$\frac{\text{Kredit yoki qarz summasi x foiz stavkasi x kunlar soni}}{365\ (366)}$$

Olinishi lozim bo‘lgan foizlar har kuni hisoblanadi va quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Debet 163** - Mikrokredit yoki mikroqarz bo‘yicha olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar bo‘yicha tegishli hisobvaraq;

Kredit 42000 - 44500 - Mikrokredit va mikroqarzlar bo‘yicha foizli daromadlar tegishli hisobvarag‘i.

Mikrokredit yoki mikroqarzning asosiy summasi yoki foizlar qaytarilishi 60 va undan ortiq kunga kechiktirilgan holda va bunday mikrokredit va mikroqarzlar bo‘yicha foizlarni balans hisobvaraqlarida hisoblash to‘xtatilganda, hisoblangan, lekin olinmagan barcha foizlar quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi bilan hisobdan chiqarilishi lozim:

Debet 42000 - 44500 - Mikrokredit va mikroqarzlar bo‘yicha foizli daromadlar tegishli hisobvarag‘i;

Kredit 163** - Mikrokredit yoki mikroqarz bo‘yicha olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar bo‘yicha tegishli hisobvaraq.

SHuningdek, ushbu foizlar summasini ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida aks ettirish uchun quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 91501 - "Berilgan mikroqarzlar, mikrokreditlar va mikrolizinglar bo‘yicha hisoblangan foizlar" hisobvarag‘i;

Kredit 96335 - "Aktivlar bo‘yicha foizlar va vositachilik haqlari bo‘yicha kontr-hisobvaraq".

Foizlar balansdan hisobdan chiqarilganidan so‘ng, foizlarni keyingi hisoblash faqat balansdan tashqari 91501 - "Berilgan mikroqarzlar, mikrokreditlar va mikrolizinglar bo‘yicha hisoblangan foizlar" va 91505 - "Boshqa aktivlar bo‘yicha foizlar va vositachilik haqlari" hisobvaraqlarida qoida bo‘yicha 3 yildan oshmagan vaqtgacha amalga oshirilishi mumkin. Bunda barcha muddati o‘tgan foizlar kreditning asosiy summasi to‘liq qoplanganidan va to‘langanidan keyin daromadga kiritilishi mumkin.

Avval hisobdan chiqarilgan va balansdan tashqari hisoblanadigan foizlarni qaytarishda:

Debet 96335 - "Aktivlar bo‘yicha foizlar va vositachilik haqlari bo‘yicha kontr-hisobvaraq" hisobvarag‘i;

Kredit 91501 - "Berilgan mikroqarzlar, mikrokreditlar va mikrolizinglar bo‘yicha hisoblangan foizlar" hisobvarag‘i.

Mikrokredit va mikroqarzlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasiga o‘tkazmalar mikrokredit tashkilotining xarajatiga 56802 - "Mikroqarz va mikrokreditlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash" hisobvarag‘i orqali olib borilishi va joriy davr uchun "Foyda va zararlar to‘g‘risida hisobot"da aks ettirilishi shart:

Debet 56802 - "Mikrokredit va mikroqarzlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash" hisobvarag‘i;

Kredit Mikrokredit va mikroqarzlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasining tegishli hisobvarag‘i (kontr-aktiv).

Tegishli zaxiralar hisobidan mikrokredit va mikroqarzlarni hisobdan chiqarish quyidagi o‘tkazma bilan amalga oshiriladi:

Debet Mikrokredit va mikroqarzlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasining tegishli hisobvarag‘i (kontr-aktiv);

Kredit Mikrokredit va mikroqarz bo‘yicha tegishli shaxsiy ssuda hisobvarag‘i.

Oldin balansdan hisobdan chiqarilgan mikrokredit va mikroqarzlar bo‘yicha asosiy qarz va foizlar naqd pulda undirilganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet 10101 - "Kassadagi pul mablag‘lari" hisobvarag‘i;

Kredit 45921 - "Hisobdan chiqarilgan mablag‘larning qaytarilishi" hisobvarag‘i;

Kredit 42000 - 44500 - Mikrokredit va mikroqarzlar bo‘yicha foizli daromadlar tegishli hisobvarag‘i.

Ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida oldin hisobdan chiqarilgan mikrokredit va mikroqarz summasi (asosiy qarz)ga:

Debet 96397 - "Boshqa ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo‘yicha kontr-hisobvaraq";

Kredit 95413 - "Hisobdan chiqarilgan mikroqarzlar, mikrokreditlar va mikrolizinglar".

Mikrokredit tashkiloti tomonidan mikrolizingga berilgan aktivlarning hisobi 15600 - "Mikrolizing (moliyaviy ijara)" hisobvaraqlarida yuritiladi.

Mikrokredit tashkilotida mikrolizing obyektini dastlabki tan olish mikrolizing shartnomasining amal qilish muddati boshlanishida amalga oshiriladi. Bunda, mikrokredit tashkiloti o‘z balansida lizingga berilgan mikrolizing obyektini sotib olish, uni lizing oluvchiga yetkazib berish va foydalanishga shay holga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar yig‘indisi yoki uning haqqoniy qiymatida, ularning qaysi biri kichik bo‘lsa o‘sha summada aktiv sifatida tan oladi.

Mikrokredit tashkiloti mikrolizing obyekti uchun to‘lovlarni sotuvchiga oldindan to‘lab bergan holda mikrolizing obyekti to‘g‘ridan to‘g‘ri lizing oluvchiga yetkazib berilsa, mikrokredit tashkiloti foydalanishga qabo‘l qilish dalolatnomasiga asosan memorial order to‘ldirib, quyidagi buxgalteriya amallarini bajaradi:

a) Debet 19909 - "Tovar-moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘langan mablag‘lar hisobvarag‘i";

Kredit 10503 - "Banklarga qo‘yilgan talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar";

b) Debet 15607 - "Mikrolizing";

Kredit 19909 - "Tovar-moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘langan mablag‘lar hisobvarag‘i".

Mikrokredit tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan va mikrolizing shartnomasiga muvofiq lizing oluvchi tomonidan qoplanadigan dastlabki bevosita xarajatlar mikrolizing obyektining qiymatiga qo‘shiladi.

Mikrolizing shartnomasiga muvofiq yuqoridagi xarajatlar lizing oluvchi tomonidan qoplanmagan taqdirda, mazkur xarajatlar yuzaga kelgan paytdagi tegishli hisobot davri xarajatlari sifatida tan olinadi.

Mikrokredit tashkiloti tomonidan mikrolizing obyekti dastlabki tan olinganidan so‘ng, keyingi hisob lizing oluvchi tomonidan to‘lanadigan mikrolizing bo‘yicha asosiy qarz summasini (dastlabki tan olingan summani) va u bo‘yicha foizlarning hisobini yuritishdan iborat. Keyingi hisob mikrolizing obyektini baholab borishni ham o‘z ichiga oladi.

Mikrokredit tashkilotining daromadi lizing oluvchi tomonidan lizing to‘lovlarining amalga oshirilishidan qat’iy nazar, tegishli hisobot davrlarida lizing to‘lovlari jadvaliga muvofiq hisoblanadi.

Mikrokredit tashkiloti tomonidan mikrolizing bo‘yicha foizli daromadlar hisoblanganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari beriladi:

Debet 16323 - "Mikrolizing (moliyaviy ijara) bo‘yicha olish uchun hisoblangan foizlar";

Kredit 45105 - "Mikrolizing bo‘yicha foizli daromadlar".

Lizing to‘lovlari kelib tushgan hollarda, xususan asosiy qarzning qaytarilgan summasiga hamda foizli daromad summasiga quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari beriladi:

Debet 10503 - "Banklarga qo‘yilgan talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar";

Kredit 15607 - "Berilgan mikrolizing";

Kredit 16323 - "Mikrolizing (Moliyaviy ijara) bo‘yicha olish uchun hisoblangan foizlar".

Mikrolizing shartnomasi muddati tugaganidan so‘ng lizing to‘lovlarini to‘lash shartlari to‘liq bajarilgan taqdirda 15607 - "Berilgan mikrolizing"; va 16323 - "Mikrolizing (Moliyaviy ijara)" bo‘yicha olish uchun hisoblangan foizlar hisobvaraqlari qoldig‘i nolga teng bo‘ladi.

Lizing oluvchi tomonidan mikrolizing obyekti mikrolizing shartnomasi muddati tugamasidan oldin sotib olingan hollarda ham ushbu hisobvaraqlardagi qoldiq nolga teng bo‘ladi.

Mikrolizing obyekti lizing oluvchi tomonidan mikrolizing shartnomasi shartlari buzilganligi sababli qaytarib olinganida, lizing beruvchi mikrokredit tashkiloti ushbu aktivning taqdirini hal etgunga qadar uni o‘z balansiga quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari orqali qabo‘l qiladi:

Debet 16701 - "Ko‘chmas mulk va boshqa xususiy mulklar";

Kredit 15607 - "Berilgan mikrolizing".

Mikrolizing operatsiyalari bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasiga o‘tkazmalar mikrokredit tashkilotining xarajatiga 56838 - "Mikrolizing (moliyaviy ijara) bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash" hisobvarag‘i orqali olib borilishi va joriy davr uchun "Foyda va zararlar to‘g‘risida hisobot"da aks ettirilishi shart:

Debet 56838 - "Mikrolizing (moliyaviy ijara) bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash" hisobvarag‘i;

Kredit 15699 - "Mikrolizing bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)".

Tegishli zaxiralar hisobidan mikrolizingni hisobdan chiqarish quyidagi o‘tkazma bilan amalga oshiriladi:

Debet 15699 - "Mikrolizing bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)";

Kredit Tegishli mikrolizing hisobvarag‘i.

Oldin balansdan hisobdan chiqarilgan mikrolizing bo‘yicha asosiy qarz va foizlar naqd pulda undirilganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10101 - "Kassadagi pul mablag‘lari";

Kredit 45921 - "Hisobdan chiqarilgan mablag‘larning qaytarilishi";

Kredit 45100 - "Mikrolizing (moliyaviy ijara) bo‘yicha foizli daromadlar".

Xuddi shuningdek balansdan hisobdan chiqarilgan mikrolizing bo‘yicha asosiy qarz va foizlar naqd pulsiz undirilganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10503 - "Banklarga qo‘yilgan talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar";

Kredit 45921 - "Hisobdan chiqarilgan mablag‘larning qaytarilishi";

Kredit 45100 - "Mikrolizing (moliyaviy ijara) bo‘yicha foizli daromadlar".

Oldin hisobdan chiqarilgan mikrolizing summasi (asosiy qarz)ga:

Debet 96397 - "Boshqa ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo‘yicha kontr-hisobvaraq";

Kredit 95413 - "Hisobdan chiqarilgan mikroqarzlar, mikrokreditlar va mikrolizinglar".

Mikrokredit tashkilotlari mikrolizing shartnomasi bo‘yicha lizing oluvchi sifatida ishtirok etgan taqdirda lizingga olingan aktivlar hisobi 16515 - "Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi", lizing bo‘yicha yuzaga kelgan majburiyatlar esa 22100 - "Lizing (moliyaviy ijara) bo‘yicha majburiyatlar"ning tegishli mos hisobvaraqlarida yuritiladi.

Mikrolizing lizing oluvchi mikrokredit tashkilotining moliyaviy hisobotlarida ham aktiv, ham majburiyat sifatida tan olinadi. Ushbu dastlabki tan olish mikrolizing shartnomasi muddati boshlanishida amalga oshiriladi. Bunda, lizing oluvchi mikrokredit tashkiloti lizing obyektini o‘z balansida sof investitsiya qiymati yoki uning haqqoniy qiymatining qaysi biri kichik bo‘lsa o‘sha summada aks ettiradi.

Mikrolizingni dastlabki tan olishda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi bajariladi:

Debet 16515 - "Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi";

Kredit 22100 - "Lizing (moliyaviy ijara) bo‘yicha majburiyatlar"ning tegishli hisobvarag‘i.

Mikrolizing oluvchi mikrokredit tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan mikrolizing obyektini sotib olish, etkazib berish yoki belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar mikrolizing obyektining qiymatiga qo‘shiladi.

Mikrolizing obyekti lizing oluvchi mikrokredit tashkiloti balansida aktiv va majburiyatlarning alohida moddalari sifatida aks ettirilishi lozim. Mikrolizing bo‘yicha majburiyatni aktiv summasidan chegirib tashlagan holda (kontr-aktiv hisobvaraq sifatida) ko‘rsatishga ruxsat etilmaydi.

Lizing oluvchi mikrokredit tashkiloti tomonidan mikrolizing dastlabki tan olingandan so‘ng keyingi hisob majburiyat bo‘yicha asosiy qarz summasini (dastlabki tan olingan summani) va mikrolizing bo‘yicha foizlar to‘lash hisobini yuritishdan iborat.

Keyingi hisob, mikrolizing bilan bog‘liq barcha xavf-xatarlar lizing oluvchiga o‘tganligi sababli lizing oluvchi mikrokredit tashkiloti tomonidan mikrolizing obyektini baholab borish, amortizatsiya ajratmalarini va shartnomada ko‘zda tutilgan boshqa xarajatlarni amalga oshirish ishlarini ham o‘z ichiga oladi.

Dastlabki tan olishda yoki obyektni lizingga olish vaqtida lizing oluvchi mikrokredit tashkilotining mikrolizing foizi bo‘yicha xarajatlari buxgalteriya hisobida aks ettirilmaydi.

Lizing oluvchi mikrokredit tashkiloti tomonidan lizing to‘lovlari jadvaliga muvofiq mikrolizing bo‘yicha foizli xarajatlar hisoblanganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari beriladi:

Debet 54902 - "Boshqa foizli xarajatlar";

Kredit 22408 - "Lizing (moliyaviy ijara) bo‘yicha hisoblangan foizlar".

Lizing oluvchi mikrokredit tashkiloti tomonidan lizing to‘lovlari quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari orqali amalga oshiriladi:

Debet 22408 - "Lizing (moliyaviy ijara) bo‘yicha hisoblangan foizlar";

Debet 22100 - "Lizing (moliyaviy ijara) bo‘yicha majburiyatlar";

Kredit 10503 - "Banklarga qo‘yilgan talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar" (yoki 10101 "Kassadagi pul mablag‘lari").

Lizing oluvchi mikrokredit tashkiloti tomonidan mikrolizing obyekti bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari ushbu Yo‘riqnomaning 99-bandi talablari asosida amalga oshiriladi va quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 56626 - "Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo‘yicha eskirish summasi";

Kredit 16519 - "Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo‘yicha yig‘ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)".

Aniq bir davrdagi lizing oluvchi mikrokredit tashkilotining mikrolizing obyekti bo‘yicha amortizatsiya ajratmasi va moliyaviy xarajatlari (mikrolizing bo‘yicha foizlari) summasi mazkur davrda to‘lanishi kerak bo‘lgan lizing to‘lovlari summasiga teng bo‘lmasligi mumkin.

Mikrolizing obyektini yillik qayta baholash lizing oluvchi mikrokredit tashkiloti tomonidan qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Lizing oluvchi mikrokredit tashkiloti tomonidan oxirgi to‘lovlar amalga oshirilganidan keyin 16515, 16519, 22100 va 22408 balans hisobvaraqlarida mazkur lizing operatsiyalari bo‘yicha ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar (analitik hisob) qoldig‘i nolga teng bo‘ladi va mulkka egalik huquqi lizing oluvchiga o‘tadi.

Mikrolizing obyektining lizing oluvchi mikrokredit tashkilotiga o‘tkazish quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari orqali amalga oshiriladi:

a) Debet 16519 - "Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo‘yicha yig‘ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)";

Kredit 16515 - "Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi";

b) Debet 16500 - "Asosiy vositalar"ning tegishli hisobvarag‘i;

Kredit 165** - Asosiy vositalarning yig‘ilgan eskirish summasi tegishli hisobvarag‘i (kontr-aktiv).

Mikrolizing shartnomasi muddati oxirida lizing oluvchi mikrokredit tashkilotiga mikrolizing obyektining sotish sanasidagi haqqoniy qiymatidan past narxda sotib olish huquqi berilgan bo‘lsa, sotib olish quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Debet 22100 - "Lizing (moliyaviy ijara) bo‘yicha majburiyatlar";

Kredit 10503 - "Banklarga qo‘yilgan talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar" (yoki 10101 "Kassadagi pul mablag‘lari").

Mikrolizing shartnomasi uning amal qilish muddatidan oldin to‘xtatilib lizing beruvchi tomonidan mikrolizing obyekti shartnoma shartlarida belgilangan tartibda olib qo‘yilgan taqdirda, mikrolizing obyektini lizing beruvchiga qaytarish mikrolizing shartnomasining amal qilish muddati to‘xtatilgan sanadagi mikrolizing obyektining qoplanmagan qiymati summasida amalga oshiriladi va bunda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet 16519 - "Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo‘yicha yig‘ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)";

Kredit 16515 - "Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi".

Mikrolizing obyektining hisobdan chiqarish bo‘yicha moliyaviy natija (foyda yoki zarar) mikrolizing obyektining qoldiq (balans) qiymati va lizing to‘lovlari jadvali bo‘yicha qolgan qarz o‘rtasidagi farq sifatida mikrolizing obyektining

hisobdan chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar summasini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Mikrolizing obyektining hisobdan chiqarish bo‘yicha moliyaviy natija (foyda yoki zarar) aniqlanganida, oldingi qayta baholashlardagi mikrolizing obyekti qiymatining ko‘paygan summasi, ya’ni oldingi baholashlar natijasida 30908 - "Boshlang‘ich qiymatga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" hisobvarag‘ining kredit qoldig‘i mikrolizing obyektining chiqib ketishidan ko‘rilgan daromad tarkibiga qo‘shiladi va bir vaqtning o‘zida ushbu hisobvaraq bo‘yicha rezerv kapitalini kamaytiradi.

14.5 Lombard tashkilotlari

L ombard tashkilotlari deganda qimmatbaho metallarni garovga olgan holda kredit beruvchi yuridik shaxs maqomiga ega tashkilotlar tushuniladi. Lombard tashkilotlari jismoniy shaxslarga o‘zining moliyaviy xizmatlarini ko‘rsatadi.

Lombard faoliyatini amalga oshirishga maxsus litsenziyaga ega bo‘lgan holda lombardlar faoliyati fakat ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Lombardlar faoliyatini litsenziyalashni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki amalga oshiradi.Lombardlar faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya belgilanmagan muddatga beriladi. Litsenziyani boshqa yuridik shaxsga berish taqiqlanadi. Lombardlar faoliyatini amalga oshirishga litsenziya qonunchilikda tegishli tashkiliy – huquqiy shakl uchun belgilangan eng kam ustav fondi miqdori shakllantirilgan holda, lombard sifatida qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan yuridik shaxsga berilishi mumkin. Lombardning ustav fondi lombard muassislari to‘lagan pul mablaglaridan shakllantiriladi. Kreditga va garovga olingan mablaglardan hamda boshqa jalb qilingan mablag‘lardan lombardning ustav fondini shakllantirish uchun foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Lombard shtatida baxolash faoliyatini amalga oshirish xuquqini beruvchi tegishli litsenziyaga ega va maxsus kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan malakali mutaxassislar bo‘lishi shart.

Lombardlar tomonidan amalga oshiriladigan xizmat turlari:

1. Lombardlar fuqarolarga shaxsiy iste’mol uchun mo‘ljallangan ko‘char mulk garov ostida qisqa, lekin, 3 oydan ko‘p bo‘lmagan, muddatli kreditlar beradilar.
2. Lombardlar amalda shakllantirilgan ustav fondining 50% idan oshmaydigan miqdorida bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘larini jalb qilish huquqiga ega.
3. Lombard, pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat taqdim etilganda, fuqarolar bilan shartnomalar tuzadi.
4. Lombard garovga yoki saqlash uchun topshirilgan mulkdan foydalanish va tasarruf etishga haqli emas.

Kreditlarni rasmiylashtirish va berish tartibi:

• Garov ostida kreditning berilishi lombard bilan fuqaro o‘rtasida tuziladigan kredit shartnomasi va garov shartnomasi asosida amalga oshiriladi;

• Lombard undiruvni qaratish mumkin bo‘lmagan mulkni qabo‘l kilish huquqiga ega emas;

• Kredit olish uchun lombardga garovga topshiriladigan mulk tomonlar kelishuviga asosan baholanadi;

• Lombardga ashyo garovi bilan ta’minlangan kreditning summasi belgilangan muddatda qaytarilmagan holda, lombard garovga qo‘yilgan ashyoni sotish uchun belgilangan tartibda, imtiyozli 1 oylik muddatdan so‘ng notariusning yozma ijro varaqasi asosida ushbu mulkni sotish huquqiga ega;

• Agar garovga qo‘yilgan mulkning sotilishidan tushgan summa lombardning talablari miqdoridan oshib ketsa, tafovuti garovga qo‘yuvchiga to‘lanadi.

Lombardlar faoliyatini litsenziyalash tartibi:

• Lombard faoliyatini amalga oshirishga maxsus litsenziyaga ega bo‘lgan holda lombardlar faoliyati faqat ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi

• Lombardlar faoliyatini litsenziyalashni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki amalga oshiradi.

• Lombardlar faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya belgilanmagan muddatga beriladi.

• Litsenziyani boshka yuridik shaxsga berish taqiqlanadi.

• Lombardlar faoliyatini amalga oshirishga litsenziya qonunchilikda tegishli tashkiliy – huquqiy shakl uchun belgilangan eng kam ustav fondi miqdori shakllantirilgan holda, lombard sifatida qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan yuridik shaxsga berilishi mumkin.

• Lombardning ustav fondi lombard muassislari to‘lagan pul mablag‘laridan shakllantiriladi.

• Kreditga va garovga olingan mablag‘lardan hamda boshqa jalb qilingan mablag‘lardan lombardning ustav fondini shakllantirish uchun foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi

• Lombard shtatida baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli litsenziyaga ega va maxsus kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan malakali mutaxassislar bo‘lishi shart.

Litsenziya olish uchun takdim etiladigan xujjatlar:

1. Lombardning faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berish to‘g‘risida ariza;
2. Yuridik shaxsning davlat ro‘yxatidan o‘tganligi t o‘g‘risida guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;
3. Lombardning bir yillik faoliyati uchun biznes reja;
4. Muassislar ro‘yxati va ular haqida to‘lik ma’lumot;
5. Lombardning boshqaruv organlari tuzilmasi va shaxsiy tarkibi to‘grisida ma’lumotlar;
6. Naqd pul mablag‘lari va garovga olingan mulklarning shaklanishini ta’minlaydigan, maxsus jihozlangan xonalar mavjudligini tasdiklovchi ma’lumotlar;
7. Lombard shtatida baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli litsenziyaga ega va maxsus kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan malakali mutaxassislar mavjudligi to‘grisida ma’lumot;

8. Litsenziya da’vogarining arizasini litsenziyalovchi organ tamonidan ko‘rib chiqilishi uchun yig‘im to‘langanligini tasdiqlovchi to‘lov topshiriqnomasining nusxasi;

Lombardlar tomonidan hisobot taqdim etish tartibi

1. Lombardlar, ular tomonidan olib borilayotgan amaliyotlar hisobini xo‘jalik subyektlari uchun o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq amalga oshiradilar. Lombardning buxgalteriya hisobi siyosati uning yuqori boshqaruv organi tomonidan belgilanadi. Buxgalteriya hisobi va boshqa hisobotlar ro‘yxati va shakli amaldagi qonunchilikka muvofiq o‘rnatiladi.

2. Lombardlar buxgalteriya hisobida va hisobotlar tuzishda foydalaniladigan hujjatlarning qat’iy hisobini yuritish va saqlanishini ta’minlashlari, shuningdek, buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq shubhali qarzlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirishlari shart.

Lombardlarning hisobotlari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug‘i bilan tasdiqlangan 1-shakldagi buxgalteriya balansi;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug‘i bilan tasdiqlangan 2-shakldagi moliyaviy natijalar to‘grisida hisobot;

Belgilangan shaklga muvofiq berilgan kreditlar to‘grisida hisobot;

Belgilangan shaklga muvofiq ustav fondining miqdori va tarkibi to‘g‘risida hisobot;

15-Mavzu. Bank inqirozlari

REJA:

15.1. Bank inqirozining mohiyati.

15.2. Bank inqirozini belgilovchi mezonlar.

15.3. Rivojlangan davlatlarning xalqaro moliyaviy inqirozga qarshi choralarining ustuvor yo’nalishlari.

15.4.Rivojlanayotgan davlatlarda bank inqirozi

15.1. Bank inqirozining mohiyati

Har qanday jarayon yoki hodisa tadqiqini uning tushunchasi, kategoriyasini aniqlashdan boshlash masala mohiyati va xususiyatlarini chuqurroq anglashga imkon yaratadi. SHu sababli, hozirgi jahon moliyaviyiqtisodiy inq irozining mohiyatini to‘laqonli anglash uchun ham iqtisodiy va moliyaviy inqiroz tushunchalarini bilish, ularni farqlay olish muhim sanaladi.

Iqtisodiy inqiroz - tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatning buzilish holatidir. Iqtisodiy inqirozning oqibatlari sifatida real yalpi milliy mahsulotning kamayishi, ommaviy bankrotlik va ishsizlik, aholi turmush tarzining pasayishi kabilarni keltirish mumkin.

Iqtisodiy inqiroz (retsessiya) iqtisodiyotning shunday holatiki, mamlakat yalpi ichki mahsulotining mutloq hajmi kamida ikki chorak mobaynida ketmaket qisqaradi. Iqtisodiy inqiroz bozor iqtisodiyotiga xos hodisa bo‘lib, ma’lum davriylik bilan takrorlanib turadi.

Umuman olganda, iqtisodiy nazariyada iqtisodiy inqiroz deganda mamlakat iqtisodiy holatining birdaniga yomonlashuvi tushunilib, u ishlab chiqarishning keskin pasayishi, ishlab chiqarish aloqalarining buzilishi, korxonalarning bankrotligi, yoppa ishsizlik, milliy valyutaning devalvatsiyalanishi, kapitalning qochishi, aholi turmush tarzining pasayishi kabilarda namoyon bo‘ladi.

Moliyaviy inqiroz nima?

Moliyaviy inqirozma’lum bir moliyaviy instrumentning qiymati kutilmaganda keskin pasayishi, shuningdek, pulning etishmasligi holatini ifodalashda qo‘llaniladigan tushunchadir. Bundan tashqari, mazkur tushuncha moliya bozorida, xususan, fond bozorida moliyaviy aktivlar bahosining noxolis shakllanishi natijasida yuzaga kelgan «sovun ko‘piklari»ning «yorilishi» holatini ifodalashda ham qo‘llaniladi.

Moliyaviy inqiroz bu davlat moliya mexanizmining tizimli buzilishi bo‘lib, bunda inflyasiya ko‘rsatkichining sezilarli darajada o‘sishi, qimmatli qog‘ozlar bahosining beqarorligi, byudjet daromadlarining uning xarajatlariga nisbatan keskin nomuvofiqligi, milliy pul birligi almashuv kursining beqarorligi va pasayishi, iqtisodiy sub’ektlar o‘rtasida to‘lovsizlik muammosining kuchayishi, kapitalning mamlakatdan tez sur’atlarda chiqib ketishi, muomaladagi pul massasining pul muomalasi qonuni talablariga mos kelmasligi kabilar kuzatiladi.

Moliyaviy inqiroz fond bozori hajmining 20 % dan ortiq kamayishi, banklararo qredit bozorida foiz stavkalarining ikki marta oshishi, milliy valyuta kursining 10 % dan ortiq pasayishi holatidir.

XX asrda iqtisodiy sikllarni aniq dalillar bilan davrlarga ajratishga bo‘lgan ilmiy jamoatchilikning qiziqishi ortdi. Iqtisodchi olim Y. SHumpeter Ikkinchi jahon urushidan avval iqtisodiy sikllarga bag‘ishlangan ikki tomli tadqiqotlarini chop etdi. U ilmiy izlanishlarida kapitalistik iqtisodiyotdagi uzoq muddatli tebranishlarni innovatsiyalar bilan bog‘lashga muvaffaq bo‘ldi. Y.SHumpeter uzun sikllarnm iqtisodiy muvozanatning buzilishi va keyinchalik qayta tiklanishi jarayoni sifatida e’tirof etdi. Y.SHumpeter har bir sikl rivojlanishiningto‘rt fazasini ajratib ko‘rsatadi: yuksalish (gurkirab yashnash), retsessiya, depressiya va jonlanish.

Uning fikricha, yuksalish fazasi tashabbuskor tadbirkorlar tomonidan yangi tovarlar va texnikalar ishlab chiqarishning joriy etilishi, yangi bozorlar va xom ashyo manbalarining ochilishi, xo‘jalik yuritishning yangi usul lari joriy etilishi va natijada yuqori daromad olish kabilar bilan belgilanadi. Samarali va progressiv innovatsiyalarning joriy qilinishi o‘zaro aloqador tarmoqlarni qamrab oladi va bu jarayonga ko‘p sonli tadbirkorlar jalb etiladi. Oqibatda iqtisodiyot muvozanat holatidan chiqadi va iqtisodiy o‘sish sur’atlari tezlashadi. Retsessiya esa iqtisodiyotning muvozanat holatiga qaytishiga sabab bo‘ladi. Y. SHumpeter fazalar almashinishi sababini tadbirkorlar tomonidan olinadigan yuqori foydaning

innovatsiyalar ishlab chiqarishni qanchalik to‘liq qamrab olishiga qarab tarqalishida (tadbirkorlar o‘rtasida bo‘linishida) ko‘radi. Depressiya fazasining yuzaga kelishi esa iqtisodiyotningo‘sish sur’atlarini orqaga ketishiga nisbatan reaksiyasi va shartsharoitlarningyanada yomonlashuvi kutilishi bilan izohlanadi. Jonlanish fazasi innovatsiyalarning jamlanishi natijasida iqtisodiyotning qaytadan muvozanat holatiga qaytishiga zamin yaratadi.

«Inqiroz» tushunchasi biznes sikli konsepsiyasining komponenti bo‘lib, dastavval ortiqcha ishlab chiqarish va kapitalning ortiqcha jamlanishi bilan tavsiflangan. Keyingi davrlarda sanoat ishlab chiqarishdagi pasayish mavjud mablag‘laridan mahrum bo‘lgan ishsizlar soni-ningortishibilan birgakechdi. Ayni paytda qishloqxo‘ja-ligidan iqtisodiy faol aholining intensiv chiqib keti-shi kuzatildi, biroq bu aholining ma’lum qismi shahar-larda qandaydir ish bilan band bo‘lishi mumkin edi. Bundan tashqari, sanoat ishlab chiqarishning pasayishi xom ashyo va issiqlik resurslariga nisbatan talab va bahoning tushishi bilan namoyon bo‘ldi (oddiy akselera-sion bog‘liqlik).

Y. SHumpeterdan tashqari rus iqtisodchi olimi N.D. Kondratev ham qariyb yarim asrlik davrga ega bo‘lgan uzun sikllar gipotezasi bilan iqtisodiy sikllarni davrlarga ajratishda muhim o‘rin egallaydi.

N.D. Kondratev jahon hamjamiyati ishlab chiqarish kuchlarining yangi, rivojlanishning yanada yuqoriroq darajasiga o‘tishini ko‘zda tutib, mazkur sikllarning amal qilish mexanizmini ham asoslashga muvaffaq bo‘ldi. Uning ilmiy izlanishida sikl ikki: ko‘tarilish va pasayish fazalariga ajratiladi. Bu sikllar asosida yotuvchi kapitalning jamlanishi, markazlashuvi, bo‘linishi va qadrsizlanishi mexanizmi bozor iqtisodiyoti rivojlanishining muhim omili hisoblanib, siklning pasayish to‘lqinidan ko‘tarilish to‘lqiniga o‘tishi va o‘z navbatida, yangi siklning ko‘tarilish fazasiga o‘tishini ta’minlashga xizmat qiladi.

N.D. Kondratev fikricha, asosiy moddiy boyliklar (sanoat inshootlari, infratuzilmaviy qurilmalar), ishlab chiqarishning amaldagi texnik usullariga xizmat qiluvchi malakali ishchi kuchi natura va pul ko‘rinishida yirik resurslarni taqozo etadi. Ishleb chiqarishning amaldagi texnologik usullariga investitsiyalarning qisqarishidan so‘ng jamlanishi ma’lum vaqtni talab etadi va buni yangilash siklik xarakter kasb etadi.

Uzun sikllar ichki endogen mexanizmining asosiy elementlari bo‘lib, Kondratev fikricha, quyidagilar hisoblanadi:

1. Kapitalistik iqtisodiyotning harakati bir necha muvozanat darajalari doirasida namoyon bo‘ladi. Asosiy kapital boyliklarning (ishlab chiqarish infratuzilmasi va malakali ishchi kuchi) muvozanati xo‘jalik va ijtimoiy hayotning barcha omillari bilan birgalikda ishlab chiqarishning mazkur texnik usulini belgilab beradi. Bunda muvozanatning buzilishi kapital boyliklarning yangi zaxiralarini tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi;
2. asosiy kapital boyliklarning yangilanishi esa bir tekis kechmaydi, bunda hal qiluvchi rolni ilmiy texnik g‘oyalar va innovatsiyalar o‘ynaydi;

3. uzun siklning davomiyligi jamiyat kapital boyliklari asosiy elemetlaridan biri hisoblangan ishlab chiqarish infratuzilmaviy qurilmalarining o‘rtacha hayotiy davri bilan belgilanadi;

4. barcha ijtimoiy jarayonlar urushlar, inqiloblar, aholi migratsiyasi iqtisodiy mexanizmning qayta shakllanishi natijasidir;

5. asosiy kapital boyliklarning almashinuvi va uzoq muddatga cho‘zilgan iqtisodiy pasayishdan chiqish natura va pul ko‘rmnishidagi resurslarning jamlanishini taqozo etadi. Etarli darajada jamlanmaga erishilgach esa, asosiy kapital boyliklarni radikal yangilash imkoniyati yuzaga keladi va bu o‘z navbatida, iqtisodiyotni yangi ko‘tarilish fazasiga olib chiqadi.

Bundan tashqari, N.D. Kondratev o‘z tadqiqotida bu sikllilik kapitalistik ishlab chiqarish uslubi mavjud bo‘lar ekan, doimo amal qilishini ko‘rsatib berdi.

N.D. Kondratev izlanishlari davomida to‘liq ikki sikl va faqatgina ko‘tarilish to‘lqiniga ega uchinchi yarim siklni aniqlashga muvaffaq bo‘lgan. Kondratev sikliiing umumiy ko‘rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:

I. Ko‘tarilish to‘lqini: 1780-yillarning oxiri va 1790- yillarning boshlaridan 1810-1817 yillargacha bo‘lgan Davr.

Pasayish to‘lqini: 1810-1817 yillardan 1844-1851 yillargacha.

II. Ko‘tarilish to‘lqini: 1844-1851 yillardan 1870-1875 yillargacha.

Pasayish to‘lqini: 1870-1875 yillardan 1890-1896 yillargacha.

III. Ko‘tarilish to‘lqini: 1890-1896 yillardan 1914-1920 yillargacha.

N.D. Kondratev uchinchi siklining 2-yarmi amal qilishi esa, oldinda iqtisodiy pasayish bo‘lishini ko‘zda tutardi. Vaxolanki, 1929-33 yillarda yuz bergan buyuk depressiya uning qarashlarini tasdiqlagan edi. Biroq keyingi davrlarda uning qarashlari o‘z tasdig‘ini topishtopmasligi keskin bahslarga sabab bo‘ldi.

Mazkur masalani tadqiq qiluvchilarning sikl bo‘linishi va davrlari bo‘yicha qarashlarini ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh tadqiqotchilar fikricha, uchinchi siklning pasayish fazasi Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan yakunlangan (ular tadqiqotlarida ko‘proq real iqtisodiyot indikatorlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, bandlik dinamikasi, investitsion faollik kabilarga tayanishgan), To‘rtinchi siklning ko‘tarilish fazasi esa, urushdan boshlanib, 1960 -yillarning o‘rtalarigacha davom etadi. 1968-1971 yillardagi dol lar inqirozi va Bretton Vuds valyuta tizimi tanazzuli to‘rtinchi siklning pasayish fazasi boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, bu fazaga 1970 -yillardagi neft inqirozlari va stagflyasiya to‘g‘ri keladi. AQSHdagi «Reyganomika» va Buyuk Britaniyadagi Margeret Tetcher siyosati beshinchi siklning ko‘tarilish fazasiga zamin hozirlaydi va bu faza 1980 -yillarning yarmi va to‘liq 1990- yillarni qamrab oladi. Odatda, ko‘tarilish to‘lqinining so‘nggida real sektordagi kapital qo‘yilmalar foyda me’yorining pasayishi, moliyaviy spekulyasiyaning dastlab fond bozori (1990 -yillarning ikkinchi yarmi), so‘ngra ko‘chmas mulk sohalarini (2000 -yillarning boshlari) qamrab olishi kuzatiladi. SHuningdek, birinchi guruh tadqiqotchilari sikl davrining qisqarib borishini ham ta’kidlaydilar. SHunday qilib, sikl davri N.D. Kondratev to‘xtagan nuqtadan quyidagicha davom etadi:

Uchinchi siklning pasayish fazasi: 1914-1920 yillardan 1936-1940 yillargacha.

IV. Ko‘tarilish fazasi: 1936-1940 yillardan 1966-1971 -yillargacha.

Pasayish fazasi: 1966-1971 yillardan 1980-1985 yillargacha.

V. Ko‘tarilish fazasi: 1980-1985 yillardan 2000-2007 yillargacha.

Pasayish fazasi: 2000-2007 -lardan 2015-2025 yillargacha (bashorat).

VI. Ko‘tarilish fazasi: 2015-2025-yillardan 2035-2045-yillargacha (bashorat).

Ikkinchi guruh tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, uchinchi siklning pasayish fazasi butun Ikkinchi jahoi urushi va urushdan so‘nggi tiklanish davrini (1949 - y.gacha) qamrab oladi (ularning metodologiyasida moliyaviy indikatorlar fond bozori dinamikasi, obligatsiyalar daromadliligi dinamikasi kabilarga asosiy e’tibor qaratiladi). Kondratev siklining qolgan qismi esa, ularning fikricha, quyidagicha ko‘rinish oladi:

Uchinchi siklning pasayish to‘lqini: 1920 -yillar oxiridan 1949- yilgacha.

IV. Ko‘tarilish fazasi: 1949- yildan 2000- yillarning boshlarigacha.

Umuman olganda, ikkala guruh tadqiqot natijalari ham 2000- yillarda chuqur depressiya bo‘lishini ko‘zda tutadi.

Fikrimizcha, Kondratev siklining keyingi davrlari hozirgi jahon moliyaviyiqtisodiy inqirozi chuqurlashuvi jarayonlari yakuni va iqtisodiy tiklanish hamda barqarorlikdan so‘ng keskin bahsmunozaralar ob’ektiga aylanib boraveradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmokdaki, iqtisodiy sikllarning takrorlanish davrida qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda. Zero, jahon iqtisodiyotida ilk klassik inqiroz 1823- yilda ro‘y bergan bo‘lsa, shundan buyon inqirozlar taxminan 1520- yil oraliq bilan muntazam takrorlanib turdi.

Bu o‘rinda yana bir muhim masala uzun sikllar borasidagi konsepsiyalardir. Bu borada bir qator tasniflar uchraydi. SHulardan batafsilrog‘i Goldshteynga taalluqli bo‘lib, u quyidagi ko‘rinishga ega:

investitsiya konsepsiyasi (Kondratev, Forrester, Sterman): uzun sikllar davriy qayta jamlanish va so‘ngra uzoq muddat foydalanishdagi kapital boyliklarning qadrsizlanishi bilan belgilanadi;

innovatsion konsepsiya (SHumpeter, Mensh, Friman): uzun sikllarning shakllanishida etakchi rolni

1997-2008 yillarda jahon iqtisodiyoti moliya bozorlaridagi aktivlar bahosining asossiz o‘sishi, «spekulyativ ko‘piklar»ga bir necha bor duch kelgan bo‘lsada, xozirgi paytda ham ularni bartaraf etishning ilmiyamaliy usullari ishlab chiqilgan emas. Bundan tashqari, monetar organlarning aktivlar bahosining bunday asossiz o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha strategiyalari masalasi nazariy jihatdan ham o‘z echimini topmagan. Iqtisodiy adabiyotlarda mazkur muammoga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuvga muvofiq, monetar organlar moliyaviy aktivlar bahosining maqsadli mo‘ljallarini (target) belgilamasliklari va fond bozoridagi faollikni kamaytirish uchun foiz siyosatidan foydalanmasliklari zarur. Fikrimizcha, spekulyativ ko‘piklarga qarshi choralar ko‘rish so‘zsiz makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi, biroq bu maqsadda foiz siyosatidan foydalanish pul massasini kamaytirish hisobiga yuz beradigan salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. SHu sababli, spekulyativ ko‘piklarga qarshi kurashishda fond bozorini tartibga soluvchi organlarning faolroq bo‘lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Ma’lumki, fond bozoridagi spekulyativ ko‘piklar bank sektoriga nisbatan sezilarli darajada salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi. CHunki garov ta’minoti sifatida olingan qimmatli qog‘ozlar bahosining pasayishi inqirozning yanada chuqurlashuviga sabab bo‘ladi. Qarzdorning bank oldidagi majburiyatlarini bajara olmasligi natijasida, mazkur qimmatli qog‘ozlarni fond bozorida sotish zarurati tug‘ilsa, bu, o‘z navbatida, qimmatli qog‘ozlar taklifining ko‘payishi va shuning asosida ular bahosining yanada pasayishiga olib keladi. Pirovard natijada, banklarning balansida yirik miqdordagi zararlar va uning orqasidan likvidlilik muammolari avj oladi.

Fikrimizcha, banklar tomonidan aktivlarni sekyuritizatsiyalashda muomalaga chiqariladigan moliyaviy instrumentlar, hosilaviy moliya instrumentlarining garov sifatida qabul qilinishiga nisbatan muayyan cheklovlarni o‘rnatish zarur. Masalan, aksiya va obligatsiyalarni garov ta’minoti sifatida qabul qilishga nisba tan zaxira talablari belgilanishi mumkin. CHunki fond bozoridagi spekulyativ ko‘piklarning bank tizimi barqarorligiga salbiy ta’sir qilishi tizimli risklarning kuchayishiga zamin yaratadi.

15.2. Bank inqirozini belgilovchi mezonlar

I nqiroz xususidagi adabiyotlarning aksariyatida inqirozning iqtisodiy sikllar bilan bog‘lanishini kuzatish mumkin. Biroq ta’kidlash joizki, sikllarga asoslanib inqirozni oldindan aniq bashorat qilish hech kimga nasib qilmadi. Bundan ko‘rinadiki, inqirozni bashorat qilib bo‘lmaydi, ammo uni barcha kutadigan bo‘lsa, ertagayoq ro‘y beradi.

Global moliyaviy inqiroz hozirgi kunda hammani hayratga solayotgan bo‘lsada, XX asrning 70-yillaridan buyon inqirozli holatlarning yuz berishi oddiy hodisaga aylanib qoldi. Qator iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida 1970 – 2002- yillar davomida 117 ta tizimli bank inqirozi, 1980-2002- yillar mobaynida esa 77 ta tizimli inqirozlar yuzaga kelganligi tadqiq qilingan.

Bank inqirozi quyidagi holatlarda sodir bo‘ladi, agar:

- ishlamaydigan aktivlarning bank tizimi yalpi aktivlaridagi ulushi 10 % dan ortiq bo‘lsa;
- bank tizimini qutqarish uchun sarflanadigan xarajatlar qiymatining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ikki foizdan oshiq bo‘lsa;
- banklarning bankrotlashuvi yoki milliylashuvi kuzatilsa;
- hukumat moliya bozorlari va moliya institutlarini qutqarish uchun ekstraordinar choratadbirlarni qo‘llasa;
- hamma iqtisodiy va moliya inqirozlarning chuqurlashuvi, moliyaviy va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning pasayishining davomiyligi xalqaro va milliy doirada sodir bo‘lsa.

Bu o‘rinda moliyaviy inqiroz tushunchasining shakllanishiga nisbatan qarashlarni tadqiq qilishni lozim topdik. Dastlab davriy iqtisodiy inqirozlar to‘satdan boshlanganligi uchun ham «vahima» tushunchasi bilan ifodalanar edi. Birmuncha muddat o‘tgach esa, vahima «depressiya» deb atala boshlandi. Albatta,

hozirgi vaqtning eng mashhur depressiyasi bu 1929- yilda oddiy moliyaviy vahimadan boshlanib Ikkinchi jahon urushiga qadar davom etgan Buyukdepressiyadir. 1929 -yilgi fojiadan so‘ng iqtisodchilar va siyosatchilar bu holatni qayta takrorlamaslikka qaror qildilar. Bu vazifani samarali va talafotlarsiz bajarish maqsadida faqatgina «depres siya» so‘zining o‘zini iste’moldan chiqarishga muvaffaq bo‘lindi. 1937-1938 yillarda navbatdagi og‘ir depressiya sodir bo‘lganda esa, iqtisodchilar bu so‘zning o‘rniga, yanada jarangdor yangi «retsessiya» tushunchasini muomalaga kiritishdi.

Ammo qisqa mudsatda «retsessiya» so‘zi ham nozik hissiyotli amerika ommasi uchun birmuncha qo‘poldek tuyuldi. So‘nggi retsessiya 1957-1958 yillarda yuz bergani e’tiborga olinsa, shu paytdan buyon moliyaviy inqiroz ko‘rinishida iqtisodiy pasayish, «orqaga ketish», «chetlashish» kabi tushunchalar foydalanila boshlandi.

Global moliyaviy inqiroz hozirgi kunda hammani hayratga solayotgan bo‘lsada, XX asrning 70-yillaridan buyon inqirozli holatlarning yuz berishi oddiy hodisaga aylanib qoldi. Qator iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida 1970-2002 yillar davomida 117 ta tizimli bank inqirozi, 1980-2002 yillar mobaynida esa 77 ta tizimli inqirozlar yuzaga kelganligi tadqiq qilingan.

Shuningdek, ayrim iqtisodchilar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (OESO) a’zo bo‘lgan rivojlangan davlatlarda 1980-2000 yillar mobaynida 7 ta tizimli inqiroz, xususan, AQSH, Portugaliya va Italiyada kichik ko‘lamdagi inqirozlar, YAponiya, Norvegiya, SHvetsiya va Finlyandiyada esa keng ko‘lamli inqirozlarning yuzaga kelishini asoslashga harakat qiladi.

Norvegiya va Finlyandiyadagi inqirozlar moliyavii tartibga solish tizimidagi nuqsonlarning natijasi bo‘lib, iste’mol va ko‘chmas mulk uchun olingan tijorat kreditlari miqsorining keragidan ortiq darajada oshishiga va uyjoy hamda molmulk bozorida “ko‘pik”larning avj olishiga sabab bo‘ldi. Pirovardida bu inqiroz mamlakatlarning ishlab chiqarish salohiyatiga keskin salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

1991 -1993 yillar davomida Finlyandiyada real uyjoy baholari 30 foizga pasaydi, SHvetsiyada esa mazkur davrda baholarning pasayishi 25 foizni tashkil qildi. Har ikki davlatda ham bank tizimini milliylashtirish choralari ko‘rildi.(1-jadval)

Yaponiyadagi inqiroz jarayonlari sezilarli darajada uzoq muddat davom etgani bois yalpi yo‘qotishlar hajmi ham shunga mos ravishda yuqoridir. Ayni paytda, Yaponiya iqtisodiyoti “likvidlilik tuzog‘i”ga tushib qolgan bo‘lib, nol darajadagi foiz stavkalar monetar siyosat samarasini haqiqatda yo‘qqa chiqarar edi. Zero, J.M.Keynsning “likvidlilik tuzog‘i” konsepsiyasiga ko‘ra, likvidlilik tuzog‘i yuzaga kelganda foiz stavkasining amaldagi holatida aholi har qanday miqdordagi pul mablag‘ini ham o‘zida saqlashga harakat qiladi.

15.1-jadval

Ayrim bank inqirozlari va ularning ta’siri

	Yillar	Davomiyligi	Soliq to‘lovchilarga keltirgan bevosita zarari*	YAlpi yo‘qotish (YAIMga nisbatan %da)
Yaponiya	19912001	10 yil	14,0	71,7
Norvegiya	19891992	4 yil	3,4	27,1
Shvetsiya	19911994	4 yil	2,1	3,8
Finlyandiya	19911994	4 yil	10,0	44,9

Izoh: Inqiroz yakunida YAIMga nisbatan foizda.

Foiz stavkasi nol darajaga tushganda likvidlilik tuzog‘i yuz beradi. Foiz stavkasining nollik darajasida aholi saqlagan puli ham biror daromad keltirmasada, obligatsiyalarni ushlab turishni xohlamaydi. Bundan tashqari, bo‘sh pul mablag‘larini investitsiya qilmay ushlab turish nol foiz daromad keltiradigan qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishga nisbatan ustunlikka ega. Chunki pulning hukumat qimmatli qog‘ozlariga nisbatan likvidliligi yuqori hisoblanadi.

2000-2007 yillarda Xitoy kabi davlatlarda savdo balansining muntazam profitsitga ega bo‘lishi, yuqori miqdordagi xorijiy valyuta zaxiralari valyuta kursini sun’iy ravishda past darajada ushlab turishga qaratilgani holda, global likvidlilikning sezilarli darajada ortishiga va pirovardida past foiz savkalarining shakllanishiga olib keldi.(2-jadval)

15.2-jadval

Banklarda leverajning oshishi: aktivlarning kapitalga nisbati koeffitsienti

Banklarning nomi	**2005 yil**	**2007 yil**
Bear Steams	26	33
Morgan Stanley	31	33
Lehman Brothers	25	31
Merrill Lynch	18	28
Goldman Sachs	25	27

Shuningdek, yuzaga kelgan qulay vaziyat bank aktivlarining kapital bilan ta’minlanishi ko‘rsatkichining yomonlashuviga, ya’ni leveraj koeffitsientining oshishiga olib keldi.

Quyidagi jadval ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, 2008- yilda dunyoning barcha asosiy fond indekslari 2007 -yilga nisbatan keskin pasaygan. Ayniqsa, 2008 -yilning 15 -sentyabriga kelib AQSHning yirik investitsiya banki Lehman Brothers bankrot deb e’lon qilingach, jahon fond bozorlarida aksiyalarni yoppasiga sotish avj oldi. 15 -sentyabr savdolarida Rossiyaning RTS (RTS) indeksi 4,8 foizga tushgani holda, MMVB indeksi (Moskva banklararo valyuta birjasi indeksi) 6,2 foizga pasaydi. Agar 2008 -yilning 15- sentyabr kuni indeksning keskin tushishi natijasida Moskva banklararo valyuta birjasida bir qator qimmatli qog‘ozlar

bo‘yicha savdolar to‘xtzdilgan bo‘lsa, 16 sentyabr kuni o‘ndan ortiq yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha savdolar amalga oshirilmadi. SHunday qilib, birgina 15 - 16 sentyabr kunlari MMVB indeksi 23 foizga, RTS esa 21 foizga pasaydi. 2008 -yilning 6 -oktyabriga kelib esa RTSning pasayishi rekord natijani qayd etdi, ya’ni bir kunlik pasayish 19,1 %ni tashkil qildi. Umuman olganda, Rossiyaning RTS indeksi 2008 -yilning oxiriga kelib 632 punktni tashkil etib, 2007 -yilga nisbatan 1659 punktga, boshqacharoq aytganda, 72,4 foizga tushib ketgan. Taqqoslash uchun keltiramiz: bu davrda AQSHda S&R 500 38,5 foizga; YAponiyaning Nikkei 225 indeksi 42,1 foizga; Braziliyaning Vovespa indeksi 41,2 foizga pasaygan.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, dunyo mamlakatlarini inqirozdan qutqarish choratadbirlarini quyidagi asosiy to‘rt guruhga ajratish mumkin:

- banklarning qarz majburiyatlari bo‘yicha davlat kafolatini berish;
- moliya muassasalarini qayta kapitallashtirish;
- muammoli aktivlarni xarid qilish;
- iqtisodiy talabni rag‘batlantirish.

G‘arb davlatlarining inqirozga qarshi choralar dasturlarida ajratilishi ko‘zda tutilgan mablag‘lar tarkibida banklarning qarz majburiyatlari bo‘yicha davlat kafolatini berish eng yuqori salmoqni egallagan (qariyb 49%). Umuman olganda, 2008 -yilning dekabr oyiga kelib jahon moliyaviy inqirozini bartaraf etish uchun dunyo mamlakatlari qutqaruv choralari va moliyaviy ko‘maklar uchun sezilarli miqdorda pul mablag‘larini ajratdilar. Tahlillarimizning ko‘rsatishicha, inqirozning oqibatlarini yumshatish uchun ajratilgan mablag‘larning YAIMga nisbati ko‘rsatkichi Islandiya, BAA, Vengriya, Rossiya va Buyuk Britaniya davlatlarida sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Biroq bu ko‘rsatkich yuqoridagi davlatlarning ajratilgan moliyaviy mablag‘larning mutloq miqdori jihatidan etakchiligini anglatmaydi. Chunki YAIM hajmi jihatidan etakchilar ro‘yxati yuqorida qayd etilgan davlatlar bilan boshlanmaydi

15.3. Rivojlangan davlatlarning xalqaro moliyaviy inqirozga qarshi choralarining ustuvor yo’nalishlari.

I *nqiroz AQSHning yirik moliyaviy muassasalari Citigroup, Vank of America, JP Morgan Chase, Wells Fargo va boshqalarni qamrab ola boshladi. Bank tizimidagi likvidlilik muammolari, o‘z navbatida, xo‘jalik sub’ektlari va aholining bank tizimiga bulgan ishonchi pasayishiga, kredit risklarining ortishiga va iqtisodiy qiyinchiliklarga sabab buldi.*

Inqiroz banklarning kreditlash sohasidan ishlab chikarish sohasiga ko‘chdi: bozorda taklifning talabdan oshishi kuzatildi va bu holat AQSH avtosanoatidagi yoppasiga ishdan bushatishning kuchayishi bilan yakunlandi. AQSHning inqirozga karshi siyosati bozordagi talabni rag‘batlantirish, yirik biznesga yirik banklar va korporatsiyalarga etarlicha ko‘mak berishga yunaltirildi.

Ishlab chiqarishning tushib ketishi bank kreditlarining qiskarishi, real ishlab chikarish risklarining ortishi bilan birga kechdi. Ishlab chiqarishning pasayishi va risklarning ortishi, o‘z navbatida, investitsiyalarni, shuningdek, import tovarlariga bulgan talabning kamayishiga olib keldi. AQSH Prezidenti B.Obamaning 2009 -

yilning fevral oyida tasdiklangan inqirozga karshi choralar Dasturi Amerikani tiklash va kayta investitsiyalash Rejasi (American Recovery and Reinvestment Act) nomi bilan ham yuritilib, 3 yil muddatga, ya'ni 2011- yilgacha ishlab chiqilgan. (3-jadval)

Jahon moliyaviy inqirozi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bank tizimiga xam jiddiy ta'sir o'tkazdi. Bunga javoban Evropada banklarni qutkarish choralari ko'rildi. G.Braun boshchiligidagi Angliya xukumatining inqirozga karshi choralarida bank tizimi ustidan kuchli davlat nazoratini ta'minlash asosiy bo'g'inga aylandi. Braun dasturi (510 mlrd. AQSH dollari) 290 mlrd. dol¬lar mikdoridagi mablarlarni Britaniya banklari muammoli aktivlarini sotib olishga, 220 mlrd. dollarni esa banklarning kayta kapitallashuviga, kreditlash, in¬vestitsiya va iste'mol talabini kullab-kuvvatlashga safarbar etishni kuzda tutdi.

15.3-jadval

AQSHning inqirozga karshi choralar dasturi (American Recovery and Reinvestment Act)

	Yo'nalishlari	*Mlrd. AQSH dollari*	*Salmog'i*
	Soliq yukini engillashtirish	*288*	*37%*
	SHtatlar va mahalliy hokimiyat organlarini soliqlardan ozod qilish	*144*	*18%*
	Infratuzilma va fan	*111*	*14%*
	Ijtimoiy himoya	*81*	*10%*
	Sog'liqni saqlash	*59*	*7%*
	Ta'lim	*53*	*7%*
	Energetika	*43*	*5%*
	Boshqalar	*8*	*1%*
	Jami	*787*	*100%*

Obama rejasida ko'zda tutilgan chora-tadbirlar:

- *3 mln. ish joylarini saqlab qolish va tashkil etish;*
- *sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish;*
- *muqobil manbalardan energiya ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va 3 yil mobaynida uning hajmini ikki baravarga oshirish;*
- *federal mulkka taalluqli bo‘lgan (maktablar bilan birga) binoinshootlarning 75 foizini va 1 mln. xususiy uylarni ta’mirlash;*
- *7 mln. talabalar uchun grantlar tizimini moliyalashtirish hajmini oshirish, ta’lim uchun to‘lovlar bo‘yicha soliqlarni kamaytirish;*
- *infratuzilmaga keng kulamli investitsiyalarni amalga oshirish, xususan, yullar, kupriklar, jamoat transport tizimini kurish va kayta ta’mirlash, temir yul va aeroportlarni modernizatsiyalash;*
- *soliklardan ozod kilish (solik kreditlari), solik stavkasini pasaytirish orkali uy xujaliklarining tulov kobiliyatini oshirish;*
- *yetarli darajadagi shaffoflik, monitoring va javobgarlik darajasini ta’minlash imkonini berishi lozim.*

Jahon moliyaviy inqirozi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bank tizimiga xam jiddiy ta’sir o‘tkazdi. Bunga javoban Yevropada banklarni qutkarish choralari ko‘rildi. G.Braun boshchiligidagi Angliya xukumatining inqirozga karshi choralarida bank tizimi ustidan kuchli davlat nazoratini ta’minlash asosiy bo‘g‘inga aylandi. Braun dasturi (510 mlrd. AQSH dollari) 290 mlrd. dollar mikdoridagi mablarlarni Britaniya banklari muammoli aktivlarini sotib olishga, 220 mlrd. dollarni esa banklarning kayta kapitallashuviga, kreditlash, investitsiya va iste’mol talabini kullabkuvvatlashga safarbar etishni kuzda tutdi.

Buyuk Britaniyada inqirozga karshi choralar doirasida davlatning bank kapitalidagi ulushi dastlab Northern Rock Bank ipoteka bankida, so‘ngra Bradford & Bingleyda oshirildi. Keyinchalik esa mamlakatdagi ikkinchi yirik bank Royal Bank of Scotland (RBS)da davlatning ulushi 58%dan 70%ga, Lloyds Bank Groupda 40%dan 45%ga oshirildi. Birok bu kabi choralar doimo xam barkarorlikni kafolatlay olmaydi. RBS 11,5 mlrd. AQSH dollari miqdorida rekord darajadagi zarar kurganini e’lon kilgach, uning aksiyalari kursi 67 foizga pasaydi.

AQSH, SHveysariya, Germaniya, Islandiya va boshqa davlatlar Buyuk Britaniya "modeli"ga ergashdilar. Germaniya xukumati bankrotlik taxdid solayotgan banklarni milliylashtirishni kullabkuvvatladi. CHunki Germaniyaning birgina Hipo Real Estate banki aksiyalari 89 foizga kadrsizlanib ulgurgandi. Yirik banklardan Aareal va Commerzbankning kapitallashuvi moe ravishda 21 va 42 foizga kamaydi. Kansler A.Merkel 2009- yilning fevral oyida zarurat turilganda vaktinchalik muammoli banklarni milliylashtirish yulidan borish mumkinligini ham ma’lum kildi.

Fransiya xukumati mamlakatning muxim axamiyatga ega etakchi kompaniyalarini kullabkuvvatlash yulidan bordi. 2009- yilning fevral oyida mamlakatning yirik avtomobil ishlab chikaruvchi korporatsiyalari PSA Peugeot Citroen va Renaultga moliyaviy kumak berildi. Korporatsiyalar bank kredit stavkalari 1112 foiz atrofida bulgan sharoitda 67 foiz stavkasida 6 mlrd. Yevro miqdorida moliyaviy mablaglarni oladigan bulishdi. Bunga javob tarikasida korporatsiyalar zavodlarini yopmaslikni kafolatlash, kreditlar buyicha tulovlar

vaktiga kadar xodimlar sonini kiskartirishdan voz kechish, dividendlar va raxbariyat mukofotlarini kiskartirish majburiyatini olishdi.

Italiyada UniCredit, Fransiyada Natixis (mamlakatning turtinchi yirik banki), Irlandiyada Allied Irish Bank va Bank og Ireland og‘ir xolatga tushib koldi. Fransiyada banklar va biznesga tezkor yordam loyixasi 380 mlrd. dollar ajratishni kuzda tutdi. Niderlandiya, Belgiya va Lyuksemburgda yirik Belgiya banki Fortis (ushbu bank aktivlari mamlakat YAIMdan 2,5 baravar kup 1,5 trln. dollar) kutkarish uchun 16,1 mlrd. dollar ajratildi. Bundan tashkari, Belgiya xukumati ikkinchi yirik bank Dexiani kutkarish choralarini kurdi.

AQSHda J.Bush modeli neoliberal monetaristik prinsiplarga, xususan, bank tizimiga davlat mablaglarini safarbar etishga asoslangan bulsa, YYevropada, masalan, N.Sarkozi "moliyaviy kapitalizm" modelidan voz kechib, amalga oshirish murakkab bulgan "tadbirkorlik kapitalizmi" modeli bilan chikdi. Buyuk Britaniya Bosh vaziri J.Braun davlat tomonidan moliyaviy ragbatlantirish choralarini kurish va bunday yordamni oluvchi muassasalarning kapitali tarkibida davlat ulushini oshirish orkali samarali davlat nazoratini ta’minlashga xarakat kildi.

YYevropada inqirozga karshi moliyaviy ko‘mak hajmi dastlab 600 mlrd. AQSH dollari miqdorida baxolandi, biroq inqiroz sur’atlarining oshishi natijasida u 1,5 trln. AQSH dollariga etdi.

2009 -yilning yakuniga kelib global moliyaviy inqiroz sharoitida Yevropa Ittifoki uchun yangi muammolar va sinovlar davri boshlandi. Bu erda gap Gretsiya davlatidagi byudjet inqirozi xakida ketmokda. 2009 -yilning yakuniga kelib Gretsiyada byudjet defitsiti YAIMga nisbatan 12 foizdan oshdi. Ayni paytda, davlat karzi Gretsiyada 110 foizdan oshgan edi. Bunday sharoitda Gretsiya xukumati karzlarni kayta moliyalash va defitsitni koplash uchun moliyaviy resurslarni jalb kilishda qiyinchiliklarga yuz tuta boshladi. Albatta, bunda Yevropa Ittifokiningbeminnatyordamini kutish amri maxol. Birok Ittifokka a’zo bulish uchun Maastrixt kelishuvida ifodalangan talablardan biri davlat byudjeti defitsiti YAIMning 3 foizidan oshmasligi bulib, Gretsiyaning Ittifokda kolishi uning byudjet inqirozidan ^ay sur’atda chikib ketishiga boglik bulib koladi. Ayni paytda, bu nafakat Gretsiyaning muammosi, balki butun Ittifok barkarorligi va xayotiyligini ta’minlay olish muammosi sanaladi. Boshkacharok aytganda, Yevropadagi integratsiyalashuvning zamonaviy boskichida bir a’zo mamlakatda yuzaga keladigan fiskal muammo yagona pulkredit siyosati amalga oshiriladigan xududda kanday bartaraf etilishi boshka a’zo davlatlar uchun xam birdek muximdir. Chunki YYevrohududda fiskal muammo tez sur’atlarda va samarali bartaraf etilmasa, Ittifokning kelajagi xam xavf ostida kolishi mumkin.

YYevrohududning 16 davlati moliya vazirlarining muzokaralaridan so‘ng Gretsiyaga uch yil muddatga 110 mlrd. Yevro miqdorida yordam paketi ajratiladigan bo‘ldi.

Albatta, YYevropa Ittifoqi tomonidan Gretsiyaga ko‘rsatiladigan yordam oddiy kreditdan boshqa narsa emas. Ammo ajratiladigan kreditning foiz stavkasi bozordagi mavjud stavkadan pastroq bo‘ladi (qariyb 5 foiz atrofida).

Gretsiyaga ajratiladigan yordam paketida Yevrohududning ulushi 80 mlrd. Yevroni tashkil etib, yordamning qolgan qismi (30 mlrd. Yevro) XVF tomonidan joriy yilda ajratiladigan bo‘ldi. XVF rahbari ushbu qarorni Yevrohududni

qutqarish chorasi ekanligini e'tirof etdi. Bunga javoban Gretsiya hukumatidan mehnat va pensiya qonunchiligini erkinlashtirish talab etilmoqda. CHunki ushbu choralar yaqin ikki yil mobaynida byudjet defitsitini 20 mlrd. Yevroga qisqartirish imkonini beradi.

Gretsiyadagi defolt holati e'tirof etilgandan so'ng ozgina fursat o'tib, Standart & Poor's reyting agentligi tomonidan Ispaniya va Portugaliya uchun kreditga layoqatlilik reytingining pasaytirilishi Yevropa Ittifoqidagi moliyaviy inqirozning kuchayishiga sabab bo'ldi. Vaholanki, Fitch reyting agentligi Gretsiyaning suveren reytingini VVV+gacha pasaytirgan edi. Bu esa, Gretsiyaning A+ reytingiga ega bo'lgan Malayziyadan ham kreditga layoqatlilik bo'yicha orqada ekanligini ko'rsatadi.

Yevrohudud o'zining Markaziy bankiga ega bo'lgani holda, yagona g'aznachilikka ega emas. Bu esa byudjet intizomi buzilgan hozirgi sharoitda Yevro uchun og'ir sinov davri boshlanganligini bildiradi. Vaholanki, yagona pulkredit siyosati qo'llaniladigan Yevrohudud a'zo davlat uchun ham muayyan qiyinchiliklarni tug'dirayotganli gini ta'kidlash lozim. CHunki agar Gretsiya o'zining Markaziy banki orqali mustaqil pulkredit siyosatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lganda, byudjet defitsiti bilan bog'liq muammolarni inflyasiyaga yo'l qo'yib berish, Markaziy bankdan kredit jalb qilish (garchi maqbul sanalmasa ham), devalvatsiya sur'atlarini oshirish hisobiga engillashtirishi mumkin edi.

Bundan ko'rinadiki, valyutaviy integratsiyalashuvning yorqin namunasi sifatida e'tirof etiladigan Yevropa Ittifoqida ham fiskal muammolarni samarali hal etishning takomillashgan mexanizmi mavjud emas ekan. Bundan tashqari, Gretsiyada byudjetning qisqarishi iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatgani holda, soliq tushumlarining kamayishiga va qarzning YAIMga nisbati ko'rsatkichining yanada yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Moliya institutlari axborot to'plashni to'xtatganda va qarz ajratganda moliyaviy betartiblik oshadi, assemmetrik axbrotlar muammosi moliya tizimini qobiliyatini cheklaydi. Qarzlar kamayib borishi bilan, qarz oluvchilarning investitsion imkoniyati cheklanadi va ularning sarflari kamayadi va natijada moliyaviy faollik pasayadi.

1-Bosqich. Moliyaviy inqirozning boshlanishi.

15.1-rasm



2 -bosqich. Bank inqirozlari



3-bosqich.Qarz deflyatsiyasi



Rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy inqiroz voqealarining ketmaketligi.
1-Bosqich. Moliyaviy inqirozning boshlanishi.(15.1-chizma)

Aksiya va ko'chmas mulklarga o'xshagan aktivlarning narxlari investorlarning psixologiyasi orqali ularning asosiy iqtisodiy qiymatidan ancha yuqori darajada boshqarilishi mumkin, ya'ni ularning qiymati aktivlarning kelajak daromad oqimidagi real kutilmalarga asoslanadi. Aktiv narxlarining asosiy iqtisodiy qiymatidan ko'ra oshib ketishi aktiv narx pufagi deb ataladi. Aktiv narxlarining pufagiga misol qilib, 1990-yillarning oxiridagi texnologiyalar bozoridagi pufakni va biz muhokama qiladigan so'nggi yillardagi uy narxlaridagi pufaklarni aytishimiz mumkin. Aktiv narxlaridagi pufaklari ko'p hollarda kreditdagi ko'tarishlar orqali ham aniqlanadi, bunda kreditdagi sezilarli ko'payish aktivlarni sotib olishni moliyalashtirish uchun ishlatiliadi va ularning narxini oshiradi.

Pufak yorilganda va aktivlarning narxi asosiy iqtisodiy muammolarga o'zgartirilsa, aksiya va ko'chmas mulkning narxlari tushadi, kompaniya o'zining

xususiy kapitalidagi(ularning aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi farqni) pasayishni ko'radi va ular qo'ygan garovning garov qiymati tushadi. Endilikda bu kompaniyalar kamroq xavf ostidadir, chunki ular o'yinda kamroq qatnashadilar va ular ko'proq riskli sarmoyalar kiritishga moyildir chunki ular yo'qotishga moyil. Buning natijasida moliyaviy institutlar qarz oluvchiga qarz berish standartlarini va kredit shartnomalarining talabini oshiradi.

Aktiv narxlarining tushishi shuningdek, moliyaviy institutlar aktivlari qiymatining pasayishiga, o'z mablag'larining kamayishiga va balansidagi buzilishlarga ta'sir ko'rsatadi.

Noaniqlikdagi o'sish. AQSHdagi moliyaviy inqiroz asosan yuqori noaniqlik paytida, masalan turg'unlik boshlanishi, fond bozorlaridagi buzg'unlik yoki asosiy moliyaviy institutlarning muvaffaqiyatsizligi bilan boshlanadi. Inqiroz 1857- yilda Ohio sug'urta companiyasi va Ishonch companiyalarining, 1873-yili Jay Cooke kompaniyasi, 1884yili Grant Ward, 1907-yili Knickerbocker Ishonch kompaniyasi, 1930-yili AQSH banki va 2008-yili Bear Stearns, Lehman Brothers va AIG kompaniyalarining muvaffaqiyatsizligidan keyin boshlandi. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib, inqiroz yuqori noaniqlik sharoitida vujudga keladi, moliyaviy muammolarni oshiradi va qarz berish va iqtisodiy faoliyatni kamaytiradi.

2-bosqich: Bank inqirozi (15.1-chizma)

Balansning yomonlashish va qattiq ish sharoitlari ba'zi bir moliyaviy institutlarni balanslari salbiy bo'ladigan nochor holatga olib borishi mumkin. Depositor va kreditorlarga to'lash qobiliyati bo'lmaganligidan ba'zi bir banklar biznesdan chiqib ketadi. Agar omillar jiddiy bo'lsa, ular bir nechta banklar birdaniga tizimdan chiqib ketadigan bank vahimasiga olib kelishi mumkin. Salbiy manbayi assimmetrik ma'lumot hisoblanadi. Vahima holatida omonatchilar o'z omonatining xavfsizligidan qo'rqishadi va bank kredit portfelining sifatini bilgan holda o'z omonatlarini bank muvaffaqiyatsizlikka uchraguniga qadar qaytarib olishga harakat qiladilar.

Oxir oqibatda davlat va xususiy korxonalar to'lovga qobilyati bo'lmagan firmalarni sotib yuborishdi yoki yopib yuborishdi. Moliya bozorida noqaniqlik kamaydi, fond bozori qayta tiklandi va natijada balans yaxshilandi. Moliyaviy yemirilish kamayib, natijada moliyaviy inqiroz ham pasaydi. Yaxshi amal qilayotgan moliya bozorlari yana sahnaga chiqdi.

3-bosqich: Qarzlar deflyatsiyasi (15.1-chizma)

Agar iqtisodiyotdagi pasayish narxlarning keskin tushib ketishiga ta'sir ko'rsatsa, tiklanish jarayonida qisqa muddatli uzilish bo'ladi. Inflyatisya darajasi o'rtacha bo'lgan ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda qat'iy belgilangan foizli ko'p uzoq muddatli shartnomalar 10 yil yoki undan yuqori bo'lgan muddatlarga berilgan. Uzoq muddatli shartnomalarda qat'iy belgilangan foiz stavkalari nominal qiymatda bo'lishiga qaramasdan, narxlarning to'satdan tushib ketishi qarz oluvchi firmalarning majburiyatini oshiradi. Lekin qarzning real qiymatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Demak, shunday qilib qarz oluvchi firmaning aktiv va majburiyatlari real qiymatda tushib ketadi.

Sof qiymatdagi pasayishlar qanday yuzaga kelganini aniqroq tushunish uchun quyidagi holatga e'tibor qarataylik. Firma 2013-yilda $100 million aktivga va $90 million uzoq muddatli majburiyatga ega. Demak, firma $10 million sof

qiymatga ega bo'ladi ya'ni firma aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi farq. Agar 2014yilda narxlarda 10% tushish kuzatilsa, 2013-yilda majburiyatlaning real qiymati $99 million ga oshib ketadi. Lekin aktivlar miqdoriga ta'sir ko'rsatmaydi. Oxir oqibatda, 2013-yilda real sof qiymat $10 milliondan $1 million ga tushib ketadi($100 million $99 million).

Narxlar darajasidagi kutilmagan pasayish, qarz oluvchi firmalar aktivlarining real sof qiymati tushib ketishi va kreditning riski yuqori bo'lishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Amerika tarixidagi iqtisodiyot o'sish darajasining pasayishi va kreditlash sohasidagi yuqori darajadagi inqiroz Buyuk turg'unlik davri hisoblanadi.

Fond bozoridagi halokat

1928 va 1929-yillarda Amerika fond bozori narxlari ikki barobarga oshdi. Federal zaxira tizimi(FZT) amaldorlari bu holatni haddan tashqari olibsotish natijasi deb hisobladilar va bu holatni jilovlash maqsadida pulkredit siyosatini qattiq qo'lga olib, foiz stavkalarini oshirish yo'li bilan aksiyalar bahosi o'sishiga chek qo'ymoqchi bo'ldilar. 1929-yilning oktyabriga kelib FZT kutilgandan ham ko'proq oldi, fond bozorida 40% pasayish ro'y berdi.(1-rasm)

15.1-rasm

Buyuk Turg'unlik davrida Aksiya baholari dinamikasi. *Aksiya baholari 1929-yilda keskin pik nuqatasiga tushib ketishiva 1929-yilning oxirida 40% pasayish undanso'ng, 1932-yilgacha 10%dan tushishda davom etgan. Manba: DowJones IndustrialAverage (DJIA).*

Aksiya baholari tushishda davom etdi. 1932-yilning o'rtalarida zaxira 1929-yildagiga nisbatan yana 10% ga tushib ketdi. Shuningdek, biznesni yuritish sohasidagi noaniqlik va tartibga solishdagi xatoliklar moliya bozorida bir qator iqtisodiy inqirozlarga sabab bo'luvchi muammolarni keltirib chiqardi. Moliya bozori qatnashchilari mablag' jalb qilish maqsadida investitsiya kirituvchi, oluvchiberuvchi kabi barcha qulay sharoitlarni izlay boshladilar.(2-rasm)

15.2-rasm

Buyuk Depressiya davrida kreditning yoyilishi.

Moliyaviy kelishmovchilikda qarz beruvchilarni kredit yo'qtishlaridan o'zlarini asrash uchun biznesga yuqori foizlar qoyishadi. Unda korporativ obligatsiyalar bilan o'ratacha sifatdagi kreditlarngi foiz darajalari orasidagi farq ko'rsatilgan.[148]

15.4.Rivojlanayotgan davlatlarda bank inqirozi

H *ozirgi davrgacha misol sifatida ko'rsatiladigan mashhur og'ir moliyaviy inqirozlar AQSHdan tashqarida sodir bo'lgan edi. Xususan rivojlanayotgan davlatlar juda xam kuchsiz bo'lib, 1990- yillarda kambag'allikni yo'qotish va tezkor iqtisodiy o'sishni ta'minlash umidida o'z moliyaviy bozorlarinitashqi dunyoga ochib berishdi. Aksincha, AQSHda sodir bo'lgan Buyuk Depressiyaning salbiy ta'siri natijasidaushbu millatlarning ko'pchiligi moliyaviy inqirozni boshdan kechirdi.*

1994-yilda boshlangan Meksika inqirozi, 1997-yilning iyulida boshlangan SHarqiy Osiyo inqirozi va 2001 -yilda boshlangan Argentina inqirozi eng og'ir moliyaviy inqirozlar hisoblanishadi. Rivojlanayotgan davlatlar, xususan Meksika, SHarqiy Osiyo mamlakatlaridan Tailand, Malayziya, Indoneziya, Filippin va Janubiy Koreyada juda yuqori o'sish suratlari ta'minlanayotgan sharoitdaiqtisodiy faoliyatning keskin pasayishini sodir bo'lishiiqtisodchilar uchun turli jumboqlarni keltirib chiqardi.

Rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy inqirozlarning dinamikasi

Rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy inqirozning dinamikasi bozor iqtisodiyoti rivojlanishining dastlabki bosqichlaridagi iqtisodiy tuzumlar xisoblanib, dunyoning boshqa davlatlaridan tovarlar, xizmatlar va kapital oqimini liberallashtirishga erishishgandir. Qaysidir jihatdan ushbu davlatlarning mazkur iqtisodiy siyosati rivojlangan mamlakatlar, jumladan AQSHning tovalar,

[148] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited pp. 2013. pp. 227-242

xizmatlar, va kapital oqimiga nisbatan erkinliklar berish siyosatiga o‘xshasada biroq ayrim muhim jihatlari bilan farqlanadi.1rasm biz ushbu bo‘limda tadqiq qilayotganrivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy inqiroz sodir bo‘lishiga oid hodisalarni natijasi va bosqichlarini tasvirlaydi.

Birinchi bosqich. Moliyaviy inqirozlarning boshlanishi.

Rivojlangan davlatlarda moliyaviy inqiroz bir nechta omillar hisobiga sodir bo‘lgan. Ammo rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy inqiroz ikkita asosiy yo‘lda rivojlanib borgan: moliyaviyliberallashuv va globallashuvni noto‘g‘ri boshqarilishi yoki kuchli fiskal dizbalans.(3-rasm)

15.3-rasm



Moliyaviy liberallashuv/globallashuvni noto‘g‘ri boshqarishning birinchi yo‘li eng umumiy jinoyat hisoblanib, 1994 -yilda Meksikada va 1997- yilda ko‘plab SHarqiy Osiyo davlatlarida moliyaviy inqirozlarni keltirib chiqargandir.

A yo‘l: moliyaviy liberallashuv/globallashuvni noto‘g‘ri boshqarish. *Xuddi AQSHda bo‘lganidek, rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy liberallashuv jarayoni sodir bo‘ldi. Zero,rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy inqirozning yuzaga kelish ildizi mazkur mamlakatlarda mahalliy moliyaviy institutlar va bozorlarda mavjud cheklovlarni olib tashlash orqali moliyaviy tizim liberallashtirildi. SHuningdek, rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy globallashuv jarayoni ham yuzaga kelib, boshqa mamlakatlarning kapital oqimiga va moliyaviy*

firmalariga eshiklar keng ochib berildi. Mamlakatlar teztez jarayonni qattiq fiskal siyosat bilan boshlashdi. Inqiroz boshlangungacha bo‘lgan davrda, Meksikoda byudjet defitsiti YAIMga nisbatan 0,7% ni tashkil qilib, bu darajadagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichni ko‘plab rivojlangan davlatlar orzu qilishi mumkin edi. Xatto SHarqiy Osiyo davlatlarida moliyaviy inqiroz boshlangunga qadar davlat byudjeti YAIMga nisbatan profitsit bilan bajarilayotgan edi. Ko‘p marotaba ta’kidlanishicha, rivojlanayotgan davlatlar moliyaviy tizimi qarz oluvchilarning faoliyatini samarasiz kuzatish va monitoringiga ega bo‘lgan kuchsiz “kredit madaniyati” ga ega bo‘lishgan. Hukumat tomonidan bank nazoratini amalga oshirishning takomillashmagan mexanizmi mavjud bo‘lgan. Rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy liberallashuvni yuzaga keltirgankredit ekspansiyasi bevosita yuqori riskli moliyalash amaliyotlari bilan bog‘liq edi. Natijada yirik kreditlar uchun “hosil yig‘ib olingan” da, bosib o‘tilayotgan yo‘l noto‘g‘ri ekanligi ko‘rinib qoldi.Moliyaviy globallashuv jarayoni yonib turgan olovga “yog‘ sepish” bo‘ldi. CHunki moliyaviy globallashuv jarayoni tijorat banklariningxorijdan qarz olish imkonini yaratdi. Tijorat banklari xorijiy kapitalni jalb etish maqsadida katta foizlar to‘lashdi, o‘z navbatida, kreditlash hajmini yanada oshirishga erishdi. Kapital oqimining mamlakatlarga kirishi hukumat siyosati tomonidan yanada rag‘batlantirilishi natijasida milliy valyutalarning AQSH dollariga nisbatan fiksirlanishi ta’minlandi.Bu iqtisodiy holat xorijiy investorlarda qulaylik yaratdi.

Rivojlangan davlatlarda bo‘lgan kabi, xususan AQSH dagidek, kredit ekspansiyasini keng ko‘lamda amalga oshirilishi kreditlash amaliyotini barbod bo‘lishi bilan tugadi. Kreditlash amaliyotida yuzaga kelgan katta yo‘qotishlar uzoq muddatli riskli moliyalash natijasida sodir bo‘lib, tijorat banklari balansi ahvolini yomonlashtirdi va banklar tomonidan beriladigan kreditlar hajmini keskin pasayishiga olib keldi.Rivojlanayotgan davlatlarda bank balansi holatining yomonlashuvi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan kreditlash va iqtisodiy faoliyatga juda katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi.Rivojlangan davlatlarda takomillashgan qimmatli qog‘ozlar bozori va yirik nobank moliyaviy sektorning mavjudligi banklarning moliyaviy holati yomonlashganda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy tushkunlik holatini sog‘lomlashtirish imkoniyatiniyuzaga keltiradi. Rivojlanayotgan davlatlardaagarda banklarining kreditlash faoliyatini to‘xtatiladigan bo‘lsa, teskari tanlov va psixologik risk muammosini hal qila oladigan boshqa institutlar mavjud emas.

Hozirgi kungacha aytib o‘tilgan hikoyada rivojlanayotgan davlatlarda kredit ekspansiyasini yanada kengayishi va inqirozni sodir bo‘lishi bevosita moliyaviy liberallashuv va globallashuvning natijasi xisoblansada, biroq bu muhim sabab hisoblanmaydi.

Ushbu hodisalar samarali liberallashuv/globallashuv jarayonlaridan cheklovchi kuchsizinstitutsional tuzilmada mavjud bo‘lganda yuzaga keladi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, agarda prudensial tartibga solish va nazorat qilish haddan tashqari risklarni yuzaga kelishini cheklaganda edi, kredit ekspansiyasining kuchayishi va inqiroz sodir bo‘lmas edi. Nima uchun tartibga solish va nazorat tizimi kuchsiz edi? Buning javobi Siyosatchilar va prudensial nazoratchilar saylovchi –soliq to‘lovchilar (prinsipal) uchun asosiy agentlar hisoblanadi: siyosatchilar va prudensial nazoratchilarning maqsadi soliq

to‘lovchilarning manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Agarda moliyaviy yo‘qotishlar boshlanadigan bo‘lsa, bank tizimini sog‘lomlashtirish xarajatlari soliq to‘lovchilarning mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Moliyaviy bozorlar liberallashtirilgan bo‘lsada, ammo, banklarning kuchli tijoriy manfaatlari nazoratilarning o‘z ishlarini to‘g‘ri bajarishlariga xalaqit berishi natijasida prudensial nazoratchilar jamiyatning manfaatini himoya qilmasligi mumkin. Siyosatchilarning kompaniyasiga katta hissa qo‘shgan tijoriy manfaatlar teztez siyosatchilarni banklarning yuqori risk/yuqori daromadstrategiyasini cheklovchi normativhuquqiy xujjatlarni ta’sirini kamaytirishga ishontiradi. Nihoyat agarda bank egalari tezda bank faoliyatini o‘stirishsa va kreditlash faoliyatini kengaytirishga erishsa, katta boylikka ega bo‘lishadi. Ammo banklar inqirozga yuz tutadigan bo‘lsa, xukumat ularni sog‘lomlashtiradi va soliq to‘lovchi xarajatni qoplaydi.SHuningdek, qattiq tartibga soluvchi qonunlar mavjud bo‘lganda ham tijoriy manfaatlar nazorat agentliklarini bank institutlarini samarali monitoring qilish yoki ularning faoliyatini to‘xtatish uchun etarli resurslarga ega emasliklariga ishontirishadi.

AQSHga o‘xshagan rivojlangan davlatlarda ham kuchli tijoriy manfaatlar nazorat organlarining o‘z ishlarini to‘g‘ri bajarishlariga xalaqit beradi. Rivojlanayotgan davlatlardagi kuchsiz institutsional muhit moliyaviy liberallashuv jarayonlarini yanada kuchaytirib yuboradi. Rivojlanayotgan davlatlarda tijoriy manfaatlar yuqori bilim salohiyatiga hamda jamiyat manfaati uchun xarakat qilmaydigan siyosatchilar va byurokratlarni erkin monitoring (yoki jazolash) qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan rivojlangan davlatlarga nisbatan ancha kuchliroqdir.SHubhasiz, shu erda muhokama qilingan rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida prinsipalagent muammosi jamiyatga keltiradigan zarariancha yuqoridir.

V yo‘l: Kuchli fiskal dizbalans. *Davlat xarajatlarini moliyalashtirishi rivojlanayotgan mamlakatlarni moliyaviy inqiroz tomon etaklashi mumkin. 2001-2002- yildaArgentinada sodir bo‘lgan moliyaviy inqiroz aynan shu turga xos bo‘lib, jumladan, 1998- yilda Rossiyada, 1999 -yilda Ekuadorda, 2001 -yilda Turkiyada yuzaga moliyaviy inqirozlar aynan shu turdagi inqirozning ba’zi elementlarini aks ettiradi.*

Mashhur bank o‘g‘risi Villie Suttondan nima sababdan banklarningo‘marganligi so‘ralganda, u shunday jaovb bergan: “CHunki bu erda pul bor”. Rivojlanayotgan davlatlarning hukumatlari aynan shunday qarashga egadirlar. Qachonki ular yirik fiskal dizbalansga yuz tutishsa va o‘zlarining qarzlarini qoplay olishmasa, xukumat banklarni dvalat qarzini sotib olishga aldashadi yoki majburlashadi. Xukumatningushbu qarzlarni qayta to‘lay olish qobiliyatiga ishonchini yo‘qotgan investorlar obligatsiyalarni sotib yuborishadi. Natijada obligatsiyalarning narxi tushib ketadi. Ushbu qarzlarni ushlab turgan banklar balansining aktiv qismida katta o‘ra hosil bo‘lishi natijasida aktivlarning sof qiymati tushib ketadi. Kapital xajmini kamayishi ushbu institutlarning kredit resurslarini pasayishiga olib kelishi oqibatida kreditlash hajmi tushadi. Ushbu holat yanada yomonroq bo‘lishi, ya’ni bank kapitalining pasayishi sarosimani keltirib chiqarishi natijasida ko‘plab banklar bir vaqtda bankrotlikka uchrashi

mumkin. Kuchli fiskal dizbalansning bank tizimi kuchsizlanishiga olib kelishi natijasida tanlovning yomonlashishi va psixologik risk muammosiga olib keladi.

Qo‘shimcha omillar. *Moliyaviy inqirozning birinchi bosqichida boshqa omillar ham muhim o‘rin egallaydi. Masalan, ba’zi moliyaviy inqirozlarda (masalan Meksika inqirozi) qo‘shimcha yuzaga keltiruvchi omil sifatida xorijiy davlatlarning foiz stavkalarini oshishi, darvoqe AQSHda qattiq monetar siyosatning amalga oshirilishi xizmat qilgandir.Foiz stavkalarning ko‘tarilishi yuqori riskka ega firmalaning baland foiz stavkalarda to‘lovlarni amalga oshirishiga olib keladi. Yomonlashgan tanlov muammosi yanada murakkablashadi. Jumladan, yuqori foiz stavkalar firmalarning pul oqimini qisqartirib, ularni assimetrik muammo chuqurlashgan tashqi kapital bozorlardan fondlarni izlashga majbur qiladi.Xorijiy mamlakatlarda foiz stavkalarning oshishi ichki foiz stavkalarning ko‘tarilishiga olib keladi. Natijada tanlovning yomonlashishi va psixologik risk muammosini chururlashtiradi*

Aktivlar bozori rivojlanayotgan davlatlarda rivojlangan davlatlar singari yirik bo‘lmaganligi bois, moliyaviy inqiroz sharoitida past o‘ringa egadir. Qimmatli qog‘ozlar bozorida aktivlarning narxi tushishi, shubhasiz, firmalarning sof qiymatini pasaytiradi va tanlovning yomonlashuvi muammosini chuqurlashtiradi. Firmalarning sof qiymatini tushib ketishi qarz beruvchilar uchun yo‘qotishlar o‘rnini qoplash uchun ta’minotning pastligiva yuqori psixologik riskni muammosini yuzaga keltiradi. Firmalarning egalari inqirozdan oldin shug‘ullangan riskli faoliyatini cheklashganida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zarar ham kamroq bo‘lar edi. Aktivlar narxining tushishi bevosita tanlovning yomonlashishi va psixologik risk muammosini yomonlashtiradi va aktivlarning xisobdan chiqarilishibanklarning balansi holatini bilvosita yomonlashishigaolib keladi.

Rivojlangan davlatlarda bo‘lgani kabi rivojlanayotgan davlat iqtisodiytushkunlik holatiga tushib qolgan bo‘lsa yoki yirik firmalar bankrotlikka uchrasa, odamlarda investitsion loyihalardan oladigan daromadlar to‘g‘risida shubhalar paydo bo‘ladi. Rivojlanayotgan davlatlarda sezilarli nobarqaror siyosiy tizimning mavjudligi noaniqliklarning yana bir manbasi hisoblanadi. Noaniqliklar oshib borsa, qarz beruvchilar uchun yaxshi va yomon kredit riskini ajratib olish va pul qarz bergan firmalarning faoliyatini monitoring qilish juda qiyinlashadi. Bu holat yanada tanlovning qiynlashishi va psixologik risk muammosini chuqurlashishiga olib keladi.

Ikkinchi bosqich. Valyuta inqirozi.

Bank balansining yomonlashshuvi valyutani inqirozini keltirib chiqaradi.

Banklar va boshqa moliya institutlarining moliyaviy ahvoli yomonlashsa, hukumatda ular faoliyatini sog‘lomlashtirish bo‘yicha kam tanlov qoladi. Foiz stavkalarini ko‘tarish orqali o‘zlarining valyutasini himoya qilish kapitalni mamlakatga oqimini qo‘llabquvvatlashi lozim. Biroq xukumat foiz stavkalarni oshirsa, banklar resurslarga ega bo‘lishi uchun ko‘p to‘lashiga olib keladi. Xarajatlarni oshib ketishi banklarning foydasini kamaytirishi natijasida to‘lovga layoqatsizlikni keltirib chiqaradi. Demak, bank tizimining moliyaviy holati og‘irlashsa, xukumat va markaziy bank ikki o‘t o‘rtasida qolib ketadi. Agarda ular foiz stavkani keskin oshirishsa, allaqachon kuchsizlangan bank tizimini barbod

qilishadi, o‘z navbatida, iqtisodiyotning ahvoli og‘irlashadi. Agarda foiz stavkalarni ko‘tarmaydigan bo‘lishsa, o‘z valyutasining qadrini belgilay olishmaydi.

Valyuta bozoridagi spekulyantlar mamlakatning moliya sektoridagi qiynchiliklarni his qilishadi va hukumatning foiz stavkalarni oshirish va valyutani himoya qilish katta xarajat talab qilishiga to‘g‘ri baho berishadi. Natijada xukumat valyutani himoya qilish siyosatini amalga oshira olmasligi bois valyuta qadrsizlanishga ruxsat beradi. Valyutaning qadri faqat pasayganligi bois spekulyantlar deyarli xatosiz kursda bitimlarni amalga oshiradi. Spekulyantlar qattiq raqobatga kirishishadi va valyutani qadri tushishini oldindan aniqlashib sotishadi. Bu holat ularga katta foyda keltiradi. Ammo mamlakat milliy valyutasi qadrini saqlab turish uchuno‘z zaxirasini ishlatishi shart. Natijada ushbu sotuvlar mamlakat xorijiy valyutadagi zaxirasini tezda emirilishiga olib keladi. Qachondir markaziy bank xorijiy valyuta zaxirasini ishlatib bo‘lsa, sikl tugaydi. Markaziy bankda resurslar mavjud bo‘lmaganligi boisvalyuta bozorida intervensiyani amalga oshira olmasligi oqibatida milliy valyutaning qadrini tushib ketishiga ruxsat berishi shart bo‘lib qoladi: bunday vaziyatda hukumat milliy valyutaning devalvatsiyasiga rozilik berishi shart.

Kuchli fiskal dizbalans valyuta inqirozini keltirib chiqaradi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, kuchli fiskal dizbalans bank balansining yomonlashuviga olib keladi, o‘z navbatida yuqorida tasvirlanganidek valyuta inqirozini yuzaga kelishiga olib keladi. Fiskal dizbalans bevosita valyuta inqirozini keltirib chiqaradi. Davlat byudjeti defitsiti nazoratdan chiqib ketsa, xorijiy va maxalliy investorlarda davlat qarzini to‘lash borasida muammolar mavjudligi to‘g‘risida shubhalanisha boshlaydi. Bu holat xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan mamlakatdan pulni olib chiqib ketish va milliy valyutani sotish jarayoni boshlanadi. Fiskal holatning nazoratdan tashqarida ekanligini tan olinishi valyutaga nisbatan spekulyativ hujumni keltirib chiqaradi. Natija valyutaning sinishiga olib keladi.

Uchinchi bosqich. To‘liq moliyaviy inqiroz.

Odatda qarzdorlikni milliy valyutada ifodalovchi ko‘plab rivojlangan iqtisodiyotlarga qaramaqarshi rivojlanayotgan davlatlar ko‘pgina qarzdorlik shartnomalarini valyuta nomuvofiqligiga olib keluvchi xorijiy valyutada ifodalashadi. Rivojlanayotgan davlatlardamilliy valyutaning kutilmaganda qadrini oshishi yoki tushishi (masalan, peso)milliy valyutaga nisbatan hisoblanganda mahalliy firmalarning qarzdorlik yukini oshiradi. Qiymati dollarda ifodalangan qarzlarni qaytarishda ko‘p peso talab qilinadi. Ko‘plab firmalar o‘zlari ishlab chiqargan tovar va xizmatlarini milliy valyutada baholashganligi sababli firmalarning aktivlari pesoga nisbatan qiymati oshmaydi, balki ularning xorijiy valyutadagi qarzlari o‘sadi.Milliy valyuta qadrining pasayishi aktivlarga nisbatan qarzlarning qiymatini oshiradi va firmalarning sof qiymati tushadi. Sof qiymatning pasayishi ilgari tasvirlangantanlovning qiynlashishiga va psixologik risk muammosini murakkablashtiradi.

Biz xozir rivojlanayotgan davlatlarda qarz bozorining institutsional tuzilmasi qanchalik darajada valyutaning devalvatsiyasi bilan o‘zaro ta’sirga ega bo‘lishi orqali mamlakatlarni to‘liq masshtabli moliyaviy inqiroz holatiga tushirishini ko‘rishimiz mumkin. Valyuta qadrining tushishi natijasida yuzaga keladigan valyuta inqirozi firmalarning balansini yomonlashishiga olib keladi va tanlovning yomonlashuviga va psixologik risk muammosini kuchaytiradi. Iqtisodchilar teztez valyuta inqirozi va moliyaviy inqirozni birgalikda “egizak inqirozlar” deb nomlashadi.

Valyutaning sinishi yuqori inflyasiyani keltirib chiqaradi. Ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarda markaziy banklar rivojlangan davlatlardan farqli ravishdainflyasiya xurujiga nisbatan mustahkamlikka ega emas.Bundan ko‘rishimiz mumkinki, valyuta inqirozidan so‘ngmilliy valyutaning keskin qadrini tushib ketishi import tovarlar narxiga yuqori darajada bosimni keltirib chiqaradi. Haqiqiy va kutilayotgan inflyasiyani keskin ko‘tarilishi bevosita mahalliy foiz stavkalarning oshishiga olib keladi. Foizli to‘lovlarning oshishi natijasida firmalarning pul oqimini qisqartiradi. Firmalar o‘zlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish uchuntashqi moliyalashtirish fondlariga haddan ortiq bog‘liqligi yuqori darajada assimetrik ma’lumotlar muammosini keltirib chiqaradi. Assimetrik ma’lumotlar tahlili ko‘rsatadiki, tanlovning qiyinlashishi va psixologik risk muammosi natijasida investitsion va iqtisodiy faoliyat pasayadi.

Bunday shart- sharoitda banklarning bankrotlikka uchrashi bank tizimini inqiroz holatiga tushiradi. (Buyuk Depressiya davrida AQSHda bo‘lganidek). Bank inqirozi va kredit bozoridagi inqirozni keltirib chiqaruvchi omillar tanlovning yomonlashuvi va psixologik risk muammosi, inqirozning salbiy ta’siri oqibatida kreditlash va iqtisodiy faoliyatning xonavayron bo‘lganligini anglatadi.

Biz hozir so’nggi yillarda rivojlanayotgan davlatlarda sodir bo‘lgan ko‘plab moliyaviy inqirozlarning ikkitasini tahlil qilamiz. Dastlab, moliyaviy liberallashuv/globallashuv jarayoni noto‘g‘ri boshqarilishi natijasida yuzaga kelgan birinchi yo‘lni tasvirlovchi 1997-1998 -yillardagi Janubiy Koreyada sodir bo‘lgan moliyaviy inqirozniko‘rib chiqamiz. Ikkinchidan, kuchli fiskal dizbalansning ikkinchi yo‘li natijasida yuzaga kelgan 2001-2002- yillardagi Argentinada sodir bo‘lgan inqirozni tahlil qilamiz.

1997-1998 yillarda Janubiy Koreyada moliyaviy inqiroz.

1997-yilgi inqirozdan oldintarixda Janubiy Koreya buyuk iqtisodiy yutuqlarni qo‘lga kiritgan mamlakatlardan biri edi.1960-yilda Koreya urushi tugaganidan so‘ng etti yildan keyin ham Koreya juda kambag‘al davlat edi. Aholi jon boshiga yillik daromad 2000 AQSH dollaridan past bo‘lib, Somali bilan yonmayon edi. Sovuq urush davrida Janubiy Koreya eskportga yo‘naltirilgan strategiyasini davom ettirdi va jahonning eng yirik iqtisodiyoti bo‘lishiga zamin yaratdi. ***Moliyaviy liberralashuv/globallashuv noto‘g‘ri boshqarildi.***

1990-yillarning boshidan boshlab Koreya xukumati mamlakatning moliyaviy bozorlarini liberallashtirish maqsadida moliya institutlar faoliyatidagi tartibga solishdagi ko‘plab cheklovlarni bekor qilgan. Bundan tashqari Koreya xukumati o‘zining kapital bozoriga xorijiy kapital oqimini ochish orqali moliyaviy globallashuv jarayonlarini boshladi. Natijada kredit ekspansiyasini yanada kuchayib,ommaviy ravishda tashqi qarzlarhar yili 20% ga yaqin suratda oshishi

hisobigaxususiy nomoliyaviy tijorat sektoriga bank kreditlari yuqori suratlarda ajratila boshlandi.Kuchsiz bank regulyatori nazorati va bank institutlarida qarz oluvchilar faoliyatini kuzatish va monitoring qilishda tajribani kamligi sababliqreditlardan mumkin yo‘qotishlar hajmi ko‘paydi va banklarning sofi qiymati (kapital) kamaydi. (15.4-rasm)

15.4-rasm

Rasm 2.
JanubiyKoreyadagi inflatsiya 1995-1999-yillar
Inflatsiya inqirozdan oldin 5% edi, lekin inqiroz paytida 10% ga ko`tarilib ketdi.
Manba: Xalqaro Valyuta Jamg`armasi. Xalqaro Moliyaviy Statistika.
www.imfstatistics.org/imf/

15.5-rasm

Rasm 3.
Real YalM o`sishi, J.Koreya 1995-1999-yillar.
Real YalM o`sishi inqirozdan oldin yillik 7% ni tashkil etardi, lekin inqiroz davrida 6% gacha pasaydi.
Manba: Xalqaro Valyuta Jamg`armasi. *Xalqaro Moliyaviy Statistika*.
www.imfstatistics.org/imf/



Moliyaviy liberallashuv/globallashuv jarayonlarining salbiy ta'siri: CHebollar va Janubiy Koreya inqirozi (15.5-rasm)

Moliyaviy liberallashuvning noto'g'ri boshqarilishida kuchli tijorat manfaatlari muhim rol o'ynaydi. 1990- yillarning oxiridagi moliyaviy inqirozdan oldin Janubiy Koreyaga nisbatan hech qaerda aniq emas ediki, chebollar deb nomlanuvchi yirik oilaviy konglomeratlar o'zlarining savdosi orqali iqtisodiyotda katta ta'sirga ega bo'lishib, YAIM ning salkam 50% ini yaratishgan.(6-rasm)

15.6-rasm



Chebollar siyosiy jihatdan juda kuchli bo'lishgan va hukumat tomonidan "inqirozga yuz tutishi uchun juda ham yirik" hisoblangan. Bunday tushunarsiz kafolat bilan chebollarning moliyaviy ahvoli yomonlashadigan bo'lsa bevosita xukumat yordami yoki yo'naltirilgan kreditlar olishini bilgan. Ammo chebollarning bitimlari so'ndirilgan bo'lsada, o'zlarining barcha foydasini saqlab qolishgan. Aniqki, chebollar katta miqdorda qarz olishgan va yuqori darajada leverajga ega bo'lishgan.

1990-yillarda chebollar hech qanday pul qilishmagan edi. 1993-yildan 1996-yilgacha top o'ttizta chebollarning aktivlari daromadliligi hech qachon 3%dan yuqori bo'lmagan (AQSH korporatsiyalari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, ushbu ko'rsatkich 1520% ni tashkil qilgan). 1996 -yilda moliyaviy inqiroz o'zining salbiy ta'siriniko'rsatishdan oldin aktivlarning daromadliligi surati 0,2% gacha pasayib ketdi. Bundan tashqari faqatgina top beshta chebollarda foyda mavjud bo'lgan bo'lsa, oltinchidan o'ttizinchigacha o'rinda bo'lgan chebollarda 1%dan yuqorifoyda bo'lmasligi natijasida ko'p yillar davomida zarar ko'rishdi. Bu darajadagi past foydalilik va yuqori darajadagi leveraj bois hukumat kafolati mavjud bo'lmasahar qanday bank ushbu konglomeratlargaajratilayotgan kredit summasini kamaytirishi mumkin edi.Agarda chebollar defoltga uchraydigan bo'lsa, xukumat tomonidan ularning kreditlari qoplanishi mumkinligini banklar

bilganligi bois ular faoliyatini moliyalashtirishni to‘xtatishmadi. Tijorat banklari tomonidan chebollarning yirik miqdorda moliyalashtirilishi hamularning qondirib bo‘lmaydigankreditga bo‘lgan talabinikamaytirmadi.Chebollar mavjud moliyaviy qiyinchiliklardan chiqib ketishning yo‘li o‘sishni davom ettirish ekanligi to‘g‘risida qaror qabul qilishdi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun katta miqdorda mablag‘ zarur edi. Xattoki maqtalgan Koreya milliy jamg‘arma depozitlari foiz stavkasi 30%dan yuqoriligi chebollarning rejalashtirilgan kengayishini moliyalashtirish uchun etarli darajada mablag‘larni ta’minlay olmas edi. Ular mablag‘larni qaerdan olishlari mumkin? Buning javobi xalqaro kapital bozorlarida edi.

Chebollar Koreya xukumatini liberallashuv jarayonlarining tarkibiy qismi hisoblanganmoliya bozorlarini xorijiy kapitalga ochib berishni tezlashtirish bo‘yicha qo‘llabquvvatladi. 1993-yilda hukumat mahalliy banklarning xorijiy valyutada ifodalangan qreditlash berish qobiliyatinikengaytirdi. Bir vaqtning o‘zida Koreya xukumati moliyaviy institutlar tomonidanajratiladigan cheklanmagan qisqa muddatli tashqi qarzlar olishga samarali ravishda ruxsat berdi. Ammo mamlakatga kapital oqimini boshqarishning vositasi sifatida uzoq muddatli qarzlargamiqdoriy cheklovlar o‘rnatilgan edi. Uzoq muddatlidan tashqari faqatgina qisqa muddatlixorijiy kapital oqimini ochilishi hech qanday iqtisodiy samaradorlik keltirmadi. Qisqa muddatli kapital oqimi rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiyotini kuchsizlantirdi; moliyaviy inqirozning qandaydir belgilari ko‘rinishni boshlasa,qisqa muddatli kapital tezkorlik bilan mamlakatdan chiqib ketishni boshlaydi.

Asosan qisqa muddatli kapital oqimini kirib kelishiga yo‘l ochib berilganligi to‘laligicha siyosiy ta’sirni ko‘rsatdi: chebollar pulga extiyoj sezgan sharoitdaxalqaro bozorda uzoq muddatli kreditlash xorijiy kreditorlar uchun yuqori riskka egaligi bois qisqa muddatli fondlarni past foiz stavkalarda qarz olish juda oson edi.Ushbu o‘zgarishlarning salbiy ta’siri natijasida Koreya banklari o‘zlariga xorijiy fondlarga yo‘l ochuvchi vosita sifatida chet el mamlakatlarida yigirma sakkizta filiallarini ochishdi.

Hozirda Koreya moliya institutlarixorijiy kapitalni jalb qilishga imkoniyat borligiga qaramasdan chebollarda hali ham muammo mavjud edi. Ulartijorat banklarini o‘z tarkibiga olishga ruxsat berilmagan edi. SHu sababdan ham chebollar o‘zlari xohlagan miqdorda bank kreditlarini jalb qila olishmadi.Ammo, Janubiy Koreyaga xos bo‘lgan maxsus moliyaviy institutmavjud bo‘lib, chebollarga kerakli bo‘lgan miqdorjaqarzlarni jalb qilish imkoniyatini berar edi: savdogar bank. Savdogar bank korporatsiyalari ulgurji savdo moliyaviy institutlari hisoblanib, qimmatli qog‘ozlarninganderrayting operatsiyalari, lizing va korporativ sektorga qisqa muddatli kreditlar ajratish shug‘ullangan. Ular kreditlar uchun o‘z fondlariniobligatsiyalar hamda tijorat qog‘ozlarini emissiya qilish va interbank va xorijiy bozorlardan qarz olish hisobiga shakllantirishgan edi. Koreya inqirozi davrida savdogar banklarga xorijdan kredit olishga ruxsat etilgan edi va ularning faoliyati deyarli tartibga solinmagan edi. Chebollar o‘zlarining imkoniyatlarini yuqori baholashdi va xukumat vakillarini ko‘plab moliyaviy kompaniyalarni (allaqachon chebollar tomonidan o‘zlashtirilgan)savdogar banklarga aylantirishga ishontirdi.Savdogar banklar

katta miqdordagi fondlarni chebol egalariga yo‘naltirishdi. Lekin ushbu fondlar samarasiz hisoblangan po‘latchilik, avtomobil ishlab chiqarish va kimyo sanoatiga ishlatildi. Ajratilgan kreditlar muammoli ko‘rinishni olganidan so‘ng, ushbu bosqich xalokatli moliyaviy inqirozni boshlab berdi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorining pasayishi va firmalarning bankrotlikka uchrashi noaniqliklarni kuchaytirdi.

Keyinchalik Koreya iqtisodiyotining eksport narxlariga salbiy ta’sir ko‘rsatgan silkinishni boshdan kechirishi chebollar va ularga biriktirilgan kichik hamda o‘rta hajmdagi firmalarning allaqachon kamaygan foyda marjasini yanada pasayishini keltirib chiqardi. 1997-yil 23-yanvarda ikkinchi marotaba muhim silkinish sodir bo‘lishi moliyaviy tizim uchun katta noaniqliklarni keltirib chiqardi: Hanbo, o‘n to‘rtinchi o‘rindagi yirik chebol o‘zini bankrot sifatida e’lon qildi. Xaqiqatan, Hanboning bankrot deb e’lon qilinishi faqatgina boshlanishi edi xolos. Yil tugashidan oldin o‘ttizta eng yirik chebolning beshtasi bankrot sifatida e’lon qilindi. Ushbu bankrotliklar va moliyaviy hamda nomoliyaviy balanslar holatining yomonlashuvi natijasida yaratilgan katta noaniqliklar natijasida katta miqdorda noaniqliklar yuzaga keldi. Noaniqliklar bevosita qimmatli qog‘ozlar bozorini o‘zining cho‘qqisidan 50%dan ortiq miqdorda keskin pasayishini keltirib chiqardi.

Tanlovning yomonlashuvi va psixologik risk muammosini chuqurlashishi hamda yalpi talabning pasayishi.

Ko‘rganimizdek, noaniqlikni oshishi va sof qiymatning pasayishiqimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini pasayishi natijasida yuzaga kelib, assimetrik ma’lumotlar muammosini yanada murakkablashtirdi. YOmon qarz oluvchilardan yaxshi qarz oluvchilarni ajratib olishni qiyinlashtirdi. Sof qiymatning pasayishi firmalarning ta’minot qiymatini pasaytirdi.SHu bilan bir qatorda investitsion loyiha muvaffaqqiyatsizlikka uchrasa, yo‘qotiladigan kapitalning miqdori kamligi boisriskli investitsion faoliyatni amalga oshirishni qo‘llabquvvatlandi.Inqirozdan oldin sodir bo‘lgan noaniqlikning oshishi va qimmatli qog‘ozlar bozorining pasayishi bilan bir qatorda banklarning balansini holatiniog‘irlashishi tanlovning yomonlashishi va psixologik riskni muammosini murakkablashtirdi. Natijada banklar tomonidan ajratiladigan kreditlar hajmi pasaydi va iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Iqtisodiyotning kuchsizlanishi bilan bir qatorda bank balansi holatining yomonlashuvi Janubiy Koreya iqtisodiyotini keyingi bosqich, ya’ni valyuta inqirozini yuzaga kelishini ta’minladi. Valyuta inqirozi iqtisodiyotni to‘liq masshtabli moliyaviy inqiroz va depressiya holatiga tushirib qo‘ydi. (7-rasm)

15.7-rasm



Valyuta inqirozi davom etadi.

Moliyaviy sektorda banklarning balansini yomonlashuvi va katta miqdorda qisqa muddatli tashqi qarzlarning hosil bo‘lganligi hamda Koreya milliy valyutasiga spekulyativ hujumning mavjudligi boisiqtisodiyotda kapital oqimining kutilmaganda to‘xtab qolishi xavfidan qochib qutulishning iloji yo‘q edi. 1997 -yil iyul oyida Tailand batining qulashi bilan1997 -yil erta avgust oyida mamlakatda qirq ikkita moliyaviy kompaniyalarning yopilganligi to‘g‘risida e’lon qilindi. Natijada bozor ishtirokchilariningo‘xshash muammolar boshqa SHarqiy Osiyo davlatlarida mavjudligi borasida shubhaga borishlari natijasidamuammo boshqa hududlarga ham keng yoyildi. Tezda spekulyantlar Janubiy Koreya iqtisodiyoti ham og‘ir ahvolda ekanligini aniqlashdi. Janubiy Koreya markaziy banki foiz stavkalarni ko‘tarish orqali o‘z valyutasini ortiq himoya qila olmasligi ma’lum bo‘ldi. CHunki foiz stavkalarning ko‘tarilishi orqali milliy valyutaning himoya qilinishi allaqachon kuchsizlangan banklarni cho‘ktirib yuborishi aniq edi. Spekulyantlar Koreya milliy valyutasi vonni chiqarib yuborishi spekulyativ hujumni keltirib chiqardi.

So‘nggi bosqich: valyuta inqirozi to‘liq masshtabli moliyaviy inqirozni keltirib chiqardi.

Chunki nomoliyaviy va moliyaviy firmalarda katta miqdorda xorijiy valyutada qarzlar mavjud bo‘lib,Koreya vonining salkam 50%gacha qadrsizlanishi xorijiy valyutada ifodalangan qarzlarning milliy valyutadagi qiymatini ikki barobaroshirishi natijasida sof qiymatning qattiq emirilishi yuzaga keldi. Sof qiymatning yo‘qolishi Koreya moliyaviy bozorlarida mahalliy va xorijiy qarz beruvchilar uchuntanlovning yomonlashuvi va psixologik risk muammosini yanada murakkablashtirdi.

Firmalarning pul oqimi va balansni yomonlashuvi bank inqirozini yanada og‘irlashtirdi. Banklar tomonidan mahalliy firmalarga ajratilgan dollardaifodalangan qarzlar so‘ndirilmaganligi hamda xorijiy valyutadagi qarzlarningko‘proq vonda to‘lanishi oqibatida banklarning balansi yanada yomonlashdi.SHuningdek, moliyaviy institutlar tomonidan tashqi qarzlarining qisqa muddatga jalb qilinishiqo‘llabquvvatlanganligilikvidlik muammosini chuqurlashtirdi. Chunki, banklar ushbu qarzlarni tezda qaytarishlari shart edi. Xukumat bank tizimida yuzaga kelgan vahimani to‘xtatish maqsadida banklardagi

barcha omonatlarni kafolatlash borasida qadam tashladi. Ammo kapital hajmining kamayishi bevosita banklar tomonidan kreditlash faoliyatini qisqartirilishi shartligini anglatar edi. (8-rasm)

15.8-rasm

Rasm6.
J.Koreya valyutasi qadri, 1995-1999-yillar
Inqiroz davrida Koreya voni deyarli ikki baravar qadrsizlandi
Manba: Xalqaro Valyuta Jamg`armasi. *Xalqaro Moliyaviy Statistika.*
www.imfstatistics.org/imf/



15.9-rasm

Rasm 7.
J.Koreyadagi foizlar darajasi, 1995-1999-yillar
Inqiroz davrida foiz ko`rsatkichlari 20% ga oshib ketdi.
Manba: Xalqaro Valyuta Jamg`armasi. *Xalqaro Moliyaviy Statistika.*
www.imfstatistics.org/imf/



Kreditlash hajmining qisqarishi qo‘shimcha ravishda iqtisodiy pasayishni keltirib chiqardi. Natijada bu holat kredit bozorlarida tanlovning yomonlashuvi va psixologik risk muammosinikuchaytirdi. Kredit bozorlarida assimetrik ma’lumotlar muammosining oshishibilan bir qatorda yuqori foiz stavkalarining

investitsion qarorlarga bevosita ta'sir ko'rsatishi keyinchalikinvestitsion xarajatlarni pasaytirdi, pirovardida, yalpi talab tushishiga qo'shimcha faktor sifatida xizmat qildi. (9-rasm)

Janubiy Koreya moliyaviy inqirozi yuqori darajada inson resurslari xarajatini ham keltirib chiqardi. Kambag'allarning darajasi 6 milliondan 10 milliongacha, o'z joniga qasd qilish va ajrashishlar surati salkam 50%gacha, narkotik moddalarga ro'ju qo'yish 35%gacha va jinoyatchilik surati 15%gacha o'sdi.

ILOVA. 2001-2002 yillarda Argentina moliyaviy inqirozi.

Hozir biz tadqiq qiladigan Argentinada moliyaviy inqiroz kuchli fiskal dizbalans natijasida yuzaga keldi.

Kuchli fiskal dizabalans.

Meksika va SHarqiy Osiyo davlatlaridan farqli ravishda Argentinadasamarali boshqariladigan bank tizimi mavjud edi va iqnirozdan oldin keng ko'lamli kredit ekspansiyasi amalga oshirilmadi. 1998 yilda kuchli retsessiya boshlanganiga qaramasdan inqirozdan oldin banklarning moliyaviy holati juda yaxshi edi.Afsuski, Argentinada doimo o'z byudjetini nazorat qilish bo'yicha qiyinchilik mavjud bo'lgan. Argentinada viloyatlar (AQSHdagi shtatlarga o'xshab) davlat xarajatining katta foizini nazorat qilishadi. Ammo daromadlarni oshirish javobgarligi asosan federal xukumatga yuklatiladi. Bu tizim doirasidaviloyatlar o'zlarining vakolatidan tashqari xarajatqilishdaimtiyozgaega edi va ular federal xukumatdan davriy ravishda o'zlarining qarzdorligi yuzasidan javobgarlik to'g'risida o'ylab ko'rishga chaqirib turishdi.Natijada, Argentina doimo defitsitda bo'lgan.

1998-yilda boshlangan turg'unlik vaziyatni yanada yomonlashtirdi. CHunki turg'unlik davri soliq daromadlarini pasaytirdi va davlat xarajatlari hamda soliqlar o'rtasidagi chuqurlikni kengaytirdi. So'nggi kuchli fiskal dizbalans shu darajada juda katta ediki, xukumat maxalliy rezidentlar va xorijliklarga etarli darajada o'zining obligatsiyalarini sota olmadi. SHu boisbu holatdabanklar katta miqdorda xukumat qarzini sotib olishga majburlandi. 2001- yilgacha investorlar Argentina xukumatining ushbu qarzni qayta to'lay olish qobiliyatiga shubha bilan qaray boshladi. Banklarning balansida katta chuqurlar qoldirib, qarzning narxi keskin tushib ketdi. Rivojlanayotgan davlatlar orasidaqachonlardir eng zo'r nazorat qilinadigan va kuchli bank tizimiga ega Argentina depozitlarni yo'qotishni boshladi.

Tanlovning yomonlashishi va psixologik risk muammosining chuqurlashishi.

Iqtisodiyotning kuchsizlanishi va bank balansining yomonlashuvi inqirozning keyingi bosqich, bank tahlikasiga zamin yaratdi.

Bank tahlikasi boshlandi.

2001-yil oktyabrda iqtisodiy inqiroz natijasida soliqlardan olinadigan daromadlar pasayishda davom etdi va markaziy xukumati va viloyatlar o'rtasida fiskal vaziyatni yaxshilash borasidagi kelishuvlar barbod bo'ldi. Davlat obligatsiyalarining defoltining oldini olishning imkoni yo'q edi. Natijada bir kunda salkam 1 milliard dollar depozitlarning banklardan chiqib ketishi kuzatilganto'liq masshtabli bank tahlikasi noyabr oyida boshlandi.Dekabr oyi boshlanishida

xukumatni banklar faoliyatini vaqtinchalik to‘xtatish bo‘yicha majburlashdi va corralito (kichik devor) nomli cheklovni joriy qilishdi. Ushbu vaziyatda omonatchilar bankdanxaftasiga faqatgina 250$ olishlari mumkin edi. Corralito ayniqsa kunlik tranzaksiyalari faqatgina naqd pulga bog‘liq bo‘lib qolgan kambag‘allar uchun juda katta taxlikali edi. Argentina jamiyatining ijtimoiy tuzilmasi zaiflashishni boshladi. Qattiq namoyishlarda salkam o‘ttizga yaqin odamlar xalok bo‘ldi. (10 -rasm)

15.10-rasm



Valyuta inqirozi izchillik bilan sodir bo‘ldi.

Bank taxlikasi xukumat pesoning qadrini ushlab turish maqsadida foiz stavkalarni baland ushlab turishidan, shuningdek, bir argentina pesosini bir AQSH dollariga fiksirlangan kursda sotib olish va sotishiga rozilik beruvchi tuzilma valyuta kengashini saqlab turishning iloji yo‘qligidan ogohlantirdi. Allaqachon kuchsizlangan banklar faoliyatini barbod qilishi sababli valyuta kengashini saqlab turish uchun foiz stavkalarni oshirish echim sifatida o‘zining ahamiyatini yo‘qotdi. Xalq kelajakda peso o‘zining qiymatini yo‘qotishini tan olishi oqibatida odamlar dollar uchun pesoni sotishi bevosita spekulyativ xujumni boshlab berdi. SHuningdek, xukumatning og‘ir fiskal holati o‘z qarzini to‘lash imkonini bermasligi investorlarning pulni mamlakatdan olib chiqib ketishiga shartsharoit yaratib berdi. Bu holat qo‘shimcha peso savdosiga olib keldi.

2001- yil 23- dekabrda xukumat tashqi qarzlar to‘lovini kamida oltmish kunga to‘xtatib qo‘yishga majbur ekanligini e’lon qildi. 2002- yil 2- yanvarda xukumat valyuta kengashini tark etdi. (11-rasm)

15.11-rasm

Rasm 9.
Argentinadagi Real YalM o`sishi,
1998-2004-yillar
Inqiroz davrida Real YalM o`sishi pasayib ketdi va yillik 10% pasayishni qayd etdi.
Manba: Xalqaro Valyuta Jamg`armasi. *Xalqaro Moliyaviy Statistika*.
www.imfstatistics.org/imf/



15.12-rasm

Rasm 10.
Argentinadagi ishsizlik darajasi, 1998-2004-yillar
Inqiroz davridaishsizlik 20% gacha oshib ketdi.
Manba: Global Moliyaviy Ma`lumotlar
www.globalfinancialdata.com/



Valyuta inqirozi to‘liq masshtabli moliyaviy inqirozni keltirib chiqardi.

2002 -yilning iyunigacha 1,00$ qiymatdan 0,30$dan pastroqgachapesoning kursi erkin ravishda pasaydi va keyinchalik 0,33$ atrofida barqarorlashdi. Boshqa inqiroz yuz berayotgan davlatlarga qaraganda Argentinada AQSH dollarida ifodalangan yuqori foizli qarz mavjudligi boispesoning qadrini tushishining ta’siriayniqsa banklar balansiga juda xalokatli edi.Inqirozdan oldin pesoqadrini uchdan bir martagapasayishi, dollarda ifodalangan barcha qarzlarning pesoda uch barobarga oshib ketishiga olib keldi. Argentinasavdo sektori kichik bo‘lganligi bois, ko‘plab tijoratchilarning ishlab chiqarishi pesoda baholangan edi. Agarda ular barcha dollardagi qarzlarini qaytarishga to‘g‘ri kelib qolsa, deyarli barcha firmalar to‘lovga layoqatsiz bo‘lib qolar edi. CHunki sof qiymat tanlovning yomonlashishi hamda psixologik risk muammosini yumshata olmasligi sababliyaratilgan shunday muhitda moliyaviy bozorlar faoliyat ko‘rsata olishmaydi.(12-rasm)

Defoltga uchragan xukumat qarzidan yo‘qotishlar va kreditdan yo‘qotishlarning oshishi Argentina banklarining balansini juda yomon ahvolga olib keldi. Keyinchalik, banklarlan depozitlarni talab qilinib olinishiyirik hajmda depozitlarni oqib chiqib ketishiga olib keldi.YAngidan kreditlar ajratish uchun resurslarni etishmasligi banklar tomonidan tanlovning yomonlashuvi va psixologik risk muammosini xal qila olmasligiga olib keldi. Xukumat obligatsiyalarining defolti va Argentina moliya bozorlaridagiholat xorijliklarning ortiq kredit berishini xoxlamasligini va xaqiqatda o‘zlarining pullarini mamlakatdan olib chiqib ketayotganliklarini anglatar edi.

Moliyaviy tizim xavfda turganligi bois, moliyaviy oqimni sekinlik bilan to‘xtashiga olib keldi. Kreditlashning pirovard qisqarishi keyinchalik iqtisodiyotni pasayishiga etakladi. Corralito iqtisodiyotni pasayishida muhim rol o‘ynadi. Naqd pul olishning qiyinlashishi Argentinada yirik bo‘lgan va asosan naqd pulda faoliyat yurituvchiyashirin iqtisodiyotning keskin pasayishiga sabab bo‘ldi. (13-rasm)

15.13-rasm

Rasm 11.
Argentinada pesosi, 1998-2004-yillar
Inqiroz davridan oldin Argentina pesosi $1.00 dan pastga tushdi va 2002-yil iyuniga qadar 30 sentgacha pasaydi.
Manba: Xalqaro Valyuta Jamg`armasi. *Xalqaro Moliyaviy Statistika.* *www.imfstatistics.org/imf/*



Janubiy Koreyada bo‘lgani kabi valyutaga muvaffaqiyatli spekulyativ xujumdan so‘ng Argentina valyutasi kursining pasayishi bevosita inflyasiyani keltirib chiqarib, Argentina markaziy bankining inflyasiyani nazoratda ushlab turish ishonchliligini kuchsizlandi va import narxlari o‘sdi. Haqiqatda, Argentinaning yuqori darajadagi inflyasiyaga ega tarixiy o‘tmishi Janubiy Koreyaga nisbatan Argentinada kutilayotgan inflyasiyani yuqori bo‘lishini anglatar edi. Bu holat nafaqat ishlab chiqarishning pasayishini, balki inflyasiyaning Janubiy Koreyada sodir bo‘lgan moliyaviy inqiroz sharoitidagiga nisbatan ancha yuqori darajada o‘sishini ko‘rsatar edi.

Argentinada yillik inflyasiya 40% atrofida o‘sdi. Haqiqatdagi inflyasiyaning o‘sishi kutilayotgan inflyasion o‘sish bilan birgalikda sodir bo‘lishi foiz stavkalarning yanada yuqoriroq darajaga ko‘tarilishiga olib keldi. YUqori foizli to‘lovlar uy xo‘jaliklari va firmalarning naqd pul oqimini pasayishiga olib keldi. Natijada uy xo‘jaliklari va firmalar o‘zlarining investitsiyalarini moliyalashtirish uchun tashqi fondlar izlashga majbur bo‘lishdi. Moliya bozorlaridagi noaniqliklar va assimetrik ma’lumotlar muammosi juda chuqurligi investitsiyalarni moliyalashtirishning iloji yo‘qligini anglatar edi.Uy xo‘jaliklari va tijoriy faoliyat vakillari qo‘shimcha xarajatlarni kamaytirishdi.Bizning yalpi talab va taklifimiz bashorat qilganidek, Argentina iqtisodiyoti keskin pasaydi. 2002 -yilning birinchi choragida ishlab chiqarish yillik 15%dan yuqori miqdorda pasayganligi ifodalangan. Kambag‘allik darajasi dramatik ravishda o‘sib, 2002- yilda Argentina axolisining kambag‘allik darajasi salkam 50%dan oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Argentina o‘z tarixida kuchli iqtisodiy depressiyani boshdan kechirayotgan edi – xar bir daqiqa juda yomon bo‘lib, balki Buyuk Depressiya davriga nisbatan yomon edi.

Iqtisodiy tiklanish boshlandi.

Janubiy Koreyada bo‘lganidekdunyoning boshqa mamlakatlardagi tovarlarning narxi o‘sishi natijasida Argentinaning eksportiga talab oshdi va o‘zo‘zini to‘g‘irlash mexanizmi ishga tushdi. 2003-yilning oxirigacha iqtisodiy

o‘sish surati yillik 10% atrofida bo‘lgan bo‘lsa, Ishsizlik darajasi 15%dan past ko‘rsatkichga teng bo‘ldi. Inflyasiya darajasi 5%dan pastga sho‘ng‘idi.(14-rasm)

15.14-rasm



Rivojlanayotgan davlatlar va rivojlangan davlatlarda moliyaviy inqirozning yuzaga kelishi o‘rtasidagi farqni aniqlaganimizga qaramasdan, rivojlangan davlatlarda ham rivojlanayotgan davlatlardagi kabi xususiyatlarga ega moliyaviy inqiroz sodir bo‘lgandir. Bu holat keyingi betdagi ifodalangan “Rivojlangan davlat iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlat iqtisodiyotiga qachon o‘xshaydi: 2008-yilning Islandiya moliyaviy inqirozi”.

Rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy inqirozni oldini olish.

Ushbu rivojlanayotgan davlatlarning moliyaviy inqiroz tajribasi tasvirlangan bo‘lib, rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy inqirozni yumshatish borasidagibir nechta hukumatlarning siyosatini maslaxat beradi.

Prudensial tartibga solish va bank nazoratini kuchaytirish.

Ko‘rganimizdek, rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy inqirozning ildizi bank tizimiga borib taqaladi. Moliyaviy inqirozning oldini olish uchun xukumatlar tijorat banklarining riskli faoliyatini chegaralash uchun prudensial tartibga solish va bank nazoratini rivojlantirishi lozim. Birinchidan, tartibga soluvchilar banklarning iqtisodiy shokdan mumkin yo‘qotishlarga qarshi etarli darajada kapital bilan ta’minlanganligini kafolatlashlari lozim. Shuningdek, ko‘proq yo‘qotishlarni boshdan kechirishi sabablibank egalariga xavfsizroq investitsion faoliyatni amalga oshirishlari uchun imtiyozlar berilishi shart.

Navbatdagi moliyaviy xabar.“Rivojlangan davlat iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlat iqtisodiyotiga qachon o‘xshaydi: 2008- yilning Islandiya moliyaviy inqirozi”.

2008-yilda boshlangan Islandiyada moliyaviy inqiroz va iqtisodiy pasayishdunyoda yuqori yashash standartlariga ega kichik, boy millat uchun taajubli xodisalarni yuzaga keltirib,rivojlanayotgan davlatdagi moliyaviy inqirozssenariysi takrorlandi.

Moliyaviy liberallashuv jarayonlarining bir qismi sifatida 2003-yilda Islandiya xukumati davlat ulushiga ega banklarni Island bank sanoatini

kengaytirgan maxalliy investorlarga sotdi.Ushbu investorlar nemis va britan uy xo‘jaliklaridan xorijiy valyutadagi depozitlarni jalb qilish hamda xorijiy valyutada ifodalangan kreditlar etarli va arzon bo‘lganqisqa muddatli ulgurji fond bozorlaridan katta miqdorda qarz olishmaqsadidachet elda filiallarni tashkil qilishdi.Ular fondlarni aynan bank egalariga aloqasi bo‘lgan mahalliy investitsion firmalarga yo‘naltirishdi. Tabiyki, fondlarning katta qismi kapital va ko‘chmas mulk ko‘rinishidagi yuqori riskli investitsiyalarga yo‘naltirildi. Islandiyaning qimmatli qog‘ozlar bozori qiymati YAIM ning 250%miqdorigacha tezkorlik bilan o‘sdi va firmalar, uy xo‘jaliklari hamda banklar xorijiy valyutada qarz olishdi. Natijada rivojlanayotgan davlatlarda bo‘lgani kabi kuchli valyuta nomutanosibligi sodir bo‘ldi. Bir vaqtning o‘zida Islandiyaning tartibga solish tizimi bank risklarini samarasiz nazorat mexanizmi bilan ta’minlangan edi.

2008-yil oktyabrda AQSH investitsion banki Lehmann Brothers ning bankrotlikka uchrashi Islandiya banklarini moliyalashtirib turgan ulgurji qarz tizimini to‘xtatishiga olib keldi.Fond bozoriga yo‘lning mavjud emasligi natijasida banklar o‘larining xorijiy valyutadagi qarzlarini qayta to‘lay olishmadi. Ko‘pgina hollarda banklar tomonidan qabul qilingan ta’minot boshqa Island banklarini aksiyalarini o‘z ichiga olib, ularning narxi oldingi qiymatini ma’lum bir qismigacha pasaydi. Banklarning aktivlari shu darajada o‘sib ketgan ediki, mamlakatning yalpi ichki maxsulotidan deyarli to‘qqiz barobarga oshib ketgan edi. Natijada xukumat banklarni bankrotlikdan ishonchli tarzda qutqara olmas edi. Islandiyadan xorijiy kapital qochib ketdi va Island kronasining qiymati 50%gacha qadrsizlandi.

Valyuta kursini keskin pasayishi natijasida tashqi qarz yuki milliy valyutada ifodalanganda ikki barobarga ko‘paydi. Natijada Island firmalari va uy xo‘jaliklari kapitalining katta qismini emirilishi to‘liq masshtabli moliyaviy inqirozni yuzaga keltirdi. Ishsizlik darajasini uch barobarga oshishi,ish haqini tushishi, xukumatda katta hajmda byudjeti defitsiti shakllanishi bilan iqtisodiyot kuchli retsessiya holatiga tushdi. Xorijiy kreditorlar bilan munosabatlar yanada taranglashgan bo‘lsa, terrorizmga qarshi qonunga muvofiqxattoki island firmalarning aktivlari muzlatilishi Buyuk Britaniya bilan aloqalarni yanada og‘irlashtirdi. Ko‘pgina islandiyalik odamlar baliq ovlash va qishloq xo‘jaligi sanoatidagi an’anaviy ishlariga qaytishdi. Fuqarolar yomon vaziyatning ham yaxshi tomonlarini topishdi: island valyutasining qadrini pasayishi islandiyaning mashxur balig‘i, Island pista ko‘miri va atlantik lososni xorijliklar uchun ancha qulay bo‘lishini ta’minladi.

Prudensial nazorat 1) yaxshi risk menejment va monitoring tizimi 2) mavjud muxim risklarni yuzaga keltiradigan faoliyatni cheklash 3) xodimlar tomonidan o‘g‘irlik va ruxsat etilmagan xarakatlarni oldini olish maqsadida ichki nazoratni o‘z ichiga oluvchi o‘z o‘rnida to‘g‘ri risk menejment jarayonlarini banklarda mavjudligi kafolatlash orqali xavfsizroq va sog‘lomroq bank tizimini qo‘llabquvvatlashga yordam beradi.Janubiy Koreya misolida ko‘rsatganidek, tartibga solish tizimi tijorat faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan banklarni egallab olinishiga ruxsat berilmasligi lozim. Tijorat faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar banklarni egallab olishsa,Janubiy Koreyadagi chebollar kabibank kreditlarini o‘z maqsadlarini moliyalashtirish yo‘lida foydalanishadi. Bu

holat yuqori riskli kreditlash faoliyatini kengayishiga, o‘z navbatida bank inqirozini keltirib chiqaradi.

Prudensial nazorat ishlashi uchun nazoratchilarda o‘zlarining faoliyatini amalga oshirishlari uchun etarli darajada resurslar bo‘lishi kerak. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti uchun bu juda ham jiddiy muammo hisoblanib, prudensial nazoratchilar juda kam ish haqi olishadi va kompyuter kabi instrumentlar etishmaydi. Siyosatchilar tomonidan prudensial nazoratchilarga katta bosim mavjud bo‘lib, siyosiy ulushini olish (yoki to‘g‘ridanto‘g‘ri pora olish) maqsadidabanklardan ‘‘juda ’’qattiq’’bo‘lmasliklarni talab qilishadi. Mustaqilroq tartibga soluvchi va nazorat agentligi siyosiy ta’sirga qarshi turishi, o‘z ishini bajarishi va bank risklarini kamaytirishi lozim.

Ochiqlik va bozor iqtisodiyotiga asoslangan tartibni qo‘llabquvvtlash.

Davlat sektori prudensial tartibga soluvchilar va nazoratchilar vositasida faoliyat ko‘rsatishi orqalimoliviy institutlarning riskka tortilishini nazorat qilish bilan xar doim kurashadi. Moliyaviy institutlar o‘zlarining faoliyatidagi cheklovlar yuzaga kelishidan qochishadi va risklarni niqoblashda ancha tajribali va moxir bo‘lishib, har doimbank nazoratchilaridan ma’lumotlarni yashirishga intilishadi.SHuningdek, nazoratchilar ham pora olishlari yoki siyosiy bosim uyushtirishadi hamda o‘z ishlarini to‘g‘ri bajarmasliklari mumkin.

Bu muammolarni hal etish uchun moliyaviy bozorlar moliya institutlarini ko‘p riskka chalinmasliklari maqsadida tartibga solishga muxtojdir. Xukumat tomonidanbanklar va boshqa moliya institutlar balansining holatini ochiqligini ta’minlanishi qo‘llabquvvatlanishi tartibga solinishi lozim.Bundan tashqari depozitorlar va kreditorlar past darajada kapitallashuvga ega moliya institutlarga pul qo‘yishni xoxlamasliklari sababli xukumat tomonidan moliya institutlarining ko‘proq kapitalga ega bo‘lishi rag‘batlantirishi lozim.YUqori darajadagi riskli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi institutlardandepozitorlar va kreditorlar pullarini olib chiqib ketishlari sabablibank faoliyatining ochiqligini qo‘llabquvvatlash bilan bog‘liq qoidalar ham riskka uchrashni chegaralaydi.

Valyutalarning nomutanosibligini chegaralash.

Ko‘rganimizdek, rivojlanayotgan davlatlar moliya tizimi milliy valyuta qiymatini pasayishi natijasida juda ham kuchsizlanadi. Ushbu mamlakatlardagi firmalarning maxsulotlari va aktivlarining narxi milliy valyutada baholanganligigaqaramasdan, tez tez xorijiy valyutada qarz olishadi.Milliy valyuta kursining tushishi xorijiy valyutada ifodalangan qarz yukini oshishiga sabab bo‘ladi. Chunki ushbu qarzni ancha qimmat xorijiy valyutada qaytarilishiga to‘g‘ri kelib, firmalarning balansini yomonlashtirishimoliyaviy inqirozni keltirib chiqaradi.Xukumatlar valyutalarning nomutanosibligini huquqiy xujjatlar qabul qilish yoki soliqlarni joriy qilish orqali nomoliyaviy firmalar tomonidan xorijiy valyutada ifodalangan qarzlar ajratilishini qisqartiradi. Bank faoliyatini tartibga solish ham banklar tomonidan xorijiy valyutada qarz olishni kamaytiradi.

Valyuta kursi o‘zgara olishi mumkin bo‘lgansuzuvchi kurs rejimiga o‘tish yuqori darajadagi riskli faoliyatni yuzaga kelishi oqibatida xorijiy valyutada qarz olishni qisqartiradi. Narx barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilganmonetar siyosat yuqori suratdagiinflyasiya natijasidamilliy valyuta o‘z qiymatini

yo‘qotishini oldini oladi. Bu holat firmalarning xorijiy valyutaga nisbatan milliy valyutada qarz olishlarini rag‘batlantiradi.

Izchil moliyaviy liberallashuv.

Moliyaviy liberallashuv uzoq muddatga yuqori darajada foydali bo‘lishiga qaramasdan, rivojlanayotgan davlatlardagi bizning tahlilimiz ko‘rsatadiki, agarda ushbu jarayon to‘g‘ri boshqarilmasa, xalokatli natijalarni keltirib chiqaradi. Liberallashuv amalga oshirilayotganda to‘g‘ri tartibga solish/nazorat tizimi va ma’lumotlarning ochiqligi talablari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, riskka moyillikni kamaytiruvchi zarur cheklovlar juda ham kuchsiz bo‘ladi.

Moliyaviy inqirozning oldini olish maqsadida, siyosat yurituvchilar o‘zlarining moliyaviy tizimini liberallashtirishdan oldinto‘g‘ri institutsional infratuzilmani tashkil qilishi shart. Moliyaviy inqirozni oldini olish yuqorida tasvirlangan kuchli prudensial tartibga solish va nazorat hamda valyutalarning nomutanosibligini qisqartirishsiyosatini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Ushbu siyosatni amalga oshirish ko‘p vaqt olishi bois, kreditlashga ba’zi cheklovlar joriy qilinishi barobarida moliyaviy liberallashuv bosqichmabosqich tatbiq etilishi lozim. [149]

16-mavzu. Pulning xalqaro munosabatlardagi xarakat

REJA:

16.1.Pulning xalqaro munosabatlardagi harakatini yuzaga keltiruvchi omillar
16.2.Valyuta kategoriyasi tushunchasi
16.3.Valyutalarning turlari
16.4.Valyuta tizimi
16.5.Jahon valyuta tizimi evolyutsiyasi
16.6.Valyuta kursi va unga ta’sir etuvchi omillar
16.7.Valyutaning xarid qobiliyati
16.8. Savdo balansi, to’lov balansi va ularning holati

16.1.Pulning xalqaro munosabatlardagi harakatini yuzaga keltiruvchi omillar

J amiyat xo’jalik faoliyatining baynalmilallashuvi, bir turdagi milliy valyutalarni boshqa turdagi milliy valyutalarga almashinishiga obektiv zarurat tuq’diradi. Bunday zarurat, talab va taklifning tasiri asosida valyutani o’ziga xos bahosi – valyuta kursi shakllanadigan maxsus bozorda tuq’ilib, amalga oshadi. Mazkur bozor o’z ichiga, xorijiy valyutalarni bir-biriga ayirboshlash bilan boq’liq jami munosabatlarni olgan holda, ularning mohiyati, hukmron valyuta tizimini xarakteri bilan belgilanadi. Jahon bozori

[149] Frederic S.Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited pp. 2013. pp. 245-263

tizimida xorijiy valyutalar bozori, tovarlar va kapitallar bozoriga nisbatan obúektiv ravishda ikkilamchi o’rinni egallab, ularga xizmat ko’rsatadi.

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tusdagi xalqaro munosabatlar turli mamlakatlar fuqarolari bo’lmish yuridik hamda jismoniy shaxslarning pul shaklidagi talablari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro hisob-kitoblarning xususiyatli tomoni shundaki, ushbu hisob-kitoblarda baho va to’lov valyutasi sifatida odatda xorijiy valyutalar ishlatiladi, chunki hozircha umum tan olingan hamda barcha davlatlarda qabul qilinishi lozim bo’lgan jahon kredit pullari mavjud emas. Shu bilan birgalikda har qanday mustaqil mamlakatda qonuniy to’lov vositasi sifatida uning milliy valyutasi ishlatiladi. Shu sababli tashqi savdo, xizmatlar, kreditlar, investitsiyalar bo’yicha hisob-kitoblar hamda davlatlararo to’lovlardagi muhim shartlardan biri bo’lib to’lovchi yoki benefetsiar shaxs tomonidan xorijiy valyutani sotib olish yoxud sotish shaklidagi bir valyutani boshqa bir valyutaga ayirboshlanishi hisoblanadi.

Jahon valyuta, kredit, moliya va sug’urta bozorlari shartnomaning ob’yekti pul kapitali hisoblangan bozor munosabatlarining o’ziga hos jarayoni bo’lib hisoblanadi. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi asosida shakllangan. Amal qilish nuqtai nazaridan ushbu bozorlar takror ishlab chiqarishning uzluksizligi va rentabelligini ta'minlash maqsadida jahon miqyosidagi moliyaviy oqimlarning to’planuvi hamda ularning qayta taqsimotini ta'minlovchi bozor munosabatlarining tizimi bo’lib xizmat qiladi. Institutsional nuqtai nazardan esa jahon moliyaviy oqimlari ular orqali amalga oshadigan banklar, ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlari hamda fond birjalari yig’indisidan iboratdir.

Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari rivojlanishining ob’yektiv asosi bo’lib amaldagi kapitalning doiraviy aylanish qonuniyatlari hisoblanadi. Jahon bozorining ayrim uchastkalarida vaqtincha bo’sh bo’lgan kapitallar paydo bo’lsa, uning boshqa bir joylarida mazkur kapitallarga doimiy talab paydo bo’ladi. Kapitalning harakatsizligi uning tabiati va bozor qonuniyatlariga ziddir. Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari ushbu qarama-qarshilikni umumjahon xo’jaligi miqyosida hal etadilar. Vaqtincha bo’sh bo’lgan pul kapitallari bozor mexanizmi yordamida takror ishlab chiqarishning uzluksizligi va tadbirkorlarga foydani ta'minlagan holda kapital doiraviy aylanishi jarayoniga yana jalb etiladi. Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari taalluqli milliy bozorlar negizida paydo bo’lgan va milliy bozorlar ular bilan yaqindan munosabatdadir. Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlariga quyidagilar xosdir:

- nihoyatda katta masshtablar. Ayrim baholarga qaraganda jahonning valyuta va moliyaviy bozorlaridagi kunlik operatsiyalar hajmi tovarlar bilan jahon savdosi hajmidan 50 marotaba ko’pdir;
- geografik chegaralarning yo’qligi;
- operatsiyalarning uzluksiz, sutka davomida olib borilishi;
- yetakchi davlatlarning valyutalari hamda xalqaro hisob-valyuta birliklaridan foydalanishi;
- ishtirokchilari bo’lib asosan nufuzli banklar, korporatsiyalar hamda yuqori reytingga ega moliya-kredit institutlari hisoblanadi;

- ushbu bozorlarga nihoyatda ishonchli yoki salmoqli kafolatga ega mijozlar chiqish huquqiga ega;

- moliyaviy xizmatlar jarayonidagi inqilobiy sharoitlarda bozor segmentlari va shartnoma instrumentlarining diversifikatsiyasi;

- o'ziga hos, xalqaro tusdagi foiz stavkalari;

- EHMning eng yangilaridan foydalanish zaminida qog'ozsiz operatsiyalarni standartlashtirish hamda axborot texnologiyalarining yuqori darajasi.

Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari rivojlanishining ob'yektiv asosi bo'lib xo'jalik munosabatlari globallashuvining chuqurlashishi hamda tegishli milliy bozorlarning cheklangan imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishi hisoblanadi. Jahon valyuta, kredit, qimmatli qog'ozlar hamda oltin bozorlari rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib jahon moliyaviy oqimlari, bozor ishtirokchilariga taklif etilayotgan kreditlar qiymatining hajmi va taqsimotini muvofiqlashtiruvchi raqobat hisoblanadi. Biroq raqobat kurashi hamma vaqt ham samarali va nuqsonsiz emasdir. Shu sababli ushbu jarayonlarni bozor hamda davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi birgalikda olib boriladi. Davlat jahon bozorlari faoliyatiga inqirozli jarayonlarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish maqsadida aralashadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi hom ashyo manbalari va iste'molchilar bozorlari uchun raqobat kurashining kuchayishi bilan samarali investitsiyalar hamda moliyaviy oqimlar milliy xarakterini yo'qotgan va o'zining kosmopolitik tabiatini ko'rsatgan holda bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga stihiyali asosda oqib o'tadi. Milliy valyuta, kredit va moliyaviy bozorlar o'zlarining mustaqilligini nisbatan saqlab qolgan holda faoliyatlarini to'ldiruvchi hamda milliy iqtisodiyot va pul-kredit tizimlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa shu kabi jahon bozorlari bilan chambarchas bog'lanib ketmoqdalar. Jahon valyuta, kredit va moliya bozorlari o'zlarining katta imkoniyatlari hamda ko'p maqsadliligining tez o'sishi natijasida xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlar hamda jahon iqtisodiyotining muhim zvenolaridan biriga aylandi.

Milliy valyuta, kredit va moliya bozorlarining jahon valyuta bozori operatsiyalaridagi ishtiroki quyidagi bir qator omillar bilan belgilanadi:

- mamlakatning jahon xo'jaligi tizimidagi tegishli o'rni hamda valyuta-iqtisodiy holati;

- rivojlangan kredit tizimi va yaxshi tashkil etilgan fond birjasining mavjudligi;

- soliqqa tortishning o'rta me'yorligi;

- xorijlik qarz oluvchilarga milliy bozorga chiqish va xorijiy qimmatli qog'ozlarga birja kotirovkasiga kirish imkonini beruvchi imtiyozli valyuta qonunchiligining mavjudligi;

- qulay geografik joylashishi;

- siyosiy tuzumning nisbatan barqarorligi va boshqa shu kabilar.

Yuqorida zikr etilgan omillar xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi milliy bozorlar doirasini cheklaydi. Raqobat kurashi natijasida N'yu-York, London, Lyuksemburg, Frankfurt-Mayn, Singapur va boshqa shu kabi jahon moliyaviy markazlari shakllandi.

O’zbekiston Respublikasi o’z mustaqiligiga erishganidan so’ng bozor munosabatlari asosida o’z rivojlanish yo’lini tanlar ekan, zamonaviy moliyaviy bozor va uning vositalariga ehtiyoj paydo bo’la boshladi. 2003 yilda joriy valyuta operatsiyalari bo’yicha so’mni xorijiy valyutalarga erkin konvertirlashni joriy etilishi xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning, shu jumladan, tijorat banklarining valyuta operatsiyalarining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tusdagi xalqaro munosabatlar turli mamlakatlar fuqarolari bo’lmish yuridik hamda jismoniy shaxslarning pul shaklidagi talablari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro hisob-kitoblarning xususiyatli tomoni shundaki, ushbu hisob-kitoblarda baho va to’lov valyutasi sifatida odatda xorijiy valyutalar ishlatiladi, chunki hozircha umum tan olingan hamda barcha davlatlarda qabul qilinishi lozim bo’lgan jahon kredit pullari mavjud emas. Shu bilan birgalikda har qanday mustaqil mamlakatda qonuniy to’lov vositasi sifatida uning milliy valyutasi ishlatiladi. Shu sababli tashqi savdo, xizmatlar, kreditlar, investitsiyalar bo’yicha hisob-kitoblar hamda davlatlararo to’lovlardagi muhim shartlardan biri bo’lib to’lovchi yoki benefetsiar shaxs tomonidan xorijiy valyutani sotib olish yoxud sotish shaklidagi bir valyutani boshqa bir valyutaga ayirboshlanishi hisoblanadi.

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tusdagi xalqaro munosabatlar turli mamlakatlar yuridik shaxslari hamda fuqarolarining pul talabnomalari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro hisob-kitoblarning o’ziga hosligi shundaki, baho va to’lov valyutasi sifatida odatda xorijiy valyutalar ishlatiladi, chunki hozirgi kunda barcha davlatlarda qabul qilinishi majburiy bo’lgan umum tan olingan jahon kredit pullari yo’q. Shu bilan birgalikda qonuniy to’lov vositasi sifatida har bir suveren davlatda uning milliy valyutasi ishlatiladi. Shu sababli tashqi savdo, xizmatlar, kreditlar, investitsiyalar, davlatlar aro to’lovlar bo’yicha hisob-kitoblarning zaruriy sharti bo’lib to’lovchi yoki oluvchi tomonidan bir valyutani boshqa bir valyutaga sotib olish yoxud sotish shaklidagi almashinishi hisoblanadi.

Valyuta munosabatlari - bu, valyutani jahon xo’jaligi muomalasida amal qilish jarayonida va xalqaro aloqalar sohasiga xizmat ko’rsatishda o’ziga hos pul munosabatlarining yig’indisidir,[150] yoki davlatlar, jahon valyuta bozorining sub’ektlari, muayyan davlatning rezident yoki norezident shaxslari o’rtasida valyutalarni sotish, sotib olish, majburiyatlarni bajarish hamda boshqa shu kabi jarayonlarda vujudga keladigan munosabatlardir.

Valyuta munosabatlari - bu xalqaro aloqalarga xizmat ko’rsatuvchi va jahon xo’jaligida valyuta muomalasi jarayonida vujudga keladigan o’ziga hos pul munosabatlarining majmuidir. Valyuta munosabatlari jahon valyuta tizimining asosi bo’lib xizmat qiladi. Ularning shakllanish jarayonlarini o’rganish O’zbekiston uchun nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir.

Valyuta munosabatlarining paydo bo’lishi, o’zgartirilishi yoki tugatilishining huquqiy asoslari bo’lib xalqaro kelishuvlar va ichki davlat qonun-qoidalari hisoblanadi.

---

[150] Финансово-кредитный энциклопедический словарь / Колл. авторов; Под общ. ред. А.Г. Грязновой. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 1168 с

O’zbekiston banklarining xalqaro moliya tizimlari va uning e'limentlari bilan aloqalarini tahlil qilar e'kanmiz, ushbu munosabatlar asosan tashqi savdoga xizmat qilish hamda Xalqaro moliya institutlari (XMI) va xorijiy banklardan imtiyozli shartlar asosida moliyavij resurslarni jalb qilishdan iborat e'kanligiga, shuningdek, bu borada moliyavij xavfsizlikni hisobga olgan holda e'htiyotkorona, uzoqni ko’zlagan strategik siyosat olib borilayotganligining guvohi bo’lamiz. Bunga ko’ra, yuqorida ajtganimizdek, tashqi qarzlar uzoq muddatli asosda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizaciya qilish dasturlariga kiritilgan investiciya lojihalarini moliyalash, kichik biznes va xususij tadbirkorlik sub~ektlarini qo’llab-quvvatlashga jo’naltirilmoqda. Bu jarayonlarda banklar lojihalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar va XMIlar o’rtasida moliyalashdagi vositachi sifatida qatnashmoqda.

"Valyuta" kategoriyasi milliy va jahon xo’jaligi o'rtasida aloqa hamda o'zaro munosabatlarni ta'minlaydi. Jahon valyuta tizimi jahon pullarini amaldagi shakllariga asoslangandir. Jahon pullari deb xalqaro munosabatlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy) xizmat ko'rsatuvchi pullarga aytiladi.

Har bir mustaqil davlat o'z milliy pul tizimiga ega bo'lgani singari, o'zining valyuta tizimiga ham ega. Valyuta tizimi tashkiliy jihatdan valyuta munosabatlari, valyuta fondlari hamda ushbu munosabatlarni amalga oshishi, valyuta fondlarining shakllanishi, taqsimoti va qayta taqsimoti bilan bog’liq munosabatlarni amalga oshiruvchi hamda muvofiqlashtiruvchi davlat organlari yig’indisidan iboratdir.

Xar qanday davlat iqtisodida pul muhim ahami tni kasb tadi, jami tning ishlab chiqarish, taqsimot, muomala va iste'mol jarayonlarini qamrab oladi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoit ratib beradi. Pul va iqtisod ơzaro ơzviy boğliq bơlgan lementlardir. Agar jami t iqtisodida muammolar paydo bơlsa, albatta bunday muammolar, ơzining salbiy aksini jami tning pul muomalasida topadi. Shuning uchun pulni jami t iqtisodiy xayotining barometri deb bejiz aytishmagan.

Iqtisodiy nazariyada haqiqiy pul, tovar kvivalent sifatida mavjud bơlib, iste'molchilarning muomalaga bơlgan xtiyojlarini qondiradi. Qoğoz pullar sa, haqiqiy pullar qiymatining muomaladagi ifodasidir yoki vakilidir.

Xar qanday mustaqil davlat ơz puliga ga va bunday pul shu davlat uchun milliy pul birligi hisoblanadi. Milliy pul birligi ơzining nomi va ma'lum bir muomala tarixiga ga.

Nazari da pul va valyuta kategori lari mavjud bơlib, pul va valyuta ikkalasi bir narsa, ammo hamma vaqt ham pul valyuta bơlavermaydi. Agarda, muay n bir davlatning milliy pul birligi jahon bozoriga chiqib davlatlar ơrtasida muomala, tơlov va jamğarish vositasi sifatida ishlatilsa, 'ni pulning funksi larini bajarsa, u valyutaga aylanadi.

Xalqaro valyuta munosabatlari – bu, valyutaning jahon xơjaligida amal kilishi borasida shakllanadigan va milliy xơjaliklar faoliyati natijalarining ơzaro almashuviga xizmat kơrsatadigan ijtimoiy munosabatlar yiğindisidir . YOki davlatlar, jahon valyuta bozorining sub'ektlari, muay n davlatning rezident yoki norezident shaxslari orasida valyutalarni sotish, sotib olish, majburiyatlarni bajarish va boshqa shu kabi jarayonlarda vujudga keladigan munosabatlardir.

Valyuta munosabatlarining paydo bo'lishi, o'zgartirilishi yoki tugatilishining huquqiy asoslari bo'lib, xalqaro kelishuvlar va davlatning ichki qonun va qoidalari hisoblanadi.

Valyuta munosabatlari nisbatan mustaqil munosabatlar bo'lgani holda, to'lov balansi, valyuta kursi, hisob-kitob operasi lari orqali dunyo iqtisodiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta munosabatlarining holatiga quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

-milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga;

-siyosiy ahvolga;

-jahon bozorida davlatlararo munosabatlar borasidagi muammolarga va bunda muammolarning rivojlanish tendensi lariga

16.2.Valyuta kategoriyasi tushunchasi

V alyuta - jahon bozorida, davlatlar o'rtasida pul vazifalarini bajaruvchi, davlatlarning milliy pul birligidir. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari "dollari", Yevropada "yevro", Braziliyada real, Buyuk Britaniyada "funt sterlingi", Kanada "dollari" va shu kabilar.[151]

"Valyuta" kategoriyasi milliy va jahon xo'jaligi orasida aloqa va o'zaro munosabatlarni ta'minlaydi. Jahon valyuta tizimi jahon pullarini amaldagi (funksional) shakllariga asoslangandir. Jahon pullari deb xalqaro munosabatlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy) xizmat ko'rsatuvchi pullarga aytiladi.

Valyuta - bu xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan u yoki bu mamlakat milliy pul birligida ifodalangan to'lov hujjatlari yoki pul majburiyatlaridir. Valyuta pul belgilarini o'zida gavdalantirib naqd pullik va naqd pulsiz oborotni tashqil qilishga xizmat qiladi.

Bank amaliyotida hisob-kitoblarni olib borish uchun valyutalar shartli belgilar orqali ifodalanadi, ya'ni ularga shartli kodlar beriladi. Valyutalarga kodlar ISO (Standartlash xalqaro tashqiloti) tomonidan beriladi va e'lon qilinadi. Bu valyutani kodlash tizimi yozma ravishda rasmiylashtirilgan barcha valyuta operatsiyalari va bitimlarida qqllaniladi. ISO tizimi kodlari juda oson, masalan, $A_1A_2A_3$

Bu erda - A_1A_2-lotin harflari mamlakat nomini ifodalaydi

A_3-lotin harfi shu mamlakatning milliy valyutasini bildiradi.

Misol tariqasida quyidagi javalda ba'zi mamlakatlar valyutasining ISO kodini keltiramiz.

16.1-jadval

Ba'zi mamlakatlar valyutasining ISO kodlari

Mamlakatlar	**Milliy pul birliklari**	**ISO kodi**
Braziliya	Real	***BRR***
SHveytsariya	Frank	CHF
Buyuk Britaniya	Funt sterling	GBP

[151] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets.P.-476

YAponiya	Iena	JPY
AQSH	Dollar	USD
Sobiq Ittifoq mamlakatlarining valyutalari		
Ozarbayjon	Manat	***AZM***
Armaniston	Dram	AMD
Belarussiya	Rubl	BYR
Gruziya	Lari	GEE
Qozog'iston	Tenge	KZT
Qirg'iziston	Som	KOZ
Latviya	Lat	LVL
Litva	Lit	LTL
Moldaviya	Ley	MDL
Rossiya	Rubl	RUR
Turkmaniston	Manat	***TMM***
O'zbekiston	So'm	UZS
Ukraina	Grivna	UAG
Estoniya	Krona	EAK

Valyuta odatda ikki turga bo'linadi: milliy va chet el valyutalariga. CHet el valyutasida ifodalangan turli xil tqlov vositalari yana deviz deb ham ataladi.

CHet el valyutasi quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- valyuta bozorida sotish va sotib olishning ob'ekti hisoblanadi;
- xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladi;
- banklarda valyuta hisobvaraqlarida saqlanadi;
- tegishli bo'lmagan mamlakatlar xududida tqlov vositasi sifatida ishlatilmaydi (kuchli inflyatsiya davri bundan mustasno)

Jahon amaliyotida qabơl qilingan koidalarga asosan xar qanday davlatning milliy valyutasi 3 xarf bilan belgilanadi. Bunda, harflarning boshidagi 2 tasi davlatni, oxirgisi sa valyutaning nomini kơrsatadi. Masalan, US – Qơshma Shtatlar: D – dollar: USD – Qơshma Shtatlar dollari yoki GBP – Buyuk Britaniya funt sterlingi, GB-Buyuk Britaniya , P-(point) funt sterling.

Bundan, muayan bir davlatning milliy puli – uning milliy valyutasi bơlishi mumkin. Shu davlat uchun boshqa davlatlarning milliy pul birliklari sa – xorijiy valyutalar bơladi. Masalan, AQSh dollari, Buyuk Britani "funt sterlingi", Kanada "dollari", «evro», va shu kabi rkin muomalada radigan valyutalar Ơzbekiston Respublikasida xorijiy valyutalar hisoblanadi. Ơz navbatida Ơzbekiston "sơm"i bu davlatlar uchun xorijiy valyuta hisoblanadi.

Ba'zi bir davlatlarning milliy pul birliklarining, mazkur davlatlarda valyuta munosabatlari borasida mavjud va xarakatda bơlgan qonun-qoidalariga asosan horijga chiqishi va u erda muomalada bơlishi chegaralanadi. Shunga kơra, muomaladagi valyutalar turli maqomlarga, 'ni rkin muomalada radigan, muomalasi qisman yoki butunlay cheklangan, yopiq yoki kzotik valyutalarga bơlinadi.

Bundan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda jahon amaliyotida rkin muomalada radigan valyutalar soni 60 turdan ziyod. Bundan tashqari, MDX

davlatlarining valyutalari va shu jumladan, Ozbekiston Respublikasining “sơm”i mshoq valyutalar toifasiga kiradi. kzotik valyutalar toifasiga Quvayt “dinor”i, Gresiya “draxma”si va shu kabilar kiradi.

16.3.Valyutalarning turlari

axira valyuta - mamlakatlar markaziy banklari tomonidan valyuta zaxiralarining tarkibini tashkil etuvchi valyuta. Zaxira valyutalari asosan paritetlarini xisoblash va valyuta interventsiyalarini amalga oshirishdada Zshuningdek, xalqaro savdo va to'lovlarda keng ishlatiladigan valyuta. Ilgari zaxira valyutalari asosan tovar bozorlarida to;lovlar uchun vosita (neft, oltin va boshqalar) sifatida ishlatilgan. Biroq, so'nggi yillarda, ayniqsa, Osiyoda, zaxira valyutalari eksport raqobatbardoshligini mustahkamlash maqsadida xorijiy zaxiralari (oltin zahiralari) yig’ish va moliyaviy inqirozlarni oldini olish maqsadida ishlatiladi.

Qattiq valyuta – xalqaro xalqaro savdo va hisob-kitoblarda keng qo’llanadigan, uzoq vaqt davomida valyuta kursini barqaror darajasini ta’minlab keluvchi davlatlar valyutasi.

Qattiq valyuta omillari: uzoq vaqt mobaynida xarid qobiliyatini saqlab kelish, barqaror fiscal va pul-kredit siyosatini yurituvchi, mustaqil markaziy bankkaega davlat valyutasi.

Yumshoq valyuta – odatda konvertatsiyalanishi bo’yicha cheklovlari mavjud yoki umuman konvertatsiyalanmaydigan valyutalar.

To'lov balansi zaif bo’lgan mamlakatlar pul belgilar, Odatda, davlat tashqarisida bunday pul belgilari deyarli ishlatilmaydi.

Yumshoq valyuta - kuchli siyosiy yoki iqtisodiy o’zgarishlarga nisbatan ta’sirchan mamlakatning ichki to'lov vositasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy dolzarb masalalaridan biri - bu milliy valyutaning erkin konvertirlanishini ta’minlashdir. Milliy valyutaning erkin konvertirlanishi-jahon xo’jaligi bilan boG’lanishni, milliy xo’jalikning jahon xqjaligiga chuqurroq integratsiyalashuvini ta’minlaydi. Va shu orqali mamlakat uchun ko’p tomonlama jahon savdo va hisob-kitob tizimida manfaat keltiradi. Milliy valyutaning erkin konvertirlanishiga erishishning yo’llaridan biri bosqichma-bosqich, asta-sekin o’tish. Bu yo’l valyutaviy cheklashlarni asta - sekinlik bilan olib tashlashdan iboratdir. Buning uchun valyutaviy cheklashlarni puxta o’rganib chiqmoq lozim.

Bugungi kunda dunyoda bir nechta mamlakatlardagina valyutalar erkin konvertirlanadi: Antigua va Barbuda, Avstraliya, Avstriya, Belgiya, Bruney, Buyukbritaniya, Kanada, Daniya, Lyuksemburg, Finlyandiya, Frantsiya, Gambiya, Germaniya, Gonkong, Islandiya, Indoneziya, Iran, Italiya, Kiribati, Kuveyt, Marshall orollari, Mikroneziya, Niderland, YAngi Zellandiya, Norvegiya, Oman, Portugaliya, Katar, Saudiya Arabiston, Singapur, Ispaniya, SHvetsiya, SHveytsariya, Trinidad va Tobago BAA, AO’SH, Latviya, Estoniya mamlakatlari valyutalari XVF klassifikatsiyasi bo’yicha erkin ishlatiladigan valyutalar xisoblanadi.

SDR xalqaro rezerv aktivi bo'lib, XVF tomonidan 1969 yilda a'zo mamlakatlar rasmiy valyuta rezervlarini shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan. Uning qiymati xalqaro 4 valyutadan tashkil topgan savat orqali aniqlanadi va erkin suzuvchi valyutalarga almashtirilishi mumkin. 2009 yilning 28 avgustida SDR umumiy ajratmalari va 9 sentabrda mahsus ajratmalar joriy qilinishi natijasida SDR zahiralarining qiymati 21,4 mlrd SDR dan 204 mlrd SDR (2012 yil 20 avgust sanasidagi valyuta kurslariga ko'ra 310 mlrd USD) ga yetdi.

SDR ning global iqtisodiyotdagi roli

XVF tomonidan 1969 yilgi Bretton Vuds o'zgarmas almashuv kursi tizimini mukammallashtirish maqsadida SDR muomalaga kiritildi. Bu tizim a'zosi sanalgan har bir mamlakat o'zining davlat yoki markaziy bank oltin jamg'armasi va belgilab berilgan xorijiy valyutalarga ega bo'lishi lozim edi. Zahiradagi valyutalar xalqaro bozorlardan o'z valyutasini sotib olish va buning natijasida o'z valyutasining qiymatini saqlab qolish maqsadida jamg'arilardi. Lekin Bretton Vuds tizimining o'sha paytda SDR ga muqobil rezerv aktivlari hisoblangan dollar hamda oltin tobora kengayib borayotgan jahon savdosi va moliyaviy taraqqiyotini ta'minlab bera olmasligi aniq bo'lib qoldi. Shuning uchun xalqaro hamjamiyat XVF ko'magida yangi rezerv aktivini yaratishga qaror qildi.

Biroq ko'p yil o'tmay Bretton Vuds tizimi barham topdi va natijada asosiy valyutalar suzuvchi almashinuvchi kurs rejimiga o'tdi. Shuni ta'kidlash joizki, xalqaro kapital bozorlaridagi o'sish kredit berishga layoqatli mamlakatlar sonining ham o'sishiga olib keldi. Bu omil SDR ga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keldi.

XVF da SDR valyuta ham, talab ham emas. SDR – egalik qiluvchi mamlakatning erkin valyutalarga bo'lgan talabidir, deyishimiz ham mumkin. SDR egalari o'z SDR larini bunday valyutalarga ikki usul yordamida ayirboshlashlari mumkin. Birinchi usulga ko'ra a'zolar tashabbusi bilan ular o'rtasida shartnoma tuziladi. Ikkinchi usulda , XVF kuchsiz tashqi pozitsiyaga ega bo'lgan mamlakatlarga o'z SDR larini kuchli tashqi pozitsiyaga ega bo'lgan mamlakatlar zahiradagi valyutalariga almashtirishda vositachilik qiladi. Bu xususiyatiga ko'ra SDR XVF va boshqaro xalqaro moliya tashkilotlarining hisob birligi vazifasini ham o'taydi.

Dastlab, SDR qiymati 0,888671 gr sof oltin qiymatiga teng bo'lgan. Bu paytda AQSh dollarining qiymati ham aynan shuncha edi. 1973 yilda Bretton Vuds tizimi qulagach, SDR qiymati hozirgi 4 valyutani o'z ichiga oluvchi savat orqali aniqlanadigan bo'ldi. SDR ning dollardagi qiymati XVF ning rasmiy veb saytida har kuni e'lon qilib boriladi. SDR qiymati savat valyutalarining turli miqdorlari yig'indisini hisoblash orqali aniqlanadi. Savat valyutalarining qiymatini belgilashda esa har kuni tush vaqtida London birjasida o'rnatilgan valyuta kurslariga asoslaniladi.

Valyuta savati tuzilishi har 5 yilda XVF ijrochi kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi. Fond valyutalarning o'zgarishi jahon savdosi va moliyaviy tizimlarga ta'sir ko'rsatadigan holatlarda valyuta savatini muddatidan ilgariroq ko'rib chiqishi mumkin. SDR savati oxirgi marta 2010 yilning noyabr oyida ko'rib chiqilgan va 2011 yildan joriy etilgan. Valyutalarning savatdagi ulushi global tovar-xizmatlar eksport-importida va XVF ga a'zo mamlakatlar valyuta zahiralaridagi ulushiga

qarab belgilanadi. 2011 yilning oktabrida XVF ijrochi kengashi tomonidan SDR savatini boshqa valyutalar bilan kengaytirish masalasi muhokama qilindi. Lekin direktorlarning asosiy qismi tomonidan SDR savatining hozirgi belgilanish mezonlari munosib deb topildi.

SDR savati (09.01.2006 gacha)

Valyuta	Valyutaning SDR qiymatidagi miqdori	Almashuv kursi (SDR ga nisbatan)	Pul bozoridagi foiz stavkasi	Valyutaning SDR qiymatidagi ulushi (%)
Yevro	0.4260	0.847503	2.1494	29
Yen	21	0.00630618	0.0020	15
Funt sterling	0.0984	1.20193	3.849086	11
Dollar	0.5770	0.673049	0.93	45

SDR savati (09.01.2011 gacha)

Valyuta	Valyutaning SDR qiymatidagi miqdori	Almashuv kursi (SDR ga nisbatan)	Pul bozoridagi foiz stavkasi	Valyutaning SDR qiymatidagi ulushi (%)
Yevro	0.41	0.837035	13181	34
Yen	18.40	0.0059618	0.0020	11
Funt sterling	0.0903	1.21523	14336	11
Dollar	0.6320	0.692165	44652	44

SDR savati (10.01.2011 dan)

Valyuta	Valyutaning SDR qiymatidagi miqdori	Almashuv kursi (SDR ga nisbatan)	Pul bozoridagi foiz stavkasi	Valyutaning SDR qiymatidagi ulushi (%)
Yevro	0.4230	0.862873	0.6540	37.4
Yen	12.1	0.00781142	0.11	9.4
Funt sterling	0.1110	1.02441	0.50	11.3

Dollar	0.66	0.646395	0.15	41.9

2016 yil oktyabrdan boshlab *SDR savati*

muddat	USD	EUR	CNY	JPY	GBP
2016–2020	(41.73%)	(30.93%)	(10.92%)	(8.33%)	(8.09%)

SDRning valyuta savati 5 valyutadan tarkib topgan (1981 yilning 1-yanvarigacha 16ta valyuta bo'lgan). Savatdagi har bir valyutaning solishtirma og’irligi mamlakatning xalqaro savdodagi ulushiga qarab aniqlanadi. Ammo AQSh dollari uchun uning Xalqaro hisob-kitoblardagi ulushi hisobga olinadi. 1996-2000 yillar davrida AQSh dollarining savatdagi ulushi 39%ni (1981 yilgacha 33%ni) tashkil etgan, qolgan 4 valyuta esa, Germaniya markasi - 21%, Yaponiya yenasi - 18%, Fransiya franki va Buyuk Britaniya funt sterlingi har biri 11%dan. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) 2015-yil 30-noyabr kuni rasmiy Pekinning talabnomasini qondirib, 10 oydan so‘ng yuanni o‘zining valyuta savatchasiga qo‘shishi haqida qaror qabul qilgan edi.Yuan salkam 11 foiz ulush bilan savatchada darhol uchinchi o‘rinni egalladi.

Dollar 40 foiz darajasida qoldi, yevroning ulushi esa 37 dan 31 foizgacha kamaydi.Xitoy Xalq Respublikasining tashqi savdo bo’yicha yetakchiligini xisobga olgan holda 2016 yil oktyabrdan xitoy yuani SDR savatiga kiritildi.

SDR kursini AQSh dollariga yoki savat tarkibiga kirgan boshqa bir valyutaga nisbatan hisoblanishi 3 asosiy elementni o'z ichiga oladi:

1) taalluqli valyuta birliklaridagi valyuta komponentlari. Ular quyidagicha aniqlanadi: (valyutaning savatdagi solishtirma og’irligi) h (uning AQSh dollariga nisbatan so'nggi 3 oy ichidagi o'rtacha bozor kursi) bundan oldingi SDR kursiga muvofiqlashtirilgan holda;

2) valyutalarning AQSh dollariga nisbatan bozor kurslari;

3) valyuta komponentlarining dollarli ekvivalenti. U quyidagicha hisoblanadi: (valyuta komponenti)/(valyuta kursi) funt sterlingdan tashqari, (funtning valyuta komponenti)*(dollarga nisbatan valyuta kursiga), (jadval 2).

Yangi valyuta tizimida eski valyuta tizimining ayrim jihatlari meros sifatida saqlanib qolinganligi yuqoridagi tamoyillardan ko'rinib turibdi. Ushbu qonuniyat Yamayka va Bretton-Vuds valyuta tizimlarining o'zaro solishtirilishida yaqqol o'z aksini topadi. SDR standarti ortida "dollar standarti" yashiringan. Valyuta munosabatlarini erkinlashtirish jarayonlari kuchaygani bilan AQSh dollari hamon xalqaro to'lov va zahira vositasi sifatida qolmoqda, oltin yuridik jihatdan to'la demonetizatsiya qilindi. Ammo demonetizatsiya qilingan bo'lsada, u o'zgargan shaklda hamon o'zida valyuta tovari rolini saqlab qolmoqda. Davlatlararo valyuta muvofiqlashtirilishini amalga oshiruvchi XVF Bretton-Vuds valyuta tizimidan meros sifatida qoldi. Ta'sischilarning o'ylashicha, Yamayka valyuta tizimi o'zidan avvalgi valyuta tizimiga nisbatan to'lov balanslari va valyuta kurslarining muvozanatsizlik sharoitiga moslashuvchanroq bo'lmoqi lozim edi. Biroq Yamayka valyuta tizimi muntazam tarzda inqiroziy holatlarga duch klmoqda. Shu sababli

asosiy valyuta muammolarini hal etish maqsadida ushbu tizimni takomillashtirish yo'llari qidirilmoqda.

SDRning 1970 yildan boshlab to hozirgi kungacha bo'lgan muomalasiga nazar tashlansa, ushbu valyuta (pul) birligi jahon puli bo'lishidan hali yiroqligi bevosita ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari mazkur davr mobaynida quyidagi bir qator muammolar paydo bo'ldi: 1)emissiya va taqsimot; 2)ta'minot; 3)kursni aniqlash uslubi; 4)SDRdan foydalanish jarayonlari.

SDRning muhim muammosi bo'lib uning ta'minoti hisoblanadi. Chunki SDR oltindan farqli ularoq o'z qiymatiga ega emas. Dastlab, boshida (1970 yildan) bir birlik SDR 0,888671 gramm oltinga teng edi. Bu esa o'sha davrdagi AQSh dollarining oltin sig'imiga teng bo'lgan. Shunga ko'ra dastlab SDRlarni "qog'oz oltin"lar deb atashgan. Shu sababli SDR shartli qiymatining o'zgarishi oltin qiymatining o'zgarishiga bog'liq bo'lgan. 1974 yilning 1 iyulidan boshlab valyutalarning erkin suzadigan kurslariga o'tilishi munosabati bilan SDRning oltin sig'imi bekor qilindi. Chunki oltin haqiqiy bo'lmagan, past, rasmiy bahoda baholanganligi sababli SDRni oltinga bog'lab qo'yilishi ulardan banklararo hisob-kitoblarda foydalanishni qiyinlashtirar edi. 1974 yilning 1 iyulidan boshlab SDR kursi valyuta savati asosida, dastlab ulushi jahon savdosida 1 foizdan kam qissani tashkil etgan mamlakatlarning 16 valyutasini o'rtacha tortilgan kursi asosida aniqlanadigan bo'ldi. 1978 yilning 1 iyulidan boshlab valyuta savatining tarkibi neft qazib chiqaruvchi davlatlar (OPEK) valyutalarining kuchayishini hisobga olgan holda muvofiqlashtirildi. 1981 yilning yanvaridan boshlab ushbu valyuta savatining tarkibi SDR shartli qiymati hisob-kitob formulasini soddalashtirish maqsadida 5 valyutagacha qisqartirildi. Ularning tarkibida AQSh dollari, Germaniya markasi, Yaponiya ienasi, Fransiya franki, Buyuk Britaniya funt sterlingi mavjud. 1999 yildan boshlab Germaniya markasi va Fransiya franki Yevro bilan almashtirildi. Ushbu valyutalar XVFga a'zo mamlakatlarning tovar hamda xizmatlar eksportida eng katta hajm va rasmiy zahiralarida sezilarli ulushga ega mamlakatlar valyutalaridir. SDR savatidagi valyutalar tarkibi va ularning ulushi qar 5 yilda o'zgarib turadi. XVF kunlik asosda SDR kursini AQSh dollarida uning kursi o'zgarishini hisobga olgan holda hisoblaydi.

Valyuta savati SDRga milliy valyutalardan farqli o'laroq barqarorlikka erishish imkonini berdi. Ammo shu bilan birgalikda uning oldiga qo'yilgan maqsadga erishish imkoni bo'lmadi, ya'ni SDR qiymat etaloni asosiy Xalqaro zahira va to'lov vositasi bo'la olmadi. SDRlardan foydalanish amaliyoti ularning XVFning 1978 yilda o'zgartirilgan Ustavida qayd etilgan maqsadga mos emas.

1998 yilning may oyida SDRga 4 valyuta biriktirilgan, holbuki 1980 yilda ularning soni 15ta edi. SDR asosan XVFning operatsiyalarida milliy valyutalar qayta hisob-kitob koeffitsienti, valyutalarni solishtirish masshtabi sifatida ishlatiladi. Kvotalar, kreditlar, daromadlar va xarajatlar ushbu valyuta hisob-kitob birligida ifodalangan.

Xalqaro to'lov vositasi sifatida SDR davlatlararo operatsiyalarning cheklangan doirasida ishlatiladi. SDRning asosiy maqsadiga erishilmadi: ular to'lov balansi kamomadini qoplash maqsadida erkin ayirboshlanadigan valyuta sotib olishga ko'proq yo'naltirilmay (umumiy muomala hajmining 26% yaqini), balki mamlakatlarning XVF kreditlari bo'yicha qarzdorliklarini qoplashga

yo'naltirildi. SDRlarning yirik hajmdagi summalari fondga (olingan xorijiy valyutaga haq to'lash va milliy valyutani qaytib sotib olish orqali) qaytmoqda va fond hisobvaraqlarida asosan rivojlangan davlatlar foydasiga aktiv to'lov balansi bilan tez sur'atlarda yig'ilib bormoqda. SDRlardagi jamg'arma rasman manfaatlidir, chunki ular milliy valyutalarga nisbatan barqarorroq va xalqaro kafolatlarga egadir. Bundan tashqari XVF mamlakatlarga ajratilgan me'yorlardan ortiq hajmdagi jamg'armalarni SDRlarda saqlanganligi (foydalanganligi) uchun foiz stavkalar to'laydi. SDRlarda jamg'armalar saqlashning jozibadorligini oshirish maqsadida hisobvaraqlar bo'yicha foiz stavkalari 1970 yildagi 1%dan 1974 yildan boshlab besh mamlakatning o'rtacha tortilgan bozor stavkalarigacha ko'tarilgan edi.

AQSh dollarini uzoq vaqt davomida SDR valyuta savatida ulushining yuqori saqlanishining sabalari:

Birinchidan, dollarning zahira valyutasi sifatidagi imtiyozli holatidan foydalangan holda AQSh o'z to'lov balansi kamomadini milliy valyuta bilan, ya'ni o'z tashqi qisqa muddatli qarzdorliklar hajmini o'stirgan holda qoplaydi.

Ikkinchidan, AQSh jahondagi eng yirik oltin zahirasiga (33,5 ming tonnadan 8,138 ming tonna) ega bo'lsada, u Yevrodollarlar yordamida muddatsiz kredit uchun haq to'lamaydigan qarzdorga aylandi. Jahon muomalasiga dollarni Yevrovalyuta shaklida singdirilishi dollarning xalqaro mavqeini ko'tarish uchun ishlatildi.

Uchinchidan, AQSh dollar kursi va foiz stavkalaridan o'z iqtisodiyotini G'arbiy Yevropa va Yaponiya hisobiga qo'llab-quvvatlash maqsadida foydalangan.

16.4.Valyuta tizimi

V alyuta tizimi - bu, mamlakatlar o'rtasida valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir.

Valyuta tizimi - bu, milliy qonunchilik yoki davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishning shaklidir.[152]

Valyuta tizimi - bu, davlatlararo shartnomalar va kelishuvlar bilan belgilanadigan, xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil etishning davlat-huquqiy shaklidir.[153]

Valyuta tizimi - bu, xo'jalik aloqalarini baynalmilallashuvi asosida tarixan shakllangan, valyuta amali bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Valyuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va roli jamiyatning iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

Valyuta tizimi davlat, rezident va norezident shaxslarga tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Sub'ektlarning ushbu faoliyati amalga oshishida valyuta qonunchiligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Valyuta qonunchiligi - bu, mamlakat ichkarisida valyuta qimmatliklari bilan bir mamlakat tashkilotlari va fuqarolari hamda boshqa mamlakat tashkilotlari va

---

[152] Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник / под ред. Красавиной Л.Н. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 576 с.

[153] Финансово-кредитный энциклопедический словарь / Колл. авторов; Под общ. ред. А.Г. Грязновой. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 1168 с

fuqarolari o'rtasidagi shartnomalarni hamda mamlakat ichkarisidan xorijga va xorijdan mamlakat ichkarisiga milliy hamda xorijiy valyutalar va boshqa valyuta qimmatliklarini olib kirish, olib chiqish, o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishini tartibga soluvchi qonuniy me'yorlar yig’indisidir.

Maxsus adabiyotlarda valyuta tizimlarining 3 ko'rinishi farqlanadi, ya'ni milliy, jahon va hududiy valyuta tizimlari.

Milliy valyuta tizimi mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi bo'lib, valyuta munosabatlarining yig’indisi sifatida maydonga chiqmaydi, balki ushbu munosabatlarni faqat qonunchilik aktlari bilan tashkil etilish tartibini belgilaydi. Valyuta munosabatlarini tashkil etishning bunday tartibi birinchi navbatda valyuta tizimi elementlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

Milliy valyuta tizimining qonunchilik asosida belgilanadigan elementlariga quyidagilar kiradi:

1. Milliy valyuta va uning nomi;
2. Milliy valyuta paritetini belgilash;
3. Milliy valyutaning konvertatsiya shartlari;
4. Milliy valyuta kursining rejimi;
5. Xalqaro kredit muomala qurollaridan foydalanishni tartibga solish (reglamentatsiya);
6. Xalqaro zahira aktivlari tarkibiy qismlari (komponentlari) o'rtasidagi nisbatni aniqlash;
7. Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblarini tartibga solish (reglamentatsiya);
8. Milliy valyuta va oltin bozorlari faoliyatining rejimi;
9. Valyuta cheklanishlarining o'rnatilish tartibi;
10. Valyuta munosabatlariga xizmat ko'rsatuvchi va ularni muvofiqlashtiruvchi milliy organlar maqomi.

Yuqorida zikr etilgan elementlar yig’indisi xalqaro valyuta-kredit va hisob-kitob munosabatlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan belgilanadigan valyuta mexanizmidir.

Milliy valyuta va uning nomi milliy valyuta tizimining asosi bo'lib hisoblanadi, u qonun asosida davlatning pul birligi sifatida belgilanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishlatiladigan milliy pullar valyutaga aylanadi. Xalqaro hisob-kitoblarda odatda xorijiy valyuta, ya'ni boshqa mamlakatlarning erkin muomalada yuradigan valyuta maqomiga ega pul birliklari ishlatiladi. Ushbu pul birliklari bilan deviz tushunchasi bog’liq.

Deviz - bu, xorijiy valyutadagi har qanday to'lov vositasidir. Xorijiy valyuta valyuta bozorida oldi-sotdi ob’yekti bo'ladi, xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladi, banklarda hisob-varaqlarda saqlanadi, ammo ushbu davlat hududida qonuniy hisob-kitob vositasi bo'lib hisoblanmaydi (kuchli inflyatsiya davrlarini hisobga olmagan holda). Mamlakatda kuchli inflyatsiya va inqiroz holatida milliy valyutani nisbatan barqaror bo'lgan xorijiy valyuta siqib chiqaradi, zamonaviy sharoitda bu AQSh dollari va Yevrodir.

"Valyuta" kategoriyasi, milliy va yahon xo’jaliklarining o'zaro aloqasi hamda munosabatlarini ta'minlaydi.

Milliy valyuta paritetini belgilash. Valyuta pariteti - bu, ikki valyuta o'rtasidagi, qonuniy asosda belgilangan nisbat. Monometalizm davrida (oltin yoki kumush) valyuta kursining asosi bo'lib tanga pariteti hisoblangan. Tanga pariteti - bu, turli mamlakatlar pul birliklarini o'zidagi metall sig'imiga ko'ra o'zaro solishtirishdir. Tanga pariteti tushunchasi valyuta pariteti tushunchasi bilan mos keladi.

Oltin monometalizmi davrida valyuta kursi oltin paritetiga asoslangan edi. Bunda valyutalar zaminidagi rasmiy oltin miqdorlari bo'yicha o'zaro solishtirilar edi. Bu sharoitda valyuta kursi ushbu oltin pariteti atrofida, oltin nuqtalar chegarasida, tartibsiz asosda tebranar edi. Oltin nuqtalarning klassik mexanizmi 2 shart mavjudligi holatida amal qilar edi, ya'ni oltinning erkin asosdagi oldi-sotdisi va uning chetga cheklanmagan miqdorda erkin olib chiqilishi. Valyuta kursining tebranish chegaralari oltinni xorijga olib chiqish xarajatlari bilan belgilangan va amalda paritetdan +;- 1%-dan oshiq bo'lmagan. Oltinni xorijga olib chiqish xarajatlariga fraxt, sug'urta, kapitalga foiz yo'qotishlari, probani aniqlash va boshqa shu kabi xarajatlar kirgan. Oltin standartini bekor qilinishi bilan oltin nuqtalar mexanizmi o'z harakatini to'xtatdi.

Jahon xoʊjaligi jahon valyuta tizimi oldida quyidagilardan iborat boʊlgan muayan talablarni ku di:

- xalqaro ayirboshni ishonch kozongan va mikdor jihatdan etarli boʊlgan toʊlov, hisob-kitob vositalari bilan ta'minlash;
- jahon iqtisodi sharoitlarining oʊzgarishida valyuta mexanizmining nisbiy barqarorligi va tez moslashuvchanligini qoʊllab-kuvvatlab turish;
- barcha a'zo-mamlakatlar manfaatiga xizmat kilish.

Ushbu talablarning bajarilishiga takror ishlab chiqarishning karama-karshiliklari, jahon xoʊjaligining tarkibiy tuzilishi va jahon maydonidagi kuchlar nisbatidagi oʊzgarishlar tuskinlik kiladi.

Valyuta gegemonligi markazlari, 'ni valyuta jarayonidagi xukmronlik markazlari, davriy ravishda mamlakatlar rivojlanishining notekisligi sababli, oʊzgarib turadi. Birinchi jahon urushigacha valyuta gegemonligi, jahon ishlab chiqarishi va savdosida, bank va suğurta ishida, valyuta munosabatlarida xukmron boʊlgan Buyuk Britani ga tegishli di. Birinchi jahon urushi natijasida moli viy markazning Yevropadan AQShga kuchishi funt sterling va dollar oʊrtasidagi valyuta gegemonligi uchun koʊrashni kuchaytirib bordi. Ikkinchi jahon urushidan soʊng AQSh dollari gona gegemon valyuta boʊlib koldi. 1970-1990 yillarda 3 ta kuch markazlarining shaklanishi, valyuta hukmronligi ngi markazlarining paydo boʊlishiga olib keldi. Boʊlar Garbiy Yevropa va Yaponiya markazlaridir. Bu, oʊz navbatida, AQSh dollarining monopol holatiga putur etkazdi.

Jahon valyuta tizimining amal kilish xususi ti va muvozanatliligi tamoyillarining jahon xoʊjaligi tarkibiy tuzilishi, kuchlarning joylashishi va etakchi mamalakatlar manfaatlariga mosligi darajasiga boğliqdir. Ushbu sharoitlarning oʊzgarishi natijasida jahon valyuta tizimining davriy inkirozi vujudga keladi. Bu inkiroz, zikr tilgan valyuta tizimining emirilishi va ngi valyuta tizimining barpo tilishi bilan kunlanadi.

Mintaqaviy valyuta tizimi – bu, xududiy birlashma a'zolari bo'lmish mamlakatlarning davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil tish shaklidir.

Jahon va xududiy valyuta tizimlari o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, qiluvchan bo'lishi hamda alohida davlatlar va jahon manfaatlarida muvozanatni saqlash xususi tiga ga bo'lmogi lozim. Fakatgina shunday sharoitlarda valyuta tizimi o'zok muddat davomida muvaffaki tli amal kilishi mumkin.

Davlatlararo kelishuvlar bilan o'rnatiladigan valyuta munosabatlarini tashkil tishning davlat huquqiy shakli sifatidagi valyuta tizimi bir vaqtning o'zida paydo bo'lgani yo'q. Uning pul tizimidan ajralib chiqishi va mustaqil kategori ga aylanishi, qiymat pul shaklining o'zok rivojlanishi va pulning urinbosar ko'rinishlarining paydo bo'lishi jarayonida sodir bo'lgan.

Pul tizimi qiymatning pul shakli paydo bo'lishi, pul vazifasini noyob metallarga va so'ng oltinga utishi bilan vujudga keladi. Bunda, pul tizimini tashkil tish asoslari barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan. Bu, birinchi navbatda, pul metallidan tangalarning rkin zarb tilishi, tuskinliksiz qiymat belgilarining oltinga almashtirilishi va oltinning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga rkin xarakatini ta'minlaydi.

Jahon valyuta tizimi - bu, jahon bozori (xo'jaligi) ning rivojlanishi asosida shakllangan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir. Jahon valyuta tizimining tashkiliy asosi bo'lib, milliy valyuta tizimi hamda ushbu tizimga kirayotgan har bir mamlakat valyuta mexanizmini tashkil etilishining davlat-huquqiy shakli hisoblanadi.

Jahon valyuta tizimi XIX asrning o'rtalariga kelib shakllandi. Jahon valyuta tizimi milliy valyuta tizimi elementlari bilan yaqindan aloqada bo'lgan ma'lum bir elementlarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar:

1. Zahira valyutalari, xalqaro hisob-kitob valyuta (pul) birligi (SDR);
2. Valyutalarning o'zaro konvertatsiya qilinish shartlari;
3. Valyuta paritetlarining soddalashtirilgan (unifikatsiya) rejimi;
4. Valyuta kurslari rejimlarini tartibga solish (reglamentatsiya);
5. Valyuta cheklanishlarini davlatlararo muvofiqlashtirish;
6. Xalqaro valyuta likvidligini davlatlararo muvofiqlashtirish;
7. Xalqaro kredit muomala qurollaridan foydalanish qoidalarini soddalashtirish (unifikatsiya);
8. Xalqaro hisob-kitoblar asosiy shakllarini soddalashtirish (unifikatsiya);
9. Jahon valyuta va oltin bozorlari rejimi;
10. Davlatlararo valyuta muvofiqlashtirilishini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar.

Zahira valyutalari, xalqaro hisob-kitob valyuta (pul) birligi (SDR). Jahon valyuta tizimi jahon pullarining amal qiluvchi shakllariga asoslangandir. Jahon puli deb xalqaro munosabatlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy) xizmat ko'rsatuvchi pullarga aytiladi. Jahon pullari amaldagi shakllarining evolyutsiyasi birmuncha kechikib bo'lsa-da, oltin pullardan boshlab to kredit pullargacha bo'lgan milliy pullarning rivojlanish yo'lini qayta bosib o'tadi. Bunday qonuniyat asosida jahon

valyuta tizimi XX asrga kelib jahon yetakchi mamlakatlarining bir yoki bir nechta milliy valyutalariga (an'anaviy yoki Yevrovalyuta shaklida) yoki xalqaro valyuta birligiga (SDR) asoslanadi.

Valyuta munosabatlarining ba'zi bir lementlari qadimiy Rimda veksellar asosida va bir mamlakat savdogarining pulini ikkinchi bir mamlakat savdogariga almashtirib berish zaminida vujudga kelgan. Valyuta munosabatlarining rivojlanishining keyingi bosqichi qadimiy Lionda va boshqa Ğarbiy vropa mamlakatlarida ơtkaziladigan tratta operasi larining rivojlanishi hisoblanadi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, jahon bozorining barpo bơlishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va jahon xơjalik tizimining rivojlanishi xalqaro valyuta munosabatlari rivojlanishining asosidir. Valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir bơlagi hisoblanib, uning holati milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga, siyosiy ahvolga, mamlakatning iqtisodiy potensialiga, uning jahondagi ơrniga va boshqa omillarga boğliq bơladi.

Xalqaro hisob-kitob valyuta birligi xalqaro talab va majburiyatlarni o'zaro solishtirish, valyuta pariteti hamda kursni belgilash uchun shartli masshtab va xalqaro to'lov hamda zahira vositasi sifatida ishlatiladi. Oltinning demonetizatsiyasi jarayoni, ya'ni Yamayka (1976-1978 y.y.) valyuta islohoti natijasida oltinning yuridik jihatdan pul funksiyasini yo'qotishi, jahon puli sifatida muvozanatsiz milliy pullar ishlatilishining salbiy oqibatlari valyuta tizimiga SDRni (qarz olishning maxsus huquqlari), EKYuni (Yevropa hisob-kitob pul birligi) tadbiq etishga sharoit yaratib berdi. Jahon pullarining ushbu yangi shakllari mamlakatlarning maxsus hisob-varaqlarda yozuvlarni amalga oshirish yo'li orqali naqdsiz xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ishlatilgan: SDR - Xalqaro Valyuta Fondida, EKYu - valyuta hamkorligining Yevropa fondida, 1994 yildan boshlab Yevropa Ittifoqining Yevropa valyuta institutida. SDR va EKYuning shartli qiymati o'rtacha tortilgan qiymat hamda valyuta savatiga (korzina) kirgan valyutalar kurslarining o'zgarishi asosida hisoblanadi. Yevropa Markaziy banki dastlab 1999 yilning boshidan naqdsiz hisob-kitoblar uchun, 2002 yildan boshlab esa naqdli shaklda EKYu o'rniga Yevroni muomalaga kiritdi.

Xalqaro hisob-kitob pul birliklari kursi savat (korzina) asosida aniqlanadi. Valyuta savatini hisoblashdagi muhim muammolardan biri bo'lib, savatdagi valyutalar tarkibi va ularning solishtirma og’irligi, valyuta komponentlarining katta-kichikligi, ya'ni to'plamdagi har bir valyuta sonining miqdorini aniqlash hisoblanadi. Bunga ko'ra savatning quyidagi turlari farqlanadi: ma'lum bir davrga valyutalar tarkibi qayd etilgan standart savat; o'zgaruvchan tarkibli muvofiqlashtiriluvchi savat; valyutalarning o'zaro teng bo'lgan solishtirma og’irligiga ega simmetrik savat; valyutalarning turli ulushlarga ega asimmetrik savati.

Yevropa valyuta ittifoqida valyuta paritetlarining asosi sifatida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining 12 valyutasidan iborat EKYu valyuta savati ishlatilgan. 1999 yildan boshlab Yevropa valyuta ittifoqining yagona valyutasi Yevrodir. Bundan tashqari bir qator mamlakatlar (taxminan 20ta davlat) o'z valyutalari kursini boqlash maqsadida yakka tartibdagi valyuta savatidan foydalanmoqda.

Valyutalarning o'zaro konvertatsiya qilinish shartlari. Milliy valyuta tizimiga qaralsin.

Valyuta paritetlarini soddalashtirilgan (unifikatsiya) rejimi. Milliy valyuta tizimiga qaralsin.

Xalqaro valyuta likvidligini davlatlararo muvofiqlashtirish. Xalqaro valyuta likvidligini muvofiqlashtirish valyuta tizimining elementi sifatida xalqaro hisob-kitoblarni zarur to'lov vositalari bilan ta'minlashdan iborat.

Xalqaro valyuta likvidligi - bu, mamlakatning (yoki bir guruh mamlakatlarning) vaqtida o'z Xalqaro majburiyatlarini kreditor uchun muqobil bo'lgan to'lov vositalarida so'ndirilishini ta'minlashdan iborat. Jahon xo'jaligi nuqtai nazaridan Xalqaro valyuta likvidligi jahon to'lov muomalasini moliyalashtirish va kreditlash manbalarining yig'indisini bildiradi hamda u jahon iqtisodiyotining Xalqaro zahira aktivlari bilan ta'minlanganligiga bog'liqdir.

Xalqaro valyuta likvidligi 4 asosiy qism (komponent)dan iborat:

-mamlakatning rasmiy oltin zahiralari;

-mamlakatning rasmiy valyuta zahiralari;

-Xalqaro hisob-kitob pul birliklaridagi hisobvaraqlar;

-Xalqaro Valyuta Fondidagi zahira pozitsiyasi (a'zo mamlakatning o'z kvotasining 25 foizi chegarasida, xorijiy valyutada, so'zsiz kredit olish huquqi).

Xalqaro valyuta likvidligining ko'rsatkichi bo'lib, odatda mamlakat rasmiy oltin-valyuta zahiralarini uning yillik tovar importining summasiga nisbati hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichning qimmatligi cheklangandir, chunki u mamlakat oldida turgan barcha joriy to'lovlarni, xususan notijoriy xizmatlar hamda kapital va kreditlarning xalqaro harakati bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalarni hisobga olmaydi.

Xalqaro kredit muomala vositalaridan foydalanish qoidalarini soddalashtirish (unifikatsiya). Milliy valyuta tizimiga qaralsin.

Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakllarini soddalashtirish (unifikatsiya). Milliy valyuta tizimiga qaralsin.

Jahon valyuta va oltin bozorlari rejimi. Jahon valyuta bozori yer kurrasi bo'ylab joylashgan jahon moliyaviy markazlarida mavjuddir. Zamonaviy jahon valyuta bozori elektron telekommunikatsiya tizimidagi bozor desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu bozor operatsiyalar hajmi bo'yicha moliyaviy bozorlar ichida eng yirigi bo'lib, "Spot", "Forvard", "F'yuchers", "Opsion", "Svop" va boshqa moliyaviy hosilalar bozorlaridan iboratdir.

Jahon valyuta bozori o'z faoliyat xususiyatiga ko'ra yopilmaydi va sutkada 24 soat faoliyat ko'rsatadi. Ushbu bozordagi kurslar bozor kon'yunkturasiga muvofiq erkin shakllanadi. Birja ko'rinishidagi valyuta bozorlari esa albatta ma'lum bir vaqtda ochiladi va ma'lum bir vaqtda yopiladi.

Oltin bozorlari - bu, oltin savdosining maxsus markazlari. Ushbu bozorlarda sanoat-maishiy iste'mol, xususiy iste'mol, investitsiya, tavakkalchilik, chayqovchilik, xalqaro hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan valyutani sotib olishni sug'urtalash maqsadida oltinni bozor bahosidagi muntazam oldi-sotdisi tashkil etilgan.

Bozordagi oltin taklifi manbasining asosiy qismini (80%) uning yangi ishlab chiqarilgan hajmi tashkil etadi.

Jahon oltin bozorlarida yirik va kichik hajmdagi standart oltin quymalar sotiladi hamda sotib olinadi. Ular qatoriga: 995 probadan kam bo'lmagan va hajmi

400 troya untsiyasida (12,5 kg) xalqaro turdagi quymalar, og’irligi 900 grammdan 916,6 grammgacha bo'lgan yirik quymalar kiradi.

Oltin bozori tashkiliy jihatdan oltin bilan bitimlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan bir nechta banklardan tashkil topgan konsortsiumdan iborat. Ushbu banklar sotuvchi va sotib oluvchilar o'rtasida vositachilik operatsiyalarini amalga oshirgan holda o'zida mijozlar buyurtmalarini to'playdi, ularni solishtiradi hamda o'zaro kelishilgan shartlarga muvofiq o'rtacha bozor bahosi darajasini qayd etadi (odatda bir kunda ikki marotaba). Bundan tashqari maxsus firmalar oltinni tozalash va saqlash, quymalar yasash ishi bilan shug’ullanadi.

Jahonda 50dan ziyod oltin bozorlari mavjud, ulardan 11tasi G’arbiy Yevropada (London, Syurix, Parij, Jeneva va boshqalar), 19tasi Osiyoda (masalan Bayrut, Tokio), 14tasi Amerikada (AQShda - 5), 8tasi Afrikada joylashgan.

Davlat tomonidan joriy etilgan rejimga bog’liq holda oltin bozorlari 4 toifaga bo'linadi:

1) jahon bozorlari (London, Syurix, Nyu-York, Chikago, Gonkong, Dubay va boshqalar);

2) ichki erkin bozorlar (Parij, Milan, Stambul, Rio-de-Janeyro);

3) nazorat ostidagi maqalliy bozorlar (Afina, Qohira);

4) qora bozorlar.

1968 yilgacha jahonning yirik oltin bozori bo'lib London bozori hisoblangan. Chunki ushbu bozorga Janubiy Afrika Respublikasidan oltin muntazam ravishda yetkazib turilgan. Janubiy Afrika Respublikasidan yetkazib berilayotgan oltinning Syurix bozoriga kelib tushishi ushbu jahon oltin bozorining mavqeini o'sishiga olib keldi.

London va Syurix bozorlarida sotilgan oltin hajmining deyarli yarmi boshqa bozorlardagi oldi-sotdilarni tashkil etadi.

1975 yilda AQSh fuqarolariga oltin bilan operatsiyalarni amalga oshirishga bo'lgan 40 yillik taqiqning bekor qilinishi munosabati bilan jahon oltin bozorlari ichida N’yu-York va Chikago oltin bozorlari oldinga chiqib, peshqadamlik qila boshladi. 1980 yildan boshlab N'yu-York jahonning yetakchi oltin bozoriga aylandi.

Oltinning ichki erkin bozorlari (Parij, Gamburg, Frankfurt-Mayna, Amsterdam, Vena va boshqalar) faoliyatini ichki investorlar va iste'molchi bo'lmish jismoniy shaxslar talabiga moslashtiradi. Natijada ushbu bozorlarda tangalar, medallar, mayda quymalar bilan operatsiyalar salmog’i nisbatan katta.

Oltinning qora bozorlari davlatlar tomonidan oltin bilan operatsiyalarga ham tegishli bo'lgan valyuta cheklovlarini kiritishi oqibatida paydo bo'ladi.

Davlatlararo valyuta muvofiqlashtirilishini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar. Davlatlararo valyuta muvofiqlashtirilishini Xalqaro Valyuta Fondi (1944 yil), Yevropa valyuta tizimida esa valyuta hamkorligining Yevropa fondi (1973-1993 y.y.) amalga oshiradi, keyinchalik u Yevropa valyuta instituti bilan almashtirilgan (1994-1998 yy.), 1998 yilning 1-iyulidan boshlab esa Yevropa Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi. Zikr etilgan xalqaro institutlar xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlarning xavfsiz, inqirozsiz rejimini ishlab chiqish va ta'minlashga intiladilar.

Jahon xo’jaligi jahon valyuta tizimi oldiga quyidagilardan iborat ma'lum bir talablarni qo'yadi:

- xalqaro almashuvni ishonch qozongan va miqdor jihatidan yetarli bo'lgan to'lov, hisob-kitob vositalari bilan ta'minlash;
- jahon iqtisodiyoti sharoitlarining o'zgarishiga valyuta mexanizmining nisbiy barqarorligi va tez moslashuvchanligini qo'llab-quvvatlab turish;
- barcha a'zo mamlakatlar manfaatiga xizmat qilish.

Ushbu talablarning bajarilishiga takror ishlab-chiqarishning qarama-qarshiliklari, jahon xo’jaligi tarkibiy tuzilishi va jahon maydonidagi kuchlar nisbatidagi o'zgarishlar to'sqinlik qiladi.

Valyuta gegemonligi markazlari, ya'ni valyuta jarayonidagi hukmronlik markazlari davriy ravishda mamlakatlar rivojlanishining notekisligi sababli o'zgarib turadi. Birinchi jahon urushigacha valyuta gegemonligi jahon ishlab chiqarishi va savdosida, bank hamda sug’urta ishida, valyuta munosabatlarida hukmron bo'lgan Buyuk Britaniyaga biriktirilgan edi. Birinchi jahon urushi natijasida moliyaviy markazning Yevropadan AQShga ko'chishi, funt sterling va dollar o'rtasida valyuta gegemonligi uchun kurashni kuchaytirib yubordi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSh dollari yagona gegemon valyuta bo'lib qoldi. 1970 va 1990-yillardagi 3ta kuch markazlarining shakllanishi valyuta hukmronligining yangi markazlari paydo bo'lishiga olib keldi. Bular G’arbiy YYevropa va Yaponiya markazlaridir. Bu o'z navbatida AQSh dollarining monopol holatiga putur yetkazdi.

Jahon valyuta tizimining amal qilish xarakteri va muvozanatliligi uning tamoyillarining jahon xo’jaligi tarkibiy tuzilishi, kuchlarning joylashishi va yetakchi mamlakatlar manfaatlariga mosligi darajasiga bog’liqdir. Ushbu sharoitlarning o'zgarishi natijasida jahon valyuta tizimining davriy inqirozi vujudga keladi. Bu inqiroz zikr etilgan valyuta tizimining yemirilishi va yangi valyuta tizimining barpo etilishi bilan yakunlanadi.

Hududiy valyuta tizimi - bu, hududiy birlashma a'zolari bo'lmish mamlakatlarning davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etishning shaklidir. Bunga yaqqol misol sifatida YYevropa valyuta ittifoqini keltirish mumkin.

Hududiy valyuta tizimining elementlari jahon valyuta tizimi elementlariga o'xshashdir.

Jahon va hududiy valyuta tizimlari o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, egiluvchan bo'lishi hamda alohida davlatlar va butun jahon manfaatlarida muvozanatni saqlash xususiyatiga ega bo'lmoqi lozim. Faqatgina shunday sharoitlarda valyuta tizimi uzoq muddat davomida muvaffaqiyatli amal qilishi mumkin.

16.5.Jahon valyuta tizimi evolyutsiyasi

V alyuta tizimining shakllanish bosqichlari quyidagilardan iborat:

shakllanish, 'ni ngi tizim amal qilishi uchun tamoyillarni aniqlash va ski tizimning xulosalarini chiqarish;

• tarkibiy xlitlikni shakllantirish, ngi tizim tamoyillarini ishlab chiqish va faolllashtirish;

• tugallangan xlitlik va lementlarning ơzaro boğlikligi asosida amal qiluvchi tơlaqonli amal qiluvchi ngi valyuta tizimining shakllanishi.

Valyuta tizimi o'zining zamonaviy shakliga kelguncha uzoq tarixiy davrni bosib o'tgan. Birinchi jahon valyuta tizimi stixiyali ravishda sanoat inqilobidan so'ng oltin monometalizmi asosida oltin-tanga standarti shaklida shakllangan. Yuridik jihatdan esa mazkur tizim 1867 yil Parij shahrida bo'lib o'tgan konferensiyada, davlatlararo kelishuv sifatida rasmiylashtirilgan. Ushbu jahon valyuta tizimi jahon pulining yagona shakli sifatida oltinni rasmiy tan olgan edi.

Dastlabki valyuta tizimi stixiyali tarzda XIX asrda sanoat revolyutsiyasidan keyin oltin monometallizmi davrida oltin tanga standarti shaklida namoyon bo'ldi. Parij valyuta tizimi quyidagilarga asoslangan edi.

USD ($) 20, 672 = troya untsiya oltin (31, 1 g.)

GBP (£) 4,248 = troya untsiya oltin

Oltinni valyutalardagi qiymati valyuta kursini bildirar edi :

$ 20, 672 / £ 4,248 = 4, 866 , ya'ni £ 1 = $ 4, 866

Har bir valyutada oltin tarkibi e'lon qilindi (Buyuk Britaniya — 1816y., AQSH — 1837 y., Germaniya — 1875 y., Frantsiya — 1878 y., Rossiya —1895—1897 yy..). Oltin erkin valyutaga konvertatsiya qilinar edi

1 funt sterling - 5 dollardan qimmat bo'lsa Amerikalik importyor 100 funtlik ingliz matosini 500 dollarga olgandan ko'ra, 496,6 dollarni oltinga ayrboshlab, uni Buyuk Britaniyaga jo'natadi va 100 funt sterlingga almashtiradi. Bu xolat oltinni eksport nuqtasi deyiladi, ya'ni shu kursdan boshlab dollarda emas, balki oltinda hisob-kitob qilish ma'qul. Buning natijasida AQSHda oltin zahirasi qisqarib, Buyuk Britaniyada ortishiga sabab bo'ladi, ya'ni AQSH pul massasi qisqaradi, Buyuk Britaniyada pul massasining kengayishi narxlarning o'sishi, AQSHda esa pasayishiga olib keladi. Va bu jarayon 1 funt=4.966gacha davom etadi.[154]

Urush harajatlarini qoplash uchun soliqlar, zayomlar va inqlyatsiya bilan birga oltin ham jahon puli sifatida sarflandi (208 mlrd oltin doll.). Valyuta cheklovlari o'rnatildi. Valyutalar kursi majburiy va shu sababdan noreal edi. Urush boshlanishi bilan markaziy banklar oltinni almashtirishni to'xtatdi va harajatlarni qoplash uchun emissiyani oshirdi. 1920 yilga kelibAQSH dollariga nisbatan funta sterling 1/3 qismga, frantsuz franki va italiya lirasi —2/3, nemis markasi esa — 96%ga qadrsizlandi.

1. Dastlabki valyuta tizimi stixi li tarzda XIX asrda sanoat revol si sidan keyin oltin monometallizmi davrida oltin tanga standarti shaklida namoyon bơldi.

2. Oltin tarkibi Bu k Britani da 1816y., AQShda 1837y., Germani da 1875 y., Fransi da 1878y., Rossi da 1895-1897yy. 'lon qilindi.

3. Valyuta kurslari oltin nuqtalari chegaralarida talab va taklif asosida tebranib turar di

XIX asrda xalqaro savdoning rivojlanishi bilan ko'pchilik davlatlar o'zlarida "oltin standarti"ni kiritdilar, ya'ni shu davrdan boshlab mazkur davlatlar

154

valyutalarining kursi va qiymati shu valyutalar zaminida yotgan oltin miqdorining qiymati bilan belgilanadigan bo'ldi. Davlatlarning markaziy (milliy) banklari o'z navbatida milliy qog’oz pullarni taalluqli oltin miqdoriga (baho masshtabiga asosan) almashtirishga majbur edilar.

Masalan, Buyuk Britaniyaning 1 funt sterlingi (soverenign) 1821 yilda 7,322385 gramm, Germaniyaning 1 markasi 1873 yilda 0,385422 gramm, Rossiyaning 1 rubli 1887 yilda 0,774234 gramm sof oltin qiymatini ifoda etar edi. Valyutalarning bir biriga nisbatan kursini aniqlash uchun ularning zaminida yotgan oltin miqdorlari o'zaro solishtirilar edi. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga asosan Buyuk Britaniyaning 1 funt sterlingi 18,9984 Germaniya markasiga (7,322385/0,385422) yoki 9,4576 Rossiya rubliga (7,322385/0,774234) teng edi.

16.2-jadval

AQShning oltin nuqtalari

Oddiy sharoitda	***Funt kursi oshganda***	***Funt kursi tushganda***
GBP/USD:4,8660 tashish xarajatlari bilan 4,9000	*GBP/USD:5,000*	*GBP/USD:4,700*
100 GBP=490 USD GBP/USD:4,8660 tashish xarajatlari bilan 4,9000	*100 GBP=500 USD US ⟹ GB oltin chiqib ketadi AQSh pul massasi qisqarib Buyuk Britaniyada kengayadi , bu esa USD kursini oshishiga olib keladi GBP/USD:5,000*	*100 GBP=470 USD GB ⟹ US Oltin chiqib ketadi Buyuk Britaniya pul massasi qisqarib AQShda kengayadi , bu esa USD kursini tushishiga olib keladi GBP/USD:4,700*

USD ($) 20, 672 = tro unsi oltin (31, 1 g.)

GBP (£) 4,248 = tro unsi oltin

Oltinni valyutalardagi qiymati valyuta kursini bildirar di :

$ 20, 672 / £ 4,248 = 4, 866 , 'ni

£ 1 = $ 4, 866

Buning natijasida

AQShda oltin zahirasi qisqarib, Bu k Britani da ortishiga sabab bo'ladi, 'ni AQSh pul massasi qisqaradi, Bu k Britani da pul massasining kengayishi narxlarning o'sishi, AQShda sa pasayishiga olib keladi. Va bu jarayon 1 funt=4.966gacha davom etadi.[155]

[155] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets.
PART 5. INTERNATIONAL FINANCE AND MONETARY POLICY. 17. The Foreign Exchange Market

Urush xarajatlarini qoplash uchun soliqlar, zayomlar va inql si bilan birga oltin ham jahon puli sifatida sarflandi (208 mlrd oltin doll.). Valyuta cheklovlari ornatildi. Valyutalar kursi majburiy va shu sababdan noreal di. Urush boshlanishi bilan markaziy banklar oltinni almashtirishni toxtatdi va xarajatlarni qoplash uchun missi ni oshirdi. 1920 yilga kelibAQSh dollariga nisbatan funta sterling 1/3 qismga, fransuz franki va itali lirasi —2/3, nemis markasi sa —96%ga qadrsizlandi.

Milliy valyutalar zaminidagi oltin miqdorlari 1914 yilgacha o'zgarmagan va tabiiyki, ular o'zgarmaguncha ularning bir-biriga nisbatan kurslari ham barqaror edi. Shu sababli "oltin standarti" - bu, qat'iy yoki barqaror valyuta kurslari tizimi edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu tizim bir qator ijobiy tomonlarga ega. Xususan boshqa metallarga qaraganda oltin tabiatda kam uchraydigan va noyob metall bo'lganligi sababli davlatlar tomonidan uning miqdorini ko'paytirish nihoyatda mushkul. Bundan chiqdi, davlatlar va markaziy (milliy) banklar o'z xohishlari bilan oddiygina pul muomalasi hajmini o'stirishga va inflyatsiyani rag'batlantirish imkoniga ega emas edilar.

Birinchi jahon urushigacha dunyoning yetakchi davlatlarida inflyatsiyaning nisbatan past bo'lish holatlari va yetakchi valyutalar kurslarining keskin tebranishi kuzatilmagan. Bunday holat o'sha yillarda pul sarmoyalari va ishchi kuchi resurslari bir mamlakatdan boshqa mamlakatga erkin hech qanday to'siqsiz oqib o'tishi mumkinligi bilan asoslangan.

1880 yildan to 1913 yilgacha "oltin standarti" tizimi davlatlarga o'z xarajatlarini inflyatsiya hisobiga moliyalashtirish imkonini bermaganligi sababli barcha davlatlarda ijtimoiy mahsulotning hajmi tez sur'atlar bilan o'sdi.

Birinchi jahon urushining tugashi bilan ko'pchilik davlatlar o'zlarida yana qaytadan "oltin standartini" kiritishga urindilar. Biroq ularning bunday harakatlari zoe ketdi, chunki mavjud sharoitda "oltin standarti"ni kiritish uchun zarur omillar yo'q edi.

Birinchi jahon urushi oqibatida jahon bozorida davlatlararo munosabatlarda paydo bo'lgan valyuta tartibsizligi uzoqqa cho'zilmadi va valyuta munosabatlarining "oltin standarti" o'rniga maydonga oltinga hamda yetakchi kapitalistik davlatlar valyutalariga asoslangan "oltin-deviz standarti" chiqadi. Bunda xorijiy valyutadagi davlatlararo hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan to'lov vositalari devizlar deb atala boshlandi.

1922 yilda Genuya da konferensiyasida oltin-deviz standartiga asoslangan valyuta tizimi shakllantirildi.

Xususiyatlari:

- 30 davlat valyutasi oltin va devizolarga asoslangan di
- Valyuta paritetlari bevosita (Fransiya , AQSh va B.Br.) hamda bilvosita (Germani va boshqa)
- Erkin xarakatlanuvchi kurslar tiklandi
- Valyutaviy tartibga solish faol siyosatga asoslanar edi

Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari orasidagi jahon valyuta tizimini "oltin-deviz standarti" tizimi deb atasa bo'ladi. Bu davr ayniqsa davlatning iqtisodiyotga kuchli aralashuvi bilan xususiyatlidir. Deyarli barcha davlatlarda bojxona to'siqlari

kiritilib, oqibatda kapitalga, ishchi resurslariga bo'lgan talab va taklifning erkin aloqasi jahon bozorida chegaralandi.

Ikkinchi Jahon valyuta tizimi 1922 yilda Genuya shahrida bo'lib o'tgan konferensiyada davlatlararo kelishuv sifatida yuridik jihatdan shakllangan edi. Mazkur xalqaro konferensiya arafasida jahonning 30dan ziyod davlatlarining pul tizimlari oltin-deviz standartiga asoslangan edi. Davlatlarning milliy kredit pullari xalqaro to'lov va zahira vositalari sifatida ishlatila boshlandi. Biroq Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari orasidagi davrda zahira valyutasi maqomi rasmiy ravishda biror-bir valyutaga hali biriktirilmagan edi.

Davlatlarning "oltin standarti" tizimidan qaytishi oqibatida devizli banklar va davlatlar qog’oz pullar muomalasini kengaytirish imkoniga ega bo'ldilar. Birinchi jahon urushidan so'ng ba'zi davlatlarda qog’oz pullar emissiyasining hajmi qar qanday tarixiy chegaralardan oshib ketdi va bu o'z navbatida inflyatsion jarayonlarning gurkirab o'sishiga olib keldi. Inflyatsiya jarayonlarining kuchayishi pul xo’jaligidagi barcha zaruriy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun kerak bo'lgan barcha ma'lumotlarning buzib ko'rsatilishiga olib keldi. Bir davlat bozoridan boshqa davlatlar bozorlariga valyutalar oqimining hajmi va sur'ati keskin kuchaydi. Londonning dunyoning yetakchi valyuta bozori sifatidagi mavqei pasaydi. Maydonga N'yu-York va Parij singari yangi yetakchi valyuta bozorlari chiqib, London dunyo bankiri vazifasini uzil-kesil yo'qotdi.

16.3-jadval[156]

1913-1923 yillarda AQSh talab va majburiyatlari

	Majburiyatlari	**Talablari**
1913	7 mlrd.dollar	2 mlrd.dollar
1926	3,3 mlrd.dollar	12 mlrd.dollar
Rivojlangan davlatlar zahirasi		
1914	23 yilgacha AQShga 2,3 mlrd.dollar Yevropadan oqib keldi	23%
1924		46%

1925 yilda Angliya banki avvalgi kurs asosida "oltin standarti"ni kiritdi. Ammo u mavjud bozordagi sharoitlarga muvofiq emas edi. Amerika va Fransiya banklari esa 1931 yilda Buyuk Britaniya funt sterlingidagi zahiralarini ko'paytirgan holda "oltin standarti" tizimini qabul qilmadilar.

AQSh o'z to'lov balansini aktiv bo'lishini istagan holda xorijiy hamkorlariga uzoq muddatli kreditlarni berib, iqtisodiy depressiya davrida o'z iqtisodiy mavqeini saqlab qolishga muvvafaq bo'ldi. Fransiya davlati esa funt sterlinglaridagi

[156] Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник / под ред. Красавиной Л.Н. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2006. – 345 с.

aktivlarini oltinga almashtirish huquqiga ega ekanligini ta'kidlab, Buyuk Britaniyaniga o'z qarorida qat'iyligini bildirdi. Ammo Buyuk Britaniya o'z majburiyatlari bo'yicha javob bera olmay qoldi va 1931 yilning yozida qog'oz pullarini oltinga almashtirilishini bekor qildi.

1926-1929 yillarda ba'zi mamlakatlarda likvid mablag'larning o'sishi va oltinning jamg'arilishi 30-yillarda jahonda kuchli iqtisodiy inqiroz sodir bo'lishiga sabab bo'ldi.

Jahon valyuta markazi Yevropadan AQShga ko'chdi, AQSh qarzdordan kreditorga aylandi.

Bu davrlarda AQSh oltin standartiga amal qilgan yagona davlat edi.

Ba'zi davlatlar 1929-1930 yillardayoq "oltin standarti"dan o'zlarini tortgan edilar. 1931 yilgacha bo'lgan davrda deyarli barcha valyutalar bir-biriga nisbatan erkin tebranar edi. AQSh o'z valyutalarining oltin bilan bog'liqligini 1933 yilda bekor qildi. Ammo 1934 yilda u nisbatan pastroq paritet bilan "oltin standarti"ga qaytdi. AQSh dollarining kursi endi ilgarigi kursning 54%ini tashkil qilar edi. Bundan so'ng, ya'ni 1934 yil davomida ko'pchilik davlatlar o'z valyutalarini devalvatsiya qildilar. Shunday qilib, milliy valyutalarning ko'p sonli devalvatsiyalari va savdo cheklanishlarini kiritish davri boshlandi. Oqibatda dunyo savdo hajmi keskin qisqarib ketdi va deyarli barcha mamlakatlarda ishsizlar soni ko'payib ketdi.

Yuqorida qayd etilgan va jahon tarixiga "buyuk depressiya" nomi bilan kirgan, 30-yillardagi chuqur jahon iqtisodiy inqirozi oqibatida dunyoning barcha davlatlari o'z qog'oz pullarini rasmiy ravishda oltinga almashtirilishini to'xtatdilar hamda bundan keyin hech bir davlat o'z qog'oz pullarini oltinga almashinishini tiklay olmagan.

Davlatlar milliy qog'oz pullarining baho masshtabiga asosan oltinga almashinishini to'xtatilishi ikkinchi jahon valyuta tizimining asosi, "oltin-deviz standarti"ning inqirozini bildiradi. Oqibatda 1930 yildan to Ikkinchi jahon urushining oxirigacha jahon valyuta bozorida tartibsizlik hukm surdi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng jahonning yetakchi davlatlari boshliqlari 30-yillar inqiroziga olib kelgan xatolarni takrorlamaslikka harakat qilib, 1944 yilning iyul oyida, keyinchalik "Bretton-Vuds tizimi" nomini olgan, Bretton-Vudsda qat'iy valyuta kurslari tizimini yaratdilar.

O'sha davrning muhim masalalaridan biri bu harbiy yillar qarzlari muammosini hal qilish edi. Masalan, Buyuk Britaniya AQShga yirik summalarni qarz edi. Nafaqat Buyuk Britaniya, balki YYevropadagi barcha davlatlar urush davrida ko'rgan talofatlari oqibatida yaqin yillar ichida o'z qarzlarini eksportlari hisobiga qoplash imkoniga ega emas edilar. Shu sababli Ikkinchi jahon urushi oqibatida paydo bo'lgan harbiy qarzlar muammosi qaytmas kreditlar va uzoq muddatli ssudalar tizimini kiritish yo'li bilan qal qilingan edi.

Davlatlarning o'z qarzlarini alohida qismlar bilan uzishga imkoni bo'lmaganligi sababli ularda inflyatsiya hisobiga bunday qarzlardan qutilish ishtiyoqi tug'iladi.

Davlatlarni yakkalanishining oqibatlari ayniqsa, o'zlarini xalqaro raqobat ta'siridan holi qilish bilan bog'liq xatti-harakatlarida, devalvatsiya ketidan "quvish", turli ko'rinishdagi savdo cheklanishlari va to'siqlar, dunyo savdo

hajmining pasayishi, ommaviy ishsizlik hamda siyosiy barqarorsizlikda o'z aksini topgan bo'lib, bu o'z navbatida ularning xalqaro hamkorlikka intilishlari zo'rayib borayotganligidan dalolat berar edi.

Bretton-Vuds valyuta tizimining asl mohiyati qat'iy yoki barqaror, o'zgaruvchanligi sezilmas valyuta kurslarini joriy etishdan iborat edi. Ikkinchi jahon urushidan ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan nihoyatda charchab chiqqan davlatlar jahon bozorida davlatlararo valyuta munosabatlarida hukm surayotgan tartibsizlikka barham berish maqsadida 1944 yilda AQShning Bretton-Vuds nomli joyida xalqaro valyuta-moliya konferensiyasini chaqiradilar.

1944 yilda 44 davlat imzolagan

Asosiy xususi tlari:

• Valyuta paritetidan +1%ga tebranishga ruxsat berilgan, Yevropa valyuta tizimi uchun - +0, 75%

• Rasmiy kurs bơyicha AQSh dollarini ayrboshlanishi

oUSD ($) 35 = tro unsi (31, 1 g.)

• Oltin bilan birga ikki valyuta zahira valyutasi rolini bajardi

• XVFni tashkil tilishi

Ikkinchi jahon urushidan so'ng jahonning yetakchi davlatlari boshliqlari 30-yillar inqiroziga olib kelgan xatolarni takrorlamaslikka harakat qilib, 1944 yilning iyul oyida, keyinchalik "Bretton-Vuds tizimi" nomini olgan, Bretton-Vudsda qat'iy valyuta kurslari tizimini yaratdilar.

O’sha davrning muhim masalalaridan biri bu harbiy yillar qarzlari muammosini hal qilish edi. Masalan, Buyuk Britaniya AQShga yirik summalarni qarz edi. Nafaqat Buyuk Britaniya, balki YYevropadagi barcha davlatlar urush davrida ko'rgan talofatlari oqibatida yaqin yillar ichida o'z qarzlarini eksportlari hisobiga qoplash imkoniga ega emas edilar. Shu sababli Ikkinchi jahon urushi oqibatida paydo bo'lgan harbiy qarzlar muammosi qaytmas kreditlar va uzoq muddatli ssudalar tizimini kiritish yo'li bilan qal qilingan edi.

Davlatlarning o'z qarzlarini alohida qismlar bilan uzishga imkoni bo'lmaganligi sababli ularda inflyatsiya hisobiga bunday qarzlardan qutilish ishtiyoqi tug’iladi.

Davlatlarni yakkalanishining oqibatlari ayniqsa, o'zlarini xalqaro raqobat ta'siridan holi qilish bilan bog’liq xatti-harakatlarida, devalvatsiya ketidan "quvish", turli ko'rinishdagi savdo cheklanishlari va to'siqlar, dunyo savdo hajmining pasayishi, ommaviy ishsizlik hamda siyosiy barqarorsizlikda o'z aksini topgan bo'lib, bu o'z navbatida ularning xalqaro hamkorlikka intilishlari zo'rayib borayotganligidan dalolat berar edi.

Bretton-Vuds valyuta tizimining asl mohiyati qat'iy yoki barqaror, o'zgaruvchanligi sezilmas valyuta kurslarini joriy etishdan iborat edi. Ikkinchi jahon urushidan ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan nihoyatda charchab chiqqan davlatlar jahon bozorida davlatlararo valyuta munosabatlarida hukm surayotgan tartibsizlikka barham berish maqsadida 1944 yilda AQShning Bretton-Vuds nomli joyida xalqaro valyuta-moliya konferensiyasini chaqiradilar.

Jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan Bretton-Vuds xalqaro valyuta-moliya konferensiyasi 1944-47 yillar mobaynida bo'lib o'tgan. Mazkur konferensiyada

qabul qilingan Kelishuv moddalari urushdan so'nggi jahon valyuta tizimining tamoyillarini belgilab berdi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat edi:

1.Oltinga va ikki zahira valyutasiga, ya'ni AQSh dollari hamda qisman Buyuk Britaniya funt sterlingiga asoslangan davlatlararo oltin-deviz standarti tizimi o'rnatildi. Bunda oltin-deviz standarti faqatgina davlatlararo munosabatlarda saqlanib qolgan bo'lib, mamlakatlarning pul tizimlari esa oltinga almashmaydigan kredit pullarga asoslangan edi.

Oltinni, jahon valyuta tizimining asosi sifatida ishlatilishining quyidagi asosiy 4 shakli ko'zda tutilgan edi:

a) valyutalarning oltin paritetlari saqlanib, Xalqaro Valyuta Fondida ularni qayd etish tartibi kiritilgan edi;

b) oltin xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha qoldiqni so'ndirish vositasi va ijtimoiy boylikning ramzi, Xalqaro valyuta likvidligining muhim komponenti sifatida ishlatila bordi;

v) AQSh o'zining o'sgan valyuta-iqtisodiy qudratiga va kapitalistik dunyoda o'zining eng yirik oltin zahiralariga tayangan holda AQSh dollariga asosiy zahira valyutasi maqomini biriktirib qo'yish maqsadida dollarni oltinga tenglashtirib qo'ydi;

g) shu maqsadda AQSh g’aznaxonasi xorijiy davlatlar markaziy (milliy) banklari va hukumat tashkilotlariga AQSh dollarlarini oltinga, bir unsiya oltin 35 AQSh dollari rasmiy baho asosida almashtirishni davom ettirdi. Oltinning bunday rasmiy bahosi 1934 yilda AQSh dollarining baho masshtabi asosida kiritilgan edi.

2. Valyutalarni o'zaro solishtirilishi va o'zaro almashuvi, Xalqaro Valyuta Fondi a'zolari bo'lmish davlatlar o'rtasida rasmiy ravishda o'zaro kelishib olingan hamda qat'iy belgilangan, AQSh dollarlarida ifodalangan, valyuta paritetlari asosida amalga oshadigan bo'ldi. O’zaro kelishib olingan bunday paritetlarning o'zgartirilishi faqat Fondning ruxsati bilan amalga oshishi mumkin edi.

3.Valyutalarning qat'iy belgilangan kurslar rejimi kiritildi. Valyutalarning bozor kurslari paritetidan kichik miqdorlarda oqishi mumkin edi, Xalqaro Valyuta Fondining Nizomiga muvofiq valyuta kurslarini bunday oqishi paritetidan +;- 1%, YYevropa valyuta kelishuviga asosan esa +;- 0,75% (ya'ni, taxminan 1,5%)ni tashkil etishi mumkin edi. Valyuta kurslari tebranishining bunday chegaralarini saqlash maqsadida mazkur shartnomaga kirgan davlatlar markaziy (milliy) banklari AQSh dollarlarida yoki o'z milliy valyutalarida valyuta intervensiyasini amalga oshirishga majbur edilar.

Masalan, Germaniya markasi AQSh dollariga nisbatan 3,69 va 3,63 chegaralarda tebrangan, Fransiya frankining kursi esa AQSh dollariga nisbatan bu paytda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa, ya'ni 5,5125-dan to 5,5960gacha, unda bunday holat avtomatik ravishda Germaniya markasining Fransiya frankiga nisbatan 3,19%ga devalvatsiyasiga olib kelar edi. Ya'ni:

3,6300 / 5,5960 = 0,6487 DEM/FRF

3,6900 / 5,5125 = 0,6694 DEM/FRF

0,6694 / 0,6487 = 3,19%.

Xalqaro Valyuta Fondi orqali davlatlararo valyuta tartibga solinishi kiritildi. Bunga asosan Xalqaro Valyuta Fondi muvozanatsiz valyutalar barqarorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida xorijiy valyutada muayyan bir davlatlarning

vaqtincha hosil bo'lgan to'lov balanslari kamomadini qoplash uchun kreditlar bera boshladi.

Shunday qilib, Bretton-Vuds valyuta tizimi valyuta munosabatlarini bozor tomonidan tartibga solinishini davlat bilan birgalikda olib borilishiga asoslangan ekan.

Bretton-Vuds valyuta tizimi ma'lum bir davr mobaynida o'ziga yuklatilgan funksiyalarni yaxshi bajarib keldi. Biroq bu mazkur valyuta tizimining nuqsonsiz ekanligidan dalolat emas albatta.

Bretton-Vuds valyuta tizimi, boshidanoq AQSh, AQSh dollari manfaatlari uchun xizmat qilishga mo'ljallangan valyuta tizimi edi. Bu tizim AQSh dollarini boshqa davlatlar valyutalari ustidan hukmronligini ta'minlagan. Ammo jahon valyuta bozoridagi bunday ahvol, AQShning jahon iqtisodiyotidagi ulushini qisqarib borishi va Yevropa Iqtisodiy hamjamiyati davlatlari hamda Yaponiya rolining o'sib borishi jarayonida saqlanib qolishi amri mahol edi (jadval 3).

1970-yillarning boshida, Bretton-Vuds valyuta tizimi va jahon iqtisodiyotida kechayotgan o'zgarishlar realligi orasidagi ziddiyatning keskin kuchayishi valyuta munosabatlari borasida bir qator islohot rejalarining hayotga kirib kelishiga sabab bo'ldi.

AQShda:

- *Qisqa muddatli qarzlari 1949-1971yy. 8,5 barobar oshdi*
- *Oltin zahiralari 2,4 marta qisqardi*
- *1971 yilgacha deval vasi dan bosh tortdi*
- *Evrodollar 1960y.-2 mlrd.,*
- *1981 y.-750 mlrd.*
- *TMKlarning salbiy roli*
- *Brettonvuds tizimi inqirozi*

Valyuta inqirozini iqtisodiy pasayish bilan mos kelgani

- *Inflyatsiyani ni kuchayishi "issiq pullarni" ko'paytirdi*
- *To'lov balanslarini barqaror masligi*
- *Valyuta tizimini kuchlar nisbatiga mos kelmasligiBretton –Vuds tizimining qarama-qarshiligi tartibsiz bozor va boshqariladigan dollar tizimi bo'yicha ish yuritish quyidagilarga olib keldi:*

-o'zgarmas oltin narxi va narxi o'suvchi tovar va xizmatlar orasida farq yuzaga kelishiga

-AQShdan ko'p miqdordagi kapitalning boshqa davlatlarga oqib ketishiga

-chet ellardagi katta harbiy xarajatlarga

-AQShning to'lov balansi defitsitli bo'lishiga

-dollarning real kursi va uning oltin pariteti orasida uzilishning bo'lishiga olib keldi.

Bretton-Vuds valyuta tizimining inqirozi jahon valyuta bozoridagi tartibsizliklarga olib keldi. Ammo bunday tartibsizliklar uzoqqa cho'zilmadi. 1976-78 yillarda AQShning Kingston (Yamayka) shahrida bo'lib o'tgan xalqaro moliya-kredit konferensiyasida to'rtinchi jahon valyuta tizimiga asos solindi.

To'rtinchi jahon valyuta tizimining asosiy tamoyillari quyidagilar:

a) oltin-deviz standarti o'rniga SDR standarti kiritildi. Ushbu xalqaro hisob-kitob valyuta (pul) birligining yaratilishi (O. Emminger loyihasi bo'yicha) haqidagi

kelishuv 1967 yilda XVF a'zolari bo'lmish davlatlar tomonidan imzolandi. SDRning muomalaga kiritilishi munosabati bilan XVF Ustaviga kiritilgan birinchi o'zgartirish 1969 yilning 28 iyulida kuchga kirdi;

b) oltinning demonetizatsiya jarayoni yuridik jihatdan yakunlandi. Uning rasmiy bahosi, oltin paritetlari va AQSh dollarlarini oltinga almashinishi bekor qilindi. Yamayka kelishuviga asosan endi oltin qiymat o'lchovi va valyuta kurslari uchun boshlanqich hisob nuqtasi bo'la olmaydi;

v) a'zo mamlakatlarga har qanday valyuta kursi rejimini tanlab olish huquqi berildi;

g) XVF yangi sharoitlarda davlatlararo valyuta muvofiqlashtirilishini jonlantirishi lozim edi.

Shu bilan birgalikda Yamayka valyuta tizimi sharoitida valyutalar kurslarining rejimi erkin suzuvchi bo'lib, AQSh dollari standarti o'rniga ko'p valyutali standart qabul qilindi.

Shunday qilib, Yamayka valyuta tizimining muammolari uning yanada isloh etilishining ob'yektiv zaruratini keltirib chiqaradi. Bu yerda gap, birinchi navbatda, valyuta kurslarini barqarorlashtirish, yetakchi davlatlar valyuta-iqtisodiy siyosatlarining o'zaro muqobillashtirilishini kuchaytirish yo'llarini qidirish to'g'risida boradi. Ularning valyuta hamjihatligi jahon va milliy iqtisodiyotlar muvozanatsizligining manbalaridan biri bo'lmish jahon valyuta mexanizmini takomillashtirish istagida o'z ifodasini topadi. Biroq valyuta kelishmovchiliklarining negizida yuqorida zikr etilgan uch markazning o'zaro raqobatdoshligi yotadi.

Yamayka valyuta tizimining barqaror emasligiga javoban YYevropa Ittifoqi mamlakatlari iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rag'batlantirish maqsadida o'z Xalqaro (hududiy) valyuta tizimini barpo etdilar.

Zamonaviy valyuta tizimi xususi tlari:

- TMK jahon i.ch. 50%
- Jahon savdosining 70%, ulardan 40% ichki savdo
- 100 kuchli iqtisodiyotning 52 TMK, qolganlari davlatlar
- Jami patentlarning 80%
- 100 yirik TMK i.ch. kapitalini 25% ni nazorat qiladi
- 300 yirik TMK jami 25% aktivlarga ga
- Valyuta savdolari tœxtovsiz sutkada 24 soat amalga oshiriladi
- Jami xorijiy aktivlarning 40-50% TMKlarga tegishli

16.6.Valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillar

V aluta kursi nima

Valyuta kursining xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni haqida so'z yuritilishidan uning mazmunini aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir: valyuta kursi (inglizcha, «rate of exchange») – mavjud bo'lgan milliy valyuta pul birligining boshqa biror xorijiy davlat valyuta pul birligida aks etgan qiymatiga aytiladi.

Masalan, 1999 yilning boshida yevro kursi 1,18 dollarni tashkil etgan bo'lsa va 2011 yilning 9 avgust kuni 1,42 dollarni tashkil egan bo'lsa yevroning kursi 20%(1,42-1,18)/1,18=0,2ga oshgan.. Ekvivalent tarzda AqSh dollari ham1999

yilning boshida 0,85 yevro turgan bo'lsa 2011 yilning 9.avgustida bir dollar 0,70 yevroga teng bo'lgan, ya'ni (0,70-0,85)/0,85=-0,17=17% ga qadrsizlangan. [157]

Valyuta kursi iqtisodiyotda bo'lib o'tadigan barcha iqtisodiy va moliyaviy infratuzilma qonun-qoidalarning o'zgarib turishi, xususan, barcha moliyaviy operatsiyalar, umumdavlat miqyosida tovar ayirboshlash, savdo va tqlov balanslarining iqtisodiy barqarorlik yoki nobarqarorlik jihatlari va umuman olganda, "fundamental sathi" valyuta kursining real qiymatini keltirib chiqaradi. Umuman olganda, biron-bir mamlakat iqtisodiyotining qanday darajada ekanligini uning valyuta kursidan bilib olish mumkin. Mohiyati jihatidan biron-bir davlatning valyuta kursi nafaqat sotib olish qobiliyatini belgilab beradi, balki mazkur mamlakatda olib boriladigan joriy va yakuniy hisob-kitoblar, buxgalteriya infratuzilmasidagi hisoblar, umumdavlat statistika hisob-kitoblari, valyuta birjasidagi olib boriladigan tahlillar, hamda yuqoridagilarga asoslangan holda kelgusi moliyaviy yil holatlari prognozlashtiriladi. Valyuta kursi prognozlashtirilayotganda, mamlakat byudjeti, kutilayotgan inflyatsiya va ishsizlik darajalari tahminiy holatda namoyon bo'ladi. Valyuta kursining xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi qrni ham g'oyatda muhimdir. Chunki, xar qanday xalqaro iqtisodiy operatsiyalar biron-bir milliy valyutaning boshqasiga ayriboshlanishi bilan bog'liqdir.

Shuning uchun bozor kotirovkasi rasmiy kotirovkadan farq qiladi. Jahon amaliyotida katirovkalashni amalga oshirishning 2 xil usuli mavjud;

1) To'g'ri kotirovkalash. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko'rsatilsa, bu to'g'ri kotirovkalash deb ataladi. Masalan, 2003 yilning 30 sentyabrida 1 AQSh dollariga nisbatan o'zbek so'mining kursi 975,00 so'mni, 1 Rossiya rubliga nisbatan 31,97 so'mni tashqil etdi. 1 AQShdollari = 975,00 so'm Bu to'g'ri kotirovkalash hisoblanadi va bunday kotirovkalash hozirgi vaqtda jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda qo'llanilib kelinmoqda.

2) So'mning (milliy valyutaning) dollarga (xorijiy) valyutaga nisbatan bahosi egri kotirovkalash deb ataladi. Egri (teskari) kotirovkalashda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori o'rnatiladi, ya'ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi bahosi ko'rsatiladi, masalan;

$$1 \text{ so'm} = \frac{1}{975{,}00} \text{ AQSh dollari}$$

yoki 1 so'm = 0,0010256 AQSh dollari
100 so'm = 0,102564 AQSh dollari
1000 so'm = 1,02564 AQSh dollari

$$1 \text{ so'm} = \frac{1}{31{,}97} \text{ Rossiya rubli}$$

yoki 1 so'm = 0,031279 Rossiya rubli
100 so'm = 3,12793 Rossiya rubli
1000 so'm = 31,2793 Rossiya rubli

Kotirovkaning chap tomonidagi valyuta kotirovka bazasi, o'ng tomonidagi kotirovka valyutasi deb yuritiladi.

1 so'm = 975,00 AQSH dollari

[157] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets.P.-478

kotirovka bazasi kotirovka valyutasi

Valyuta kotirovkasi odatda 2 asosiy elementni o'zida mujassamlashtiradi.

1) sotib olish kursi (Bid-bid)
2) valyutani sotish kursi (offer-ofep)

Masalan, 1 AQSH dollari = 975,0 o'zbek so'mi sotish kursi (offer)
981,0 o'zbek so'mi sotib olish kursi (Bid)

Valyutani sotish va sotib olish o'rtasidagi farq spred (spread) deb nomlanadi va u yuqoridagi misolda 6 so'm (981-975)ni tashqil qiladi.

Bank kotirovkasi bilan banklararo bozor kotirovkasi o'rtasidagi farq marja deyiladi va u bankning valyuta bo'yicha pozitsiyasi, uning bitimlarining summasi, salmog'i va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Valyuta kurslarining turlari ko'p bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin.

16.4-jadval
Valyuta kurslari tasnifi

Kurs o'rnatish mezonlari	Valyuta kursining turlari
1. Belgilash turi bo'yicha	Suzuvchi, Qat'iy belgilangan, aralash
2. Hisoblash usuli bo'yicha	Paritet, haqiqiy kurs
3. Nisbat bo'yicha	Kross kursi, to'g'ri, egri (teskari), fiksing
4. Bitim turi	Spot – kurs, muddatli bitim (forvard) kursi
5. O'rnatish joyi	Rasmiy (MB), tijorat (banklar), qora bozor
6. Valyutaning xarid qobiliyati paritetiga nisbatan	Paritetli, oshirilgan, kamaytirilgan kurs
7. Bitim qatnashchilari bo'yicha	Sotib olish kursi (sotib oluvchi uchun), sotish kursi (sotuvchi uchun)
8. Inflyatsiyani hisobga olish bo'yicha	real kurs, nominal kurs, o'rtacha

Demak yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, doimiyligi yoki o'rnashuviga qarab valyuta kursi suzuvchi, Qat'iy belgilangan va aralash bo'lishi mumkin.

Suzuvchi valyuta kursi deganda, milliy va chet el valyuta kurslarining o'zaro nisbatini valyuta bozoridagi talab va taklifga qarab belgilanishi ko'zda tutiladi. Bu kurs birinchi marta 1971 yilning avgustida AQSH dollarini oltinga ayirboshlash bekor qilingandan keyin qabull qilinib, Kanada, Ispaniya, Meksika, 1972 yil apreldan boshlab Evropa Ittifoqi tizimiga kiruvchi davlatlar amaliyotida qo'llanila boshlangan.

Bozor kurslari va asosiy valutalarganisbatan AQSh dollarining valuta kurslari dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun "Valyuta kursi" havolasini bosing.

Ikki hil ko'rinishdagi valuta kelishuvlari turi mavjud. ***Spot kelishuvi****ning asosiy ko'rinishi, bank depozitlarining tezda (ikki kun davomida) almashinuvida namoyon bo'ladi.* ***Forvard kelishuvi*** *bank depozitlarining kelajakdagi aniq muddatlarda almashinuvini bildiradi.****Spot valuta kursi*** *spot kelishuvining almashinuv kursidir,* ***forvard valyuta kursi*** *esa forvard kelishuvlari uchun qo'llaniladi.*

Ma'lumki, valyutaning qiymati ko'tarilsa, valyuta ***mustahkamlanishi*** *sodirbo'ladi; valuta qiymati tushganda esa – u* ***qadrsizlanadi.***[158]

Wall Street jurnalining "Valuta savdosi" (Currency trading) bo'limida har kuni valuta kurslari bosib chiqariladi.Ushbu bo'limlardan biridagi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.

Following the Financial News

Foreign Exchange Rates

Foreign exchange rates are published daily and appear in the "Currency Trading" column of the *Wall Street Journal*. The entries from one such column, shown here, are explained in the text.

The first entry for the euro lists the exchange rate for the spot transaction (the spot exchange rate) on February 5, 2003, and is quoted in two ways: $1.0795 per euro and 0.9264 euros per dollar. Americans generally regard the exchange rate with the euro as $1.0795 per euro, while Europeans think of it as 0.9264 euros per dollar. The three entries immediately below the spot exchange rates for some currencies give the rates for forward transactions (the forward exchange rates) that will take place one month, three months, and six months in the future.

CURRENCY TRADING

Wednesday, February 5, 2003

EXCHANGE RATES

The foreign exchange mid-range rates below apply to trading among banks in amounts of $1 million and more, as quoted at 4 p.m. Eastern time by Reuters and other sources. Retail transactions provide fewer units of foreign currency per dollar.

Country	U.S. $ Equivalent Wed	U.S. $ Equivalent Tue	Currency per U.S. $ Wed	Currency per U.S. $ Tue
Argentina (Peso)-y	.3160	.3160	3.1646	3.1646
Australia (Dollar)	.5901	.5915	1.6946	1.6906
Bahrain (Dinar)	2.6522	2.6523	.3770	.3770
Brazil (Real)	.2784	.2798	3.5920	3.5740
Canada (Dollar)	.6574	.6602	1.5211	1.5147
1-month forward	.6566	.6595	1.5230	1.5163
3-months forward	.6548	.6576	1.5272	1.5207
6-months forward	.6517	.6544	1.5344	1.5281
Chile (Peso)	.001348	.001346	741.84	742.94
China (Renminbi)	.1208	.1208	8.2781	8.2781
Colombia (Peso)	.0003372	.0003378	2965.60	2960.33
Czech. Rep. (Koruna)				
Commercial rate	.03398	.03438	29.429	29.087
Denmark (Krone)	.1453	.1463	6.8823	6.8353
Ecuador (US Dollar)	1.0000	1.0000	1.0000	1.0000
Hong Kong (Dollar)	.1282	.1282	7.8003	7.8003
Hungary (Forint)	.004406	.004454	226.96	224.52
India (Rupee)	.02099	.02094	47.642	47.756
Indonesia (Rupiah)	.0001128	.0001127	8865	8873
Israel (Shekel)	.2050	.2049	4.8780	4.8804
Japan (Yen)	.008336	.008353	119.96	119.72
1-month forward	.008344	.008362	119.85	119.59
3-months forward	.008363	.008381	119.57	119.32
6-months forward	.008391	.008408	119.18	118.93
Jordan (Dinar)	1.4094	1.4085	.7095	.7100
Kuwait (Dinar)	3.3479	3.3523	.2987	.2983
Lebanon (Pound)	.0006634	.0006634	1507.39	1507.39
Malaysia (Ringgit)-b	.2632	.2632	3.7994	3.7994
Malta (Lira)	2.5690	2.5861	.3893	.3867
Mexico (Peso)				
Floating rate	.0920	.0913	10.8648	10.9481
New Zealand (Dollar)	.5494	.5496	1.8202	1.8195
Norway (Krone)	.1434	.1448	6.9735	6.9061
Pakistan (Rupee)	.01719	.01723	58.173	58.038
Peru (new Sol)	.2866	.2863	3.4892	3.4928
Philippines (Peso)	.01852	.01853	53.996	53.967
Poland (Zloty)	.2606	.2622	3.8373	3.8139
Russia (Ruble)-a	0.3142	0.3142	31.827	31.827
Saudi Arabia	.2667	.2667	3.7495	3.7495
Singapore (Dollar)	.5742	.5755	1.7416	1.7376
Slovak Rep. (Koruna)	.02579	.02607	38.775	38.358
South Africa (Rand)	.1192	.1202	8.3893	8.3195
South Korea (Won)	.0008516	.0008529	1174.26	1172.47
Sweden (Krona)	.1169	.1177	8.5543	8.4962
Switzerland (Franc)	.7368	.7424	1.3591	1.3470
1-month forward	.7362	.7428	1.3583	1.3463
3-months forward	.7371	.7437	1.3567	1.3446
6-months forward	.7386	.7451	1.3539	1.3421
Taiwan (Dollar)	.02881	.02881	34.710	34.710
Thailand (Baht)	.02338	.02342	42.772	42.699
Turkey (Lira)	.00000061	.00000061	1639344	1639344
U.K. (Pound)	1.6423	1.6485	.6089	.6066
1-month forward	1.6391	1.6452	.6101	.6078
3-months forward	1.6322	1.6382	.6127	.6104
6-months forward	1.6221	1.6283	.6165	.6141
United Arab (Dirham)	.2723	.2723	3.6724	3.6724
Uruguay (Peso)				
Financial	.03500	.03550	28.571	28.169
Venezuela (Bolivar)	.000520	.000520	1923.08	1923.08
SDR	1.3741	1.3697	.7277	.7301
Euro	1.0795	1.0883	.9264	.9189

Special Drawing Rights (SDR) are based on exchange rates for the U.S., British, and Japanese currencies. Source: International Monetary Fund. a-Russian Central Bank rate. b-Government rate. y-Floating rate.

Source: Wall Street Journal, Thursday, February 6, 2003, p. C12.

Manba: Wall Street Journal, Thursday, February 6, 2003, p. S12.

Har bir valuta uchun birinchi qatorlar – bu ikki xil usulda kvotalanadigan, 2003 yil 5 fevral chorshanba kundagi spot valuta kursidir. Masalan, "Euro" qatoridagi: 1.0795 dollar 1 yevroga va 0.9264 yevro 1 dollarga teng. Amerikaliklar yevro 1,0795 dollar, yevropaliklar esa dollar – 0.9264 yevroga teng

[158] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets, P, 477

deb hisoblashishadi. Qiyoslash uchun o'tgan kun seshanba kunidagi ko'rsatkichlar keltirib o'tilgan. Spot kursidan pastdagi 3ta qatorlar kelajakda (bir, uch yoki olti oydan keyin) qo'llaniladigan spot kurslari uchun.

1999-yillarda yevro 1.18 dollar baholangan, lekin moliyaviy yangiliklardan olingan ko'chirmaga ko'ra 2003 yil 5 fevralda yevro narxi 1.08 dollargacha tushganligini ko'rish mumkin. Demak yevro 8 % ga qadrsizlandi: (1,08-1,18)/1,18=-0,08=-8% Bir vaqtning o'zida AQSh dollarining qiymati 1990-yil boshida 0,85 yevrodan 2003-yil 5-fevral holatiga ko'ra 0,93 yevroga ko'tarilgan.[159]

Valuta kurslarining muhimligi nimada?

Valuta kurslarining muhimligini ularning o'z mamlakatlari hududidagi va xorijiy davlatlarning tovarlariga nisbatan qiymatiga ta'sir etishida ko'rishimiz mumkin. Amerikaliklar uchun fransus tovarlarining dollardagi narxi ikki omillarning o'zaro ta'siri orqali aniqlanadi: yevroda ifodalangan fransus tovarlarining narxi hamda yevro/dollar valuta kursidadir.

*Tasavvur qiling, amerikalik Vanda Degustator o'zining vino kolleksiyasini to'ldirish maqsadida 1961-yilning qimmatbaho fransus vinosini harid qilishga qaror qildi. Agar Fransiyada bir litr vinoning narxi 1000 yevro bo'lsa, ammo valuta kursi 1 yevro uchun 1,18 dollarga teng bo'lsa, Vandaga vino 1080 dollarga to'g'ri keladi. (1000 yevro*1,08 dollar/yevro). Tasavvur qilaylikki, Vanda o'zining haridini ikki oyga kechiktirdi. Vaholanki ushbu davr mobaynida yevroning qiymati 1,2 dollarga oshdi. Agar bir litr vinoning ichki narxi 1000 yevro bo'lib, ya'ni o'zgarmasa, dollardagi qiymati esa 1080 dan 1200 ga o'sadi.*

Boshqa tarafdan, valutaning anologik mustahkamlanishi mamlakat ichida xorij mahsulotlarining narxini tushiradi. 2000 dollar narxidagi Compaq komputeri bir yevro uchun 1.08 dollarga to'g'ri keluvchi valuta kursida programmist Pyer uchun 1852 yevroga tushadi. Agar valuta kursi bir yevro uchun 1,02 dollar bo'lsa, computer 1667 yevro bahoga ega bo'ladi.

Yevro narxining tushishi AQShda fransuz tovarlarining narxlari tushishiga olib keladi va ayni shu bilan bir vaqtda Fransiyada Amerika mahsulotlarining narxlari oshishiga olib keladi. Agar bir yevro 0,90 dollar bo'lsa, Vandaga bit litr vino 1080 dollar emas 900 dollarga, Pyer uchun Compaq komputeri 1852 yevrogamas 2222 yevroga tushadi.

Bu turdagi yondashuv quyidagi xulosani keltirib chiqaradi: ***mamlkat valutasi mustahkamlanganda (boshqa xorij valutalariga nisbatan qiymati oshsa), ushbu mamlakatning mahsulotlari qimmatlashadi, mamlakat ichida import tovarlar arzonlashadi. Va aksincha, mamlakat valutasi qadrsizlansa, uning mahsulotlari xorijda arzonlashadi, import tovarlar esa qimmatlashadi.***

Valutaning mustahkamlanishi ushbu mamlakatda ishkab chiqarilgan mahsulotlarning eksportini qiyinlashtiradi va chet elda ishlab chiqarilgan arzon tovarlarning mamlakatda ichki bozorning raqobatini oshiradi. 1980 yildan 1985 yilning boshigacha Amerika sanoati yuqori dollar kursidan zarar ko'rdi.Masalan, AQShning po'lat quyuvchi sanoati nafaqat amerika qimmat po'latining xorijga

[159] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 478

eksport qisqardi, balki AQShda nisbatan arzon import po'latning sotuvi ro'y berdi.To'g'ri, amerikalik iste'molchilar g'alaba qozonishdi, chunki import mahsulotlar arzonlashdi. Yaponiya videomagnitafonlari va kameralari, hamda Yevropaga yo'llanmalarning narxi dollarning mustahkamlanishi tufayli tushdi.[160]

Uzoq muddatli istiqboldagi valuta kurslari.

Valuta kursi ham erkin bozordagi har qanday mahsulotning yoki aktivning narxi talab va taklif nisbati orqali aniqlangandek aniqlanadi. Tahlilimizni osonlashtirish uchun erkin bozordagi valuta kursini ikkita qismga bo'lamiz.Birinchi valuta kursini qanday qilib muddatli davrga o'rnatilishini tahlil qilamiz, keyin olingan bilimlardan foydalangan holda valuta kursini qanday qilib qisqa muddatga o'rnatilishini ko'rib chiqamiz.[161]

Davlatlararo kelishuvlar bilan o'rnatiladigan valyuta munosabatlarini tashkil etishning davlat-huquqiy shakli sifatidagi valyuta tizimi bir vaqtning o'zida paydo bo'lgani yo'q. Uning pul tizimidan ajrab chiqishi va mustaqil kategoriyaga aylanishi qiymat pul shaklining uzoq rivojlanishi hamda pul o'rnini bosuvchilar paydo bo'lishi jarayonida sodir bo'lgan.

Pul tizimi qiymatning pul shakli pul vazifasining noyob metallarga va so'ng oltinga o'tishi bilan vujudga keladi. Bunda pul tizimini tashkil etish asoslari barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan. Bu birinchi navbatda pul metalidan tangalarning erkin zarb etilishi, qiymat belgilarini to'sqinliksiz oltinga almashtirilishi va oltinning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga erkin harakatidan iboratdir.

16.5-jadval

Milliy valyuta kursining o'zgarishiga fundamental omillar ta'siri[162]

№	Ko'rsatkich nomi	O'zgarishi	Mil.val/kursi o'zgarishi
1.	Ichki foiz stavkalar	o'sish «↑»	o'sish «↑»
2.	Xorijiy foiz stavka	o'sish «↑»	pasayish «↓»
3.	Ichki narxlarni kutilgan darajasi	o'sish «↑»	pasayish «↓»
4.	Kutiladigan saavdo cheklovlari	o'sish «↑»	o'sish «↑»
5.	Kutiladigan import darajasi	o'sish «↑»	pasayish «↓»
6.	Kutiladigan eksport darajasi	o'sish «↑»	o'sish «↑»

[160] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets.
PART 5. INTERNATIONAL FINANCE AND MONETARY POLICY. 17. The Foreign Exchange Market

[161]

[162] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets, P, 451

7.	Kutiladigan ishlab chiqarish xajmi	o'sish «↑»	o'sish «↑»

16.7.Valyutaning xarid qobiliyati

Pаritet so'zi, lotinchadan "paritas" so'zidan olingan bo'lib, "muvozanat" degan ma'noni anglatadi. Valyuta pariteti (currency parity) - bir valyutaning boshqasiga almashinuvi mustahkam, rasmiy belgilangan munosabatga aytiladi.

Oltin (kumush) standarti sharoitida valyuta pariteti metall pullarning miqdorligi nisbati orqali aniqlanadi.

Yagona baholar qonuni. Agar A valyuta kursi B valyuta paritetga nisbatan oshsa A mamlakati tovarlarini sotib olish va B mamlakatga eksport qilish ma'qul hisoblanadi.[163]

16.6-jadval

Yagona baxolar qonuni

sotuvchi	**Ichki narx**	**Valyuta kursi**	**Dollarda Xisoblash**	**Dollardagi narxi(paritet)**
Amerika	**190**			**190**
Angliya	**116**	**1,65**	**116*1,65**	**191,4**
Yaponiya	**20000**	**110**	**20000/110**	**181,82**
Angliya	**116**	**1,5**	**116*1, 5**	**174,0**

The Ekonomist jurnali tomonidan chop etiladigan Big Mak indeksi ikkita davlat pul birligining xarid qilish paritetini (XQP) o'lchashning norasmiy yo'li bo'lib, turli mamlakatlardagi bir xil narxdagi tovarlarga nisbatan valyuta kurslarini tadqiq qilishga, valyuta kursi nazariyasini yanada aniqroq baholanishiga yordam beradi. Dastlabki ishlab chiqarilgan kuni 1967 yilda big-mag 47 tsent turar edi. Keyingi yilda u Amerika standartiga aylandi va narxi 49 sentni tashkil etdi. 1986 yildan boshlab The Economist jurnali Big Mac Index xisoblab e'lon qiladi va u paytda uning narxi$1.60 etdi. U paytda 15 mamlakat narxlari berilardi.

Bu indeksning nomi "Mc Donald's" restorantlar tizimida sotiladigan "Big Mac" gamburgeri nomidan olingan. Big Mak indeksi 1986-yilda Ekonomist jurnali muxbiri Pam Vudel tomonidan yarim hazil ko'rinishida birinchi marta tanishtirilgan edi va shundan buyon har yili jurnalda nashr ettirilib kelinadi.

Tadqiqotchilar tomonidan bitta big mak mahsuloti sotib olish uchun mamlakatdagi o'rtacha ishchi sarflashi mumkin bo'lgan vaqt miqdori va boshqa ko'rsatkichlar qo'shilib Big Mak indeksi to'g'risidagi g'oya boyitildi. Indeks

[163]. Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. P.-480

mahalliy ish haqqi singari faktorlar asosida o'rtacha ishchining xarid qobiliyati va boshqa ko'rsatkichlarni nisbatan haqqoniyroq ko'rsatib beradi.

Valyuta kursi harakatini oldindan bashorat qilishning usullaridan biri shuki, har ikkala valyutada ham tovar va xizmatlar savati bir xil narxda bo'lishi uchun valyutalar kursi tabiiy ravishda o'rnatilishi kerak. Big Mak indeksida keng tarmoqli restorantlar tizimida sotiladigan big mak burgeri tovar va xizmatlar savati vazifasini bajaradi. Aynan big mak tanlanganing sababini dunyoning ko'plab mamlakatlari bo'ylab keng tarqalgan "McDonald's" restorantlari tarmog'i orqali narxlar to'g'risida yetarlicha malumot olishning imkoniyati mavjudligi va boshqalar orqali ko'rsatish mumkin. Shu asoslarga ko'ra indeks ko'plab mamlakatlar valyutalarini taqqoslash imkoniyatini beradi.

Keyingi yilda u amerika standartiga aylandi va narxi 49 tsentni tashqil etdi. 1986 yildan boshlab The Economist jurnali Big Mac Indexxisoblab e'lon qiladi va u paytda uning narxi $1.60 etdi. U paytda 15 mamlakat narxlari berilardi.

16.7-jadval

Bigmag indeksini hisoblash

Big mag ichki narxi	***Dollardagi narxi***	***Dollar XKP***	***Dollarga nisbatan kurs***	***farq***
1	*2*	*3*	*4*	*5*
hisoblanishi	*1:2*	*1:2,71*	*o'rnatilgan*	*4-5*
Dollar 2,71	*2,71*	*-*	*-*	*0*
Peso 4,1	*1,40*	*1,51*	*2,88*	*-47*
Real 4,55	*1,44*	*1,68*	*3,07*	*-45*
Funt 1,99	*3,08*	*1,36*	*1,58*	*+16*
YUan 9,90	*1,2*	*3,65*	*8,28*	*-56*
Iena 262	*2,18*	*96,7*	*120*	*-19*
Evro 2,71	*2,89*	*1*	*1,10*	*+10*
Zlotыy 6,30	*1,56*	*2,32*	*3,89*	*-40*

Mazkur jadvalda bigmag indeksini hisoblash va uning ahamiyati ko'rsatilgan. Ya'ni AQShda belgilangan davrda shu maxsulot 2 dollar 71 tsent turadi. Dollardagi xarid qobiliyati mazkur valyutaga bir dollarlik qancha maxsulot to'g'ri kelishini bildiradi. Xarid qobiliyati va o'rnatilgan kurs o'rtasidagi farq davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini izohlaydi. Masalan arzon iena siyosatini yuritadigan Yaponiya o'z valyutasini 19%ga qadrsizlantirib o'z eksport salohiyatini oshirish imkoniyatiga ega. Yevropada esa evro kursi aksincha paritetga nisbatan yuqori o'rnatilgan, bu xududni AQSHga eksport qilish asosiy tashqi iqtisodiy siyosat emasligi va ular ishlab chiqaradiga maxsulotlar raqobatbardosh.[164]

[164] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. P.-481

Big Mak indeksining boshqa variantlari ham yaratilgan . Masalan, 2004-yil yanvarida Ekonomist jurnali Starbaks kofesi asosida “Talle Latte” indeksini ishlab chiqqan.

2007-yilda Avstraliya banki xodimlari Big Mak indeksi g’oyasi asosida “iPod” indeksini yaratishdi. Bu nazariyaning yaratilish sababi “iPod” texnikalari bir joyda ishlab chiqarilishi hamda uning qiymati nisbatan o’zgarmasligi edi. Lekin Xitoyda ishlab chiqarilgan mahsulotni turli joylarga yetkazib berish uchun ketadigan xarajatlarga bog’liq ravishda uning narxi turli joylarda bir-biridan keskin farq qilishini inobatga olinmaganligi sababli nazariya tanqidga uchradi.

Shuningdek, xarid qilish paritetini hisoblashning bu metodi kamchiliklarga ham ega.

Ko’pgina mamlakatlarda “McDonald’s” kabi xalqaro restorantlar mahalliy restorantlarga qaraganda birmuncha qimmatligi va big mak uchun talab hamma joyda bir xil emasligi, mahalliy soliqlarning bir-biridan farq qilishi, raqobat darajasi narxlarga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Bundan tashqari, Gamgurger tayyorlash uchun kerak bo’lgan mahsulotlarning narxi hamma joyda bir xil emas: Bu xarid qilish paritetining valyuta kursidan noto’g’ri farq qilishini keltirib chiqaradi.

Shuningdek “McDonald’s” turli joylarda turlicha tijorat strategiyasini qo’llaydi. Masalan, Fransiyada gamburger narxi €1 ga, Belgiyada €1.50 ga teng. Yoki Nyuyork shahrida gamburgerlarning shahar tashqarisidagidan qimmat bo’lishi big mak narxlarining mamlakat turli hududlarida ham katta farq qilishini ko’rsatadi.

Bundan tashqari big mak turli mamlakatlarda turlicha retsiplarda tayyorlanishi ham uning narxi turlicha bo’lishiga olib keladi.

Shunga qaramasdan, iqtisodchilar ko’pincha xarid qilish paritetini o’lchashning haqqoniy yo’li sifatida Big Mak indeksini misol keltirishadi.

16.8. Savdo balansi, to’lov balansi va ularning holati

T **o‘lov balansi** - xalqaro operatsiyalarning balans hisobvarag‘i bo‘lib, bunda davlatning tovarlar, xizmatlar, kapitallarni olib kirish hamda olib chiqish ko‘rsatkichlarining nisbati ko‘rinishidagi barcha xalqaro aloqalari majmui pulda ifodalanadi.

To‘lov balansi – bu mamlakatning turli tashqi iqtisodiy munosabatlar bo‘yicha chetga to‘laydigan valyuta va chetdan kelib tushadigan valyutalarning xaqiqiy nisbatini o‘zida ifodalovchi, jamlovchi balans xujjatidir.

To‘lov balansi-xalqaro operatsiyalarning balans xisobvarag‘i, ya’ni bu-davlatning tovarlar, xizmatlar, kapitallarni olib kirish hamda olib chiqish ko‘rsatkichlarining nisbati ko‘rinishidagi barcha xalqaro aloqalari majmuining valyutadagi ifodasi.

Buxgalteriya nuqtai nazaridan, to‘lov balansi doimo tenglashgan ko‘rinishda bo‘lishi lozim. Ammo, haqiqatda esa, uning asosiy elementlari, bo‘limlari bo‘yicha tushumlar to‘lovlardan ortiq — aktiv qoldik; to‘lovlarning tushumlardan ortiq bo‘lishi — passiv qoldik xolatlar ko‘proq yuzaga chiqadi.

Shu sababli ham, to‘lov balansini tuzish hamda qoldiqlarni aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

To‘lov balansi quyidagi asosiy bo‘limlardan tashkil topgan:

- savdo balansi, ya’ni tovarlarning olib kirilishi va olib chiqilishi o‘rtasidagi nisbat;
- xizmat va notijorat to‘lovlar balansi;
- o‘z ichiga tovarlar, xizmatlar va bir yoqlama to‘lovlar xarakatini oluvchi joriy operatsiyalar balansi;
- kapital va kreditlar xarakatining balansi;
- rasmiy valyuta zaxiralari bo‘yicha operatsiyalar.

Savdo balansi tovarlar eksporti va importi ko‘rsatkichlaridan tashkil etadi.

Xizmatlar balansi o‘z ichiga transportli tashuvlar, sug‘urta, elektron, telekosmik, telegraf, telefon, pochta va boshqa aloqa turlari bo‘yicha, xalqaro turizm, ilmiy-texnik va ishlab chiqarish malakasining almashinuvi, ekspert xizmatlari, diplomatik, savdo va boshqa vakolatxonalarni xorijda saqlash xarajatlari, ma’lumotlar uzatish, madaniy va ilmiy almashinuvlar, turli komission yig‘imlar, reklama, yarmarkalar hamda boshqalar bo‘yicha to‘lov va tushumlarni oladi.

XVF uslubiga kura, bir tomonlama o‘tkazmalarni alohida bir element qilib ko‘rsatish qabul qilingan. Bularning tarkibiga kuyidagilar kiradi:

- davlat operatsiyalari-boshqa davlatlarga beriladigan iqtisodiy yordam ko‘rinishidagi subsidiyalar, davlat nafaqalari, xalqaro tashkilotlarga beriladigan badallar
- xususiy operatsiyalar-ishchi, mutaxassis, qarindoshlarning o‘z vataniga qiladigan pulli ko‘chirmalari.

Investitsiyadan olinadigan daromadlar xarakati, harbiy tusdagi bitimlar va bir tomonlama o‘tkazmalarni **«ko‘rinmas» operatsiyalar** deb atashadi, chunki ularning moddiy boyliklar xarakatiga hech qanday ta’siri yo‘q.

Joriy operatsiyalar bo‘yicha to‘lov balansi tarkibiga savdo balansi va «ko‘rinmas» operatsiyalar kiradi.

To‘lov balansi tuzishning ayrim uslublari davlatning bir tomonlama o‘tkazmalarini alohida modda bo‘yicha ifoda etishni va uning qoldig‘ini joriy operatsiyalar bo‘yicha qoldiqqa qo‘shmaydi.

Kapital va kreditlar xarakati balansida xususiy va davlat kapitallarining olib kelinishi yoki olib ketilishi, olingan yoki berilgan xalqaro kreditlarning o‘zaro nisbatlari ifoda etiladi.

O‘z iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, bu operatsiyalar 2 kategoriyaga bo‘linadi: tadbirkorlik va ssuda kapitalining xalqaro xarakati.

XVF qo’llanmasiga binoan to’lov balansi moddalari klassifikatsiyasi.

A. Joriy operatsiyalar

Tovarlar

Xizmatlar

Investitsiyalardan daromadlar

Boshqa xizmatlar va daromadlar

Xususiy bir tomonlama utkazmalar

Rasmiy bir tomonlama utkazmalar

Jami A: joriy operatsiyalar balansi.

V. To’g’ri investitsiyalar va uzoq muddatli kapital

To’g’ri investitsiyalar

Portfel investitsiyalar

Boshqa uzoq muddatli kapital

Jami: A+V (AQSHning bazis balansi konseptsiyasigamuvofik)* *

S. Boshqa uzoq muddatli kapital.

D. Xato va xisobga olmaydigan qismlar

Jami; A+V+S+D (AQSH likvidlik konseptsiyasiga muvofik)*

E. Balanslovchi moddalar.

Oltin -valyuta rezervlarining qayta baholanishi,

SDRning taksimlanishi va ishlatilishi..

Oltin -valyuta rezervi xarakati .

F. Caldoni koplashning favkulotdagi manbalari

G. Xorijiy rasmiy kumitalarning valyuta rezervlarini tashqil etuvchi majburiyatlar.

Jami: A+V+S+D+E+F+G (AQSHning bazis balansi konseptsiyasiga muvofik)*

Rezervlarning yakuniy o’zgarishlari.

Oltin

SDR

XVF ning rezerv xolati

Xorijiy valyuta

Boshqa talablar

XVF kreditlari

Xalqaro valyuta fondining ko’rsatmasiga asosan ko’pgina davlatlar to’lov balansini ikki asosiy yunalish bo’yicha: joriy operatsiyalar balansi va kapital bilan moliyaviy operatsiyalar (kapital xarakati) balansini tuzadilar. Bu balanslar aktiv yoki passiv soldo bilan yakunlanishi mumkin.

Joriy operatsiyalar balansi – tovarlar, xizmatlar, joriy transfertlar va daromadlar bo’yicha tashqi iqtisodiy alokalar bo’yicha valyuta tushumi va xarajati o’rtasidagi nisbatni ko’rsatadi. Bu balansning ijobiy (aktiv) qoldig’i mamlakatning boshqa mamlakat uchun kreditlar ekanligini, passiv yoki salbiy qoldiq mamlakatlarning boshqa mamlakatlardan qarzdor ekanligini kurdi.

16.8-jadval

Joriy operatsiyalar balansi

Tushum	**Chiqim**
1.Tovarlar va xizmatlar eksporti 2.Transfertlar: - chet eldagi investitsiyalardan tushum - mazkur davlatdagi chet el fuka-rolarga to’lovlar (pensiya, aliment, sovgalar, pul o’tkazmalari va b.) 3. CHet eldan moliyaviy yordam	1. Tovarlar va xizmatlar importi 2. Transfertlar: - mamlakatdagi chet el investitsiyasidan kelgan daromadlarning tulanishi - chet elliklarga transfert to’lovlari - rezidentlarning chet eldan aktivlar sotib olinishi

	3. CHet elga moliyaviy yordam
Joriy operatsiyalar qoldig'i +	Joriy operatsiyalar qoldig'i -

Joriy operatsiyalari balansi savdo balansi, xizmatlar balansi, joriy transfert to'lovlar balansi, chetdan tushum kabilarni o'z ichiga oladi .

Savdo balansi tovarlar eksporti va importini o'zida ifodalab yil oxirida ijobiy yoki salbiy koldiqqa ega bo'ldi. Balansni tuzganda eksport «+» belgisi bilan import «-» belgisi bilan ifodalanadi va «+» mamlakatga valyuta kelib tushushini «-» mamlakatdan valyuta chikib ketishini ifodalaydi. Boshqacha kilib aytganda savdo balansidan eksport kamchilik olishi to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

To'lov balanslari operatsiyalari xususiyatiga ko'ra ikki asosiy bo'limni o'z ichiga oladi:

1 - bo'lim - joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi:

tashqi savdo operatsiyalaridan tushumlar va savdo balansi;

xizmatlar (xalqaro yuk tashishlar, fraxt, sug'urta va boshqalar) va notijorat (patentlar bo'yicha xisob-kitoblar, texnik erdam) balansi, investitsiya bo'yicha daromad va to'lovlar.

2 - bo'lim - kapital va kredit xarakati balansi (qiska va uzoq muddatli operatsiyalar).

16.9-jadval

AQShto'lov balansi

№	Moddalar nomi	Kirim (+) yoki eksport	Chiqim (-) yoki import	Sof aktiv yoki passiv
I.	Joriy operatsiyalar hisobi			
	Tovarlar	+125	-205	-80
	Tashqi savdo balansining qoldig'i			
	Investitsiyalardan daromadlar (foizlar va daromadlar)	+17	-10	+7
	Pul o'tkazishlar			-82
	Joriy operatsiyalar bo'yicha balansining qoldig'i			
II.	Pul o'tkazmalari	+1	-8	-7
	Investitsiyalar va boshqa o'rta va uzoq muddatli kapital	+53		+53
	Kapital harakati balansining qoldig'i	+58		+58
	Joriy operatsiyalar va kapital harakati bo'yicha balansning qoldig'i			-29
III	Rasmiy rezervlar (oltin, SDR, XVF dagi rezervlar)	+29		+29

Savdo balansi

Tarixiy nuqtai nazardan olib qaraganda ,tashqi savdo- xalkaro iqtisodiy munosabatlarning ilk ko'rinishi bo'lib milliy xo'jaliklarning jahon hamjamiyatiga aloqasini ifodalaydi.Xalqaro savdo orqali dunyoda mehnat taqsimotiga binoan

mamlakat istiqboli belgilab beriladi.Tashqi savdo ko'rsatkichlari to'lov balansida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.Tovarlar eksporti va importi ko'rsatkichlari savdo balansining asosini tashkil etadi.[165]

Hisob-kitob balansi- mamlakatni boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlari va talablari o'rtasidagi nisbat. Odatda, hisob-kitob balansi yilning oxiriga yoki boshiga tuziladi.

Hisob-kitob balansida mazkur mamlakatning boshqa davlatga bergan kreditlari va kiritgan investitsiyalari, shunungdek, mazkur mamlakatni boshqa davlatlardan olgan kreditlari va ularning kiritgan investitsiyalari aks ettiriladi.

Hisob-kitob balansi- mamlakatni boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlari va talablari o'rtasidagi nisbat. Odatda, hisob-kitob balansi yilning oxiriga yoki boshiga tuziladi.

Hisob-kitob balansida mazkur mamlakatning boshqa davlatga bergan kreditlari va kiritgan investitsiyalari, shunungdek, mazkur mamlakatni boshqa davlatlardan olgan kreditlari va ularning kiritgan investitsiyalari aks ettiriladi.

To'lov va hisob-kitob balanslari o'rtasidagi farq ushbu mamlakatning xalqaro kredit munosabatlarining rivojlanganlik darajasini anglatadi. Bu mamlakatning majburiyatlari va talablari o'rtasidagi uzilish hisobidan vujudga keladi. Bunga esa qator ijtimoiy-iqtisodiy obyektiv va subyektiv sabalar mavjud.

To'lov balansi tuzishning muhim masalalaridan biri - bu, uning sal'dosini o'lchashdir. Ushbu masala keng ko'lamdagi, ya'ni alohida xalqaro bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqligidan tortib jadval tuzishning tarkibiy tuzilishigacha bo'lgan savollarni qamrab oladi hamda to'lov balansi nazariyasi va amaliyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

To'lov balansining kamomadi yoki aktiv sal'dosining qabul qilingan aniqlash uslubi - bu, to'lov balansini asosiy va balanslovchi moddalarga bo'lishdir. Asosiy moddalarning sal'dosini "to'lov balansining sal'dosi" deb atashadi. Ushbu miqdorning ijobiy yoki salbiy bo'lishiga qarab esa uni to'lov balansining aktivi yoki kamomadi deb atashadi.

To'lov balansining sal'dosi muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Uning miqdori yalpi ichki mahsulot va milliy daromad hisob-kitobiga kiritiladi, valyutaning holatiga, ichki hamda tashqi siyosatni olib borish vositalarining tanloviga ta'sir etadi. Bundan to'lov balansi sal'dosini o'lchash paytidagi eng muhim muammo sifatida moddalarni asosiy yoki balanslovchi moddalarga tasniflash muammosi maydonga chiqadi.

To'lov balansi sal'dosi tushunchasi operatsiyalar ma'lum bir to'plamining balans yakuniga aloqadordir. Ushbu tushuncha principial xarakterga egadir. To'lov balansining aktivligi yoki passivligi ko'rsatkichi doim muvozanatda bo'lgan yalpi to'lov balansining xarakteristikasi sifatida qabul qilinishi kerak emas. To'lov balansi sal'dosining ko'rsatkichi tuzilmaviy bo'lib hisoblanadi. Uning katta-kichikligi birinchi navbatda ushbu moddalar yakunini ifodalovchi moddalar tanloviga bog'liq. Bunday tanlov o'z holicha bo'lishi kerak emas. U ma'lum bir maqsadga bo'ysungan va o'zida taalluqli tahliliy yondoshuvni aks ettirmoqi lozim.

[165] Fredric S. Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. P.-505

17-Mavzu. Xalqaro moliya institutlari, ularning maqsadi va funksiyalari

REJA:

17.1. Xalqaro moliya tashkilotlariga umumiy tavsif va ularning turlari

17.2. Xalqaro Valyuta Fondi va uning xalqaro valyuta-kredit munosabatlaridagi faoliyati

17.3. Jahon banki guruhi va ularning o'ziga xos xususiyatlari

17.4. O'zbekiston Respublikasining Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligi

17.1. Xalqaro moliya tashkilotlariga umumiy tavsif va ularning turlari

Xalqaro moliya tashkiloti – bu bir va undan ortiq mamlakat tomonidan tashkil etilgan va xalqaro huquq talablariga bo'ysinuvchi moliya muassasasidir. Boshqa bir xalqaro muassasalar va tashkilotlar XMTning aksiyadorlarini tashkil etsada, odatda, uning egasi milliy hukumatlar hisoblanadi. Eng keng tarqalgan XMT turi - turli millatli moliya tashkilotlari hisoblanadi, lekin XMT hisoblanuvchi ikki mamlakat birgalikda tuzgan moliya tashkilotlari ham mavjud. Eng mashhur XMT tashkilotlari 2-Jahon Urushidan keyin tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi Yevropani qayta qurishda ko'mak berish va jahon moliya tizimini boshqarishdagi xalqaro hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan edi.

Turlari

Ko'p tomonli (ikkidan ortiq davlat ishtirokida tuzilgan) rivojlanish banki (MDB) bir qancha mamlakatlar tomonidan tashkil etilgan muassasa bo'lib, rivojlantirish maqsadida moliyaviy va professional maslahatlar beradi. MDB rivojlangan *donor mamlakatlar* va rivojlanayotgan *qarz oluvchi mamlakatlar* ishtirokida yirik a'zolar ko'lamiga ega. MDB bozor qiymatida uzoq muddatli qarzlar shaklida, bozor qiymatidan past narxda juda uzoq muddatli qarzlar (kreditlar) shaklida hamda grantlar shaklida loyihalarni moliyalashtiradi.

Quyidagilar asosiy MDB tashkilotlari hisoblanadi:

- Jahon Banki
- Xalqaro Qishloq xo'jaligi Taraqqiyoti Fondi (IFAD)
- Yevropa Investitsiya Banki (EIB)
- Islom Taraqqiyot Banki (IsDB)
- Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB)
- Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD)
- CAF – Lotin Amerikasi Taraqqiyot Banki (CAF)
- Inter-Amerika Taraqqiyot Banki Guruhi (IDB, IADB)
- Afrika Taraqqiyot Banki (AfDB)
- Osiyo Infratuzilma Investitsiya Banki (AIIB)

Shuningdek, yana bir qancha sub-mintaqaviy ko’p tomonlama rivojlanish banklari mavjud. Ularning a’zolik ko’lami, odatda, faqatgina qarz oluvchi davlatlar bilan cheklanadi. Ya’ni banklar xalqaro kapital bozorlaridan qarz olib, a’zo davlatlarga taqdim etishadi. Chunki bu a’zo davlatlarning o’zi yakka holda qarzni olganiga nisbatan birmuncha arzon narxda tushadi va qarzni to’lab berish uchun javobgarlikni taqsimlaydi. Bunday banklarga quyidagilar kiradi:

- Karib Taraqqiyot Banki (CDB)
- Markaziy Amerika Iqtisodiy Integratsion Banki (CABEI)
- Sharqiy Afrika Taraqqiyot Banki (EADB)
- G’arbiy Afrika Taraqqiyot Banki (BOAD)
- Qora Dengiz Savdo va Taraqqiyot Banki (BSTDB)
- Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti Savdo va Taraqqiyot Banki (ETDB)
- Yevrosiyo Taraqqiyot Banki (EDB)
- Yangi Taraqqiyot Banki (NDB) (oldingi BRICS Taraqqiyot Banki)

Bundan tashqari, bir qancha ko’p tomonlama moliyaviy muassasalar (MFI) ham mavjud. MFI xuddi MDB ga o’xshash tashkilotlardir, lekin ular yanada chegaralangan a’zolik ko’lami va faqatgina ma’lum loyihalarni moliyalashtirishiga ko’ra farq qiladi. Ular:

- Yevropa Kommissiyasi (EC)
- Xalqaro Immunizatsiya Moliya liniyasi (IFFIm)
- Xalqaro Qishloq xo’jaligi Taraqqiyoti Fondi (IFAD)
- Nordic Investitsiya Banki (NIB)
- OPEK Xalqaro Taraqqiyot Fondi (OFID)
- Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun Golland Moliya Kompaniyasi (FMO)
- Jahon Investitsiya Banki (IIB)
- Afrika Iqtisodiy Taraqqiyoti Arab Banki (BADEA)

Bretton Woods tashkilotlari

Eng mashhur xalqaro moliya muassasalari (IFI) 2-Jahon Urushidan so’ng Yevropani qayta qurishda ko’mak berish va jahon moliya tizimini boshqarishdagi xalqaro hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishni ta’minlash maqsadida tashkil etilgan. Ularga Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Fondi (IMF) va Xalqaro Moliya Korporatsiyasi kiradi. Bugungi kunda eng yirik IFI Yevropa Investitsiya Banki bo’lib, 2011-yilda jami bo’lib dunyo bo’yicha 61 milliard yevrolik loyihalarni moliyalashtirgan.

Mintaqaviy taraqqiyot banklari

Mintaqaviy taraqqiyot banklari bir nechta mintaqaviy muassasalardan tashkil topgan bo’lib, ular Jahon Banki Guruhi kabi faoliyat yuritadilar, lekin faqatgina ma’lum mintaqalarga asosiy e’tibor qaratgan holda. Ushbu banklarning eng taniqlilari Birlashgan Millatlar Tashkilotining mintaqaviy guruhlariga deyarli mos bo’lgan mintaqalarni qamrab oladi, ular tarkibiga Inter-Amerika Taraqqiyot Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki, Afrika Taraqqiyot Banki, Markaziy Amerika Iqtisodiy Integratsion Banki hamda Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki kabilar biradi. Islom Taraqqiyot Banki yetakchi banklardan biri hisoblanadi. Ushbu bank a’zolik ko’lami bo’yicha Jahon Bankidan keyin turuvchi yagona ko’p tomonlama

taraqqiyot banki hisoblanadi. Osiyo, Afrika, Yevropa va Lotin Amerikasi qit'alari bo'ylab 56ta a'zo mamlakatga ega.

Ikki tomonlama taraqqiyot banklari va agentliklari

Ikki tomonlama taraqqiyot banki bitta alohida mamlakat tomonidan tashkil etilgan, rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning bozorlarini shakllantirish loyihalarini moliyalashtirish maqsadida tuzilgan moliyaviy muassasadir. Ularga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Nederlandiya Taraqqiyot Moliya Kompaniyasi FMO, bosh offisi Gaagada joylashgan; dunyo bo'yicha eng yirik ikki tomonlama taraqqiyot banklaridan biridir.
- DEG – Germaniya Investitsiya Korporatsiyasi yoki Deutsche Investitions- und Entwicklungsgesellschaft, bosh offisi - Köln, Germaniya
- Fransiya Taraqqiyot Agentligi va Caisse des dépôts – 1816-yilda tashkil etilgan, ikkala tashkilot ham Paris, Fransiyada bosh offisi mavjud.

Boshqa mintaqaviy moliyaviy muassasalar

Qo'shni mamlakatlarning o'zaro birlashgan holda umumiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalarni moliyalashtirish maqsadida tuzilgan moliyaviy muassasalaridir. Ularning ko'chiligi markaziy banklar, taraqqiyot va investitsiya banklaridir.

17.2. Xalqaro Valyuta Fondi va uning xalqaro valyuta-kredit munosabatlaridagi faoliyati

X alqaro Valyuta Fondi – bu davlatlarga kredit beruvchi, jahon valyuta tizimining faoliyat yuritishi uchun tamoyillar ishlab chiqaruvchi, xalqaro valyuta - kredit va moliyaviy munosabatlarni xalqaro boshqarishni amalga oshiruvchi xalqaro institutdir.

Xalqaro Valyuta Fondiga a'zo bo'lgan mamlakatlar boshqa a'zolarni boshqa davlatlarning valyutalariga nisbatan milliy valyutasining qiymatini aniqlashda qo'llayotgan mexanizmi haqida ma'lumot berishi, milliy valyutasini chet el valyutasiga ayirboshlashda cheklovlar qo'llashdan saqlashi hamda Xalqaro Valyuta Fondiga kiruvchi barcha davlatlar hamjamiyatining milliy boyligi va holatining o'sishiga asoslangan iqtisodiy siyosatni o'tkazishi lozim. Oldin aytilganidek, Xalqaro Valyuta Fondi o'z a'zolarini bu qoidalarga rioya etmasliklariga majburlay olmaydi, ammo tashkilot a'zo-davlatlari ixtiyoriy ravishda rozi bo'lgan qonun-qoidalarga rioya etishlariga erishish uchun, ularga ma'naviy bosim o'tkazishi mumkin. Bunda, Xalqaro Valyuta Fondi, so'zsiz, undan kredit olgan mamlakatga kuchli ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar davlat doimiy ravishda Xalqaro Valyuta Fondi oldidagi majburiyatlarini bajarmasa, qolgan a'zo-davlatlar Xalqaro Valyuta Fondi orqali jinoyatchi-davlatdan kredit olish huquqini olib tashlashlari, yoki eng so'ngi chora sifatida davlatga tashkilotdan chiqib ketish taklifi bilan chiqishlari mumkin. Ammo, odatda, davlat Xalqaro Valyuta Fondining umumiy muammolarini birgalikda echishga intiladi (aks holda u tashkilotga a'zo bo'lmagan bo'lar edi) va har qanday bajarilmagan majburiyat a'zo-davlat tomonidan bartaraf qila olmagan omillar bilan tushuntiriladi.

Turli davrlarda a’zo mamlakatlar Xalqaro Valyuta Fondi oldiga jahonda yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiquvchi turli masalalarni qo’yishgan va tashkilot o’z huquqlari doirasida bu muammolarni echishda mahorat ko’rsatgan. Hozirgi davrda a’zo mamlakatlar Xalqaro Valyuta Fondi oldiga bir qator majburiyatlarni qo’yganlar: milliy valyutalarning ayirboshlanishining umumiy tizimi ustidan nazorat olib borish, a’zo-davlatlarga tizim doirasida yanada chuqurroq hamkorlik qilish imkoniyatlarni yaratish uchun iqtisodiyotni qaytadan qurishga kredit berish, shuningdek, boshqa xizmatlar: texnik yordam ko’rsatish, kadrlardan haqiqiy professionallarni tayyorlashda ko’maklashish va boshqalar.

Xalqaro Valyuta Fondi quyidagi maqsadlar amalga oshirish yo’lida faoliyat olib boradi:

- valyuta siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;
- valyuta siyosati sohasida balanslashtirilgan o’sishga ko’maklashish;
- yuqori darajadagi bandlik va real daromadlarni qo’lla-quvvatlash va stimullashtirish uchun jahon savdosining balanslashtirilgan o’sishini mustahkamlash, iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi sifatida barcha a’zo-davlatlarning ishlab chiqarish potentsialini rivojlantirish;
- valyutalar barqarorligini ushlab turish va a’zo-davlatlar o’rtasidagi valyuta munosabatlarini tartiblashtirish, shuningdek, valyutalar devalvatsiyasiga to’sqinlik qilish;
- ko’p tomonlamali to’lov tizimini yaratishda qatnashish, shuningdek, valyutalar transfertidagi chegaralarni olib tashlash;
- a’zo-davlatlarning balanslashtirilmagan to’lov balanslarining likvidatsiyasi uchun mablag’ taklif qilish.

Bu masalalarni echish uchun Xalqaro Valyuta Fondi tamoyil va funktsiyalar ishlab chiqdi:

- boshqarishdan bosh tortish maqsadida xalqaro valyuta tizimi yoki valyuta kursi bilan manipulyatsiyani ta’qiqlash;
- valyuta inqirozini tugatish uchun valyuta bozorlarida interventsiya o’tkazishning majburiyligi;
- har bir mamlakat uchun o’z siyosatida hamkorining manfaatlari interventsiyasini hisobga olish majburiyligi.

Xalqaro Valyuta Fondining quyidagi funktsiyalari mavjud:

- kelishilgan tartib qoidalar kodeksiga amal qilish (xalqaro valyuta siyosati va davlatlararo to’lov oboroti sohalaridagi hamkorlik);
- to’lov balansi taqchilligini bartaraf etish uchun moliyaviy yordam berish;
- maslahatlar berish va hamkorlik qilish.

Xalqaro Valyuta Fondi faoliyatining asosiy yo’nalishlariga a’zo bo’lib ular to’lov balanslarini hamda tashqi qarularni nazorat qilish ham kira. Xalqaro Valyuta Fondining MBRR, PROON, Parij va London klublari ular bilan o’zaro munosabati kengaymoqda.

To’lov balansi va tashqi qarzlarni nazorat qilish sohasida Xalqaro Valyuta Fondi a’zo bo’lib ularga o’z iqtisodiyot siyosatlarida ma’lum o’zgartirishlar kiritish sharti bilan kreditlar ajratadi. Kredit olishdan oldin qarzdor davlat Fond bilan moliyaviy-iqtisodiy barqarorlashtirish dasturini kelishadi, valyuta mablag’larini berish shu dasturning bajarilishiga bog’liq holda qoladi.

Xalqaro Valyuta Fondi bilan bunday dastur va shartnomalarning mavjudligiga odatda davlatlarning to'lovga qobiliyati to'g'risidagi halqaro guvohnom sifatida qaraladi.

Xalqaro Valyuta Fondi qarzlarni nazorat qilish sohasida Jahon Banki bilan o'zaro faol hamkorlik qilmoqda.

Xalqaro Valyuta Fondi ning boshqaruvi shartnoma moddalariga mos holda amalga oishriladi. Xalqaro Valyuta Fondining boshqaruv strukturasiga Boshqaruv Kengashi, Vaqtinchalik Komitet, Rivojlantirish Komiteti, Ijro etuvchi Kengash, Boshqaruvchi hamda xodimlar kiradi.

Boshqaruv Kengashi – Xalqaro Valyuta Fondining oliy boshqaruv organi hisoblanib, unga har bir davlatdan bittadan 5 yilga tayinlanadigan boshqaruvchi va ularning o'rinbosarlari kiradi. Odatda boshqaruvchi va ularning o'rinbosarlari moliya vazirlari yoki Markaziy banklarning boshqaruvchilari bo'lgani uchun, ular o'z hukumatlari nomidan ish yurita oladilar. Boshqaruv Kengashi yilda bir marta sessiya o'tkazadi, ammo pochta orqali ovoz berish yo'li bilan qarorlar qabul qilish ham mumkin. Vaqtinchalik Komitet Boshqaruv Kengashi a'zolariga xalqaro valyuta tizimini shakllantirish bo'yicha masalalar borasida maslahatlar bersa, Xalqaro Valyuta Fondi va Jahon bankining qo'shma komiteti kambag'al davlatlarning ehtiyojlari to'g'risida ularga ma'lumot beradi.

Vaqtinchalik Komitet – Ijro etuvchi kengashning qarorlarini bajaradi. Xalqaro Valyuta Fondi ning boshqaruvchilari, vazirlari yoki boshqa rasmiy shaxslardan tashkil topadi (24 kishidan). Vaqtinchalik Komitet yilda ikki marta yiqiladi va Boshqaruv Kengashi oldida xalqaro valyuta tizimining shakllantirilishi va boshqarilishi to'g'risida hisobot beradi, shuningdek, shartnoma moddalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflar bilan chiqadi.

Rivojlantirish Komiteti ham 24 kishidan: Xalqaro Valyuta Fondi boshqaruvchilari, vazirlari yoki rasmiy shaxslardan tashkil topadi, Xalqaro Valyuta Fondining Boshqaruv Kengashi oldida hisobotlar beradi va yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi.

Ijro etuvchi kengash – Xalqaro Valyuta Fondining muhim bo'qini bo'lib, kengash operatsion va administrativ xarakterdagi masalalarni ko'radi, shuningdek, a'zo-davlatlarga nisbatan Fondning siyosatiga doir masalalar bilan shug'ullanadi. Ijro etuvchi kengash tarkibiga 24 direktor kiradi, ularning haftada kamida 3 marta rasmiy uchrashuvi bo'lib o'tadi. Kengash direktorlari Boshqaruv kengashi orqali a'zo-davlatlar tomonidan oilb borilayotgan siyosatni kuzatib boradilar. Hozirgi kunda ijroiya direktorlaridan 8 tasi 1tadan davlat nomidan ish olib boradi: Germaniya, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, qo'shma qirollik, qo'shma shtatlar, Frantsiya va Yaponiya. qolgan 16 ta ijroiya direktorlari mamlakatlar guruhi nomidan ish yuritadi. Ijro etuvchi kengash kamdan-kam hollarda qarorlarni rasmiy ovoz berish yo'li bilan qabul qiladi, buning o'rniga a'zolar pozitsiyasining to'liq roziligini ta'minlashga harakat qilinadi, bunda muhim masalalar bo'yicha fikrlar to'qnashuvining minimal darajasiga hamda qabul qilib bo'lingan qarorlarga umumiy tarzda rozi bo'lishga erishiladi.

Boshqaruvchi – Ijro etuvchi kengash tomonidan saylanadi hamda Ijro etuvchi kengashni boshqaradi va tashkilotning bosh personali hisoblanadi. Ijro etuvchi kengash boshqaruvi ostida boshqaruvchi Xalqaro Valyuta Fondining kundalik

faoliyatiga javob beradi. Boshqaruvchi 5 yilga tayinlanadi va keyingi muddatga yana qayta saylanishi mumkin.

Haftasiga kamida 3 marta 24 ijro direktorlari ning rasmiy Boshqaruv Kengashi orqali qabul qilingan siyosatining olib borilishini nazorat qiladilar.

Hozirgi kunda 8 ijro direktori 1 tadan davlatga ma'sul: Germaniya, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabiston, Qo'shma Qirollik, AQSh, Frantsiya va Yaponiya. Boshqa 16 ijro direktori esa qolgan davlatlardan tuzilgan guruhlarga ma'sul.

Xalqaro Valyuta Fondi "Bretton Woods" shartnomasiga kora davlatlar to'lov balansidagi muamolarni yechishga yordam berish va qatiy o'rnatilgan davlatlar o'rtasidagi foiz siyosatini belgilashga yordam berish maqsadida tuzilgan. 1971 yilda Bretton Woods ning qatiy o'rnatilgan almashinuv kursi tugatilgandan keyin XVF yangi qonunlarni qabul qildi.

XVF ga azo mamlakatlar bir birlari uchun malumot yig'uvchi hamda texnik yordam beruvchi mamlakatlar bo'lgan. Shunga qaramay XVF o'zining qatiy belgilangan almashinuv kursini oshirishga uzoq vaqt mobaynida harakat qilmadi, uning xalqaro qarz beruvchi sifatidagi o'rni ko'proq muhim bo'lib boraverdi. Ayniqsa uchinchi Jahon qarz inqirozi davrida yani 1980 yillarda XVF ning qarz beruvchi sifatidagi roli birinchi bo'lib paydo bo'lgan va XVF rivojlanayotgan mamlakatlarning qarzlarini qaytarishga ko'maklashgan. Mexicodagi 1994-1995 va sharqiy Osiyodagi 1997-1998 yillardagi moliyaviy inqiroz bu davlatlarni moliyaviy inqirozdan chiqish maqsadida XVF dan katta miqdorda qarz olishga sabab bo'ldi. Buning natijasida ular inqirozni boshqa mamlakatlarga yuyilshini oldini olib qoldilar. Shundan keyin 2010 yilda boshlangan inqiroz Gretsiya, Irlandiya va Portugaliya mamlakatlari uchun o'z davlat qarzlaridan qutilish maqsadida katta miqdorda XVF didqan qarz olishni taqazao qildi. Va nihoyat XVFning Xalqaro qarz beruvchi sifatidagi oxirgi va muhim roli bu mamlakatlarni inqirozdan saqlab qolish.

Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotidagi mamlakatlarning markaziy banklari shuning uchun ham oxirgi qarz beruvchi vazifasini muvofaqiyatli bajarishi uchun har doim kam imkoniyati bo'ladi. Biroqbuni taminlashning yagona yo'li sifatida likvidlilikni keltirish mumkin, va millity valyutani barqarorligiga yordam beruvchi omillar va to'lov balansini mustahkamlashni kiritishimiz mumkin, qolaversa Xalqaro qarz beruvchi sifatidagi yana bir vazifa bu bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar milliy valyutasini keng mamlakat bo'ylab yoyilishiga va uni barqarorligini taminlashga yo0rdam beradi chunki buni mamlakat ichida yakka tartibda moliyaviy qo'llab quvvatlashlarsiz hakl etib bo'lmaydi, Chunki Meksikadagi 1994 yilgi inqirozda XVF va boshqa moliya institutlari oxirgi qarz beruvchi vazifasini bajarib mamlakat iqtisodiyotini yo'qotishlardan saqlab qolib barqarorligini taminlagan.

Xalqaro tashkilotlar uchun vujudga kelayotgan muammolardan biri XMT oxirgi kreditor vazifasini bajarmoqda . Agar u kredit olayotgan davlatga yordam bera olmasa bu mamlakatda riskning kuchayishi va siyosiy niobarqarorlikka ham olib kelishi mumkin. Inqiroz bo'layotgan davlatdagi siyosat bu muammolarni amalga oshirishi mumkin. Shuningdek bunda xalqaro kredit beruvchilar oxirgi boshqichdagi hisoblanadi. Ular XMTning saqlab qolishiga umid qiladilar. Bunday

holatlar 1995-yilgi Meksikada bo'lgan inqiroz davrida va Osiyo inqirozi davrida Indoneziyada kuzatilgan.

XVF shuningdek sharqiy osiyo mamlakatlariga nisbatan qattiq siyosat qo'llab, iqtisodiy inqiroz davrida moliyaviy sektorda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan mikroiqtisodiy siyosat o'rnida makroiqtisodiy siyosat yuritganlikda ham tanqid qilingan. Ushbu dasturlar asosan rivojlanayotgan mamlakatlarning XVF talablariga mos kelishi uchun ishlab chiqilgandi. XVF dasturlari mikro iqtisodiy siyosatda moliyaviy sektorda XVFning samarali tizimni yaratishda yordam qo'lini cho'zish ehtimolini kuchaytiradi.

Tarixan ma'lumki, so'ngi chora sifatida beriladigan kreditlar qanchalik erta berilsa, ularning summasi shunchalik kam bo'ladi. Ushbu fikrga 1987-yil 19-oktabrda kapital bozoridagi inqiroz yaqqol misol bo'la oladi. Kun oxiriga kelib, qimmatli qog'ozlarni sotish bilan shug'ullanadigan firma va mijozlarning hisobraqamlariga xizmat ko'rsatish uchun bir necha milliard dollar kerak bo'ldi. Ushbu misli ko'rilmagan holatda banklar ularga kredit berishga unchalik shoshilmadi. So'ngi instansiya sifatida chiquvchi XVF kreditga ta'minot sifatida Federal rezerv qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi firma qarz, banklar likvidligini ta'minlashini bildirdi. Ushbu holatdan shu xulosa qilinadiki, Federal rezerv tizimining o'z vaqtida aralashuvi kapital bozoridagi halokatning iqtisodiyotga sezilmas ta'sir ko'rsatishiga erishildi, Federal rezerv tizimi bo'yniga olgan likvidlik esa unchalik ham katta miqdorda emas edi.

Federal rezerv tizimi o'sha kuni o'zi so'ngi instansiyadagi kreditor bo'lishi mumkin edi. XVFga rivojlanayotgan mamlakatlarda inqiroz sharoitida ta'minotni aniqlashga ko'p vaqt talab etilishi mumkin. XVFni tashkil etilayotganda, u faqat mamlakat to'lov balansida inqiroz sodir bo'lgandagina kredit berilishi ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari kreditlash shartlari hukumat bilan muzokaralarda aniqlashtiriladi. Ko'rinib turibdiki XVF tomonidan kredit ajratilishi uchun bir necha oy muddat o'tib ketadi. Ushbu muddatga kelib, inqiroz anchagina chuqurlashadi va uni bartaraf etish uchun tanada ko'p mablag' talab etadi, bunda jamg'arma resurslaridan oshib ketish holatlari bo'lgan. Markaziy banklarning XVFdan ko'ra tezroq kredit berishiga yana bir sabab, ularda oldindan kelishilgan holatlar mavjud bo'ladi. Qarzdor bunday banklar tegishli nazorat sifatida sharoitlar, javob yoki past byudjet kamomadini ushlab, agar tez mavjud mablag'larni: avans mablag'larini boshqarish qobiliyatini saqlab qolish uchun likvidlik tez ta'minlash uchun ehtiyoj oxirgi chora harakat qarz beruvchi uchun bir xil talablarini ko'rsatadi.

XVFning kredtilash amaliyotidagi yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklar, rivojlanayotgan mamlakatlarning XVF bilan munosabatlardan uzoqlashuviga olib keldi. Mamlakatlar qattiq iqtisodiyotning dasturlari talablarini bajarishni istashmadi, shuningdek ular XVFning inqiroz davridagi mablag'larni taqsimlashdagi ushlanib qolishlardan norozi edi. Mamlakatlar XVFga alternativ sifatida, o'zlari savdo balansidagi muammolarni bartaraf etish uchun turli xalqaro rezervlar yarata boshladi.

Jahon moliyaviy inqirozi va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi

Rivojlanayotgan bozorli mamlakatlardagi moliyaviy institutlar past sifatli ipoteka kreditlari ta'sirining cheklanganligi, ipoteka inqirozining boshlang'ich bosqichida

ularning iqtisodiyotiga sezilmaydigan ta'sir ko'rsatdi. 2008-yilning oktabrida moliyaviy inqiriz eng xavfli darajasiga yetdi, ko'plab rivojlanayotgan bozorli mamlakatlar, jumladan Islandiya va sobiq kommunistik davlatlar o'z mahalliy banklarini bosim ostiga qo'yibgina qolmay, davlatlarning milliy alyutasining ham qadrsizlanishiga olib keldi.

Hozirda XVFning so'ngi xalqaro kreditor sifatidagi roli ahamiyati ortmoqda. Shunda, Oktabr oyining oxirida XVF Vengriyaga 25 milliard AQSh dollari, Ukrainaga 16.5 milliard AQSh dollari va Islandiyaga 2 milliard AQSh dollari miqdorida kredit ajratdi. Ushbu kreditlar mamlakatlarga o'z moliyaviy tuzilmalarini tartibga solish maqsadida ajratilgan edi.

XVF boshqaruvchi direktori Dominique Straus-Khan quyidagi fikrlarni aytib o'tgan edi, "noodatiy vaziyatlar noodatiy usullarni talab qiladi", shunga ko'ra mamlakatlarga berilghan kreditlarni inqiroz davrida qaytib olish uchun yangicha turdagi qarz berishni topish lozim edi. Shunga ko'ra 2008-yil oktabri oxirida XVF yangi turdagi Qisqa muddatli likvidlik xizmatini joriy etdi va 100 milliard miqdorda kredit berishni boshladi. Bu qarz XVF tomonidan iqtisodiyoti bosim ostida deb topilgan mamlakatlarga 3 oy muddatga berilgan. Ushbu turdagi kreditlar tezda to'lab berilishi lozim edi. Qo'shimchasiga ushbu kreditlarda qattiqqo'llik dasturlari yo'q edi, bu esa ushbu kreditlarning qarz oluvchi mamlakatlar uchun yanada jozibador qilardi.

1999-yilda ham XVF shunga o'xshash Kontingent kredit liniyasi nomli kredit turini joriy qilgan edi, biroq bu dastur muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Chunki bu kreditni olish uchun mamlakatlar XVFdan oldindan ruxsat olishlari lozim edi, bunga esa mamlakatlar huddi muammoli vaziyatga tushib qolgandek ko'rinmaslik uchuin rozi bo'lishmagan. Qisqa muddatli likvidlik va boshqa turdagi qarzlar yuqoridagi kabi oldindan tasqid olishi shart emas. XVF shunchaki mamlakatning kreditni qaytara olishini o'rganib chiqadi holos.

XVFning eng so'ngi kredit instansiyasi sifatidagi rolining foydasi haqidagi qizg'in bahslar hozirgi kunga qadar davom etadi. Asosiy e'tibor uning kreditlash rolini yanada mukammallashtirishga qaratilmoqda. Hozirda jamg'armani qayta qurish, moliyaviy nostabillikni kamaytirishga qodir yangi xalqaro moliyalashtirish arxitekturasini yaratish bo'yicha takliflar ilgari surilmoqda.[166]

17.3. Jahon banki guruhi va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Jahon Banki tarkibidaga 5 ta tashkilot kiradi:

1.Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki daromadi o'rta darajadagi davlatlarga yordam beradi. XTTB o'zining mablag'ini asosan xalqaro moliya bozoriga obligasiyalarni sotish yo'li bilan tashkil qiladi.

2. Xalqaro Taraqqiyot Assosiasiyasi - 1960- yilda tuzilgan bo'lib, asosan kambag'al davlatalar va aholi jon boshiga daromadi $885 gacha bo'lgan davlatlarga yordam beradi, foizsiz qarzlar beradi, texnik loyihalarni moliyalashtiradi va siyosiy muammolar bo'yicha yordam beradi.

[166] Frederic Mishkin The Economics of Money, Banking and Financial Markets (Global edition 11th Edition) 518-522 p.

3.Xalqaro Moliya Korporasiyasi 1956 – yilda xususiy sektorga hukumat kafolatlarisiz investisiya berib, uning rivojlanishiga ko'maklashish uchun tuzilgan.

4.Investisiyalarni Kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy investorlarga ko'maklashish uchun tuzilgan,bundan maqsad investorlarni notijoriy xatarlardan (ya'ni, huquqiy yoki siyosiy xatarlardan urush, siyosiy larzalar, milliylashtirish xataridan investisiya beriladigan mamlakat hukumatining hatti-harakatlaridan) himoya qilishdir.

5.Investision kelishmovchiliklarni tartibga solish xalqaro markazi kelishmovchiliklarni tartibga solishni investor davlatlar va investisiya oluvchi davlatalar o'rtasidagi investisiyaga tegishli munozarali savollarining kelishuvi yoki muhokamasi ishlarini ta'minlash orqali amalga oshiradi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki II-jahon urushidan keyin Yevropani qayta qurishga yordam berish maqsadida 1944- yilda tashkil etildi. Hozirgi kunda XTTB o’rta rivojlanga mamlakatlarni kredit va boshqa turdagi ko’maklar bilan taminlaydi.

Tiklanish va taraqqiyot xalqaro banki (XTTB, Tiklanish va taraqqiyot Xalqaro Bank) - Jahon bankining asosiy kredit muassasasi. Uning nizomi rasman BMT va Jahon banki shartnomalari qaroriga asosan va 1944 yilda Bretton-Vuds xalqaro valyuta va moliya konferensiyasi qaroriga muvofiq kuchga kirgan hisoblanadi, XTTB İMF bilan birgalikda tashkil etilgan ixtisoslashgan agentligi, davlatlararo investitsiya institute hisoblanadi, - Tiklanish va taraqqiyot xalqaro banki Vashingtonda - 1945 yildan boshlab, lekin bank Jahon banki tarkibida rasman 1946 yilda faoliyat boshlagan.

Tiklanish va taraqqiyot xalqaro banki Ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiyotni qayta tiklash Evropa mamlakatlarga yordam 1944 yilda tashkil etilgan. Bugungi kunda Jahon banki asosan o'rta daromadli mamlakatlarda kredit va boshqa yordam shakllarini beradi.

XTTB - Jahon banki muassasalari ichida birinchi yirik muassasa hisoblanib uning maqsadi - rivojlanayotgan mamlakatlar qashshoqlikni kamaytirishga yordam va iqtisodiy o'sishga erishish va farovonligini oshirish, Jahon banki guruhining boshqa institutlari bilan yaqindan hamkorlik. XTTB aktsiyadorlari 188 a'zo davlatlar 25 Ijrochi direktorlar iborat. Direktorlar kengashi vakil hukumatlar tomonidan saylanadi. Bu muassasa o'rta-daromad va kredit past daromadli mamlakatlarda davlatlari, jumladan, rivojlanayotgan davlatlarga, tahliliy, texnik va maslahat xizmatlari, bilan birga moliyaviy resurslarini taqdim etadi.

Xalqaro qayta qurish va rivojlanish banki 1944 yil tashkil etilgandan buyon, Jahon banki yagona institutga ko’paydi va rivojlanga 5 ta institutlar grupasini o’zida jamladi. Bizning missiya XTTB orqali urush orqali vayron bo’lgan davlatlarni qayta qurish va rivojlantirish bugungi kunda dunyo bo’ylab qashshoqlikni oldini olish ishlarini Jahon bankining boshqa institutlari bilan birgalikda amalga oshirish.

Xalqaro Moliya korparatsiya Xalqaro Moliyaviy mussasa bo`lib uning mijozlari yani taklif kriitilib ochilish sababchilari bo`lib invistitsiyaga

yo`naltirilgan tashkilotlar, muassasalari,maslahat ya`ni konsalt tashkilotlari asosiy vositalar ta`minotiga yto`naltirilgan tashkilotlar ,xususiy sektorlarni yo`naltirish muassasalari bo`lib rivojlangan mamlakatlarda tashkil topgan.

Xalqaro Moliyaviy korparatsiya bu Jahon bankining bir a`zosi hisoblanib boshqaruv markazi Washington da AQSH da joylashgan.

1956 yilda Xalkaro tiklanish va tarakkiyot banki (XTTB) ning filiali tarzida tashkil etilgan, keyinchalik mustaqil yuridik shaxs. A'zo davlatlar soni 184 ta (1998). Shtabkvartirasi Vashingtonda. Korporatsiyaning rasmiy maqsadlari: xususiy sektorga molshshiy yordam ko'rsatish bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning iqgisodiy o'sishiga ko'maklashish, shuningdek, i.ch. sohasida tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali a'zo mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga yordam ko'rsatish. XMK faqat yuqori rentabelli loyihalarga kreditlar ajratadi. Qarzlar 15 yilga qadar muddat bilan ssuda kapitali bozoridagi o'rtacha yillik foiz stavkalaridan yuqoriroq foiz stavkalarida beriladi.

1961 yildan korporatsiya kreditlar ajratish bilan birga qurilayotgan korxonalar aksiyadorlik kapitaliga investitsiyalar kiritish va keyinchalik bu aksiyalarni xususiy investorlarga sotishni ham amalga oshiradi. Korporatsiya ishtiroki hissasi, odatda, aksiyadorlik kapitalining 1/5 qismidan ortiq bo'lmaydi. 1986 yilda XMKda xorijiy investitsiyalar bo'yicha Maslahat xizmati tashkil etilgan. Bu xizmat hukumatlarga uzoq muddatli rivojlanish ehtiyojlari uchun kapital jalb etish, maqbul investitsiya muhitini yaratish uchun qonunchilik, strategiyalar, qoida va tartiblar masalalarida maslahatlar beradi. XMK moliyalashtirishda hukumatlar kafolatlarini qabul qilmaydi va xususiy moliya tuzilmasi tarzida o'zining moliyaviy va boshqa xizmatlarini bozor narxlarida taqdim etadi.

XMK tashkil etilgan paytdan boshlab 2004 yilgacha jahonning 140 ta rivojlanayotgan davlatlarining 2825 ta kompaniyasini moliyalashtirish uchun 34 mlrd. AQSH dollaridan ortiq mablag'larini yo'naltirgan.

2002 yilda Toshkentda XMKning missiyasi ish boshladi. Korporatsiya O'zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirishga, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga muhim hissa qo'shib kelmoqda. 2002 yilda XMK Uzbekistan, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash uchun 45,0 mln. AQSH dollari ajratdi.

XMK faoliyatining asosiy yo'nalishlari

- Davlat tomonidan kafolatni talab qilmagan holda, MFKning mablag'larini xususiy korxonalarga investisiya qilish, qarzga berish yo'li bilan tadbirkorlikni moliyalashtirish.
- O'zining xususiy mablag'idan sanoatni, qishloq xo'jaligini, kommunal korxonalarni, turizmni investitsiyalashtiradi.
- Atrof-muhit himoyasi, infrastrukturani rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarga investitsiya kiritish uchun xususiy mablag'larni jalb qilish
- Kichik biznesda tadbirkorlikni rivojlantirish
- Ishlab chiqarishni yangi usullarini o'rganishda xususiy va arlash korxonalarga yordam ko'rsatish.

Xalqaro taraqqiyot uyushmasi Jahon bankining bir qismi bo'lib, dunyoning qashshoq mamlaktlariga yordam beradigan tashkilot. Uning maqsadi kreditlar

berish orqali kambag’allik darajasini kamaytirish , iqtisodiy rivojlantirish uchun turli xil grant dasturlar ishlab chiqish, tengsizliklarni qisqartirish, va aholi yashash darajasini yaxshilash. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki qashshoq malakatlarda biznesni qo’llab quvatlash, kriditlar ajratish,maslahatlar berish funksiyalarini bajarish uchun tashkil qilingan.

XTTBdan qarz ololmaydigan qashshoq mamlakatlar uchun kreditlar ajratadi. Bu kam taminlangan mamlakatlar uchun imtiyozli kridit ajratishning yirik manbasi hisoblanadi.

XTU dan qarz olishi mumkin bo’lgan mamlakatlar quydagi kreteriya asosida aniqlanadi

- YaMMni aholi jon boshiga taqsimlagada qashshoq deb ataladigan mamlakatlar
- Kredit bozorida kreditning yetishmasli va mamlakat rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun kreditga muhtojlik mavjud mamlakatlar
- Qashshoqlikni kamaytirish va iqtisodiy o’sishga erishish uchun ijtimoiy-iqtisodiy sisosatni amalga oshirish

Xalqaro taraqqiyot uyushmasi Jahon bankining haqiqiy kreditlash qismi - Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankini to’ldiruvchi tashkilotdir. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki va Xalqaro taraqqiyot uyushmasi bir xil hodimlarga, bosh boshqarmalarga ega bo’lib, bir xil qatiy belgilangan standartlar asosida loyihalarni amalga oshiradi. Xalqaro taraqqiyot uyushmasi hozirgi kunda dunyoning 77 qashshoq mamlakatlarining asosiy ko’mak manbasi hisoblanadi. Bu davlatlarning 39 tasi afrikada joylashgan bo’lib yordam manbalari asosan mamlakatdagi ijtimoiy xizmatlarga yo’naltirilgan.

Xalqaro taraqiyot assotsatsiyasi kreditlarni arzon narxlarda beradi. Buning ma’nosi XTA kreditlarni 0 % da yoki judayam past foiz stavkalarida 25-yildan 40-yilgacha muddatga hamda 5- yildan 10-yilgacha bo’lgan imtiyozli davrlar bilan beradi Bundan tashqari turli qarz risklari uchun grantar ajratadi va eng og’ir vaziyatlarda ham kreditlar ajratadi. Shuning uchun ham kredit uyushmalaridan farqli o’laroq bu tashkilotning rezervlari muntazam ravijshda to’ldirilib turilishi kerak.

Takidlanganidek, Xalqaro taraqqiyot uyushmasi dunyoning 77 mamlakati uchun asosiy ko’mak manbai bo’lib, 39 tasi Afrikada joylashgan. Xalqaro taraqqiyot uyushmasi resurslar orqali bugungi kunga kelib 1.3mln aholi yashash sharoitlari yaxshilandi.

2015-yilda belgilangan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga asosan 2030-yilga qadar kambag’allikka barham bermoqchi. Trillion dollor investitsiya kritilish kerak bo’lgan bu loyihani amalga oshirishda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi muhim ro’l o’ynaydi.

Xalqaro taraqqiyot uyushmasi o’z faoliyatini nizomda belgilangan quydagi shartlar asosida amalga oshiradi

XTU ushbu tashkilotga a’zo bo’lgan iqtisodiy jihatdan rivojlanishi past bo’lgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlantirish uchun moliyaviy mablag’lar bilan ta’minlaydi.

Loyihalarni moliyalashtirish assotsatsiya tomonida muhim deb hisoblangan sohalarga , mamlakat yoki hududlarga yo’naltiriladi.

Agar biron bir loyihani moliyalashtirishni o'sh hududlarda joylashgan bankalar tomonidan amalga oshirish mumkin bo'lsa assotsatsiya tomonidan moliyalashtirilmaydi.

Assotsatsiya qo'mita tomonidan beriladigan tavsiyalarsiz moliyalashtirishni amalga oshira olmaydi. Assotsatsiya tomonidan tayinlanadigan qo'mita a'zolari qomita boshqaruv organlarini va hududlardagi qo'mita rahbarlarini o'z ichiga oladi.

Qo'mita hududlarda loyihalarni amalga oshirishning boshqa manbalari mavjud bo'lsa bu hududlardagi loyihalar uchun mablag'lar ajratmaydi.

Moliyalash jarayonini amalga oshirishda berilayotgan mablag'lar uchun hech qanday shartlar qo'yilmaydi. Lekin ularni belgilangan maqsadlarga ishlatilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi.

Xalqaro taraqqiyot uyushmasini asosiy vazifalari:

1 Xalqaro taraqqiyot uyushmasi global muammolarni hal qilishda boshchilik qiladi.

2 Xalqaro taraqqiyot uyushmasi bu o'zgartiruvchi. XTU ko'plab mamlakatlarga rivojlanishning eski usullarida yangi usullariga o'tishga ko'maklashadi.

3 XTU bir mamlaklatda uni rivojlanishi stabil holatga kelishiga ishonch hosil qilish uchun uzoq muddat qoladi.

4 Qashshoq odamlar e'tibordan chetda qoldirilganda toza ichimlik suvini, elektr energiyasini va boshqalrni olib kelish orqali hayot darajasini yaxshilaydi

5 XTU ayollar va qizlar huquqini himoya qiladi, qizlarni maktabga qatnashini ta'minlash orqali jinsiy tenlikni ta'minlashga ko'maklashadi, ayollarga kichik biznessni amalga oshirish uchun ko'maklashadi.

Multilateral Investment Guarantee Agency (MIGA) (Xalqaro investitsiyalarni himoyalash agentligi) – bu siyosiy risklarni sug'urtalashni taklif qiladigan va va xalqaro kreditlardagi risklarni kafolatlaydigan xalqaro moliyaviy institutdir. Bu tashkilotning kafolatlari investorlarga rivojlanayotgan davlatlarga investitsiya kiritishda siyosiy va iqtisodga oid bo'lmagan risklardan qutilishga va tashqi ta'sirlardan qochishga yordam beradi. MIGA (XIHA) Jahon banki (World bank group)ning tarkibiy qismi hisoblanadi va shtab kvartirasi Washington shtati(AQSh)da tashkil etilgan.

Bu tashkilot 1988-yilda aynan rivojlanayotgan dvlatlarga investitsiyalar kiritish riskni va xavfni oldini olish hamda ular faoliyatini sug'urtalash uchun tashkil etilgan.

Xalqaro investitsiyalarni himoyalash agentligining bosh maqsadi "rivojlanayotgan davlatlarda investitsiyalarni jalb qilish natijasida iqtisodiy rivojlanish qo'llash, kambag'allik darajasi payastirish va aholining turmush darajasini yaxshilashga erishishdir. Bu maqsadli proyekt orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, infrotuzilmani yaxshilash, yangicha qulay soliq turlarini yaratish va albatta malakatlardagi mavjud natural resurslardan unumli foydalanishga erishish niyat qilingan. Bu maqsadga erishish uchun alohida tizimlar va dasturlar ishlab chiqiladi.

Xalqaro investitsiyalarni himoyalash agentligi o'z shtatining a'zolari tomonidan boshqariladi, leking uning o'zining yakka rahbari va kunlik

operatsiyalar bilan ishlaydigan ishchilar guruhi yo'q. uning aksiyadorlari davlatlar a'zolari hisoblanadi va ular masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega bo'ladilar. Bu tashkilot uzoq muddatli qarz va investitsiyalarni sug'urtalaydi va boshqa aktiv va shartnomalarni ham sug'urta qiladi. Bu agentlini jahon bankining Independent Evaluation Group tashkiloti tomonidan nazorat qilinadi.

1985-yilda, jahon bankining bank kengashi tomonidan ko'p tomonlama investitsiya kafolat agentligi (MIGA) konvensiyasini qabul qildilar. MIGA 1988-yil 12-aprelda asos solindi va o'z faoliyatini boshladi. Bu Yoshio Terasava boshchiligida amalga oshirilgan va bu tashkilot jahon bank guruhining beshinchi organizatsiyasi bo'ldi. MIGA dastlab 1milliard dollar(2012-yilda 1.94 millard dollarga teng)lik kapitalga ega bo'lgan va uning 29ta a'zosi bo'lgan. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining barcha a'zolari bu organizatsiya a'zosi bo'ldi.

MIGA rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiylar uchun notijorat risklarni sug'urtalashga harakat qiladi va investorlarning ishonchini oshirishga karakat qiladi. Organizatsiyaning siyosiy vakolati xususiy va milliy riskli sug'urta bozorini nafini oshirishdir. Har tomonlama kafolatlovchidek xizmat ko'rsatishi orqali agentlik investor mamlakat bilan qabul qiluvchi mamlakat o'rtasidagi qarama-qarshilik ehtimolini qisqartiradi.

MIGA notijorat riskining beshta turini qoplash uchun sug'urta taklif qiladi: kovertatsiyalanmaydigan valuta va transfer taqiqlari; milliylashtirish; urush, terrorizm va xalq tartibsizligi; shartnomaning bo'limlari; moliyaviy obligatsiyalarning qoniqarsizligi. Agentlik capital, kredit, aksionerlarning qarzi va aksionerlarining qarzini kafolatlari singari investitsiyalarni qoplaydi. Agentlik shuningdek menejment sharnomalari, aktiv sekuritizatsiyasi, obligatsiyalar, lizing faoliyati, franchiza shartnomalari va litsenziya shartnomalarini singari investitsiyalarni sug'urtalashi mumkin. Agentlik 15 yilgacha sug'urtani qoplashi mumkin va muddatni loyixaning tabiiy va moliyaviy holatiga bog'liq holatda yana besh yil berishi mumkin. Qachon sug'urta orqali himoyalanadigan holat yuz bersa, agentlik investitsiya kiritilgan mamlakatga nisbatan investorning huquqlari o'rganilib xarajatlarni birgalikda qoplaydilar. Ammo agentlikning konvensiyasida azo mamlakatlar chet el investitsiyalarini tuzatmasa ham bo'ladi. Ko'p tomonlama institute sifatida MIGA sug'urta talablarini qondirishdan oldin u baxslarni yechishga harakat qiladi.

Agentlikning kichik investitsiya programmasi kichi va o'rta biznesga chet el investitsiyalarini oshiri uning maqsadi hisoblanadi. Bu loyiha shartnoma bo'limlarini qoplamasligidan tashqari qolgan barcha standart polash turlarini taklif qiladi. Loyiha orqali kichik va o'rta bizneslar chegaralangan sug'urta haqlari va arizasiz to'lovlar (katta investorlar bundan mustasno)ga ega bo'ladilar.

17.4. O'zbekiston Respublikasining Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligi

O’zbekiston Respublikasining Xalqaro valyuta fondi (XVF) bilan hamkorligi

O’zbekiston Respublikasi 1992 yilning 21 sentyabrida Xalqaro valyuta fondining a’zosi bo’ldi. O’zbekistonning XVFdagi kvotasi 275,6 mln. SDRni tashkil etadi.

Ovoz berishda O’zbekiston Respublikasi Koreya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gvineya, Mongoliya, Vanuatu, Solomon orollari, Samoa, Seyshel orollari, Palau, Mikroneziya, Marshal orollari, Kiribatti, Tuvalu kabi 15 ta davlat guruhiga kiradi.

XVFning O’zbekistonda vakolatxonasi 1993 yilning sentyabridan ish boshladi.

XVF bilan hamkorlik asosan moliya sektorini rivojlantirish va makroiqtisodiy islohotlarni rag’batlantirishga qaratilgan.

1995-1996 yillar mobaynida XVF O’zbekiston Respublikasiga umumiy qiymati 165,2 mln. SDR bo’lgan kredit ajratdi, jumladan 99,75 mln. SDR tuzilmaviy qayta o’zgartirish mexanizmlari va 65,45 mln. SDR – «Stend-bay» kreditlarini tashkil etdi.

Ushbu kredit liniyalari tarkibiy va institutsional islohotlarni amalga oshirish va iqtisodiyotda bozor munosabatlarini rivojlantirishga doir davlat dasturlarini qo’llab-quvvatlashi yo’naltirildi. Moliyaviy sohaga ajratilgan mablag’lar ichki valyuta bozoridagi operatsiyalarni kengaytirish, bank tizimi qonunchiligi va to’lov tizimini takomillashtirishga qaratilgan edi.

2001 yilning sentyabr va 2006 yilning fevral oylarida «Stend-bay» va tuzilmaviy qayta o’zgartirish kreditlari bo’yicha oxirgi to’lovlar amalga oshirildi, natijada O’zbekiston Respublikasining XVF oldidagi kredit qaytishi bo’yicha majburiyatlari to’liq bajarildi.

2002 yilda O’zbekiston Respublikasi Hukumati, Markaziy bank va XVFning hamkorligi jarayonida so’mning ayirboshlashi va O’zbekiston bilan XVF o’rtasidagi Kelishuvning VIII moddasida ko’zda tutilgan «Iqtisodiy va moliyaviy siyosat bo’yicha Memorandum» va «Joriy xalqaro operatsiyalar bo’yicha milliy valyutani ayirboshlashni ta’minlash ish rejasi» ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

O’zbekiston va XVF o’rtasidagi konstruktiv muloqot Ish rejasida ko’zda tutilgan barcha choralarni bajarishga yordam berdi, natijada 2003 yilning 15 oktyabrida O’zbekiston Respublikasi tomonidan joriy xalqaro operatsiyalar bo’yicha milliy valyutani ayirboshlashini ta’minlash borasidagi VIII moddaning 2(a), 3 va 4 bo’limlari bo’yicha majburiyatni olishga erishildi.

Oxirgi yillarda XVF turli yo’nalishlar bo’yicha texnik ko’maklashuvni amalga oshirib keldi. Ulardan biri Markaziy bankka bank tizimida korporativ boshqaruvni yaxshilash borasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo’yicha ko’rsatilgan yordamdir.

XVFning tavsiyalariga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan «Tijorat banklarining kapital adekvatliligiga bo’lgan talablar to’g’risida», «Tijorat banklari tomonidan tuzilayotgan rezervlarni shakllantirish va foydalanish, aktivlar sifatini klassifikatsiyalash», «Tijorat bankning likvidlilik boshqaruviga bo’lgan talablar to’g’risida», «Banklar va ularga tegishli shaxslar o’rtasidagi bo’lgan operatsiyalar to’g’risida» va «Bir qarzdorning yoki o’zaro

aloqador qarzdorlar guruhining maksimal risk miqdori to'g'risida»gi nizomlarning yangi tahriri ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Ushbu o'zgartirishlar milliy qonunchilikda bank nazoratining halqaro talablarini (Bazel III) maksimal darajada hisobga olinishga sharoit yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi UP-4720-sonli «Aktsiyadorlik jamiyatlarda zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PP-2344-sonli «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan hamda Xalqaro valyuta fondining tavsiyasiga muvofiq Markaziy bank tomonidan «Tijorat banklaridagi korporativ boshqaruvi to'g'risida»gi Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu Nizomga muvofiq davlat mulkchilik ulushidan qat'i nazar, barcha tijorat banklariga korporativ boshqaruvidagi printsiplarga amal qilish bo'yicha muayyan talablar o'rnatildi.

Xalqaro valyuta fondi missiyasi O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga va Markaziy bankga konsultatsiya o'tkazish hamda texnik ko'maklashish maqsadida doimiy ravishda tashrif buyuradi. Missiyaning faoliyati iqtisodiyot sohasining ahvolini, moliya sektori va statistikani o'rganish hamda istiqboldagi iqtisodiy islohotlar yo'nalishini aniqlashga qaratilgan.

17.1-jadval.

XVFning O'zbekistondagi texnik ko'maklashish missiyasi[167]

STA	Milliy hisob-varaqlar, narxlar va hisob-varaqlar balansi statistikasi	May 2007
LEG	AML/CFT	Yanvar, Mart/Aprel 2009
FAD	Davlat byudjeti boshqaruvi	Fevral 2010
FAD	Inspektsiya	Iyun 2007, Oktyabr 2008, Noyabr/Dekabr 2009, Iyun, Sentyabr 2011
STA	Pul-kredit va moliya statistikasi	Fevral 2011
MCM	Bank nazorati	May/Aprel, Oktyabr 2012, Fevral 2013
STA	Umumiy ma'lumotlarni ommalashtirish tizimi	Mart 2013

[167] www.cbu.uz (Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий сайти)

STA	Pul-kredit va moliya statistikasi	May 2013
FAD	Soliq muassasasi	Mart, Oktyabr 2013
STA	Davlat moliya statistikasi	Sentyabr/Oktyabr 2013
MCM	Tijorat banklardagi korporativ boshqaruv	Aprel/May 2014

O’zbekiston Respublikasi va Jahon banki o’rtasidagi hamkorlik

1992 yil sentyabr oyida O’zbekiston Respublikasi Jahon bankiga to’la huquqli a’zo bo’ldi.

O’zbekiston Respublikasi Ozerbayjon, Qozog’iston, Qirg’iziston, Polsha, Serbiya, Shveytsariya, Tojikiston hamda Turkmaniston davlatlari bilan bir qatorda Jahon bankining Shveytsariya a’zo-mamlakatlar guruhiga kiradi.

Jahon bankining O’zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligidir.

1992 yil sentyabr oyida Toshkentda Jahon bankining vakolatxonasi ochildi.

2014 yil dekabrdan boshlab vakolatxonaga Junxun Cho rahbarlik qilib kelmoqda.

17.2-jadval.

Jahon banki tuzilmasidagi aktsiyalar va ovozlar soni[168]

Tashkilot	A’zo bo’lgan sana	Aktsiyalar soni	Ovozlar soni
XTTB	1992 yil 21 sentyabr	249,3 mln.dollar (0,12%.)	3149 (0,14%)
XMK	1993 yil 30 sentyabr	3,873 ming. dollar (0,15%)	4693 (0,17%)
XTA	1992 yil 24 sentyabr		73 936 (0,29%)
KIKA	1993 yil 4 sentyabr		401 (0,18%)

O’zbekistonning Jahon banki bilan hamkorligi «Davlatga ko’maklashuv strategiyasi» hujjatida aks etgan yondashuvlarga asoslangan. Har uch yilda ishlab chiqiladigan strategiyada mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo’nalishlari,

[168] www.cbu.uz (Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий сайти)

mamlakat iqtisodiyotining samaradorlik ko'rsatkichlari va Jahon banki tomonidan kreditlash, tahlil, texnik ko'mak berishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olinadi.

O'zbekiston Respublikasi va Jahon bankining 2016-2020 yillardagi hamkorlik strategiyasi umumiy qiymati 5,78 mlrd. AQSh dollarga teng bo'lgan 31 ta investitsion loyiha amalga oshirilishini ko'za tutgan, jumladan Jahon banki tomonidan beriladigan kredit miqdori 3,5 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lib, shundan elektroenergetikani modernizatsiyalash va sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirishga (1668 mln. dollar), transport infratuzilmasini (457 mln. AQSh dollar) va sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlarini modernizatsiyalashga (211 mln. AQSh dollar), kommunal infratuzilmani rivojlantirishga (507 mln. AQSh dollar), neft va gaz sanoatini rivojlantirishga (225 mln. AQSh dollar), ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga (95 mln. AQSh dollar), axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga (20 mln. AQSh dollar) va tijorat banklariga (320 mln. AQSh dollar) kredit liniyalarini ajratish rejalashtirilgan.

Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki (XTTB) va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA) bilan hamkorlik

1993 yildan boshlab Jahon banki XTTB va XTAning 31 ta loyiha uchun kreditlar, texnik ko'maklashish bo'yicha 31 ta loyihaga grant taqdim etilishini tasdiqlagan, shundan 14 investitsion loyiha va 28 grant loyihalari amalga oshirildi. Jahon banki tomonidan tasdiqlangan yuqoridagi loyihalar va grantlar uchun jami 2592,4 mln. AQSh dollar ajratilgan bo'lib, uning 969,5 mln. AQSh dollarini kreditlar tashkil etib, ularning (2015 yil 1 avgust holatiga) 394,4 mln. AQSh dollar qoplangan. Hozirgi kunda Jahon bankining umumiy qiymati 2036,04 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan 20 ta loyiha va granti amalga oshirilmoqda.

Jahon bankining loyihalari 2012-2015 yillar strategiyasiga muvofiq iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari - qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, energetika, suv ta'minoti, transport, ta'lim va davlat boshqaruvi yo'nalishlarida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirishiga oid muhim loyihalari institutsional kredit, reabilitatsion kredit va moliya institutlarini rivojlantirishga qaratilgan kreditlar hisoblanadi.

1993 yil oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi tarkibiy tuzilmasini qayta tiklash maqsadida texnik ko'maklashish doirasida umumiy 21 mln. AQSh dollar miqdoridagi kredit shartnomasi (institutsional kredit) imzolandi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirishga oid asosiy vazifalar mustaqil ekspertlar tomonidan tijorat banklari tizimini keng qamrovli tahlildan o'tkazish va baholash, tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishning mavjud tuzilmalarini rivojlantirish, audit, buxgalteriya hisobi va hisobotini yangi tizimga o'tkazish, tashqi qarzni boshqarish bo'linmalarini tashkil etish, banklararo kompyuter tarmog'ini yaratishdan iborat edi.

Ushbu loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar natijasida O'zbekiston Respublikasi bank tizimining buxgalteriya hisoboti va auditi isloh qilindi. «Artur Andersen LLP» audit firmasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti bilan birgalikda 1997 yil aprelidan beri respublika bank tizimi ishlab kelayotgan buxgalteriya hisobining yangi hisob rejasini ishlab chiqdi.

«Siemens» kompaniyasi tomonidan telekommunikatsiya va kompyuter uskunalari etkazib berilishi va ularning viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida o'rnatilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida yagona to'lov tizimini yaratishga olib keldi.

«Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi» Qonunning loyihasi ishlab chiqildi va Markaziy bank tarkibida tashqi qarzni boshqarish uchun mas'ul bo'lim tashkil etildi.

«Deloit & Touche», IDMAG va «Artur Andersen LLP» kompaniyalarining konsultativ yordami bilan bank tizimini nazorat qilish takomillashtirildi, tijorat banklarining aktiv va passivlarni, qimmatbaho qog'ozlarni, rejalashtirish va marketing, muammoli qarzlarni boshqarishiga o'zgarishlar kiritildi.

Reabilitatsion kredit

1995 yil mart oyida XTTB tomonidan O'zbekiston Respublikasi uchun jami 160 mln. AQSh dollarga teng bo'lgan reabilitatsion kredit ajratilishi tasdiqlandi. Reabilitatsion kreditining asosiy vazifalari tarkibiy islohotlar dasturini qo'llab-quvvatlash, valyuta bozorini rivojlantirish, milliy valyutaning mustahkamlanishini ta'minlash, importni moliyalashtirish uchun chet el valyutasi kamomadligini kamaytirishdan iborat edi. Kredit malbag'lari 1996 yil iyun oyiga qadar to'liq o'zlashtirib bo'lindi, natijada valyuta birjasi ishtirokchilari sonini oshirish yo'li bilan valyuta bozori aylanmasi sezilarli ravishda ko'payishiga xizmat qildi, savdolarni o'tkazishning tashkiliy shakllari takomillashtirildi.

Moliya institutlarini rivojlantirishga qaratilgan kreditlar

1999 yil may oyida XTTB tomonidan jami 25 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan moliya institutlarini rivojlantirishga qaratilgan kredit ajratilishi ma'qullandi. Loyihani amalga oshirish uchun 1999 yil avgustida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qoshida Moliya sohasini rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Loyihaning asosiy maqsadi tijorat banklarini institutsional jihatdan mustahkamlash, bank tizimi me'yoriy-huquqiy bazasini yaxshilash, axborot tizimini takomillashtirish, banklarni xususiylashtirish va qayta tashkil etish edi.

Bank tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash uchun:

6 tijorat bankiga (O'zsanoatqurilishbank, O'zuyjoyjamg'armabank (Ipotekabank), Asakabank, Paxtabank (Agrobank), Hamkorbank va Ipak Yo'li banki)ga strategik va biznesni rejalashtirish, kredit va g'aznachilik tavakkalchiliklarini boshqarish, buxgalteriya hisobi, boshqaruv axborot tizimi va ichki audit masalalarida texnik yordam ko'rsatildi.

Tijorat banklarining mutaxassislari uchun buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish, ichki audit va nazorat, avtomatlashtirilgan kredit tahlili va boshqaruv axborot tizimi yo'nalishlarida turkum o'quvlar tashkil etildi.

Ichki audit mutaxassislari bilan birgalikda 11 tijorat bankining asosiy boshqarmalari sinov auditidan o'tkazildi va ichki audit xizmatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalar berildi hamda ichki auditni o'tkazishga doir kerakli yo'riqnomalar ishlab chiqildi.

Texnik ko'mak, shuningdek, bank tizimining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishga ham berildi. To'rt asosiy yo'nalish (garov mulkini suddan

tashqari undirish, banklarni tugatish, bank xoldinglari va nobank kredit institutlarini tashkil etish) qonun loyihalari ishlab chiqildi.

Loyihaning eng yirik yo'nalishi bank tizimining telekommunikatsiya tarmog'ini modernizatsiyalash va to'lov tizimini takomillashtirish edi. To'lov tizimining yangi tizimi hisob-kitoblarni real vaqt rejimida olib borishga sharoit yaratdi, natijada banklar faoliyati samaradorligi sezilarli darajada ortdi va tavakkalchiliklarini minimal darajaga tushirishga imkon berdi. Tijorat banklari va Markaziy bankni bog'lab turadigan telekommunikatsiya tarmog'i yagona balans taqdim etilishini ta'minlab berdi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) bilan hamkorlik

Xalqaro moliya korporatsiyasi o'z faoliyatini Jahon bankining mamlakatdagi strategiyasiga muvofiq tarzda amalga oshirib kelmoqda va e'tiborini asosan xususiy sektordagi loyihalarga qaratmoqda.

XMK 1996 yildan boshlab O'zbekistonga xususiy ishlab chiqarish va moliya sektorini qo'llab-quvvatlash maqsadida 23 investitsion va bir qator konsultativ loyihalarga jami qiymati 130 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan kreditlar ajratdi. Ushbu loyihalar bo'yicha qarzni qaytarilishi 80,7 mln. dollarga teng.

Hozirgi paytda investitsion portfeli 38,5 mln. dollarga teng loyihalar amalga oshirilish bosqichida turibdi.

XMKning investitsion faoliyati «O'zbek lizing» lizing kompaniyasi va «Hamkorbank» tijorat bankining aktsiyalariga mablag'lar sarflash, «Asaka bank» va «Hamkorbank» tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirishga kreditlar ajratishdan tarkib topgan.

Mamlakatga ko'maklashish strategiyasi (MKS) qabul qilingandan buyon XMK investitsiyalarining qariyb 70 foizi savdoni moliyalashtirish sektorida amalga oshirildi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratgan kreditlari eng muhimdir.

Investitsion loyihalardan tashqari, XMK 2009 yildan buyon mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida bir qancha konsultativ loyihalarni amalga oshirib, investitsiyalardan oqilona foydalanish bo'yicha texnik ko'mak berib kelmoqda. 2012-2015 yillarga mo'ljallangan strategiyaga muvofiq moliya va soliq infratuzilmasini, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, sayyohlik va davlat boshqaruvi sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan konsultativ loyihalar amalga oshirildi.

XMK 2009 yilda Shveytsariya hukumati bilan birgalikda Markaziy Osiyo (Qirg'izston, Tojikiston va O'zbekiston) va Ozarbayjonda moliyaviy inftratuzilmani mustahkamlashga qaratilgan loyihani (ACAFI) amalga oshira boshladi. Loyiha davomida kredit axboroti almashinuvining samarali tizimini yaratish, professional ta'limni joriy qilish va tavakkalchilikni boshqarish sohasida moliya institutlari xodimlarini sertifikatlash ko'zda tutilgan.

Loyihada asosan kredit axboroti almashinuvi tizimining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish ko'zda tutilgan edi, natijada kredit axborotlari almashinuvi bo'yicha jahon tajribalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining «Kredit axboroti almashinuvi» to'g'risidagi Qonuni va boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlari qabul qilindi.

Qonun qabul qilinishi bilan 2012 yil mart oyida O’zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi 30 tijorat banki bilan birgalikda ustav kapitali 673 ming dollarga teng bo’lgan Kredit byurosini ta’sis etdi.

ACAFI loyihasi 2012 yildan buyon ta’minotli bitimlar operatsiyalarini isloh qilish vazifalari doirasida O’zbekiston Respublikasining «Garov reestri to’g’risida»gi Qonunini ishlab chiqish va moliya institutlarining ta’minotli bitimlar operatsiyalari instrumentlaridan foydalanish salohiyatini kuchaytirishda yordam berdi. Bu ish O’zbekiston Respublikasi Hukumatining Jahon bankining guruhiga O’zbekistonda investitsion muhitni yanada yaxshilash va mamlakatning Biznesni yuritish (Doing Business) hisobotidagi reytingini oshirish talabiga binoan olib borilmoqda. O’zbekiston Respublikasining «Garov reestri to’g’risida»gi Qonuni 2014 yil 1 iyuldan kuchga kiritildi.

Loyiha ta’lim sohasidagi mahalliy hamkorlar yordami va Tavakkalchiliklarni boshqarish xalqaro professionallar assotsiatsiyasi (GARP) bilan tuzilgan bitimga asosan Tavakkalchiliklarni boshqarish dasturini o’z ichiga olgan. Tavakkalchiliklarni sertifikatsiyalash dasturi bank tizimi xodimlarining tavakkalchiliklarni boshqarish borasidagi bilim va ko’nikmalarini takomillashtirishga yo’naltirilgan.

XMK fermerlar uchun xususiy moliyaviy mahsulotlarni rivojlantirish agro-moliyalashtirish loyihasi doirasida korporativ boshqaruvni yaxshilash va rivojlantirish bo’yicha «Hamkorbank»ka konsalting xizmatlari ko’rsatdi. E’tiborli jihati shundaki, bankning agro-kreditlash portfeli 2013 yil sentyabr oyidan 2014 yilning dekabr oyiga qadar 400 ming dollardan 15 mln. dollarga o’sdi.

2009 yili XMK sog’liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy hamkorligi loyihasi doirasida konsalting xizmat ko’rsatishni ma’qulladi. Xususan, XMK O’zbekistonda tibbiy diagnostika markazlarini loyihalash, qurish, moliyalash, jihozlash va boshqarish uchun investorlarni jalb qilishga yordam berdi.

Shuningdek, XMK 2012 yildan buyon O’zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo’mitasi bilan auditning tavakkalchiliklarga asoslangan axborot-texnologik echimlarini amalga oshirish va rivojlantirish loyihasi bo’yicha hamkorlik qilib kelmoqda. DSQ soliqlarni pasaytirish tavvakalchiligini yoki qallobliklarni aniqlash uchun auditning tavakkalchiliklarga asoslangan tizimidan foydalanib kelmoqda. Bu esa o’z navbatida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari uchun soliq rasmiyatchiligini soddalashtirdi.